

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi

Toshkent Moliya instituti

**M. Sharifxo'jaev
Z. Davronov**

**Ma'naviyat asoslari
(o'quv qo'llanma)**

Toshkent – 2006

«Ma’naviyat asoslari» fanidan tayyorlangan ushbu qo’llanma O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim Vazirligi tomonidan tasdiqlangan «Ma’naviyat asoslari dasturi»ga rioya qilingan holda yozilgan. Qo’llanmada ko’proq Sharq ma’naviyati va madaniy merosi, xususan, o’zbek xalqi mentalitetiga mos va xos jihatlar, yoshlarda yuksak ma’naviyat shakllanishining tarkibiy qismlari va rivojlanish qonuniyatlari yoritilgan.

Qo’llanma Oliy o’quv yurti talabalari va keng o’quvchilar ommasi uchun mo’ljallangan.

KIRISH

O'zbekiston katta shonli tarixga ega. Uning o'tmishini loyga, kuyaga chaplaganlar ham bo'ladi. Eslasang, sobir ittifoq davrida Amir Temurga «bosqinchis» deb nom bergan edilar. Vaholanki, Amir Temuring xizmati Jordano Bruno, Kopernik, Galileynikidan ziyod bo'lsa ziyod ediki, kam bo'limgan. Matematika, kibernika ilmining asoschisi Al-Xorazmiy, ulug' alloma Mirzo Ulug'beklar haqida maktablarimizda ma'lumot berilsa-da, Kopernik, Galiley yoki deylik Arximed, Nyuton kabi boshqa davlatdag'i tarixiy shaxslar ixtirosi haqida ta'lim berilardi.

Endi O'zbekistonning buguni xususida. Uning mustaqilligini 170 ortiq davlatlar tan oldi. U jahon hamjamitida o'z o'rniiga ega. Prezidentimizning xalqaro nufuzli tashkilotlar yig'ilishlarida ishtirok etishi, ma'ruzalar bilan chiqishi zamirida ulkan haqiqat bor: dunyo uzra o'zbek degan millatning ham o'z o'rni, mavqeい bor.

Mustaqillik tufayli ma'naviy merosimz yuzaga chiqa boshladi. Dolzarb mavzu sanalmish yosh avlodni tarbiyalash, asosiy maqsadlarimizdan biriga aylanib bormoqda va bunda yurtboshimizning sa'y-harakati bilan mustaqillikka erishganimizdayoq, masalaga jiddiy e'tibor qaratililayotganligini olib borilayotgan ishlar misolida ko'rayapmiz.

Ushbu qo'llanmada «Ma'naviyat assoslari» fanining hozirgi ahvoli kelajakdagi rivoji tahlil qilinadi. Nazariy va amaliy tomonlari haqida mualliflar fikr almashadilar. Ular ma'lum darajada yangi ma'lumotlarni berishga harakat qiladilar. Muammoni zamona nafasi bilan bog'lashga intiladilar. Yoshlarda yuksak ma'naviy tafakkurni shakllantirish har bir etuk insonni sharaflı burchi ekanligini ta'kidlaydilar. Binobarin, qurayotgan yangi jamiyatimiz taraqqiyoti aynan, yuksak ma'naviyatli shaxslarga suyangan holda bunyod etiladi. Har qanday etuk mutaxassis qanchalik bilimli, ilmli bo'lmasin, unda milliy, umuminsoniy qadriyatlar, yuksak ma'naviyat mujassamlashgan bo'lishi lozim. Respublika Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek: «Xalqimizning asrlar osha yashab kelgan an'analari, urf-odatlari, til va ruhi negiziga qurilgan milliy mustaqillik mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda kelajakka ishonch tuyg'usini odamlar qalbi va ongiga etkazishi, ularni Vatanga muhabbat, insonparvarlik ruhida tarbiyalashi, halollikni, mardlik va sabr-bardoshlikni,adolat tuyg'usini, bilim va ma'rifatga intilishni tarbiyalash yo'lida xizmat qilmog'i lozim»¹. Zero, shunday ekan, qo'llanmada «Ma'naviyat va ma'rifat»ning eskirmasligi, uning hamisha dolzarb ekanligi ta'kidlanib, yoshlarimizning ma'naviy, ruhiy dunyosini boyitishga alohida e'tibor qaratilgan. Binobarin, «ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat va axloq haqidagi asarlarni ko'plab chop etish, ayniqsa, madaniy meros bilan birga yangilanayotgan bugungi turmush tarzini va yangicha tus olayotgan jamiyatimiz mazmun-mohiyatini teranroq yoritish, kengroq o'rganish muhimdir»².

¹ Karimov I. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. - T.: O'zbekiston, 1996, 3-tom, 283-bet.

² Karimov. I. O'zbekiston Fanlar Akademiyasining umumiylig yig'ilishida 1994 yil 7 iyulda so'zlagan nutqi. - T.: "O'zbekiston, 1996, jild II, 261-bet.

Qo'llanma, hozirgi zamon o'quv-qo'llanmalariga qo'yiladigan talablarga rioya qilingan holda tayyorlandi. Jumladan, unda tayanch iboralar, mavzularga oid allomalar, buyuk shaxslar fikrlaridan namunalar, o'zini tekshirish hamda bilim sohasidagi saviyasini oshirish uchun test savollari, adabiyotlar ro'yxatlari berildi. Zero, bunday yondashish har bir o'quvchida ma'naviy jihatlarni to'laroq shakllanishiga ta'sir etadi, degan umiddamiz.

«Ma'naviyat asoslari» qo'llanmasi dastlabki ishlardan bo'lganligi uchun mualliflar, qo'llanmani o'ta mukammal deb da'vo qilmaydilar, albatta. Ular qo'llanmani takomillashtirish yuzasidan bildirilgan fikr va mulohazalarni chin dildan qabul qiladilar.

Birinchi bob. «Ma’naviyat asoslari» fanining predmeti, rivojlanish qonunlari, tushunchalarini va jamiyat taraqqiyotida tutgan o’rni

1-mavzu: «Ma’naviyat asoslari» fanining predmeti va uning jamiyat hayotidagi o’rni

1.1. Ma’naviyat va ma’rifatning mohiyati, ta’riflari

Fanning bahs yuritadigan yo’nalishlari, uning qonun-qoidalari va tushunchalarini aniqlash o’ta muhimdir. «Ma’naviyat asoslari» fanining shu jihatlarini mazkur mavzuda yoritish ayniqsa dolzarbdir.

«Ma’naviyat asoslari» fanining asosiy vazifasi komil insonni shakllantirishga asosiy hissani qo’shish bo’lib, bu fan xalqimizning bosh ma’naviy va madaniy merosiga asoslanadi. Zero, komil inson tushunchasi insonning iqtisodiy, siyosiy, ilmiy faoliyatlarini bilan bog’lanib ketadi. Komillik xarakteri bilan qurollangan shaxs jamiyatni barkamol qilib rivojlantiradi, o’zgartiradi. Insonlar faoliyatini ijobjiy tomonlarga etaklaydi. Ana shu ezgu niyatlarni amalga oshirish maqsadida Prezident I.A.Karimov «Turkiston» gazetasi muxbiriga bergen javoblarida shunday fikri aytdi: «Endi oldimizda nihoyatda muhim, kelajagimizni hal qiluvchi yangi vazifa turibdi. Bu vazifa erkin fuqarolik jamiyatining ma’naviyatini shakllantirish, boshqacha aytganda, ozod, o’z haq-huquqlarini yaxshi taniydigan, boqimandalikning har qanday ko’rinishlarini o’zi uchun or deb biladigan, o’z kuchi va aqliga ishonib yashaydigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarni xalq, Vatan manfaatlari bilan uyg’un holda ko’radigan komil insonlarni tarbiyalashdan iboratdir¹».

Bu fikrlardan ayon bo’ladiki, Prezident etuk insonning ichki va tashqi qiyoqasini nazarda tutib, ozod, erkin, o’z haq- huquqlarini ajrata oladigan, munosib yashash uchun, o’zining kuch-qudrati va bilimlarini harakatga keltiradigan, o’z manfaati bilan jamoa, jamiyat manfaatlarni mushtarak holda biladigan odam faoliyatini izohlaydi. Binobarin, yuksak ma’naviy, barkamol, a’lo ahloqiy xususiyatlarga ega bo’lgan bunday shaxslardaadolat his-tuyg’usi takomillashgan bo’lib, yaxshilik, shafqat va muruvvat, savobu-sahovat, hurmatu-kamtarinlik jiddiy xislatga aylangan bo’ladi.

Tarixdan ma’lumki, bir jamiyatdan ikkinchi jamiyatga o’tish davri har qanday mamlakatda ham osonlikcha kechgan emas. Mamlakatlarda moddiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy o’zgarish bo’lishi bilan birga ma’naviy o’zgarishlar ham ro’y bergen. Ayniqsa, ma’muriy-buyruqbozlik tizimiga asoslangan totalitar tuzumdan bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyatga o’tish davrida bu jarayon yaqqol seziladi. Chunki, bu davrda insonlarning nafaqat turmush tarzi, balki ularning ongi ham o’zgara boshlaydi. Binobarin, demokratik jarayonlar yuqori bosqichga ko’tarila borgani sababli, ularning dunyoqarashi ham o’zgaradi.

Bu paytda vijdon erkinligi masalasiga yondashish ham kun tartibida turli muammolarni keltirib chiqaradi. Siyosiy jarayonlarni oladigan bo’lsak, ko’p partiyaviylikka ehtiyoj tug’iladi. Yagona mafkuraviylikka chek qo’yilib turli

¹ Islom Karimov. Biz kelajagimizni o’z qo’limiz bilan quramiz. 7-tom, 304-bet.

mafkulalar haqida fikr yuritila boshlanadi. Ya’ni plyuralizm (ko’p fikrlilik) yo’nalishi paydo bo’ladi. Xususiy mulkning roli kuchayadi. Ijtimoiy guruhlar tuzilishi jihatidan ham, xarakteri jihatidan ham o’z mavqeini o’zgartiradi. Yangi sinf – tadbirkorlar sinfi shakllanishi uchun zamin yaratila boshlanadi. Jamoat, davlat, xususiy mulk tuzilishi ham makonda, ham zamonda yangi xarakterga ega bo’la boshlaydi.

Jamoat tashkilotlarining nafaqat miqdori, balki ularning vazifalari, sifati ham o’zgaradi. Qiziqarlisи shuki, insonlarning qalbida yangicha yashash ehtiyoji kuchli tus oladi. Mustaqil fikrlashga o’tadilar. Insonlarning ongida tabiiy holda o’z qadriyatlarini, ma’naviy merosini qayta qurish va tahlil qilish ishtivoqi tug’iladi, shuningdek, o’zlikni anglash, kim edigu, kim bo’lamiz, degan savollar qiziqtira boshlaydi, ma’naviy siljish ro’y beradi. Qadriyatlarning nima ekanligi, milliy iftixor, Vatan tuyg’usi, ozodlik, tenglik, birodarlik, O’zbekiston davlati kabi tushunchalar shu vaqtga qadar ham o’z mazmuniga ko’ra keng bo’lgan bo’lsa ham, ular yanada serjilo, serqirrali bo’la boshlaydi.

Endilikda o’zbek tiliga munosabat o’zgarib unga davlat tili maqomi berilgandan so’ng millionlar qalbini ijobiy to’lqinlantirib yubordi. O’n yilliklar davomida o’z tili, san’ati, dini, urf-odatlari, qadriyatlar, o’z-o’zligi, foydali qazilma-yu boyliklaridan ajralayozgan xalq qaddini ko’tara boshladi. Bu jarayonlarning barchasi inson faoliyati bilan bog’langanligi endilikda turli muammolarni keltirib chiqardi. Ta’lim-tarbiya sohasini tubdan isloh qilishga to’g’ri keldi. Yangi davrda ishlaydigan xodimlarni tarbiyalash, voyaga etkazish sohalari dolzarb bo’lib qoldi. Barcha xatti-harakatlar inson faoliyatiga ko’ra qayta ko’rib chiqishga qaratila boshlandi. Uning turmush tarzini qayta ko’rib chiqish uchun respublika Prezidenti va hukumati barcha imkoniyatlarni ishga sola boshladilar. Mamlakatning ichki va tashqi siyosatini tubdan o’zgartirishga to’g’ri keldi. Sobiq ittifoq davridagi o’zaro munosabatlar yangicha xarakterga ega bo’la boshladi. Respublika qanchalik boy salohiyatga, boyliklarga ega bo’lmisin, sobiq ittifoq davrida ijtimoiy sohalar bo’yicha 15 ta respublika ichida eng oxirgi o’rinlardan biridaligi sezilib qolindi. Xullas, respublika xalqining turmush tarzini qayta qurish uchun jiddiy harakat boshlanib ketdi. Yosh, mustaqil davlat o’z Konstitutsiyasiga ega bo’lib, Birlashgan Millatlar Tashkilotidan ham munosib o’rin egalladi.

Bu o’zgarishlarga tepasida I.A.Karimov bosh-qosh bo’ldi. «Karimov jamiyat osoyishtaligini buzishga olib keladigan, bilibmi-bilmaymi qilingan har qanday harakatni, ijtimoiy omillarni, kuchlarni payini qirqish bo’yicha juda ham pishiq-puxta, bir tekis ish ko’rdi...»¹. Ushbu fikrda ko’proq I.A.Karimovning xalqimiz barqarorligi, tinch va osoyishta hayotini ta’minalashga qaratilgan harakati to’g’risidagi ma’no yotsa-da ma’naviy, ma’rifiy sohalar ham shu harakat bilan bog’liqdir. Aytish joizki, hali mustaqillikning ilk davridayoq «Xalqning ma’naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish O’zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir»¹ – deb ta’kidlandi.

Shu boisdan ham «Ma’naviyat asoslari»ga e’tibor kuchaydi. Uning aholini tarbiyalashdagi o’rnini belgilash kun tartibiga kiritildi.

¹ Levitin L., Islom Karimov – Yangi O’zbekiston Prezidenti. - T.: O’zbekiston, 1996, 10 - bet.

¹ Islom Karimov I.A. Istiqlol va ma’naviyat. - T.: O’zbekiston, 1994, 7- bet.

«Ma’naviyat» so’zi ancha qadimiy tushuncha bo’lib, «Ma’naviyat» so’ziga sobiq ittifoq davrida e’tibor qaratilmadi, nazardan chetda qoldirildi. Hatto, ilmiy, ilmiy-ommabop kitoblarda bu so’zga jiddiy e’tibor berilmagan. «Ma’naviyat» so’zi arab tilidan olingan bo’lib, unda insonning ruhiy, aqliy jihatlari, o’z xususiyati, mohiyati, g’amxo’rligi, qayg’urish, quvonish kabi jarayonlarni o’zida mujassamlashtirgan. Hozirgi davrda ma’naviyat tushunchasining falsafiy mazmuni to’g’risida juda ko’p ta’riflar berilgan. Biz ularning ba’zilarini o’quvchiga havola qilamiz: «Ma’naviyat-insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-kudratidir»¹. «Ma’naviyat-insonning zot belgisi, uning faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi, ongi, aql-zakovatining mahsuli»², «Ma’naviyat-jamiyatning, millatning va yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha»³, «Ma’naviyat-inson axloqi va odobi, bilimlari, ist’edodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e’tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarining bir-biri bilan uzviy bog’langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobjiy ta’sir etadigan mushtarak tizimdir»⁴. «Ma’naviyat-insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya’ni insonning mehr-muruvvat,adolat, to’g’rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go’zallik, sevish, zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko’plab asl insoniy xislatlar va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmuasidir»⁵ «Ma’naviyat inson qalbida aks etgan ilohiy nur. Oliy haqiqat nuridir. Shu sababli inson ko’nglini «haqiqat asrorining ganjinası» - demishdir. Faqat inson qalbi o’zida haqiqat nurini aks etira olishi uchun unga sayqal bermoq zarur»⁶. «Ma’naviyat insonni hayvondan farqlab turadigan oliy qadriyat»⁷. Ko’rib turganimizdek, ma’naviyatga berilgan ta’riflar turlicha shaklda bo’lsa ham ularning barchasi inson faoliyatiga borib taqaladi. Inson faoliyatining turli tomonlarini baholaydi. Insonning ichki va tashqi xatti-harakati, go’zalligi, histuyg’ulari, kechinmalarini aks ettiradi. T. Mahmudov fikricha: «Ma’naviyat-insonning ma’lum darajadagi jismoniy, aqliy, ahloqiy va ruhiy balog’ati va dunyoqarashini ifodalovchi tushunchadir»⁸. Yoki boshqa manbalarda shunday ta’riflar bor: «Ma’naviyat-odamning ruhiy va aqliy olamining majmuidir» (Vatan tuyg’usi kitobidan), «Inson barcha tirik mavjudotning gultoji, hayot guli deyilganda uning yuksak ma’naviyat egasi ekanligi nazarda tutiladi. Ma’naviyat insoniylikka olib boradigan, insonni inson, millatni millat qiladigan ajoyib xislat va fazilatlarning yig’indisidir»⁹. «Ma’naviyat insonning bilimi, tajribasi va mehnat malakasi, odob-axloqi, iymon va e’tiqodi, mafkuraviy qarashlarining yaxlit tizimidir.»². «Ma’naviy etuklik shunday bir xazinaki, uni egallagan odam insoniy qadr-qimmatni hamma

¹ Karimov I.A. Istiqlol va ma’naviyat. T.: «O’zbekiston», 1994, 9-bet.

² Jalolov A. Mustaqillik ma’suliyati. T.: «O’qituvchi», 1996, 29-bet

³ Ibrohimov A, Sultonov X, Jo’raev N. Vatan tuyg’usi. T.: «O’zbekiston», 1996, 111- bet

⁴ Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. T.: «Universitet», 1998, 34- bet.

⁵ Erkaev K. Ma’naviyat-millat nishoni. T.: «Ma’naviyat», 1997, 27- bet.

⁶ Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimizning takomil bosqichlari. T.: 1996, 6- bet.

⁷ A’zamov E. Yuksak pog’ona. Ma’naviyatning oydin yo’li. T , «Ma’naviyat», 1996, 32-bet.

⁸ T. Mahmudov. Mustaqillik va ma’naviyat T.: 2001, 9-bet.

⁹ A. Erkaev. Ezgulik sari yo’naltirilgan iroda. “Tafakkur”, 1997 yil, 3-son 14-bet.

² Z.G’ofurov, S. Toshev. Ma’naviyat saboqlari Qarshi «Nasaf» 1998 yil 11-bet

narsadan ustun qo'ya oladi, o'z manfaatini o'zgalar manfaati bilan qo'sha oladi, hayot-mamot masalalari hal bo'layotgan damlarda aql-idrok doirasidan chiqmaydi³. Bizningcha, *ma'naviyat insonlarda yuqori darajada takomil topgan insonparvarlik xislatlarining yig'indisidir*. Ta'riflardan ko'rinish turibdiki, ma'naviyat keng qirrali sermazmun va insondagi nozik tomonlarni qamrab olgan falsafiy tushunchadir. Ma'naviyat keng qamrovli bo'lganligi tufayli tor va keng ma'noda qo'llaniladi. Tor ma'noda ishlatilganda uning alohida holati inson ko'z oldida gavdalansa, keng ma'noda esa inson ma'naviyatining keng, umumiy qirralari, unga amal qilish jarayonlari tushuniladi.

Ha, yuqoridagi ta'riflarda insoniy fazilatlarga e'tibor qaratilgan bo'lsada, yuksak ma'naviyilik jihatlarni nihoyatda noyob xislat ekanligini I.A.Karimovning «Turkiston» gazetasi muxbirining savollariga javoblarida atroflicha aks etganligini ko'ramiz. Unda: «Ma'naviyat deganda avvalambor odamni ruhan poklanishga, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, inson ichki dunyosini, irodasini baquvvat, iymone'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan kuchni tasavvur qilaman»⁵.

Haqiqatdan ham, ma'naviyat deganda insonlarda shu xislatga oid jarayonlarni mujassamlashganligini e'tirof etibgina qolmasdan, balki insonlarni ruhan poklanishga, turli nojo'ya xususiyatlardan uzoq bo'lishga yordam beradigan xislatlarni ham tushunish kerak ekan. Binobarin, har bir inson nafaqat jismonan ulg'ayish balki, uning qalbidagi insoniylik xislatlarini o'sib ulg'ayishi, kengaya borishi, sermazmun bo'lishi talab etiladi. Ma'lumki, insonning ichki dunyosi ham bir ummondir. Bu ummondagi ijobiy sohalar kuchliroq, baquvvaturoq bo'lgandagina yuksak ma'naviyatli bo'la oladi. Yuksak ma'naviyatlilik saviyasiga ega bo'lgan qanchalik ko'p bo'lsa, bu o'z navbatida qurilayotgan yangi jamiyatni poydevorini ham mustahkam bo'lishga yordam beradi. Demak, yuksak ma'naviyat bu, Prezident aytganlaridek, iymon-e'tiqodni butun qiladigan insonparvarlik, jamiyatparvarlik, vijdonini kuchli qiladigan his-tuyg'u fazilatlaridir.

Yuksak ma'naviyatli bo'lish ma'rifiy sohalarini qamrab oladi. Ha, insoniy fazilatlarning aksariyat qismi bilimdonlikka bog'liq. Bilimdonlik esa ma'rifikatga borib taqaladi.

Inson hayoti o'ta ko'p qirralidir. U juda ko'p his-tuyg'u kechinmalar va harakatlarga boy. Shu ma'noda aytish mumkinki, bu holatlar insonni ma'naviyati bilan chambarchas bog'langan. Shu bilan birga insonning jismoniy, biologik va fiziologik tomonlari ham borki, ular tashqaridan qaraganda ma'naviyatga bog'liq emasdek tuyuladi. Lekin bu xislatlar ham ma'naviyatdan tashqarida emas. Masalan, ba'zi bir insonlarda jahl chiqishi, jaholatparastlik xislatlari bor. Bunday insonlar vaqt kelganda o'zini vaziyatdan chiqib ketishi uchun boshqalarga nisbatan jismoniy kuch ishlatib yuksak ma'naviyilik holatini unutadi. Natijada, boshqa kishini, ya'ni muxolifini (murosa yo'lini tanlamasdan) yo'q qilishgacha boradi. Bunday kishining faoliyatini yuksak ma'naviyatlilik holatiga kiritish mumkin emas. Yoki ba'zi bir kishi qo'shnisi yoki tanishining yutuqlarini ko'rib, uning ijobiy harakatini o'ziga ijobiy

³ A. Eshonqulov. Ma'naviyat tarbiyasi. «Muloqot», 1997, 1-sonli, 20-bet.

⁵ I.A.Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. T.: «O'zbekiston», 1999, 302-303 betlar.

singdira olmaydi. Ko'raolmaslik girdobiga qadam qo'yadi. Bu holat biologik jarayon bilan bog'langan desak, xato bo'lmaydi. Sababi bunday holat hayvonot olamida ko'proq uchraydi. Masalan, bir it o'ziga berilgan o'ljani qorni ochligidan jon-jahdi bilan iste'mol qila boshlaydi. Shu paytda unga halaqit beruvchi boshqa it yaqinlashsa unga qarab irillaydi va boshqa itni yo'liqtirmaydi. Insoniy fazilatlarda shunday xislatlar yo'q deysizmi? Albatta, bor. Faqat o'z manfaatidan kelib chiqib, o'zgalar bilan hisoblashmaydigan insonlarni yuksak ma'naviyat sohibi deb bo'lmaydi. Shu o'rinda savol tug'iladi. Insonni firibgar yoki biologik mavjudotdek xarakterda bo'lishida ma'no bormi? Bor, albatta. Chunki shu holat ham ma'naviyat. Lekin qanday ma'naviyat. Ma'noli ma'naviyatmi yoki ma'nosiz? Shuning uchun ham inson faoliyatidagi har qanday ma'naviyat haqida emas, balki yuksak ma'naviyat haqida fikr yuritish lozim. Zero, insonning ijobiy xislatlari faqat yuksak ma'naviyatlilik bilan bog'langan.

Har bir insonni qamrab olgan ma'naviyat oddiylikdan murakkablikka qarab borishi, ya'ni yuksak ma'naviyatlilikni mujassamlashtirishi lozim. Inson yashashining mohiyati yuksak ma'naviyatlilikdadir. Yuksak ma'naviyatlilikni qirralari esa o'ta sermazmundir. Yuksak ma'naviyatni hali yo'rgakdag'i go'dakdan talab qilinmasada uni shunga tayyorlash, inconiylik xislatlarini shakllantirish o'ta dolzarbdir. Shu sababli ham «go'dak ma'naviyati» degan ibora xalqimiz o'rtasida yo'q. «Go'dak odobi» haqida fikr yuritiladi. Demak, odobli bo'lishni o'zi yuksak ma'naviyatli bo'lish uchun kifoya bo'la olmaydi. Ammo yuksak ma'naviyatni insonda shakllanishida odob-axloqning o'rniga teng keladigan jarayon kamroq. Odobli, axloqli bolalar yuksak ma'naviyatli shaxs bo'lishga intiladilar. Bola shaxsga aylanishi uchun u o'zini chuqur taniy bilishi «men»ligini ko'rsatishi kerak. Bu «men»lik asta-sekinlik bilan amalga oshadi. Bola o'zini tanishi, ya'ni inson bo'lishi uchun avvalo o'z ona tili, millati, millatining an'analari, qadriyatlari bilan tanisha borishi o'tmishdagi ijodiyot, tarixi, iqtisodiyoti, ijtimoiy faoliyatini, madaniy-ma'naviy turmush tarzi bilan o'z «men»ligini boyitib borish uchun yuksak ma'naviyatli bo'lishiga zamin hozirlaydi.

Inson ma'naviyatining mohiyati dialektik xarakterdadir. Uning turli tomonlari bir-biri bilan bog'langan. Shu sababli ma'naviyatning mohiyatini I.A.Karimov quyidagicha izohlaydi: «Bizning ma'naviyatimiz asrlar davomida million-million kishilar taqdiri bilan shakllangan. Uni o'lchab ham, poyoniga etib ham bo'lmaydi. U inson uchun butun bir Olam... Er, oila, ota-onas, bolalar, qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar, xalq, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik-ma'naviyatning ma'nosini ana shunday keng. Inson uni inson darajasiga ko'taradigan asoslarning asosini o'z aqli bilan tom ma'noda qamray olmaydi. Inson o'zini xalqning bir zarrasi, deb sezgandagina, u haqda o'ylab, mehnat qilib yashagandagina ma'naviyat bilan tutashadi. Bizning odamlarimiz Vatandan uzoqlashganda juda iztirob chekadilar, chunki ularning ma'naviyat chashmasi go'yo uzoqlashib ketganday bo'ladi. Shuning uchun ham xalq Vatandan yiroqlikni og'ir

qabul qiladi, chunki unda har bir qadrdon kishi uchun qayg'uradigan umumiylar qalb bor»¹.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, **insonning ichki va tashqi olamini namoyon etuvchi murakkab jarayon va his-tuyg'ular yig'indisi ma'naviyatdir.** Bu ma'naviyat hali to'liq ma'naviyat emas. To'liq ma'naviyat yuksak ma'naviyatni inson tomonidan qanchalik singdirilganligiga bog'liqdir. Yuksak ma'naviyat insonni, millatni aqliy salohiyatini o'zlashtirganligi bilan o'lchanadi. Yuksak ma'naviyatni insonda namoyon bo'lishi insonni tabiatlashuvi, jamiyatlashuvi, insonlashuvi kabilarni taqozo etishi kerak. Bu jarayon insonning ma'rifatlashuviga, ilmiyiligiga bog'liqdir. Ilmdan to'g'ri foydalanish undan to'g'ri xulosa qilish hammaning ham qo'lidan kelvermaydi. Ba'zilar o'zlarini bilgan, e'tiqod etgan ilmdan o'zgalarni bahramand etmaydilar.

Shu o'rinda aytish lozimki yuksak ma'naviyatli bo'lish, ilm, ma'rifatlikka bog'liq. Yuksak ma'naviyilik ilm orqali ham shakllanar ekan, u ham o'zining xususiyatlariga ega. Zero, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida «Har kim bilim olish huquqiga ega» deb bejiz aytilmagan.

Rasululloh sallalohu alayhi va sallam aytganlar: «Olloh taolo menga yuborgan hidoyat (Olloh taolo bandalariga ko'rsatgan to'g'ri yo'l, yo'llanma) singari ilm ham ko'p yoqqan yomg'irga o'xshaydir: ba'zi er sof, unum dor bo'lib, yomg'irni o'ziga singdiradir-da, har xil o'simliklar va ko'katlarni o'stiradir va ba'zi er qurg'oq, qattiq bo'lib, suvni emmasdan o'zida to'playdir, undan Olloh taolo bandalarini foydalantirgaydir. Odamlar suvdan ichgaydirlar, hayvonlarni va ekinlarni sug'orgaydirlar. Ba'zi er esa tekis bo'lib, suvni o'zida tutib qolmaydir, ko'katni ham ko'kartirmaydir. Bularni quyidagicha muqoyosa qilish mumkindir: bir kishi Olloh ilmini (islomni) teran o'rganadir, teran tushunadir va undan ma'rifa atlanadir va Olloh yuborgan hidoyatni o'zi o'rganib, o'zgalarga ham o'rgatadir. Ikkinci bir kishi ilm o'rganib, odamlarga o'rgatadir. Ammo o'zi amal qilmaydir. Uchinchi bir kishi mutakabbirlik qilib, o'zi ham o'rganmaydir, o'zgalarga ham o'rgatmaydir. Bulardan birinchisi mo'min, ikkinchisi fosiq, uchinchisi kofirdir». Bu sermazmun hadislarni o'rganish ham ma'rifatga borib taqaladi. Demak, ma'naviyat tushunchasi ma'rifat bilan hamohangdir. Yoki tushuncha ma'rifat tushunchasi bilan ham uzviy bog'langan. Shu tufayli, ma'rifat, ma'naviyat tushunchalari bir-birini to'ldiruvchilardir deyish mumkin. Ular dialektik bog'langan. «Ma'rifat» so'zi yakka va ko'plik ma'noda ishlatiladi. Bu so'z arab tilidan olingan bo'lib, «bilish», «bilim», «tanish» kabi ma'nolarni bildiradi. Ko'plik ma'noda maorif, ta'lim jarayonlarini eslatadi. Ma'rifat «ma'ruf» so'zi bilan aloqadadir. «Ma'ruf» so'zi oliy himmat, yaxshilik qiluvchi ma'nolarini anglatadi. Bu so'zni Evropada birinchi marta atoqli nemis faylasufi I. Kantning «Ma'rifat nima?» nomli maqolasi bosilib chiqqandan so'ng keng qo'llanila boshlangan. ***Ma'rifat-insonning bilim darajasi va unga aloqador bo'lgan jihatlarni aks ettiruvchi tushunchadir.*** Ma'rifatli inson-so'zi ishlatilsa, demak, u yoki bu inson bilimli, bilimdon, o'qimishli, ko'p narsani

¹ I. A. Karimov. «O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura». T.: «O'zbekiston», 1993, 78 – bet.

mushohada qiladigan inson sifatida gavdalanadi. «Ma'rifat»siz, deganda shu jarayonlardan xabarsiz kishi tushuniladi.

Demak, *ma'rifat deb, insonning umumiy ma'naviy-madaniyati, saviyasini yuksaltirishga qaratilgan ta'lim va tarbiyaviy bilimlarga aytildi.*

Ma'rifat turli sohalar, uslublar orqali insonlarga singdiriladi. Bular oila, maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari, jamoalar va boshqalardir. Maorif so'ziga kelsak ko'plik ma'noda har-xil bilim, axborotlarni qamrab olsa ham ma'rifat so'ziga nisbatan torroqdir. Ma'rifat tom ma'nosi bilan inson faoliyatining qismini qamrab oladi.

Ma'rifatli inson bilimlidir. Bilim insonning fazilatini ulug'lovchi xususiyatlardan biridir. Bilim olish, ma'rifatli bo'lish, turli sohada ma'naviy va moddiy g'alaba qilish uchun zarur. Bilimsiz, ma'rifatsiz kishi himoyasizdir. Ma'rifat orqali inson o'z ongini boyitadi va barcha moddiy, ma'naviy boyliklardan bahramand bo'ladi. «Ma'rifatning maqsadi xarakterni tarbiyalashdan iborat» degan edi ingliz faylasufi Gerbert Spenser. Ayniqsa, bozor munosabatlariga o'tish jarayonlarida insonlar ma'rifatli bo'lmas ekanlar, ular hayot qiyinchiliklariga bardosh bera olmay, qiynaladilar.

Bilimli, ma'rifatli kishilarning ko'payishi jamiyat boyligidir. Baxtiyor kelajak bilim bilan yaratiladi. Istiqbolning kafolati bilimli kishilardadir. Ma'naviyatni yuksaltirish ham ma'rifatga bog'liqdir. Milliy qadriyatlarni uning tarixini, kelajagini anglash ma'rifat orqali amalga oshadi. Buning uchun bilim bilan qurollanmoq kerak! Yaxshi yashash, baxtli bo'lmoq ham bilim orqali amalga oshadi! Inson qanchalik ko'p bilsa, uning kuch-qudrati shunchalik oshaveradi. Bilim orqali inson ulug'vor bo'ladi. Tevarak-atrofni bilish, jamiyat taraqqayotini tushunish, hodisalarga baho berish ham bilim va ma'rifat orqali amalga oshadi. Mashhur faylasuf F. Bekon fikricha, «Bilim – kuch, kuch esa bilimdir». A. Rudakiy aytadiki: «Bilim – barcha kulfatlarga qalqon».

Ilmlı va ma'rifatli bo'lism cheksizdir. Buyuk faylasuf Per Laplasning fikricha, – «Bilganlarimizning cheki bor, bilmagan narsalarimizning esa had-chegarasi yo'q». Yoki, alloma A. Firdavsiy ta'biricha:

Ilmdan bir shu'la dilga tushgan on,
Shunda bilursankim, ilm bepoyon.

Inson bilim orqali dunyon qanchalik ko'p bilib borsa, o'z faoliyatini ham shunchalik yaxshi anglay boradi. Umrning ziynati, mazmuni ham insonning o'z bilimi orqali yuqoriga qarab intilishidadir. Bilim olish uchun vaqtini ayamaslik, vaqtidan foydalanish lozim. Xulosa qilib aytganda inson ma'rifat va bilim orqali yuksak ma'naviyatlilik cho'qqilarini egallaydi, barkamol, komil inson bo'lib etishadi. Shu sababli «Ma'naviyat asoslari» fani komil insonni tarbiyalab voyaga etkazishda muhim vazifani tashkil etadi. Bu vazifa ma'naviyat qirralaridan tashkil topadi. Ma'naviyat asoslarining bahs yuritadigan sohalari ham shu qirralardan iborat. Bularga quyidagilar kiradi: axloq va umuminsoniy qadriyatlari, vatanparvarlik, insonparvarlik, diniy e'tiqod, ota-onasi va farzand o'rtasidagi munosabat, mustaqillikni

mustahkamlash tafakkuri, bilimdonlik, do'stlik, rostgo'ylik, adolatparvarlik, poklik, halollik, iymon-diyonat, mehr-shafqat, komil inson, barkamol avlod, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy ma'naviyat, ma'naviy madaniyat, mehr-muhabbat, yovuzlik, zolimlik, shuhratparastlik, laganbardorlik, xayolparastlik, poraxo'rlik, xasislik, urf-odatlar, yolg'onchilik, qo'rkoqlik, botirlik, mardlik, odoblilik va odobsizlik, kamtarinlik, samimiylilik, haqgo'ylik, do'stlik, soddalik, halollik, or-nomuslilik, insoniylik, baynalminallik, mehnatsevarlik, baxt-saodatlilik, sovuqqonlik, tuhmat va maqtov, donolik, olimlik, erkinlik, vijdonlilik, insoniylik, boylik-kambag'allik, oilaviy munosabatlar, sevgi va rashk, irodalilik, sabr-toqatlilik, ichkilikbozlik, ikki yuzlamachilik, takabburlik, ayyorlik, yoshlik, keksalik, maqtanchoqlik, milliy g'urur, minnatdorlik, mansabparastlik, g'arazgo'ylik, bedoblik, qadr-qimmat, suhbatlashish madaniyati, ezmalik, jur'atsizlik, dimog'dorlik, aqlilik, bekorchilik, o'git-nasihatlar, va boshqalar.

To'g'ri, ma'naviyatning qirralari bitmas-tuganmasdir. Biz bu erda inson ma'naviyatiga tegishli ba'zi bir faoliyatlarni keltirdik, xolos. Ma'naviyat fani mavzulariga kiritiladigan bu izohlovchi tushunchalar, asosiy mavzularni to'ldirishga yordam beradi. Mazkur tushunchalar «Ma'naviyat» fanining mohiyatini ochib berishga yordam beradi. Bu tushunchalardan asosiy mavzular tanlab olinib ma'naviyatning asosiy tarkibiy qismlari shakllantiriladi. Bular orqali har bir shaxsga «Ma'naviyat asoslari» o'rgatiladi.

1.2. «Ma’naviyat asoslari» fanining tamoyillari ularning o’rganish uslublari va boshqa fanlar bilan aloqasi

Ma’lumki, Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov «Turkiston» gazetasi muxbirining savollariga javoblarida yuksak ma’naviyat haqida fikr yuritganda XXI asrdagi ma’naviyatning shakl-tamoili, mazmun-mohiyati, tayanch nuqtalari va taraqqiyot ufqlarining belgilash, uning tamoyillarini ishlab chiqish haqida so’z yuritgan edi. Shu munosabat bilan aytish mumkinki, bugungi kunda bu muammo jamiyatshunos olimlar, barcha ziyolilarning diqqat markazida turibdi. Binobarin, O’zbekistonda demokratik huquqiy davlat, bozor munosabatlariga asoslangan jamiyat barpo etilar ekan, ana shu jamiyatga xos insonlar tarbiyalanishi lozim. Shu sababli «Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fanida ham yuksak ma’naviyatni shakllantirish g’oyalariga jiddiy e’tibor qaratilgan. Demak, «Ma’naviyat asoslari» fani bu – yuksak ma’naviyatli insonlarni tarbiyalashda etakchi o’rinlarda borar ekan, u o’zining tamoyillariga ham ega bo’lishi zarur. Biz yuqorida yuksak ma’naviyatning tarkibiy qismlari haqida to’xtaldik. Mazkur tarkibiy qismlar tahlili ham shuni ko’rsatadiki bu tarkibiy qismlardan ma’naviyat asoslari tamoyillarini shakllantirish va ularni mazmun-mohiyatiga e’tiborni qaratish, ayni muddaodir. Bizningcha, ma’naviyat tamoyillari quyidagilardir:

1. Yashashdan maqsadni to’g’ri belgilash, hayotning mohiyatini to’g’ri tushunish;
2. Inson qadr-qimmatini har qanday boylikdan ustun qo’ya olish;
3. Qancha ko’p mehnat qilsang, shuncha to’q va badavlat yashaysan;
4. Inson qobiliyatining ichki imkoniyatlari cheksizligiga ishonch hosil qilish va shu imkoniyatlarni yuzaga chiqarish uchun jiddiy harakat qilish;
5. Har qanday fisqu fasodga, vayronkor g’oyalarga berilmaslik, g’iybat, kundalik tashvishlaridan yuqori ko’tarila olish, iroda, sabr-qanoat, mehr-muruvvat ko’rsata olish;
6. Har qanday holatda ham hissiyotni jilovlab, aql idrokka amal qilish, nafsnii tiya bilish, komillik intilish;
7. O’zidan keyingi avlodlarga ozod va obod Vatan qoldirishda jonkuyar bo’lish;
8. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlash va ularni ijodiy rivojlanishiga hissa qo’shishga amal qilish;
9. Inson fuqarolar huquqlarini tinglash hamda milliy totuvlik uchun harakat qilish;
10. Mamlakat mustaqilligini saqlashda yuksak ma’suliyatni anglash, uning iqtisodiy, siyosiy, ijtimomy yuksalishiga faollik ko’rsatish.

1. Ma’lumki inson hayotga ongli ravishda qadam qo’yaboshlaganidan boshlab o’z oldiga maqsadlar qo’yadi. Bu maqsadlar gohida asosli, gohida tarqoq, gohida havas bo’ladi. Lekin maqsadlar ichida shunday bir maqsad borki, bu maqsad oliy maqsaddir. U ham bo’lsa hayotda yashash maqsadidir. Demak, uni to’g’ri belgilash va mohiyatini tushunib etish, tafakkur orqali mushohada qilish muhim ahamiyatga ega. Inson umri tez o’tib ketadi. Ana shunday tez o’tadigan umr qanday o’tishi kerak?

Inson, shaxs birinchi navbatda ana shunga diqqat e'tiborini qaratishi lozim. Ha, birovlar yashashdan maqsad farzand ko'rishda deb bilsalar, yana birovlar kashfiyotlar qilib nom qoldirish, yana birovlar qandaydir mansablarini egallahda, deb tushunadilar. To'g'ri bular ham inson uchun kerak. Ammo yashashdan maqsad tor doirada mujassamlashib qolmasligi kerak. Shaxs faoliyatning maqsadi faqat o'z sog'ligini o'yashi bilan birga yashashni o'zi nima, nima uchun yashashi kerak, kim uchun yashashi kerak, degan savollarni qo'yib uni mohiyati va mazmunini tahlil qilgan holda ish yuritishi lozim.

Xalqning bugungi va kelajakdagi vazifalari bilan ham o'z maqsadlarini mujassamlashtirishi kerak. Demak, inson o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda xalqning asriy qadriyatlarini rivojlantirish o'z mamlakatining buyuk kelajagini yaratishi yo'lida qayg'urishi va harakat qilishi ustuvor yo'nalishlar qilib belgilab, hayotga qadam tashlashi o'rinnlidir. Shundagina yashashdan maqsadning mohiyati-mazmunga ega bo'ladi.

2. Inson qadr-qimmatini har qanday boylikdan ustun qo'yish yuksak ma'naviyatlikdan dalolatdir. Inson qadri boylik bilan belgilanmasligi kerak. Inson o'zining xatti-harakati, mehnati, aql-idroki bilan shu boylikni yaratadi. Shu jihatdan ham inson boylikdan ustun bo'lishga haqlidir. Boylikka berilmaslik insoniylikni ustun qo'yishga olib keladi. Boylikka e'tiqod qo'yib, mol-mulk toplash o'rni kelganda uni ko'z-ko'z qilish esa tubanlikdan nishonadir. Boylik bu ba'zi shaxslarni manmanlikka etaklaydi, dimog'dor qiladi. Ba'zida boylikka berilgan shaxslar o'z mol-mulkning qanchalik ko'p ekanligini yashirishga ham harakat qiladilar. Lekin uni baribir ko'pdan, ommadan yashira olmaydi. Natijada ko'pchilikni oldida qing'ir-qiyshiq yo'llar bilan topilgan boylik oshkora bo'laboshlaydi va ko'pchilik nafratiga ham uchray boshlaydi.

Inson qadrining birlamchiliga e'tibor berish xususiyatiga ega insonlarni xalq e'zozlaydi. Shunday kishi vafot etib ketganda ham uning nomini hurmat bilan tilga oladi.

Boylikka berilgan joyda adolat buziladi. Boylik hirsi bor insonda ta'magirlik, poraxo'rlik, g'arazgo'ylik, qat'iyatsizlik avjiga chiqadi. Aql-zakavot o'rnini johillik, manmanlik, maqtanchoqlik, kibr-havo egallaydi. Bular oddiy insonlar qadrini paysaytirishga olib keladi. Asosiysi insonlar o'rtasida ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. G'am-tashvish ortadi. Qonun buziladi. Firibgarlik avjiga chiqadi. Inson qadri yo'qola boshlaydi. Natijada oila, jamoa, jamiyat va davlatda noroziliklar paydo bo'ladi.

3. Qancha ko'p mehnat qilgan kishi o'ziga ishonch bilan yashaydi. Qorni och bo'lganda ham mehnatdan zavqlanadi. O'zini badavlat kishilardek his qiladi. Chunki, u birovdan o'zini kam tutmaydi. Mehnat orqali jamiyatning ma'naviy sog'lomligi, ruhan tetikligi ham namoyon bo'ladi. Yurt tinchligiga tinchlik qo'shiladi. Yurt tinchligi esa ulug' saodat, buyuk ne'matdir. Shu sababli har bir fuqaro Vatan taqdiri uchun mehnat qilishi, mehnati orqali buyuk davlatni barpo etishidagi mas'uliyatni sezish muhim kasb etadi. Mehnat orqali taraqqiyot, rivojlanish ro'y beradi. Og'ir va engil sanoat takomillashadi. Yangi ishlab chiqarish quvvatlari paydo bo'ladi. Madaniy-maishiy inshootlar barpo etiladi. Obodonchilik amalga oshadi. Bog'-rog'lar paydo bo'ladi. Bularning barchasi vaqt kelib har bir kishiga, jamoaga, jamiyatga

xizmat qiladi. Natijada, inson o'z mehnati orqali shon-sharafga muyassar bo'ladi. Hur va farovon yashashga imkon yaratiladi. «Mehnat, mehnatning tagi rohat» degan o'gitlarni azaldan xalq o'rtasida qo'llanishda ham olam, olam falsafa yotadi.

4. Inson qobiliyatining ichki imkoniyatlari boyligiga ishonch hosil qilish va shu imkoniyatlarni yuzaga chiqarish uchun jiddiy harakat qilish har bir yuksak ma'naviyatga intilgan kishining dasturiga aylanishi lozim. Mazkur ichki imkoniyatlar insonning o'zini qanoatlantirish bilan birga, oilani, ishlab turgan jamoasini, mamlakatini ham talablariga javob berishi lozim. Insonlarning har bir ishi, shu insonlarning tashqi amaliy faoliyati bilan ham mos tushmoqligi darkor. Insonni intellektual boyligi garchand shaxsning shaxsiy faoliyatiga bog'liq bo'lsada u Vatan ozodligi, uning istiqboli, istiqloli bilan chambarchas bog'liq bo'lgandagina insondag'i ichki imkoniyatlarni to'g'ri baholash mumkin. Yuksak ma'naviyatli insonlarning ichki imkoniyatlari, deganda o'sha insondag'i mardlik, va'daga vafo, shijoat, g'ayrat, hushyorlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, or-nomus, hayo, iffat, kamtarinlik, sodiqlik, bilimdonlik, yangiliklar tarafdrorligi, yaxshilik qilish, to'g'ri bo'lish kabi xislatlar bilan birgalikda qo'rkoqlik, xiyonat qilish, va'daga vafo qilmaslik, vatanni o'yamaslik, vayronkor fikrlarga ega bo'lish, mansabparastlik, laganbardorlik, poraxo'rlikka va boshqa xususiyatlarga intilish, his-tuyg'ularini ham tushunish lozim. Demak, insonlardagi ichki imkoniyatlarni namoyon qilishning, xarakteriga e'tiborni qaratish shaxs faoliyatining markaziy o'rinalarini egallaydi. Shu ichki imkoniyatlarni hayotga tatbiq etishda xatoliklardan xoli bo'lishga intilish ham yuksak ma'naviyatlikdir. Ichki imkoniyatlardan ijobiy ishlar uchun foydalanish oliy jonbozlikdan dalolatdir. O'zining ijodini, tafakkurini, bilimini, mehnatini xalq va Vatan ravnaqiga bag'ishlash yuksak ma'naviyatlilikdan komillikka intilishdan dalolatdir.

5. Har qanday fisqu fasod, g'iybatlardan kundalik tashvishlardan yuqori turish iroda va sabr qanoatli bo'lib, mehr-muruvvat ko'rsata olish yuksak ma'naviyatni egallash omilaridandir. Ma'lumki, g'iybat qilish bid'atlidir. Insonni kichik bir g'iybat natijasida bir umrga noshud qilib quyish mumkin. G'iybat insondag'i eng yomon odatlardan biridir. G'iybat deganda insonni orqasidan gapirish, aybini topish, yomonlash, insonning bola-chaqasini, xotini, xulqi, boyligi, yurish turishi, aqli va farosati haqida tuturuqsiz, bemaza so'zlarni aytishlar tushuniladi. Zero, eng yovuz va yaramas odat g'iybatchilik bo'lib, o'zgalarni aybini topishga harakat qilib, gap tashib, do'stlarni o'rtasiga nifoq tushirishdir. Bular o'z navbatida insonni kamsitadi va g'amga botiradi. Shu sababli g'iybatga ishonmaslik choralarini ko'rish oliy fazilatdir. G'iybatni fisqu fasodchilar, yaxshi fazilatlarni ko'raolmaydiganlar, fikri tor odamlar qiladilar. Ana shunday odamlardan ustun bo'lish komillikka intilishdir. Inson faoliyati baxtli damlar bilan birga tashvishli kunlar ham mavjuddir. Tashvishlardan etishmovchiliklardan, baxtga erishaolmaslikdan, mavqega ega bo'laolmaslikdan ustun bo'lish qanoatlilikdan namunadir. Bu tashvishlarni sabr-qanoat ila engib o'tish oliyjanoblilikdan xabar beradi.

Sabr va qanoat qilish yuksak ma'naviyatli kishilarga xos xususiyatlardandir. Sabr qilishni avvali zahar, ayanchli bo'lsada, oxiri lazzat bo'lishini unutmaslik kerak. Unda xosiyat va manfaat bo'ladi. Sabr qilishda insonni fe'li o'zgarmasligi, har

qanday vaziyatda o'zini tuta bilishi chidamlilikdir. Shunday inson, insonlar o'rtasida kambag'allikdan, etishmovchilikdan nolimaydi, toqat va chidam bilan vaziyatdan chiqishini o'ylaydi. Buning o'zi inson uchun ulug' ne'matdir. Demak, sabr-qiyinchilikdan qutilish, uni engish va chidamlilidir. Sabrda qanday vaziyat bo'lmasin inson o'zini ochiq chehraliligin yo'qotmasligi lozim. Sabr va qanoat o'zaro tutashgan egizakdir. Qanoat ham tunganmas boylikdir. Qanoatli kishi bitta qoq noniga ham shukr qiladi va u o'zini kambag'alman, deb hisoblaymaydi. Qanoatsiz kishi esa ko'chadagi gadoga o'xshaydi, uni ko'zi to'yaydi. Qancha topsa u kamlik qiladi. Boshqalarga mehr-muruvvat ko'rsatmaydi. Tishlam nonidan birovni baharmand qilib shu sababli ham ushbu tamoil ma'naviyatning asosiy tamoillaridandir.

6. Yuksak ma'naviyatli bo'lismi bu har qanday holatda ham, hissiyotga berilmasdan nojo'ya hissiyotni jilovlay olish, aql-idrokka amal qilish, nafsni tiya bilish komillikka intilish kabilarga ham bog'liq. Mazkur jihatlar har bir shaxsda mavjud bo'lган insoniy fazilatlardir. Ushbu fazilatlarga diqqat-e'tiborini qaratgan shaxslar mo'tabar shaxslar bo'lib hisoblanadi. Aql bu-shunday bir boylikki, uni paypaslab ushlab yoki ko'rib bo'lmaydi. Aql odamning yoki shaxsning peshonasida yozib ham qo'yilgan emas. Uning chegarasini ham bilish qiyin. Aql shunday bir xususiyatki, agar u badnafslik, hasad va baxillikka yo'g'rilgan bo'lsa bu tubanlik aqlidir. Aql zarar keltiruvchi jarayonlardan uzoq bo'lsa ifloslanmagan bo'lsagina sof aqlidir. Shu sababli aql orqali inson o'z faoliyatini qat'iy idora qilaolsa o'zining aqliy xislatini yuksak deyishi mumkin. Aslini olganda, insonning barcha harakati aql faoliyatiga muhtoj. Aql tajriba, hayotiy ko'nikmalardan bilimlardan paydo bo'ladi. Demak, aqlli kishi shunday bir insonki o'zining yomon hissiyotlarini jilovlay oladi, o'zining aqliga, idrokiga amal qiladi. Nafsga rahbarlik qiladi. Aqlli inson tirikligida shunday ishlar qiladiki, bu ishlar o'zi vafot etib ketgandan so'ng ham boshqa kishilar tomonidan e'zozlanadi. O'lган aqlli kishi tiriklar qatorida yuradi. Aqlsiz inson esa nafsi qayoqqa boshlasa o'sha tomonga boraveradi. Aql-idrok insonni ulug'laydi. Aqlli insonlar ba'zida xato qilganlarida ham e'zozlanadilar.

Insonlarda g'azab ham mavjuddir. G'azab kelganda uni sabot va matonat bilan engish talab etiladi. Gunoh qilgan kishidan darg'azab bo'lganda o'ylab aql bilan ish tutmoqlik insonning yuksak fazilatidir. Do'stlikka harakat qilganda o'sha do'st bo'lmos'i bo'lган kishini qiyinchilik va darg'azab bo'lganda sinab ko'rish aqillilikdan dalolatdir. Qiyinchilik va darg'azablikni bosa olmagan do'st, do'st bo'la olmaydi.

7. Vatan bu insonning kindik qoni to'kilgan muqaddas maskani. Shu bilan birga uni voyaga etkazishga hissa qo'shgan, ajdodlari yashagan tarixiy xotira bag'ishlovchi makondir. Vatan insonning, xalqning o'tmishi va buguni hamda kelajagini belgilovchi joydir. Vatanga ega bo'lган inson o'z hayotini g'urur bilan o'tkazadi. Ertangi kuniga ishonch bilan qaraydi. Vatani borligi uchun qiyinchiliklarga bardosh beradi. Inson o'zini anglagandan so'ng Vatan nimaligini sezsa boshlaydi va unga nisbatan muhabbat tuyg'usi ildiz otadi. Natijada, o'z taqdirini ana shu Vatan taqdiri bilan bog'laydi. Demak, yuksak ma'naviyatlikka intilgan inson o'z Vatanini ozodligi, erkin va farovonligi uchun jon kuydirishi lozim. Qalbining faoliyati o'z Vatani obodligi, ozodligi uchun mujassam bo'lishi zarur. Ozod va obod Vatanni avlodlarga

qoldirish uchun yonib, elib-yugurib yashashi, mehnat qilishi talab etiladi. Vatanni moddiy boyliklaridan, madaniy merosidan, qadriyatlaridan nafaqat o'zi foydalanishi balki, o'zidan keyingi faoliyat ko'rsatadigan farzandlar, nabiralar, evaralar, chevaralar va jamiyat uchun qolidiradigan bo'lib yashamog'i kerak. Sababi Vatan faqat birgina shaxsniki emas u shu zaminda yashayotgan barchaniki. Unda kelajakda ham ming-minglab insonlar istiqomat qiladi, xizmat qiladi, nafas oladi. Tarixni yaratadi, ijod qiladi. Shu sababli bu tamoil ham eng muhim tamoildir.

8. Milliy va umuminsoniy qadriyat inson faoliyatida amal qiladigan yuksak ma'naviyatlilikning ajralmas qismidir. Shu sababli bu tamoyil mamlakat hududida istiqomat qilayotgan har bir insonning o'z milliy qadriyatlarini asrab-avaylashi, e'zozlashi, o'zidan keyingi avlodga uni yangi-yangi an'analar bilan etkazishi yuksak ma'naviyatning muhim qismidir. O'tmishdagi ajdodlarimiz qoldirgan milliy meros, madaniy boyliklar mumtoz qadriyat va urf-odatlarni e'zozlash, ularni obdon o'rganib ijodiy rivojlantirish har bir fuqaroning kundalik turmush tarziga singishi lozim. Milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan mushtarakligini sezish kerak. Milliy qadriyatlar dunyoviy taraqqiyot tamoillaridan orqada qolmasligiga e'tiborni qaratish davr talabidir. Juhon tajribasidagi umuminsoniy demokratik qadariyatlarning mohiyatini tahlil qilaborish va hayotga tatbiq etaborish milliy qadriyatlarni rivojlantirishga yordam berishini unutmaslik har bir yuksak ma'naviyatli shaxsni diqqat e'tborida turishi talab etiladi. Buning uchun har bir shaxsning, fuqaroning siyosiy madaniyatini takomillashtirish, dunyoviy muammolarni to'g'ri tushunishga etaklash kun tartibiga qo'yiladi.

9. Mamlakatimizda inson huquqlariga amal qilib insonlar o'rtasida ijtimoiy adolatni barqaror qilish uchun talaygina vazifalar amalga oshiriladiki, ular tinchlik, milliy totuvlikni barqaror qilishga yordam berdi. Inson huquqlariga amal qilish yuksak ma'naviyat egasining faoliyatidagi qirralarning ajralmas qismidir. Inson o'z faoliyatini ro'yobga chiqarishi uchun huquqiy jarayonlarni o'zida mujassamlashtirishi talab etiladi. Qonun kafolatlarni anglash va unga amal qilish turmush tarzini barqaror o'tishiga yordam beradi. Demak, huquqiy madaniyatni anglab etish komillikka intilishning namunasidir. Shu munosabat bilan bu tamoyil har bir shaxsdan o'z ustida mazkur sohada doimiy ishlashni, bilim saviyasini oshirisha borishni talab etadi. Shu bilan birga inson huquqlariga oid jarayonlarni, barcha huquqiy asoslarni xalq ommasi orasida keng targ'ib qilish ham mas'uliyatini yuklaydi. Mas'uliyat o'z navbatida insonning har bir amali, faoliyati mahsulini to'liq tasavvur qilgan holda insonning o'ziga va boshqalar oldida javobgar ekanligini tasdiqlaydi. Faoliyatni rivojlantiradi, oqibatlarni oldini olishga ko'maklashadi. Ana shu ma'noda ijtimoiyadolat, fuqarolar tinchligi uchun kurashda totuvlikni ta'minlaydi.

10. Milliy mustaqillik xalqimizning azaliy orzusi edi. Bu orzuni amalga oshirish yo'lida jon fido qilganlar oz emas. Endilikda milliy mustaqillik tufayli yangi tarixiy rivojlanish davriga qadam tashlanadi. Bu qadam avlodlarimiz uchun xizmat qiladi. Xalqimizning hozirgi davrda mustabid siyosatdan, qaramlik va itoatkorlikdan «ittifoq» paytidagi mayda millatlikdan xalos bo'lganligi quvonchli xoldir. Endilikda ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan milliy davlatchiligidan tiklandi. Zero, bu davlatchilikning ijobiy tomonlari saqlangan holda, zamon talablariga moslashgan

holda yangidan qurilmoqda. Qisqa qilib aytganda, o'z Vatanimizda erkin va ozod yashash, farovon turmush qurishga kirishdik. Iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy-ma'naviy qullikdan ozod bo'ldik. Tabiiy va madaniy, ma'naviy boyliklarimizga erishdik. Ma'naviy merosimizdan, azaliy insoniy qadriyatlarimizdan bahramand bo'la boshladik. Erkin va mustaqil fikrlaydigan bo'ldik. Binobarin, shunday ekan, yangicha hayot bizdan yangicha harakat, yangicha anglash va fikrlashni, tashabbuskor va shijoatkor bo'lishni, mustaqillik g'oyalariga sodiq bo'lishni talab etadi. Yangicha mas'uliyat yuklaydi. Yuksak ma'naviyatlilik shunchaki bir talab bo'lib qolmasdan, balki uni yanada mustahkamlash uchun harakat qilish har bir shaxsning burchidir.

Har bir fan yoki kursni o'rganishning xususiy jihatlari bo'lgani singari «Ma'naviyat asoslari»ning ham xususiy jihatlari mavjud. Avvalo, bu fan ham fanlar metodologiyasiga suyanadi. Fanlarning metodologiyasi-(uslubiyat to'g'risida ta'limot) bu falsafadir, aniqrog'i dialektikadir. «Ma'naviyat asoslari» fani ham o'z mavzularini shu dialektik uslubga suyangan holda tahlil qiladi va nazariy xulosalar chiqaradi.

«Ma'naviyat asoslari» fanini o'rganishda asosan avlod-ajdodlarimizdan etishib chiqqan buyuk allomalar, sarkardalar, davlat va jamoat arboblaridan bizgacha etib kelgan ma'naviy merosidan, madaniyat va turmush tarzidan foydalaniladi.

Qadimiylar ma'naviy meros, milliy urf-odatlar, qadriyatlar rang-barangdir. Ular hozirgi davr bilan bog'langan holda, fan va texnika taraqqiyotini hisobga olishni taqozo etadi. Shuni ta'kidlash lozimki, xalqimiz urf-odatlari, qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liqdir. Har bir shaxs o'z tushuncha doirasidagina qolmay, balki dunyoviy ma'naviyatdan ham xabardor bo'lardi.

Bu jihatlarni yaxshiroq his etishi, uchun avvalo har bir inson ma'rifatli bo'lishi, unga intilmog'i lozim. Ma'rifatli bo'lgandagina inson umuminsoniy qadriyatlar bilan tanish bo'la oladi. Uning o'ziga kerakli tomonlarini olib o'z hayotiga tatbiq etadi.

«Ma'naviyat asoslari» fani ham alohida uslublarga amal qilsa-da, uning mavzu va tushunchalari boyib boradi. Bu uslublar ma'naviyat asoslarini mustahkamlashda, o'z qonuniyatlarini ishlab chiqishda yordam beradi. Shu sababli «Ma'naviyat asoslari» fani quyidagi uslublardan foydalanadi:

- Dialektik falsafiy.
- Tarixiy-mantiqiy.
- O'xshatish va taqqoslash.
- Kuzatuv.
- Induktiv va deduktiv.
- Tajriba o'tkazish.
- Sotsiologik tadqiqot (so'rov, anketa to'ldirish).
- Nazariy.
- Izohlash.
- Taxmin qilish uslublari va boshqalar.

Ma'naviy xislatlarning mazmuni, hayotiyligi, insonga mosligi shu uslublar orqali yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu uslublar ma'lumki, boshqa fanlarda ham qo'llaniladi. Shu sababli, bu uslublardan foydalanilganda «Ma'naviyat asoslari» fanining maxsus tomonlari ham hisobga olinadi.

«Ma’naviyat asoslari» hozir dunyoda o’qitilayotgan 2000 dan ortiq fanlar va maxsus kurslarning barchasi bilan aloqada desak, xato bo’lmaydi.

«Ma’naviyat asoslari» falsafa fani bilan bog’langan bo’lib, falsafaning kategoriya yoki tushunchalaridan, qonunlaridan foydalanadi. Falsafa bergen umumiy xulosalar «Ma’naviyat asoslari» uchun juda muhimdir.

Falsafada o’qitiladigan ijtimoiy ong shakllari – san’at, madaniyat, axloq, estetika, din kabi sohalarsiz insonlarda yuksak ma’naviyatni shakllantirib bo’lmaydi. Bu sohalarda falsafa bergen umumiy, nazariy fikrlar «Ma’naviyat asoslari» uchun mushohada ob’ektlaridir. Shuningdek, «Ma’naviyat asoslari» fanini o’qitish jarayonida «Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar», dinshunoslik, tarix, siyosatshunoslik, adabiyot, ona tili, iqtisodiyot nazariyasi, odobnoma, mantiq, etika, psixologiya, axloqshunoslik, sotsiologiya, ekologiya va boshqa fanlarga ham murojaat qilinadi. Shuni ta’kidlash lozimki, bu «Ma’naviyat asoslari» fani tabiiy fanlar bilan aloqada emas, degan fikrni bildirmaydi. Binobarin, tabiiy fanlardagi o’zgarishlar, kashfiyotlar ham inson ma’naviyati bilan aloqadorligini unutmasligimiz kerak. Kashfiyot qiluvchi olimlarning faoliyati ma’rifat bilan bog’langan. Ma’rifat esa ma’naviyatning tarkibiy qismidir. Demak, «Ma’naviyat asoslari» fani tushuncha va qonuniyatlarni rivojlantrish uchun tabiiy fanlarga ham suyanadi.

«Ma’naviyat asoslari» fani tushunchalari xilma-xildir. Ularning ba’zi bir xarakter va xususiyati ham falsafiy, ham ma’naviyadir. Ular o’zaro bog’langandir. Shunday bo’lishidan qat’i nazar, «Ma’naviyat asoslari» fanining o’ziga xos rivojlanish qonuniyatlarini quyidagicha aks ettirish mumkin: shaxs, jamoa, jamiyat va millat ma’naviyatlarini yuksaltirish.

Bular ma’naviy-ma’rifiy jarayonlar bilan bog’liq qonuniyatlardir. Bu sohalarni har biriga o’zgacha maxsus yondoshish yo’llari va uslublari, jarayonlari bor. Mazkur ma’naviy yuksalishlarga umumiy holda yondoshib bo’lmaydi. Lekin, ularning o’zaro aloqadorligini unutmasligimiz talab etiladi. Yuksak ma’naviyatli insonni shakllantirish qonuniyatlardan tashqari milliy va umuminsoniy ma’naviyat qonuniyatlari ham mavjud, jumladan:

- a) turli ijtimoiy guruhlar ma’naviyatini yuksaltirish qonuniyatları;
- b) millatlar o’rtasidagi ma’naviyat xislatlarini yuksaltirish qonuniyatları;
- v) umuminsoniy urf-odatlar, qadriyatlarni yaqinlashtirish qonuniyatları va hokazolar.

Bu ko’rsatilgan qonuniyatlar ham o’zlarining xususiy jihatlariga ega bo’lib, ba’zi sohalar chuqur tahlilni talab etadi. Shu sababli, bu qonuniyatlar keyingi mavzularda o’z aksini topadi, degan umiddamiz.

«Ma’naviyat asoslari» fani ko’proq insonning his-tuyg’usi, ichki kechinmalari, o’zaro insoniy munosabatlari, insonning tabiat va jamiyatga bo’lgan ixtiyoriy tuyg’ulari bilan bog’langan. Bu jarayonlarning har biri inson ongiga mukammal singdirilishi «Ma’naviyat asoslari» fani bilan bog’liq bo’ladi. Axloqshunoslik fanidagi tushunchalar «Ma’naviyat asoslari» fani tushunchalari bilan uzviy aloqada. «Ma’naviyat asoslari» ayniqsa, «Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoillar» fani bilan ham yaqindan aloqada va bog’lanishdadir. Ma’lumki, «Milliy istiqlol g’oyasi» fanida g’oya va mafkura tushunchalari, ularning insoniyat tarixi va

taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatgani, hozirgi davrning mafkuraviy manzarasi, dunyoni bo'lib olish uchun kurash, yosh g'oyalarning mintaqasi va mamlakatimiz aholisiga ta'siri, mamlakatda barpo etilayotgan jamiyat va bu jarayonda milliy va umuminsoniy g'oyalarning qay tarzda ahamiyat kasb etishi o'z aksini topgan. Lekin bu zikr etilgan sohalar insonning ruhiyati va ma'naviyati bilan bog'langan. Yuzaki qaraganda bu fanlar nisbatan bir-biridan uzoq tuyulsada aslida chambarchas bog'langandir. Bu fanlar tushunchalari o'zaro bog'langan holda tahlil qilinsa ularning ta'sirchanligi oshadi. O'quvchi tomonidan engilroq qabul qilinadi. Masalan, milliy istiqlol g'oyasi avvalo ma'rifat orqali singdiriladi. Ma'rifatsiz milliy istiqlol g'oyasining keng qirralari tushunilmaydi. Shu bilan birga milliy istiqlol g'oyasidagi Vatan ravnaqi, komil inson faoliyati, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, xalq farovonligini ta'minlashdagi omillar haqida so'z yuritilganda, bu sohalarni yuksak ma'naviyatli kishilarda aks etishi haqida fikr yuritiladi. Zero, istiqlol g'oyasining oliy maqsadi ezgu g'oyalarga tayangan holda xalqni buyuk kelajagini bunyod etishga safarbar qilishdir. O'zbekiston aholisini hozirgi hayot talablariga javob beradigan, g'oya va mustahkam irodasi, yuksak e'tiqodi, ehtiyyotli va vatanparvar, insonparvar shaxslarni tarbiyalab voyaga etkazish yuksak ma'naviyat bilan bog'langan. Yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan kishilar yuqoridagi jarayonlarga xalq manfaati nuqtai-nazardan yondoshadi.

Ikkala fanda ham insonlarda ezgu niyatlarni tarkib toptirgan g'oya mujassamdir. Milliy istiqlol g'oyasi fani fuqarolarda mustaqillik dunyoqarashini va erkin fikr yuritish, mustaqil tafakkurga ega bo'lish, sog'lom ijtimoiy muhitni yaratishga yordam bersa, «Ma'naviyat asoslari» mazkur fan uchun zamin tayyorlaydi. Shu yo'nalishda barchani tarbiyalashda ko'maklashadi. Istiqlol g'oyasi jamiyatni yot va begona g'oyalar ta'siridan himoya qilish, fuqarolarimizda mafkuraviy immunitetni shakllantirishga harakat qilsa ma'naviyat asoslari fani insonlarda Vatan tuyg'usi, mehnatsevarlik, insonparvarlik, saxovat-yaxshilik, poklik, halollik kabi yuksak ma'naviyilik tuyg'ulari nazariyalarini ishlab chiqadi va milliy istiqlol g'oyasini yoshlarga singdirishni tezlashtiradi. Bu fanlar o'rtasidagi munosabat va aloqadorlik nisbiy bo'lsada, ikkala fanning bahs mavzulari turlichadir. Yuqorida ta'kidlanganidek,... axloqshunoslik fani tushunchalarini ba'zilari bilan yaqin aloqadadir. Insonning ichki va tashqi go'zalligi, axloqiy xislatlari, donishmandlar hikmatlari, rivoyatlar, axloqshunoslik fanida ham o'rganiladi. Ammo, bunda ularning tarixiy kelib chiqishi, mansublik doiralari chuqrurroq o'rganilsa, ma'naviyat asoslarda esa bularni amal qilishdagi natijalariga ko'proq e'tibor qaratiladi. Yoki siyosatshunoslik fanini olsak, u ham ma'naviyat asoslari bilan aloqadadir. Sababi, siyosat bilan shug'ullanuvchilarning ma'naviyati «Ma'naviyat asoslari» fanida muhokama qilinadi. Shu bilan birga, siyosatning o'zi ma'naviyat bilan aloqada bo'lib, jamiyatni ruhiy holatini shakllanishida bu ikkala soha muhim o'rinni egallaydi. Jamiyat siyosatini to'laligicha qabul qilmagan va o'z ma'naviyatini siyosatdan ustun qo'ygan shaxslar kam emas.

Siyosatda talablar o'ziga xos xususiyatga ega. Shaxsiy intilishlar, davlat va jamiyat-manfaatlariga mos tushmasligi mumkin. Shu jihatdan haqiqiy siyosatdonlar

ma’naviyat asoslariga e’tiborni qaratib, undan o’z maqsadlarida foydalanishi zarurdir. Oqilona siyosat yurgizish uchun yuksak ma’naviyatlilik talab etiladi.

«Ma’naviyat asoslari» «Dinshunoslik» fani bilan ham yaqindan aloqadadir. Dinshunoslikdagi iymon, e’tiqod, halollik, insonparvarlik, ilm, mehnatsevarlik, yaxshilik va boshqalar to’g’risidagi sohalar «Ma’naviyat asoslari» kursida tahlil qilinadi va bu sohalar jamiyatning ma’naviy muhiti bilan bog’lanadi. Ma’naviy, diniy sohalar o’zaro munosabatda ekanligi, ularni aksariyat qismi mujassam bo’lgan shaxslar, jamiyatning kelajagi «Ma’naviyat asoslari» fanida ta’kidlanadi.

Yoki pedagogika fanini oladigan bo’lsak, bu fan ta’lim-tarbiyaning nazariy asoslarini hal etib bersa, bu nazariyalarning amaliyotdagi tasdiqlari «Ma’naviyat asoslari» fanida o’z aksini topadi va hokazolar. Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, ushbu fanlar shaklan har xil bo’lsada, mazmunan bir-birini boyitadi va to’ldiradi.

1.3. «Ma’naviyat asoslari» fanining maqsad va vazifalari

O’zbekistonning buyuk kelajagini yaratuvchilar yuksak ma’naviyatga ega bo’lmoqlari – zaruriyatdir. Zero, ulardan, avvalo, aqli, odobli, mehnatsevar, bilimli, siyosatchi, milliy g’ururlu, vatanparvar, insonparvar, halol, qo’rqmas, baynalminal, sofdil bo’lishlari talab etiladi. Bu xislatlarni har bir shaxsda shakllantirish mazkur fanning maqsadidir.

Mustaqilligimiz sharofati tufayli, Prezident Islom Karimovning ulkan sa’y-harakatlari yordamida, dunyoviy bilimlarni rivojlantirgan ajdodlarimizning hurmatini o’rniga qo’yish, ilm-ma’rifat, ma’naviyatni yuksakligini tarannum etgan shaxslarni muborak ekanliklari haqida yoshlarga aytish va ulug’lash payti keldi. Buning uchun «Ma’naviyat asoslari» faniga murojat etiladi.

Xalqimiz milliy g’ururini ko’tarish, jamiyatning ma’naviy holatini o’zgartirishga olib keladi. «Ma’naviyat asoslari» fani ana shu dolzarb muammoni ham o’rtaga qo’yadi va uni hayotga tatbiq etadi. O’zbek xalqining qadimiy tarixi, urf-odatlari, qadriyatlari haqida hozirgi avlod ko’proq bilishni istaydi, bunga ushbu fan yordamlashadi.

Mamlakatimizda Vataniga va xalqiga jonkuyar, mustaqil fikrlaydigan, Respublika muammolarini ongli ravishda mas’uliyat bilan hal eta oladigan ijodkor, yangilikka intiluvchan, istiqlol g’oyalari va mafkurasiga sadoqatli avlodni voyaga etkazish vazifasi «Ma’naviyat asoslari» fanining diqqat markazida turadi.

Barcha islohotlarning taqdiri va ularning samarasini uchun javob beradigan, mamlakatimizning ertangi kuni va istiqboli uchun fidoyi insonlarni tarbiyalash borasida ustuvor davlat siyosati yuritilmoqda. Shu sababli, «Ma’naviyat asoslari» fani dasturida ko’zda tutilgan mavzular mohiyat jihatidan ulkan maqsad va vazifalarni ko’zlaydi. Bu fan mavjud intellektual imkoniyatlarni ishga solishga, milliy istiqlol mafkurasi g’oyasini tushuntirishga, yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashga, oljanoblik tuyg’ularini chuqurlashtirishga, buyuk o’tmishtga hurmat va porloq keljakka ishonch tuyg’ularini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ushbu fan qadimgi O’rta Osiyo xalqlari ma’naviyati shakllangan jarayonlarni, islom dinidagi yuksak jamiyat ma’naviyati va shaxs ma’naviyatini, O’rta Osiyo o’rtaga asr falsafiy tafakkuridagi ma’naviy muammolarni, Amir Temur va temuriylar sulolasi davridagi ma’naviyatni, jadidchilik davridagi ma’naviyat va ma’rifatparvarlikni, mustamlakachilik va qaramlik yillaridagi ma’naviyat masalalarini tahlil qilibgina qolmasdan, ularning nazariy, amaliy jihatlarini ham o’rtaga qo’yadi.

Barkamol inson haqida so’z yuritganda avvalo, ma’naviyat fani uning qirralarini ochib beradi. Shu bilan birga barkamol inson tushunchasi orqali Sharq va G’arb mamlakatlaridagi aloqadorlikni o’rtaga qo’yadi, tahlil qiladi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlardagi vatanparvarlik, insonparvarlik g’oyalarini chambarchas bog’liqligi va farqlarini tushuntirishda «Ma’naviyat asoslari» fanidan foydalilaniladi. «Ma’naviyat asoslari» insonlardagi iyomon, diyonat,adolat, mehr-shafqat, poklik, halollik va vafodorlik, mehnatsevarlik xislatlarini o’ziga xos xususiyatlarini, milliy o’zligini anglash va uni mustahkamlash, baynalminallik

jarayonlarini shaxs faoliyatidagi o'rnini, huquqiy jarayonlarni ma'naviyatga ta'sirini, umuman shaxsni barkamollik cho'qqilariga chiqishi yo'llarini ko'rsatuvchi fandir.

Asosan, «Ma'naviyat asoslari» fani mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng paydo bo'ldi. Uning muammolari qanchalik qadimiylar bo'lsa o'zi navqirondir. U muammolarni o'rtaga qo'yibgina qolmaydi, balki, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning yangi zamонавији sohalarini paydo bo'layotganligini ko'rsatib beradi. To'g'ri, XX asr texnika taraqqiyotining olg'a qarab borishini ta'minlagan bo'lsa, XXI asr ham shunday bo'ladi. Insoniyat qadriyatlarsiz yashay olmaydi. Texnika taraqqiyoti esa insonning ma'naviy va axloqiy muhitiga ta'sir etadi. Kompyuter, raketa, videotelefon, kimyoviy dori-darmonlar, asab sistemalarining o'zgarishi, ekologik jarayonlar, televidenie, kosmosni o'zlashtirilishi kabilar shular jumlasidandir. Ma'lumki, insonlar texnika yordamida boshqa sayyoralar to'g'risida tasavvurlarga ega bo'layotir. Demak, insonlar tafakkuri ham o'zgarayotir. Tafakkur va ma'naviyat esa bir-biri bilan chambarchasdir. Shu sababli, aytish mumkinki, ma'naviyat fanining maqsad va vazifalari yanada kengayib boradi, jiddiy tus ola boshlaydi. Uning muammolari ijtimoiy hodisa sifatida inson faoliyatining barcha qirralarini qamrab oladi.

Olamni salbiy yoki ijobiy tomonga o'zgarishi inson faoliyati bilan bog'liq. Bu faoliyat esa ma'naviyatsiz amalga oshmaydi. Tabiat va jamiyatning o'zgarishi inson ruhiyati bilan ham bog'liqidir. Ruhiyat o'z navbatida yashash sharoitlari, insonning turmush tarzi bilan doimiy aloqada. Shu sharoitlarni insonga mos qilib yaratish jamiyat taraqqiyotiga bog'liq. Binobarin, jamiyatning ma'naviy yuksalishi shu jamiyat taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ana shu jihatlar «Ma'naviyat asoslari» fanining maqsad va vazifalarini belgilab beradi.

Tayanch so'z va iboralar: mustamlaka, mustaqillik, milliy ma'naviyat, milliy tiklanish, meros, qadriyatlар, tarixiy xotira, ma'naviyat insonni jamiki boshqa mavjudotlardan ajratuvchi ijtimoiy hodisa, uslub, uslubiyot, dialektika, tarixiylik – mantiqiylik, kuzatuv.

Hikmatlardan namunalar

Inson yuksak kamolotga erishuv yo'lida harakat qilganidek, aqliy bilishga ham harakat qilsa, hech shubhasiz o'zi intilayotgan so'nggi darajadagi baxt-saodatga erishadi.

Abu Nasr Forobiy.

Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy jihatdan etuk farzandlapi bilan ham jahonni qoyil qilishi lozim.

I. A. Karimov.

Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabitidur.

Abdulla Avloniy

Oltin va kumushi bo'limgan odam kambag'al emas, balki es-hushi va kasb - hunari bo'limgan kishi kambag' aldir.

Majid Havofiy

Tarbiya ishida o'z-o'zini takomillashtirish jarayoniga katta o'rinn berilmog'i lozim. Insoniyat faqat mustaqil o'rganish tufayligina taraqqiy etgan.

G. Spenser

Odam bolalikdan yaxshilik va go'zallik kurtaklarisiz hayotga qadam qo'ymasligi kerak, avlodlarni ham yaxshilik va go'zallik kurtaklarisiz hayotga yo'llab bo'lmaydi.

F. Dostoevskiy

Test topshiriqlari.

1. «Ma’naviyat» so’zi arabcha bo’lib

- a) insonning ruhiy, aqliy jihatlari kabi jarayonlarni ifodalaydi;
- v) insonlarning g’amxo’rligi, qayg’urishi, quvonishi kabi hissiyotlarni mujassamlashganligini anglatadi;
- g) a) va b);
- d) to’g’ri javob yo’q;

2. Quyidagi izohlardan qaysi biri «Ma’naviyat» tushunchasiga mos keladi?

- a) ma’naviyat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch - quadratidir;
- v) ma’naviyat insonning zot belgisi, faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi;
- g) ma’naviyat inson ahloqi va odobi, bilimlari, iste’dodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e’tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarining bir-biri bilan bog’langan mushtarak tizimidir;
- d) noto’g’ri javob berilmagan;

3. «Ma’naviyat» so’zi tor ma’noda ishlataliganda, ...

- a) inson ma’naviyatining umumiylarini qirralari, ularga amal qilish jarayonlari tushuniladi;
- v) ma’naviyatning alohida holati inson ko’z oldida gavdalanishi tushuniladi;
- g) insonning barcha ijobjiy xislatlari majmui tushuniladi;
- d) barcha javoblar to’g’ri;

4. «Ma’rifatning maqsadi xarakterni tarbiyalashdan iborat» degan mashhur fikr muallifi nima?

- a) Gerbert Spenser;
- v) Georg Gegel;
- g) Alisher Navoiy;
- d) Zahiriddin Bobur;

5. «Ma’naviyat asoslari» fanini o’rganishda qanday uslublardan foydalilanadi?

- a) dialektik, falsafiy, tarixiy-mantiqiy, o’xshatish va taqqoslash;
- v) kuzatuv, induktiv va deduktiv, tajriba o’tkazish;
- g) sotsiologik tadqiqot, nazariy izohlash;
- d) barcha javoblar to’g’ri;

6. Ma'naviyatning milliy va umuminsoniy qadriyatlari... qamrab oladi.

- a) millatlar o'rtasidagi ma'naviyat xislatlarini yuksaltirish qonuniyatlarini;
- v) umuminsoniy urf-odatlar va qadriyatlarning yaqinlashish qonuniyatlarini;
- g) turli ijtimoiy guruhlar ma'naviyatini yuksaltirish qonuniyatlarini;
- d) barcha javoblar to'g'ri;

7. «Ma'rifat» so'zi ko'plik ma'noda qo'llanilganda quyidagi ma'noni ifodalaydi?

- a) bilim;
- v) maorif;
- g) tanish;
- d) a) va v);

8. «Bilim-kuch, kuch esa-bilimdadir» degan mashhur ibora muallifi kim?

- a) F. Bekon;
- v) G. Gegel;
- g) A. Navoiy;
- d) Z. Bobur;

9. Ma'naviyat asoslari fanining maqsadi...

- a) mavjud intellektual imkoniyatlarni ishga solish;
- v) yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash;
- g) buyuk o'tmishga hurmat va porliq kelajakka ishonch tuyg'usini shakllantirish;
- d) insonlarni ma'naviyatli qilib tarbiyalash;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

10. Ma'naviy xislatlar quyidagi jarayonlar ta'sirida shakllanadi?

- a) iqtisodiy jarayonlar;
- v) siyosiy jarayonlar;
- g) texnik jarayonlar;
- d) ma'naviy jarayonlar;
- e) hamma javob to'g'ri.

11. Ahmad al-Farg'oniy 1200 yilligi qachon nishonlandi?

- a) 1999 yil 17 dekabrda;
- v) 1998 yil 24 oktyabrda;
- g) 1999 yil 18 dekabrda;
- d) 1992 yil 15 mayda;
- e) 2000 yil 21 yanvarda.

12. Toj-mahal yodgorligi kimga atab qurilgan?

- a) Zebunnisoga;
- v) Arjumand bonuga;
- g) Jahonoro begimga;
- d) Gavharshod begimga;
- e) Saroymulkxonimga.

13. Amir Temurning tarixdagি asosiy xizmatlari nimalardan iborat?

- a) amir Temur o'zaro urushlarga barham berib, kuchli markazlashgan, davlat barpo etdi.
- v) amir Temur davrida savdo sotiq va shahar madaniyati gullab- yashnadi va rivojlandi.
- g) amir Temur ilm-fan va san'atning rivojlanishiga alohida ahamiyat berdi.
- d) Amir Temur ma'naviyatga alohida e'tibor bilan qaradi.
- e) faqat A vaV.

14. Toj-mahal yodgorligi Hindistonning qaysi shaharida joylashgan?

- a) Haydarobodda;
- v) Agrada;
- g) Lohurda;
- d) Ahmadobodda;
- e) Dehlida.

15. O'rxun-Enasoy yozuviga qaysi xalqning madaniy yodgorligi hisoblanadi?

- a) ruslarning madaniy yodgorligi;
- v) yoqturlarning madaniy yodgorligi;
- g) fors-tojik xalqlarining madaniy yodgorligi;
- d) turkiy xalqlarining madaniy yodgorligi;
- e) Xunlarning madaniy yodgorligi.

16. O'zbekiston Respublikasining madhiyasini kim yozgan?

- a) Shukrullo;
- v) Erkin Vohidov;
- g) Muhammad Yusuf;
- d) Abdulla Oripov;
- e) Omon Matchon.

17. Umar Xayyom ruboiylarida qanday mazmun etakchilik qiladi?

- a) ilohiylik;
- v) falsafiy;
- g) tarixiylik;
- d) ijtimoiylik;
- e) siyosiylit.

18. Abdulla Qodiriyning asarlari qaysi qatorda to'g'ri kqrsatilgan?

- a) «Yulduzli tunlar», «Sarob»;
- v) «Mehrobdan chayon», «Obid ketmon», «O'tgan kunlar»;
- g) «Boy ila xizmatchi», «Yulduzli tunlar», «Obid ketmon»;
- d) «Shajarai Xorazmshoxiy»;
- e) «Kecha va kunduz».

19. «Ruboiy janrining otasi» deb tan olingan shoirning nomini toping?

- a) Abu Ali Ibn Sino;
- v) Abduraxmon Jomiy;
- g) Umar Xayyom;
- d) Alisher Navoiy;
- e) Pahlavon Maxmud.

20. O'zbek romanchiligining etakchisi kim?

- a) Abdulla Qodiri, «O'tgan kunlar», «Mehrobdan chayon»;
- v) Oybek, «Qutlug' qon», «Navoiy»;
- g) Hamza Hakimzoda, «Yangi Saodat», «Boy ila xizmatchi»;
- d) Cho'lpon, «Kecha va kunduz»;
- e) Abdulla Qahhor, «Qtmishdan ertaklar», «Sinchalak».

2-mavzu: I.A. Karimovning milliy-ma’naviy tiklanish kontseptsiyasini va uning milliy mustaqillikni mustahkamlashdagi ahamiyati

2.1. Milliy ma’naviy tiklanish va yuksalish kontseptsiyasini vujudga keltirishda tarixiy manbalarining ahamiyati

O’tmishda ota-bobolarimiz, davlat rahbarlari, sarkardalar, amirlarning aksariyati xalqni yuksak ma’naviyatli va ma’rifatli bo’lishini istab, o’z davri shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda, bunday mas’uliyatli va sharafli ishni amalgaloshirish uchun qo’llaridan kelgan barcha choralarini ko’rganlar. Shoir va olimlar, islam dinining muhtaram vakillari hamisha ma’naviyat va ma’rifatning asoschilari va fidoiy targ’ibotchilarini bo’lganlar. Bizgacha etib kelgan manbalarda ezgu niyat, yaxshilik, sodiqlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, do’stlik, odoblilik, mehribonlik, oddiylik, sevgi-muhabbat va kamtarinlik g’oyalari hukmron bo’lgan. Bu g’oyalar millionlab kishilarning qalbiga etib borgan va ularni tarbiyalashga ulkan hissasini qo’shgan va hozirda ham qo’shmoqda. Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Firdavsiy, Sa’diy Sherazi, Jaloliddin Rumiy, Umar Xayyom, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mahmud Qoshg’ariy, Nizomiy Ganjaviy, Imom Ismoil al-Buxoriy, at-Termiziyy, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug’bek, Husayn Boyqaro, Boborahim Mashrab, Uvaysiy, Nodira, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Mahmudxo’ja Behbudi, Fitrat kabi minglab allomalarining ilmiy-adabiy meroslari fikrimizning yorqin dalilidir.

Jumladan, Kaykovusning «Qobusnama», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg’u bilig», Nosir Xisravning «Saodatnama», Sa’diyning «Guliston» va «Bo’ston», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston» hamda Mahmud Qoshg’ariyning «Odob as-solihin» («Yaxshi kishilar odobi»), Firdavsiyning «Shohnoma», Umar Xayyomning ruboiylari va «Navro’znama» asari, Xorazmiyning «Muhabbatnama», Xo’jandiyning «Latofatnama», Said Qosimiyning «Haqiqatnama» va «Sadoqatnama», Amir Temurning «Temur tuzuklari», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» va «Xamsa»si, Boburning «Boburnoma»si va g’azallari, Haydar Xorazmiyning «Gulshan ul-asror», Yaqiniyning «O’q va yoy», Abdulla Avloniyning «Turkiy Guliston yohud axloq» va «Hotamnama» kabi asarlari ta’lim-tarbiya va ma’rifat xazinasidir. Albatta, hozirgi zamon taraqqiyotini, shiddatli o’zgarishlarini va siyosiy jarayonlarini o’tmish asrlarga tenglashtirib bo’lmaydi. Yangi zamonning o’z talab va ehtiyojlari bor. Zero, dunyo o’zgargan, undagi shaxslar faoliyati ham unga xosdir. Bu o’zgarishlar shubhasiz qanchalik bo’lmashin, zamon talabiga javob beradigan bo’lishi lozim. Demak, ma’naviyat va ma’rifat ham zamonaviy zaruriyatga aylanishi tabiiyidir. Shu ma’noda, xalqimiz orasidan etishib chiqqan buyuk o’zbek farzandi I.A.Karimov ham yuqoridaq siymolar qatorida ma’naviyat va ma’rifatni davlat siyosati darajasiga ko’tardi.

2.2. I.A.Karimovning asarlari va farmonlarida yuksak ma’naviyat g’oyalarining qo’yilishi va rivojlantirilishi.

Respublika Prezidenti o’zining asarlari va ma’ruzalarida izchillik bilan ma’naviyat va ma’rifat sohasiga alohida e’tibor bermoqda. Jumladan, «Mustaqillik-ulkan mas’uliyat», «Fan Vatan ravnaqiga xizmat qiladi», «1997 yil-Inson manfaatlari yili bo’lsin», «Yuksak ma’naviyatsiz kelajak yo’q», «O’zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo’lida», «Iroda va iymon e’tiqodimiz sinovi», «Vatan ozodligi-oliy saodat», «Olloh qalbimizda, yuragimizda», «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz», «O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida...», «O’zbekiston XXI asrga intilmoqda», «Qonun va adolat ustuvorligi erkin va farovon hayot kafolatidir», «Sirdaryoning salohiyati va shuhratini mard, oriyatli insonlar tiklaydi» kabi o’nlab asar va ma’ruzalarida ma’naviyatning turli qirralari yoritilganki, bularning barchasi respublika ziylolarini ushbu sohada olib borayotgan ishlarini yanada yuqori bosqichga ko’tarilishiga yordam berayotir.

Ma’lumki, Respublika xalq xo’jaligining turli jabhalarida o’zgarishlar bo’layotganini, O’zbekistonda yashayotgan fuqarolargina emas, balki xorijiy mamlakatlar fuqarolari ham e’tirof etmoqdalar. Bu o’zgarishlar ma’naviyatning o’zgarishiga ham ta’sir etayotir, albatta. Avvalo, aytish lozimki, mustaqillik va milliy ong erkinligi tafakkur ozodligini, ma’naviy, ma’rifiy etuklik va barkamollikni taqozo etadi. Bu jarayonga mamlakat miqyosida erishish shaxslarda yuksak ma’naviyat shakllanishiga tezroq olib keladi. O’z navbatida yuksak ma’naviyatli bo’lishni ta’minalash umumxalq ishidir. Ayniqsa, bu-oila, bog’cha, maktab oliy ta’lim tizimining muqaddas burchidir. To’g’ri, bu sohada Respublika Prezidenti I.A.Karimovning Oliy Majlisning birinchi sessiyasidayoq aytilgan fikrlariga amal qilib, anchagina ishlar amalga oshirildi. Yurtboshimizning tashabbusi bilan 1994 yil 23 aprelda «Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik Markazini tashkil qilish to’g’risida»gi farmon va shu yilning 8 iyunida Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. Shu qaror asosida «Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik Markazi ish boshladi. Undan sal oldinroq Prezidentimiz tashabbusi bilan «Termiz ma’naviyat akademiyasi» ham ish boshlagan edi.

Shu xayrli ishlarning davomi sifatida 1996 yil 4 sentyabr kuni Respublika «Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik Markazi rahbariyati hamda boshqaruv a’zolarining respublika Prezidenti bilan uchrashuvi bo’lib o’tdi. Shundan so’ng oradan sal vaqt o’tmay yana boshqa farmonlar va qarorlar e’lon qilindi. Bu farmonlar va qarorlarni hayotga tatbiq qilish uchun ulkan ishlar olib borilmoqda.

Ma’lumki, bozor munosabatlariga o’tish davridagi besh tamoyilning birinchisidayoq, Prezidentimiz, iqtisodiyotni siyosatdan ustuvor bo’lishini ta’kidlagan edi. Bu tamoyilni endilikda haqiqiy bashorat ekanligini sezib turibmiz, O’zbekiston o’tgan yillar ichida iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy sohalarda sezilarli yutuqlarga erishdi. Lekin ming afsuski, farmonlarni birida ta’kidlanganidek, zo’ravonlik mafkurasidan, uning ba’zi sarqitlaridan haligacha ham ba’zi joylarda qutulganimizcha yo’q. Shu sababli, Prezident «Ma’naviy-ma’rifiy islohotlar davlat siyosatining asosiy, ustuvor yo’nalishi deb hisoblansin», – deb uqtiradi. Binobarin, bozor munosabatlariga o’tish

davrida ba’zi kishilarda tushkunlik, xudbinlik, boqimandalik kayfiyatları, esankirash xislatları yo’q emas edi. Bu xildagi kayfiyatlarining oldini olish, keljakka ishonch bilan qarash xislatlarini har bir yosh avlodga singdirish ma’naviyatni yuksaltirish orqaligina amalga oshadi xolos. Ma’naviyat va ma’rifat, tarbiya, bilim-bu sohalar o’zaro bir-biri bilan chambarchas-dialektik bog’langan desak mubolag’a bo’lmaydi.

Amir Temur zamonlarida jamiyatda yashovchilarni yuksak saviyali, madaniyat va ma’naviyat sohiblari qilib tarbiyalashni davlat o’z zimmasiga olgan edi. Mana, endilikda yana shu davrlar mustaqillik natijasida qaytib keldi. Shu sababli, farmon va qarorlardan yaqqol seziladiki, bu sohalarni rivojlantirishdagi har qanday g’ovlar olib tashlanishi, to’siqlarga barham berilishi ta’kidlangan. Bu ishda ham tegishli moddiy texnika bazasi yaratilishi ravshan belgilangan.

Ma’naviyatni yuksaltirishning bosh yo’li endilikda ham «Bilim va tarbiya» ekanligi namoyon bo’lmoqda. Ma’naviyatni tor tushunishdan endi voz kechilmog’i darkor. Ma’naviyatli bo’lish – bu faqat tarbiyali va mo’minqobil inson bo’lishgina emas, balki bu tariximiz va ajdodlarimiz, boy madaniy merosimizni o’ylab millat kelajagi uchun bosh qotirish, boshqa millat vakillariga insoniylik munosabatlarini ko’rsatish, milliy g’urur va iftixorga ega bo’lish, el-yurt deb, yonib yashash, urf-odat, qadriyatlarni tiklash va e’zozlash kabi juda ko’p sohalarni qamrab oladiki, bular har bir shaxsda mujassamlashgan bo’lishi shart. Shu munosabat bilan ma’naviyatga oid nashr ishlarini astoydil yo’lga qo’yish maqsadida Prezidentimiz tashabbusi Respublika «Ma’naviyat va ma’rifat» markazi qoshida «Ma’naviyat» nashriyoti tashkil etildi. Bu nashriyotning va barcha ziyoilarning bosh vazifasi I.A.Karimovning xalqimizda mustaqillik g’oyalari asosida yuksak ma’naviyatli-komil insonlarni shakllantirish kontseptsiyasini amalga oshirish, hayotga tatbiq etish bo’lmog’i lozim va shunday bo’layotir ham.

Farmon va qarorlarda ayniqsa yoshlar faoliyatiga ko’proq diqqat-e’tibor qaratilgan. Chunonchi, yoshlar davlatimiz, jamiyatimiz egalaridir. 1996 yil 9 sentyabrdagi Farmonda «Yoshlarimiz ongiga ona - Vatanga, buyuk ajdodlarimiz merosi va xalqimizning bugungi misli ko’rilmagan bunyodkorlik ishlariga yuksak ehtirom tuyg’ularini singdirish maqsadida ularni dunyonи hayratga solgan qadimiy yodgorliklar va mustaqillik davrida bunyod etilgan ulkan inshootlar, ma’rifat maskanlari, yurtimizning go’zal tabiatini bilan muntazam tanishtirib borish uchun maxsus tanishtiruv sayyohatlari tashkil etish barcha hokimliklar zimmasiga yuklatilsin»¹-deyiladi. Bu vazifalarni amalga oshirishda respublikamizdagi oliy o’quv yurtlarining olib borayotgan ishlari ham ulkan, sharaflı va muqaddasdir. Ta’kidlash lozimki, respublikamiz nihoyatda boy tarix va madaniyatga ega. Yaqin yillargacha bu boy tarix va madaniyat sobiq mustabdid tuzumi niqobida kamsitildi, kamaytirildi, kezi kelganda yashirib ham kelindi. Tarix obidalari, madaniy meros yo’q qilindi va ular haqida bosmadan chiqarilgan maqolalar, risolalar, kitoblar hukmron mafkura asosida yaratildi. Natijada, tayyorlangan xodim va mutaxassislarning bilim saviyasi ham «o’ziga yarasha» bo’ldi.

¹ Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to’g’risida. //Xalq so’zi. 1996 yil, 10 setyabr

Hududimizdagi nomlari unutilayozgan yodgorliklar tiklanib, milliy urfatlarimizga oid, madaniy merosga taalluqli kichik va katta asarlar nashrdan chiqarildi. Ta'kidlash lozimki, tarixiy yodgorliklarni ko'rish uchun borgan sayyoohlар ko'pincha aniq bilimga ega bo'lmay qaytar edilar. Chunki, yodgorliklarni tanishtiruvchilarning ko'pchiligi mukammal bilimga ega emas edilar. Sababi, kerakli manbalar yo'q edi. Hozirgi kunda bunga ham chek qo'yilmoqda. O'z navbatida, bu mutaxassislarni maxsus oliy o'quv yurtlarida tayyorlash, ularni kuchli bilimga ega bo'lishini ta'minlash va vatanparvarlik xislatlarini singdirishga asosiy omil hamdir.

Mustaqil hayotimizning hozirgi bosqichida mamlakatimiz kelajagi hisoblangan yoshlarda, umuman, aholi o'rtasida vatanparvarlik, milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish nihoyatda dolzarb masaladir. Ammo, Prezidentimiz fikricha, bu sohada olib borilayotgan ishlar hali ham davr talabi darajasida emas. Ba'zi yoshlarda paydo bo'layotgan shaxsiy xudbinlik, maishiy buzuqlik, axloqiy tubanlik, kattalarning nasihatlariga e'tiborsizlik, Evropaning ba'zi bir, bizga mos kelmaydigan jarayonlariga (pornografiya, giyohvandlik, seks) berilib ketishi, turli ekstremistik guruhlarga yoshlarimizni bilib, bilmasdan kirib qolishi jamoatchilik fikrini mensimaslik kabi salbiy xislatlar vatan istiqboliga nisbatan bo'lgan loqaydlikning natijasidir.

Vatanimizda bo'layotgan o'zgarishlarni, uning tarixini, boy merosimizni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning tub mohiyatini, respublikamizning imkoniyatlarini anglamagan hamda porloq istiqbolga erishish yo'lida fidoyilik namunalarini ko'rsatmagan yoshlar haqiqiy vatanparvar bo'la olmaydilar. Shu sababli, o'quv tizimlarining barcha bosqichlarida «Ma'naviyat asoslari» darslarini joriy qilish maqsadga muvofiq bo'ldi. Oliy o'quv yurtlarida, akademik litseylarda, kasb-hunar kollejlarida, maktablarda bu sohada ma'lum darajada tajribaga ega bo'ldik. Ayni paytda, darslik dasturlari ishlab chiqildi va hayotga tatbiq qilinmoqda. Shu bilan bir qatorda «Odobnama» darslari to'g'risidagi tortishuvlarga chek qo'yilib, uni mukammallashtirish bog'cha, maktab, litsey va kollejlarda to'la tatbiq etildi.

Mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar Prezidentimiz I.A.Karimov faoliyati bilan bog'liqligi endilikda hech kimga sir emas. Lekin, erishilgan yutuqlar ichida shunday bir yutuq borki, bu yutuqni boshqa yutuqlar ichida ustuvor desak xato bo'lmaydi. Bu yutuq ma'naviy yuksalish yutug'idir. Bu sohada qilingan va qilinayotgan ishlar «inson», degan zotni quvontirmay iloji yo'q. Ma'naviy yuksalish har bir insondagi ruhiy holat, ong taraqqiyoti bilan bog'langandir. Endilikda yuksak ma'naviyatni shakllantirishga harakat qilgan ziyyolilar miqdori oshdiki, ular ma'naviyatga qayta-qayta ta'rif berib uni sayqallashtirmoqdalar. Bu sayqallashtirishga I.A.Karimovning quyidagi fikrlari asosiy tayanch bo'lib xizmat qilmoqda: «Ma'naviyat insonga havodek, suvdek zarur. Sahrodagi sayoh har doim buloqdan chanqog'ini bosadi. Xuddi shuningdek inson ham necha-necha azoblar va qiyinchiliklar bilan ma'naviyat chashmasini izlaydi. Er, oila, ota-on, bolalar, qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar, xalq, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik – ma'naviyatning ma'nosi ana shunday juda keng... Inson o'zini xalqining bir zarrasi deb sezgandagina, u haqda o'ylab, mehnat

qilib yashagandagina ma'naviyat bilan tutashadi.... Ma'naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalban va vijdonan, aql va qo'l bilan mehnat qilishi kerak»¹.

Ko'rib turibmizki, ushbu fikrlar xalqimiz turmush tarzidan kelib chiqib aytilgan fikrlardir. Ma'naviyat tarbiya bilan uzviy bog'langan. Shu sababli, I.A.Karimov: «Ma'naviyat tarbiyaning eng ta'sirchan quroli ekan, undan oqilona foydalanish, bolalarimizni vatanparvarlik, rostgo'ylik, haqsevarlikka o'rgatish kerak bo'ladi. Aslini olganda axloq-ma'naviyatning o'zagi. Inson axloqi shunchaki salom-alik, xushmuomaladangina iborat emas. Axloq bu – avvalo insof vaadolat tuyg'usi, iymon, halollik degani»², -deb ta'kidlaydi.

Ma'naviyat insonda mehnat qilish qobiliyatini shakllantiradi. Ayniqsa, yoshlarni mehnat qilishga va uni qadrlashga yo'naltiradi. Mehnat bu inson hayotidir. Hayot ham o'z navbatida mehnatdan iboratdir. Mehnat tufayli insonda tashabbus, ijod, izlanish, yangilikka intilish paydo bo'ladi. Mehnat insonni hayot qiyinchiliklariga bardosh berishga o'rgatadi, tayyorlaydi. «Insonning o'zi va o'z faoliyati baxt-saodati yo'lida tinmay mehnat qilishga tayyor ekanligi uning ichki imkoniyatlari va vazifalarini tashkil etadi. Bu keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy niyatlar xalqimizning mehnatsevarligidan kelib chiqadi», – deb ta'kidlaydi, I.A.Karimov.

Tabiiyki, birorta yangi jamiyat ham mehnat jarayonisiz jamiyat bo'la olmagan. O'zbekistonda ham yangi jamiyat qurilar ekan, bu-xalqning dunyoqarashi va bevosita ma'naviyati bilan ham bog'langan. Aks holda, o'zbek xalqidagi ba'zi takabburlik qiluvchilar, firibgarlar, munofiqlar, poraxo'rللار, laganbardorlar, manmanlar, qolaversa jamiyatning rivojini ko'raolmaydiganlar unga salbiy ta'sir ko'rsatadilar. Shuning uchun ham I.A.Karimov O'zbekistonning yangilanish negizlarini kengroq qilib tushuntiradi: «O'zbekistonning yangilanish va rivojlanishining o'z yo'li to'rtta asosiy negizga asoslanadi.

Bu negizlar:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik»¹.

Ma'naviyat falsafiy tushuncha sifatida Prezidentimiz faoliyatidan mustahkam o'rinn oldi. Xalq va ma'naviyatning dialektik munosabati I.A.Karimov asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadiki, ular haqiqatdan ham chambarchas bog'liq va o'zaro munosabatdadir. «Ma'naviyat... yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi. Nafaqat ko'hna tarix, balki, yangi tarix ham buning ko'plab misollarini biladi»¹.

Insonlar jamiyatda yashaydi. Jamiyat taraqqiyoti shu insonlarga bog'liq. U doimo iqtisodiy, siyosiy, madaniy, texnikaviy jihatlardan yangilana boradi. «Biz barpo etayotgan yangi jamiyat, - deydi I.Karimov,-yuksak ma'naviy va axloqiy

¹ O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. - T.: O'zbekiston, 1996, 80-81-bet.

² I.A.Karimov. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: O'zbekiston, 1995, 53-bet.

¹ I. A. Karimov. Istiqlol va ma'naviyat. - T.: O'zbekiston, 1994, 5-bet.

¹ I. A. Karimov. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.: "O'zbekiston", 1996, 81-bet.

qadriyatlarga tayanadi va ularni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi»². Ushbu jihatlarni hal etish ko'proq kadrlar masalasiga borib taqaladi va u minglab yuksak ma'naviyatli mutaxassis kadrlar tayyorlanishiga bog'liq bo'ladi. Ming afsuski, ko'pgina rahbar kadrlarning ma'naviyati yuksak darajada deb bo'lmaydi. Ularning ba'zilari uzoqni ko'rib ish tutmaydilar. «Eng avvalo, ishlab chiqarishga tadbirkor, aqlii, tashabbuskor, ish va jamoa manfaatlari haqida jon kuydiradigan insonlar etakchilik qilishi zarurligini hayotning o'zi talab etmoqda. Lekin ming afsuski, ishlab chiqarish sohasidagi ayrim rahbarlarning suyagi eski zamonda qotgan, ishga munosabati o'zgarmayapti...»

Ming afsuslar bilan aytishimiz kerakki, olajanob va ulug'vor niyatlar, odamlarning g'am-tashvishlari, muammo va yumushlari chetda qolib, vazifada o'tirgan ayrim mansabdor o'yinchiga aylanib, bir-birining joyini olish, amal talashish bilan ovora bo'layotgan holatlarni ko'rish mumkin»³. Aslini olganda, bunday xislatlar o'zbek xalqidan etishib chiqqan ko'pgina rahbar xodimlarga yot narsadir. Chunki, xalqimiz qalbida o'zaro hurmat, izzat, ko'maklashish, jonkuyarlik hamisha ustuvor yo'nalishlar bo'lib kelgan. Shu sababli ham I.A.Karimov insonda yuksak ma'naviyatni shakllantirishning yangi-yangi uslub va yo'larini izlab topishga har bir ziyolini undaydi. Sababi, har bir insonda ma'naviyat ozmi-ko'pmi mavjud. Ammo yuksak ma'naviyat esa hamma insonda ham bo'lavermaydi. Yuksak ma'naviyat oltinu gavhar, mansabu manmanliklardan ko'p marotaba ustun turadi. Bu ko'proq sof vijdonli, e'tiqodli insonlarda shakllangan bo'lib, Ollohning shu insonga bergen oliy ne'matidir.

Ma'naviyati yuksak insonlarning bag'ri keng, his tuyg'ulari esa jamoa, jamiyat, davlat, oila manfaatlari yo'lida alangalangan, chinakam bo'ladi. Bunday inson sof va tiniq fikrlaydi. Uzoqni ko'rib ishlay oladi.

Sof insoniy tuyg'u, o'zbek xalqida shu qadar rivojlanganki, u bebahodir. Milliy-ma'naviy bag'rikenglik, uning umumiy manfaati va ruhiyatining ajralmas bo'lagiga aylangan. Ha, yuksak ma'naviyat xalqimizning ruhiyatidan kelib chiqadi. Bu ruhiyat o'zbek xalqiga asrlar davomida singdirilgan, shunga moslashgan. Ajdodlarimizning ko'plarga namuna bo'ladigan xislatlari osmondan tushirilgan qandaydir tasodifiy narsa emas. Bu xislatlarning shakllanishi, azaldan ularning bilimga intilishi, dunyoviy bilimlardan o'z vaqtida xulosa qilib, o'z ma'naviy jihatlarini boyitishga bo'lgan munosabatlardandir.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida shunday bilimdonlar zarur bo'lib bormoqdaki, bu kundalik ehtiyojdir. Bu jiddiy masala barchaning diqqatini tortishi davr talabidir. Ma'naviy etuk insonlarni tarbiyalash ta'lim va tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga ham bog'liq. Chunki, ayni bilimlilik va yuqori ma'naviyatlilikdan hammaning baxt-saodati yo'lida foydalanish mumkin. Aslini olganda etuk insonlarni aqliy faoliyatları, tafakkuri jahon fani va ma'naviyatining eng yaxshi yutuqlarini o'ziga singdirib olgan yangi avlodni tarbiyalash, kamol toptirish davr talabidir.

² I. A. Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.: 2000, 18-bet.

³ I. A. Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Tom 1I, T.: "O'zbekiston", 1996, 12-13-bet

Bu muhim va dolzarb masala O'zbekiston Prezidenti tomonidan 1997 yilda Oliy Majlisning «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning ishlab chiqarilishi haqidagi ma'ruzada ham qayd etiladi: «Sir emaski, har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat er osti va er usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir»¹.

¹ Barkamol avlod -O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: 1997, 5-bet.

2.3. Ma’naviy yuksalishning tarixiy ahamiyati

Vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg’usini shakllantirish mavsumiy ish emas, balki har kuni, barcha ziyyolilar amalga oshirishi lozim bo’lgan doimiy muhim tadbirdir. Ayniqsa, hozirgi paytda bu borada maqsadga muvofiq keladigan, mantiqiy tizimga ega bo’lgan, samarali tadbirlar zarur bo’lib qolmoqda. Shulardan kelib chiqib «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha tadqiqotlar» o’tkazish uchun sotsiologik markazlar ishini tashkil qilish lozimligi maqsadga muvofiq bo’ldi. Bu markaz respublika «Ma’naviyat va ma’rifat» markazi qoshida tashkil etilib, oliygochlар va boshqa sharoiti mavjud bo’lgan joylarda faoliyat ko’rsata boshladi.

Yoshlar o’rtasida mazkur sohada ish olib borishning samarali yo’llaridan biri bu – ko’rgazmali ishlarga e’tiborni qaratishdir. Shu munosabat bilan televideenie, radio ko’rsatuвларини yanada yaxshilash lozim. Ularda «Vatan tuyg’usi» nomi bilan zamonaviy va merosimizga oid ko’rsatuv va eshittirishlar ko’proq tashkil qilinsa, tarbiya samaradorligi oshadi. Shu bilan birga, ma’naviyatimizni yuksaltirgan buyuk shaxslar haqida hujjatli filmlar, ularga oid materiallar, portretlar markazlashgan holda ko’proq chop etilib tarqatilishi zarur.

Hozirgi kunda xususiy nashriyotlar sonining oshishi natijasida turli risola va kitoblar o’z holicha nashr qilinayotir. Bu nashriyotlarda chop etilayotgan ma’naviyatga oid asar va ilmiy ishlar Respublika «Ma’naviyat va ma’rifat markazi» qoshida tashkil etilgan uslubiy markaz muhokamasidan o’tishi lozim. Ma’lumki, Prezidentimiz talabi asosida «Ma’naviyat va ma’rifat markazi»ning tuzilishi qayta ko’rib chiqildi va qayta ko’rish jarayonida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni olib borish uchun metodik markaz ham tuzildi. Unga respublikamizdagи yirik pedagoglar, iqtidorli o’qituvchilar, faylasuf va iqtisodchi olimlar jalb etildi va ular ishtirokida ma’naviyat tarbiyasining metodologiyasi to’g’risida nazariy va amaliy mashg’ulotlar o’tkazila boshlandi.

1999 yilning 3 sentyabrida Prezidentimizning Respublika «Ma’naviyat va ma’rifat Kengashi»ni qo’llab-quvvatlash to’g’risida»gi farmoni e’lon qilindi. Unda yana bir bor, ma’naviy-ma’rifiy islohotlar davlat siyosatining asosiy, ustuvor yo’nalishi ekanligi ta’kidlanib, respublikada ta’sis etilgan «Ma’naviyat va ma’rifat kengashi»ni qo’llab-quvvatlash haqida jiddiy fikr yuritildi. Hokimlarning kengash raislari etib saylanganligi ijobjiy tarzda ta’kidlandi. Hatto, markazning joylardagi bo’limlarini qaysi binolarda (hokimlik binosi) joylashtirilishi ham ko’rsatildi. Bu ma’naviyat rivoji uchun ko’rsatilgan beqiyos hurmat va g’amxo’rlikdir.

Ma’naviyat ishlarini olib borish ko’proq quyi bo’limlarda amalga oshadi. Shu munosabat bilan endilikda har bir jamoada Ma’naviyat markazining tarkibiy qismlarini yoki boshlang’ich tashkilotlarining faoliyati ham qayta ko’rib chiqildi. Viloyat bo’limlari o’tkazayotgan ba’zi tadbirlarni radio va televideinedan eshitamiz, ko’ramiz, matbuotda o’qiymiz. Bu quvonarli hol. Ta’kidlash joizki, «Ma’naviyat va ma’rifat» markazining tarkibiy qismlarini fuqarolarning o’z-o’zini boshqarish kengashlarida, mahallalarda, korxona va firmalarda, barcha oliy o’quv yurtlarida tashkil etilganligi yaxshi samara berayotir. Bu maqsadga erishishda yana bir turtki bo’ldi. Endilikda respublika «Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik markazining

boshlang'ich tashkilotlarida o'z nizomi asosida uzlusiz ish olib borishi an'anaga aylandi. Barcha ishlari shu boshlang'ich tashkilotlar orqali amalga oshadigan, omma orasiga kirib boradigan bo'ldi.

I.A. Karimovning ta'kidlashicha, boshlang'ich tashkilotlarining faoliyatini yaxshilash hokimlparga bog'liqdir. Ularning ishlarini tashkil qilishga ko'maklashish, moddiy texnika bazalarini yaratib berish yutuqlar garovi bo'ladi. Boshlang'ich tashkilotlar ish boshlagan taqdirda nafaqat mamlakatimiz va dunyo tan olgan buyuk shaxslarimiz, boy madaniy merosimiz, qadriyatlarimiz targ'ib qilinadi, balki, har bir jamoada yaxshi xizmat qilib, shu jamoada nom qoldirgan, hurmat qozongan kishilar va shu jamoaning urf-odatlari, ijobiy tomonlari ham targ'ib qilinib, har bir shaxs tarbiyasiga ta'sir ko'rsatiladi. Shu bilan birga boshlang'ich tashkilotlar doimiy tarzda kundalik tarbiyaviy ishlarni olib borishga ham ko'maklashadilar.

Joylardagi markazlar jamoat tashkilotlari bilan aloqada bo'lsalar, ular jamoa ish rivojiga o'z hissalarini ko'proq qo'shadilar. Ular nafaqat targ'ibot ishlari bilan cheklanib qolmasdan balki, jamoa ahli o'rtasida ham kichik-kichik sotsiologik-ijtimoiy tadqiqotlar o'tkazib, ulardan xulosalar olishni ham ko'zda tutishlari lozim. Bu bilan urf-odatlar, to'ylar, turli marosimlar, tadbirlar o'tkazish uchun tavsiyalar ishlab chiqishda ham ko'maklashadilar. Shunday ekan, boshlang'ich tashkilotlar tarkibiga avvalo mutaxassislar, malakali o'qituvchilar, oqsoqollar, namunaviy axloqqa ega bo'lgan shaxslarning jalb qilinishi va a'zolar etib saylanishi maqsadga muvofiqdir. Ma'naviyat markazlari olimlar, tarbiyachilar, jamoatchilar uyiga aylanishi kerak.

Respublika Prezidenti tomonidan milliy an'analar, urf-odatlar, qadriyatlarni tiklash, ma'naviy poklanish va ularni hayotga keng joriy etish uchun yanada keng imkoniyatlar yaratildi. Biroq, bu vazifalarni amalga oshirish o'ta murakkab, lekin sharaflidir. Shu sababli, mamlakatimizning har bir fidoyisi, bo'lajak xodimlar bu sharaqli ishdan cho'chimasligi, qo'lidan kelgancha harakat qilishi kerak. Shundagina ma'naviy yuksalishning tarixiy ahamiyati va uning hayotiyligi seziladi.

Tayanch so'z va iboralar: davlat siyosati, farmon, qaror, ma'naviy-ma'rifiy islohot, tarbiya va bilim, jamoatchilik markazi, mustaqillik sharofati, ma'naviyat va ma'rifat kengashi, ma'naviyat homiysi, tarixiy manbalar.

Hikmatlardan namunalar:

Men Abdulla Avloniyning: Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir,-degan fikrini ko'p mushohada qilaman.

Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lган bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir.

I. A. Karimov

Vaqt pillapoyasi cheksizdir, bir-birining o'rnini egallab boradigan avlodlar zinadan zinagagina ko'tariladilar, xolos. Jamlangan tajribani har bir avlod o'zidan keyin kelayotgan, o'zidan keyin uni taraqqiy ettiradigan va boyitadigan navbatdagi avlodga etkazib beradi.

Abu Rayhon Beruniy

Tsivilizatsiya nima degani? Bu olg'a ketayotgan inson har qadamda yuzaga keltirayotgan doimiy kashfiyotlardir: taraqqiyot so'zining o'zi ham shundan kelib chiqqan.

Viktor Gyugo

Aqliy zakovat va ruhiy-ma'naviy salohiyat-ma'rifatli insonning ikki qanotidir.

Islom Karimov

Qobiliyatli odamni tarbiya qilmaslik-zulmkorlik va noqobil odamga tarbiya hayfdir. Tarbiyangni ayab unisini nobud qilma, tarbiyangni bunisiga zoe ketkazma.

Alisher Navoiy

Test topshiriqlari:

1. Prezident I.A.Karimovning «Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik markazini tashkil qilish to’g’risida»gi farmoni qachon chiqarilgan?

- a) 1993 yil 23 aprel;
- v) 1994 yil 23 aprel;
- g) 1995 yil 15 mart;
- d) 1997 yil 26 avgust;
- e) 1998 yil 1 sentyabr;

2. Quyidagi nashriyotlardan qaysi biri Prezidentimiz tashabbusi bilan Respublikada «Ma’naviyat va ma’rifat» markazi qoshida tashkil etilgan.

- a) «Ma’naviyat»;
- v) «O’qituvchi»;
- g) «Mehnat»;
- d) «Sharq»;
- e) «O’zbekistonda»;

3. «Ma’naviyat va ma’rifat Kengashi»ni qo’llab- quvvatlash to’g’risidagi Prezident farmoni e’lon qilingan sanani ko’rsating?

- a) 1999 yil 4 aprel;
- v) 1998 yil 3 sentyabr;
- g) 1999 yil 3 sentyabr;
- d) 2000 yil 21 sentyabr;
- e) 2001 yil 10 yanvar;

4. «Ma’naviy va ma’rifiy ishlar bo'yicha tadqiqotlar» markazlari qaysi tashkilot qoshida faoliyat olib boradi.

- a) Madaniyat ishlar vazirligi qoshida;
- v) Oliy va o’rta maxsus ta’limi vazirligi qoshida;
- g) «Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik markazi qoshida;
- d) Vazirlar Mahkamasi huzurida;
- e) Prezident devoni qoshida;

5. Jamiyat taraqqiyotini halokatdan qutqarib qoladigan kuch...

- a) ta’limdir;
- v) tarbiyadir;
- g) mustaqillikdir;
- d) ma’rifatdir;
- e) tafakkurdir;

6. O'zbekistonda xalqning ma'naviy-ma'rifiy kamolotiga qanday yondashilmoqda?

- a) milliy muammo sifatida;
- v) konkret etnik masala sifatida;
- g) umumdavlat siyosati sifatida;
- d) ilmiy – nazariy muammo sifatida;
- e) tarixiy-mantiqiy muammo sifatida;

7. Ilm –fan qanday paydo bo'ladi?

- a) kishilarning hayotiy ehtiyojlari zaruriyatidan;
- v) ziyolilarni etishmasligidan;
- g) jamiyat talablaridan;
- d) davlat talabidan;
- e) barcha javoblar to'g'ri;

8. «Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'limg'ay» fikri kimga taalluqli?

- a) at Termiziy;
- v) Najmiddin Kubro;
- g) imom al-Buxoriy;
- d) Alisher Navoiy;
- e) Amir Temur;

9. «Turkiy Guliston yohud axloq» asarining muallifi kim va u qanday xarakterga ega?

- a) Ahmad Donish faoliyatini aks ettiradigan;
- v) M. Behbudiy o'gitlari xarakterida;
- g) Oybek avtobiografik hikoyasi;
- d) Abdulla Avloniy, axloqiy-ma'naviy asar;
- e) Fitrat ma'rifiy asar;

3-mavzu: Ma’naviyat va ma’rifatning o’zaro munosabatlari

3.1. Ma’naviyat va ma’rifatning qadimiyligi

Ma’naviyat va ma’rifat sohasida Respublikamizda diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilayotir. Natijada, O’zbekiston aholisi yangi insonparvar, demokratik huquqiy davlatni barpo etishga, yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalab voyaga etkazmasdan turib erishish mumkin bo’lmasligini kun-sayin sezib turmoqda.

Binobarin, «Ko’p asrlik tariximiz shuni ko’rsatadiki, inson dunyoqarashining shakllanishida ma’rifatning.... o’rni beqiyos»¹

Ma’lumki, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan chiqarilgan Farmonlar va Vazirlar Mahkamasining qarorlarida ma’naviyat va ma’rifatning o’zaro yaqinligi ko’rsatilib, ularning o’z o’rnidagi ahamiyatlari ta’kidlangan. Jumladan, Respublika Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 9 iyundagi qarorida targ’ibot ishlariga jiddiy ahamiyat qaratilib, «Sotsiologik tadqiqotlar, so’rovlar o’tkazish orqali o’zbek xalqining boy ma’naviy-madaniy merosi, sharqona va umuminsoniy qadriyatlar asosida mamlakat, millat kelajagini belgilaydigan ilg’or g’oyalarni yuzaga chiqarish hamda hayotga tatbiq etish ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish» nazarda tutilgan.

Ma’naviyat, ma’rifat bu bir butunning ikki tomonidir. Ma’naviyat muayyan ijtimoiy tuzum zamirida rivojlanadi. Har bir ijtimoiy taraqqiyot bosqichida o’ziga xos ma’naviyat xususiyatlari tarkib topganki, uni tarix zarvaraqlarini olib tahlil qilganda yaqqol ko’zga tashlanadi. Ma’naviyat va ma’rifat o’sha ijtimoiy hayotda o’z aksini topgan va shu hayotga gohida salbiy, gohida ijobiy ta’sirini ko’rsatgan. Binobarin, ijtimoiy borliq insoniyat hayotida etakchi o’rinni egallasa ham aslida insonlarning ongli faoliyati, ma’naviy xislatlari, shu borliqni o’zgartirishga olib kelgan. Shuni ta’kidlash kerakkii, hamma vaqt ham kishilarni moddiy taraqqiyot yuksak ma’naviyatli qilib boravermaydi. Boy bo’lib ketgan insonning hammasi ham birdaniga yuksak ma’naviyatli bo’lgan emas. Inson ma’naviyati ma’lum tarixiy ijtimoiy zamin asosida, atrof-muhit, shart-sharoitdan kelib chiqib takomillashadi.

Ma’naviyat manbalari «Avesto», islomiy fikrlar, o’tmishning ilg’or qadriyatлari, udumlar, Qobusnama, Zafarnoma, Hotamnama, Boburnoma, Temurnoma, Shayboniynoma, Abu Rayhon Beruniyning «O’tmish avlodlardan qolgan yodgorliklari», Ibn Sinoning «Donishnama», Bahovuddin Naqshband tariqatlari, Abu Nasr al-Forobiyning falsafiy qarashlari, Amir Temur o’gitlari va boshqa minglab asarlar ma’rifat orqali aholiga singdirilgan. Demak, xalqimiz azaldan ma’rifatga intilgan ekanki, bu bebaho ma’naviyat maskanlarini, madaniy yodgorliklarni, udum va qadriyatlarini ko’z qorachig’iday saqlab kelmoqdalar. Go’zal va nafis obidalarni me’morchilik sirlarini esa avloddan-avlodga o’tkazib, meros sifatida e’zozlaydilar.

Ma’naviyatning tarkib topishi xalqimizga monand bo’lgan udumlarda ham o’z mazmunini topgan. Udumlarimiz bolalarda beg’uborlik, o’smirlikda barkamollik, insoniylikda kamolot va e’tiqod kabi hayotiy jarayonlarni shakllantiradi. Ma’naviy

¹ I. A.Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.: “O’zbekiston”, 2000, 26-bet.

udumlarimizdan turli o'yinlar, ashulalar, ko'pkari, kurash, dasturxon yozish, hashar, fotiha qilish, yaxshilik qilish, hayitlar, sovchilik, to'ylar, to'yonalar, ont ichish, irimlar, xudoyi, xayr sadaqa, ibodat va boshqa sohalar ma'naviyatni tabiiy shakllantirish sohalaridek tuyilsa ham, ularni insonga singishi ma'rifatga borib taqaladiki, bu sohalar ma'rifatsiz insonga singmaydi. Ma'naviyat va ma'rifat sohasidagi uzoqlik nisbatandir. Ularni bir-biridan ajratish aslo mumkin emas. Ma'naviyat birlamchi, ma'rifat ikkilamchi deyish ham bu asnoda o'rinsizdek. Organizm yarimta bo'limgani singari ma'naviyat ma'rifatsiz bir butun bo'la olmaydi. Bozor munosabatlari rivojlanayotgan hozirgi davrda mustaqilligimizni mustahkamlash davrida, ma'naviyat va ma'rifatni yuksaltirish hammaning ishi va burchidir. Allomalarimiz ta'kidlaganlaridek, «Najot ma'rifatdadir». Umuminsoniy ma'naviyat bilan umuminsoniy ma'rifat birikkanda jamiyat taraqqiyoti yanada yuksaladi. Umuminsoniy ma'naviyatlardan uzoqlashmaslik ma'rifatga bog'liq. Umuminsoniy ma'naviyat bilan tanishish esa til bilishga bog'liq. Chet tillarini bilish, har bir ma'rifat egasi bo'laman, degan shaxsning asosiy vazifasi bo'lmos'i darkor.

Yuksak ma'naviyatli bo'lismi orzu qilgan inson qadimiyligi umuminsoniy ma'naviy xislatlar bilan ham boyishi zarur. Ma'lumki, jamiyatda yaratuvchilikning ikki turi mavjud. Birinchisi moddiy yaratuvchanlik bo'lsa, ikkinchisi ma'naviy yaratuvchanlikdir. Ma'naviy yaratish ma'rifat orqalidir. Jamiyatning etukligi ma'naviyat darajasiga bog'liq. Iste'dod egalarida ma'naviyatning yuksak darajalari ko'proq o'z aksini topadi. Ular inson iste'dodining turli sohalari: mehnati, harakati, qobiliyati, vatanparvarligi, millat uchun jonkuyarligi, aql idroki orqali namoyon bo'ladi. Boshqalarga ta'sir etib, ularni ham ma'naviy boyitadi. Inson ma'naviyat va ma'rifatdan lazzat oladi.

Insonlardagi odob, iymon, vijdon, halollik, yaxshilik, mehnatsevarlik, baynalmilalchilik, insonparvarlik, do'stlik, axloq kabi ma'naviy mezonlar ona qornida shakllanmaydi, garchi bu xislat va mezonlar inson bolasining qon tomirlari, biologik til bilan ifodalanganda, genlarda mujassam bo'lgan bo'lsa ham, jamiyat umuman ijtimoiy muhit ta'sirida yaqqol shakllanadi.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan, o'zimizga xos sharqona urf-odat, qadriyatlarga mos insonparvar, demokratik huquqiy jamiyat qurar ekanmiz, davr talabiga javob beradigan yuksak ma'naviyat sohiblarini tayyorlash - jamiyat talabidir.

Ma'naviyat so'zi o'ta keng qamrovli falsafiy tushuncha sifatida, xalqimiz ongiga endilikda chuqr singib borayotir. Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari chiqarilganda ba'zi kishilar va hatto ba'zi bir rahbar xodimlar ham ma'naviyat so'zini ma'nosini tahlil qila olmay esankirab qolgan paytlar bo'ldi. Uning boy serjilo mazmunini tushunib etmadilar. Bu sohada olib boriladigan ishlarni paysalga soldilar. Bunday munosabatlar baralla aytamizki, sobiq sovet davlati olib borgan siyosatning mahsuli edi. Buni sezgan Prezidentimiz Islom Karimov yana tashabbusni qo'lga olib ma'naviyat va ma'rifatni «bosh homiysi» sifatida o'rnak ko'rsatdi. Tadbirlar ishlab chiqish haqida yo'l-yo'riqlarni belgilab berdi. Allomalarning ma'naviyat va ma'rifatga munosabatini istiqlolga erishgan hozirgi davlatimiz, aholisi o'rtasida targ'ib qilish zarurligini ta'kidladi. Odoblilik, axloqiylik, vijdonlilik, kamtarinlik, tabiiy-ma'naviy xislatlarni yangicha shakllantiribgina

qolmay balki, endilikda, ozodlik qadri, Vatan tuyg'usi, milliylik g'oyalari ham, ma'naviyat qirralari sifatida barchaga singdirilishi o'ta zarur va kechiktirib bo'lmaydigan vazifa bo'lib qoldi. Yangicha milliy, umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarni xalq o'rtaida tiklash osonlikcha bo'layotgani yo'q. Buning uchun jamiyat aholisi o'ta ma'rifikatli bo'lishi kerakligi talab qilinayotir. Tariximizdan ma'lumki, ma'rifikat, ilm sohasida va uning mazmuni, ta'siri, ahamiyati to'g'risida buyuk allomalar hamisha xalq e'tiborini qaratganlar. Masalan, Abu Nasr Forobiyning «Bilim, ma'rifikat yaxshi axloq bilan bezanmog'i lozim», Abulqosim Firdavsiyning «Shubha yo'q, ilmdan tirikdir inson, mashaqqat, mehnatni engadi inson», Abu Hamid G'azzoliyning «Ma'rifikatning eng yuqori darajasi insonning o'zini va martabasini bilishidadir», Yusuf Xos Hojib «O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lar, bilim kimda bo'lsa buyuklik bo'lar», kabi falsafiy fikrlari bejiz aytilmagan. Bas, shunday ekan, endi ma'rifikatparvarlik o'zi nima? Uning ma'naviyatga ta'siri va munosabati qanday?

Ma'rifikatsiz ma'naviyatning keng qirralari ochilmaydi, usiz yuksak darajadagi ma'naviyatga erishib bo'lmaydi.

Ma'rifikatda insonning aqliy, axloqiy, madaniy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, diniy, falsafiy va boshqa qarashlari mujassamlashadi. Zero, bu yo'nalishlar, insonlarning ma'naviy qiyofasini turli qirralari bo'lsa ham, bularni ma'rifiy jarayonsiz egallab bo'lmaydi. Ma'naviy yuksaklilik, ma'rifikat qirralarisiz go'yoki yaproqsiz daraxtdir. Sababi daraxt tanasi yaproqsiz rivojlanmaydi, qurib qoladi. Ma'rifikat ma'naviy qiyofaga sayqal berib uni o'tkirlashtirib boradi. Shu sababli ham insoniyat tarixiga e'tiborni qaratsak, ijtimoiy taraqqiyotning barcha davrlarida boy ma'naviyatga ega bo'lish uchun, o'sha davrning allomalari, davlat rahbarlari o'z xohishlari bilan ma'rifikatli bo'lishga intilganlar. Binobarin, tarixdagi inqilobiy o'zgarishlar, yangi bir taraqqiyot bosqichidan ikkinchi bosqichga o'tish davrida dastlab ma'rifikatparvarlikdan boshlangan.

Inson boshqa sohalarda bo'lgani singari o'zining ma'naviy hayotida ham, amaliy va kundalik faoliyatida ham, bilim, ma'rifikatga tayansa, unga intilsa to'xtovsiz kamol topadi, aqliy rivojlanadi.

Ma'rifikat insonni ozod, erkin va ulug'vor qilib tayyorlaydi. Binobarin, tevarak atrofdagi barcha predmet va hodisalarni bilish inson zakovati, aqliga xosdir. Bu bilish ko'pincha tajriba orqali amalga oshadi.

Amaliyotni bilim bilan takomillashtirish zarur. Takomillashtirish ham ma'rifikatni qay darajada kuchli ekanligiga bog'liq bo'ladi. Ilm-ma'rifikat bor joyda istiqbol bordir. Shuning uchun ham o'z zamonasi va xalqi uchun jonkuyar kishilar Vatanining farovonligi yo'lida qurban bo'lganlar. Ma'naviyatli bo'lish bilan birga ma'rifikatli ham bo'lganlar. Ma'rifikatparvarlik esa hamisha o'z davr taqozosidan kelib chiqib zaruriyatga aylangan, natijada ma'rifikatli allomalar muammolarni o'rta ga tashlaganlar va ularni amalga oshirish uchun tinmay kurash olib borganlar, jamiyat uchun qayg'urganlar, qolaversa ertangi kun ravnaqini ma'rifikat orqali belgilaganlar.

Ma'naviyat, ma'rifikat to'g'risida fikr yuritganda ma'rifikatparvarlik tushunchasiga ham jiddiy e'tiborni qaratmoq lozim. Ma'lumki, bu so'z ham insoniyat hayotida yangicha so'z emas, yuqoridagi insoniylikka xos bo'lgan tushunchalar singari qadimiyyidir, faqat davr o'tishi bilan uning mazmuni, mavqeい yangicha tus olgan xolos.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari ta'limotlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, buning aynan to'g'riliqiga iqror bo'lamiz.

Ko'pgina olimlar ma'rifatparvarlikning Vatani bu – G'arbiy Evropa mamlakatlaridir degan tor fikrni o'rtaga tashlaydilar.

«Evropatsentrizm» deb ataluvchi oqimning faoliyatiga bir yoqlama baho berib uni qo'llab quvvatlaydilar. Aslini olganda esa, ma'rifatparvarlikning ildizlari (boshqa sohalarda bo'lgani singari), Sharq mamlakatlari, aynan, arkaziy Osiyo mamlakatlari donishmandlari faoliyatiga ham borib taqaladi. Lekin, ba'zilar ma'naviyat va ma'rifat muammolari, ya'ni fan, san'at, adabiyot, filosofiya, madaniyat Evropadagina rivojlangan deb targ'ib qiladilar, ularning fikricha, taraqqiyotning markazi ham Evropadir. «Evrotsentrizm» oqimi rim-yunon taraqqiyotidagi ma'naviy, markaziy «papachilik» deb yuritiluvchi katoliklar fikrlariga qarshi chiqish natijasida paydo bo'lgan bo'lib, ko'proq nemis faylasufi Georg Gegel (1770-1831) ta'limotida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunday qarashga o'z vaqtida «vostokotsentrizm» tarafдорлари qarshi chiqib «Evropatsentrizm»ni salbiy tomonlarini ochib tashlaganlar. Hatto, evropalik olimlarning o'zлari jumladan, Monteske, Gotfrid, Volterlar ma'naviy rivojlanish har bir millatga taalluqli va uni har bir millat rivojlantirishga qodir deb, chiqdilar. Umuminsoniy qadriyatlar barchaga taalluqli ekanligini targ'ib qildilar. Haqiqatda esa insoniyat davrini ilk boshlanishdayoq Sharq, umuman, Osiyo mamlakatlarida yirik-yirik kashfiyotlar bo'lganligini insoniyat guvohidir. Jumladan, birgina Xitoyning o'zida dunyoda birinchi bo'lib yaratilgan ko'plab kashfiyotlar fikrimizni tasdiqlaydi. Masalan, Bishen yozuv shrifti eramizdan oldingi 1045 yoldayoq yaratilgan. Ilk qog'oz pulning vatani ham Xitoydir. Chunki, eramizdan 1900 yil oldin undan foydalanilgan. Evropada esa qog'oz pul sakkiz yuz yil keyin paydo bo'lgan. Dunyoda er silkinishi hodisasi ham birinchi Xitoya aniqlangan. Chinni buyumlar evropaliklardan 1000 yil ilgari yasalgan. 2000 yil avval dunyoda yagona hisoblangan 40 mashqdan iborat yaxlit badantarbiya mashg'ulotlari o'ylab topilgan. Xitoy xalqi Iso Masih tug'ilishidan 300 yil oldin ohangrabo kompasni kashf etgan. Evropada bu qurilma 1400 yil keyin paydo bo'ldi. Xulosa shundan iboratki, Evropatsentrizm oqimining tarafдорлари ko'pgina jihatlardan Sharq mamlakatlari ma'naviyatini, madaniyatini, ma'rifatini tan oladilarmi, yo'qmi, tarix esa haqiqiy o'lchovdir.

Xitoydag'i fan, madaniyat, ma'rifat sohasidagi o'zgarishlar Markaziy Osiyo taraqqiyotiga ham jiddiy ta'sir qilmay qolmagan. Natijada Markaziy Osiyoda buyuk allomalar etishib chiqdiki, ular ma'rifat sohasida, diniy e'tiqod hamda ma'naviy sohalarda dunyoda etakchi o'rirlarni oldilar. Masalan, Vatandoshimiz Zamaxshariy «Jorulloh» degan (Alloh qo'shnisi) mo''tabar nomga sazovor bo'lgan. Undan avvalroq alloma Abu Nasr Forobiy esa Aristoteldan so'ng, «ikkinchи Muallim» degan faxriy nomni oldilar. Endilikda ma'lum bo'layotirki, O'rta asrlarda ma'naviyat va ma'rifatni targ'ib qiluvchilar aynan Markaziy Osiyoda ko'p minglikni tashkil qiladi. Yaqin yillargacha, ming afsuslar bo'lsinki, biz ulardan xabardor bo'lmay keldik. Bularga misol: Yusuf Hamadoniy, Zamaxshariy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Imom al-Buxoriy, Hakim at-Termiziyy, Ahmad Yassaviy, Najmuddin Kubro, Bahovuddin Naqshband, Xo'ja Ahror Vali, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Abu Mansur

Moturudiy, Burxoniddin Marg'inoniy va boshqalar. Bu ulug' zotlarning har biri bitmas-tuganmas bilim jarayonlarini egallabgina qolmadilar, balki ilg'or g'oyalarni o'rtaqa tashlab yuksak ma'naviyat va ma'rifatparvarlikni oldingi saflarida bordilar.

Sobiq sovet davlatining ba'zi bir «o'tkir» ideologlari esa mazkur buyuk shaxslarni, ma'naviyat va ma'rifat sohasidagi ishlarini faqat dinga taqab tanqid qildilar va ular faoliyatini (asl nusxada) o'rganishga yo'l qo'ymadilar. Sovet davridagi lug'atlarda, entsiklopediyalarda faqat frantsuz, ingliz, rus ma'rifatparvarlari to'g'risida fikr yuritildi, xolos. To'g'ri, jahon ma'naviyati, madaniyati, ilm fanning rivojida Evropalik allomalarining hissasi beqiyosdir. Ammo, har bir zamon va makonning o'z xususiyati, mavqeい bor.

Ma'rifatparvarlikni ba'zi adabiyotlarda, jumladan, sovet entsiklopediyasida feodalizmdan kapitalizmga o'tish davrida rivojlangan deb ko'rsatiladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, aslida hali quidorlik, feodalizm jamiyatlarida ham ma'rifatchilik, iqtisodiyot, siyosat, san'at bilan shug'ullanilgan. Ma'lum bo'ldiki, o'sha davrlarda ham ma'naviyat ma'rifatchilikdan ajralmagan holda ular bir butun aqliy va jismoniy ishlab chiqarishni tashkil qilgan. Binobarin, ularning tarixi uzoq-uzoqlarga borib taqaladi. Ma'rifatchilikning ildizlari uzoq bo'limganda edi, Sharq mamlakatlaridagi (Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyo mamlakatlari) hozirgi, bizgacha etib kelgan arxitektura yodgorliklari, inshootlari, qadimiy qo'lyozmalar, adabiyot, san'at asarlari bo'limgan bo'lardi. Ma'naviyat va ma'rifatning mavjudligini uning o'rnini jiddiy baholash nisbatan o'sha vaqtarda ham nazardan chetda qolgan xolos.

To'g'ri, bizga ma'lum bo'lgan adabiyotlar va manbalarning ko'pchiligi ma'rifatparvarlik faqat XVII-XVIII asrlarda G'arbiy Evropada jiddiy tus olgan degan fikrni beradi. Aslida unday emas.

3.2. Ma’naviyatning shakllanish jarayonlari bosqichlari

Mustaqillik sharofati bilan boshqa sohalarda bo’lgani singari, oila va unda tarbiyalanadigan barkamol farzand haqida tez-tez fikr almashiniladigan bo’ldi. Ayniqsa, bu muammoni davlat siyosati darajasigacha ko’tarilishi muhim ahamiyat kasb etadi. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi birinchi chiqiriq IX sessiyasida I.A.Karimov tomonidan qilingan ma’ruzasi barkamol, sog’lom avlodlarning o’tgan vaqtgagi va bugungi hamda kelajakdagi holatini tahlil qilib berdiki, endilikda bu esa tarbiya va ta’limni asosiy dasturini tashkil qiladi, desak xato bo’lmaydi. Chunki yurtboshimiz bola tug’ilganidan boshlab to uning yuqori malakali kadr bo’lishiga qadar hamda uning mehnat faoliyatidagi yuksak ma’rifat va ma’naviyatliligi haqida so’z yuritadi: «Kelajak avlod haqida qayg’urish, sog’lom, barkamol naslni tarbiyalab etishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir.

Bu mukaddas zaminda yashayotgan har qaysi inson o’z farzandining baxtu saodati, fazlu kamolini ko’rish uchun butun hayoti davomida kurashadi, mehnat qiladi, o’zini ayamaydi.

Bola tug’ilgan kunidan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an’analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi.

Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayat maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi».

O’zbek xalqi urf-odatlari, qadriyatlar o’ziga xos noziklik bilan shakllanganki, ularda insoniy xislatlari ustuvor. Bu insoniylik xislatlari asrlar osha silsilalarga bardosh berib, o’z mohiyatini yo’qotgani yo’q. U o’zining falsafiy teranligini hamisha namoyon qiladi. Shu sababli ham ota-onan bilan farzandlar o’rtasida iliq munosabatlar, o’zaro hurmat-izzat, mehr-oqibatlar markaziy o’rinni oladi. Ular o’rtasidagi bu holatlar zaruriy davrda bir-birini to’ldiradi ham. To’g’ri, ota-onan faoliyati farzand uchun tengi yo’q mehr-oqibat bilan yo’g’rilgan asosli his-tuyg’ular yig’indisidir. Ota-onan farzand oldidagi burchlari, o’zlarining oxiratini obod etuvchi qarzlari bor. Dinu-diyonatli xonodon oqsoqollaridan so’rasangiz, ularni lo’nda qilib sanab beradi: **yaxshi nom qo’yish, yaxshi muallim qo’liga topshirib, savodini chiqarish, ilmli, kasbli-hunarli qilish,boshini ikki, uyli - joyli qilish.**

Ana shu istaklar zaminida ota-onan o’z farzandlarini kelajagini mustahkamlash uchun hali ularni turmush qurishidan oldinroq, hayotga tayyorlashni unutmeydi. Avvalo oila qurishga undalayotgan farzandlarni o’zaro mosligi, sog’lig’i, ruhiy tayyorligi, iqtisodiy jihatdan mustahkamligi, kasb-hunariga egaliklari tahlil qilinadi. Bu o’rinda bobokolonlarimizdan Amir Temur faoliyatiga nazar tashlasak, u kishi farzandlarining uylanishini nafaqat bir oila uchun kerakligi balki, jamiyat miqyosidagi vazifa ekanligini sezgan holda:

«O’g’illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e’tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko’rdim. Kelin bo’lmishning nasli-nasabini, etti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog’liq-salomatligini, jismonan kamolatini aniqladim. Kelin bo’lmish nasli-nasibasi, odob-ahloqi, sog’lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan holi bo’lsagina el-yurtga katta to’y-tomosha berib, kelin tushirdim», - deydi.

Amir Temur yashagan davrda hozirgi zamon meditsinasining yangi yutuqlari hali tushunib etilmagan bo'lsada, uzoqni ko'ra bilgan Sohibqiron hayot tajribasidan kelib chiqib mazkur fikrlarni bildirganki, ularga hozirgi kunda ham amal qilinish bo'lajak oilaning mustahkamligini ta'minlash uchun shunday faoliyatlar qo'l keladi.

Farzandalarni tarbiyalash homiladorlik davridan boshlab muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bo'lajak inson, shaxs o'zini shaklanishini asosini shu davrlarda poydevorini qo'yadi. Ba'zi xalqlarda insonga yosh berganda ona qornidagi 9 oyni ham e'tirof etib aytishlari bejiz emas. Albatta, ota-onas farzandi to'g'risida sog'lom fikr yuritib uni ardoqlashi, sevishi, qayg'urishi darkor. Bolaga ta'sir qiladigan har qanday nojo'ya harakatdan himoya qiladi. Mutaxassislar fikricha, homiladorlikning ikkinchi oyidan to'rtinchi oyigacha ko'p onalarning o'ziga nisbatan loqaydligi natijasida bola tushirish hodisalari bo'lib turadi. Og'ir yumushlar bilan mashg'ul bo'lishi, qo'rquv bosishi, kamquvvatlilik, iztirob chekish, qayg'urish kabilalar noxush holatni paydo qiladi. Bunday jarayonning oldini olish ko'proq ayolning turmush o'rtog'i bo'lmish erkakka bog'liq. Ya'ni o'z turmush o'rtog'iga g'amxo'rlik qilish, uni uzoq muddatda yolg'iz qoldirmaslik, og'ir ishlarni buyurmaslik, ayolning istagan oziq-ovqatlaridan o'z vaqtida iste'mol qildirish, sayrlarga olib chiqish, yoqimsiz holatlardan asrash bo'lajak «ota» ismini oluvchiga bog'liq. Aks holda hayot yuzini ko'radigan farzand hayotiga zomin bo'lishi ehtimoldan holi emas. Mazkur vazifalarni o'z bo'yniga olmagan erkak farzand tarbiyasidan uzoqligini bildiradi. Farzndlari joniga qasd qiladilar. Aynilsa bu paytlarda er va xotinning birga yotib turishi ham ehtiyyotkorlikni talab etadi. Bunday paytlarda qiziqqonlik bilan ish tutish, temperamentni jilovlash aynilsa muhimdir. Sabr va ehtiyyotkorlik rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi. Homilador ayol ana shu paytlarda turli jihatdan noziklashgan bo'ladi. Har xil vaziyatni tushunishda injiqlik holatlari ro'y beradi. Natijada qayg'urishga molik bo'ladi. Bu holatlarning ta'siri paydo bo'layotgan bolaga ham o'tadi va uni rivojlanishini qiyinlashtiradi. Shu sababli erkak kishi o'z turmush o'rtog'ini asrab-avaylashi, ardoqlashi yaxshi natijalar beradi. Ayollar o'zini parvarishiga e'tiborini qaratganda birinchi galda parhezni ham unutmasligi lozim. Qiyin hazm bo'luvchi ovqatlardan iste'mol qilishdan ogoh bo'lishlari talab etiladi. Mabodo kasal bo'lganlarida do'xtirlar qarmog'ida vaqt-vaqt bilan maslahatlar olib turishlari sog'lom bola ko'rishning asosiy sabablardandir.

Bolaning ona qornida rivojlanishi juda tez va murakkab taraqqiyot davrini bosib o'tadi. Uning rivojlanishi ona qornidagi fiziologik harakatga ham bog'liq. Bola ona qornida rivojlansada u ma'lum darajada tashqi muhit ta'sirida ham bo'ladi. Shuning uchun bu tashqi ta'sirni ijobiy bo'lishini ta'minlash zarur. Mutaxassislarini ko'rsatishicha, sog'lom tug'ilgan bolaning o'rtacha og'irlilik vazni 2,8-3,5 kg, bo'yisi esa 45-52 sm. bo'ladi. U olti oyga etganda esa uch barobar ortadi. Bir yoshli sog'lom bolani og'irligi 9 kg etadi. Bir yosh atrofida bolaning vazni va bo'yisi tez o'sadi. Agar bola bir yoshgacha 25 sm ga o'ssa, keyingi ikki yil davomida 18 smga o'sadi. Bu holatda rivojlanish bolada ma'naviy xislatlarni yaxshi shakllanishiga yordam beradi.

Ma'lumki, bola tug'ilgandan so'ng bir necha kun o'tishi bilan ona ovozini taniy boshlaydi. Turli harakatlarni amalga oshira boshlaydi. Onaning o'ziga xos hidini ham aniqlaydi. Hatto 15 kunlik bola ona kayfiyati, his-tuyg'usini ham sezalaydi. 20-

25 kunligida esa o'ziga ko'rsatilayotgan mehr-oqibatni sezib yig'lashi yoki kulishi mumkin. O'zining bezovtaligini his-tuyg'usi bilan bildira boshlaydi. Bu aytilgan fikrlar quruq bir gap, so'z emas, balki ilmiy izlanishlar, hayotiy tajribalarga asoslangan fikrlardir. Demak, bola his-tuyg'usi juda nozik bo'lib ana shu davrlardayoq uning egiluvchanligi yoki o'jarligi shakllandi. Binobarin, bola hulqining shakllanishi ham ko'proq shu davrning mahsulidir. Shu sababli ota-onaga'dakning xulq- atvoriga qarab nima istayotganini ham sezishi darkor. Buning uchun ota-onaga ziyorak va o'ta xushyor bo'lishi kerak. Bola xulqini sezadigan va shakllanayotgan xulqqa qarab tarbiya ustida bosh qotirishi lozim. Zero, tug'ilgan farzandlarning ba'zilari faol bo'lsa, faollikka qarab yuvosh bo'lsa yuvoshlikka qarab, xulosalar chiqarish ayni muddao bo'ladi. Bolaning his-tuyg'ulariga javob qaytarishi tarbiya qayqqoqta ketayotganidan dalolat beradi. Chunki bolaning ta'sirchanligi noziklik davrini boshdan o'tkazayotganligini bildiradi. Mabodo shu davrlarda bolani ko'p kuldiradigan bo'lsangiz katta bo'lganida ham ko'p kuladigan, yig'lash jarayoni bolada ko'p kechgan bo'lsa, yig'laydigan bo'lib qolishi hech gap emas.

Farzandda shakllanayotgan his-tuyg'uda sevilish va ardoqlanish ustuvordir. Shu bilan birga bolada ham boshqalarni ayniqsa ota-onani sevish tuyg'usi shakllana boshlaydi. Demak, boladagi bu jarayonlarni me'yorida bilmaslik tarbiyada ham kech qolishlik demakdir. Boladagi bu davr va holatlar ma'naviyat shakllanishining birlinchi bosqichlaridan biridir. Shu munosabat bilan aytish kerakki, bu davrlarda farzandga yoqadigan ishlarni bajarish unda ma'lum bir malakani shakllantirishga olib keladi. 1-3 yoshdagi bolani hatto sanoqli vaqtarda ham nazardan chetda qoldirib bo'lmaydi. Ulardagi sezgirlik o'ta shiddat bilan shakllanadi. Shu paytlardan bola bilan muloqot umr davomidagi (ijobiymi yoki salbiymi undan qat'i nazar muloqotni belgilab beradi. Chunki bola aynan ana shu davrlarda ulkan e'tiborni talab qiladi va shundan xulosa qila boshlaydi. Alla aytadigan bo'lsa, allani bola tomondan his qilishini sezildimi, demak tarbiyani ham qabul qilishi shu davrdan boshlangan. Ana shu paytlarda bolani faqat ardoqlash sevish yoki yaxshi to'yintirish, kiyintirish bilan mashg'ul bo'lib qolish kelajakda ko'p xatolarga olib keladi. To'g'ri, bolani ona suti bilan to'yadirish, bu bebafo jarayondir. Ona suti go'dak organizmini nafaqat chiniqtiradi, balki bolaga bir umrli mehr, oqibatni ta'minlaydi, ma'naviy ozuqani ham beradi. Shu sababli, ham bolani 2 yoshga to'lganiga qadar emizish talabi o'ta muhimdir.

Bolani etuk, yuksak ma'naviyatli bo'lishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri onalik-otalik qobiliyatini ijobiy holda namoyon qilishga bog'liq. Masalan, onalar «Alla bolam»ni aytish bilan birga bolani beshikka belash paytida «egalari kirsin, yomonlari chiqsin», «bolam vaqtida yotsin, vaqtida tursin» degan iliq so'zlarni ko'plab aytishi boladagi intilishlarga sabab bo'ladi. Ona o'z bolasini turli erkalashlar bilan ma'naviy yuksaltirsa, ota esa turli o'yinchoqlar orqali zaruriy xarakterni shakllantiradi.

1-3 yoshli bolalarda nutqni o'stirish, tevarak-atrof bilan tanishtirish, ularda turli harakat va ko'nikmalarini hosil qilish, tasviriy jarayonlarga e'tiborini qaratish, musiqa mashg'ulotlarini sirlari bilan tanishtirish yo'lga qo'yildi. Ana shu jarayonlarda bolani ma'naviy yuksalishiga ta'sir etuvchi omillardan to'g'ri foydalanilmas ekan tarbiya etarli beriladi, deb bo'lmaydi.

Mazkur yoshlarda turli ko'nikmalarni shakllantirishda bolani ovutishda qo'llaniladigan o'gitlarning o'rni juda ahamiyatlidir. Jumladan, chapak chalish «Barmoqqa barmoq», «G'oz-g'oz», «Toy-toy», «Achom-achom», «esonmisiz-omonmisiz», «Qaysi qo'limdagini top», «Ko'zingni yum, og'zingni och» kabi sohalar orqali ham bolani xatti- harakatlariga ta'sir etiladi. Ushbu o'yinlar bilan birinchidan bolani sog'lomlashtirishga harakat qilinsa, ikkinchidan o'ylashga tafakkur elementlarini paydo qilishga ko'maklashiladi. O'z navbatida tafakkur elementlari bolada paydo bo'lar ekan, demak ma'naviyat shakllanishi uchun ham shart-sharoit yaratila boshlanadi. Bu yoshlarda ayniqsa, nutq o'stirishga ko'proq e'tibor berish zarur. Nutq bo'lajak inson, shaxs faoliyatini negizidir.

Buning uchun qo'g'irchoqlar, koptok, mashinalar, turli tasvirlar ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Bular orqali bolaga turli savollarni berilishi, o'rtoqlarini faoliyatini misol qilinishi, tabiatdagi narsalarni so'ralishi rasmlar bilan mashg'ulot o'tkazilishi bolada fikrlash qobiliyatini o'stiribgina qolmasdan, uning nutqiga ham ta'sir qiladi.

Bola tarbiyasi uzlkusizlikni talab etadi. 1-3 yoshdagi bolalar tarbiyasi 3-7 yoshdagi bolalarda yuqoriq bosqichda davom etadi. Ayniqsa, bolaning ko'p so'rash va ko'p gapirish davri shu yoshlarga to'g'ri keladi. Shu sababli bu davrda salomlashish odobidan boshlab bola nutqidagi grammatik tuzilishini shakllantirish tevarak-atrof bilan tanishtirish, ona Vatan haqida, Buyuk siymolar va bayramlar, kattalar mehnati, buyumlar haqida suhbat she'rлaridan yod oldirish, hikoya aytish, ifodali o'qish, miqdor va sifat haqida tushuncha berish, fazo haqida tasavvurlashga intiltirish, rasmlar chizdirish, turli ob'ektlar qurish, yasash, jismoniy tarbiyaga o'rgatish kabilalar orqali amalga oshirilishi lozim.

Zero, Vatan tuyg'usi vatanparvarlik xislari milliy g'urur, milliy istiqlol g'oyasi hamda Vatan hududi, o'lkasi, xalqiga mehr va sadoqati bolaning yoshiga mos ravishda shakllantirilishi ma'naviy vazifalarning negizini tashkil qiladi.

5-7 yoshdagi bolalar tarbiyasi, 3-4 yoshdagi tarbiyaning murakkabroq bosqichlarini qamrab oladi. Bu davrda ham bolalarda lug'at yoki so'z boyligini oshirish maqsadida «O'zbekiston mustaqil davlat» mavzusida suhbat uyuştirish bola ma'naviyati yuksalishiga ham ta'sir etadi. Ma'lum malakaga ega qiladi.

Bolada ma'naviyat yuksalish muktabga borganda yanada yuqoriq bosqichgga ko'tariladi. Endi bola, oila va bog'chada olgan tarbiyaviy malaka muktabda o'z samarasini bera boshlaydi. Bu samarani to'g'ri baholash, ijobiylarini bolada mustahkamlash va rivojlantirish muktab o'qituvchisiga bog'liq. Muktab o'qituvchisi berayotgan ma'naviy tarbiya oldingi olingan tarbiya bilan uzviy aloqada bo'lishi lozim. Muktab yoshidagi bolani tarbiya qilishda, bolani harakatini o'ta chegaralamaslik, jahl va zulm qilmaslik lozim. Yosh bolani o'ta qattiq qo'llik va zulm, badjahllik bilan tarbiyalasa bolani xotirasiga, shodligiga, mavqeiga putur etkaziladi. Bunday tarbiya natijasida uning ma'naviy yuksalishi ham ko'ngildagidek natija bermaydi. Bolada qo'rquvlik allomatlari paydo bo'ladi. Parishonxotirlik, g'amginlik, xafsallasizlik elementlari paydo bo'ladi. Bu esa o'z navbatida tarbiya va bilim olishga o'ta salbiy ta'sir etadi. Unda sustkashlik xislatlari mujassamlasha boshlaydi. O'z ustidan nafratlangan o'quvchi yolg'onlik, riyokor, hiylagar ruhiyati

pas, nojo'ya ishlarga egiluvchan bo'lib qoladi. Yuksak ma'naviylikka elitadigan xislatlar ikkinchi o'ringa tushib qoladi.

7-12 yoshlarda bolalarga jismoniy tarbiyani ahamiyatini yo'qotmagan holda ko'proq aqliy va ahloqiy tarbiyani shakllantirish o'ta muhimdir.

Yuqorida biz bolalarning 3-7 yoshlaridagi tarbiyasiga taaluqli omillar ustida to'xtalgan edik. Endi aytmoqchimizki, yuqoriroq yoshdagi bolalarga beriladigan aqliy tarbiya bolaning keyingi, ya'ni etuklik davrini ko'proq belgilab berishga asos bo'la oladi. Insonning aqli farosatini yuksaklik darajasi nimada, deb savol qo'yilganda, insonning yaxshi bilimga ega bo'lishi, bilimni chuqur o'rganishi va o'rgangan bilimni to'g'ri fikrlashidir, desak xatto bo'lmas. Buning uchun mакtabda o'qitilayotgan fanlar ayniqsa katta rol o'ynaydi. Mazkur fanlardagi tarbiyaviy jihatlar ustuvor bo'lsa yuksak ma'naviyatni shakllanishi ham oson kechadi. Ayniqsa, birinchi va ikkinchi sinflar dasturlarida ko'rsatilgan mavzular o'ta ehtiyojkorlik bilan bolalarga singdirilsa, uning kelajakdagi natijasi yomon bo'lmaydi. Bu sinflarda o'qiyotgan bolalarga savodxonlikni o'rgatish, hikoyalar aytish buyuk siymolar faoliyati bilan tanishtirish bayramlar haqida xalq ijodidan so'zlab, mehnat qilish haqidagi badiiy adabiyotdan misollar olish, she'rlar o'qib berib ulardan namunalar yodlatish, ifodali o'qishlariga intiltirish yuksak ma'naviyat shakllantirishning asosiy omillaridandir. Jumladan: savodxonlikka o'rgatish uchun gap haqida tushuncha berish, gapning so'z tarkibi haqida suhbat uyushtirish uchun xalq ertaklarida «Egri va to'g'ri», «Zumrad va Qimmat», A. Navoiyning «Sher bilan Durroj», A. Avloniyning «Xo'roz va bo'ri», tevarak atrof bilan tanishtirganda «Ona yurtim Toshkentim», «Samarqand qadimi shahar», «O'lkamizda oltin kuz» kabilar yuksak ma'naviylik shakllantirishni ilk bosqichlaridir. Yoki buyuk siymolar haqida gapirganda Mirzo Ulug'bek, Abu Ali Ibn Sino fikrlari, Behzod rasmlari, Amir Temur, Jalollidin Manguberdi faoliyatları ma'naviylikni singdirishda yorqin misollardir. Tarbiya va bilim berish jarayonida yaqindan yordam beradigan sohalar: mehnat va ona tili haqida suhbat va she'rlar borki bolalarni zavq va shavqini oshirishga yordam beradi. Binobarin, dehqonchilik va chorvachilik, tadbirkorlik, o'ymakorlik va bo'yoqchilik, kiyim-kechak va tikishlar, she'rlardan A. Oripovning «Ona tilimga», Barot Isroiuning «Shunday o'lka bor», Safo Ochilning «Ota-onas duosi», «O'z tilim», Nurbekning «Mening Vatanim» kabi she'rlari shular jumlasidandir. Nomlari zikr qilingan ushbu asarlar orqali bolani ichki dunyosiga ta'sir etish mumkin. Bu davrda bolalar xarakteri o'ta egiluvchan bo'lganligi uchun asarlarni mazmuni va mohiyati ham tanlanishi zarur. Mazkur yoshlarda aqliy tarbiya singdirilar ekan salbiy xisatlarni eslatadigan (ishqiy yoki chekishlik) asar va hikoyalardan ehtiyojkorlik bilan foydalanish zarur. Sababi bunday xolatlarni izohlaydigan sohalar umumiylar tarbiyani salbiy tomonga etaklab ketishi ehtimoldan uzoq emas. Maktabda mazkur sohaga oid bo'lgan ko'rgazmali ashyolar-ta'sirchan videofilmlardan fodalanish lozim. Maktab o'quvchisini ruhiy holatini sinchiklab o'rganishning samarali vositalari haqida boshqotirish ulardan unumli foydalanishda kech qolmaslik tarbiyada muhimdir. Ijobiy ruhni 3-12 yoshli bolalarda shakllantirish yuksak ma'naviyatni shakllantirish uchun asosiy zamin bo'ladi. 7-13 yoshlarda bolalar faoliyatiga ko'proq maktab o'qituvchisi, jamoasi mas'ul bo'lsada, bu paytlarda ota-onalarning mas'uliyati yanada

oshadi. Bolani bu yoshlarda quruq so'zlar, do'q-po'pisalar bilan emas, haqiqiy dalillar, to'g'ri so'zlik, jonkuyarlik bilan qo'lga olish mumkin.

Yuksak ma'naviyatni shakllanishida ahloqiy tarbiya asosiy negizni tashkil etadi. Ahloqiy tarbiya ham ko'proq bolaning 3-12 yoshlarda izchil holda berilishi uning keyingi butun umri bilan bog'langan. Insonning baxtli yoki baxtsiz bo'lishi ko'p jihatlardan o'ziga bog'liqdir. Avvalo ta'kidlash lozimki, yoshlikdan boshlab hamma ham baxtli bo'lishga intiladi. To'g'ri, 7-12 yoshli bolalarga eng muhim o'sha baxt haqida fikrlarni sodda qilib singdirilishi yutuqlarga olib kelishi mumkin. Bolada ana shu baxt haqidagi tasavvur ahloqiy normalar bilan birga tushuntirilsa, u samarali bo'ladi. Mazkur yoshdag'i bolalar orzular qilishga juda moyildirlar. Ana shu moyillikning o'z vaqtida anglab uni boshqarish imkoniyatiga ega bo'linsa, boladagi axloqiy xususiyatlarni ijobiy tomonga borishi uchun qulaylik yaratiladi. Yomon ishlarning oqibatini bolaga hayotiy voqealardan kelib chiqib anglatish kerak. Baxt izlovchi bola, ba'zida, «shu baxt ehtiyoji» jirkanch holatlarga olib kelishini o'qituvchi tomonidan mohirlik bilan tushuntira olsagina maqsadga erisha oladi. Ayniqsa, bu yoshlardagi bolalarga qimor o'ynash, sharob ichish, ahloqsiz o'yinlarni qilish, vaqtini bekorga ketkazish xatti-holatlarga duchor bo'lish natijasida, vaqtincha baxtga erishishi, ammo oxiri «voy bo'lishi» haqidagi ta'sirchan fikrlar berilganda har bir bolaning umr bo'yi esida qoladi. Bu yoshdag'i bolalarni turli nojo'ya so'zlar yoki qo'rqtish yo'llari bilan tarbiyalash natija bermaydi. Urushish, so'kishish natijasida qalbi lat egan boladan yaxshilik chiqmaydi. Yuksak ma'naviyat qirralaridan uzoqlashadi. Shu sababli, bu yoshdag'i bolalar tarbiyasi o'ta nozik lekin sharaflidir.

3.3. G'arb mamlakatlarida ma'naviyat va ma'rifatga munosabat

Bir necha asrlar muqaddam Sharq mamlakatlarida ma'rifatparvarlik haqida ko'proq fikr yuritishgan. Ammo keyinroq, G'arbiy Evropada fan va texnika ko'proq taraqqiy qilib, ishlab chiqarish jarayoniga katta ta'sir ko'rsatishi natijasida jamiyatni, faqat inson aql idroki bilan yuksak darajaga ko'tarish va uni o'zgartirish mumkin, degan xulosaga kelishgan. Shu bois, o'sha davrning ilg'or fikrlovchi kishilari ma'rifatini keskin holda targ'ib qilganlar. Binobarin, G'arbiy Evropa uchun «Ma'rifatparvarlik» so'zining o'zi ham yangi ibora bo'lib, uni Volter, Gerder va boshqalar birinchi bor ilmiy muloqotga olib kirdilar. Oldingi mavzularning birida ta'kidlaganimizdek, E. Kantning «Ma'rifatparvarlik nima?» (1784) maqolasi bosilib chiqdi va bu so'z keng tus ola boshladi. Ma'lumki, u davrlarda G'arbiy Evropada tabiat, jamiyat, tafakkur haqidagi ilmlar rivojlandi. Bu davrda Tomas Gobbs, Dekart, Leybnits, Nyuton, Spinoza va boshqa evropalik buyuk tabiatshunoslar va filosoflar etishib chiqib, turli fanlarda ayniqsa, fizika, kimyo, matematika, geometriya, mexanika, astronomiya sohalarida kashfiyotlar qildilarki, natijada, bu kashfiyotlar ma'rifatparvarlikning kengayishiga olib keldi. O'z navbatida ma'rifatparvarlikning Evropadagi Renessans (Uyg'onish) davri bilan ham uzviy aloqada bo'ldi. Ma'lumki, Uyg'onish davr vakillari insonparvarlik g'oyalarini ilgari surgan edilar. Ularning fikricha, kapitalistik rivojlanish feodalizmga nisbatan ustunroq bo'lib, inson faoliyatini faqat kapitalizm yangi pog'onaga ko'tarar edi. Shu sababli, Uyg'onish davrining targ'ib qiluvchilari bilan ma'rifatparvarlari o'rtasida birmuncha farqlar bo'lib, ma'rifatparvarlar ko'proq Uyg'onish davri tarafdarlarini tanqid qilib ham chiqdilar. Bu esa jamiyat va davlat tuzilishlarini qayta ko'rib chiqishga va ularni jiddiyroq hal qilishga olib kelar edi. G'arbiy Evropa ma'rifatparvarlari ta'limotida ma'naviy sohalar yaqqol ko'zga tashlanmasa-da ham, ular ma'rifatni iqtisodiy soha, xususiy mulkchilik, dunyoqarash, estetik qarashlar, badiiy jarayonlar, shaxs faoliyatlari bilan bog'lab tushuntirdilar. Bu degan narsa, ularning ta'limotida ma'naviy tarbiya masalalari qo'yilmagan, degan xulosani keltirib chiqarmasligi lozim. Bizning fikrimizcha, ma'naviy tarbiya masalalariga e'tibor berilgan bo'lsa ham, lekin ma'naviyatning tarkibiy qismlari umuminsoniy faoliyatning umumiyligi ko'rinishlarida qorishib ketgan edi. Shu o'rinda Lokk, Gelvetsiy, Didro, Jan Jak Russo va boshqa filosoflarning yozgan asarlarini tilga olish kifoyadir. Bu olimlar tarbiya to'g'risida umuminsoniy fikrlarni o'rtaga tashlash bilan birga, mazkur sohadagi yangi tamoyillarni ishlab chiqdilar. Shu bilan birga ular ko'proq ijtimoiy sohalarni targ'ib qiluvchi ma'rifatparvarlar bo'lib chiqdilar. O'sha davr sharoiti ma'rifatparvarlikning turli mamlakatlarda turlicha shakl va mazmunda namoyon bo'lishiga olib keldi. Shu bois Rossiyaning ma'rifatparvarlikka nazar tashlaydigan bo'lsak, bu jarayonning guvohi bo'lamiz. Chunki Rossiya ma'rifatparvarlari burjua revolyutsiyalarini ma'naviy jihatdan tayyorlash va amalga oshirish tarafdarları edilar. Jumladan, Rossiya ma'rifatparvarligi (1760-1861 y.y) uzoq davom etib, uning asoschilari N. I. Novikov, D. I. Fonvizin, A.Ya.Polenov va boshqalar edilar. Ular Rossiyada krepostnoylik tuzumini yo'q qilib tashlashni targ'ib qilganlar. Adolatli podshohlar, adolatli qonunlar bo'lishni istaganlar. A. N. Radishchev singari

ma'rifatparvarlar xalqni ma'rifat kuchiga ishonib ish olib borishga chaqirganlar. Tarixdan ma'lumki, bunday g'oyalarni «dekabristlar» deb ataluvchi guruqlar ham amalga oshirishga harakat qilgan va ular ham, xalqni hokimiyatga qarshi ko'tarib ularni g'alaba qozonishga umid bog'lagan edilar. Lekin, bu umid amalga oshmagan. Shuni e'tirof etish kerakki, shu davrlarda Rossiyada ma'rifatparvarlik o'zining yuqori cho'qqisiga ko'tarilgan edi.

Ma'rifatparvarlar XIX asrni o'rtalarida ikki oqimni tashkil qildilar. Bular Liberal-islohotchilik va revolyutsion-demokratik oqimlardir. Birinchi oqim, ijtimoiy-siyosiy faoliyatga, xalqni jalb etmaslikka da'vat qilgan bo'lsa, ikkinchi oqim xalqda inqilobiy tashabbusni uyg'otishga chaqiradi. Ular ko'proq dehqonlar faoliyatini qo'llab-quvvatladilar va bunga erishdilar. XIX asrning oltmishinchı yillarida Rossiyada islohot yuz berdiki, bu islohotlar bilan shu davr ma'rifatchilari birmuncha cheklanib qoldilar. Shunday qilib, ma'naviyat va ma'rifatning G'arbiy Evropa va Rossiyadagi tarixiy taraqqiyot davrida ma'naviyat rivojlanishi to'xtamagan. U umuminsoniy qadriylatlarda turlicha tus olgan va harakatlarda amalga oshgan.

Tayanch so'z va iboralar: ma'naviyat, ma'rifat, munosabat, tarixiy ma'naviyat, ma'rifatparvarlik, Uyg'onish davri ma'naviyati va ma'rifati, bola tarbiyasi, maktab, bog'cha tarbiyasi, Renesans.

Hikmatlardan namunalar

Inson fanning u yoki bu sohasi haqida ilmiy amaliyotga va aniq tadqiqotlarga suyangan holdagina mulohaza yuritishga haqlidir.

Abu Rayhon Beruniy.

Bilim qidirishga urdim boshimni,
Bekorga o'tkazmadim umrimni bir dam...
Qaydaki, eshitsam ilmu donishni,
Eshigi tagida o'ltirdim mahkam.

Nosir Xisrav.

Faqat o'zi uchun yashash insonlikni suiste'mol qilishdir.

Vilyam Shekspir

Eng razil, ayni paytda oddiy va azaliy ko'rnamaklik – bu farzandlarning ota – onani qadrlamasligidir.

Lyuk Vovenarg.

O'zni benuqson hisoblash adashishning eng to'g'ri yo'lidir.

Per Buast.

Birovning xatosi - boshqaga saboq.

Jon Rey.

Insonning bittagina zolimi bor, u ham bo'lsa jaholatdir.

Viktor Gyugo.

Har qanday odamga uning qilgan ishlariga qarab baho berish kerak.

Servantes.

Test topshiriqlari :

1. «Ko'p asrlik tariximiz shuni ko'rsatadiki, inson dunyoqarashining shakllanishida ma'rifatning o'rni beqiyos»ligi to'g'risidagi fikr Prezidentimizning qaysi asarida aytilgan?

- a) «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda»;
- v) «Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir»;
- g) «O'zbekiston buyuk kelajak sari»;
- d) «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q»;
- e) «Qzbekiston kelajagi buyuk davlat».

2. Ma'naviyat va ma'rifat o'rtasidagi munosabatlarni qanday izohlash mumkin?

- a) ma'naviyat va ma'rifat bir butunning ikki tomonidir;
- v) ma'naviyat xislatlar ma'rifiy jarayonlar orqali inson ongiga singdiriladi;
- g) ma'naviyat va ma'rifat nisbatan boshqa tushunchalar hisoblanadi;
- d) ma'naviyat – ta'lim-tarbiyadir;
- e) a va v.

3. «O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lar, bilim kimda bo'lsa, buyuklik bo'lar», degan falsafiy fikr qaysi allomaga tegishli?

- a) Alisher Navoiy;
- v) Zahiriddin Bobur;
- g) Yusuf Xos Hojib;
- d) Abdulla Avloniy;
- e) Abu Rayxon Beruniy.

4. «Evropatsentrizm» deb ataluvchi oqim to'g'risidagi qarashlar ko'proq qaysi faylasuf ta'limotida uchraydi?

- a) I. Kant;
- v) G. Gegel;
- g) K. Marks;
- d) A. Smit;
- e) F. Engels.

5. Insoniyat davrini ilk boshlanishidayoq Sharq mamlakatlarining qaysi birida kashfiyotlar qilingan?

- a) eramizdan oldingi 1045 yilda, Xitoyda qog'oz va yozuv kashf qilingan;
- v) eramizdan oldingi 1090 yilda, Hindistonda sanash mashinasи;
- g) miloddan avvalgi I asrda, Yunonistonda uchish apparati ixtiro qilingan;
- d) Barcha javoblar to'g'ri;
- e) To'g'ri javob yo'q.

6. Qaysi oqim «Evropatsentrizmning» salbiy qirralarini ohib tashlagan?

- a) ratsionalizm;
- v) vostokotsentrizm;
- g) neopozitivizm;
- d) irratsionalizm;
- e) sofizm.

7. XIX asrning o'rtalarida Rossiyadagi mavjud ikki oqim qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) liberal islohotchilik va revolyutsion demokratik;
- v) monetarizm va liberal islohotchilik;
- g) monetizm va geynechilik;
- d) liberal islohotchilik va evrotsentrizm;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

8. Jadidchilikning asosiy maqsadi ...

- a) xalqimizni ma'rifatli qilish;
- v) dunyoviy bilimlarni egallashga yordamlashish;
- g) hokimiyatni egallash;
- d) a va b;
- e) barcha javoblar noto'g'ri.

9. 1894 yilda Turkistonda maktab va madrasalar soni nechta edi?

- a) 6445 ta;
- v) 7000 ta;
- g) 5346 ta;
- d) 4310 ta;
- e) 5070 ta.

10. XX asr boshlariida O'zbekistonda ma'rifatparvarlikni targ'ib qilgan gazetalar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) «Taraqqiy», «Xurshid»;
- v) «Xurshid», «O'zbekiston ovozi»;
- g) «Oyna», «Umid»;
- d) «Hurriyat», «Osiyo»;
- e) a va v.

11. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining uchinchi bosqichi qaysi yillarga mo’ljallangan?

- a) 2001 yilga;
- v) 2003 yilga;
- g) 2005 yilga;
- d) 2007 yilga;
- e) 2010 yilga.

12. Qaysi hukmdor tomonidan qurilgan madrasaning darvozasi peshtoqiga «Ilm olmaqqa intilish har bir muslim va muslima uchun qarzi farzdir» deb yozilgan?

- a) Amir Temur;
- v) Shohruh;
- g) Ulug’bek;
- d) Abdullaxon;
- e) Feruz.

13. Ma’mun Akademiyasi qaysi shaharda tashkil topgan?

- a) Samarqand;
- v) Qarshi;
- g) Termiz;
- d) Xiva;
- e) Gurganj.

14. Kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub’ekti va ob’ekti ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchisi kim?

- a) davlat;
- v) vazirlik;
- g) jamoat tashkiloti;
- d) shaxs;
- e) mакtab, o’qituvchi.

15. Malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni asosi nimada?

- a) uzlusiz ta’lim;
- v) o’rta ta’lim;
- g) fan;
- d) iqtisodiyot;
- e) ma’naviyat.

16. O'zbekistonda majburiy-ixtiyoriy ta'lim necha yil?

- a) 9 yil;
- v) 12 yil;
- g) 7 yil;
- d) 11 yil;
- e) 8 yil.

4-mavzu: Ma’naviyat, ma’rifat va madaniy meros

4.1. Ma’naviy meros tushunchasi va uning tarixiy rivojlanishi

Insonparvar, huquqiy-demokratik va fuqarolik jamiyatini barpo etish o’z-o’zidan bo’lmaydi, balki, o’zidan oldingi tarixiy manbalarga suyangan holda tajriba, moddiy va ma’naviy meros asosida quriladi. Bularni barchasi tajriba va moddiy tomonlardan oqilona foydalanishga bog’liq. Ayniqsa, buyuk ajdodlarimiz yaratgan ma’naviy boyliklar ta’sirida yangi avlodni tarbiyalash shu kunning dolzarb vazifasidir. **Ma’naviy meros o’tmishda xalq tomonidan yaratilgan va avlodlarga qoldirilgan, ularning his-tuyg’u, bilim va malakalarini oshirishga xizmat qiladigan ma’naviy, moddiy boyliklardir.** Bu ma’naviy va moddiy boyliklar tarix silsilalariga bardosh bergan, turli hayot va tabiat qiyinchiliklarini bosib o’tgan haqiqiy harakatlar natijasidir.

Ma’naviy merosning shakllanishi uzoq davrni o’z ichiga oladi. Ma’naviy meros har bir millat, elat, urug’ faoliyatida ko’zga tashlanadi. Albatta, har qanday harakat yoki moddiylik ma’naviy meros bo’lib qolavermaydi. Ma’naviy merosda har bir urug’, elat, millatning turmush tarzini ifoda etadigan va kelajakda ma’lum bir foya keltiradigan sohalar bo’lsa va ular xalq faoliyatiga singib ketgan bo’lsa, ma’naviy merosga aylanadi. Ulardan keladigan foydani esa boshqa foydalar bilan tenglashtirib bo’lmaydi. Bu foya inson tarbiyasi foydasidir. Shu sababli, respublika hukumati bu jiddiy masalaga mustaqillikning dastlabki yillardayoq e’tiborni qarata boshladi.

Xalqimiz merosining noyob namunalarini aniqlash va to’plash, ularni asrab avaylash, xalq, ayniqsa yoshlar o’rtasida targ’ib qilish, ular orqali mustaqilllik, insonparvarlik, vatanparvarlik tuyg’usini shakllantirish, milliy an’analarimiz va urfatlarimiz davomiyligini, ravnaqini, ularning umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg’unlashib borishini ta’minlash barchaning, ayniqsa ziyolilarining vazifasidir. Bu vazifa jamiyat o’zgarganda ham o’z kuchini yo’qotmaydi. Chunki, jamiyatlar o’zgarishi bilan taraqqiyot to’xtab qolmaydi, aksincha ilgarilab boradi. Demak, ma’naviy meros rivojlanishi ham to’xtamaydi. Yangi xarakter va xususiyat bilan yashayveradi.

Ma’naviy meros ham davomiylig jarayonidir. Unda ham vorislik xususiyati mavjud. Ma’naviy meros rivojlanishining to’xtashi nisbiydir. Jumladan, sobiq ittifoq davrida respublikamizda bu muhim sohaga e’tiborsizlik bilan qaraldi. Turli bo’lmaq’ur sabablar bilan xalqimiz tarixini uning ma’naviy merosini yo’q qilishga harakat qilindi. Masalaga sinfiylik nuqtai nazaridan yondoshilib, o’tmishdagi sarqitlar, deb baholandi. Darhaqiqat, «O’zbekistonning kuch-qudrati manbai-xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, ulug’ ajdodlarimizdan avlodlarga o’tayotgan ma’naviy merosning kuchliligida, fuqarolarimizning el-yurtga, ona zaminga bitmas-tuganmas mehrida, milliy g’ururimizda»¹ ekanligini ittifoqning ba’zi bir rahbarlari tushunib etmadilar, mensimadilar.

O’zbek xalqi dunyo hamjamiyatida azaldan munosib o’rin olgan xalq sifatida milliy va umuminsoniy ma’naviy meros xazinasiga ulkan ulush qo’shib kelgan

¹ I.A.Karimov. Istiqlol va ma’naviyat. T.: «O’zbekiston», 1994, 72-bet.

xalqdir. Dunyo mamlakatlari o'rtasida ko'p sohalarda bo'lgani singari, bu sohada ham etakchi o'rnlarni oladi. Faqat hozirgi avlod-ajdodlari yaratgan ma'naviy merosni yaxshi anglashi, uning ildizlarini bilib dunyoga qaytadan tiklashga o'z hissasini qo'shmog'i, shunga harakat qilishi davr talabidir. Bu sohada faxrlanishga arzigulik tomonlar yo'q emas. I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi toshyozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyat, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz,iftixorimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kam topiladi. Shuning uchun ham bu borada jahonning sanoqli mamlakatlarigina biz bilan bellasha olishi mumkin»¹. Shu munosabat bilan ta'kidlash lozimki, biz avvalo o'zligimizni, davlatchiligmizni, nasl-nasabimizni chuqr bilishimiz albatta, zarur. Bu jarayonsiz, kelajakda munosib targ'ibot ishlarini olib bora olmaymiz. Sub'ektiv fikrga ega bo'lismumkin, u oson. Lekin, shu sub'ektiv fikr, chuqr tahlil va mantiqqa asoslanmasa, bir yoqlama bo'lib qoladi, natijada ta'sirchanligi va xolisonaligini yo'qotadi. Dalilsiz biror insonni ishontirib bo'lmaydi. Zero, bunday vaziyatda milliy ma'naviyatimizning jonkuyarlari bo'la olmaymiz. Ma'rifatchilikni tushunib etmaymiz.

Boshqa sohalarda bo'lgani singari ma'naviy merosimizning targ'iboti ma'rifatga borib taqaladi. Sir emaski, jamiyat taraqqiyotining negizi va asosini ilmu ma'rifat belgilaydi. Taraqqiyotni halokatdan saqlaydigan qurol ham ma'rifatdir. Shu sababli aytamizki, ma'naviy merosimiz ham ma'rifat orqali bizgacha etib kelgan. Demak, ma'naviy meros ma'rifat bilan ajralmasdir. Ko'pgina qadriyatlarni ma'rifatimiz orqali o'qiymiz, bilamiz.

Turli mamlakatlarda yozilgan asarlarni tarjima qilish, o'rganish yo'lga qo'yilganligi munosabati bilan ma'naviy meros o'rganiladi. Jumladan, otabobolarimiz yozib qoldirgan bebaho asarlar lotin, qadimiy frantsuz, italyan, ispan, nemis tillariga tarjima qilingan bo'lib, insonlarning yanada ma'rifatli bo'lismiga yordam berib kelayotir. Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Forobi, Burxoniddin Marg'inoniy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'bek va boshqa ulug' allomalarimiz asarlari bunga misol bo'la oladi. Baralla aytta olamizki, qadimiy Turonning ma'naviy merosini o'rganish uchun quyidagi manbalarga tayanish mumkin:

- Qadimiy yodgorliklar.
- Arxeologik ashyolar, topilmalar.
- Etnografik manbalar.
- Diniy manbalar.
- Toponomik manbalar.
- Qadimgi yozuvlar.
- Urf-odatlar.
- Qabila va urug'chilik, qavmu-qardoshlik, oilaviy munosabatlar manbalar.

¹ I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: «Sharq» nashriyoti, 1998, 3-4 bet

Ayniqsa, qadimiy yodgorliklarda asosan xalqimizning azaliy urf-odatlari, turmush tarzi aks etadi. Shu o'rinda ma'naviy merosimizga nimalarni kiritishimiz mumkin, degan savol tug'iladi. Bizning nazarimizda, ma'naviy merosga madaniyatning tarkibiy qismlari: tarixiy madaniy boyliklar, qadriyatlar, adabiyot, san'at durdonalari, rivoyat va ertaklar, folklor, urf-odatlari, an'analar, ahillik, qo'shnichilik, tenglik munosabatlari, tinchlik va barqarorlikni istash xislatlari, mehmondo'stlik, ko'p farzandlilik, adolatli bo'lish, poklik, halollik, komil inson bo'lish, bilimga intilishlik, ota-onaga hurmat-izzat ko'rsatish, oilaviy birdamlik xislatlari, falsafa, diniy e'tiqod, kiyinish madaniyati va boshqalardan iborat.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ajdodlarimiz jamiyat tarqqiyotidagi ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa turli sohalarni o'zlarida mujassamlashtirgan va shu sohalarda o'z bilim malakalari orqali bitmas-tuganmas meros qoldirganlar. Shunday buyuk insonlardan biri Ahmad al-Farg'oniy bo'lib, uning ta'limotini ba'zi qirralari asosida matematika, astronomiya, mexanika fanlari hozirgacha rivojlanib keladi. Bu buyuk allomaning tavallud topganligi munosabati bilan o'tkazilgan marosimda I.A.Karimov alloma to'g'risida shunday degan edi: «Uning merosi insoniyatning yangi ilm cho'qqilariga ko'tarilishiga sababchi bo'ldi, butun ma'rifiy dunyo olimlari uchun dasturilamal bo'lib xizmat qildi»¹. Binobarin, boshqa allomalar: Abu Nasr Forobiy falsafa, siyosat, adabiyot, musiqa, mantiq, Abu Ali Ibn Sino tibbiyot, falsafa, matematika, adabiyot; Abu Rayhon Beruniy mineralogiya, geodeziya, falsafa, tarix, geografiya; Al-Xorazmiy matematika, astronomiya; Mirzo Ulug'bek astronomiya, tarix; Alisher Navoiy adabiyot, tasavvuf, Zahiriddin Muhammad Bobur tarix, adabiyot va ilm-fanning boshqa sohalarida o'chmas, bitmas-tuganmas meros qoldirdilarki, bu meros hozirgi kunda ham qz ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Yoki ikkinchi bir misol. Buyuk sarkarda Amir Temurning davlatni boshqarish uslublari haqida pand-nasihat sifatida qoldirgan «Temur tuzuklari» o'z hukmronlik davrida qurdirgan hashamatli va go'zal binolar kabi ma'naviy va madaniy meros asrlardan-asrlarga o'tib kelmoqda. Uchinchi bir misol: Navro'z va Hayit bayramlari.

Xalqimiz tarixiga nazar tashlar ekanmiz, uning boy merosi ayniqsa, ko'rkan va abadiyligidan hayratda qolasan kishi.

¹ I.A.Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'llimiz bilan quramiz. T.: "O'zbekiston" 1999, 189-bet.

4.2. Ma'naviy va madaniy meros

Ma'naviyat keng ma'noli ekanligini biz oldingi sahifalarda bayon qilgan bo'lsak, endi ma'naviyat va madaniyatning o'zaro aloqadorligi hamda munosabatlari haqida fikr yuritamiz. Madaniyat va ma'naviyat insonga xos xislatlar ekanligiga hech kim shubha qilmaydi. Ikkala tushuncha ham eng qadimiy tushunchalardir. Ma'naviyat singari madaniyat tushunchasi ham insonning fazilatlarini o'zida aks ettiradi.

Ma'naviy meros bo'lgani singari madaniy meros ham mavjuddir. **Madaniyat-insonga taalluqli bo'lgan aqliy va jismoniy harakat, his-tuyg'u, kechimmlar, hamda jamiyatni o'zgartirishga qaratilgan ilg'or faoliyatlar yig'indisidir.** Madaniyat inson va jamiyat taraqqiyotining barcha sohalarida ishlab chiqariladigan moddiy noz-ne'matlarda, ma'naviy jarayonlarda ko'zga tashlanadi. Ushbu tushuncha ma'lum bir davrlar, jamiyatlar, urug', elat va millatlar rivojlanishini, insonlarning moddiy-maishiy, ma'rifiy-ma'naviy hayotini, turmush tarzini ifodalash uchun foydalaniladi.

Ta'kidlaganimizdek, madaniyat so'zi ko'p qirralidir. Bunga sabab, u ijtimoiy hayotning barcha sohalarida namoyon bo'lib, berilgan ta'riflar ham turlichadir. Jumladan, E. Yusupov «Madaniyat – bu kishilar faoliyatining jamiyat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayoti sohasida yaratgan, o'zlarining ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqarilgan moddiy va ma'naviy boyliklar tizimdir»¹-deydi. Yoki «Madaniyat – eng umumiylar tarzda inson va jamiyatning o'zgaruvchilik faoliyatining barcha turlari, hamda shu faoliyat natijalarining majmuidir»¹. «Madaniyat – umuminsoniy hodisa»². «Madaniyat-insonning olgan bilimlari va hosil qilgan tajribalariga asoslangan malakali harakati boshqalarda zavq uyg'ota olgan ijtimoiy hodisa»³. Madaniyat-inson faoliyati bilan yaratilgan ma'naviy va moddiy boyliklar, his-tuyg'u uyg'otadigan jarayonlardir.

O'z-o'zidan ma'lumki, ta'riflar xarakter va mazmun jihatidan ham har xildir. Ammo, hamma ta'riflarda ham inson faoliyati hisobga olingan. Demak, madaniyat avvalo insoniy xususiyatdir. Unda insonning aql idroki, harakati, talant va iste'dodi, mehnati, individual va ijtimoiy ongi, ilmiy, badiiy, huquqiy, diniy, ahloqiy, falsafiy qarashlari ham o'z aksini topadi. Shu sababli, madaniyat tushunchasi qadimiy falsafiy tushunchadir. Bu tushuncha falsafa fanida mukammalroq o'rganilishi tufayli, biz bu qrinda madaniyatning bir tarkibiy qismi bo'lgan madaniy meros ustida, uning qadimiyligi, inson hayotidagi o'rni ustida to'xtalamiz.

Madaniy meros barcha davrlarda ham xalq tomonidan yaratiladi. Unda eng qimmatli va qadrli yutuqlar o'z aksini topadi va u inson tafakkurining buyuk mahsuli sifatida saqlanadi.

¹ E.Yusupov. "Inson kamolotining ma'naviy asoslari" T.: 1994, 60-bet.

¹ Tulenov J, G'ofurov Z. Falsafa. T.: «O'qituvchi», 1997, 268-bet.

² Ibrohimov A, Sultonov X, Jo'raev N. Vatan tuyg'usi. T. : «O'zbekiston», 1996, 115-bet.

³ Ziyomuxamedov B, Ziyamuxamedova S, Qodirova S. Ma'naviyat asoslari. T. : 2000, 32-bet.

Madaniy meros bilim boyliklarining qonuniy taraqqiyotidan paydo bo'ladi va madaniy merosdan kelajak avlod foydalanaadi, o'z navbatida u avlod ham madaniy meros rivojiga o'z hissasini qo'shadi. Madaniy meros taraqqiyoti to'xtamaydi, u garchand boyib boradi. Yoki kelajak avlod o'tmishdagi madaniy merosga asoslanib yangi madaniy merosini shakllantiradi. Barcha fan, barcha texnika, kashfiyotlar, bilim, san'at, adabiyot, siyosiy va huquqiy jarayonlardagi ijobiylar tomonlarni madaniy meros o'z ichiga oladi. Chunki, bular madaniy merosning negizlarini tashkil qilgan sohalardir. Madaniy merosda ham inkor qoidasi amal qiladi. Eski inkor o'rnida yangisi paydo bo'ladi. Ushbu jarayon ham spiralsimon holda davom etadi. Madaniy meros taraqqiyotida ham chekinishlar, nisbiy to'xtashlar, qayta olg'a siljishlar bo'lib turadi.

Go'zallikni saqlab uni rivojlantirish, ularni namuna sifatida olish, hatto eski bo'lganda ham inson ma'naviyati uchun foydali bo'lsa kelajak uchun zarurdir. Eski madaniy meros deyuvchilar tarixda ko'p xatolik va kamchiliklarga yo'l qo'ydilar. Madaniy merosni yuksaltirmoq uchun avvalo madaniy meros tarixini anglab etish lozim. Bozor munosabatlariga o'tish davri tarixiy madaniy merosni inkor etmaydi, balki rivojlantirishga harakat qiladi. Bozor munosabatlari davrida shakllanadigan madaniy meros yuksakroq darajaga ega bo'ladigan meros bo'lishi mumkin.

Madaniy merosdan hamma birdek foydalana olmasligi tabiiy, lekin turmushda unga duch keladi va o'z xulosasiga ega bo'ladi. Insoniyatning ilg'or tafakkur namoyandalari yaratgan ma'naviy, madaniy meros albatta har bir yangi avlod vakillariga u yoki bu holda ta'sir etadi. Shunday umumiylar madaniy meros boyliklari borki, ular daholik nishonalarini o'zida saqlab keladi. Ular jumlasiga, ayniqsa, ko'plab arxitektura va san'at, adabiyot asarlari kiradi. Bu asarlar buyuk asarlar bo'lib, insoniyat ma'naviyatini yuksalishi uchun bitmas-tuganmas xazinadir. Olamdagi ertaklar, afsonalar, dostonlar, romanlar, esdaliklar, sarkardayu botirlar, qadimiy binolar qadriyatlar, kashfiyotlar nazariyalar shular jumlasidandir. Rus allomasi Lev Nikolaevich Tolstoy aytganidek: «Bizda minglab yillar davomida milliard-milliard odamlar orasidan etishib chiqqan buyuk donishmandlar tafakkurining shunday asl mevalari mavjudki, bu buyuk insonlarning aql durdonalari vaqt sinoviga chidam berib, g'alvirdan o'tib kelmoqda. O'rtamiyona narsalarining bari itqitib tashlanib faqat o'ziga xos, teran, zarur asarlar qolgan»¹.

O'zbek xalqining madaniy merosi qadimiy bo'lib, uning boshlanishi 4000 yillardan oldinga borib taqaladi. O'zbekiston hududida madaniy merosni qoldirishda turli davlatchilik tuzumlari ham muhim rol o'ynagan. Bularga: So'g'diyona, Parfiya, Yunon-Baqtriya, Parkana, Kushon, Tohariston, Turk xoqonligi, Somoniylar, G'aznaviylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Amir Temur va temuriylar davlatlari misol bo'la oladi. Ulardan qolgan nafaqat qadimiy yodgorliklar yoki buyumlar balki, davlatni boshqarish uslublari ham madaniy merosning durdonalaridandir. Bu barkamol davlatchilik urf-odatlari, an'analari jahon davlatchiligining rivojlanishiga ta'sir etgan va etib kelmoqda.

Endilikda ma'lumki, bobokalonlarimiz Afrosiyob, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Xorazmshohlar, Amir Temurlar adolatparvar, insonparvar davlat boshqaruvini tashkil

¹ V.I. Vorontsov. Tafakkur gulshani. T.: 1981, 12-bet.

etganlar. Respublika Prezidenti I.A.Karimovning ta'kidlashicha: «Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligidan negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz ildizlariga, qaytib o'tmishimizdagi boy an'analarimizni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog'imiz kerak. Yoki allomalardan biri aytganidek, har bir davlat qurilishi ma'lum xalq milliy ma'naviy mahsuli, o'zligini namoyon etish va ma'naviy onglilik taraqqiyotining pillapoyasidir. Bu taraqqiyot zinasini qadamba-qadam bosib o'tish bir me'yordagi harakatni hisobga olish, shu bilan birga vaqtdan o'zib ketmaslikni taqozo etadi. Vaqt hamma narsaga qodir bo'lib, unda tafakkur, falsafa... hamma narsa mujassamdir».

Madaniy-ma'naviy sohalar dialektik xarakterda bo'lganligi sababli, ular bir-birini to'ldiradilar. Masalan, jamiyatdagi ma'naviy madaniyatning turli mezonlari bo'lib, ular mamlakat xalqi hayotida muhim ahamiyatga ega. Jumladan, bu mezonlar davlat xo'jaligi madaniyati, davlatni boshqarish jarayoni, milliy g'ururni tiklash sohalari, san'at va maorif, fan va texnikani taraqqiy ettirish kabilardir.

Biz yashayotgan davr shuning uchun ham ulug'vorki, u ko'p asrlik kishilik jamiyatidagi eng asl boyliklarni o'zida mujassamlashtirayotir. Qadimiy ajdodlarimizning ilg'or namoyandalari yaratgan ma'naviy-madaniy merosdan foydalanmoqdamiz. Hatto eramizgacha yashab ijod etgan buyuk faylasuflardan biri ham o'zidan oldingi o'tgan donishmandlarning faoliyatini faxr bilan tilga olgan. Men, degan u, qadimgi donishmandlarning o'z asarlarida bizga qoldirib ketgan aql durdonalarini ko'zdan kechiraman; agarki, biz ularda nimadir yaxshi bir narsaga duch kelsak, uni o'zlashtirib olamiz va juda katta foyda orttirgan hisoblanamiz. Demak, o'tmishdagi ma'naviy, madaniy merosdan foydalanish ham ota-bobolarimizdan merosdir. Binobarin, ma'naviy va madaniy meros bu ajdodlardan turli vaqtarda yaratilgan va qoldirilgan, ma'naviy hamda madaniyatni o'zida aks ettirgan ma'naviy va madaniy boyliklardir. Taraqqiyotni ta'minlash o'tmish boyliklaridan oqilona foydalanishga ham bog'liqidir. Har bir ziyrak inson o'z ziyrakligini yanada oshiraman desa, avvalgi asarlar va boshqa madaniy-ma'naviy manbalar bilan yaqindan tanishadi va ularni o'zida mujassamlashtiradi. U hayotdagi durdonalarni izlaydi va o'ziga xos eng nodir va noyob narsalarinigina ajratib oladi. Ularni avaylab asraydi, kerak bo'lsa avlodlarga etkazadi.

Qadimgi allomalar, donishmandlar shu darajada ko'p madaniy-ma'naviy durdonalarni meros qoldirganlarki, ular bamisolari ummondir. Ummondan tegishlisi olinib hayotda foydalanilsa, ular bugungi kundagidek xizmat qilaveradi.

«Xalqimizning ma'naviy poydevori bo'lajak davlatimizning pok tayanchlari juda qadimiy va mustahkam. Buni hech kim inkor qila olmaydi. Tariximiz nechanecha ming yilliklarga borib taqaladi... Xalqimizning tayanchi-ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosning o'zi bir katta xazina. Bu xazinadan oqilona foydalanish lozim. Ajdodlar vasiyatiga sodiq va munosib bo'lmog'ingiz kerak»¹.

Dono kishilar faqatgina o'z davri yoki o'tmishni izohlab durdona qoldirmaganlar, balki kelajakni ham o'ylab fikrlar bildirganlarki, ularni biz jonsizdek

¹ I.A.Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.: «O'zbekiston», 1993, 168-bet.

qabul qilmasak bo'lgani. Haqiqatdan ham ularni e'zozlab o'z hayotimizni bezasak nihoyatda baxtli va ma'naviyati boy insonlar bo'lismiz turgan gap edi.

Ma'naviy madaniyat inson faoliyatini qamrab oladi. U qachon va qaerda bo'lmasin, harakat qilmasin, ishlamasin inson hamisha unga duch kelaveradi. Natijada, inson jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shadi, ishga intiladi. Ma'lumki, jamiyatda ishlab chiqarish turlari ko'p. Shulardan eng muhimlaridan biri ma'naviy boyliklar ishlab chiqarishdir. Ma'naviy boyliklar avvalo xalq, qolaversa, ma'lum odamlar, olimlar, donishmandlar, faylasuflar, yozuvchilar, bastakorlar, ziyolilar, nazariyotchilar, siyosatchilar tomonidan ishlab chiqiladi, yaratiladi. Ma'naviy boyliklar ma'naviy madaniyatni, jamiyatni rivojlantirishga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Salbiy yoki ijebiy rol o'ynaydi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ma'naviy madaniyat individual va ijtimoiy ongni shakllantirish uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy qarashlar yig'indisidan iboratdir.

4.3. Ma'naviy-madaniy meros va qadriyatlarni targ'ib qilishda madaniy-ma'rifiy muassasalarining o'rni

Ma'lumki, ma'naviy meros targ'ib va tashviqot qilinmasa, undan hech kim bahra ololmaydi. U o'lik mulkka aylanib qoladi. Shuning uchun ham meros javharlaridan foydalanib yosh avlodni tarbiyalashda turli muassasalarining o'rni beqiyos darajada muhimdir. Jumladan, Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» Markazining bu sohada roli kattadir. Bu Markazning vazifasi to'g'risida Yurtboshimiz shunday ta'kidlaydi: «Xalqimiz adolat, tenglik, ahil-ko'shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab-asrab kelmoqda. O'zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur bo'lgan shart-sharoit yaratishdir»¹.

Bu Markaz tashkil etilgandan buyon respublikada bu sohada anchagina tashkiliy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, kichik, o'rta va katta korxonalarda, jamoat tashkilotlari va oliy o'quv yurtlari, maktablar, litseylar, kollejlarda, jamoa va davlat xo'jaliklarida, o'z-o'zini boshqarish organlarida, mahallalarda Markazning boshlang'ich tashkilotlari tuzildi. Ular o'z nizom va dasturlari asosida ish boshlab yuborganlar. «Ma'rifatchilar», «Faylasuflar», «Tarixchilar» jamiyatlari, «Sog'lom avlod uchun», «Mahalla», «Kamolot», «Nuroniy», «Navro'z», «Oltin meros», «Ommaviy axborot» vositalarini qo'llab-quvvatlash va demokratiyalashtirish jamg'armalari, Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» Markazi, Yozuvchilar, Bastakorlar, «Tasviriy oyna» uyushmalari, Badiiy Akademiya, Xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston respublikasi Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi, Madaniyat ishlari vazirligi kabi tashkilotlarning, hamda ma'rifiy-ma'naviy tarbiya, targ'ibot bilan bog'liq qator davlat va nodavlat tashkilotlarning Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi» ni ta'sis etish to'g'risidagi takliflarini hisobga olib, uni qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi 1999 yilning 3 sentyabridagi Prezidentning farmonida aytlishicha:

- «mamlakat ahli, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlod qalbi va tafakkurida milliy g'oya, milliy mafkura va umumbashariy qadriyatlarga, demokratik tamoyillarga asoslangan dunyoqarashni shakllantirish;

- jamoatchiligidan ongiga istiqlol g'oyalari cheksiz sadoqat, ona diyorga mehr-muhabbat, ozod va obod Vatan barpo etishdek ulug' va oljanob maqsadga e'tiqod, jasurlik va fidoiylik ruhini yanada chuqur singdirish;

• milliy qadriyatlarimiz va ulug' mutafakkirlarimiz merosidan butun xalqimiz, jumladan, yoshlarimizning ham bahramand bo'lishiga, islam dinining insonparvarlik falsafasi, g'oyalari yosh avlod qalbidan joy olishiga ko'maklashish;

- har bir fuqaroda o'z haq-huquqi, imkoniyati va irodasiga ishonish, o'z taqdirining bunyodkori bo'lish, mamlakatda kechayotgan yangilanishlar, ijtimoiy-

¹ I.A.Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. : O'zbekiston, 1993, 74-bet.

siyosiy, iqtisodiy islohotlarning ma’no-mohiyati, maqsadini teran anglagan tarzda uning faol ishtirokchisi va kurashchisiga aylanish tafakkurini kamol toptirish;

-ma’rifiy targ’ibot ishlarining shaklan va mazmunan uyg’unligi va muntazamligini, xalqchil va haqqoniylikka, jamoatchilik fikri va kuchiga, barcha sohalardagi sog’lom fikrlovchi fuqarolar salohiyati va harakatiga asoslanishini ta’minlashdir»¹.

Bu oljanob maqsadlarni amalga oshirish, albatta, o’z samarasini berishi tabiiy. Buning uchun barcha mutasaddi tashkilotlar masalaga o’z burchlari va vazifalari sifatida qarab harakat qilganlarida ma’naviy meros insonlarga singadi. Ayniqsa, ta’lim tizimi faoliyatida ushbu muammo ustuvor bo’lishi lozim. Ma’lumki, 1997 yilning 29 avgustida O’zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi. Unda shunday deyiladi: «Inson, uning har tomonlama uyg’un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro’yobga chiqarishning sharoitlarini va ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o’zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O’zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir…

Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro’yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta’lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o’zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o’z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi»². Haqiqatda ham, ma’naviy va madaniy meros, qadriyatlarimiz doimiy targ’ib qilinsagina ulug’ maqsadlarga erishish mumkin. Ularni targ’ib va tashviqot qilish uchun: xalq ta’limi tizimi, ommaviy axborot vositalari, kutubxonalar, ma’naviyat uylari va markazlari, nashriyotlar, madaniyat bo’limlari, teatr va tarixiy muzeylar, turizm muassasalari, musiqiy ta’lim va madaniyat, san’at o’quv yurtlari, ko’rgazma markazlari, fuqarolarni o’z-o’zini boshqarish kengashlari, mahalla qo’mitalari, ba’zi jamg’armalar bir tan, bir jon bo’lib harakat qilishlari lozim. Bu tashkilot va muassasalar o’z ish reja va dasturlari asosida (joriy va uzoqqa mo’ljallangan) ish olib borsalar maqsadga muvofiq bo’ladi. Aynan, ko’pgina ta’sischilar taklifi bilan tuzilgan «Oltin meros» jamg’armasi ham bu sohada sezilarli o’rin egallaydi. Jamg’armaning asosiy maqsad va vazifalari O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida ko’rsatilgan. Unda quyidagi fikrlar mavjud: - «Buyuk ajdodlarimizning asrlar davomida yaratgan bebaho madaniy-ma’rifiy merosini ko’z qorachig’iday asrab-avaylash, kelgusi avlodlarga yodgorlik qilib qoldirish, xalqimizning umuminsoniy qadriyatlar xazinasiga qo’shgan ulkan hissasini butun dunyoga qayta tanitish, uni keng targ’ib etib kishilarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ongiga milliy g’urur, milliy iftixor, Vatanga muhabbat va istiqlol g’oyalariga sadoqat tuyg’ularini singdirish;

¹ Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashini qo’llab-quvvatlash to’g’risida. Xalq so’zi. 1999 yil, 4-sentyabr.

² Barkamol avlod-O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: «Sharq», 1997, 34-bet.

- o'tmish madaniyatimizga oid qadimiy qo'lyozmalar, tarixiy hujjatlar, xalq hunarmandchiligi, amaliy san'ati namunalari va tarixiy-madaniy qimmatga molik boshqa yodgorliklarni mamlakatimizda, xorijdan izlab topish va o'rganish, ulardan ulkan merosimizning uzviy qismi sifatida foydalanish;

- respublikadagi va chet ellardagi madaniy-ma'rifiy tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, xalqaro aloqalarni rivojlantirish maqsadida turli tanlov, auktsion, festivallar uyushtirish, ijodiy-ilmiy delegatsiyalar almashish;

-iste'dodli yoshlarni tanlab, ularning ijodiy kamolotiga moddiy va ma'naviy homiylik qilish;

-o'z va davlat dasturini bajarish uchun mablag'larning ma'lum qismini mamlakatimizdagi va xorijdagi faoliyat hisobidan, shu jumladan, qo'shma korxonalar ochish yo'lli bilan jamg'arishdan va nizomda belgilangan boshqa xayrli ishlardan iborat ekanligi inobatga olinsin».

Ma'naviy-madaniy meros va qadriyatlarni targ'ib qilish faqat yuqorida nomlari tilga olingan tashkilot hamda muassasalarnigina ishi bo'lib qolmay, balki ushbu sohalarni targ'ibot va tashviqot qilish barcha ziyolilarning vazifasidir. Qolaversa, ularning muqaddas burchi hamdir.

Tavanch so'z va iboralar: intellektual meros, umumbashariy qadriyatlар, kadrlar tayyorlashning milliy modeli, umuminsoniy qadriyatlар, milliy g'urur, milliy iftixor, Ma'naviyat va ma'rifat markazi, ma'naviy meros, madaniy meros, madaniyat, milliy davlatchilik, ma'naviy poydevor.

Hikmatlardan namunalar

Har kimki ilm-hikmatini o'rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, salomatligi yaxshi bo'l shiga intilsin, axloq - odobli bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlansin, xiyonat va makr - hiyladan uzoq bo'lsin.

Abu Nasr Forobiy.

Bir kun kelar ekan qo'lingdan zinhor,
Azizlar xotirin shod et, ey dildor.
Nokasdan sir berkit, tilingni bog'la,
Ablahdan yashirin bo'lmoqqa chog'la.

* * *

Bozorda bir kulol ko'rsatib hunar,
Bir bo'lak xom loyni tepib pishitar,
Loy ingrab aytadi: hoy, sekinroq tep,
Men ham kulol edim, sendek birodar.

Umar Xayyom.

Shiddatli janglardan so'ng Habash podshosi Yaman hokimi Sayfi Ziyazan ustidan g'alaba qozondi. Sayfi yurtidan qochib, Eron shohi Anushervondan madad so'radi. U o'z lashkaridan uch ming yigitlarni ajratdi.

- Ey, Anushervon, ellik minglik lashkarga uch ming sipohiy qanday bas kela oladi, - so'radi Ziyazan.

- Ko'p o'tinni ozgina otash ham yondirib yuboradi, - javob berdi Anushervon.

x x x

Iskandar Eronga qarshi lashkar tortishga tayyorgarlik ko'rayotganini eshitgan Doro uni vahimaga solmoqchi bo'lib, Doro shoh sakson ming yigitlar orasida javlon urmoqda, degan gap tarqatadi. Buni eshitgan Iskandar «chaqqon qassob uchun qo'yning ko'p bo'lishi ahamiyatsiz» degan xabar yuboradi.

x x x

- Sho'rvani arab tilida nima deydilar, - so'rashibdi bir arabdan.
- Saxun! – javob beribdi arab.
- Sovug'ini- chi? – yana so'rashibdi.
- Biz sho'rvanisovutmasdan ichib qo'yamiz – ta'kidlabdi u.

Safiy

Test topshiriqlari

1. Ma'naviy meros-bu ...

- a) o'tmishda xalq tomonidan yaratilgan va avlodlarga qoldirilgan adabiyot, san'at durdonalari, rivoyat va ertaklar kabilardir;
- v) avlodlardan o'tib kelayotgan qadriyatlar, urf-odat va an'analar.
- g) a) va b);
- d) tarixiy vorislik va an'analar;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

2. Moddiy va ma'naviy boyliklar ma'naviy meros bo'la oladi, agar ...

- a) har bir urug', elat, millatning turmush tarzini ifoda eta ols;.
- v) kelajakda ma'lum bir foyda keltiradigan soha bo'lsa;
- g) xalq faoliyatiga singib ketgan bo'lsa;
- d) xalq tomonidan yaratilgan bo'lsa;
- e) to'g'ri javob yo'q.

3. Quyidagi manbalardan qaysi biri ma'naviy merosni o'rghanishda asos bo'la oladi?

- a) qadimiy yodgorliklar;
- v) diniy manbalar;
- g) urf-odatlar, an'analar;
- d) arxeologik ashyolar;
- e) yuqoridagilarni hammasi.

4. Quyidagilardan qaysi biri Abu Nasr Forobiyning o'lmas asari hisoblanadi?

- a) «Fozil odamlar shahri»;
- v) «Qutadg'u bilig»;
- g) «Boburnoma»;
- d) «Xamsa»;
- e) «Shohnoma»

5. Madaniyat bu ...

- a) inson faoliyati natijasida yaratilagan moddiy va ma'naviy boyliklardir;
- v) tanish, bilish demakdir;
- g) insonning ruhiy holatini ifodalaydigan tushuncha;
- d) insonning etuklik darajasi;
- e) to'g'ri javob yo'q.

6. O'zbek xalqi madaniy merosining ilk sarchashmasi kachon paydo bo'la boshlagan?

- a) 2000 yil oldin;
- v) 3000 yil oldin;
- g) 4000 yil oldin;
- d) 2500 yil oldin;
- e) 3200 yil oldin.

7. «Oltin meros» jamg'armasi qachon tashkil topgan?

- a) 1999 yil 3 sentyabrda;
- v) 1998 yil 10 sentyabrda;
- g) 1999 yil 4 noyabrda;
- d) 2000 yil 10 dekabrda;
- e) 2001 yil 27 avgustda.

8. Respublikamiz hududida o'lmas madaniy meros qoldirgan davlatchilik tuzumlarini aniqlang?

- a) parfiya;
- v) parkona;
- g) kushon;
- d) xorazm;
- e) yuqoridagilarning barchasi.

9. «Ikkinchi muallim» deb nom olgan allomani ko'rsating?

- a) Abu Nasr Forobiy;
- v) Abu Ali Ibn Sino;
- g) Abu Rayhon Beruniy;
- d) al- Xorazmiy;
- e) al-Farg'oniy;

10. «Qutadg'u bilig» asarini yozgan allomaning nomi qaysi qatorda berilgan?

- a) Abdurahmon Jomiy;
- v) Zahiriddin Muhammad Bobur;
- g) Yusuf Xos Hojib;
- d) Abu Ali Ibn Sino;
- e) Ahmad Yugnaki.

11. Ulug’bek asosan kimning yordami bilan hokimiyatga kelgan?

- a) ruhoniylar yordamida;
- v) siyosiy muhit ta’sirida;
- g) otasi Shohrux yordamiga tayanib;
- d) shahar aholisi yordamida;
- e) ilm-fan ahli yordamida.

12. Zahiriddin Muhammad Bobur markazlashgan davlatni tuzish uchun kimlarga qarshi kurashdi?

- a) mahalliy hukmdorlarga qarshi;
- v) Oltin O’rda xonlariga qarshi;
- g) temuriy hukmdorlarga qarshi;
- d) dinsizlarga qarshi;
- e) tashqi dushmanga qarshi.

5-mavzu: Iqtisodiyot, ma’naviyat va ma’rifatning o’zaro munosabati va jamiyat hayotidagi ahamiyati

5.1. Iqtisodiyot tushunchasi va ma’naviyat va ma’rifat tushunchasining bog’liqligi

«Bizga eski ma’muriy-buyruqbozlik, mahsulotlarni, mablag’larni taqsimlash tizimidan biryoqlama rivojlangan nochor iqtisodiyot og’ir meros bo’lib qoldi. Chunki eski tuzumning ko’p nuqsonlari bor edi. Lekin hech toqat qilib bo’lmaydigan tomoni shunday ediki, O’zbekiston iqtisodiyoti sobiq SSSR xalq xo’jaligi tarkibida uning ajralmas qismi bo’lib, yagona umumittifoq kompleksi deb atalmish ushbu tizimda, avvalo, arzon xom ashyo bazasi sifatida xizmat qilar edi.

O’sha davrdagi respublika sanoati va u bilan bog’liq tarmoqlar asosan qishloq xo’jalik xom ashysi, mineral xom ashyo resurslarini dastlabki qayta ishslash va bu mahsulotlarni SSSR ning boshqa markaziy mintaqalariga etkazib berish bilan band bo’lgan.

Ayni vaqtda respublikaning tayyor mahsulotlarga bo’lgan ehtiyojining 70 foizdan ko’pini ta’minlaydigan tovarlar, birinchi galda, keng xalq iste’mol mollari tashqaridan olib kelinar edi.

Jumladan, go’sht va sut mahsulotlari, un, qandolat kabi oziq-ovqat mahsulotlarining aksariyat qismi, bolalar oziq-ovqatlarining 100 foizi, hatto O’zbekistonning o’zida to’lib-toshib yotgan osh tuzi ham chetdan keltirilar edi. Xizmat ko’rsatish sohasi rivojlanmagan, ibridoiy bir holatda edi».¹

O’zbekiston milliy mustaqillikka erishgandan so’ng boshqa mustaqil respublikalar singari iqtisodiy qiyinchiliklarga duch keldi. Sababi, sobiq ittifoq davrida ko’pgina ishlab chiqarish mahsulotlariga, moddiy noz-ne’matlarga talab katta edi. Chunki markazdagi rahbarlar «biz sizlarga tayyor mahsulot etkazib beramiz» niqobi ostida O’zbekistonning xom ashynosini talon-toroj qilib olib ketar edilar. Shu bois ulkan miqdordagi mahsulotlar respublikada ishlab chiqarilmas edi. Bu mahsulotlarni respublikada tayyorlash ancha murakkab kechdi. Aholining kayfiyatiga ham bu vaziyat qattiq ta’sir qila boshlagan edi.

Iqtisodiyotning ma’naviyat va ma’rifat bilan uzviy bog’liqligi, uni tiklash vazifikasi endilikda ko’ndalang bo’lib qoldi. Iqtisodiy tafakkurning etishmasligi sezildi. Binobarin, sobiq ittifoq davrida qadriyatlardan bo’lgan islom dinidagi iqtisodiy sohalarda aytilgan hayotiy o’gitlar nazardan chetda qolgan edi. Holbuki, muqaddas Qur’oni Karimning 300 ga yaqin oyatlari iqtisodiy ma’naviyatga, iqtisodiy tafakkurga bag’ishlangan. Bular xalqimiz ta’lim tarbiyasida qo’llanilmadi. Iqtisodiyot va ma’naviyat, ma’rifat birligi, ularning o’zaro bog’lanishlariga e’tibor berilmadi.

Ma’lumki, iqtisodiyotni «Iqtisodiyot nazariyasi» o’rganadi. Shunday bo’lsa-da, talabalarda iqtisodiyot sohasida qisman tasavvur paydo qilish uchun «Iqtisodiyot» ustida to’xtalamiz: «Iqtisodiyot har bir kishining, har bir oilaning, jamoa va umuman, jamiyatning hayotida muhim o’rin tutadi. Iqtisodiyotga qarab ijtimoiy hayot

¹ I.A.Karimov. Jamiyatda tadbirkorlik ruhini qaror toptirish-tarqqiyot garovi. «Xalq so’zi», 2001 yil, 18-iyul

o'zgaradi. Iqtisodiyot-bizning nafaqat bugungi, balki ertangi hayotimiz, hozirgi va kelajakdagi farovonligimiz. Iqtisod baquvvat bo'lmasa, farovonlik kafolatlanmaydi, moddiy etishmovchilik bo'ladi, turmush tashvishlari ortadi. Aksincha, iqtisodiy o'sish sharoitida farovonlik ortadi, sotsial vaziyat barqarorlashadi, odamlarda kelajakka ishonch paydo bo'ladi, ularning faolligi ham kuchayib boradi»¹.

Ko'riniib turibdiki, bu ta'rif iqtisodiyotning turli sohalarini, uning inson hayotidagi ahamiyati, jamiyat hayotida tutgan o'rnini izohlaydi. Yoki boshqa bir manbada iqtisodiyotga quyidagicha ta'rif beriladi: «Iqtisodiyot odamlar faoliyatining o'zlar iste'mol qiladigan ne'matlarni ishlab chiqarish, uning natijalarini o'zlashtirish, mavjud moddiy va mehnat imkoniyatlaridan foydalanish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarining juda muhim tomonidir. Iqtisodiyot qiziq bir olam bo'lib, turli kasbdagi, millat va jinsdagi, qarashlar va ruhiyatdagi, turli mintaqaga va qit'alardagi odamlarning tirikchilik vositalarini yaratish va iste'mol qilish bo'yicha amalga oshiradigan aloqalari va bog'liqliklarining ifodasidir»²-deyiladi. Uchinchi bir ta'rifda esa: «Iqtisodiyot deganda kishilar hayotini ta'minlaydigan moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va uning iste'moli bilan bog'liq barcha sohalarning yig'indisi va ayni jarayonda ishtirok etayotgan odamlarning faoliyati, ular o'rtasidagi aloqa va bog'lanishlar, munosabatlarning yaxlit birligini tushunmoq kerak»³ -deyiladi. Ta'riflardan ko'riniib turibdiki, iqtisodiyotga qanday ta'rif berilmasin, barchasida ham, insonlar faoliyati, insonning moddiy noz-ne'matga bo'lган talabi va mahsulotlarni ishlab chiqarishi va ularning taqsimoti bilan bog'liq. Shu bois bu jarayonlar, jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalar bilan mushtarak bo'lsa xalq manfaati oshadi, rivojlanish tez amalga oshadi. (Iqtisodiyot so'zining lug'aviy ma'nosiga kelsak u «sarfi-harajatda ehtiyyotkorlik, tejamkorlik» mazmunini beradi. (O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-tom, M.: «Rus tili», 1988 yil, 346-bet). Iqtisodiyot so'zi rus tiliga tarjima qilinganda esa «Ekonomika» ma'nosini beradi). Iqtisodiyot so'zi keng ma'noda ishlatilganda, biror ijtimoiy tuzumning, ijtimoiy ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotining ishlab chiqarish munosabatlariga mos kelishi, ijtimoiy tuzumning bazisidir. (O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-tom, M.: «Rus tili», 1981 yil, 441-bet).

Iqtisodiy sohadagi oldingi ma'muriy buyruqbozlik usulidan voz kechish aynan dolzarb bo'lib, kadrlarni yangi ma'naviyat va mafkura asosida tarbiyalashning kun tartibida qo'yilishi respublikani yangi pog'onaga ko'tardi. Shu sababli, iqtisodiyotning insonlar faoliyati bilan bog'liqligi hisobga olinib, Qonunchilik palatasi tomonidan ko'plab zaruriy qonunlar qabul qilinmoqdaki, ularning barchasida ham iqtisodiyot, ma'naviyat va ma'rifat o'zaro bog'liqligi qayd qilingan. Hatto, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan «Xorijiy sarmoyalar va xorijiy sarmoyadorlar faoliyatini kafolatlash to'g'risida»gi, «Bankrotlik to'g'risida», «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi qonunlarda ham yuqoridagi fikrlar o'z ifodasini topgan.

¹ A. O'lmasov, M. Sharifxo'jaev. Iqtisod nazariyasi. T.: «Mehnat», 1995, 3-bet

² Q. Yo'ldoshev, K. Muftoydinov. Iqtisod ilmiy asoslari. Andijon, 1995, 8-9 betlar.

³ Abdullaev A. Ma'naviyat va iqtisodiy tafakkur. T.: «Ma'naviyat», 1999, 7-bet.

Insoniyat faoliyatida moddiy noz-ne'matlar etakchi rol o'ynar ekan, demak, unga ehtiyoj kamaymaydi. Aksincha, ortib boradi. Sababi, shaxsiy manfaat bo'lmasa inson hayotining dolzarbliji yo'qoladi. Ammo, shaxsiy manfaat jamiyat manfaatlariga mos tushmog'iga erishish lozim. Bu esa, jamiyatda yashayotgan shaxsning ma'naviyati va ma'rifatliligi bog'liq. «Mavjud ulkan resurslar, aql-ziyova ishlab chiqarish potentsiali davlat mustaqilligi bilan birgalikda respublikada iqtisodiyotni yangilash, uni ma'rifiy rivojlanish yo'liga o'tkazishga doir tub islohotlarni amalga oshirishga haqiqiy shart-sharoit va imkoniyat yaratadi»¹. Ana shu xulosalardan kelib chiqqan holda O'zbekiston hukumati, kadrlar tayyorlashga doimiy e'tiborni qaratib, ushbu sohada talaygina vazifalarni amalga oshirib kelayotir. Iste'dodli yoshlarni chet davlatlarga yuborish, chet el iqtisodiy nazariyalarini o'rganish, mutaxassislarni tajriba almashish va o'rganishga yuborish, turli amaliy tadbirlar, anjumanlar, iqtisodiy sohalarda delegatsiyalar taklif qilinib uchrashuvlar tashkil qilish shular jumlasidandir.

Jamiyatda yashovchi kishilar hamisha va har doim oziq-ovqat, kiyim-kechak, ishlab chiqarish qurollari va vositalariga muhtoj. Bu muhtojlikni boshqarish, unga adolatli yondoshish har bir rahbar va fuqaroning burchidir. Burch esa inson ma'naviyati, ma'rifati darajasiga bog'liq. Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini kishilar ta'minlar ekan, avvalo yuksak ma'naviyat haqidagi rejalar amalga oshirilishi, zaruriyatga aylanishi kerak. Shu iqtisodiyotni yuksak ma'naviyatlilar hal etadilar. Iqtisodiy ma'naviyat qanchalik yuksalsa, jamiyat ham barqaror rivojlanadi. Ma'naviy yuksak shaxslargina davlat va mamlakat rivojiga o'z hissasini qo'shadilar. Ular mamlakat menga nima berdi? deb emas, balki men mamlakatga nima berdim? qabilida ish tutadilar. Ma'naviyati yuksak insonlar mamlakat boyliklarini asrab avaylaydilar, tejab-tergab foydalananadilar. Xalq oldidagi mas'uliyatlarini chuqur his etadilar. Yaratuvchilik, ijodkorlik, tashabbuskorlik ishlari bilan shug'ullanadilar. Iqtisodiyot hayotni harakatlantiruvchi kuch ekanligini boshqalardan ko'ra ko'proq tushunadilar. Milliy mustaqillikni mustahkamlovchi manbalarni e'zozlaydilar.

Ma'lumki, mutaxassislarning fikricha, mamalakatimizda D.Mendeleev davriy sistemasidagi barcha elementlar bor. Bular milliy boyliklardir. Ularning qiymati 3,3 trillion dollarni tashkil etadi. Foydali er qazilmalaridan: oltin, uran, mis, tabiiy gaz, volfram, kaliy tuzlari, fosforitlar, kaolinlar bo'yicha mamlakatimiz dunyoda etakchi o'rirlarni egallaydi. Gaz zahiralari 2 trillion kub metrga yaqin, ko'mir esa 2 milliard tonnadan ortiq, hajmi 350 million tonnaga yaqin neft zahirasi bor. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish uchun ulkan imkoniyatlar mavjud. Demak, iqtisodiyotni rivojlantirishning moddiy bazasi etarlidir. Bu baza yuksak ma'naviyatlari insonlar tomonidan tejamkorlik bilan foydalanilsa, xalq ehtiyoji va manfaatlari to'la qondiriladi. Foydalanish esa ma'naviyatlari va ma'rifatli kishilarning faoliyatiga bog'liqdir.

¹ I.A.Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.: «O'zbekiston», 1996, 300-bet.

5.2. Bozor iqtisodiyoti tushunchasi, uning kontseptsiyalari va ma’naviyat

Ma’lumki, bozor iqtisodiyoti tushunchasiga sobiq ittifoq davrida salbiy baho berilib, uning ijobjiy tomonlari ham tanqid qilinib kelindi. Chunki mavjud bo’lgan sistemalar: «kapitalizm» va «sotsializm» bir-biriga butunlay zid edilar. Birinchisi xususiy mulkni mubolag’ alashtirib ko’rsatsa, ikkinchisi unga mutlaqo salbiy baho berib, mulkni yoppasiga davlat tasarrufiga olish tarafdori edi.

Shulardan xulosa qilib sovet ittifoqi tarkibidan ajralib ketgan yosh mamlakatlar turli nazariyalar asosida o’z rivojlanishini belgilashga harakat qildilar. Prezident I.A.Karimov o’zining «O’zbekiston-bozor munosabatlari o’tishning o’ziga xos yo’li» asarida nazariy kontseptsiyalar ustida to’xtalib, ularning mohiyatini quyidagicha ochib beradi:

«Asosiy ehtiyojlar» kontseptsiyasi. Aholining eng kam tirikchilik ehtiyojini kafolatli tarzda ta’minalash va ish bilan band qilish muammolarini hal etish ushbu kontseptsiyaning asosiy maqsadidir;

«Maqbul yoki tegishli texnologiya» kontseptsiyasi. Bu kontseptsiya aholi bandligini ta’minalaydigan va mahalliy xom ashynoni, avvalo qishloq xo’jalik xom ashynosini qayta ishlashga qaratilgan sermehnat texnologiyani rivojlantirish zarurligiga asoslanadi;

«O’z kuchiga jamoa bo’lib tayanish» kontseptsiyasi. Bu kontseptsiya mavjud zahiralardan to’liqroq foydalanishga va rivojlanayotgan mamlakatlarning taraqqiy etgan mamlakatlarga qaramligini kamaytirish maqsadida ular o’rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan;

«Yangi xalqaro iqtisodiy tartib» kontseptsiyasi. Bu kontseptsiya rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan mustamlaka holatidan qutulishga va iqtisodiy qoloqligini tugatishga, teng huquqli sheriklar sifatida tan olinish, xom ashyo va sanoat mollariga o’z manfaatlariga muvofiq keladigan yangi narxlarni, xalqaro savdo me’yorlarini, valyuta kursini belgilashga, zamonaviy texnologiyalarni sotib olish imkoniyatlarini kengaytirishga bo’lgan umumiy intilishlarini aks ettirdi».

Rivojlanayotgan mamlakatlarning andozalari, ularning iqtisodiy yo’llari, ushbu keltirilgan kontseptsiyalar va nazariyalarning o’ziga xos qo’shilmasidan iborat, deb ko’rsatadi. Shu bilan birga ular bir-biridan farq qiladigan, ya’ni bozor iqtisodiyotiga o’tishning boshlang’ich shartlariga ko’ra ajratiladigan uch xil yondoshuvni o’ziga xos jihatlarining nazariy tomonlarini ko’rsatib berdilar. Binobarin:

Birinchisi: bozor munosabatlari chuqurlashtirish va rivojlantirish, uzoq davom etgan evolyutsion taraqqiyot yo’lini bosib o’tgan, rivojlangan mamlakatlarda aralash iqtisodiyotni shakllantirishdir.

Ikkinchisi: rivojlanayotgan mamlakatlarning eng oddiy va bozor patriarxal-feodal munosabatlari ko’rinishlariga ega bo’lgan an’anaviy iqtisodiyotini madaniy bozor munosabatlari aylantirishdir.

Uchinchisi: sobiq sotsialistik mamlakatlarning yakkahokimlik tartibidan ma’muriy-buyruqbozlik boshqaruv va markazlashtirilgan rahbarlik usulidagi rejorashtirishdan bozor munosabatlari, demokratik jamiyatga o’tishidir. Ya’ni, o’z

taraqqiyotining ilk bosqichlarida narxlarni erkin qo'yib yuborib, keyinchalik iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan.

O'zbekiston hukumati ana shu yo'nalishlarni tahlil qilar ekan, O'zbekistonning o'zida bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'l va usullarini ishlab chiqdi.

Bozor iqtisodiyoti va islohotlarning negizini tashkil qiluvchi yo'llarning g'oyat xilma-xilligi, erkin bozor raqobatchiligi, iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishi bilan qay darajada qo'shib olib borilishi, ularning ijtimoiy yo'nalishi, hal qilinayotgan katta iqtisodiy muammolarning ustuvorligi bilan bog'liqdir.

Shu sababli, bizning qat'iy nuqtai nazarimiz jahon tajribasi va o'z amaliyotimizdan olingan jamiki foydali tajribalarni rad etmagan holda o'zimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'limizni tanlab olishdan iboratdir.

Jumladan, «Amerikacha andoza» da erkin bozor munosabatlari katta ahamiyatga ega bo'lsa, «Yapon», «Frantsuz» andozalarida xo'jalik faoliyatini tashkil qilishda davlat ko'proq ishtirok etadi. «Nemis» va «Shved» andozalarida ijtimoiy faoliyatga e'tibor ko'proq qaratiladi. Lotin Amerikasi va Afrika mamlakatlaridagi andozalarda asosiy e'tibor iqtisodiyotni barqarorlashtirish va byudjetni to'ldirishga ko'proq e'tibor qaratiladi. Ba'zi mamlakatlarda «falaj» (shok) holatidan, ya'ni o'z taraqqiyotining ilk bosqichlarida narxlarni erkin qo'yib yuborib keyinchalik iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan.

O'zbekiston hukumati ana shu yo'nalishlarni tahlil qilar ekan, O'zbekistonning o'ziga xos bozor munosabatlariga o'tishning maxsus yo'lini tanladi. Bu tanlashda barcha tajribalar butunlay inkor etilmasdan, ularning ijobjiy tomonlaridan to'la foydalanildi.

O'zbekiston uchun o'zi tanlab olingan maxsus yo'l ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan, respublikaning manfaatlari, shart-sharoitlari va xususiyatlari ko'p darajada mos keladigan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgandir.

Ayni mana shunday yo'l O'zbekiston xalqining munosib turmushini, uning ma'naviyati, huquqlari va erkinliklarini kafolatlashi, milliy an'analari va madaniyatining qayta tiklanishini, insonning shaxs sifatida ma'naviy-axloqiy kamol topishini ta'minlashi mumkin.

Bu o'rinda tarixan tarkib topgan ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarning mazmuniga ko'ra, Osiyoda shakllangan an'anaviy ishlab chiqarish usuli va mehnatni tashkil etish shakllari O'zbekistonga xos ekanligi ham iqtisodiy islohotlarning yo'llari va andozalarini tanlab olishga ta'sir qilayotgan jiddiy omildir. Shu bilan birga, bozor munosabatlariga o'tishning maxsus yo'lini tanlab olish, aholining tafakkur va milliy-tarixiy turmush tarzini, xalq an'analari va urf-odatlarini har tomonlama e'tiborga olish hal qiluvchi omillardandir. Ijtimoiy jihatdan uyushib yashashning jamoa shakli O'zbekiston xalqiga tarixan xos bo'lib, bu uning an'anaviy turmush tarzi bilan chambarchas bog'liqdir. Unda O'zbekiston xalqining milliy ruhiyatiga xos bo'lgan etnopsixologik me'yorlarning xususiyatini ham e'tiborga olish zarur. Bu hol, ijtimoiy ong darajasida odamlarning yangiliklarga, qadriyatlar tizimini o'zgartirishga, qaror topgan me'yorlarni, ularning xatti-harakat qoidalari va andozalarini barbod qilishga olib keladigan tub o'zgartishlarga nisbatan ehtiyyotkorona munosabatida namoyon bo'ladi.

Tub aholining erga yaqinroq bo'lishi, o'z uyi yonida tomorqa xo'jaligiga ega bo'lishga an'anaviy intilishi, uning manfaatlari va turmush tarzida o'z izini qoldirmoqda. Hayotiy qadriyatlar, oilaviy turmush munosabatlari normalari, mehnat faoliyati sohasidagi ko'nikmalar shunday turmush tarziga xosdir.

Shu sababli, iqtisodiyotdagi islohotlarni amalga oshirishning besh tamoyili ishlab chiqildiki, bu tamoyillarda respublika aholisini turmush tarzi, faoliyati hisobga olindi. Bu tanlangan yo'lni endilikda «O'zbek modeli» deb ko'p mamlakatlarda e'tirof etildi. «O'zbek modeli»dagi tamoyillar quyidagilardir:

1. Iqtisodiy islohotlar siyosatdan, mafkuradan xoli bo'lishi

Mustaqil O'zbekiston hayotida bu tamoyil ayniqsa zarurligini hayot tasdiqladi. Zero, siyosat iqtisodiyotga tazyiq o'tkazib kelgan davrlarni Respublika aholisi yaxshi biladi. O'sha sobiq ittifoq davridagi aynan shu holat aholining ijtimoiy yashash darajasini salbiy oqibatlarga tushirib qo'ygan edi. Shu sababli iqtisodiyot ham etarli taraqqiy etmagandi. Bozor munosabatlariga o'tish davrida iqtisodiy turmush etakchi bo'lgandagina boshqa sohalarni samarali rivojlantirish mumkin. Bu davrda mafkuraning vazifasi jamiyatdagi aholi tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashi lozim edi.

2. Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida davlat bosh islohotchi bo'lishidir

Bu davrda davlat iqtisodiy va ijtimoiy sohalarning mukammal rejalarini tuzishi va uni hayotga tatbiq etish uchun chora tadbirlar ko'rishi talab etiladi. O'tish davrida iqtisodiyotni tartibga solish o'ta muhim bo'lib, unga kimdir albatta javobgar bo'lishi kerak. Bu davlatdir. Bozor ham o'z-o'zidan tartibga tushmaydi, shu sababli davlat bozorni tartibga tushiruvchi quroldir. Ayniqsa, sobiq tuzumni talabga javob bermaydigan tomonlarini yangilash, paydo bo'lgan yangi boshqaruv sistemalarini mustahkamlash, ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojini ta'minlash, narx-navolarni tartibga solish, soliq tizimini mustahkamlash, bank-kredit muammolarini echish, millatlararo totuvlikni kafolatlash davlatning muhim vazifasidir. Shu sababli, o'tish davrida davlat bosh islohotchiliginini saqlash faqat yutuqlarga olib keladi, xolos.

3. Respublika faoliyatida qonun va qonunlar ustuvorligini ta'minlash muhimdir

Demokratik yo'l bilan qabul qilingan Respublika Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarga rioya qilish va ularni hurmat qilish har bir fuqaroning burchiga aylanishi lozim. Bozor munosabatlari sharoitida, bozor xo'jaligining o'zi ham huquqiy jihatdan mustahkamlanmasa, tartibsizliklarni kelib chiqishiga olib keladi. U huquqiy norma va qoidalarga tayanishi kerak. Bozor munosabatlariga o'tgan mamlakatlarda qonunchilikka rioya qilinishi ta'minlangan. Qonunchilik, bozor munosabatlari ishtirokchilari tarkibini aniqlabgina qolmaydi, balki ularning o'zları qarorlar qabul

qilishi, qoidalarga rioya qilishini ham ta'minlaydi. Bozor iqtisodiyotining o'ziga xos va mos keladigan huquqiy asoslarini takomillashtirish uch-to'rt yilning vazifasi emas. U uzoq muddatni o'z ichiga oladigan murakkab jarayondir. Qonunlarni mukammal qilib yaratish, ularni hayot bilan bog'lash ayniqsa muhimdir.

4. Kuchli ijtimoiy siyosatni o'tkazish

Bu tamoyil bevosita aholini ijtimoiy himoyalash bilan bog'liqdir. O'tish davrida aholi tarkibini, uning ahvolini nazardan chetda qoldirmaslik ayniqsa dolzarb masaladir. Aholining eng kambag'al, yordamga muhtoj tabaqalarini aniqlab, ularga yordam ko'rsatish, fuqarolar osoyishtaligini barqarorlashtirish, islohotlarni o'tkazishda to'siqlar bo'lmasligini ta'minlaydi. O'tish davrida odamlarni kuchli darajada ijtimoiy himoyalash bosh maqsad bo'lishi kerak. Uni kechiktirib bo'lmaydi, aks holda beqarorlik vujudga kelib bozor munosabatlariga zarar keltiradi. Bozor munosabatlariga o'tishni jadal olib borib kam ta'minlangan nochor oilalar, nafaqadagilar, talaba va o'quvchilarga yordam ko'rsatish, kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning asosiy maqsadidir. Ishsizlikning oldini olish, sog'liqni saqlash, maorif tizimini rivojlanishini barqarorlashtirish ulkan vazifadir.

5. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning evolyutsion yoki bosqichma-bosqich amalga oshirish

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyoti ikki yo'l bilan, ya'ni «inqilobiy sakrashlar» yoki «asta - sekinlik» bilan amalga oshiriladi. O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish davrida bosqichma-bosqich o'tishdan foydalanish qo'l keladi. To'g'ri, respublikadagi markazdan rejorashtirishga moslashgan iqtisodiyotni yo'q qilish yoki birdan yutuqlarga erishish qiyin muammodir. Ma'muriy-buyruqbozlik uslublaridan yangi boshqaruv sistemasiga o'tish ham mushkuldir. Bu sohalarning hammasi bir sifatdan ikkinchi sifatga o'tishdir – yangi hayotdir. Bu yangi hayotni shiddat bilan qurib bo'lmaydi. Har bir yo'nalishni mukammal o'rganish, hayot talablari darajasiga ko'tarish vaqt va ijodni talab qiladi. Bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o'tish «falaj qilib davolash» yo'li bilan borsa yaxshi natijalarni bermaydi. Aholining turmush darajasi pasayib ketadi. Bozor iqtisodiyotiga sakrashlarsiz, inqilobiy o'zgarishlarsiz, aksincha, izchillik, sabr-toqatilik va bosqichma-bosqich o'tish davr talabi hamdir.

Ko'rinib turibdiki, bozor munosabatlariga o'tishning tamoyillari nafaqat nazariy jihatdan mustahkam, balki, amaliy faoliyat dasturi hamdir. Bu tamoyillar I.A.Karimovning «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida yanada mukammallashtirildi.

5.3. O'zbekiston milliy mustaqilligining iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy asoslari

Mustaqillikka erishgan mamlakatimiz mustaqil holda o'zining rivojlanish imkoniyatlarini hisoblash uchun bir qancha tadbirlarni amalga oshirdi. O'z hududidagi foydali qazilmalar turlari va ularning miqdori, sifati, tabiiy iqlim sharoitlari aniqlandi. Xalqimizning kuch-qudrati, milliy kadrlar tayyorlash, ularning ilmiy va tashkilotchilik faoliyati hisobga olindi.

I.A.Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», «O'zbekiston – ulkan imkoniyatlar mamlakati», «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli asarlarida shu muammolar haqida batafsil fikr yuritilib, iqtisodiyotning ma'naviy-ma'rifiy asoslari nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. O'zbekiston o'zining er osti boyliklari va ilmiy salohiyati jihatidan faxrlanishga loyiq. Endilikda 2,7 mingdan ziyod turli foydali qazilmalar konlari bo'lib, ular 100 dan ortiq mineral xom ashyo turlarini o'z ichiga olgan. Shulardan hozir 60 dan ortig'i ishlab chiqarishga jalb etilgan. 900 dan ortiq kon qidirib topilib, ularning qiymati 970 milliard AQSh dollarini tashkil qiladi. Tabiiy gaz bo'yicha 155 ta istiqbolli kon, qimmatbaho metallar bo'yicha 40 dan ortiq rangli, nodir va radioaktiv metallar, 15 ta kon qidirib topildi. Har yili O'zbekistonda konlardan taxminan 5,5 milliard dollarlik foydali qazilmalar olinmoqda, ularning yoniga 6,0-7,0 milliard dollarlik yangi zahiralar topib qo'shilmoqda. 160 dan ortiq neft koni mavjud. Demak, respublika taraqqiyotini ta'minlashda iqtisodiy manbalar mavjud. Shu manbalarni ishga tushirish inson salohiyatiga, ma'rifatiga bog'liq. Jamiyatning ulkan boyligi, taraqqiyoti xalqning abadiy qadriyatlariga, urf-odatlariga, ma'naviyatiga borib taqaladi. O'z navbatida xalqni miqdor va sifat jihatdan o'sishi ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu omillarning kuchi, ta'siri eng avvalo yuksak ma'naviyat bilan, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining darajasini belgilab beradi.

Mehnat zahiralarini ko'paytirish ham rivojlanish omillaridan birini tashkil qiladi. Bir yilda yarim millionga yaqin aholi o'sishi kuzatilmoqda. Aholining savodxonligi esa 99,06 foizni tashkil etayotir. Hozirgi kunda 65 dan ortiq oliy o'quv yurti, 300 ga yaqin o'rta maxsus o'quv yurtlari, shulardan 260 tasi kasb-hunar kollejlaridir. 47 ta akademik litseylar qurilib foydalanishga topshirildi. 10 yilda bu ishlarga 135 milliard so'm sarflandi. 101 ta ilmiy tadqiqot instituti, 65 ta loyiha-konstrukturlik tashkiloti, 32 ta ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi, 30 ta axborot-hisoblash markazlari ishlab turibdi. Fan sohasida 50 mingga yaqin kishi, shulardan, ikki ming sakkiz yuztasi fan doktori, taxminan 16,1 minggi fan nomzodlaridir. Hozirgi davrda fanning 20 ta tarmog'i bo'yicha malakali ilmiy kadrlar tayyorlanmoqda. Binobarin, ushbu sohalarning barchasi aholini yuksak ma'naviyat sari etaklashda muhim omil hisoblanadi. Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida ayniqsa, iqtisodiyot va ma'naviyat birligiga erishilsa, rivojlanish shunchalik tez amalgaga oshadi. Bu sohalar bir-birini inkor etmay, balki, bir-birini to'ldiradi. Ma'naviyati yuksak insonlar jamoa va davlatning, birovning mulkiga xiyonat qilmaydi. Ma'naviyati qashshoq kishilar esa buni aksini qiladi. Faqat o'z manfaatini o'ylab ish yuritadi. Iqtisodiyotni rivojlantirish ko'p jihatdan tadbirkorlar sinfining

ma'naviyatiga bog'liq. Hozirgi tadbirkor o'ta tejamkor bo'lishi bilan birga, quyidagi yuksak ma'naviyat qirralariga ega bo'lishi zarur:

- Vatan oldidagi o'z burchini to'g'ri anglashi;
- savdo-sotiq va o'z korxonasining faoliyatini aniq tasavvur qilishi, o'z sohasining ilmiy va amaliy jihatlarini mukammal bilishi, ma'rifatli bo'lishi;
- dunyoviy bilimlarga va o'z dunyoqarashiga ega bo'lishi;
- o'z sohasiga oid qonun va qarorlarni mukammal bilishi;
- boylikka, shaxsiyatparastlikka, manmanlikka berilmasligi, kamtar, oljanob, sofdil, odob-axloqli bo'lishi;
- barcha sohalarda halol va haromni ajrata bilishi, mehnatsevar, insonparvar bo'lishi;
- xorijiy tillarni bilishi;
- insofli vaadolatli, mard, qat'iyatli, boshlagan ishining natijasini oldindan ko'ra biluvchi bo'lishi va hakozo.

Biz birgina tadbirkorning yuksak ma'naviyati qirralari to'g'risida to'xtalganimiz bilan, lekin, barcha iqtisodiyot bilan shug'ullanadigan insonlar to'g'risida ham shu xislatlarning bo'lishi zarur deymiz. Ming afsuslar bo'lsinki, insonlar orasida yuksak ma'naviyat qirralarini to'g'ri tushunmaydiganlar ham oz emas. Ular jamiyat oldidagi burchlarinida ham unutadilar. Aslida, inson burchlari ham bugun o'ylab chiqilgan emas, ular ota-bobolarimizning necha-necha avlodlari tajribasining natijasidir. «Bozor, iqtisodiyoti - degan edi, I.A.Karimov, o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'ninch sessiyasida so'zlagan nutqida – inson ma'naviyatini unutish gunoh bo'ladi. Nuql pul va foyda ketidan quvsakda, ammo odamlarimiz ruhan qashshoq bo'lib qolishsa-bunday jamiyatning hech kimga keragi yo'q». Shu sababli, ham Respublika mustaqillikka erishgandan buyon o'tmish madaniyati va ma'naviyati, qadriyatlarni tiklash, milliy ongni o'stirish kabi vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib olgan. Qaysi jamiyatda ma'naviy jihatlar qadrlanar ekan, o'sha jamiyatda yashayotgan insonlar ijtimoiy tarafdan ko'proq kafolatga ega bo'ladilar. Shu sababli yuksak ma'naviyatli bo'lish borasida tinmay harakat qilinmoqda. Zero, milliy istiqlol mafkurasi ma'naviy, ma'rifiy qadriyatlarga ham bog'liq. Sobiq ittifoq davrida gohida yashirin, gohida ochiq xalqimiz kamsitilib kelindi. «Sizlar o'z-o'zlarining mustaqil boshqarishga, mustaqil davlat qurishga qodir emassizlar», «Sizlar mute, qaram millatsizlar», «Sizlar uchun biz fikrlaymiz, nazariya yaratamiz, amru farmon beramiz, sizlar esa bajarasiz, xolos»¹ deb kelganlar. Prezidentimiz I.A.Karimov siyosiy byuro a'zolarining bu fikrlarini bekorga misol qilib aytmagan. «Biz yuqoridamiz» deb turib olganlarni fikrlari naqadar hayosizlik ekanligini tarix ko'rsatayotir. Mafkura yakka hokimligidan qutulgan xalq o'z ma'naviyati va mafkurasini tiklab tsivilizatsiyaning yuqori cho'qqilariga qarab intilib borayotir. Binobarin, taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan etuk insonlar hal qiladi.

Dunyoviy bilimlarni egallash, ma'naviy barkamollikni ham ta'minlashga o'z hissasini qo'shami. Barkamollik esa insonning ruhiy va ma'naviy salohiyatini, ma'rifiy xislatining oliy nishonasidir. «Biz iqtisodiy o'nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishni ma'naviy o'nglash, ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish

¹ I.A.Karimov. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. 3-tom, T.: «O'zbekiston», 1996, 34-bet.

harakatlari bilan tamomila uyg'un bo'lishini istaymiz va uni to'la tatbiq etamiz. Odamlarimiz omilkor, salohiyatli, oqibatli, halol va ijtimoiy maydonlarda sobit turadigan bo'lsinlar»¹. Hozirgi kunda ham ushbu fikrlarga amal qilingan holda ish olib borilmoqdaki, bu davlat siyosatining ustuvor yo'naliishiga aylangan. Davlat tomonidan, ma'naviy va ma'rifiy ishlarga yordam qo'lini cho'zayotgan kishilarga, tadbirkorlarga, barcha homiylarga yordam ko'rsatilib, ba'zi imtiyozlar berilayotganining guvohimiz. Ma'lumki, ma'naviy-ma'rifiy sohalarni rivojlanishi uchun avvalo davlatning o'zi homiylik vazifasini o'tamoqda. Chunki, ma'naviyat va ma'rifikat o'ta e'tiborni talab qiladigan sohalardir. Bu masalani hal etishda ham donishmandlarimiz o'gitlariga, ya'ni «Ma'rifikat-bu shijoatdir» degan falsafiy fikrlarga amal qilingan holda ish olib borilayotir.

Ma'rifikatga ishonganlar ma'rifikatli kishilarni e'zozlaydi va ularni o'z vaqtida ijodi uchun shart-sharoit yaratadi. Sababi, ma'rifikatga e'tibor bergan jamiyat o'zining yosh avlodlarini unutmaydi. Yosh avlod esa kelajak poydevoridir. Maqsadga erishish, yangi jamiyat qurish shu avlodga bog'liq. Iqtisod va ma'naviyat, ma'rifikat, siyosat nima ekanligini ularga o'z vaqtida tushuntirish shu jamiyatda yashovchi keksa va o'rta yoshli ziyolilarning ulkan vazifasidir. Chunki barcha sohalardagi islohotlarning taqdiri shu yoshlarning qo'lidadir. Shu ma'noda iqtisodiy islohotlarda davlat bosh islohotchi ekanligini e'tirof etar ekanmiz, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda ham shunday bo'lsa, bu yutuqlar garovi bo'ladi. Ya'ni davlat ma'naviy yo'naliishlarni belgilab berishi ayni muddaodir. Bozor munosabatlari davrida ma'naviy tarbiyaning samaradorligiga ayniqsa diqqat-e'tibor qaratilishi zarur. «Ma'naviyat tarbiyaning ajralmas qismi ekan, undan oqilona foydalanish, yoshlarni vatanparvarlik, rostgo'ylik, haqsevarlikka o'rgatish davr talabi. Axloq ma'naviyatning o'zagi. Inson axloqi noyobdir. Axloq avvalo insof, diyonat, adolat tuyg'usi, mehr-shafqat, iymon, halollilikdir. Demak, jamiyat a'zolarini axloqli qilib tarbiyalash, o'z iqtisodiyotini o'nglashda muhim omildir. Bu sohada muqaddas dinimiz islomning ham beqiyos o'rni bor. Islom dini – bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham iymon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifikat ekanligini unutmaylik. U quruq aqidalar yig'indisi emas. Ana shu ma'rifikatni kishilarimiz jon-jon deb qabul qiladilar va yaxshi o'gitlarga amal qiladilar. Mehr-oqibatli, or-nomusli, oriyatli bo'lishga, izzat-ehtirom tushunchalariga rioya etishga harakat qiladilar»¹. Bundan tashqari ma'lumki, Hoja Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Hoja Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro kabi allomalarimiz qoldirgan tariqatlar ham ma'naviy zaminlarimizni tashkil etadi. Bu tariqatlar insonlarni ma'rifikatli, yuksak ma'naviyatlilikka chaqirgan. Umuman olganda, dinimiz xalq ma'naviyatini yuksalishi uchun zamin yaratuvchi beqiyos manbadir. Undan foydalanish bizning vazifamizdir.

Tayanch so'z va iboralar: iqtisod, intellekt, tadbirkor, biznes, mulkdor, intellektual mulk, ma'naviy boylik, ijtimoiy taraqqiyot, tariqat, axloq, ijtimoiy salohiyat, regressiv taraqqiyot, bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'zbek modeli, erkin

¹ I.A.Karimov O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T.: «O'zbekiston», 1995, 47-bet.

¹ I.A.Karimov. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. 3-tom, T: «O'zbekiston», 1996, 40-bet.

bozor raqobatchiligi, bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillari, ijtimoiy himoyalash, «inqilobiy sakrashlar», ma'muriy buyruqbozlik metodi, totalitar tuzum, «falaj qilib davolash» yo'li.

Hikmatlardan namunalar

Hunar birla aqling birikkan hamon,
Har ish bu jahonda yurishgay ravon.

Abulqosim Firdavsiy

Suq odamlar mol – mulkka intilar,
O'limtikka tashlangandek quzg'unlar.

«Devonu lug'otit turk»

Jahon shodligining boisi dehqon,
Uning birla ekinzor, bog'u bo'ston.
Bu ishdin yaxshi olamda ne bordur,
Odam nasliga bu ish yodgordir.

Kosibdan shod xurram yo'q jahonda,
Hunardan yaxshi dur ham yo'q jahonda.

Nosir Xisrav

Mardlar kabi sen hunar talab et,
Hunarsizlardan uzoq - uzoq ket.

Xusrav Dehlaviy

Test topshiriqlari

1. Iqtisodiyot – bu....

- a) moddiy va ma’naviy boyliklar yaratish bilan bog’liq jarayonlar tizimi;
- v) kishilar iste’molini ta’minlaydigan moddiy ne’matlar;
- g) ishlab chiqarish bilan bog’liq munosabatlar majmui. Insonning butun faoliyati davomida bilim olishga bo’lgan intilish;
- d) kishilar ehtiyojini qondirish;
- e) barcha javoblar to’g’ri.

2. Iqtisodiyot so’zi keng ma’noda ishlataliganda ...

- a) biror ijtimoiy ishlab chiqarish kuchlari rivojining ishlab chiqarish munosabatlariga mos kelishi tushuniladi;
- v) muayyan ijtimoiy tuzumning ba’zisi tushuniladi;
- g) alohida sub’ektning iqtisodiy munosabatlarida qatnashishi tushuniladi;
- d) iqtisodiy tafakkur va dunyoqarashni o’zgartirish tushunchalari;
- e) a va v

3. Ma’muriy-buyruqbozlik tizimida iqtisodiyotimizga xos bo’lgan jihatlarni aniqlang?

- a) rivojlangan mamlakatlar bilan aloqa yaxshi yo’lga qo’yilgan edi;
- v) respublikadan xom ashyo bazasi sifatida foydalanilar edi;
- g) iqtisodiyotda raqobat kuchli edi;
- d) inson omiliga e’tibor kuchli edi;
- e) aniq javob yo’q.

4. Muqaddas «Qur’oni Karim»da iqtisodiy ma’naviyat, iqtisodiy tafakkurga oid oyatlar nechtani tashkil etadi?

- a) 300 ga yaqin;
- v) 100 ga yaqin;
- g) bunday oyatlar uchramaydi;
- d) 50 ga yaqin;
- e) 400 ga yaqin.

5. «Mavjud ulkan resurslar, aql-ziyo va ishlab chiqarish potentsiali davlat mustaqilligi bilan birgalikda Respublikada iqtisodiyotni yangilash, uning ma'rifiy rivojlanishi yo'liga o'tkazishga doir tub islohotlarni amalga oshirishga haqiqiy, shart-sharoit va imkoniyatlar yaratadi» – degan fikr I. A. Karimovning qaysi asarida aytilgan?

- a) «O'zbekiston buyuk kelajak sari»;
- v) «O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura»;
- g) «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q»;
- d) «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda»;
- e) «Egali yurt erkini bermas».

6. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning «O'zbek modeli» ...

- a) o'zbek xalqining milliy, tarixiy turmush tarzini e'tiborga olgan holda ishlab chiqiladi;
- v) iqtisodiy plyuralizmga asoslanib, erkin raqobatni taqozo etadi;
- g) iqtisodiyotda davlat rolini oshirishga asoslangan;
- d) mulkdorlarni shakllantirish;
- e) a va v.

7. Taraqqiyotning «O'zbek modeli» qaysi modellarga suyangan?

- a) «Amerikacha andoza» asosida ishlab chiqilgan;
- v) rivojlangan mamlakatlarning taraqqiyot yo'lini chuqur tahlil qilgan holda ishlab chiqilgan;
- g) «Yapon» va «Frantsuz» modellariga asoslanadi;
- d) «Turkiya» modeliga asoslanadi;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

8. Iqtisodiy ma'naviyatli shaxs deganda qanday kishini tushunasiz?

- a) iqtisodiy bilimlarga, keng dunyoqarashga ega kishi tushuniladi;
- v) boylikka, shuhratparastlikka berilmagan inson haqida tasavvur paydo bo'ladi;
- g) iqtisodiy jarayonlarni oldindan ko'ra biladigan, tadbirkor, halol va haromni ajrata oladigan kishilar tushuniladi;
- d) iqtisod va siyosatni tushunadigan kishini;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

6-mavzu: Ma’naviyat va siyosat, huquq, mafkura

6.1. Ma’naviyat va siyosat ijtimoiy hodisa sifatida. Adolatparvarlik va zo’ravonlik siyosati

Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish uchun yuksak ma’naviyatli kishilarga ega bo’lish birinchi vazifadir. Ma’naviyat, siyosat, mafkura jarayonlarining o’zaro birligi haqida olimlar tomonidan mukammal fikrlar ishlab chiqilmagan bo’lsa-da, Prezident I.Karimov asarlarida ularning uzviy aloqadorligi haqidagi jarayonlar ko’rsatilgan. Zero: «Siyosiy hayotning barcha sohalarini erkinlashtirish, jamiyatda demokratiya, fikr va vijdon erkinligi tamoyillarini, gumanizm g’oyalari va umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish, demokratiyaning zaruriy sharti bo’lgan ko’ppartiyaviylik muhitini vujudga keltirish lozim. Amaldagi ko’ppartiyaviylik – bu har xil qarash va g’oyalar o’rtasidagi bahs-munozara, turli partiyalar, jumladan, muxolif partiyalar uchun ham siyosiy raqobat maydoni demakdir. Milliy demokratik davlatchilikni qonun chiqaruvchi, ijro va sud xokimiyatlariga bo’linish borasidagi konstitutsiyaviy tamoyil asosida barpo etish»¹ olijanob vazifadir.

Ma’naviyat va siyosat-ijtimoiy hodisadir. Bular inson faoliyatini, uning turmush tarzini qamrab olgan, o’zaro bog’liq bo’lgan ikki sohadir. Dunyo xalqlari faoliyatida ma’naviyat katta ahamiyat kasb etgan bo’lsa, siyosat ham nazardan chetda qolgan emas. Shu sababli, bu masalaga qadimdan e’tibor qaratilgan. Turli mamlakatlarda turlicha yondoshilgan. Zero, siyosat saltanat yoki davlatni boshqarish bilan bog’liq bo’lgan. Eng qadimgi xalq og’zaki ijodiyoti, yozma asarlar va yodgorliklar jumladan, «Avesto», «Mahabborat» Konfutsiy asarlari, Platon, Aristotel, Sokrat, Abu Nasr Forobiy fikrlari shulardan dalolat beradi. Qadim davrlarda «siyosat» so’zini ishlatibgina qolmaganlar, balki asarlar ham yozganlar. Jumladan, Aristotelning «Siyosat» asari fikrimizning yorqin dalilidir.

O’sha vaqtagi siyosat to’g’risidagi asarlar, jamiyat va davlat doirasidagi barcha boshqaruv yoki adolatparvar g’oyalar tamoyillarini targ’ibot qilishdek sohalarni qamrab olgan. Shu sababli, siyosat ma’naviy jarayonlarga mazmuni bilan juda yaqin turadi. Lekin ular alohida-alohida xarakterga ega. Siyosat va ma’naviyat o’rtasidagi munosabat, ularning bir-biriga ta’siri, ko’pincha kishilar o’rtasida bo’ladigan muloqotlarda yaqqol ko’rinadi. Siyosiy ishda jamiyatlarda o’z taraqqiyotidan kelib chiqib hamisha ham ma’naviy jarayonlarga jiddiy yondoshilmagan. Sababi, siyosat o’z oldiga hamisha maqsad qilib u yoki bu revolyutsion, evolyutsion o’zgarishlarni qo’yadi. Bu jarayonlarda ma’naviy sohalar qisman ikkinchi darajali bo’lib, chetda qoldiriladi. Chunki siyosatda ijtimoiy sohalar ko’proq qamrab olinadi, ya’ni davlat tizimini o’zgartirish, aholining farovonligini ta’minalash, uning toifalari o’rtasida tengligini saqlash, xalq maorifiga e’tibor qilish, iqtisodiy sohalarni taraqqiy qildirish kabilar ko’zda tutiladi.

¹ I.A.Karimov.. Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir.
T.: “O’zbekiston”, 2000, 13-14-betlar.

Sobiq ittifoq davrida «Siyosat» deganda iqtisodni uyushmasi (kontsentratsiyasi) tushunilar edi. O'sha davrda siyosat iqtisoddan ustun qo'yilgan bo'lib, ma'lum ma'noda ko'p jarayonlardan ajratib qo'yilgan edi. Bu ko'pgina salbiy oqibatlarga olib kelganligini biz siz bilan guvohimiz.

Olib borilgan ichki siyosat milliy urf-odatlarga qarshi edi. Mahalliy xalqlar qadriyatlarini hisobga olish va ularning milliyligini saqlash, aholini ish bilan ta'minlash kabi sohalarga asoslanmagan edi. Siyosatni ma'naviyat bilan bog'lanishi to'g'risida hatto so'z yuritilmas edi. Ma'lumki, ma'naviyat-jamiyatning, millatning, ayrim bir kishining ichki va tashqi hayoti, madaniyati, ruhiy kechinmalari, axloqiy qobiliyati, idrokini ifoda etadigan tushunchadir. Demak, uni siyosatda hisobga olmasdan iloj yo'q. Ularni hisobga olgandagina jamiyat, davlat o'z siyosatini to'g'ri belgilashi mumkin.

Man'aviyatni siyosat bilan bog'lashda eng avvalo, umuminsoniy manfaatlarni hisobga olish bo'lsa, undan keyin esa har bir shaxsning, insonning, guruhning ma'naviy jihatlarini hisobga olish kerak bo'ladi. Tarixdan ma'lumki, ayrim shaxs yoki ma'lum bir guruhlar mamlakat aholisi uchun xizmat qilgan, ammo xizmat qilish ham turlicha bo'ladi. Masalan, Germaniya mamlakati fashizmi vakillari faqat irqiy munosabatlarni siyosat bilan aralashtirib dunyo aholisini tinchligini buzgan va o'z aholisiga shu yo'l bilan xizmat qilgan edilar. Ana shunday siyosat hozirgi kunda ham mavjuddir. Rossiyadagi bema'ni ba'zi shaxslar, siyosatchilar, bir guruh kishilar ham shunga o'xshash munosabatlarni tiklashga intiladilar (Bunga misol duma deputati, Rossiya liberal demokratik partiyasining boshlig'i Jirinovskiy V.V va uning gumashtalaridir). Shu toifadagi siyosatchilarni, millatchi, irqchi, umuminsoniy qadriyatlarini hisobga olmaydigan, ko'r-ko'rona ish olib boradigan shaxslardir deb qarash lozim. Ular tilda siyosatchilaru, dilda fashistlardir. Siyosat so'zidan bir tomonlama foydalanuvchilardir.

Siyosat tushunchasida turli manfaatlarni ko'zlash, amalga oshirish yotadi. Aslida, siyosat – bu jamiyat hayotining turli jabhalarida paydo bo'ladigan ziddiyatlarni, murakkab vazifalarni bajarishga, aniq maqsadlarga erishishga qaratilgan guruh, partiya, sind, davlat faoliyatidir. Siyosatni olib borish, hayotga tatbiq etish o'ta murakkabdir. U yuksak ma'naviyatni talab etadi. Qachonki siyosatning mazmunida, jamiyatning, jamoatning, davlatning madaniy, ma'naviy faoliyati aks etsagina, bu siyosat xalq tomonidan qo'llab quvvatlanadi. Chunki, unda umumxalq ehtiyojlari mujassamlashgan bo'ladi. Siyosat ham yuksak ma'naviyatni yuksalishiga ta'sir etsa, u barqaror bo'ladi. Shu bois I.A.Karimov «Davlatimiz olib borayotgan siyosatning mazmuni shuki, degan edi, mustaqilligimizning bir yilligi tantanalarida so'zlagan nutqida-yurtimizda yashayotgan barcha millat vakillarining manfaatlari va huquqlarini himoya qilib, ularning madaniyati, tili, milliy urf-odatlari va an'analarini saqlash hamda rivojlantirishga, ularning davlat tuzilmalari ishida va jamoat turmushida faol qatnashishiga kafolat beriladi»¹. Ushbu fikrlarning shu kunlarda tasdig'ini ko'rayapmiz, oqilona siyosat tufayli respublikada barqaror rivojlanish va tinchlik hukm surmoqda. Shu o'rinda aytish lozimki, siyosat ham, ma'naviyat singari beqiyos mazmunli ahamiyatga ega.

¹ I.A.Karimov. Istiqlol va ma'naviyat. T.: "O'zbekiston", 1994, 71-bet.

Ijtimoiy hayotni boshqarish juda murakkab, lekin zaruriyatdir. Davlat boshqaruvi, tabiatan siyosiy boshqaruv demakdir. Uning vazifasi xalq hayoti murakkabligini hisobga olib, ijtimoiy guruhlarni birlashtirishga harakat qilishdir. Bunda u turli vositalardan foydalanadi, jumladan ma'naviy sohalardan foydalanish ham shunga kiradi.

Siyosatda adolatli bo'lish xalq yutug'idir. Adolatparvarlikni qaror topishi qabul qilinayotgan qonunlarda, olib boriladigan to'g'ri siyosatda o'z aksini topadi. Shu sababli, siyosatning, adolatning kuchi, yuksak ma'naviyatda desak, xato bo'lmaydi. Yuksak ma'naviyatlari kishi o'z bilimi bilan barcha jarayonni qamrab oladi. Qonun-qoida, madaniyat, urf-odat, qadriyatlardan yuksak ma'naviyatlari kishigina o'z o'rnila foydalanadi. O'tgan 1917-1991 yillarda respublikamiz hayotida shunday voqealar ham bo'ldiki, ularni xalqimiz unutmasligi lozim. Ya'ni, sahovat niqobi ostida ko'pgina yovuzliklar qilindiki, (tilimizga, dinimizga, urf-odat, qadriyatlarimizga qilingan yovuzliklar ko'zda tutiladi) natijada bu o'zbek xalqi sha'niga salbiy ta'sir etdi. Bular haqiqatdan ham yovuzlik edi. Bu yovuzlikdan Rossiyaning o'zi ham farovon bo'la olmadi. Xalq kattami, kichikmi u yovuzlikni ko'tara olmaydi. Shu sababli, Rossiyada hozir ham tinchlik yo'q. Axir bekorga Kaykovus «qo'rquv bilmayin desang, yovuzlik qilma» deb, alloma Sa'diy esa: «Kim yovuzlik urug'ini sepsa pushaymon yig'ar», -deb bejiz aytmaganlarda.

Zo'ravonlik siyosatida ko'proq ijtimoiy manfaatlar yotadi. Mamlakat xalqi manfaatidan o'zining tor, shaxsiy manfaatini ustun qo'yish g'alamislik siyosatini yurgizishdir. Bu mensimaslik, ko'rolmaslik, iqtisodiy manfaat-siyosatidir. Bu xalqni moddiy va ma'naviy jihatdan talon-toroj qilish zo'ravonlikning negizidir. Ta'kidlash lozimki, chor Rossiyasi amaldorlari, keyinroq Kompartiya siyosiy byurosi a'zolari o'lkalarda ma'naviy-madaniy tarqoqlikni kuchaytirishga, erli millat xalqlarini tutqunlikda saqlashga intildilar. Ulardan chiqqan olim va buyuk kishilarni nazardan chetda qoldirdilar. Ilm ma'rifatli bo'lishga zimdan qarshilik qildilar. Ularning til va urf-odatlari bilan astoydil qiziqmadilar. Ulardagi ijobjiy tomonlar hisobga olinmadi. Natijada, bu mahalliy xalqlarga jumladan, o'zbek xalqi ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ma'naviy meros butunlay kamsitildi. «Proletar madaniyati», «Madaniyat va ma'naviyatga partiya rahbarligi», «shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat», «milliy madaniyatlarning bir-biriga yaqinlashuvi va kelajakda qo'shilib ketishi» kabi kelajagi yo'q g'oyalar xalqlarga majburlab singdirishga boshlandi. Rus tili va rus madaniyatini O'rta Osiyo xalqlariga zo'rlik bilan singdirishga urinib ko'rildi. Petrogradda 1917 yilda ishlab turgan Petrograd Davlat dumasidagi Turkiston masalalari bo'yicha kotibning esdaliklari bizni hayratda qoldiradi. U kishi 1917 yil 10-aprelda Toshkentda ochilgan Turkiston viloyat «Ishchi va soldat» sho'rolarining qurultoyida ishtirok etish uchun kelganida shu narsaning guvohi bo'ladi: «zalga kirgan chog'im-deb yozadi, u kishi,- men tanimaydigan bir rus minbarda edi. U kishining qayrab-qayrab takror- takror aytgan so'zlaridan quyidagilar xotiramda: «Inqilobni rus inqilobchilari, rus ishchilari, rus soldatlari amalga oshirdi. Shuning uchun ham Turkistonda ham idora, hokimiyat biz, ruslarnikidir. Erlilar biz nima

bersak, shu bilan qanoatlanishi kerak»¹. Bu so'zlarni Qo'qondan kelgan muallim, xalqchi, sotsialchi guruhiga mansub Nekora ismli kimsa aytgan.

Bu fikrlar zo'ravonlik siyosatining namunasidir desak, xato bo'lmaydi. Albatta zo'ravonlikning turli yo'l va uslublari bor. Shunday yo'l va uslublardan chor Rossiyasining Turkiston o'lkasidagi general-gubenatori M. Skobelev so'zlarida yaqqol ko'ramiz. Uning: «Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas. Uning madaniyatini, san'atini, tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi», - deb aytishi ashaddiy dushmanlik siyosati edi. Bunday yovuz so'zlar Skobelev singari kimsalar tomonidan faqat bir marta emas, balki minglab marotaba aytilganligiga ishonchimiz komil. Bunga misol qilib, XX asrning 80-90 yillardagi «o'zbeklar ishi», «Rashidovhina» haqidagi fikrlarni olsa ham bo'ladi.

Ma'naviyat va siyosat shaxslar va davlatning muhim ish yuritish xislatlarini qamrab oladi. Ularni o'z o'mnda tushunish, ularning ilmiy mohiyatiga e'tiborni qaratish amaliy faoliyatda yutuqlar garovini belgilab beradi.

¹ "Tafakkur" . T.: 1996, 3-soni, 110-bet.

6.2. Ma’naviyat va huquqning o’zaro munosabati

O’zbekiston Respublikasida huquqiy davlat barpo etish zamonimizning konstitutsiyaviy oliy maqsadi qilib qo’yilgan va bu mazkur yo’nalishda jiddiy amaliy ishlar olib borilayotir. Ma’naviyat va huquqqa ham turli boshqa sohalar kabi dialektik xarakterga ega. Shu bois huquqiy davlat dialektikasini kichik bir jarayonlari haqida, so’z yuritar ekanmiz, avvalo ma’naviyat va huquqga dialektik yondashuvning xarakteri nima? Dialektik yondashuvning xususiyati shundaki, u eski fikrlar, qarashlar, harakatlarni o’zaro munosabatini aniqlab, ularga har tomonlama yondashuvni taqozo etadi deyish mumkin.

Dialektika mazkur jarayonlarni izohlabgina qolmay, balki huquqiy va ma’naviyat sohalarni ham turli tomondan ifodalaydi. Ularning qonun va qonuniyatlarini mohiyatini echib, mukammal, ilmiy bilim berishga harakat qiladi. Shu ma’noda aytish lozimki, dialektika ma’naviy va huquqiy jarayonda hisob qilingan inson bilimlarining ilmiy yakuni va inson amaliyotining keyingi rivojlanishini ko’rsatib beruvchi nazariy asos hamdir. Ammo sobiq ittifoq davrida shu masalaga ham sinfiy yondoshishga harakat qilindi, bu ayniqsa huquq sohasiga taalluqlidir. Ming bora shukronalar bo’lsinki, hozir esa insonlar tafakkuri o’zgarib bormoqda. Huquqning mohiyatini eskicha tushunish ham o’z-o’zidan barham topmoqda. Huquqni haqiqiy tushunish, ma’naviyatni, ruhiyatni, diniy e’tiqodlarni sirli olam mo’jizalarining faoliyatini to’g’ri tushunishga yordam beradi. Jumladan, demokratik huquqiy davlat rivojlanishida ham minglab qarama-qarshi jarayonlar borki, ularning ba’zilarini tahlil qilish bizningcha o’rinsiz emas. Ma’lumki, huquqiy davlat to’g’risida uzoq yillardan beri fikr yuritib kelinadi. Ko’pgina mamlakatlarda bu sohada ozmi-ko’pmi yutuqlarga erishildi va erishimoqda. O’zbekiston mustaqillikka erishgan shu qisqa vaqt ichida ayniqsa, bozor munosabatlariga o’tish davrida, demokratik huquqiy davlatni barpo etish yo’lida ancha-muncha ishlarni amalga oshirdi, 500 ga yaqin qonunlar qabul qilindi. Demokratik huquqiy davlat qurishning nazariy asoslari va yo’l-yo’riqlari, uning amaliy tomonlari O’zbekiston Konstitutsiyasida (1992) ko’rsatildi. I.A.Karimovning «Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman» nomli intervysi, «O’zbekiston-kelajagi buyuk davlat», «Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati», «Xalqimizning yo’li mustaqillik, ozodlik va tub islohotlar yo’lidir», «O’zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari» kabi asarlarida huquqiy jarayonlarning tamoyillari keng yoritildi.

Ularda demokratik huquqiy davlat shakllanishining asosiy sohalari qamrab olingan. Ta’kidlash lozimki, demokratik huquqiy davlatni barpo etish, faqat qonunlar qabul qilish bilan chegaralanib qolmaydi. Bu jarayon xalqimizning yuksak ma’naviyatli bo’lishi bilan bog’liq. Avvalo, xalqimiz yaratgan boy ma’naviy kamolot qirralaridan foydalanib, shular asosida yosh avlodni tarbiyalash, axloqli, odobli, mehnatsevar, baynalminal va vatanparvar, mustaqil vatanga sodiq avlodni o’stirish lozim. Binobarin, jamiyatda demokratik jarayonlarni shakllantirish eski dunyoqarashini o’zgartirolmaydigan xodimlar bilan amalga oshmaydi. Eski dunyoqarashdagi kamchiliklarni sezadigan, uning ijobjiy tomonlarini hayotga tatbiq

etadigan, yangicha huquqiy va siyosiy tafakkurlaydigan, etuk ma'naviyatli xodimlar talab qilinadi. Demak, endi mustaqil O'zbekistonning o'ziga xos mutassaddi institutlari, ijtimoiy sohadagi akademiyalari bo'lisi zarur. Chet ellardagi bilimlar, tajribalar olinib, u bilimlarni O'zbekistonga moslab tatbiq etish zarur. Buning uchun aql-zakovatli mutaxassislar kerak. O'z mutaxassisligining ustasi bo'lgan kadrlar jamiyat boyligidir. Endilikda vatan va xalqning manfaatini o'ylovchi, islohotlarni to'g'ri tushunadigan insonni tarbiyalash asosiy maqsad bo'lmog'i darkor.

Jamiyatda yashaydigan har bir shaxsning individual va ijtimoiy ongini, ma'naviyatini o'stirish asosiy vazifalardandir. Davr talabidan ortda qolgan ma'naviyatsiz, poraxo'r, vijdonsiz kishilar bilan demokratik davlatni barpo etish mumkin emas. Buning uchun makteblardagi dars jarayonlarining tarbiyaviy tomonlarini mukammallashtirish, Oliy o'quv yurtlaridagi ijtimoiy fanlar ta'sirini kuchaytirish lozim. Fan va texnika taraqqiyotini o'z vaqtida tushuntirish, ularni amaliyotga tatbiq etish, huquqiy ma'naviyat jarayonlarini nazardan chetda qoldirmaslik talab etiladi. Mulkchilik jihatlarini to'g'ri tushunadigan xodimlar bozor munosabatlariga o'tish davri uchun ayniqsa zarur. Mulkchilik xislatlarini faqat shaxsiy manfaatlarda deb biladigan kadrlar bilan ham demokratik huquqiy davlat qurib bo'lmaydi. Bu sohalar yuksak ma'naviyatni shakllanishiga bog'liq. Yuksak ma'naviyat esa huquqiy demokratik davlatning poydevoridir. Aks holda taraqqiyotdagagi ziddiyatli, tafovutli, zararli jarayonlarning oldini olib bo'lmaydi. Shuni hisobga olgan holda, Oliy Majlis tomonidan, davlatning millatlararo, ijtimoiy, ma'naviy, iqtisodiy tengliklarini ta'minlovchi harakat tarozusi mexanizmini ishlab chiqish zarurdir. Zero, rivojlanish jarayonida, hayotning barcha qirralarida huquqiy normalar bilan boshqarishga va fuqarolar faoliyatiga bevosita taalluqli bo'lgan ko'plab qonunlarni ishlab chiqishga e'tiborni qaratish lozim. Bu esa mutaxassis va barcha fuqarolardan tinmay izlanishni, o'ylashni, mehnatni talab etadi. Huquqiy davlat qurishda huquq ijodkorlari – olimlar, mutassaddi rahbarlar, tashkilotlar va birlashmalar hamkorlik qilishlari, xolisona, o'zaro fikr almashishlari yutuqlar garovidir. Shunday munosabat bilan ishlab chiqilgan qonunning umri uzoq bo'lishi tabiiyidir. Ayniqsa, umumiyligi, ijtimoiy-siyosiy normalar ma'naviyat bilan uzviy aloqada, o'zaro ta'sirda bo'lgandagina samaralidir.

Demokratik huquqiy hujjatlar o'z shakli va mazmuni jihatidan, demokratik bo'lib davlat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi. Ular ma'naviy holatning davlat idoralari va jamoat tashkilotlari faoliyatlarida qo'llashda ustuvor bo'lib boraverishida yordam beradi. Bu esa huquqiy demokratik davlatni mustahkamlashga olib keladi. Shu o'rinda aytish kerakki, hayotning o'zi turli korxonalar, tuman va viloyatlardagi davlat idoralarining adolatli ish yuritishini ta'minlash uchun shularga oid qonunlar ishlab chiqilishini talab etmoqda. Bu qonunlarda markaz faoliyati bilan tuman, shahar, viloyatlar faoliyatları aloqadorligi o'z aksini topishi kerak. Ularning har biriga oid bo'lgan imtiyoz va mas'uliyatlar borki, ular ilmiy hal etilib, qonunlar orqali mustahkamlanishi lozim. Bu o'rinda, davlat rahbar xodimlarining ma'naviyat maqomi ham nazardan chetda qolmasligi kerak.

Qonunlarning mukammalligi ta'minlansa ulkan samara berishi tabiiy. Ayniqsa, demokratik huquqiy davlatda qonun va tartibot ta'minlanmasa, u davlatning yutuqlarga erishib, olg'a yurishi shubha ostiga qoladi, aks holda, jinoyatchilik ko'payadi. Yuridik ta'limni yo'lga qo'yish, huquqiy bilimlarga ega bo'lish, har bir xodim va fuqaroning burchi bo'lmos' i lozim. Chunki, fuqarolar siyosiy jarayonlarda va davlatni boshqarish ishlarida qatnashadilar. Siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, harakatlar, yoshlar tashkilotlari, turli xil xayriya va ijodiy jamg'armalarda, aktsionerlik birlashmalarida shu fuqarolar ish yuritadilar. Demak, bu sohalarda ham qonunlar qabul qilinib, ularni takomillashtirish hozirgi davr talabidir.

Huquqiy yo'nalişlar va huquq normalari xalqaro tajribalardan kelib chiqilsa, O'zbekistonning tanlab olgan yo'li, avvalo xalqimiz urf-odatlari, uning yuksak ma'naviyati nuqtai-nazaridan o'rganilib ishlab chiqilsa va hayotga tatbiq etilsa, kamchiliklarning oldi olingan bo'ladi. Ta'lim-tarbiya, ma'naviyatni, ma'rifatni yuksaltirish, milliy uyg'onish jarayonlarini yuzaga keltirish ham dolzarbdir. Buning uchun oila, bog'cha, maktab, o'rta, oliy ta'lim, akademiya tizimi, ilmiy tadqiqot institutlari faoliyati diqqatdan chetda qolmasligi aynan zarurdir. Yuksak ma'naviyat shu maskanlarda shakllanadi. Demak, ular o'rtasidagi munosabatlarning dialektik jarayonlari hisobga olingan holda qonunlar qabul qilish demokratik jarayonlarni shakllanishidagi omillardandir. Shu bilan bir qatorda fuqarolarning mehnat qilishi, uy-joy ta'minoti, dam olishlari, ish haqlari, nafaqa olishlari, ularning dahlsizligi, erkinligi kabi tomonlari borki, bular ham haqiqiy, demokratik huquqiy davlat barpo etishdagi dialektik jarayonlarning elementlaridir. Binobarin, inson huquqlarini va yuksak ma'naviyatini shakllantirishni ta'minlash moddiy ishlab chiqarishning samarali bo'lishiga olib keladi.

Ma'lumki, shaxs erkinligi hamda huquqiy zaruriyat ijtimoiy hayotning ikki muhim unsurini tashkil qiladi. Inson huquqlarini muhofazasi va kafolati, mehnat va kasbni erkin tanlash huquqi, ta'lim olishi qonun doirasida, Konstitutsiyada belgilangan, ammo bu sohalar yanada o'ziga xos xususiy qonunlar bilan mustahkamlansa, huquqiy demokratik davlat poydevori yanada kuchli bo'ladi. O'z navbatida bu xususiy qonunlar inson va davlat o'rtasidagi o'zaro ta'sir, bog'lanishlarning amaliyotda ustuvorligini ta'minlaydi.

Davlatning ichki vazifalaridan biri bu-inson huquqlarini himoya qilish va qo'riqlashdir. Sir emas, ba'zida bu ish ma'muriy chora ko'rish yo'llari bilan qolaversa ma'muriy rahbar orqali ham amalga oshiriladi (sud orqali emas). Ma'muriyatning rahbari yuksak ma'naviyatli bo'lsa, u bu ishni shu tariqa amalga oshirmas edi. Chunki bunday qilish unchalik to'g'ri emas. Shu sababli, bu sohada ham inson huquqlari bilan shug'ullanuvchi komissiyalar tuzilsa, ularning faoliyati to'g'risida qonun ishlab chiqilsa, foydadan xoli bo'lmaydi. Yuqoridaqilardan xulosa qiladigan bo'lsak, demokratik jarayonlar o'z-o'zidan tashkil topmaydi, albatta. Ayniqsa, demokratik huquqiy davlatni barpo etish yuzlab va minglab sohalar bilan bog'langanki, bular deterministik-dialektik jarayonlar sifatida ko'zga tashlanadi. Demak, faoliyat yuritishimiz faqat qonunlar chiqarib qo'yishdangina iborat emas. Balki, demokratik davlat barpo etishda qonunlarni hayotga tatbiq etishni ta'minlash

hamdir. Shu sababli ularga, yakkalikdan umumiylikka, umumiylikdan yakkalikka qarab borish tamoyili asosida yondashish zarur.

Demokratik huquqiy davlatda g'oyalar beruvchi, ijodkorlar uchun keng yo'l ochiladi. Binobarin, aytish mumkinki, ishlab chiqarishni yuksaltirish, O'zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ijodkorlar, olimu-fuzalolarning beg'araz mehnati, ijodiy izlanishlarning ijobiy natijalari xalq xo'jaligining barcha tarmoqlariga o'z vaqtida tatbiq etilganda, uning mualliflari ham moddiy va ma'naviy rag'batlantirilsa, ijobiy natija berishi turgan gap. Lekin bu sohalar ham puxta ishlangan qonunlarni talab qiladi.

Bu jarayonlarning hammasi inson faoliyati bilan bog'langan bo'lib, biri ikkinchisisiz yashay olmaydi. Ularning birortasini ham nazardan chetda qoldirib bo'lmaydi. Pirovard natijada huquqiy demokratik davlatning paydo bo'lishi astasekinlik bilan, tadrijiy yoki evolyutsion yo'l bilan takomillasha boradi. Uni tashqaridan zo'r lab u yoki bu mamlakatga kiritib bo'lmaydi. Demokratik huquqiy davlat qurilishi tabiiy va zaruriy ravishda amalga oshadi. Ana shunday holat Respublikamizda asta-sekinlik bilan paydo bo'layotir.

Shu ma'noda huquqshunos olimlarimiz barcha jarayonlarni yuksak ma'naviy jihatdan mushohada qilishga yanada ko'proq e'tiborlarini qaratsalar, ularni hayotga tatbiq etishni ko'rsatsalar jamiyatimiz yanada olg'a qarab rivojlanadi. Ma'naviyat va huquqni, hayotni, harakatni, mushohada qilib, his etish ham olijanoblikdir. Uni to'g'ri, xolisona baholaganlar hayot lahzalarida qoqilmaydilar.

6.3. Ma’naviyat va mafkura

Ma'lumki, Vatanimiz bundan deyarli bir yarim asr muqaddam o'z mustaqilligini yo'qotib chor Rossiyasiga qaram bo'lib qoldi. Bu o'tgan yillar xalqimiz uchun engil, hur va farovon yillar bo'lib o'tmagan. Hatto yaqin yillar: «sotsializmning o'rnatilishi», «rivojlangan sotsializm» va nihoyat saksoninchi yillar ham oson kechmadi. Bu yillarda ma'naviyat so'zi ishlatilmadi ham. «G'oyalar» esa kommunistik mafkurada edi. Aniqrog'i, oxirgi 70 yil ichida kommunistik mafkura hukmronlik qilib keldi, bu mafkura zulm va zo'ravonlikka soxtalikka asoslangan edi. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov «Tafakkur» jurnalining bosh muharriri bergen savollarga javob berar ekan, «jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etishi»ni ta'kidladi. Mafkura bo'lmasa jamiyat taraqqiyoti olg'a bosmaydi. Chunki, jamiyatdagi davlat o'zini to'g'ri yo'lini yo'qotadi. Unda mafkuraviy bo'shliq yuzaga kelib, jamiyat qurilishiga yot bo'lган begona mafkura egallaydi. Bu esa mag'lubiyat degani. Tarixdan ham ma'lumki, xudbinlik qilgan yovuzlar xalqimizning ma'naviyatiga salbiy ta'sir qilib keldilar. Ma'naviy jihatdan zaiflashtirishga, xalqimizning qaddini bukishga harakat qildilar. Bular bizning xotiramizdan ko'tarilmasligi lozim. Bugungi kunda xalqimiz axborot asrida yashamoqda. Chetki ta'sirlardan holi yashay olmaymiz. bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan ham ko'proq kuchga ega. Eng qizig'i, shu bilan birga, kishini doimo ogoh bo'lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiq, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab etish nihoyatda qiyin, – deb ta'riflagan edi IA.Karimov.

«Masalan, – deb davom etadi Prezident I.A.Karimov, – «Aum Senrikyo» degan diniy oqim vakillarining faoliyatini eslaylik, ular dunyoning turli mamlakatlaridagi yuzlab yosh yigit-qizlarni irodasidan, ong shuuridan mahrum qilib zombi, ya'ni manqurtga aylantirib qo'ygani yaxshi ma'lum». Ha, bu manqurtlar mafkura ta'sirida shunday bo'lганlar.

Shuni ta'kidlash lozimki, ma'naviyat va mafkura bir-biriga yaqin tushunchalardir. Har ikkalasi ham ijtimoiy hodisa sifatida shakllanadi. Jamiyat taraqqiyotida xilma-xil g'oya va fikrlar ham, ta'limotlar, mafkuralar ham o'zgarib turadi. Inson ma'naviyati, uning odob-axloqi nisbatan o'zgarmaydi.

Bugungi kunda, Respublikamizda haqiqiy mafkurani yaratish va uni hayotga tatbiq etish borasida jadal ishlar olib borilayotir, uning mazmuni shubhasiz, milliy ma'naviyatimizni tiklash va shu asosda o'z ildizlarimizni o'rganish, aniqlash, ularni targ'ib qilishga ham qaratiladi. O'shanda u to'laqonli bo'ladi. O'zbekistonning hozirgi bosqichida milliy istiqlol mafkurasini yaratilishi haqiqatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. I.A.Karimov «Oldimizda turgan eng muhim masala bu – milliy istiqlol mafkurasini yaratish va hayotimizga tatbiq etishdir», -deb aytishi bejiz emas. Zero ko'pgina uchrashuvlarda, olimlar, yozuvchilar bilan mulqotlarda ham mafkuraviy masalani hal etmasdan, uni amalda tatbiq qilmasdan turib maqsadlarga erishib bo'lmasligini ta'kidladi.

Mafkurani shakllantirish uzoq davom etadi va u birdan tayyor bo'lmaydi ma'lum darajada hayot tajribasini o'tash jarayonida takomillashadi.

I.A.Karimovning «Milliy mafkura – millatni birlashtiruvchi bayroqdir», deb aytishi bejiz emas. Bo'lajak mafkura haqida Prezidentimiz shunday deydi: «Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtida shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnni aniq ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan kechagi va ertangi kun o'rtasidagi o'ziga xos ko'prik bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman». Demak, mafkura bizning mustaqillik tafakkurimiz bilan chambarchas bog'liq bo'lishi lozim. Mustaqillik g'oyasi esa quyidagichadir: «O'zbekistonning istiqboli va istiqloli haqida qayg'urish, o'zining va o'z xalqining, vatanining qadru qimmati, or-nomusini anglab uni himoya qilish; yuksak g'oyalar, yangi fikriy kashfiyotlar, niyatlar og'ushida mehnat qilib, iste'dodi bor imkoniyatini, kerak bo'lsa jonini yurt istiqboli eliga baxshida etishdir»¹.

Mafkura xalqimizning ongiga ana shu tafakkurlash miqyosida bo'lishini talab etadi. Shuning uchun o'sib kelayotgan yosh avlodning to'xtovsiz harakati natijasida bu ishga jalb etish davr talabidir. Binobarin, mafkuraviy soha fuqarolar ongi va tafakkurida o'zgarish yasaydigan, islohotlarni amalga oshirish uchun yordam beradigan qudratli kuchdir. Mafkurasiz kelajak ham yo'q. Zero, u ommani, xalqni yangi jamiyat qurishga yo'naltiradi va uyuştiradi. Albatta, bu mafkuraga e'tiqod qo'yish bilan bog'liqdir. Mafkuraning mazmunida taraqqiyotning ob'ektiv talab va ehtiyojlari, mamlakatdagi barcha elatlar, millatlarning, xalqning va ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning, partiya hamda nodavlat uyushmalarning manfaatlari mujassamlashgan bo'ladi. Unda jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari ma'naviyat va ma'rifat bilan bog'lagan holda g'oya va fikrlar ishlab chiqiladi. Prezident I.A.Karimov tomonidan asoslab berilganidek, istiqlol mafkurasi jamiyatimizning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy taraqqiyotiga ta'sir etadi, rivojlanishini ro'yobga chiqaradi. Bu turli usullar bilan amalga oshiriladi.

Ta'kidlash lozimki, birorta jamiyat, birorta elat va xalq mafkurasiz yashamagan, bundan keyin ham yashamaydi. Har bir jamiyatning, har bir davlatning o'ziga xos, o'ziga mos, uning o'zi uchun xizmat qiladigan, uning tub manfaatlarini himoya qiladigan mafkurasi bo'ladi. Insonlar qaysi bir jamiyatda qaysi bir davlatda yashamasin nimagadir asoslanishi, e'tiqod qilishi, qandaydir fikr nazariya, g'oya mafkuraga asoslanib ish ko'rishi tabiiy bo'lib qoladi. Ta'kidlaganimizdek, mustaqillikka erishganimizga qadar mamlakatimizda kommunistik mafkura hukmron edi. Unda bizning ma'naviyatimizga zid bo'lgan g'oyalar to'la edi. Chunki Evropadagi g'oyalarni Sharqda shakllantirish mushkul vazifadir. Urf-odatlar, qadriyatlar, turmush tarzi bunga yo'l qo'ymaydi. O'tgan o'n yilliklar bu narsani tasdiqladi. Marksizm-leninizm ta'limotini zararli tomonlaridan faqat O'zbekiston xalqi emas, balki barcha millatlar ham katta ma'naviy, mafkuraviy zarar ko'rdi. Ushbu mafkura ma'naviyatimizning ildizlarini hisobga olmadi, aksincha, bu muqaddas ildizlarga bolta urib uni yo'q qilishga intildi. O'zimizga xos mulkdan, davlat tuzumidan siyosiy, iqtisodiy, madaniy mustaqilliklardan va erkdan, tariximiz

¹ Karimov I.A. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. 3-tom, T.: "O'zbekiston", 1996, 34-bet.

milliy an'analaridan mahrum qilmoqchi bo'ldi. Ijtimoiylik niqobi bilan kommunistik mafkura xalqimiz manfaatlarini chetga surib qo'ydi. Qadimiy madaniy meros kamsitildi. Mamlakat markazga xom ashyo etkazib beruvchi qaram respublikaga aylandi. «Internatsionallikni» bayroq qilib olgan kommunistik mafkura o'z maqsadlarini faqat rus millatini ustuvorligini pesh qilib ta'minlashga qaratdi. «Buyuk rus shovinizmi» ma'naviyati hukmron siyosatga aylana bordi, natijada boshqa millatlar ravnaqi to'xtab qoldi.

Kommunistik mafkura faqat markaziy hokimiyat uchun xizmat qildi. Uning bayrog'iga aylandi. Kommunistik mafkura zarurat asosida singdirilmadi, balki xalqlarga zo'r lab kiritildi. Ma'naviyat va mafkura o'rtasidagi o'zaro nisbiy munosabatga e'tibor qaratilmadi. Endilikda shakllanayotgan milliy istiqlol mafkurasi oldingi mafkuralardan o'zining tub yangi xususiyatlari bilan farq qilishi lozim. Hozirgi davr talablaridan kelib chiqishi va davr muammolariga javob berishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li», «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat», «Xalqimizning otash qalb farzandi» va boshqa asarlarida milliy mafkuraga oid javoblarni topish mumkin. Mafkura ma'naviyatga nisbatan tor tushunchadir. Shunday bo'lsa-da mafkura – ma'naviyatning turlari va ko'rinishlarining turli shakl va usullari orqali maqsadni ifodalaydi. I.A.Karimovning «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida», «Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati», «Yo'limiz-mustaqlil davlatchilik va taraqqiyot yo'li», «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin» kabi asarlarida ma'naviyat va mafkuraning aloqadorligi, o'zaro munosabatlari ochib berilganki, ulardan nazariy, amaliy asoslarni topish murakkab emas.

Mafkurani yaratish dolzarb bo'lib, u hozirgi kunlarda zaruriyatga aylandi. Buning tasdig'i sifatida Prezident I.A.Karimovning «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bo'yicha ta'lim dasturlarini yaratish va respublika ta'lim tizimiga joriy etishi to'g'risidagi farmoyishidan so'ng bu fan sifatida xalq ta'limi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida o'qitilayotir.

I.A.Karimov, 2000 yilning 6 aprelida milliy mafkuraga bag'ishlangan yig'ilishda faylasuflar, tarixchilar, iqtisodchilar siyosatshunoslar, sotsiologlar, psixologlar, pedagoglar, adabiyotshunoslar, olimlar, jurnalistlar, jamoat tashkilotlari vakillari oldida nutq so'zlagan edi. Bu nutqning to'la mazmuni milliy mafkura xususida bo'lgandi. Yurtboshi milliy mafkuraning hayotimizdagi o'rnini yorqin misollar bilan tushuntirib, milliy mafkurani ishlab chiqishni kechiktirib bo'lmaydigan hol deb uqtirgan edi. Shu bilan birga Prezidentimiz milliy mafkura ishlab chiqishning, yo'nalişlarini belgilab berdiki, endilikda bu ko'rsatmalar hayotga tatbiq etilayotir. Xulosa qilib aysak, ma'naviyat va mafkurani hayotga tatbiq etish esa ongimizda paydo bo'ladigan ba'zi salbiy fikr va oqibatlardan uzoqlashtiradi.

Tayanch so'z va iboralar: siyosiy hayot, umumiy manfaatlar, davlat boshqaruvi, «Buyuk rus shovinizmi», dialektik yondashuv, determinizm, mafkura, milliy g'oya, mustaqillik mafkurasi.

Hikmatlardan namunalar:

Yomon niyatli bo'lma el haqida,
O'zingga bu ishing so'zsiz ziyondur.
Kishi yaxshilik har kimga qilsa,
Bu maydon ichra u sohibqirondur.

Sobir Termizi

Do'stlaring ko'payar farovonlikda,
Ularni sinab ko'r natovonlikda.

Nimaiki o'zingga bo'lmabdi davo,
Boshqaga ham uni ko'rmagil ravo.

Xusrav Dehlaviy

Do'stlar, bu bevafo dunyoda mol-mulk uchun,
Bir-biringni og'ritib noshod qilmoq arzimas.
Mansabu dunyo uchun ahli hukumat oldida,
Qo'l-qovushturib turibon dod qilmaq arzimas.
Olig'u solig' bilan mullo-yu xoja-barchani,
Yuz jafou jabr ila aftoda qilmaq arzimas.
Turku tojik o'zbeku, sahranishinlarni mol uchun,
Kechayu kunduz urib, noshod qilmoq arzimas.

x x x

Ikki xil odamdir johilu don
Er bilan osmoncha tafovutu bor.
Dur bilan do'l, biri biriga o'xshash,
Biri shoh tojida, biri erda xor.

Alisher Navoiy

Sir emaski, **har qaysi davlat, har qaysi millat** nafaqat er osti va usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki **birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan** kuchlidir.

Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lif samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir.

I. A. Karimov

G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishimiz mumkin.

I. A. Karimov

Faqat bir ezgulik bor – bilim va faqat bir yomonlik bor- jaholat.

Suqrot

Test topshiriqlari

1. Quyidagi javoblarning qaysi birida ma'naviyat va siyosatning bog'liqligi to'g'ri ifodalangan?

- a) ma'naviyat va siyosat inson faoliyatini, uning turmush tarzini qamrab olgan o'zaro bog'liq ikki sohadir;
v) siyosiy faoliyatda ma'naviy xislatlar faol rol o'ynaydi;
g) ma'naviyat va siyosat o'rtasida bog'liqlik mavjud emas;
d) ma'naviyat va siyosat bog'liq emas;
e) A va V javoblar to'g'ri.

2. Sobiq Ittifoq davrida ...

- a) siyosat deganda iqtisodni uyushmasi tushunilar edi;
v) siyosat iqtisoddan ustun qo'yilar edi;
g) A va V;
d) aniq izoh berilmagan;
e) siyosat deganda kommunistik mafkura tushunilar edi.

3. Siyosiy faoliyat deganda ...

- a) davlatning xorijiy mamlakatlar bilan o'zaro, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy aloqalari yig'indisi tushuniladi;
v) turli partiyalarning omma oldidagi targ'ibot-tashviqot ishlari tushuniladi;
g) davlatning xalq manfaati, yurt tinchligi uchun yuritadigan faoliyati tushuniladi;
d) siyosiy faoliyat qudratli kuchdir;
e) barcha javoblar to'g'ri.

4. Ma'naviyatni siyosat bilan bog'lashda quyidagilar hisobga olinishi mumkin.

- a) umuminsoniy manfaatlar;
- v) har bir shaxsning siyosiy ongi, ma'naviy jihatlari;
- g) umume'tirof etilgan tamoyillar;
- d) umuminsoniy qadriyatlar;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

5. Demokratik huquqiy davlat – bu ...

- a) qonun ustuvorligi amal qiladigan davlat;
- v) fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy huquqlari kafolatlangan jamiyat;
- g) qonunlar muhokamasi xalq e'tiboriga havola etiladigan davlat;
- d) mulkdorlar sinfini shakllantiruvchi jamiyat;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

6. Huquqiy ong deganda ...

- a) fuqarolarning o'z huquqlarini, erkinliklarini his eta olishi tushuniladi;
- v) har bir fuqaroning huquqiy xujjatlari muhokamasida o'z fikrini bera olishi tushuniladi;
- g) huquqiy normalar majmui tushuniladi;
- d) ma'naviyatni, huquqning yuksakligi tushuniladi;
- e) A va B.

7. Huquqiy tarbiya ...

- a) fuqarolarning huquqiy ongini o'stirishiga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir;
- v) yoshlarga Konstitutsiyani qonunchilikni o'rgatish;
- g) fuqarolar o'rtasida huquqiy normalarni targ'ib qilish jarayoni;
- d) qonun-qoidani o'rgatish;
- e) barcha javoblar to'g'ri

8. Huquqiy madaniyat bu ...

- a) fuqarolarning huquqiy onglilik darajasini oshirish;
- v) amaldagi qonuniy normalarga rioya etish;
- g) davlatni fuqarolar huquqiy manfaatini himoya qilish bo'yicha amalga oshirayotgan chora-tadbirlar majmui;
- d) huquqiy ong va tafakkurni yuksakligi;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

9. «Milliy mafkura-millatni birlashtiruvchi bayroqdir» degan fikr kimga tegishli?

- a) I. A. Karimov;
- v) F. Xo'jaev;
- g) M. Behbudiy;
- d) A. Fitrat;
- e) A. Ikromov.

10. Quyidagi ta'riflardan qaysi biri «Mafkura» tushunchasini ifodalaydi?

- a) mafkura insonning ruhiy kechinmalarini aks ettiradi;
- v) mafkura moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish jarayonini ifodalaydi;
- v) mafkura siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, falsafiy, huquqiy g'oyalar majmui bo'lib, biror manfaatni ifodalaydi;
- g) mafkura bilim olish jarayonini aks ettiradi;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

11. Yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'naliшlarini aniqlang.

- a) huquqiy ta'lif va huquqiy tarbiya vositalari va usullarini takomillashtirish;
- v) aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish;
- g) aholining huquqiy madaniyatini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish;
- d) yuridik ta'lif tizimini rivojlantirish;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

12. Huquqiy ong darajasi ko'proq nimalarga bog'liq?

- a) o'z huquqlarini bilishga;
- v) qonunlarga itoatkorlikka;
- g) qonunlarni bilishga;
- d) huquqiy atamalarni bilishga;
- e) huquqiy madaniyatga.

13. Respublikamizda ijtimoiy yordam berishda qaysi bo'g'in asosiy mavqega ega?

- a) jamiyat tashkilotlari;
- v) maktab;
- g) mahalla;
- d) ishxona;
- e) uyushmalar.

14. Huquqiy madaniyatli kishi qanday bo'lishi kerak?

- a) huquqiy bilimlarga ega bo'lgan;
- v) muomila madaniyatiga ega bo'lgan;
- g) huquqiy bilimlarni amaliyotda tatbiq eta oladigan;
- d) tadbirkor va ishbilarmon;
- e) a, v, g.

15. Mafkurasizlik nimaga olib keladi?

- a) loqaydlikka;
- v) jamiyat o'z yo'lini yo'qotishga;
- g) davlat o'z yo'lini yo'qotishga;
- d) ma'rifatsizlikka;
- e) jaholatga.

16. Jamiyat mafkurasi nima?

- a) inson manfaatlarini ifoda etuvchi, bexatar, tinch-totuv, badavlat turmushga yo'llovchi manba;
- v) muqaddas an'analarimizni anglash;
- g) xilma – xil fikr va g'oyalarni bir bayroq ostiga birlashtirish;
- d) yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;
- e) fikrlar xilma-xilligi va hurfikrlik.

17. Milliy mafkura vositasida nimaga erishiladi?

- a) el-yurt birlashadi;
- v) iqtisodiyot rivojiga;
- g) ma'rifatga;
- d) barqarorlikka;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

18. Davlat mafkurasi darajasiga qanday mafkura ko'tarilishi kerak?

- a) hech qanday mafkura davlat mafkurasiga aylanmasligi kerak;
- v) baynalminallik mafkurasi ko'tarilishi kerak;
- g) islom mafkurasi ko'tarilishi kerak;
- d) demokratik mafkura ko'tarilishi kerak;
- e) totalitar, ma'muriy-buyruqbozlik asosidagi mafkura ko'tarilishi kerak;

- 19. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga deputat etib saylanish huquqiga ega fuqaro kamida necha yoshda bo'lishi kerak?**
- a) 35 yoshda;
 - v) 30 yoshda;
 - g) 25 yoshda;
 - d) 21 yoshda;
 - e) 40 yoshda.
- 20. O'zbekistonda «Davlat tili haqida»gi qonun yangi tahrirda qachon qabul qilindi?**
- a) 1990 yil 24 martda;
 - v) 1989 yil 21 oktyabrdas;
 - g) 1991 yil 8 dekabrdas;
 - d) 1989 yil 15 aprelda;
 - e) 1995 yil 21 dekabrdas.
- 21. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i qachon tasdiqlandi?**
- a) 1992 yil 10 yanvarda;
 - v) 1991 yil 18 oktyabrdas;
 - g) 1991 yil 1 sentyabrdas;
 - d) 1991 yil 18 noyabrdas;
 - e) 1992 yil 27 dekabrdas.

II - bob.

O'rta Osiyo ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotida ma'naviyat va ma'rifat masalalari.

7-mavzu: O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy ma'naviyati va ma'rifati

7.1. Xalq og'zaki ijodiyoti va yozma manbalarda O'rta Osiyo xalqlarining ma'naviyati

O'rta Osiyo xalqlari tarixi bir necha ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda bu o'lkada skiflar massaget deb atalgan xalqlar istiqomat qilganlar. Ularning o'z madaniyati, san'ati, iqtisodiy turmushi, o'zlariga xos rivojlanish manbalari bo'lган. O'zlarining dunyoqarashi, urf-odatlari asosida hayot kechirganlar. Demak, o'zlarining tarixiy sharoitlaridan kelib chiqib ma'naviy jarayonlarni ham shakllantirganlar. Bu O'rta Osyoning iqtisodiy-ijtimoiy sharoitiga ham bog'liq bo'lган. Daryolardan sug'orish ishlarida foydalanish, hunarmandchilikni rivojlantirish, mahsulot ayriboshlash va boshqalar takomillashtirilgan. Bular o'sha davrning madaniyatiga, ma'naviyatiga ta'sir etmay qolmagan. Masalan, tarix fani asoschilaridan biri Gerodot fikricha, Misr mamlakatining rivojlanishi Nil daryosining borligidandir. Tarixchi Istarxiy esa Amudaryoni Xorazm taraqqiyoti bilan bog'laydi. Taraqqiyot esa har bir davrning ishlab chiqarishi ilg'or fikrlari bilan aloqadadir.

Qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, savdogarchilik taraqqiy etishi shaharlarning paydo bo'lishida turtki bo'lган. Natijada shahar madaniyati, ma'naviyati davr talabidan kelib chiqib o'zgarib borgan. O'rta Osiyo mintaqasi o'sha paytlarda ham iqtisodiy-geografik va iqlim nuqtai nazaridan olsak, yuksak ma'naviyat rivoji uchun qulay bo'lganligini o'sha davrda yozib qoldirilgan manbalardan bilish mumkin.

Qadim davrlardayoq ovchilik, baliqchilik, keyinroq dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik ancha rivojlangan. Iqlim sharoitidan kelib chiqib, dastlab tabiiy toshqin va yomg'ir suvlardan foydalanilgan bo'lsa, keyinroq dehqonchilikda sun'iy sug'orishga o'tilgan. Natijada ishchi kuchi faoliyati ham o'zgargan. Bunday o'zgarishlarning bo'lganligini O'rta Osiyodagi turli joylarda olib borilgan arxeologik izlanishlar tasdiqlaydi.

Qadimda O'rta Osiyo hududida-Baqtriya, Xorazm, So'g'diyona, Marg'iyona, Parfiya, Amudaryoning quyi oqimi, Zarafshon vohalari, Parkana (Farg'ona) va boshqa joylar yashash nuqtai-nazaridan muhim hisoblangan. Shu sababli, bu hududlarda XX asrda ko'plab tekshirishlar olib borildi. Jumladan, Xorazmda rus arxeologi S.P.Tolstov, quyi Zarafshon vohasida akademik Ya.G'ulomov tomonidan olib borilgan izlanishlar ko'pgina fikrlarni shakllanishiga yordam beradi. Ular turli davrlarga mansub bo'lgan juda qadimiy shaharlar, qo'rg'onlar, maqbaralar, sug'orish inshootlari, turli xil istehkomlarni ochganlar. Tuproq qal'a, Ko'zali kir, Yonbosh qal'a, Chust, Dalvarzin, Qizil qir, Varaxsha (Buxoro), Oqtepa (Toshkent)

kabi joylarda topilgan turli buyum va qoldiqlar o'sha davrning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda doimiy ashyo bo'la oladi. Yoki antik dunyo tarixchilari Klement Aleksandriyskiy, Ksenofont, Strabon, Ptolemey, Gerodot asarlarida o'tmishdagi xalqlarning ma'naviy qadriyatları nimalardan iboratligi aks ettirilganki, ular hozirgi vaqtida asosiy ilmiy manbalar bo'lib hisoblanadi. Qadimgi davrlardayoq O'rta Osiyoda aholining konlarda ishlaganligi, mis va temir eritish, ulardan turli xil buyumlar, harbiy va boshqa mehnat qurollari yasash hamda kemasozlik, to'quvchilik, binokorlik, zargarlik bilan shug'ullanganliklari va savdo-sotiqlik ishlari olib borganliklari ma'lum. O'sha davrlardayoq Farg'ona vodiysida aholi neftdan foydalanib ish yuritgan. Buyuk tarixchi Gerodot ajdodlarimiz massagetlar to'g'risida shunday fikrni bildirgan: «Ular otliq va piyoda jang qiladilar, bu ikki xil jang usulini biladilar; ular o'q-yoy, nayza va dudama, kalta qilich bilan qurollanganlar. Bu qurollarni ular jezdan yasaydilar, bosh kiyimlari, kamarlari va bog'ichlarini oltin bilan bezaydilar. Otlarning ko'krak qalqonini jezdan yasaydilar. Yugan, suvluq va boshqa ot jabduqlariga ham oltin qadaydilar. Temir bilan kumushni ular mutlaqo ishlatmaydilar, chunki ularning mamlakatida oltin bilan mis nihoyatda ko'p bo'lib, temir bilan kumush mutlaqo yo'qdir»¹. Ko'rinish turibdiki, ajdodlarimiz turmush tarzi o'sha davr talabidan kelib chiqib shakllangan.

O'rta Osiyo xalqlari antik dunyo davridayloq boshqa o'lkalar, qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro hamkorlik sohalarini yaxshi yo'lga qo'yganlar. Bu esa ma'naviyatning yuksalishiga, hamda baynalminallashiga olib kelgan.

Ajdodlarimizning Ural, Sibir, Volga bo'yli, Xitoy, Hindiston, Gretsiya, Eron, Suriya, Mesopotamiya, Vavilon, Misr mamlakatlari bilan iqtisodiy-madaniy aloqlarini o'rnatganligi, o'zlarining turmush tarzini o'zgarishiga, yuksaltirishga olib kelgan. Shu ma'noda O'rta Osiyo G'arb va Sharqni bog'lashda markaz bo'lgan, desak xato bo'lmaydi. Ayniqsa, Volga bo'yłari, Uraloldi, Janubiy Sibir, Qozog'iston, Eron, Hindiston mamlakatlarining hozirgi ma'naviyati va madaniyatini ba'zi tomonlarini bizning ma'naviyatimiz va madaniyatimizga yaqinroq ekanligini sezish qiyin emas. Eramizgacha bo'lgan birinchi ming yillikdan oldin ham O'rta Osiyo bilan Xitoy o'rtasida iqtisodiy va madaniy aloqlar vujudga kelganki, bu avvalo, Buyuk Ipak yo'li bilan bog'langan. Xulosa qilish mumkinki, o'sha davrlardayoq O'rta Osiyo muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan hudud hisoblangan. Yuksak madaniyat va ma'naviyatning rivojlanishi uchun zamin hisoblangan.

Tariximizdan ma'lumki, O'rta Osiyo qadimgi davrda Xitoydan, Xitoy esa O'rta Osiyodan ko'p narsalarni o'zaro o'rganganlar. Aynan Xitoy xalqi paxtachilik, tokchilik, vinochilik, shisha quyish ishlarini O'rta Osiyodan o'rgangan bo'lsa, O'rta Osiyo xalqlari esa Xitoydan ipakchilik, qog'oz ishlash, chinni buyumlar yasash kabilarni o'rganganlar. Bunday o'zaro munosabatlarni tarixiy yilnomalardan bilib olish mumkin. Xitoy yilnomalarining birida shunday fikrlar mavjud: «Yue-chji (Xitoy) viloyatlarining poytaxtida savdo qilgan (O'rta Osiyo) aholisi, biz toshni eritib, undan har xil rangli shisha yasashni bilamiz deb aytdilar va tog'lardan, konlardan ruda keltirib, poytaxtda ulardan shisha quyish ustida tajriba o'tkazdilar; tajriba muvaffaqiyatli chiqdi. Ularning shishasi shu qadar yaltiroq ediki, bu jihatdan u

¹ Mallaev N. M. O'zbek adabiyoti tarixi. T.: 1976, 29-bet.

hatto g'arbiy mamlakatlarnikidan (Rim yoki Suriya shishasi ko'zda tutilsa kerak) ustun chiqdi. Shuning uchun ham podsho ularning shishalaridan taxt turadigan zallarda yoki saroylarda foydalanishni buyurdi; shishalar yaltiroq rangda bo'lib, juda tiniq edi; ularga qarab hamma taajjubga tushar va bu shishalarni ilohiy deb hisoblar edi»¹.

Shubhasiz, o'sha davrdagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlar xalq og'zaki va yozma ijodiyotiga ham ta'sir etmay qolmagan. Qadimgi davr xalq og'zaki va yozma ijodiyotining o'ziga xos xususiyatlarini ham o'sha davrdan qolgan yodgorliklar asosida bilish mumkin.

San'atlar ichida badiiy so'z san'ati eng qadimiylar desak, xato bo'lmas. Ollohning insonga bergen ne'mati hisoblangan nutq Qadim davrlardayoq mukammal xarakterda bo'lган. O'sha davr ma'naviyati, siyosati, mafkurasi, shu so'z san'ati, nutq asosida amalga oshirilgan. Mehnat jarayoni takomillashishi bilan badiiy so'zlash va yozma ishlar ham paydo bo'lganki, xalqning turmush tarzi ularsiz rivojlanishi mumkin emas edi. Insonlar hayot tajribalarini, tabiat va jamiyat hodisalarini obrazlar orqali xarakterlash, bayon qilish ko'nikmalarini hosil qilganlar. Natijada turli sohalar turmush tarzidan kelib chiqib rivojlangan. Xulosa qilib aytsak, yozuv va yozma adabiyotdan oldin og'zaki ijod paydo bo'lган va yozma adabiyotni paydo bo'lishiga sabab bo'lган. O'rta Osiyo xalqlarining, og'zaki adabiyot yodgorliklarining manbalari (ba'zi birlari) bizgacha etib kelgan. Bularga misol qilib Gerodot, Kteziy, Polien, Xares Mitelenskiy va boshqa allomalarining asarlarini olish mumkin. Ularning asarlarida xalq og'zaki ijodidan namunalar yozib qoldirilgan.

O'rta Osiyo Uyg'onish davrida va keyinroq ijod etgan tarixchilar Hamza Isfahoniy, Tabariy, Mas'udiy, Beruniy, Saolibiy va boshqalar asarlarida haqiqiy xalq og'zaki ijodiyoti ta'riflangan va tasvirlangan. Qadimgi og'zaki ijod yodgorliklari: miflar, afsonalar, qahramonlik eposi, qo'shiqlar, lirik she'r va boshqalardan iboratdir.

Shu sohalar orqali qadimgi O'rta Osiyo ma'naviyati va madaniyati, turmush tarzini bilish, hamda xulosalar chiqarish mumkin. Jumladan, shulardan biri «Erxubbi» afsonasidir. Xubbi obrazi misolida biz ajdodlarimizning yuksak ma'naviyati bilan tanishamiz. Garchand Xubbi afsonaviy qahramon sifatida tasvirlangan bo'lgani uchun ham ma'lum ma'noda o'tmishtagi insoniy xislatlarni o'zida aks ettirgan. U suv xudosi sifatida, insonlarni halokatdan qutqaruvchi qahramon, vatanparvar sifatida tasvirlanadi. Bu qissaning qisqacha mazmuni quyidagicha: inson «Qadim zamonlarda Amudaryoda Xubbi degan bir yigit yashab, bir qo'li bilan baliq tutib, ikkinchi qo'li bilan uni quyoshga tutar va uni quyosh taftida pishirib kun kechirar ekan. Shu zaylda 700 yil yashab daryoni qo'riqlagan. Shu sababli, daryoga biror yomon ruh, xatto chivin ham daryoga yo'liqmas ekan. Xalq esa suvdan foydalanib tinch-totuv, shod-xurram yashar ekan. Biroq Jamshid hukmronligi zamonasiga kelib Xubbi g'oyib bo'libdi. Xubbi yo'qolgandan so'ng, uning o'rniga onasi kelib, birinchi bo'lib daryoda suzadigan qayiq yasabdi. Odamlarni daryoda suzishga, dushmanga qarshi suvda jang qilishlarini o'rgatibdi. Lekin, Xubbining onasi ham yo'q bo'lib qolibdi. Xalq esa ularni qahramonliklaridan faxrlangan holda

¹ Mallaev N. M. O'zbek adabiyoti tarixi. T.: "O'qituvchi", 1976, 40-bet.

uzoq yillar hurmatlarini joyiga qo'yib, hayot kechirganlar»¹. Bundan ko'rinib turibdiki, qadimgi paytlarda ham yaxshilik bilan yomonlik o'rtasida ziddiyatlarning borligi va ularni oldini olish yo'llari haqida bosh qotirishgan.

Afsonalar orqali insonlar yuksak ma'naviyatlilikka chaqirilgan. Yoki «To'maris» afsonasini oladigan bo'lsak, unda qahramonlik xislatlari o'z aksini topgan. Chet el bosqinchilariga qarshi vatanparvarlik his-tuyg'ulari, vatanparvar insonlarning obrazlari berilgan. To'maris massaget qabilalarining rahbari, hukmdor ayoldir. U o'z faoliyatini mamlakat tinchligiga, barqarorligiga bag'ishlaydi. Xalqparvar inson sifatida maydonga chiqadi. Ammo, ahmoniyalar hukmdori Kir massaget qabilalarining barqaror turmush tarziga xavf tug'dirib, avvalo To'marisga uylanish sharti bilan, massagettarni o'ziga bo'ysundirmoqchi bo'ladi. To'maris buni sezib qoladi va taklifni rad etadi. So'ng podsho Kir urush bilan o'z niyatini amalga oshirishga intiladi. To'maris urushning oldini olishga qanchalik harakat qilmasin, harakati zoe ketadi va mudofaaga shaylanadi. U o'z dushmaniga shunday deydi:-«Biz bilamizki, sen tinchlikni xohlamaysan, shu sababli basharti maslahatimizga ko'nmay, massagettlar bilan to'qnashishni istasang, ko'prik yasayman deb ovora bo'lib o'tirma. Bizga aytsang, biz senga xalaqit bermay, daryodan uch kunlik yo'lga ko'chib ketamiz, bemalol daryodan o'tasan, undan so'ng yuzma-yuz urushamiz. Bordi-yu, agar biz bilan daryoning sen turgan qirg'og'ida urushmoqchi bo'lsang, uni ayt, bunga ham biz rozi, faqat nomardlik qilma»¹.

To'maris mardlarcha kurashga shaylanganligini ko'rgan podshoh Kir hiylanayrang yo'liga o'tadi. To'marisning o'g'li Sparganizni va massagettarning bir qanchasini mast qilib, qo'lga oladi. To'maris g'azablangan holda podshohga qarata: «..Ey, qonxo'r Kir, qilgan ishing bilan maqtanmay qo'yaqol. Sen mening o'g'limni yuzma-yuz jangda engganing yo'q, uni makkorlik bilan sharob ichirib qo'lga tushirding. Endi mening nasihatimga kir, o'g'limni menga topshirib, kelgan eringga ziyon-zahmatsiz qaytib ket. Agar so'zimga kirmasang, massagettlar tangrisi-Quyosh nomi bilan qasamyod qilamanki, men senday ochko'z xonni qon bilan sug'oraman»¹. Kir bu so'zlarni e'tiborga olmaydi, natijada jangda engiladi va halok bo'ladi. To'maris Kirning boshini qon bilan to'ldirilgan meshga solar ekan, jangga yakun yasab shunday deydi:-«Ey nomard, sen meni-jangda seni halollik bilan engib chiqqan bir ayolni makkorlik bilan o'g'lidan judo qilib, farzand dog'ida kuydirding, sen umring bo'yi qonga to'ymading, men o'z ontimga amal qilib seni qon bilan sug'ordim. Birovning yurtiga zo'ravonlik bilan bostirib kirganlarning jazosi shu»². Ko'rib turibmizki, bu yuksak ma'naviyatning namunasi edi.

Yuksak ma'naviyatlilikni yana bir og'zaki ijodda ko'ramiz. Bu «Zarina va Strangiya» qissasidir. Bu qissada shaklar podshosi vafot etib, uning o'rnini xotini Zarina egallaydi. Tadbirkor va qo'rmas bu ayol qabila tinchligini va mustahkamligini saqlash uchun harakat qiladi. Zarina tarafдорлари bilan Midiya

¹ Mallaev N. M. O'zbek adabiyoti tarixi. T.: "O'qituvchi", 1976, 49-bet.

¹ Mallaev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. T.: «O'qituvchi» 1976, 49-bet.

² Mallaev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. T.: «O'qituvchi», 1976, 50-bet.

podsholigi o'rtasida bo'lган jangda Striangiya Zarinani yarador qiladi. Zarinaning botirligini ko'rgan Striangiya uni asirlikka olmaydi. Lekin, oradan biroz vaqt o'tgach, Parfiya shohi Zarinaga uylanib, shaklarni o'ziga taslim va tobe' qilmoqchi bo'ladi. Zarina unga ko'nmaydi. Biroq shoh zo'rlik qilib uylanadi va shaklarni qaram qiladi. Zarinadagi o'z qabilasiga bo'lган hurmat uni kurashga otlanadiradi. Shu payt, Parfiya bilan Midiya o'rtasida jang bo'lib, midiyaliklarning ko'plari asirga tushadi. Asirlar bilan Zarina birlashib Parfiya shohiga qarshi to'satdan hujum qiladi. Parfiya shohi engilib, asirlar ozod bo'ladi. Zarina ulardan madad olib, qabilasi mustaqilligini tiklaydi. Bu jarayonlarda Striangiya Zarinani sevib qoladi. Zarina esa Striangiyani jasur va mard jangchi sifatida e'zozlaydi. Striangiyaning uylanish haqidagi taklifini rad etadi. Sababi, uning xotini bor edi. Striangiya bunga chiday olmay o'zini-o'zi o'ldiradi. Ko'rib turibmizki, bu xalq og'zaki ijodida ham, vatanparvarlik, mustaqillik uchun kurash, sevgi-sadoqat singari yuksak ma'naviyat qirralari o'z aksini topgan. Afsonadagi qahramonlik va sevgi jihatlari har qanday inson qalbini larzaga keltiradi. Chunki, bu qissada insonning aql-zakovati, tadbirkor bo'lishi, or-nomusi, odobi, hurmat va ehtiromi, qahramonligi va sevgisi yorqin tasvirlangan. Demak, o'sha davrda ham ushbu insoniy xislatlarga ko'proq e'tibor qaratilgan degan xulosani chiqarish mumkin.

Uzoq zamonlardagi hodisalarni yanada yaqqolroq tushunish uchun yana bir afsonaviy voqeani misol qilib olish mumkin. Bu «Zariadr va Odatida» afsonasidir. Bu afsonada ham qahramonlik, sevgi-muhabbat hodisalari tasvirlangan, unda ko'rsatilishicha, Gushtasb Midiyada, uning ukasi Zariadr Kaspiy dengizidan Tanais (Sirdaryo) gacha cho'zilgan yurtda podshohlik qilganlar. Tanaisning narigi tomonida yashagan Saklar shohi Omargning qizi Odatida va Zariadr bir-birini tushida ko'rib sevishib qoladilar. Zariadr qizga uylanish uchun sovchi yuboradi. Lekin, Omarg yolg'iz qizini uzoq yurtga berishni istamaydi. Zariadr o'z ahididan qaytmay, aravakash yordamida Tanaisdan kechib o'tib, Omarg qarorgohiga keladi. Omarg yigitlar sharafiga ziyofat berib, qiziga aytadiki, yoqtirgan yigitingga oltin qadahda may tutgin deydi. Ziyofatda skif kiyimida Zariadr ham qatnashayotgan bo'ladi. Odatida aynan, oltin kosada Zariadrga may tutadi. Zariadr Odatidani olib o'z yurtiga ketadi. Qissadan hissa shuki, bu afsonada ham oilaviy munosabatlар, sevgi jarayonlari aks ettirilgan. Qiz va yigitning sevgi bobidagi erkinlik his-tuyg'ulari o'rtaga qo'yilganki, bular qadim davrdagi ma'naviyat jarayonlaridan darak beradi. Shu kabi ma'naviyat aks etgan Mitra, Kayumars, Gershasp, Go'ro'g'li, Alpomish, Rustam, Shiroq, Siyovush kabi qahramonlar xalq og'zaki ijodida mavjud bo'lganki, ularda bahodirlik, mardlik, xalqni seuvvchi, fidokorlik ko'rsatuvchi kishilar obrazi tasvirlangan.

Bundan tashqari o'sha davrdagi qo'shiqlar, lirik she'rlar, mehnat, qahramonlik, marosim, mavsum qo'shiqlari bo'lganki, ularda ma'naviyat qirralari haqida fikr yuritilgan.

7.2. «Avesto»da ma’naviyat masalalari

O’rta Osiyoda ham boshqa mamlakatlarda bo’lgani singari qadimiy dinlar mavjud bo’lib, ulardan ba’zilari ustida to’xtalamiz. Shulardan biri zardushtiylikdir. Zardusht-tarjimasi, tilla rangli, keksa tuyalarning sohibi ma’nosini beradi. Bu din o’zining sofligi bilan diqqatga sazovordir. Shu bilan birga, bu din, o’z davri insonlarining ma’naviyati, madaniyati, urf-odati, axloq-odobini o’zida aks ettiradi. Zardushtiylik ba’zi mualliflarning fikricha, avvalo mehnatkash xalqning axloqiy qoidalarini ifodalab, keyinroq diniy kishilar qo’lida siyosat yurgizishda qo’l kelgan. Aslida zardushtiylik jamiyatni tinch va osoyishtalik, barqaror holatda bo’lishi, insonlarning bir-birlariga maslakdosh, ko’makdosh bo’lishi kabi g’oyalarni olg’a surgan. Shu bilan birga, zardushtiylikda insonlarning axloqiy va huquqiy normalari ham ifodalangan.

Bu din eramizgacha bo’lgan davrda, 7-6 asrlarda shakllangan. Unga Zardusht ismli alloma asos solgan. Zardusht Xorazmda tug’ilgan bo’lib, uning ta’limoti ibtidoiy jamoa davrining oxiri, quidorlik jamiyatining barpo bo’lish davrida mafkura sifatida shakllangan. Sababi, zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da keltirilgan fikrlar bu mulohazamizni tasdiqlaydi. Bu din O’rta Osiyoda islom dini tarqalishidan so’ng ham ba’zi joylarda birmuncha vaqtga qadar saqlanib qolgan.

Muqaddas kitob eramizgacha bo’lgan davrning VII asr oxiri VI asr boshlarida yaratilgan. Undagi asosiy g’oyalar «Tavrot» va «Qur’on» da keltirilgan fikrlarga yaqindir. Zardushtiylikni qadim davrdagi diniy aqidalar deb tushunish unchalik to’g’ri bo’lmay, balki u o’sha davrning hukmron mafkurasi, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, falsafiy qarashlaridir deb tushunish kerak. Uning nazariy asosi «Avesto» xulosalari undan dalolat beradiki, zardushtiylik fikrlari kitobdan oldin ko’p ming yillik tajriba va hayot, turmush tarzlarini umumlashtirish sifatida yuzaga kelgan. «Avesto»da afsonaviy fikrlar bilan birga insonlarning hayotiy tajribalari ham o’z aksini topgan. Bu muqaddas kitob uzoq asrlarning tarixi va rivojlanishini, iqtisodiy-ijtimoiy holatini, madaniyati, tili, yozuvi, xalq og’zaki ijodining manbasi sifatida ham muhimdir. Ayniqsa, undagi ma’naviy jihatlarga qaratilgan boblari kishini hayratda qoldiradi. U 21 ta kitobdan iborat, ammo ularning ko’pchiligi yo’qolib ketgan. Uning eng qadimgi nusxasi 1324 yilda ko’chirilgan bo’lib, Kopengagenda saqlanadi. «Avesto» qadimgi Eron tillari guruhidagi tillarning qadimgi yodgorliklaridandir. Undagi insonlarning orzu-umidlari, yaxshilik va yomonlik o’rtasidagi munosabatlar diqqatga sazovordir.

Kitobning asosiy mazmuni insonlarning xudoga murojaat etib iltijo qilishlariga bag’ishlangan. Xudodan tinchlik, chorva mollari, yaylovlari, sug’orish maydonlarini tilaganlar. Kitobda Axuramazda xudolik qiyofasidan chiqib, adolatli shoh qiyofasiga o’tishi tasvirlangan. U adabiy yodgorlik sifatida insonlarning ma’naviy qiyofasini juda jiddiy tasvirlagan.

Avestoda mehnatsevarlik, insonparvarlik, botirlik, jasurlik, va tozalik, moddiy to’kin-sochinlik uchun kurash sohalari tilga olinganki, ular inson ma’naviyatini ko’tarishga qaratilgan edi. Oqilona turmush tarzini, uning ma’naviy hayotini, insonning dunyoqarashi va axloqiy fazilatlarini o’zida jiddiy ifoda etgan. Axloqiy qarashlarda insonning burchi, ma’naviy pokligi targ’ib qilingan. Ayollarga hurmat

ko'rsatish alohida ta'kidlangan, tozalikka rioya qilish, suvlar, tabiat mahsulotlarini toza tutilishi kabi sohalar borki, ular insonlarning ma'naviy jihatlarini yaxshilashga da'vat qilgan.

Kitobning diqqatga sazovor yana bir tomoni borki, unda jismoniy va ma'naviy jarayonlar uch davrga bo'linib berilgan. Birinchi davr: bu eng qadimgi davr, u ilk hayotni bildiradi. Unda yaxshilik tantana qilgan. Yorug'lik va insoniy xislat, saodat hukmron bo'lган. Ikkinci davr: bu – hozirgi davr bo'lib, unda kurash davom etadi. Uchinchi davr: kelajakdagi hayotdir. Bu davrda insonlar aql-idroki ishga solinib, badavlat bo'lib yashaydilar. Yaxshilik g'olib keladi.

Muqaddas kitobda 15 yoshga etganlar balog'at yoshidadir, -deb ta'kidlanadi. Ularga axloqiy o'gitlar o'rgatilishi lozim.

Kitobdag'i Anxra-Manu xislatlarini tarqatadigan yovuzlik timsolidir.

Ta'kidlash lozimki, kitobda dehqonchilik va chovachilik sohalariga katta e'tibor berilgan. «Avesto»da «dehqonchilikning foydasi haqida»gi bo'limda shunday fikr bor: «Moddiy olamni, haqiqatni yaratuvchi zamindagi eng muhtaram manzil, qaysi? Nimadir»-degan savolga yaxshilik xudosi Axura Mazda shunday javob beradi:-»Inson uy tiklab, olovga va oilasiga, xotini va farzandlariga o'rinn ajratib bersa, em-xashagi ko'p bo'lib, chorva va itlari to'q yashasa, uyida noz-ne'matlar muhayyo bo'lib, xotin va farzandlari farovon yashasa, uyida e'tiqodi sobit, olovi alangali, boshqa narsalari ham mo'l-ko'l bo'lsa, u manzil muhtaramdir. Kimki o'ng qo'li va so'l qo'li bilan erga ishlov bersa, mehnat qilsa zamin rahmatiga musharraf bo'lajakdir».

Yoki «kimki g'alla eksa olijanobdir. G'alla ekkan kishi ezgulik urug'ini sochadi. Axura Mazda e'tiqodni kuchaytiradi, e'tiqodni mustahkamlaydi».

Demak, bu ishlarning bajarilishi bilan insonlar yovuz kuchlardan xalos bo'ladi. Devlarni mag'lub etadi.

Yuksak ma'naviylik zardushtiylik bo'yicha jaholatning, yomonlikning oldini olishdir. Undagi qadimgi meditsina, fazo to'g'risidagi fikrlar, astronomiya va falsafaga oid nodir fikrlar inson qalbini yorug'likka chorlaydiki, bu yorug'lik albatta, yaxshilikka olib boradi.

Ayniqsa, mazkur dindagi insonga taalluqli bo'lgan ezgu fikr, ezgu niyat, ezgu amal yuksak ma'naviylikni tarbiyalashga qaratilgandir. Ana shunday ezgulikka xos faoliyatlar Axura Mazda obraqi orqali ifoda etilgan. Shu bilan birga Avestoda Mitra qiyofasidagi quyosh va yorug'lik tangrisi, Anaxita-go'zal qiz qiyofasidagi unumdarlik, hosildorlik, farovonlik tangrisi, xumo esa go'zal qush qiyofasidagi baxt, taqdir, boylik tangrisi, Xubbi-mard yigit, suv tangrisi, Mirrix yosh jangchi qiyofasidagi urush va g'alaba tangrisi sifatida ifodalanganki, bular orkali go'yoki insonning ezgu niyatları amalga oshishini ta'minlash mumkin.

Dunyodagi biror ta'limot, biror diniy e'tiqodlar yo'qki, hosil olishni Zardushtchalik madh etgan bo'lsa. Jumladan:

Zardusht iloh Ahura Mazdadan so'radi:

- Ey, Ahura Mazda!

Zaminni hammadan ham baxtiyor qiluvchi zot kim?

Ahura Mazda javob berdi:

- Ey, Zardusht!

Kimki uni yaxshilab haydasa va ziroatga tayyorlasa! ...

Ey, Zardusht!

Kimki g'alla eksa, u Haqiqatni ekadi...

(«Avesto» Tarixiy abadiy yodgorlik T., - «Sharq» 2001 358 - bet).

Asrlar o'tibdiki «Avesto»da olg'a surilgan ezgu niyatlar, ezgu kalom va ezgu amal hamon barcha insonlarni ezgullik tomon chorlab, ularni ruhan poklab, yuksak ma'naviyat gulzori tomon etaklaydi. Yaxshilik kalomlarini abadiylashga chaqiradi.

«Ey, hushyorlar!

Quloqlaringiz bilan puxta eshitingiz eng ezgu kalomlarni va yorug' niyat bilan-xoh er, xoh ayol-har biringiz nazar tashlangiz, to buyuk hodisa ro'y bermasdan va odimlarimiz so'nggi manzilga etmasdan ikki yo'ldan birini o'zingizga ixtiyor etingiz -da, bu kalomlarni o'zgalarga ham etkazingiz»!

(«Avesto». Tarixiy abadiy yodgorlik T., - «Sharq» 2001, 10-bet).

Zardushtiylikni muhim tomonlaridan yana biri shuki, unda ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amal-orqali inson ahloqi haqida fikr yuritiladi. Zardusht butun umri davomida ana shu uchlik-ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amalga doir ishlar bilan mashg'ul bo'lган. Inson o'tmishidan so'ng marhum ruhi ustidan hukm chiqarishda ana shu uch xususiyatga e'tibor qaratiladi va shu uch xislat tarozida o'lchanadi. Tarozining bir palasiga ezgu fikrat, kalom va amallar qo'yiladi. Ikkinchi palasiga esa yovuz fikrat, kalom va amallar qo'yiladi. Bordi-yu ezgu fikrat, kalom va amallar salmog'i yovuz fikrat, kalom va amallar salmog'idan ortiq bo'lsa, marhum ruhi yuqoriga, jannatga, Axura Mazdaning yorug' dunyosiga uchib beradi, aks holda tubanlikka – Anhra-Manu va devlar jamiyatining do'zaxiga tushadi.

Shu sababli ham Zardusht Axura Mazda qasidasini boshlanishida mazkur uch xislatni quyidagicha bayon qiladi.

«Madh etaman ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amal ila ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amalni. Jamiy ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amalga bag'ishlanaman, jumla yovuz fikrat, yovuz kalom va yovuz amallardan yuz buraman.

Keltirurman sizga, Barhayot avliyolar, fikrat va kalomim, omol va qudratim, «tirikligim vujudi ila» sitoyishim va sig'inchim». («Avesto» Tarixiy abadiy yodgorlik T., - «Sharq» 2001, 166-bet).

Zardusht ezgu fikrlar orqali Axura Mazdadан Mitrani tashrif buyurishini so'rab nola qiladi:

Kelsin bizga madad bermoqqa,
Kelsin bizga keng dashtlar uchun,
Kelsin bizni qo'llamoq uchun,
Kelsin bizga muruvvat uchun,
Kelsin bizni qutqarmoq uchun,
Kelsin bizga g'oliblik uchun,
Kelsin bizga baxt-shodlik uchun,
Kelsin bizga yaxshilik uchun,
Kelsin g'olib, kelsin zabardast,

Yolg'onlarga bo'yinsunmas Ul, -
Dunyo hamdu sanolarga,
Loyiq Mitrakim bekarona,
Yaylovlarning molikidir.

(«Avesto» Tarixiy abadiy yodgorlik T., - «Sharq» 2001, 184-bet).

Yoki kalom va amaldor orqali Axura Mazdani Zardusht olqishlaydiki, natijada parvardigor Axura Mazda mazkur olqishlardan xulosa qilishga ishonadi:

Farahmandlik haqqi-hurmati
Bor ovozda duo qilaman,
Ibodatlar keltiradirman
Ul qudratli Vartragnaga;
Parvardigor Ahura Mazda
Bino etgan Vartragnaga
Sig'inadirmiz
Va Ahura aytgan yo'sinda
Ibodatlar keltiradirmiz,
Sut iylangan havm bilan,
Ham barsman chivig'i bilan,
Oliyjanob so'z sehri bilan,
Ham muqaddas va'zlar bilan,
Kalom bilan va amal bilan,
Haq aytilgan kalimalarga
Eng haqqoniy kalomlar bilan.
«Sharofatli Ahura Mazda
Topinmoqqa buyurganlarga
Topinadirmiz.

(«Avesto» Tarixiy abadiy yodgorlik T., - «Sharq» 2001, 201-bet).

2001 yil oktyabr oyida muqqadas kitob «Avesto» yaratilganligining 2700 yilligi butun dunyoda nishonlandi. Bu tadbir ham ajdodlarimizga bo'lган hurmat va e'tiborning bir belgisidir.

Zardushtiylikdan keyin yangi yo'naliш – moniychilik paydo bo'ldiki, bu ta'limot g'oyasida olamda nur dunyosi yaxshilik, yovuzlik dunyosi esa zulmatdir, deb ko'rsatiladi. Ular o'rtasida doimiy kurash bo'ladi. Unda ham yuksak ma'naviyatlilik o'rta ga qo'yilgan, unga erishish yo'llari aks ettirilgan. Moniylikning ustuvorligi shundaki, unda inson faoliyatiga ko'proq diqqat e'tibor qaratilgan. Sababi, zulmatni engishda inson o'z faoliyati, xulqi va butun hayoti bilan kurashadi va natijada yaxshilikning g'alabasi bilan hayot yakunlanadi. Bu ta'limotning asoschisi Moniy taxminan eramizning 216-217 yillarida Botlda tug'ilib, 276 yilda Junda Shopur shahrida vafot etgan, ya'ni qatl etilgan. U bilimdon kishi sifatida tanilgan. Ma'lumotlarga qaraganda, u bir qancha asarlar yozgan. U asarlarning ko'pchilik qismi diniy va axloqiy mavzulariga bag'ishlangan. Asarlar fors va oromiy tillarida yozilgan lekin bu asarlar bizgacha etib kelmag'an.

Yana bir ta'limotlardan biri Mazdak ta'limotidir. U eramizning V asrning oxiri VI asrning boshlarida O'rta Osiyo va Eronda kuchayib borgan zulmga qarshi kurash mobaynida paydo bo'lgan degan fikrlar mavjud. Mazdakning o'zi xalq qo'zg'oloniga boshchilik qiladi. Qo'zg'olon bostirilib, Mazdak dinsizlikda ayblanadi.

Mazdak qarashlarida xalqning uzoq tarixi mujassamlashgandir. Bu ta'limotdagি mafkurada dehqonlarni qaram bo'lib yashashiga qarshi chiqilgan. Unda zardushtiylikning ko'pgina qirralari o'z aksini topgan edi. To'g'ri, unda ijtimoiy masalalar ko'proq o'rın olib, din va falsafaga e'tibor kamroq qaratilgan. Yovuzlik bu boylik va kambag'allikdir. Bular barcha ziddiyatlarning manbaidir. Ijtimoiy kelishmovchiliklarning oldini olish uchun kurash yo'lida insoniy fazilatlarni shakllantirish bu – xudoga toat-ibodat qilishdir. Ko'rinib turibdiki, mazdakchilikda ijtimoiy kelishmovchiliklarga qarshi kurash asosiy maqsad sifatida talqin qilinadi va unga diniy xarakter beriladi.

Mazdakchilarining haqiqiy harakati mulkiy tenglikni o'rnatish bo'lган. Ya'ni moddiy boyliklarga birga egalik qilishdir. Boyliklarning teng bo'linishi, undan barcha kishilarning manfaatdor bo'lishi, mazdakizmda muhim o'rinni egallaydi. Mazdakchilikning ijobiy tomonlaridan yana biri shuki, unda sust-diniy, axloqiy ta'limotdan, kuchli g'oyaviy ta'limotga o'tishni targ'ib qilishdir. Bunday qarash O'rta Osiyo mamlakatlarida keyingi ijtimoiy-falsafiy fikrlarning yanada taraqqiy etishga sabab bo'ldi.

7.3. Qadimiy yozma yodgorliklarda ma’naviyat

O’rtal Osiyodagi qadimiy, ma’naviy, ma’rifiy sohalarni bilish, o’rganishda yozma yodgorliklar katta ahamiyatga ega. Qadimiy yozma yodgorliklardagi mazmun ham qadimgi dunyodagi ma’naviy, ma’rifiy jarayonlarni namoyon qilganki, ularda yaxshilik va yomonlik, boylik va kambag’allik o’rtasida kurash tasvirlangan. Qadimiy yozuv yodgorliklariga «Avesto», «Bundaxshin», «Denxard» va O’rxun-Enisey yozuvlari kiradi. Enisey bo’ylaridagi qadimgi yozuvlarni aniqlash XVIII-asrning boshlarida rus olimlari tomonidan boshlangan. Topilgan yodgorliklardagi yozuvlarni aniqlash qiyin kechgan. Faqat XIX asrning birinchi choragida Grigoriy Spasskiyning Enasoy yodgorliklari haqidagi maqolasi «Sibirskiy vestnik» jurnalida e’lon qilinganidan so’ng, yodgorliklar haqidagi ma’lumotlar olimlarga ma’lum bo’ladi. Ammo, yozuvni o’rganishga o’sha paytda katta e’tibor berilgan bo’lsa ham, tezlikda natija bermagan. 1889 yili rus sayyohi va yozuvchisi N.M.Yadrintsev Mo’g’ulistondagi Kosho-Tsaydam vodiysida O’rxun daryosi bo’ylaridagi ko’pgina yodgorliklarni topib, ulardagi Xitoy yozuviga o’xshash matnlarni aniqlagan. Matnlarni o’qish Daniya olimi Vilgelm Tomsenga to’g’ri keldi. U dastlab «tangri», «turk» degan so’zlarni o’qiganidan so’ng, 1893 yilning 25 noyabrida masala oydinlashdi va ko’p harflar mazmuniga kalit topildi. Bu orada rus olimi V. V. Radlov ham 15 ta harfni o’qigan edi. U Tomsen va o’zining kashfiyoti asosida yodgorliklardagi matnlarning tarjimasini birinchi bo’lib amalga oshirdi.

N. M. Yadrintsev topgan yodgorliklar turk xoqoni Bilka-Qoon-Mog’ilyon (734 yilda vafot etgan) va uning ukasi Kul-Tegin (732 yilda vafot etgan) qabr toshlariga o’yib yozilgan yodgorliklar edi.

Shu vaqtan boshlab Enasoy va O’rxun daryolari atrofidagi yodgorliklar «O’rxun-Enasoy yodgorliklari» deb atala boshlagan. Shu bilan birga o’rxun yozuvni deb ham atalgan. Keyinchalik yana ko’plab yodgorliklar topildi. V-VI asrlarga oid 5 ta toshdagi, hamda qog’oz, charm, yog’och va turli idish-tovoqlardagi yozuvlar ham qimmatli manbalar bo’lib hisoblanadi. Bu yozuvlarda turk xoqonligining davlat tuzumi va dinlar haqidagi ma’lumotlar berilgan. Xitoy yilnomalarida ko’rsatilishicha, o’sha vaqtdagi turklarni o’lganlaridan so’ng ko’mish marosimi shunday ta’riflangan: o’lgan kishining boyliklari, jangda mingan oti bilan birga olib kuydirilgan. Xoki dafn etilib, marhum qancha dushmani o’ldirgan bo’lsa, shuncha tosh uning qabriga qo’ylgan, uning surati ishlangan va qilgan ishlari o’yib yozilgan.

Bunday ma’lumotlar haqiqatdan ham u davrdagi qabr toshlarining ko’plarida uchraydi. Xususan, Mog’ilyon va Kul-Tegin qabr toshlarida ham shunday fikrlar mavjuddir. Mog’ilyon so’nggi turk «ulug’ xoqon»laridan bo’lib, urushlar olib borgan, o’z davlatining chegarasini kengaytirgan va mustahkamlagan. Unga ukasi zo’r mardlik ko’rsatib yordam bergan. Qo’shni davlatlar bilan yaxshi munosabat o’rnatgan. «Yo’qsil xalqni boyitgan», «Oz sonli xalqni ko’paytirgan», «Adolatli hukmron» bo’lgan.

Yozuvlarda ko’proq ma’lum kishilarning qahramonliklari aks ettirilgan. O’sha payt matnlaridayoq qirg’iz, uyg’ur, o’g’uz va yana boshqa xalqlarning, qabilalarning nomlari tilga olingan. Umuman, u yozuvlarning ahamiyati shundaki, endilikda ular

bizga o'sha davrning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy hayoti haqida ma'lumotlar beradi. Urf-odatlar, e'tiqod va boshqalar bilan tanishtiradi. Masalan, Enasoy havzasidan topilgan bir toshdag'i yozuvda shunday deyilgan: «Mening davlatim va mening xonim, men sizlardan lazzat ko'rmadim, hayhot, men quyoshni va oyni sezmaydigan bo'lib qoldim.

Mening do'stlarim va mening qarindoshlarim, hayhot men (sizlardan) uzoqlashib, o'z kumush xalqimdan yiroqlashdim.

O'z qahramonlik shijoatimdan lazzatlana olmadim. Qirq yoshimda o'ldim, Men O'chin-Qulug'-Tirig o'g'li, Men Qulug'-Tug'an» va hokazolar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'rta Osiyo kishilik madaniyatining eng qadimgi markazlaridan biridir. Ota-bobolarimiz o'z madaniyati taraqqiyotida faol ishtirot etganlar. Qadim paytlardayoq ilm-fan, arxitektura, tasviriy san'at, musiqa, haykaltaroshlik va boshqa ma'naviy, madaniy yodgorliklarni qoldirganlar.

Lekin, ko'pgina bosqinchilik urushlari tufayli ular inqirozga yuz tutgan. Ammo, shu narsa aniqki, ajdodlarimiz, yozuvlar, badiiy og'zaki ijodiyot, afsonalar orqali o'zlarining orzu-istiklarini, yorug'lik va qorong'ulik, zolimlik vaadolat sohalarini madh etganlar. Tabiat va jamiyat sohasidagi hodisalarni, ziddiyatli qarashlarni samimiyl holda tushuntirganlar. Ularning vatanparvarlik, bahodirlilik xislatlari, qo'shiq va she'rler orqali bizgacha etib kelgan. Xalqning ahvoli mehnati va rohati, shodligi va qayg'usi, yil fasllari hamda tabiat to'g'risidagi lavhalar turli janrlarda tasvirlangan. Maqol va falsafiy so'zlar ezgu niyatlarni targ'ib qilgan. Bularning barchasi o'zbek xalqining ota-bobolari dunyo tarixiga ulkan hissa qo'shganlaridan dalolat beradi. Bular bizning madaniy ma'naviy merosimizdir.

Tayanch so'z va iboralar: iqtisodiy-geografik sun'iy sug'orish, arxeologik qazishmalar, antik dunyo, iqtisodiy-madaniy aloqalar, strategik ahamiyat, yozma ijod, «Erxubba» afsonasi, To'maris afsonasi, «Zarina va Strangiya», saklar va massagetlar, «Zariadr va Odatida» afsonasi, zardushtlik, «Avesto», «Tavrot», «Qur'on», moniychilik, «Mazdak ta'limoti», yozuv yodgorliklari, «O'rxun-Enasoy» yozuvi. Zardusht, Mitra, Ahura Mazda, skiflar, xalq og'zaki ijodi, afsona, rivoyat, massagetlar, ahmoniyalar, arxeologik qazishmalar, toshbosmalar, g'orlardagi toshga bitilgan yozuvlar, rasmlar, So'g'diyona, Marg'iyona, Varaxsha, Buyuk ipak yo'li.

Hikmatlardan namunalar

Ota-onaning farzand oldidagi burchlari, o'zlarining oxiratini obod etuvchi qarzlari bor. Dinu-diyonathi xonadon oqsoqollaridan so'rasangiz, ularni lo'nda qilab sanab beradi: **yaxshi nom qo'yish, yaxshi muallim qo'liga topshirib, savodini chiqarish, ilmli, kasbli-hunarli qilish, boshini ikki, uy-joyli qilish.**

I. A. Karimov

Moziyga qaytib ish ko'rish xayrilidir.

Abdulla Qodiriy

Moziy istiqbolning tarozusidur, har kim o'lchasun-da bilsun.

Mahmudxo'ja Behbudiy

Kamolotga erishish uchun. Avvalo qalb pokizaligi haqida o'ylash kerak. Qalb pokizaligiga esa yurak haqiqatni izlaganda va ruh oriflikka intilgan taqdirdagina erishiladi. Bularning barchasi haqiqiy bilimga bog'liqdir.

Konfutsiy

Test topshiriqlari

- 1. O'rta asr xalqlari madaniyatida qaysi soha etakchilik qilgan?**
a) hunarmandchilik;
v) dehqonchilik;
g) savdo bilan shug'ullanish;
d) chorvachilik;
e) A va V

- 2. Quyidagi tarixchilardan qaysi biri Xorazm taraqqiyotini Amudaryo bilan bog'lagan?**
a) Istarxiy;
v) Gerodot;
g) Ibn Arabshoh;
d) Sharofiddin Ali Yazdiy;
e) Maqsudiy.

- 3. «Ular otliq va piyoda jang qiladilar, bu ikki xil jang usulini biladilar; ular o'q yoy, nayza va dudama, kalta qilich bilan qurollanganlar. Bu qurollarni ular jezdan yasaydilar». Ushbu ta'rifni kim aytgan?**
a) Gerodot;
v) Stryabon;
g) Ksenofont;
d) Ptolemey;
e) Klemeniy Aleksandriyskiy.

- 4. Quyidagi davlatlarning qaysi biri bilan eramizdan bo'lган birinchi ming yillikdan oldin «Buyuk ipak yo'li» orqali iqtisodiy – madaniy aloqalar rivojlangan?**
a) Parfiya;
v) Yunoniston;
g) Xitoy;
d) Hindiston;
e) So'g'diyona.

- 5. Zardushtiylik dini qachon shakllangan?**
a) eramizgacha bo'lган 7-6 asrlarda;
v) eramizdan oldingi 1-3 asrlarda;
g) miloddan avvalgi 1 asrda;
d) milloddan avvalgi 3 asrda;
e) barcha javoblar to'g'ri.

6. Olovga sig'inish qaysi dinga xos xususiyat hisoblanadi?

- a) Islom;
- v) Xristianlik;
- g) Zardushtiylik;
- d) Budda;
- e) hech biriga xos emas.

7. «Avesto» qaysi dinning muqaddas kitobi?

- a) Islom;
- v) Iudaizm;
- g) Zardushtiylik;
- d) Xristianlik;
- e) Budda.

8. Zardushtiylik dinida ma'naviyat homiysi sanalgan xudoni ko'rsating?

- a) Axura Mazda;
- v) Aximan;
- g) Moniy;
- d) Zevs;
- e) Kayumars.

9. Quyidagilardan qaysi biri O'rta Osiyodagi qadimiy yozuvlarga kiradi.

- a) bundaxshin;
- v) denxard;
- g) O'rxun-Enasoy;
- d) «Avesto» yozuvi;
- e) So'g'd yozuvi

10. Turk hoqoni Bilqa - Qoon – Mog'ilyon va uning ukasi Kul-Tegin qabr toshlariga o'yib yozilgan yodgorliklarni qaysi olim topgan?

- a) N. M. Yadrintsev;
- v) V. V. Radlov;
- g) Ya. G'ulomov;
- d) G. Spasskiy;
- e) S.P.Tolstov.

8-mavzu: Amir Temurning milliy ma’naviyatimiz taraqqiyotidagi o’rni va tarixiy ahamiyati

8.1. Amir Temur buyuk davlat arbobi va yuksak ma’naviyatga ega bo’lgan dono hukmdor

Amir Temur (1336-1405 y.y) Qashqadaryo viloyatining oldingi Shahrisabz (hozirgi Yakkabog’) tumanidagi Xo’ja Ilg’or qishlog’ida tug’ildi. Uning yoshlik yillari mamlakatdagi ziddiyatlar o’ta avj olgan davrga to’g’ri keldi. Ana shu ijtimoiy siyosiy qiyinchiliklar Amir Temurning aqliy va jismoniy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qilgan bo’lsa, ajab emas. Shu bois, Amir Temurning paydo bo’lishi tasodif emas, u o’zi yashagan davrning yirik sarkardasi, davlat arbobi sifatida maydonga chiqdi.

Amir Temur hayotining mohiyati va mazmuni jihatidan farq qiladigan, markazlashgan yirik davlatga asos soldi. Bu bilan u o’z xalqining buyukligini ham ta’minladi. Keyinchalik Amir Temur asos solgan davlatchilik «Temuriylar davlatchiligi», «Temuriylar davri», «Temuriylar sultanati», «Temuriylar sulolasi» kabi nomlar bilan tarix sahifasidan o’rin oldi. Buyuk strateg, mohir siyosatchi, eskirgan ijtimoiy munosabatlarning qat’i islohotchisi, savdo-sotiqlar, hunarmandchilik va madaniyatning homiysi Amir Temur qonunlar va urf-odatlarga asoslangan davlatni barpo etdi. To’g’ri, Amir Temur yaratgan davlatchilik ham o’z-o’zidan paydo bo’lgan emas, uning o’z ildizlari, manbalari bor. Prezident I. A. Karimov ta’kidlaganidek: «Buyuk davlat poydevorini qurish, dunyoda o’zimizga munosib o’rinni egallashda Al-Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Ahmad Farg’oniy, Al-Buxoriy, At-Termiziyy, Hoja Bahovuddin Naqshband, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi bobolarimizning bebaho merosi natijasi hamdir». Lekin, davlatchiligidan o’ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, bosqinchilik bilan zulm va zahmat asosida davlatchilik barpo etishga harakat qilgan mo’g’ul bosqinchilarini uloqtirib, ozod bo’lishni uddalay olgan Amir Temur xizmati tarixda ayniqsa beqiyosdir. Mo’g’ullarga qarshi chiqib, ularni mamlakatdan chetlashtirish osonlikcha kechmagan. O’sha zamon hodisalarining guvohi bo’lgan arab tarixchisi Ibn al-Asir (1260-1233 y.y) mo’g’ullar to’g’risida yozib qoldirgan fikrlarga diqqatni tortsak yuqoridagi fikrni tasdiqlagan bo’lamiz. «Kunu tunlarda misli ko’rilmagan va hamma yoqni, xususan, musulmonlar yaratgan boyliklarni qamrab olgan g’oyat katta bir falokat bo’ldi. Agar birov hamma narsaga qodir Olloh odamni yaratgandan buyon dunyo bunday narsani ko’rmagan, desa haq gapni aytgan bo’lardi. Darhaqiqat, yilnomalarda bunga o’xhash va unga teng keladigan bunday zo’r falokat bo’lmagan. Ularda tasvirlangan voqealar ichida Navuxodonosorning isroiliylarni kaltaklashi va Quddusni vayron qilishi bobidagi qilmishi eng dahshatlisidir. Biroq bu la’natilar (mo’g’ullar) vayron qilgan mamlakatlar oldida Quddus nima bo’libdi? Bu mamlakatlardagi har bir shahar Quddusga ikki barobar keladi. Mo’g’ullar qirib tashlagan odamlarga qaraganda isroiliylar nima bo’libdi? Axir, bitta shaharda mo’g’ullar kaltaklagan aholi barcha isroiliylardan ko’p bo’lgan. Ular hech kimni

ayashmadi: ayollarni, erkaklarni, go'daklarni shafqatsiz do'pposlashdi, homiladorlarning qornini yorib, bolalarni o'ladirishdi»¹.

O'sha paytlardayoq «qumdan ko'p», «zanjirdan bo'shatilgan odamxo'rlar» deb nom olgan mo'g'ul bosqinchilariga qarshi turish va ularni uloqtirish bobomiz Amir Temur zimmasiga tushgan edi. Sohibqiron Amir Temur buyuk siyosatdon va o'ta mohir davlat arbobi sifatida maydonga chiqdi. Tarix sahnasidan juda ko'p sarkarda va davlat arboblari o'tgan. Amir Temur ulardan, farqli o'laroq davlatni, mamlakatni boshqarishni o'ziga xos xususiyatlarini o'ylab topdiki, ular uning davlatini buyukligini ta'minladi. Boshqa hukmdorlardek davlatni boshqarishda bir-ikkita tabaqa emas, balki, xalqning ko'p tabaqalariga suyanib ish ko'rdi. Bu tabaqalar:

1) sayyidlar (payg'ambar avlod), ulamo, mashoyix, fozil kishilar, ya'ni ziyyolilar; 2) ishning ko'zini bilgan donishmand kishilar; 3) xudojo'y, darvesh, qalandarlar; 4) no'yonlar (xonzodalar, tuman, ya'ni 10 ming kishilik qo'shin boshliqlari); 5) sipoh va raiyat, ya'ni askarlar va avom un-nos; 6) maxsus, ya'ni ishonchli kishilar; 7) vazirlar va sarkotiblar; 8) hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislar; 9) tafsir va hadis olimlari; 10) ahli sanoat (hunarmandlar, kosiblar); 11) so'fiylar; 12) tujjor (savdogar) va sayyoohlар.

«Sultanatim martabasi bo'lmish to'ra-tuzuklar va qonun-qoidalarni ham o'n ikki toifaga bog'lab tuzdim. Bu o'n ikki toifani sultanatim falakning o'n ikki burji va davlatim korxonasining o'n ikki oyi deb hisobladim»¹-deydi Amir Temur.

Amir Temur davrida ham shaxsiy hayot bilan jamiyat, jamiyatdagи urush va tinchlik, fuqarolar o'rtasidagi ahillik va ziddiyat, o'ziga xos tur mush tarzi kabi ko'pgina jarayonlar bo'lganki, bu jarayonlarni boshqarish katta kuch, bilim hamda donishmandlikni, mahoratni talab etgan. Bu jarayonlarga xos o'zaro munosabatlarni teran idrok etmasdan turib buyuk davlat barpo etish mushkul edi. Shu bois, Amir Temurning davlatchilikka qarashlari zamonaviy falsafiy ta'limotga asoslangan. Zero, ul zot o'zidan oldin o'tgan hukmdoru sarkardalar, payg'ambaru xalifalar, allomayupirlar, olimlaru donishmandlar tajribasidan, diniy ta'limotlar, fan va madaniyat yutuqlaridan yaxshigina xabardor bo'lgan. Amir Temur ta'kidlagan o'n ikki tamoyilni tahlil qilar ekanmiz, Amirning buyuk strateg, siyosatchi va faylasuf ekaniga iymon hosil qilamiz. Temuriy tamoyillari davlat yuritishdagi muhim yo'nalishlar bo'lib, ular davlatchilik falsafasining o'ziga xos ifodasıdır. Shu bois, xulosa qilish mumkinki, «Tuzuklar»dagi bog'lanishlar va aloqadorliklarning hammasi quyidagi xarakterga ega:

- hodisalardagi sababiy bog'lanish va aloqadorliklar;
- muhim hamda muhim bo'lмаган bog'lanish va aloqadorliklar;
- vositali hamda vositasiz bog'lanish va aloqadorliklar;
- zaruriy hamda tasodifiy bog'lanish va aloqadorliklar.

Bu bog'lanish va aloqadorliklarni alohida-alohida tahlil etadigan bo'lsak, ular ham o'z navbatida o'zaro ta'sir vositasida navbatdagi bog'lanish va aloqadorliklarni keltirib chiqaradi. Chunonchi, davlat boshqaruvi benihoya ko'p omillar bilan bog'liq, uning zamirida murakkab falsafa, son-sanoqsiz jarayonlar mavjud. Ularning birini

¹ Temurnoma. T.: 1990, 6-bet.

¹ Temur tuzuklari. T.: 1996, 81-bet.

anglab etsangiz, undan ikkinchi bir haqiqat kelib chiqadi. Shuning uchun hodisalar mohiyatini bilish, barcha aloqador jihatlarni, vositalarni bir butun holda tekshirish talab qilinadi. Shundagina xatolardan saqlangan holda hodisalar rivoji ta'minlanadi. Shu bilan birga, ularni aniqlashda turli uslublardan ham foydalaniladi.

Amir Temur bobomiz a'lo darajadagi falsafiy tafakkur uslubiga ega bo'lgani sababli, boshlagan ishlarining barchasini poyoniga etkazib, yutuqlarga erishgan. Zero, bog'lanish va aloqadorlikning o'zi ham falsafiy, deterministik (bog'lanish, aloqa, o'zaro ta'sir) xususiyatlariga egadir. Amir Temur o'z faoliyatida tamoyillardan foydalanib ish yuritdi. Tamoyillardan birinchisini sababiy bog'lanishlar nuqtanazaridan teranroq tahlil qiladigan bo'lsak, ya'ni Tangri taolonning dini va Muhammad payg'ambarning shariatiga qat'iy amal qilib yashashga asosiy sabab, avvalo o'sha davrdagi ijtimoiy siyosiy muhit hisobga olingan edi. Amir Temur yashagan davrda islom dini Turon zaminida xalqning ongi va tafakkuridagi real kuch sifatida e'tirof etilar edi. Bu mukammal ilohiy ta'limot xalq qalbiga singib ketgandi. Tabiiyki, Amir Temur hazratlari ham islom dini aqidalariga qat'iy amal etib, mamlakatda hukmronlik faoliyatida islomiy g'oyalarni bosh shior qilib oldi. Madrasa va masjidlar qurdirdi. Din peshvolarini hurmatladi. Natijada mudom g'alaba ul zotga yor bo'ldi. Islom dinini targ'ib qilish natijasida Sohibqiron tarafdrorlari ortdi, davlatining kuch-qudrati oshdi. Qudratli davlat boshqaruvida ikkinchi tamoyildagi birinchi tamoyilga bog'liqlik yorqin ko'zga tashlanadi, ya'ni siyosatda turli tabaqa va toifadagi kishilarga suyanish ham zaruriyatdan kelib chiqqan edi. Insonlar bilan, aniqrog'i, tabaqa va toifalar bilan bog'lanishda (diniy e'tiqodda ham shu tabaqa va toifalarga xos xususiyatlar e'tiborga olingan edi) kishilar mavqeiga ularning turli vazifalarni bajarganliklariga, qarab ish yuritildi. Oqibat natijada ularning faoliyati boshqa jarayonlardagi aloqadorliklarga ta'sirini o'tkazishiga sabab bo'ldi. Uchinchi tamoyilda ta'kidlanganidek, maslahat va kengashlar, tadbirkorlik bilan ish yuritish ham turli tabaqalar manfaatini hisobga olgan holda o'tkazilgan. Bunday maslahat va kengashlarda oddiy ishlardan tortib to davlatni boshqarish masalalarigacha muhokama etilgan, zaruriy xulosalar chiqarilgan. Demak, ma'lum bo'ladiki, Temuriy tamoyillari saltanatni boshqarishda o'zaro bog'lanib, ular bir-birini to'ldirganki, ulardan ushbu bog'lanish va aloqadorliklar go'yo bir halqadan iborat mustahkam zanjirdir. Bu zanjir umumiylit hodisalaridan paydo bo'lib, yakkayu-yagona saltanatni boshqarishga qaratilgan. Binobarin, Amir Temurning davlat boshqaruvini o'rganish, «Tuzuklar»dan zamonabop zaruriy xulosalar chiqarish O'zbekistonni kelajakda buyuk davlat sifatida kamol toptirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Amir Temur o'z davlatini boshqarishda bor yo'g'i 7 ta vazir yordamidan foydalangan: 1. Mamlakat va raiyat vaziri; 2. Sipoh vaziri 3. Mol-mulk daromad, xarajatlar vaziri; 4. Sarkori xossa va saltanat ishlarini yurituvchi vazir; 5. Qozi kalon; 6. Jalol ul-islom-podshohning favqulodda huquqlariga ega bo'lgan nazoratchisi; 7. Vaziri devoni insho-turli mamlakatlar bilan aloqa bog'laydigan, yozishmalar olib boradigan vazir.

Tuzuklar bevosita Temuriy tajribaning mantiqiy natijasi bo'lib, ul zot umrining poyonida bitilgan asardir. Amir Temur o'zining davlat boshqaruviga xos ustun jihatlarini e'tirof etgan holda bu boshqaruv an'ana sifatida davom ettirilishini orzu qilib», «... Toki mendan ularga etadigan davlat va saltanat zararu tanazzuldan omon

bo'lgay», deya umidvor vasiyat etgan edi. Haqiqatan ham, Amir Temurning avlodlari turli davrlarda, turli mamlakatlarda bu vasiyatdan to'g'ri xulosa chiqaradilar va shu bois Temuriylar sulolasiga uzoq asrlar mamlakatlarni boshqarib keldilar.

Ma'lumki, Amir Temur to'g'risida juda ko'p asarlar yozilgan. Bularni anchagini qismi Amir Temur bilan hamsuhbat bo'lgan, uning turli yurishlarida

qatnashgan mualliflarga taalluqlidir. Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Rui Gonzales de-Klavixoning «Dnevnik puteshestviya ko dvortsu Timura v Samarkande v 1403-1406 g.», Ibn Arabshohning «Temur tarixida taqdir ajoyibotlari», Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma» asarlari shular jumlasidandir. Ammo, Amir Temur faoliyatini tarixiy hujjatlar asosida o'rgangan olimlar ham oz emas. Alisher Navoiyning «Majolisun nafois» ettinchi majlis, Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma», V.V.Bartoldning asarlari (tom 2, 1 qism), (Jizn Temura), G. Vamberining «Istoriya Buxaro» (t.1), Bo'riboy Ahmedovning «Amir Temur» tarixiy-bibliografik romani, akademik I.M..Mo'minovning «Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli», Evgeniy Berezikovning «Buyuk Timur», F. Qosimovning «Temuriylar davrida Buxoro» Abdulahad Muhammadjonovning «Temur va Temuriylar sultanati», A. Yu. Yakubovskiyning «Timur», G'iyosiddin Alining «Dnevnik poxoda Timura v Indiyu», Abdurazzoq Samarqandiyning «Matlai sa'dayn va majmai baxrayn», X.Xizrievning «Nashestvie Timura na Severno'y Kavkaz», B.D.Grekov, A.Yu.Yakubovskiyning «Oltin O'rda», V. I. Zaxoderning «Imperiya Timura» Ashraf Ahmedovning «Amir Temur haqida haqiqat», Turg'un Fayzievning «Sohibqironning so'nggi kunlari», X. Davronning «Sohibqiron nabirasi» kabi va bu erda ismlari aytilmagan yuzlab olimlarning asarlari borligi fikrimizning dalilidir. Ushbu asarlarning barchasida ham Sohibqiron faoliyatiga bir xilda yondoshilmagan albatta. Bu olimlar, yozuvchilar, davlat rahbarlari Amir Temurning faoliyatini turli tomondan yoritishga harakat qilganlar. Sobiq ittifoq davrida nashr etilgan asarlarni hammasida ham xolisona fikrlar bor deb bo'lmaydi. U davrdagi Amir Temur to'g'risidagi fikrlar yagona mafkura xizmatiga bo'ysundirilgan bo'lib, voqealar u orqali sinfiylik nuqtai-nazaridan yoritilishiga majbur qilingan edi. Mustaqilligimiz tufayli Amir Temur haqidagi aniq haqiqatni bilmoqdamiz. Binobarin, Amir Temur shaxsini idrok etish-Markaziy Osiyo tarixini idrok etish demakdir. «Amir Temurni anglash-o'zligimizni anglash demakdir» (I.A.Karimov). Chunki, bobomiz tarixi ko'proq o'zbek xalqining tarixi bilan bog'liqdir. Xalqning urf-odatlari, turmush tarzi, ma'naviy xislatlari, e'tiqodi Amir Temur davlatchiligiga ham borib taqaladi. Prezidentimiz aytganlaridek: «Amir Temurni ulug'lash-tarix qa'rige chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizga ishonchimizni mustahkamlash demakdir»¹. U ulug' insondan qoldirilgan ma'naviy meros avlod-ajdodlarimizga xizmat qiladi. Ana shunday ma'naviy meroslardan biri bu «Temur tuzuklari»dir.

¹ Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishslash davr talabi. 5-tom. T.: «O'zbekiston», 1997, 173-bet.

8.2. «Temur tuzuklari» da ma’naviyat masalalari.

Bu asarning qimmati benihoya ulug’dir. Ba’zida u «Temurning aytganlari», «Temur haqida xotiralar», «Tuzuki Temuriy» deb ham atalib kelingan. Asar dastlab eski o’zbek (Chig’atoy-turkiy) tilida yozilgan bo’lib, sharqshunos olimlarning jumladan, N.D.Mikluxo-Maklay, Ch. Ryo, X. Ete, Ch.A.Storiylarning fikricha, uning bir nusxasi XVII asrgacha Yaman hukmdori Ja’far podshohning kutubxonasida saqlangan. Hozir esa bu asar dunyoning ko’pgina tillariga: ingliz, frantsuz, fors, urdu, rus va o’zbek tillariga tarjima qilingan. Hozirgi o’zbek tiliga qilingan tarjimasi fors va arab tili bilimdoni marhum Alixonto’ra Sog’uniy tomonidan bajarilgan. Unga sharqshunos olim Habibullo Karomatov o’zining jiddiy hissasini qo’shgan va kitob holiga keltirib nashr ettirgan.

«Tuzuklar»ning Amir Temur tomonidan yozilganligi yoki yozilmaganligi haqida tortishuvlar hozirgacha davom etmoqda. Jumladan, ingliz sharqshunosi E.G.Braun bilan rus sharqshunos olimi V.V.Bartold «Tuzuklar»ning Amir Temur tomonidan yozilganligiga shubha qiladilar. Ammo, akademik B.Ahmedovning fikriga ko’ra, asarni sinchiklab o’rganganda, hamda Amir Temurga bag’ishlab o’sha vaqtdayoq yozilgan asarlar tahlil qilinganda, jumladan, Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»lariga solishtirganda yuqoridagi da’volar asossiz ekanligi ma’lum bo’ladi. Ingliz sharqshunos olimi A.Storiy ham shu fikrda bo’lib, «Tuzuklar» Amir Temur tomonidan yozilgan, deb ochiq aytadi. Demak, shuni aytish kerakki, o’z davrining ilm va fani, olimu fuzalolari qadrlagan, jamiyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo’shib, uni rivojlanishini ta’minlagan kishini asar yoza olishiga shubha qilish o’rinsizdir.

«Temur tuzuklari»ning qo’lyozma nusxalari jahondagi ko’pgina mamlakatlarning, jumladan: Hindiston, Eron, Angliya, Daniya, Frantsiya, Rossiya, Germaniya, Armaniston, O’zbekiston kutubxonalarida bor. Bu asar asosan Amir Temurning tarjimai holi, hayoti, davlati va armiyasi to’g’risida, o’sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy sharoit haqidagi manbadir.

U avlodlarga qoldirilgan muhim siyosiy, iqtisodiy, harbiy va ma’naviy qo’llanmadir. Asarda 1342-1405 yillardagi muhim ma’lumotlar keltiriladi. Bu ma’lumotlarning aksariyat qismi insonning ma’naviy xislatlarini yoritish va hayotga tatbiq etishga qaratilgan. U ikki maqoladan iborat: birinchisida jahongirning o’z davlatini tashkil etish va uni mustahkamlash, qudratli qo’shin tuzish, qonun va rejalardan iborat bo’lsa, ikkinchi maqolada kuchli feodal davlatni barpo etish haqidagi kengashlar, hamda amalga oshirilgan ishlar haqidadir.

Amir Temurning asaridan sezilib turadiki, o'zi tanlagan va tayinlagan kishilarning axloqiy xislatlariga ko'proq e'tiborni qaratgan. Jumladan Sohibqiron fikricha, vazirlar 4 sifatga ega bo'lishi kerak:

1. Asillik, toza nasllik va ulug'vorlik;
2. Ko'pni ko'ra oladigan, tez xulosa qiladigan, aqlu-farosatilik;
3. Insonparvar, xalq ahvolini, sipohlarni biladigan va g'amxo'rlik ko'rsata oladigan;
4. Chidamli, sabr-toqatli, xushmuomalali, muloyim.

Ko'rib turibmizki, bu axloqiy xislatlar Amir Temur tomonidan yuqori baholangan va ularga amal qilingan.

Butun umri davomida hokimiyatda vijdonli rahbarlarni bo'lismeni orzu qilgan va bu orzuni amalga oshirgan. Tuzuklarda ta'kidlanishicha, rahbar qilib tayinlangan odamlarni ortiqcha maqtab yuborish, siylash va taltaytirib yubormaslik lozim. Avvalo, nazari past, johil, tagi past odamlarni vazirlik mansablariga tayinlamaslik kerak. Amir Temur ta'kidlab aytadiki: «Qaysi vazir g'iybat gaplarni aytsa, uydirma gaplarga qulq solsa, jabr-zulm qilsa, o'ziga yoqmagan kishilarни yo'qotish payiga tushsa, uni vazirlikdan tushirish lozim. Nasli va zoti past, hasadchi, gina-kek saqllovchi, qora ko'ngilli odamlarga zinhor vazirlik lavozimi berilmasin, (chunki) buzuqi, qora ko'ngilli, zoti past, odam vazirlik qilsa, davlatu saltanat tez fursatda zavol topadi»¹. Amir Temur ayniqsa, o'z manfaatini o'ylaydigan ochko'z, manmanlik va ziqlanlik qiladigan, mol-mulkka berilgan, o'zlarining eng yaqin kishilarini unutib ularga qaysarlik bilan ish tutadiganlarni juda yomon ko'rgan. Bu haqda «Tuzuk»larda shunday deyiladi: «Qaysi bir sipohiy tuz haqi va vafodorlikni unutib, xizmat paytida o'z sohibidan yuz o'girib, huzurimga kelgan bo'lsa, unday odamni o'zimga eng yomon dushman deb bildim. Chunonchi, To'xtamishxon bilan bo'lgan urushda uning amirlari menga har turli xabar va shikoyatlar yozib, o'z hukmdori, ya'ni mening dushmanim bo'l mish To'xtamishxon bergan tuz haqini unutdilar, vafodorlik va haq-huquqni bir chekkaga yig'ishtirib qo'yib, huzurimga panoh istab kelganlari uchun ularni la'natladi, o'zimga «bular o'z hojasiga vafo qilmagach, menga qilarmidi?-deb o'yladim». Aytish lozimki, bu fikrlar yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan, yuksak axloqli, shaxs tomonidan aytilishi mumkin, xolos. Amir Temur o'zining shu xislatlari orqali xalqning barcha tabaqalari o'rtasida hurmat qozongan, jumladan «Tuzuk»larda bu haqda shunday fikrlar bor: «Men o'zimning ikromiyatim va rahmdilligim tufayli eng past tabaqa kishilarning ham, hatto gadolarning rahmatiga sazovor bo'ldim. Men butun jahdim bilan bu tabaqadagi kishilarning ahvolini osonlashtirishga harakat qildim»².

«Temur tuzuklari»dagi barcha sohalar ham inson, insonning axloqi bilan bog'liq, desak xato bo'lmaydi, sababi jahongirning o'zi o'ta kamtar inson bo'lgan. O'z davrida qudirgan barcha madrasayu, maqbara, qal'a-qasrlar, bog'-rog'lar, masjidlarni o'z nomi bilan emas balki, islom rahnamolari, qavmu-qarindoshlari va o'g'il-qizlari nomlari bilan atagan, ularning nomlarini bergan.

¹ Temur tuzuklari. T.: 1996, 11-bet.

² Temur tuzuklari. T.: 1996, 334-bet.

«Temur tuzuklari»da axloq va odob me'yorlari markaziy o'rirlarni egallaydi. Adolat, so'z va amaliyat birligi, do'st va dushmanlik, botirlik va qo'rkoqlik, so'z va shirinsuxanlik, manmanlik va kamtarlik, boylik va kambag'allik, mardlik va nomardlik kabi axloqiy xislatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu keltirilgan odob va axloq me'yorlari Amir Temurning o'z faoliyati, harakati bilan chambarchas bog'liqdir. O'z umrining barcha qirralarida ushbu me'yorlarga duch kelib, ular sohasida inkor etib bo'lmaydigan fikrlarni bildirgan.

Tuzuklardan va yozib qoldirilgan boshqa manbalardan ma'lum bo'ladiki, Amir Temur o'rinsiz g'azablanib, biror kishi bilan muomala qilmagan. Uning fikricha, g'azab va qattiqqo'llik bilan qilingan muomala Tangri Taolo g'azabiga duchor bo'lish, o'z holini tang qilishdir. Shu sababli, Amir Temurning o'zi so'z bilan dushmanni bo'ysundirishni afzal ko'rgan. Zero, «millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir», «kuch adolatdadir, «adovat emas, adolat engadi», «bir kunlik adolat yuz kunlik toat-ibodatdan afzal» degan, yuksak ma'naviyatga oid fikrlarni Amir Temur o'rtaga tashlaganki, bu fikrlar abadiy o'chmasdir.

Amir Temurning davlatni idora qilishida odob va axloq me'yorlaridan foydalanib ish yuritganligi diqqatga sazovordir. Biz ushbu faoliyatni «Tuzuklar»dagi o'gitlardan ham yaqqol sezamiz, «Har mamlakatga shayxul-islom (musulmon jamoasining boshlig'i) yubordimki, toki musulmonlarni gunoh ishlardan qaytarib, ularni yaxshi va savob ishlarga undasin»¹.

«Adolat va insof bilan Tangrining yaratgan bandalarini o'zimdan rozi etdim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm-shavqat bilan, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlарим bilan odamlarning ko'nglidan joy oldim... Menga yomonliklar qilib, boshim uzra shamshir ko'tarib, ishimga ko'p ziyon etkazgancharni ham iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelgach, hurmatlab, yomon qilmishlarini xotiramdan o'chirdim. Martabalarini oshirdim»².

Amir Temur barchaga nasihat qilib aytadiki: «Ulamo bilan suhbatda bo'lib va pok niyatli, toza qalbli kishilarga talpindim, bularning himmatlaridan ulush tilab, muborak nafaslari bilan duo fotiha berishlarini iltimos qildim». Yana bir joyda «...Hech kimga g'azab bilan qattiq muomalada bo'lmadim va hech bir ishda tanglik qilmadim, toki Tangri taoloning g'azabiga duchor bo'lmayin va ishimni buzib, holimni tang etmasin deb»¹. «...-raiyat ahvoldan ogoh bo'ldim, ulug'larini og'a qatorida, kichiklarini farzand o'rnida ko'rdim». «Yaxshilarga-yaxshilik qildim, yomonlarni esa o'z yomonliklariga topshirdim. Kim menga do'stlik qilsa qadrladim, do'stligi qadrini unutmadi va unga muruvvat, ehson, izzatu ikrom ko'rsatdim»².

Amir Temurning farzandlari ham hokimiyat ishlariga aralashganlar. Ularga ham ko'p ming sonli qo'shinlar berilib, turli viloyatlarga bosh etib tayinlangan edilar. Ular otalari bilan maslahatlashib ish yuritganlar. Zarur bo'lsa otasi bilan birga, o'z qo'shinlarini olib kelib jangga kirganlar va o'z otasining sultanati va davlatini

¹ Temur tuzuklari. T.: 1996, 73-bet.

² Temur tuzuklari. T.: 1996, 70-bet.

¹ Temur tuzuklari. T.: 1996, 70-bet.

² Temur tuzuklari. T.: 1996, 71-bet.

hurmatini joyiga qo'yganlar. Farzandlar noto'g'ri yo'lga qadam qo'yganlarida esa ota ularni jazolagan, tanbeh bergen. Amir Temurning shaxsiy faoliyati barcha kishilar uchun turli sohalar bo'yicha namuna bo'la oladi. Ayniqsa, u kishining insonga, vatanga, xalqqa, o'z oilasi va do'stlariga bo'lган munosabatlarida bu jarayon yaqqol ko'zga tashlanadi. Amir Temur hali, davlat tepasiga kelmasdanoq vatanni o'yash, vatan ravnaqiga befarq bo'lmaslik, dushmanlar tomonidan o'tkazilayotgan tazyiq va talon-torajliklarni oldini olish uchun intilish xislatlariga ega edi.

Ba'zida Amir Temurning «qonxo'rligi» haqida fikr yuritganlar. Bu bizningcha mutlaqo o'rinsizdir. Aslida, Amir Temur adolat bilan ish yuritar ekan, shu adolatni erga uradigan, jamiyat manfaati bilan hisoblashmaydigan kishilar bilan haqiqatda ham murosasiz bo'lган. Bu so'zning kelib chiqishida Rui Gonzales de Klavixoning bir hikoyasi sabab bo'lga bo'lsa ajab emas.

Amir Temur o'zining «Besh yillik yurishi» vaqtida Turkiya sharqida safarda bo'lган. Bu safar paytida Suriyaga o'tilayotganda, Suriya bilan Turkiya oralig'idagi erlarda ko'chmanchilik qilib yuruvchi «oq tatar» nomli elatga to'g'ri kelingan. To'satdan jang boshlanib, tatarlar engiladi va asrga olinadilar. Natijada, ular Eronning shimolidagi Damgon viloyatiga ko'chirilib, bu erlarni ular yordamida obodonlashtirish nazarda tutiladi, sababi, u arning aholisi kam bo'lган. Ammo, oq tatarlar u erlarga kelganlaridan so'ng yana avvalgiday itoat qilmaydilar. O'zaro birlashib, asta-sekin g'arbg'a, ya'ni o'z erlariga qayta boshlaydilar. Yo'l-yo'lakay shahar va qishloqlarni talon-toraj qiladilar. Vayronalarga aylantiradilar. Natijada Amir Temurning sipohlarini jahli chiqib, oq tatarlarni qirib tashlaydilar. To'g'ri, bu jangda minglab kishilar halok bo'ladi, lekin bu-sababsiz bo'l'magan-ku! Demak, qonxo'r deyilishi asossiz bir ertakdir, xolos. Agar biz Amir Temurni boshqa sarkardalar, Napoleon, Gitler, Stalin, Frunzelar bilan qiyoslab o'rganadigan bo'lsak, unda ular qilgan dahshatlarni qanday baholash mumkin!

Amir Temur o'z hayoti davomida feodal tarqoqlikka barham berish uchun kurashdi, vayron bo'lган shaharlar va xalq xo'jaligini tiklash, mamlakatni obod qilish uchun harakat qildi. Masalan, o'sha vaqtda mo'g'ullar tomonidan Samarqand, Buxoro, Nasaf (Qarshi), G'uzor shaharlari xonavayron qilingan edi. Ularni tiklamasdan boshqa sohalarini rivojlantirib bo'lmas ham edi. U 1371-1372 yillarda Samarqand tevaragidagi buzilib ketgan devorlarni tikladi. Uning 6 ta darvozasi qayta ta'mirlandi. Ulkan saroy-Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy bunyod bo'ldi, ko'chalar, bozorlar obod qilindi. Maqbaralar qad ko'tardi. Bular ko'plarga namuna bo'ladigan xislatlardir.

Ma'lumki, Amir Husayn Amir Temur bilan yaqin qarindosh bo'lган. Uni Amir Temur o'z davlatiga sherik qilgan, aslida Amir Husayn o'zini do'st qilib ko'rsatsa ham, ichidan Amir Temurga hasad bilan qaragan. Bir necha bor yomonliklar qilgan. Sababi, u ham Movarounnahr taxtiga o'ltirishni orzu qilgan. Ular o'zaro bir-birlariga qasd qilmaslikka ont ichganlar. Amir Husayn uchinchi marotaba Qur'oni qo'lliga olib do'stlik bobida ont ichgan bo'lsa ham, Amir Temurga vafolik qilmagan. Amir Temur ko'p marotaba unga muruvvat ko'rsatgan bo'lishiga qaramasdan, Amir Husayn uni mag'lub qilib, unga firib berishga intilgan. Shunday bo'lishiga qaramasdan Amir Temur uni kechirib kelavergan. Binobarin, Amir Temur saltanat

taxtiga o'tirganda do'stu dushmanga bir tekisda yo'l tutgan. O'z tuzuklarida bu sohani shunday ta'riflaydi: «Menga hasad qilib, o'ldirishga qasd etgan kishilarga shunchalik sovg'a-in'omlar berib, muruvvatu ehson ko'rsatdimki, yaxshiliklarimni ko'rib, xijolat eriga g'arq bo'ldilar.

Hamisha mening roziligidimni olib ish tutgan do'stlarim oldimga panoh izlab kelganlarida, ularni o'zimning baxtu – davlatimga sherik bilib, hech qachon mol-mulk va tirikchilik ashyolarini ulardan ayamadim. Yana tajribamdan bildimki, sodiq va vafodor do'st ulkim, o'z do'stidan ranjimaydi, do'stining dushmanini o'z yovi deb biladi. Agar kerak bo'lsa, do'sti uchun jonini ham ayamaydi. Shundayki, amirlarimdan qay birlari menga jon-dili bilan hamrohlik qilgan bo'lsalar, men ham ulardan hech narsani ayamadim. Yana o'z tajribamdan ko'rdimki, aqlli dushman johilu nodon do'stdan yaxshiroq ekan. Chunonchi Amir Qazag'anning nabirasi Amir Husayn nodon do'stlardan edi. Uning do'stlik yuzasidan qilgan ishlarini hech bir dushman qilmaydi¹. Ko'rinish turibdiki, Amir Temur do'stlikni ulug'lagan va umri davomida shunga sodiq qolgan.

Insonlarning kundalik hayotidagi yumushlar, ularning yurish turishidagi qoidalari ham Amir Temur nazaridan chetda qolmagan. Bularning barchasini «Tuzuklar»ning boshlanishidan oxirigacha aytilgan fikrlardan anglab olish mumkin. Turli manba va fikrlarni tahlil qilgan kishi buni darrov fahmlab etadiki, Amir Temur falsafasi faqat inson falsafasidir. Chunki insonning yurish turishi, faoliyati, barcha ishlari Sohibqironning doimiy diqqat markazida turgan.

Sohibqiron o'z davrida ilm-fan arboblari, din peshvolari va donishmandlarga hamisha xayrixoh bo'lган. Manbalardan ma'lumki, Amir Temur buyuk sarkarda bo'lish bilan birga, u ilm fan va yuksak ma'naviyatni shakllanishida buyuk homiy edi. Zero, ilm va fanni e'zozlagan Amiring o'zi ham shubhasiz ilm fandan jiddiy xabari bo'lган. Demak, Sohibqiron keng ma'lumotli bo'lib, har bir sohani nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qila olgan. Qur'on, hadis, qonun, geografiya va tarix, falsafa ilmlarini o'zida mujassamlashtirgan. «Musulmonlarga diniy masalalardan ta'lim berib, shariat aqidalarini va islom dini ilmlaridan tafsir, hadis, fiqh dan dars bersinlar, deb... har bir shaharga olimlar va mudarrislar tayin qildim»¹-deb ta'kidlaydi Amir Temur. Demak, Amiring mashvaratlari doimo fuzalolarsiz o'tmagan. Manbalar yana shuni ko'rsatadiki, Sohibqiron davrida yuqorida tilga olingan ilm-fan sohalari jiddiy rivojlandi. Bu rivojlanish podshoning marhamatisiz bo'lmas edi, albatta. Buni hatto, Amir Temur faoliyatiga tanqidiy qaragan Ibn Arabshoh ham tan olgan. U shunday deb yozadi: «Xullasi kalom, Temur har bir (foydali) jonni atrofiga yig'ib, nimaiki bo'lsa, sarasini Samarqandga keltirdi. Natijada Samarqandda har bir ajib fan ahli namoyondasidan va san'atlar g'aroyib uslubidan fazilati peshonasida nishona bo'lib, o'z tengqurlaridan ustun turgan, o'z sohasida alloma kishilar yig'ilgan edi»².

Amir Temur avlodlaridan buyuk olimlar, shoirlar, sarkardalarning chiqishi ham bejiz emas. Amir Temur davrida mamlakatda milliy madaniyat va arxitektura

¹ Temur tuzuklari. T.: 1996, 113-bet.

¹ Temur tuzuklari. T.: 1996, 73-bet

² B. Ahmedov. Amir Temurni yod etib. T.: «O'zbekiston» 1996, 115-bet.

me'morchilik san'ati jiddiy rivojlangan. Unda ham fan ahlining ma'naviy o'rni beqiyos kattadir. Amir Temur Shahrishabz, Samarcand, Buxoro va Turkiston shaharlarida qaytarilmas binolarni querdirdi. Bag'dod shaharini ikki marta tikladi. Darbandni ta'mirladi. Banokat (Shohruhiya), Boylaqon (Ozarboyjon) kabi shaharlar qurilishiga e'tiborini qaratdi. Movarounnahrda emas balki, o'zga yurtlarda ham orzu qilinadigan masjidu madrasalar, qasrlar, qal'alar querdirdi. Tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning guvohlik berib yozishicha, Amir Temur biron shahar yoki mamlakatda bo'lganida albatta bironta bino qurib qoldirgan. Rus tarixchisi A.Yu.Yakubovskiyning fikricha, mashhur podshoh Mahmud G'aznaviy butun dunyoni talab katta boylik yiqqan bo'lsa, Temur esa topganini el-yurt obodonchiligiga sarflagan ilm maskanlarini querdirgan. Buni Amir Temurning o'zi ham ta'kidlab shunday deydi: «Har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar. Faqiru miskinlarga langarxona solsinlar, kasallar uchun shifoxona qurdirsinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasinlar.»¹. Shu kabi sohalarda Amir Temur bir necha bor to'xtalgan va ularni sodda qilib tushuntirgan. Jumladan, Amir Temur yosh avlodlarga nasihat qilib aytadiki, bilimli kishilar o'tirgan o'rni bilan ham podshohga yaqin bo'lishi darkor.

Amir Temurning o'zi esa sultanat taxi o'rinalarini belgilaganda ham ilm ma'rifat allomalarini o'ziga xos joylarini tanlab bergen va, «Sayyidlar, qozilar, ulamo, fuzalo, shayxlar, ulug'lar aslzodalar o'ng tomondan o'rin olsinlar» yoki ikkinchi bir joyda: «sayyidlar, ulamo, mashoyix, fuzalo, ulug'larni aziz tutsinlar»-deb aytadi. Ularning turmush tarzi, moddiy ta'minlanishlariga e'tiborini qaratgan. Shu sababli bo'lsa kerakki, Amir Temur saroyida o'sha vaqtida ko'plab ilm-ma'rifat allomalari yashagan va ijod qilgan. Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsuddin Munshi, Mavlono Abdullo Lison, Mavlono Badriddin Ahmad, Mavlono No'moniddin Xorazmiy, Xoja Afzal, Mavlono Alouddin Koshiy, Jalol Hokiylar shular jumlasidandir.

Amir Temur o'z davrining barcha ilmlariga e'tibor bergenligini frantsuz olimi Lyangle shunday ta'riflaydi: «Temur olimlarga seriltifotli edi. Bilimdonligi bilan bir qatorda sofdilligini ko'rgan kishilarga ishonch bildirardi. U tarixchilar, faylasuflar, shuningdek, ilm-fan, idora va boshqa ishlarda iste'dodli bo'lган barcha kishilar bilan suhbatlashish uchun ko'pincha taxtdan tushib, ularning yoniga kelardi. Chunki Temur bu sohalarga g'amxo'rlik qilishga asosiy e'tiborni berardi¹». Yoki Ibn Arabshoh yozganidek: «Temur olimlarga mehribon, sayyidu shariflarni o'ziga yaqin tutar edi. Ulamo va fuzaloga to'la izzat-hurmat ko'rsatib, ularni har qanday odamdan tamom muqaddas ko'rardi. Ularning har birini o'z martabasiga qo'yib, izzatu-ikromini unga izhor qilar edi»². Ammo ko'rsatilgan mehr-muhabbat va oqibatga olimu fuzalolar tomonidan himmat ko'rsatilmaganda, Amir Temur ularni to'g'ri yo'lga boshqarishga intilardi, jumladan: «Ilm va dinning mashhur kishilari o'z maslahatlari bilan podshohlarga yordam berib kelganlar. Sizlar esa menga nisbatan bunday qilmayapsizlar. Mening maqsadim-mamlakatdaadolat o'rnatish, tartib va tinchlikni

¹ Temur tuzuklari. T.: 1996, 125-bet .

¹ Buyuk siymolar, allomalar. T.: 1996, 15-bet.

² Buyuk siymolar, allomalar. T.:1996, 15-bet.

mustahkamlash, fuqoroning turmushini yaxshilash, yurtimizda qurilishni kuchaytirish, davlatimizni rivojlantirishdir. Sizlar bu ishlarni amalga oshirishda menga o’z maslahatlaringiz bilan ko’maklashishingiz kerak. Mamlakatning ahvoli, devonning suiiste’mol qilinganligi va qilinmayotganligi, oddiy odamlarning joylardagi hokimlar tomonidan ezilayotgani mendan ko’ra sizlarga ayondir. Shular haqida ma’lumot beringiz, bu kabi adolatsiz ishlarni bartaraf etuvchi hamda shariat va qonunlarga muvofiq chora- tadbirlarni yaxshi bo’lurdi»³.

Amir Temur faoliyatida o’z ota-onasiga, qarindosh-urug’lariga bo’lgan hurmat-izzat, ustozlarni e’zozlash, ularga yaxshilik baxshida etgan kishilarning hurmatini joyiga qo’yish ustuvor bo’lganligini ta’kidlaydilar. Masalan, ular to’g’risida «Tuzuklar»da ham shunday fikrlar keltirilgan: «Farzandlar, qarindoshlar, yoru-birodar, qo’shnilar va men bilan bir vaqtlar do’stlik qilgan barcha odamlarni davlatu ne’mat martabasiga erishganimda unutmadi, (molu mulk va naqd pul bilan) haqlarini ado etdim»⁴. Ko’rinib turibdiki, Amir Temur qanchalik davlat ishlari bilan band bo’lishidan qat’i nazar, oilaviy munosabatlarni, o’zaro insoniy xizmatlar va xislatlarni oliy darajada bajara olgan. U insonlardan hech qachon mehr muhabbatini ayamagan. Lekin o’g’illari yoki boshqa biror yaqinlari noma’qul ishlarni amalga oshirganda ularni to’g’ri yo’lga boslash uchun barcha imkoniyatlardan foydalangan. «Agar o’g’illarimdan qaysi birovi saltanat martabasiga da’vogarlik qilib bosh ko’tarar ekan, uni o’ldirishga, bog’lashga yoki muchasidan biron joyini kamaytirishga hech kim jur’at qilmasin. Lekin o’z da’vosidan kechmaguncha asirlikda saqlasinlar, toki Xudoning mulkida urush chiqmasin. Agarda nabiralar va qavm-qarindoshlardan biri menga qarshi ko’tarilsa uni darvishlik holatiga solsinlar.»¹ Sezamizki, Amir Temur o’zining shaxsiy manfaatlarini hech vaqt saltanat manfaatidan ustun qo’ymagan.

³ Amir Temur o’gitlari. T.: 1992, 39-41 betlar.

⁴ Temur tuzuklari. T.: 1996, 72-bet.

¹ Temur tuzuklari. T.: 1996, 91- bet

8.3. I. A. Karimov asarlarida Amir Temur faoliyatini talqini

Prezident I.A.Karimov mustaqilligimiz davrida Amir Temur faoliyatini jiddiy baholadi va uning tarixda tutgan o’rnini xolisona ravishda targ’ibot qildi. Sobiq Ittifoq davrida qatag’on etilgan o’zbek o’g’lonlari ichida birinchi o’rinda Amir Temur turar edi. Hatto, Amir Temurni shaxs sifatida e’tirof etish, siyosat va davlat arbobi sifatidagi tajribalarini o’rganishga harakat qilganlar ham qattiq tazyiq ostiga olinar edilar. Lekin o’zbek xalqi buyuk sarkarda, davlat asoschisi, mutafakkir Amir Temurni o’z xotirasida saqlab keldi. Mustaqillik e’lon qilingani kundanoq u buyuk zotning hurmatini o’rniga qo’yish boshlandi. U kishidan qolgan merosni bemalol o’rganishga kirishildi. Jamoat joylari, ko’chalar, o’rta va maxsus hamda oliy ta’lim tizimidagi muassasalar, ilm maskanlari, mahallalar, shirkat xo’jaliklari alloma nomi bilan ataldi. Toshkent shahrining qoq markazida u kishining bebahohaykali o’rnatildi. Shu munosabat bilan I.A.Karimov o’zining «Ehtirom» deb atalgan ma’ruzasida Amir Temur faoliyatini baholab quyidagi fikrni bildirdi: «Amir Temur davlat qurilishi, harbiy san’ati, ko’p asrlar davomida Sharqu G’arb davlatlariga o’rnak va andoza bo’ldi. Uning zamonida madaniyat, ilmu fan, me’morchilik, tasviriy san’at, musiqa, she’riyat, beqiyos rivoj topdi, xalqimizning ko’p an’analari takomilga etdi. Amir Temurning madaniyat va din ahllariga ko’rsatgan cheksiz mehrumuruvvati, ayniqsa ibratlidir. Ko’hna tarix sahifalari buyuk bobomizning millat va elulus manfaati bobida chekkan mislsiz zahmat hamda ko’rsatgan shijoatlariga guvohlik beradi.

Inson-iymon tuyg’usi, diyonat mezoni Amir Temur hayotining mazmunini tashkil etadi. Olamning qariyb yarmiga jahongir ersa-da, u kuch-qudrat, zo’rlik, zo’ravonlikda emas, aksincha, adolatda ekanini teran angladi»¹.

Amir Temurga hurmat ajdodlarimizga bo’lgan hurmatdir. Buni O’zbekiston Prezidenti tomonidan shu sohada amalga oshirilayotgan ulkan ishlarning boshlanishidir, deb tushunish mumkin. Mustaqillik yillarida bir qancha alloma va davlat, jamiyat arboblarining tavallud topgan yillarini nishonlash amalga oshirildi. Bular jumlasiga Mirzo Ulug’bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Bahovuddin Naqshband, Imom al-Buxoriy, At-Termiziyy, Al Moturudiyy, Sharof Rashidov, Burhoniddin Marg’inoniy va boshqalar kiradi. Bularning barchasi I.A. Karimovning sa’y-harakatlarining natijasidir. U kishi Amir Temurning tavallud topganligini 660 yilligi munosabati bilan Shahrisabz shahrida olib borilayotgan ishlar bilan tanishish paytida ushbu fikrlarni bildirganligi har birimizni to’lqinlantirib yubordi. «Amir Temur-nafaqat Turon-Turkiston-O’zbekiston zaminining, balki insoniyatning eng ulug’ daholaridan biridir». Demak, uning tarixiy obrazi, tarixiy siyemosini yaratishga juda katta mehr va mas’uliyat bilan yondashmoq shart. Mening nazarimda, yurtimizda bu ulug’ ajdodimiz sharafiga bunyod etilayotgan va etiladigan yodgorliklarda u zotning qiyofasi shunday aks ettirilishi kerakki, uni ko’rgan odam haykal qaerda o’rnatilganligidan qat’i nazar, sohibqiron bobomizni bexato tan olsin.

¹ Karimov I.A. O’zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.: «O’zbekiston», 1996, 360-361 betlar.

Shuning uchun shaxsan men Amir Temur haykallarini uning hayotiy davrlari, ya’ni bolalik, yoshlik, keksalik pallasi tarzida tasvirlash taklifiga tarafda emasman. Amir Temur deganda, kishi ko’z o’ngida yaxlit, tengsiz azmu shijoat sohibi bo’lgan buyuk inson siy়mosi gavdalanmog’i lozim... Bu buyuk siymo mard, tanti, halol va g’ayratli xalqimizni birlashtirishda, jipslashtirishda, iymon-oqibatli bo’lishda, qudratli kelajagimizni ko’rishda bizga yangi-yangi kuch-quvvat va shijoat bag’ishlaydi»¹. I.A.Karimov o’zining fikr va mulohazalarida Amir Temurni xolisona baholadi. Uning sabablari bor albatta. Jumladan, Amir Temur qadriyati mustamlakachilik yillarida yo’q qilinishiga, milliy tuyg’ularimizni cheklanishiga olib keldi. Bu milliy histuyg’ularni tiklash lozim edi. Tariximizni tiklash-kishilarimiz, avlodlarimizga haqiqiy tarixni ko’rsatish va ajdodlarimizdan faxrlanib yurishga yo’l ochish edi. Bu – Amir Temurning faoliyatidan kelib chiqib, davlatimizni yangidan barpo etish, buyuk davlat uchun harakat qilish demakdir. Bu yana qaytadan jahon hamjamiyatidan munosib o’rin olish demak. Biz bularqa qisman erishdik ham. Bunda O’zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning xizmatlari beqiyosdir.

«Amir Temur tuzuklari»ni inglizchadan frantsuz tiliga tarjima qilib, 1787 yilda nashr etgan frantsuz olimi Lyangle Temur haqida shunday yozadi: «Temur xoni (Temur) siyosiy va harbiy taktika haqida risola yozgan va o’z avlodlariga juda dono tizim qoldirgan. Biz buni tasavvur ham qilmagan edik va uning urushlarini bosqinchilik va talon-toroj qilish deb baholab kelgan edik. Deyarli engib bo’lmaydigan ikki to’siq-bizdagи taassub hamda tarixiy nohaqlik Temurni bilishimizga va to’g’ri baholashimizga xalaqit berib keldi»². Hatto XVIII asrda aytilgan bu fikr hozir ham o’z ahamiyatini yo’qotgan emas.

Ushbu fikrlarga amal qilgan Prezident o’zining «Amir Temur davridagi bunyodkorlik va hamkorlik ruhi bizga namuna bo’lavversin», «Xalqimiz bor ekan, Amir Temur nomi barhayotdir», «Azaliy buyuklik maskani», «Sohibqiron kamolga etgan yurt», «Adolat va qudrat timsoli», «Amir Temur – faxrimiz, g’ururimiz» kabi asarlarida Amir Temur faoliyatiga jiddiy, ijobiy baho berdi va bu buyuk zotni e’zozlashning namunasini ko’rsatdi.

Tayanch so’z va iboralar: mo’g’ullar bosqini, isroiliylar, sayyidlar, ulamolar, mashoyixlar, fozil kishilar, darveshlar, qalandarlar, munajjimlar, sarkotiblar, so’fiylar, tujjorlar, muhandislar, Temur tuzuklari, qozi-kalom, asillik, toza nasllik, ulug’vorlik, shayxul-islom, insof-iymon tuyg’usi, diyonat mezoni.

¹ Ibrohimov A, Sultonov X, Jo’raev N. Vatan tuyg’usi. T.: 1996, 380-381-382 betlar.

² Buyuk siymolar, allomalar. 2-chi kitob. T.: 1996, 14-bet.

Hikmatlardan namunalar

Bir kunlik adolat-yuz kunlik toat-ibodatdan afzal.

X X X

Biz kim – mulki Turon, Amiri Turkistonmiz.
Biz kim – millatlarning eng qadimi va eng ulug’i
Turkning bosh bo’g’inimiz.

X X X

O’lganlarning mollarini o’z vorislariga etkazsinlar. Agar vorisi yo’q bo’lsa,
uni xayrli ishlarga sarf qilsinlar va Makkayi muazzamaga yuborsinlar.

X X X

Adlu ehson bilan jahon gulshani obod bo’ladi.

X X X

Lochinning ucharg’a madori kelmasa, chumchuqqa masxara.

X X X

Sher yigitni nomus o’ldirar.

X X X

Bir kun keladiki, zolim o’z barmoqlarini tishlaydi.

X X X

Yozilgan narsa avlodlar xotirasida qilingan ishdan ham uzoqroq yashaydi.

X X X

Adovat emas – adolat engadi.

X X X

Avval yo’ldosh – keyin yo’l.

X X X

Bel ushslashganda otangni ayama.

X X X

Bilagi zo'r – birini yiqrar, bilimi zo'r mingni.

X X X

Bir tayoqni sindirmoq mumkin,
Ko'p tayoqni bukib ham bo'lmas.

X X X

Botir jangda bilinar,
Dono mashvaratda.

X X X

Bo'lar odam yoshida bosh bo'lar,
Bo'lmas odam qirqida ham bosh bo'lar.

X X X

Vaqt o'tgandan keyin qilichingni toshga chop.

X X X

Dushmanning kulgani- siringni bilgani.

X X X

Dushman dan qo'rqlama, munofiqdan qo'rqlama.

X X X

Etimsiz ot dovon osholmaydi.

X X X

Ot mingan otasini unutadi.

X X X

Oq bo'lsang – ont ichma.

X X X

Qilich o'tkir bo'lsa-da o'z sopini kesmagay.

X X X

Toy mingan ot ham minadi.

X X X

Qo'liga qilich olgan bahona qidirmaydi.

X X X

Qonni qon bilan emas, suv bilan yuvishni o'rgan.

X X X

Eng baland minora ham erdan ko'tarilgay.

X X X

Yaxshi odam yurt tuzar, yomon odam yurt buzar.

Amir Temur.

Test topshiriqlari

- 1. Amir Temurning 660 yilligi qachon nishonlandi?**
a) 1996 yil;
v) 1993 yil;
g) 1998 yil;
d) 1999 yil;
e) 1994 yil.

- 2. Buyuk bobokolonimiz Amir Temur xalqni necha toifaga ajratib davlatni boshqargan?**
a) 12 ta;
v) 10 ta;
g) 8 ta;
d) 6 ta;
e) 4 ta.

- 3. Amir Temurning qaysi fikrda uning ma'naviy qarashi mujassamlashgan?**
a) diling Ollohdha, qo'ling mehnatda bo'lsin;
v) kuch-adolatda;
g) bilimli kishi-qimmatli oltindir;
d) kuch-bilim va tafakkurda;
e) A va V

- 4. Sohibqiron bobokolonimiz Amir Temurning Samarqand va Shahrисabzdagи haykali qachon bunyod etilgan?**
a) 1995 yil 18 oktyabr;
v) 1999 yil 18 noyabr;
g) 1996 yil 18 oktyabr;
d) 1996 1il 18 noyabr;
e) 1996 yil 18 dekabrda.

- 5. XV asrda Evropada Amir Temurga yodgorlik o'rnatilgan. Unga qanday chuqur ramziy ma'noli so'zlar yozilgan edi?**
a) buyuk Amir Temurga;
v) Evropaning xaloskoriga;
g) sohibqiron Temurga;
d) buyuk xaloskorga;
e) engilmas Amir Temurga.

6. Nima sababdan Amir Temur islom dini qoidalariga qattiq rioya qilgan?

- a) o'sha davrida ijtimoiy - siyosiy muhit shuni taqazo qilar edi;
- v) Turon zaminida xalqning ongi va tafakkurida real kuch sifatida e'tirof etilar edi;
- g) xalqni bo'ysundirish ko'zlangan edi;
- d) ma'naviy va mafkuraviy kuchga ega bo'lganligidan;
- e) A va V.

7. Amir Temurning yurishlarida qatnashib «Zafarnoma» tarixiy asarini yozgan tarixchini aniqlang?

- a) Ibn Arabshoh;
- v) Sharofiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Jomiy;
- g) Rui Gonzales de – Klovixo;
- d) Xondamir;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

8. Amir Temurning ma'naviy qarashlari mujassamlashgan «Temur tuzuklari» asari kim tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan?

- a) Alixonto'ra Sog'uniy;
- v) Bo'riboy Ahmedov;
- g) Habibullo Karomatov;
- d) Halimboy Boboev;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

9. Prezident I. A. Karimov qaysi asarida Amir Temur faoliyatiga jiddiy ijobiy baho berib, buyuk zotni e'zozlash namunasini ko'rsatdi?

- a) «Adolat va qudrat timsoli»;
- v) «Sohibqiron kamolga etgan yurt»;
- g) «Azaliy buyuklik maskani»;
- d) «Amir Temur – faxrimiz, g'ururimiz»;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

10. 1787 yilda «Temur tuzuklari» tarixiy asarini ingliz tilidan frantsuz tiliga tarjima qilgan frantsuz olimini aniqlang?

- a) Lyangle;
- v) De Klavixo;
- g) A. Setoriy;
- d) G. Braun;
- e) X. Ete.

9- Mavzu: Jadidlarning ma'rifatparvarlik faoliyati va uning xalq ma'naviyatini ko'tarishda tutgan o'rni

9.1. Jadidchilik faoliyatining paydo bo'lismidagi tarixiy sharoitlar

XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoda etishib chiqqan buyuk allomalardan davr talabidan kelib chiqib, o'z xalqini ma'rifatga chorlaganlar. Ularning eng ko'zga ko'ringan vakillari: Ahmad Donish, Berdimurod Berdaq, Muqimi, Furqat, Komil Xorazmiy, Avaz O'tar, Zavqiy, Sattorxon, Isoqxon va boshqalar edilar. Ba'zi mualliflar, shu davrdagi ma'naviyat va ma'rifat taraqqiyotining ijobiy rivojlanishini rus chorizmning O'rta Osiyoga kirib kelishi bilan bog'laydilar. Bizningcha, (ba'zi elementlardan tashqari) ma'naviyat va ma'rifatning rivojlanishi uchun chorizm bosqinchiligi xalqni tayyorlagan, ma'rifatni yanada jiddiy lashishiga yordam bergen, xolos. Aslida, bu vaqtida ma'rifatga intiluvchi tabaqalar ham O'rta Osiyo xalqlarida etarli bo'lgan. Garchand yuqorida nomlari zikr qilingan ma'rifatparvarlar bosqinchilikning birinchi paytlarida ruslar hayotiga ijobiy munosabatda bo'lgan bo'lsalar ham, keyinchalik ma'rifatparvarlik sohasidan o'tib endi demokratik, ya'ni adolatli hayot targ'ibotchilari bo'lganlar. Ular ma'naviyati yuksak bo'lмаган ba'zi mahalliy xonlarni kirdikorlarini va bosqinchilar faoliyatini ham qoralay boshlagan edilar. O'sha paytda mustamlakachilikka qarshi fikrlar o'rta tashlanayotgan edi, lekin ta'kidlash lozimki, O'rta Osiyoda ma'rifatparvarlar ham ijtimoiy tuzum sir asrorlarini ko'proq targ'ib qilishga moyil edilar. Xalq o'rtasidagi ma'naviy jihatlar nisbatan ikkinchi o'ringa tushib qolgan edi. Ma'naviy jihatlar go'yoki, o'z-o'zidan shakllanib taraqqiy etishga qodir edi. Ma'rifat orqali feodal jamiyatning kirdikorlarini ochish, ularga qarshi kurashish odat tusiga kirgan edi. Bu davr ma'rifatparvarlari hatto podshoh va hokimlarni ma'rifat tarqatishga chorladilar, ularning bu sohadagi kamchiliklarini ayovsiz tanqid qildilar. Jumladan, o'sha vaqtarda Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida elchixonada xizmat qilayotgan Ahmad Donish Buxoro amirligining mustaqil ish tuta olmaganligini ko'rib, kuyingan va «Biz o'zbeklar qachongacha g'aflat uyqusida yotamiz» degan fikrni yuritib, har bir o'zbekni ma'rifatga chorlagan. Umuman bu davr ma'rifatchilari davlat tuzumini isloh qilish kerakligini ko'proq o'rta qo'ydilar. Uni demokratlashtirishni targ'ib qilib chiqdilar. Ularni fikricha, ba'zi xonlik, amirliklar tuzumlari o'zboshimchalik, qonunsizlik va poraxo'rlik makonidir. Binobarin, ilm va din, madaniyat sohasidagi g'amxo'rlik etarli emasligini e'tirof etdilar. Shunday bo'lsada, bu davr allomalari asarlarida umuminsoniy ma'naviyat jaryonlari mavjud bo'lib, xalqqa xizmat qilish esa ma'naviyat yo'llari orqali qo'yilishi kerakligi ta'kidlangan. Masalan, Berdaq insonni vatanparvar bo'lismiga, mehnatkash bo'lismiga, halol, beg'araz, haqiqatgo'y bo'lib, qadr qimmatini e'zozlashga chaqiradi. O'zining asarlaridan birida:

Ishni ishla, tug'ilgan el uchun,
Joningni ayama, elda er uchun,
Kindik qoni tomgan aziz er uchun,
O'lib ketganingcha xizmat yaxshiroq,

deb ta'kidlagan.

Sattorxon allomaning fikricha, jamiyat rivojlanishining asosi ilm va fikrdir. Demokratik jarayonlar soxta bo'lmasligi lozim. Bu o'rinda allomaning chorizm tomonidan mahalliy joylarda o'tkazgan saylovlarini tanqid qilishi bejiz emas edi. Sababi, o'tkazilgan saylovlar adolat nuqtai-nazaridan bo'lmasdan, balki, adolatsizlikka asoslangan edi.

Mutafakkir Furqat ham o'zining ilg'or fikrlari bilan ajralib turadi. O'sha davrdagi xon va beklarning o'zaro urush va nizolarini ma'rifat orqali qoralagan. O'zbekiston xalqini ilm va fan yutuqlariga ergashtirib, jaholat, zulmatdan yorug'lik dunyosiga olib chiqish mumkinligini ko'proq ta'kidlagan. Sattorxon va Furqatning ilg'or fikrlari o'z zamondoshlari Muqimiylar, Zavqiy, Anbar Otin kabi ma'rifatparvarlar tomonidan qo'llab quvvatlandi. Bu allomalar ham xalq ommasini ma'rifatparvar bo'lishga chaqirdilar. Aholini nochor ahvoldan qutqazishni birdan-bir yo'li boylar va ruhoniylarning o'zboshimchaligini tugatishda deb bildilar. Boylar ayshu ishratda yashab, mehnatkash dehqonlar va ishchilar zulmatda qolganligini oshkora aytdilar. Ular ezuvchilarni fosh qildilar. Ularning ta'kidlashicha, zulm va jazodan qutulishning yo'li aql va idrok, ma'rifatdir. Jumladan, Zavqiy ta'limotida ham «dono va ma'rifatparvar» hukmdorlar haqida jiddiy fikrlar berilgan. Uning fikricha, adolatli jamiyat qurish faqat hukmdorlarga bog'liq. Hukmdor xudbin, bilimsiz bo'lsa mamlakat vayronaga aylanadi. Dono, odil va ma'rifatli kishilar hokimiyatni boshqarsa ahvol mushkul bo'lmaydi. Mazkur ma'rifatchilar ta'limoti O'rta Osiyo davlatchiligi va jamiyat taraqqiyotiga katta ta'sir etibgina qolmadni, balki xalqni siyosiy ongini rivojlanishiga ham yordam beradi. Bu jarayonni XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida O'rta Osiyoda keng tarqalgan jadidchilik (jadidchilik so'zi, arabcha so'zdan olingan bo'lib yangi demakdir), faoliyatining avj olganligida ko'ramiz.

9.2. Jadidlarning faoliyatining mazmuni-mohiyati va maqsadlari

Jadidlarning asosiy maqsadi, xalqimizni ma'rifat maskanlaridan foydalanishga undab, ularni dunyoviy bilim olish uchun chorlagan edilar. Ming afsuslar bo'lsinki, ma'rifatchilarning ko'pchiligi ilg'or fikrlari uchun quvg'in qilindilar, otib o'ldirildilar. (Bu o'rinda biz tarix fanlari doktori Islom Yo'ldoshevning «Istiqlolga intilgan qalblar nidosi» (T., 1993), nomli o'ta dolzarb asarini o'qishga tavsiya etamiz).

O'rta Osiyo xalqlari XX asr boshida rus tarixchilari g'irt savodsizdir deb ma'lumot berishgan. Jumladan, o'zbek xalqining 98 foizi, qirg'izlar, qozoqlar, tojiklarning 100 foizi savodsiz degan xulosaga kelishgan, vaholanki, yuqoridagi fikrlardan xulosa qilishimiz mumkinki, xalqimiz o'tmishda ham savodlilikka intilgan, ma'rifatga erishishning turli vositalaridan foydalanganki, natijada buyuk allomalar etishib chiqqan, o'quv muassasalari, bilim maskanlari, madrasalar tashkil etilgan. Hali 1894 yildayoq maktab va madrasalar soni 6445 ta bo'lган bo'lsa, 1913 yilga kelib ularning soni 8000 ga yaqinlashgan edi.

Birgina Xiva xonligi hududida 2000 dan ziyod maktab 132 ta madrasa ish yuritgan, Qo'qonda 182 ta madrasa, 1709 ta maktab, Samarqandda 250 ta masjid, 40 madrasa, Buxoroda 400 masjid va maktab, 350 ta madrasa, Toshkentda 300 masjid, 60 ta maktab va 18 ta madrasalarda xalqimizning minglab yoshlari ilm olganlar, ma'rifatli bo'lganlar.

Ma'rifatli bo'lishni «Taraqqiy», «Xurshid», «Tujor», «Samarqand», «Oyna», «Buxoroiy Sharif», «Umid» kabi gazetalar orqali amalga oshirganlar. Ularning mazmuni sharqona ma'naviyatimizga, qadriyatlarimizga e'tiborni qaratilgan. Xalqimiz o'rtasida shuhrat topgan dostonchilik, adabiyot, san'at, baxshichilik sohalari ham mahalliy joylarda ma'rifat uchun xizmat qilgan. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, ma'rifat rivojlanishi insonlarning ma'naviyatiga ta'sir qilmay iloji yo'q edi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lган jadidlar harakati avvalo ma'rifatparvarlik g'oyalarini o'rta tashlash bilan cheklanib qolgan bo'lsa, XX asr boshlariga kelib, bu harakat namoyondalari o'zlarining ma'rifatparvarlik g'oyalarini endi Turkiston jamiyatining taraqqiyotida muhim o'rinn tutadigan siyosiy, g'oyaviy jihatlarga e'tiborni qaratdilar. Ular progressiv siyosiy oqim sifatida shakllandilar. Hamda iqtisodiy, siyosiy mustaqilligini ta'minlashdek ezgu niyatlarni o'rta tashladilar. Tub aholi manfaatlariga oid va mahalliy aholining qadriyatlariga zid keladigan jarayonlardan uzoq bo'lish harakatini qo'llab - quvvatladilar. Jahon taraqqiyotidan orqada qolganlik, iqtisodiy yuksalish yo'qligi natijasida umuminsoniy ma'naviyatlar rivojlanmayotganligi, mustamlakachilik ta'siri kundan-kunga oshib borayotganligi jadidchilik oqimining vakillari diqqat markazida bo'ldi.

XIX asrning ikkinchi yarmidagi jadidlar harakati ma'lum ma'noda stixiyali tarzda bo'lган bo'lsa XX asr boshlarida uyushgan guruuhlar paydo bo'lib ularning dunyoqarashi tubdan farq qilar edi. Ana shunday guruhlarning vakillari: Munavvar Qori Abdurashidxon o'g'li, Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo'jaev, Toshpo'lat Norbo'tabekov, Abdurauf Fitratlar edi.

Turkistonda jadidlarning otasi Mahmudxo'ja Behbudiy hisoblangan, chunki u kishi jadidlarni birlashtiruvchigina emas, balki jiipslashtiruvchi o'rinni olgan.

Jadidlarning g'oyalari Rossiyadagi «Narodnichestvo» tashkiloti kabi tor g'oyalalar asosida emas balki, ijtimoiy jihatdan boy va rangbarang g'oyalalar asosida tuzilgan edi. Ularning g'oyalalarida jamiyatni to'lqinlantiradigan, harakatga keltiradigan vazifalar qo'yilgan edi. Ma'naviy yuksaklikka erishish, dinning mohiyatini to'g'ri anglab etish, huquqiy, iqtisodiy demokratik jarayonlarni tezlashtirish. Taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga chiqish sohalari markaziy o'rnlarda edi. Ayniqsa milliy o'zlikni yo'qotmaslikka, uning rivojlanishini ta'minlash maqsad edi.

Ta'kidlash lozimki, 1905 yil Rossiya burjua revolyutsiyasi Turkiston jadidlariga katta ta'sir ko'rsatgan. Shu sababli, ularning faoliyatida mamlakatdagi taraqqiyotni islohotchilik yo'li bilan rivojlantirishni o'ylaganlar. Toshkentda Munavvar qori, Abdulla Avloniy, Ismoil Obidov, Ubaydulla Xo'jaev, Samarqandda Behbudiy, Hojimuin, Akobir Shomansurzoda, Saidahmadxo'ja, Siddiqiy, Namanganda Nosirxon to'ra, Qo'qonda Obidjon Maxmudov, Ashurali Zohiriya va Po'lat Soliev kabi jadidlar qizg'in ish olib borganlar. Ular tinch yo'l bilan namoyishlar uyushtirishga, Davlat dumasida ochiq chiqishlar bilan qatnashishga, Chor hukumatidan o'z xalqi manfaati uchun siyosiy yon berishlarini talab qildilar. Ammo, Chor Rossiyasi bu talablarga turli nayranglar bilan rad javobini beradilar. Boz ustiga, Panturk, Panislomizm g'oyalaring mutlaqo qoralab, uning zararligi haqida bo'xtonlar uyushtiradilar. Shuning uchun ham, o'sha paytda jadidlarning birlashish zururiyati tug'ildi. Natijada Behbudiy «Xurshid» gazetasida maqola bostirib yagona musulmonlar partiyasini tuzishni taklif qilgan edi. 1905 – 1917 yillar jadidlar uchun ham sifat ham miqdor jihatdan o'sish davri bo'lgan va mustahkamlangan shu davrlarda jadidlarning mustamlakachilikka qarshi harakatlari ham sezilari darajada bo'lib, Chor Rossiyaning agenturasi undan xabardor bo'lib turgan. Jadidlar birinchi jahon urushi yillarda ham davlatning boshqarishning parlamentar monarxiya tuzumi, fuqarolarning davlatni idora qilishda qatnashishlari, mahalliy tub aholining haq - huquqlarini kengaytirilishi, asosiy demokratik jarayonlarni ta'minlash milliy matbuot erkinligiga erishish kabi siyosiy talablar bilan chiqgan edilar. Ular Rossiyadagi fevral inqilobi yangi davlat tuzumidan so'ng Rossiya federativ davlatidan ko'pgina engilliklar olish uchun umid qilgan edilar. Shulardan biri Turkistonning muxtoriyatga erishishni amalga oshirish edi. Afsuski, voqealar natijasi bunday o'zgarishga olib kelmadи. Turkiston Rossiyaga qaramligicha qolaveradi.

Jadidlarning beqiyos xizmatlaridan yana biri xalq manfaatini zamon talablari darajasiga olib chiqishi, farzandlar avlodlar barkamolligini ta'minlash edi. Yoshlarning kelajagining bilim saviyasini, ma'naviyatini ko'tarish edi. Biroq Turkistondagi oktyabr voqealarini jadidlarning orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishga yo'l qo'yadi. Shunday tazyiqlarga qaramay jadidlar bolsheviklarning har biri millat o'z taqdirini o'zi belgilashi haqidagi deklaratsiyasidan foydalanib, Qo'qonda Turkiston muxtor Respublikasi Turkiston muxtoriyatini e'lon qildilar. Ammo, bu muxtoriyatning faoliyati uch oy davom etgandan so'ng qonli fojialar bilan tugatilgani tarixdan ma'lum. Ayniqsa, ana shu harakatdan so'ng jadidlar jiddiy ta'qib qilina

boshlaganlar. Bu ta'qib 1937-38 yillargacha keldi va jadidchilikning deyarlik barcha namoyondalari otib tashlandi surgun qilinib yo'q qilib yuborildilar. Shunday bo'lishiga karamasdan ularning ezgu-niyati va hatti-harakatlari halq qalbidan mustahkam o'rinni oldi. Ular qoldirgan boylik endilikda ma'naviy ozuqa sifatida insonlarni bahramand qilib kelmoqda. Hozir esa ularning faoliyati namuna sifatida qadrlanmoqda. Ko'plarga o'rnak bo'ladigan millat haqida o'xshash, uning mehri bilan yashash, unga sodiq bo'lish borasida tengi yo'q jadidchilardan beri Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) edi. Jadidchilar ichida Behbudiy otashin xalqparvar, iste'dodi va qobiliyati bilan boshqalardan ajralib turar edi. Davlat arbobi Fayzulla Xo'jaev u kishi to'g'risida shunday degan edi: «Buxoro va Turkistonning o'zbek jadid tashkilotlari... bir qancha qulayliklarga erishish uchun butun kuchlarini sarfladilar. Bu borada Mahmudxo'ja Behbudiy nomini eslamasdan o'tib bo'lmaydi. Siyosiy, ijtimoiy faoliyati va bilimining kengligi jihatidan Turkistonning o'sha vaqtagi jadidlardan unga teng kela oladigan kishisi bo'lmasa kerak».

Behbudiy ham boshqa ilg'or fikrlovchi jadidlарdek feodal monarxiya tuzumini qoraladi. Mazkur tizim o'rta asr qoloqliklari darajasida deb bildi. Feodal tuzumga qarshi chiqgan Behbudiy Vatani, xalqi, millatini ma'naviy-siyosiy manfaatlarini yoqlab chiqdi. Buning uchun yangicha maktablar ochish, unda aniq fanlarni o'qitish, yoshlarga Evropacha ta'lim berish, matbuot erkinligi, so'z erkinligiga erishish kabi o'sha davrning talabidan kelib chiqgan shiorlarni o'rtaga tashladi. Shu munosabat bilan Behbudiy tomonidan aytilgan ushbu otashin fikrlarga diqqatni qaratsak, Behbudiy niyatlarini darhol tushunamiz.

«... Mustabid amirlikning ag'dariladigan kuni yaqin, yuksak adolat tantanasiga va mehnatkash xalqning barcha ezuvchilar ustidan g'alabaga ishonchi bizga jismoniy azob – uqubatlarga bardosh berish uchun kuch - quvvat bag'ishlaydi. Agar bizning hayotimiz hurriyat va xalqning baxt – saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo'lsa, biz o'limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz. Bizning o'limimiz uchun eng yaxshi qasos mustabid amirlikni tezroq yiqitish va mazlum Buxoro xalqini ozod qilish bo'ladi...».

Bunday inqilobiy qarashlar Buxoro va Xiva xonliklarini sha'niga aytilgan fikrlar bo'lib hakiqiy vatanparvarning faxri edi.

Behbudiy butun faoliyatini savodsizlik, johillik, qoloqlik madaniyatsizlikni tugatishga qaratdi. Milliy ma'naviyatni ko'tarish amaliy orzusiga aylandi. Mustamlakachilik siyosatiga qarshi chiqdi. Ming afsuslar bo'lsinki, o'sha suronli yillarda Behbudiy va uning o'rtoqlarini yashirin holda turli nayranglar bilan o'ldirib yuborganlar. O'z o'limini bilgan Behbudiy quyidagi vasiyatlarni yozib qoldirgan: «Ey Turkiston maorif ishlarida bo'lg'on o'rtoq va o'g'lonlarim! Men o'zim garchand bandiy bo'lsa-da, sizlarni esimdan chiqarmayman va sizlarga bir oz vasiyat qilib o'taman:

Mani sevar o'rtoqlarim-manim so'zlarimni quloqlaringizga olingizlar! Biz ikki oydan beri Buxoro shahrida bandi bo'lib yurib, oxir 10 kundan beri bu erda (Qarshi shahrida) bu zolimlarning qo'lig'a tushib, bandi bo'ldik. Jadid, kofirlik otini ko'tardik. Sipohlar ichida tilchilik otini ko'tardik. Bu erdan qutilmog'imiz gumon bo'ldi.

O'rtoqlarim-Siddiqiy, Ayniy, Fitrat, Qurbi va Akobir Maxdum va o'g'lolarim Vadud Mahmud, Abdulqodir Shakuriy – sizlarga vasiyat qilaman! Maorif yo'lida ishlayturg'on muallimlarning boshini silangizlar! Maorifga yordam etingiz! O'rtadan nifoqni ko'taringiz! Turkiston bolalarini ilmsiz qo'y mangizlar! Har ish qilsangiz jamiyat ila qilingizlar! Hammaga ozodlik yo'lini ko'rsatingizlar! Bizdek maorif qurbanlarini yo'qlangizlar! Buxoro tuprog'iga tezlik ila yo'l boshlangizlar. Ozodlikni tezlik ila yuzaga chiqaringizlar! Bizning qonimizni zolim beklardan talab qilingizlar! Maorifni Buxoro tuprog'ida joriy qilingizlar! Bizning otimizga maktablar ochingizlar! Bizlar ul chog'da qabrimizda tinch yotarmiz! Maning o'g'lolarimg'a salom etkazingizlar! Bu hamrohlarimning avlodlaridan xabardor bo'lingizlar. Ushbu vasiyatlarimni yozib Ahmadga berdim».

Behbudiyning dunyoqarashi, yuksak ma'naviyat uchun kurashi uning 1912 yilda yozilgan «Padarkush» p'esasida o'z aksini topgan. Savodsizlik, tarbiyasizlik, madaniyatsizlik, ahloqiy buzuqlik tufayli johil bola o'z padari-otasinin o'ldirishgacha borib etganini tasvirlovchi bu asar keyinchalik ko'plab yozuvchilarga qattiq ta'sir etgan. Jumladan, Abdulla Qodiriy: 1913 yillarda chiqqan «Padarkush» p'esasi ta'sirida «Baxtsiz kuyov» otliq teatr kitobini yozib yuborganimni o'zim ham payqamay qoldim, deb ta'kidlagan Ahmad Aliev. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat. Toshkent «Akademiya» 2000 y. Mahmudxo'ja Behbudi Samarqand viloyatining Siyob tumanidagi Baxshitepa qishlog'ida ruhoniy, ziyoli oilasida dunyoga kelgan. U arab, fors tillarini o'rgangan. Dastlab Abdurahmon Jomiyning «sharhi Mullo» buyuk ma'naviyat merosni singdirgan bo'lsa ajab emas. U o'zining dastlabki asarlarining birida: «Meni, shaxsan eng ko'p qiyaydig'an narsa-umuman bemaqsad, yoki faqat pul, foyda, pora, shuhratparast va amalparastlik «kasalliga» mubtalo bo'lган va faqat o'zinigina o'ylaydig'an tabaqalardir... Zotan jamiyatni kemiradigan shular, taraqqiyotni orqaga suradiganla shular, xalqi, vatani, butun jamiyat kelajagini sotadiganlar shular, ochig'ini aytganda, xoin va sotqinlar shular... degan fikrlarni bejiz aytmagan.

Behbudi tashabbuskor muallim sifatida ham shakllandi. Insonning ma'naviy qiyofasini shakllanishiga e'tiborni qaratdi. Undan meros qolgan ilmiy ishlarga, adabiyot va san'at durdonalarga diqqat qilgan ziyoli ekan shunga guvoh bo'ladi. «... Endi kelayluk shu jaz'iy tashabbuhlar mas' alasigakim. Bu: kursi (stul)ga o'turmoq, qoshiq va chinakcha iste'mol etmak, medal taqmoq, havoning issiqligi uchun bosh yalong'och o'tirmoq kabi shaylardan iboratdir. Agar bu juz'iy tashabbuhlar ila-da kishi kofir bo'laversa, bas, er yuzida bir nafar ham musulmon qolmasligi lozim kelur...»

«... Rasm va odatlar ichida foydali va yaxshisi bo'lg'onidek, yomon va zaralisi ham mutloqo bordur. Chunonchi, burung'i zamonda isrofli to'y va aza, bazmi juvon kabi yomon odatlarimiz yo'q edi. So'ngra paydo bo'ldi: qabul etduk. Endi muning qo'lidan osonlik ila qutula olmay turubmiz...»

Mahmudxo'ja Behbudi safdoshlaridan biri Abdurauf Fitrat (1886 – 1938) ham ba'zi safdoshlari singari oktyabr inqilobidan najot kutganlardan biri edi. Fitratning faoliyatini olimlar ikki davrga bo'ladiilar XX asrning 10-nchi yillarigacha bo'lgan va undan keyingi 25-30 inchi yillar davridir. Ming afsuslar bo'lsinki, o'zbek xalqining

jonkuyarlaridan biri bo'lgan Fitrat ham jirkanch qo'llar orqali qatl etildi. U o'z davrining buyuk allomasi sifatida iz qoldirdi. O'z ijodini xalq manfaatiga bag'ishladi. Xalq o'rtasida yirik olim, adabiyotda shoir, yozuvchi, dramaturg va siyosatchi sifatida tanildi. U anchagina hikoya, p'esa, she'r, adabiy-tanqidiy maqolalar, qo'llanmalar, darsliklar yozib xalqni manfaatini yuksaklikka ko'tarishga intilgan inson sifatida shakllangan edi. Sobiq sovet tuzumi davrida Fitratdan qolgan ma'naviy merosga e'tibor qaratilmadi. Mazkur tuzum davrida o'qib bilim olganlar Fitratning entsiklopedik, ya'ni har tomonlama taraqqiy etgan faoliyatidan xabarsiz qoldilar. Shukrlar bo'lsinki, mustaqillik tufayli Fitratning faoliyatini ifoda etgan bir qancha asarlar hayot yuzini ko'rmoqda.

Fitratning qarashlari «Qiyomat», «Me'ros», «Qiyshiq eshon», «Zaynab va Zayid», «Oq mozor», «Bedil», fors shoiri asarlarida «Ro'zalar», «Shaytonning tangriga isyonи», «Hind ixtilochilari» kabi drammalarda o'z aksini topgan. Bu otashin asarlarning barchasida ma'rifatparvarlik yuksak ma'naviylik g'oyalari haqida fikr yuritiladi. Masalan, u o'zining «O'gut» she'rida quyidagi fikrlarni bildiradi:

«Og'ir yigit! Sening go'zal, nurli ko'zingda,
Bu millatning saodatin, baxtin o'qidim.
O'ylishing-da, turishing-da, hamda o'zing-da,
Bu yurt uchun qutilishning borlig'in ko'rdim.
Turma, yugur, tinma, tirish, bukulma, yuksal!
Hurma, kirish, qo'rhma, yopish, yurma, qo'zg'ol!
El yo'lini to'sib turg'on eski bulutlarni
Yondirib qo'y, yirtib tashla, barchasin yo'q et!
Qila olmasang shu ishlarni
Sening uchun xo'rlikdir bu!...
Yiqil, yo'qol, ket!»

Olim bu fikrlari bilan barcha insonlarni ilm-ma'rifatga chorlaydi. Jaholatni qoralaydi. Ana shunday otashin chaqiruvni sezgan buyuk Cho'lpon ta'kidlashicha o'sha davrdagi barcha ilg'or kishilar Fitratning «Chin sevish» pesasini sahnada ko'rib hayratda qoladi. Cho'lpon u haqda taqriz yozadi va asardan mammun bo'lganini quyidagicha ifodalaydi:

«Yaqinda o'zbek sahnasi ulug' va ulug'ligi qadar yuksak va go'zal tomosha G'pesaG' ko'rdi... Asar to'g'risida fikr yurituvdan qochmoqqa va o'zimni tortishga majburman. Tegishincha taqriz qiluvni men bajara olmayman».

Pesa to'g'risida shuningdek fikrni mashhur adib Vadud Mahmud ham quyidagicha izohlaydi: «O'zbek sahnalarida shu kungacha o'ynalib kelgan pesalarning eng kuchlisi. Eng buyugi o'tkir yozuvchimiz Fitratning hind turmushidan olib yozilgan «Chin sevish» pesasi ekanligini hamma iqror etsa kerak». G'«Qizil bayroq» gazetasi, 1920 yil, 12 dekabrG'.

Hozirgi davrda Fitratning faoliyatini o'rganuvchilar soni kundan-kunga oshib borayotir. Chunki, 80-90 yillar oldin Fitratning ma'naviyat, madaniyat, adabiyot, maorif va siyosat haqidagi fikrlari hozir dolzarb bo'lib qoldi. Fitratdagi oddiy, lekin falsafiy fikrlar biror kishini loqayd qoldirmaydi. Yuksaklikka ko'tarilishiga yordam

beradi. Masalan, «Hind sayyohi» asarida G’arbiy Evropa madaniyati bilan yaqindan tanish bo’lgan sayyohni fikrlari orqali mamlakat aholisini qaloqlikdan chiqishga, ilm-fanni egallahsga, texnikani, sanoatni rivojlantirishga etuk mutaxassislar darajasiga ko’tarilishga chorlaydi.

Sayyoh qarshiliklarni hunarmandligiga qoyil qolib, «Obdasta yasash, gilam to’qishda, ayniqsa olacha to’qishda tengi yo’qdir. Biroq shu narsalarni eski usulda tayyorlaydilar, ya’ni korxonalarning barchasida qo’l mehnatidir. Mashina bilan ishlovchi korxonalarga ega emaslar va hatto uni yaratish hayoli ham yo’q»- deb achinadi, ustalarining loqaydligidan noliydi. Kuyib-pishib, hind sayyohi: Qarshida to’qilgan olachaning Rossiyaning ipak matolariga nisbatan pishiq, deb ta’kidlasa ham hunarmand pinagini buzmay «o’n yildan keyin kim tirigu, kim o’lik» deydi, loqaydlik bilan. Sayyoh o’z fikrini oxiriga etkazish uchun erinmasdan kelajakni yodiga keltirmagan hunarmandga yana shunday yondoshadi:

«Faraz etaylik, sizning umringiz oxiriga etmoqda, biroq farzandlaringiz, nabiralaringiz nima bilan shug’ulanishadi? Usta janoblari, siz kelajak haqida fikr yurtishni unutmang, chunki dunyoda har bir kishi o’z ishining kelajagi bilan bog’liq. Kelajakni o’ylash – olamning obodonligi boisidir...».

Bu fikrlar bilan Fitrat sayyoh fikri orqali yuksak ma’naviyatga barcha sohalardagi taraqqiyotsiz erishib bo’lmasligini hayotiy voqealar bilan tasvirlaydi va xalqga sodda va ravon qilib etkazadi. Mamlakat ravnaqi faqat xom mahsulot etishtirishda emas balki, uni mamlakat ichkarisida qayta ishlashda ekanligini ukdiradi va sayyoh tilidan aytadi: «Ko’rdingizmi, o’sha vaqtida turkistonliklar zarur hamma mollarni o’zları tayyorlar edilar, uzlari sarflar edilar pulni o’z cho’ntaklaridan chiqarib, o’z cho’ntaklariga solar edilar. Hatto bir chaqa ham pulni begona fabrikantlar cho’ntagiga solmaganlar. Biroq Evropa fabrikantlari birin-ketin nozik surp, harir dokalar va chiroyli, gulli chinni tovoqlar ishlab chiqarib butun Turkiston bozorlarini to’ldirdilar. Aholi birdaniga bunday serjilo mollarga qarab intildi va doka, karvos va o’zlarining boshqa milliy tovoqlariga qaramay qo’ydi. Oqibat shu bo’ldiki, ... to’quvchi do’konlar... korxonalar to’xtab qoldi, ularning egalari istasa – istamasa, ishlaridan qo’l uzib, ayrimlari hammomlik bilan shug’ullanadilar, boshqa birovlari esa, xizmatkor bo’lib, hasrat va nadomat bilan bir dunyodan ko’z yumdilar...»

Umuman, Abdurauf Fitrat o’zining butun faoliyatini, insonlar kelajagiga bag’ishladi. Uning barcha asarlari ommani faqat ma’rifatli bo’lishga chorlabgina qolmadidi. Balki, barcha insonlarni ogohlilikka chaqirdi. O’zbek xalqi boy madaniy, ma’naviy merosga ega ekanligini targ’ib qildi. O’z asarlarida yuksak ma’naviylik nazariyalarini yaratar ekan, butun umri davomida ularni hayotga tatbiq etishni namunasini ko’rsatadi.

Jadidlarning yirik vakillaridan yana biri Munavvar qori Abdurashidxonovdir.

Odatda xalq o’rtasida «ismi jismiga» monand degan fikr yuradi. Aynan bu fikr Munavvar Qori Abdurashidxonova o’z aksini topgan desak, xato bo’lmaydi. Ya’ni «Munavvar degan, nur olgan, nurlig» bo’lsa «qori» so’zi Qur’onni maromiga etkazib o’qiydigan inson tushunilgan. Zero, Munavvar Qori butun faoliyatida nur tarqatishi yoki aniqroq aytadigan bo’lsak insonlari shu nur orqali ziyoli bo’lishga chorladi. O’zi esa barchaga namuna bo’ldi.

Munavar qori XIX asrning 90-yillarida jadidlar harakatiga qo'shilgan bo'lsa, XX asrning birinchi yillaridayoq «kusuli jadid» mактабининг биринчилар qаторида oчиб ular uchun darslik va qo'llanmalar yozib nashr qildi. «Adibi avval», «Adibi soniy», «Tavjid al-qur'on» (qur'on,qiroati), «Er yuzi» (geografiya) kабilar shular jumlasidandir. Bu darslik va qo'llanmalar 1901-1917 yillar ichida 9-10 marotabagacha alohida-alohida nashr etilgan. Bu nashrlarning hammasilda marifatparvarlik g'oyalari o'z aksini topgan edi. Alloma o'sha vaqtida ma'rifatpvarvarlikka oid barcha ishlarni qo'llab-quvvatlagan edi.. 1914 yilda Toshkentda M. Behbudiyning «Padarkush» dramasi birinchi marotaba sahnaga qo'yilishi munosabati bilan u kishi tomosha oldidan teatr va uning ahamiyati haqida nutq so'zlaydi. Shu munosabat bilan Munavvar qorining fikrlari haqida shoir Tavallo quyidagi she'rni yozgan:

«Cho'h munavvar etti olamni Munavvarqorimiz,
Ko'rdimiz ravshanlig'idin fe'limiz, atvorimiz.
Ibrat oling yoshlar, deb to'kdi ko'zdin yoshlar,
Nutqida tahrir edub, bizlarni yo'qu borimiz.
Chun ko'nguldan biz eshitduk, chin- achig' aytgan so'zi,
Shuncha bid'atlarni bilduk, voy, biz iqrormiz».

Munavvar Qori «Taraqqiy» gazetasining tashkilotchilaridan va «Xurshid» gazetasini esa asosichisi hisoblanadi. «Sadoi Turkiston» gazetasini chiqarishda ham jonbozlik ko'rsatgan. 1917 yilga kelib «Nojot» gazetasini chiqargan. Uning tashkilotchiligi, milliy manfaat izidan harakat qilishi oliy vatanparvarlik namunasi edi. Ushbu amalga oshirgan ishlar bir insonning bir umriga tugul balki avlod – avlodlarga etar edi. Ammo, Munavvar qori mazkur qilingan ishlar bilan cheklanib qolmadni. Faoliyatini qizg'in davom ettirdi. Ma'rifatparvar jadidlar bilan birga «Jamiyat xayriya»ni tuzdi. 1913 yilda esa «Turon» jamiyatini ta'sis etdi. «Maktab», «Nashriyot» kabi shirkatlar ochdi. Maqsad yoshlarni o'z Vatani uchun harakat qilishga. Vatparvar bo'lishga chorlash edi. Ularni xorijiy mamlakatlardagi dunyoviy bilimlardan xabardor qilish hamda ularning o'zlarini xorijiy mamlakatlarda bo'lib kelishga yordamlashish edi.

Munavvar Qorining maqola va asarlarida nafaqat o'zi yashagan davr yoki kelajak aks etgandi balki, tarixiy voqeallar ham keng yoritilgandi. Jumladan «Adibi Soniy» asaridagi hikoyalaridan birini «Iskandar va Arastu» faoliyatini sodda, qiziqarli qilib o'quvchilarga etkazadi: «O'tgan zamonda Iskandari Rumiy bir podshoh bor edi,- deb boshlanadi hikoya. – Oning Arastu otlig' bir olim va dono otasi bor edi. Iskandar Arastuni o'z yoniga bosh vazir qilub, barcha mamlakat ishlarini topshurmish edi. Bir ish qilsa, shuning maslahati ila qilur edi. Eshikdan kelsa o'rnidan turub, joy berur edi. O'zining otasidan ortuq izzat va hurmat qulurdi. Bir kun vazirlardan biri Iskandardan so'radiki: «Na uchun Arastuni otangizdan ortuq izzat qilursiz?»

Iskandar aytdi:

«Otam go'yoki meni osmondan erga tushurdi. Ammo ustozim Arastu meni erdan osmonga ko'tardi. Ya'ni otam meni dunyoga kelmog'imga sabab bo'ldi. Shuning uchun ustozimni otamdan ortuq izzat qilurman».

Bu hikoyadan hissa nadur? Bolalarning o'zlarini topsunlar».

Munavvar qorining boshqa asarlarida ham hayotiy voqealar kundalik turmush tarzi, siyosiy jarayonlar mohirlik bilan yortilganki, bunday holat yuksak ma'naviyatlilikdan dalolat edi. Shu munosabat bilan aytish mumkinki, Munavvar qori Abdurashidxonov o'zbek matbuotini asoschilaridan hamda millat tarixida birinchi navbatda yirik jamoat va siyosiy arbob sifatida tarixda qoldi. Butun faoliyatini Millat va Vatan taraqqiyotiga bag'ishladi. Ozodlik uchun timmay kurash olib bordi. O'z vaqtida u oktyabr inqilobini tashvish va sarosima bilan kutib olgan edi. Qo'qon (Turkiston) muxtoriyati tarafida bo'ldi. Muxtoriyat bostirilganda, u afsuslandi. Xalqni ma'lumotli qilish yo'llarini izladi.

1918 yilning bahorida Turkiston xalq dorilfunining musulmon bo'limini tuzdi va unga qisqa muddatda bo'lsa ham rektorlik qildi, tilshunoslikdan dars berdi. Bu bilan O'zbekistonda Oliy ta'limni paydo bo'lishida o'z hissasini qo'shdi.

Aytish lozimki, Munavvar qori sho'rolar tuzimiga qarshi chiqqan va qarshi kurashgan vatanparvarlardan edi. Natijada, o'sha paytdagi qora kuchlar qamoqqa oladilar. Lekin biroz vaqtan so'ng qamoqdan ozod qilinadi. So'ng o'qituvchilik bilan shug'ullanadi. Jadidlar tarafdoi sifatida to'la faoliyat ko'rsatadi. Ikkinci marotaba ya'ni 1929 yilda yana qamoqqa olinadi. Unga millatchi «tamg'a»si bosilib 1931 yilda xalq dushmani sifatida otib tashlanadi.

Ming afsuslar bo'lsinki, xalq uchun butun umrini bag'ishlagan inson oxir – oqibat xalq dushmaniga aylantiriladi.

Bunday holatlar o'sha yillarda avjiga chiqib xalq farzandlari turli niqoblar bilan yo'q qilinadilar. Maqsad jadidlarning ezgu niyatları, ya'ni xalk ma'rifatparvarligi, yuksak ma'naviyat homiylarini tugatish edi. Ma'lum ma'noda o'sha davr laganbardorlari bunga erishdilar ham.

Jadidlar harakati faoliyati tahlili shuni kursatadiki, jadidlarning barchasi ham ezgu niyatlar asosida harakat qilganlar, xalq manfaatini ko'zlab ishlaganlar. Shu sababli, ham aytish mumkinki, jadidlar faoliyati jamiyat, millat, Vatan taraqqayotiga loqayd bo'limgan har bir insonga namunadir. Bular faoliyati yuksak ma'naviyat haqida o'ylagan har bir shaxsning idealidir.

Tayanch so'z va iboralar: jadid, millat, inson erki, matbuot, ma'naviy saviya, ma'naviy g'oya, milliy ma'naviyat, mustaqillik va jadidchilik, padarkush, hind sayyohi, dunyoviy ilm, qori, vasiyatnoma.

Hikmatlardan namunalar

Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdurdur. Zeroki ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur. Savobni gunohdan, hololni haromdan, tozani murdodan ayurub berur. To'g'ri yo'lga rahnamolik qilib, dunyo va oxirotda mas'ul bo'limizga sabab bo'lur.

XXX

Bizlarni ilm jaholat qorong'uligidan qutqarur. Madaniyat, insoniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzuq ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va adob sohibi qilur. Alloh taolloga muhabbat va e'tiqodimizni orttirur. Janobi Haqning azamat va qudratini biodirur.

XXX

Alhosil, butun hayotimiz, salomatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmgaga bog'liqdur. Payg'ambarimiz «Ilmga amal qilguchilardan bo'lingiz, naqd va rivoyat qilguvchilardan bo'lmangiz», debmushlar.

XXX

Jaholat deb o'qimagan, bilinsiz, hech narsaga tushunmaydigan nodonlikni aytilar. Jaholat insoniyatning eng zo'r dushmani va yomon xulqlarning boshlig'idur. Ilm va ma'rifat sohiblari fazlu kamollari soyasida har bir ishni tadqiq va mushohada ila qilurlar. Ammo johillar esa, bir narsaning mohiyatini mushohada qilurg'a aql va farosatlari etmas. Chunki jahl xudbin va zohirparastdan iboratdurdur. Har bir narsaning xaqiqati aqli irfon, ilmu donish, sohiblariga maxsus bir maziyat, johil va nodonlarga zo'r aziyatdurdur.

A.Avloniy

Mavzu bo'yicha test savollari

1. Jadidchilik harakatining etakchisini belgilang?

- a) Zavqiy;
- v) Mahmudxo'ja Behbudiy;
- g) Munavvar Qori;
- d) Hamza Xakimzoda Niyoziy;
- e) Fayzulla Xo'jaev.

2. Milliy maqsad, g'oya haqida fikr yuritganda nimani tushunasiz. Maqsad bu - ...

- a) tarix xotirasi;
- v) qonunga rioya etish;
- g) millatni birlashtiruvchi bayroq;
- d) fuqarolarning haq - xuquqi;
- e) ilm-ma'rifatga intilish.

3. Umumbashariy va milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirish negizida nima kuchaytiriladi?

- a) milliy ong va demokratik tafakkur tarbiyasi;
- v) huquqiy tarbiya;
- g) davlatchilik tizimini mustahkamlash;
- d) fuqarolarning haq - huquqini ta'minlash;
- e) ma'naviyat tarbiyasi.

10-mavzu: Mustamlakachilik va qaramlik sharoitida ma'naviyat

10.1. Xalqni milliy va ma'naviy zaminlardan mahrum qilish mustamlakachilik siyosatining asosiy maqsadi

Erkinlik – xalq manfaatining ustuvor xususiyatlaridan biridir. Tabiiyki, xalq mustaqil bo'lmasdan erkin bo'la olmaydi. Shunday ekan, xalqning yuksak ma'naviyati ham erkin emas. Chunki, bu jarayonlar o'zaro chambarchas bog'langan.

Respublikamiz o'z davlat mustaqilligiga erishgach, bu sohalar uchun ijobjiy imkoniyatlar yaratildi. Aslida bu ijobjiy imkoniyatlar o'z-o'zidan qo'lga kiritilmadi. Mustaqillik – uzoq davom etgan kurashlar zaminida qo'lga kiritilgan, o'zbek xalqining bir asrdan ortiq orzu qilgan umidlarini ro'yobga chiqargan oliy qadriyatdir. Shu sababli ham, haqiqiy mustaqillikka erishish o'zbek millatining tarixi va hayotida buyuk hodisa bo'ldi.

Endilikda mustaqillikni e'zozlash, qadrash, uni mustahkamlash borasida har bir shaxs butun kuch va irodasi, qobiliyatini ayamasdan sarflashi lozim. Albatta, bunday qilish uchun shaxsning o'zi mustaqillikning mohiyat va mazmunini nazariy va amaliy jihatdan tushunib etishi zarur. Zero, u millatparvar va vatanparvar bo'lsa, shunday qila oladi. Yuksak ma'naviyatni boshqa jarayonlardan ajrata oladigan kishigina shunday qila oladi.

Mustaqillikka erishish o'z-o'zidan bo'lgan emas. Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek: «Biz ozodlikka qon to'kmasdan erishdik. Ammo bu – haqiqiy mustaqillik kurashsiz va mehnatsiz qo'lga kiritiladi, degani emas»¹. Balki, o'zbek xalqi qariyb 140 yil mobaynida bu muhim jarayonni unutmadi, qalbida saqlab keldi. Shu davrlar mobaynida o'z mamlakatining iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy qiyofasini mustahkamlashga intildi. Lekin, yovuz kuchlar o'z manfaatlaridan kelib chiqib unga yo'l qo'ymadilar. Ayniqsa, totalitar tuzumdan qutulish yo'lida o'zbek xalqining buyuk farzandlari gohida ochiq, gohida maxfiy ish olib bordilar.

Chorizmning shafqatsiz zulmiga qarshi uyushtirilgan xalq qo'zg'olonlari, xalq ongini yuksaltirish yo'lidagi harakatlar, diniy qadriyatlarni tiklash borasidagi intilishlar shular jumlasidandir. Tarixda «bosmachilar» deb atalgan ijtimoiy-siyosiy kuchlar, aslida, aksariyat holda, chet el bosqinchilariga qarshi kurash olib borgan vatanparvarlardir. Ular milliy davlatchilik uchun kurashganlar. Tabiiyki, kurashlar qurbonsiz bo'lmaydi. Birgina Qo'qon muxtoriyati milliy davlatchiligidimizning yangi nishonasi sifatida paydo bo'lgan bo'lsa, uni ham Chor Rossiyasi qonga bo'yagan va yo'q qilgan. 1918 yil 17-19 fevral kunlari Qo'qon shahri qattiq jang natijasida vayronaga aylangan. 10 mingdan ortiq kishi o'ldirilgan. O'sha mash'um kunlarda «bosmachilarga qarshi kurash» niqobi bilan Farg'ona vodiysida 170 ta qishloq o'tda yondirildi. Marg'ilonda 7000, Namanganda 2000, Andijonda 6000, Qo'qon qishloqlarida 4,550 ta odam o'ldirildi. Ular milliy mustaqillik uchun kurashgan insonlar edilar.

¹ I. A. Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.: «O'zbekiston», 1996, 3-bet.

Sovet tuzumi o'rnatalishi yillaridagi harakatlarda ham iztirob chekishlar to'xtamagan. O'zbek xalqining ilg'or ziyolilari xalqning milliy g'ururini kamsitmaslikka, huquqlarini kamaytirmaslikka, milliy madaniyatdan uzoqlashmaslikka, aksincha, o'z navbatida ularni rivojlantirishga harakat qilib, o'lkamiz moddiy-ma'naviy boyliklarini talon-toroj qilinishiga qarshi chiqqanlar. Albatta, bular ham mustaqillik uchun kurashning ko'rinishlari edi. 1984-90 yillarda o'zbek milliy manfaatlarini himoya qilish uchun olib borilgan harakatlar ham mustaqillik uchun kurashning davomi edi. Lekin, o'sha paytlarda bu harakatlarni birlashtiradigan, uzoqni ko'ra biladigan shiddatli rahbar kerak edi, xolos. Tarixning shunday paytlarida biror dono rahbar chiqishini vaqt o'zi zarurat qilib maydonga chiqaradi. Shu o'rinda yozuvchi Lev Nikolaevich Tolstoyning quyidagi fikrini keltirish o'rinnlidir: «vaziyat qanchalik qiyin va og'ir bo'lsa, qat'iylik, faoliyat, jur'at shuncha ko'p zarur, hafsalasizlik esa faqat zarar keltiradi».

Chor Rossiyasi va totalitar tuzum siyosatining asosiy maqsadi boshqa millatlar singari o'zbek millatining ham manfaatlarini cheklash, uning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatish edi. Ular maqsadlarini amalga oshirishda xalqni ma'naviy qashshoqlikda ushlab turishga intildilar. Bu ba'zi bir Rossiya ma'murlari bildirgan fikrlaridan o'z tasdig'ini topgan. Shu o'rinda Turkistonning 1916-1917 yillardagi general-gubernatori N.A.Kuropatkin chorizm zamonida erli millat aholisiga o'tkazilgan tazyiqqa nisbatan munosabatini bildirib: «Biz 50 yil mobaynida tuzemlarni taraqqiyotdan, maktabdan va o'russayidan chetda tutdik», -degan va bu bilan o'z qilmishlarini e'tirof etgan. N.N.Tavyashev esa: «Hozircha erli millat bolalariga bilim berish yuzasidan qilingan ishlar bilan qanoatlanish kerak», -degan istilochilikni qo'msab fikr bildirsa, Toshkentdag'i Turkiston o'qituvchilar seminariyasi o'qituvchisi M.A.Muropiev esa shovinistik fikrlarini shunday bayon qiladi: «...mudrab yotgan musulmon mutaassibligini tiriltirish, binobarin, ko'ksimizda ilonni asrash bo'lur.... Shu sababli musulmonlarimizni ruslashtirish, ularning maorifini asosini tashkil etmog'i lozim...». Xuddi shunday fikrni birmuncha oldinroq N.I. Ilminskiy shogirdi N.P.Ostroumovga 1888 yil 3 fevralda yuborgan xatida: «Mening tushunishimcha, qirg'iz va sartlarni umuman gimnaziyaga jalb etmaslik va kiritmaslik kerak edi. Sartlarni, buryatlarni va qalmoqlarni klassik ta'lim yo'liga olib o'tish vaqtini etib kelmagan», -degan fikrlarni bildirgan.

To'g'ri, markazdan turib, millatlar to'g'risida dabdabali, mazmunli qarorlar qabul qilingan. Lekin, so'z uning ijrosida edi, ijro bo'lganda ham kimning foydasiga hal bo'lar edi? Albatta, markazning foydasigada! Qishloq xo'jaligi mahsulotlari, paxta, oltin, rangli metallar, qisqasi barcha O'zbekiston boyliklari «Tayyor mahsulotlar etkazib beramiz» niqobi ostida olib ketilar edi. Bunday qilishning mazmun va mohiyati asosan qaramlik va mustamlakachilik siyosatiga qaratilgan edi. «74 yil mobaynida O'zbekiston taqdiri va ta'minoti sobiq ittifoq qo'lida edi. Sobiq ittifoq bu erdan mahsulot va xom ashyoni olib ketib, bizga suv va havodek zarur narsalarni o'z ko'rsatmasi bilan etishtirib berardi», - deb ta'kidlaydi, I.A. Karimov. Masalaga bunday yondashish juda ko'p qiyinchiliklarga olib kelar edi. Ta'kidlash lozimki, bu xilda yondashish ma'naviyatga ham ta'sir etmasdan qolmasdi. Ma'naviyatni yuksaltirish uchun esa mablag' talab qilinadi. Mablag' esa Markaz

qo'lida edi. Sobiq ittifoq rahbariyati, o'z vaqtida shunday siyosat yurgizdiki, bu siyosat boshqa xalqlarni tag-tomiri bilan yo'q qilish payida bo'ldi. Ular ashaddiy nazariyalar asosida ish ko'rdilar. «Xoqonim,-degan ekan Konfutsiy,-agar biror mamlakatni bosib olib, u erda uzoq hukmronlik qilmoqchi bo'lsangiz, dastavval, o'sha erda yashayotgan xalqni o'z tarixiy madaniyatidan mahrum eting, ma'naviy bo'hronni kuchaytiring. O'z madaniyatidan bexabar bo'lib, ma'naviy qashshoqlik holatiga uchragan xalq uyushmaydi, ichki nizolar girdobiga o'raladi, sizga qarshilik ko'rsata olmaydi. Bunday holga kelgan xalqni, mamlakatni idora qilish qiyin bo'lmaydi» (**Otamurodov S. O, Husanov S. «Ma'naviyat asoslari».** T., 2001 yil). Qarangki, kelajakda bu fikrlardan rus bosqinchisi M. D. Skobelev ham ustalik bilan foydalandi. U o'zining tajovuzli, xiyonatkorona so'zlariga amal qilib, o'zbek xalqiga tuzatib bo'lmaydigan zahmatlarni keltirdi.

O'zbek xalqi boy ma'naviy merosga ega. Boy ma'naviy meros esa, o'sha xalqning buyukligidan dalolat beradi. Bu buyuklik chorizm va «Markaz»ga yoqmas edi. Ularning maqsadi o'zbek xalqini o'z merosidan mahrum qilish edi. Ma'naviy va madaniy merosimizni ildizlari, ma'lumki, uzoq-uzoqlarga borib taqaladi. O'rta Osiyoning qadimiyligi tarixi va ma'naviyati, madaniyati tarixdan bilamizki, ko'plarni hayratda qoldirib kelgan. Buni hamma ham birdek ijobjiy his qilaveradi. Bu erda yashab ijod etgan sharq mutafakkirlari va faylasuflarining, allomalarining, donishmandlarining jahon madaniyatini rivojlantirishga qo'shgan hissasi beqiyosligini e'tirof etishdan uzoq bo'lganlar hozir ham yo'q emas. Aslida o'tmishdagi mutafakkirlarning bebafo madaniy merosi o'nlab avlodlarning ma'naviyatini yuksalishiga, ruhiy ongini va turmush faoliyatini shakllantirishga yordam berib, ma'naviy ozuqa bo'lib kelayotir. Ana shunday ma'naviy va madaniy meros hamda uni yaratuvchilari sovetlar davrida qasddan qadrsizlantirildi, yo'qqa chiqarishga harakat qilindi. Natijada o'zbek xalqining keyingi bir necha avlodni o'zining milliy mafkuraviy tayanchi bo'lgan ma'naviyati va ruhiy holatidan ajralib yashadi. Mustamlakachilik siyosati o'zbek xalqining o'z-o'zini anglamaslikka, manqurtlik xastaligiga duchor qilishga qaratilgan edi. Shu bois I.A. Karimovning: «Markaz qabul qiladigan ko'pgina qarorlar O'zbekistonning manfaatlaridan yiroq edi», -degan so'zları o'rinnlidir. Sovetlar siyosatida kichik millatlar ma'naviy qiyofasiga mensimaslik hukmron edi.

Keyingi yillarda ulug' ajdodlarimiz: - Abduxoliq G'ijduvoni, Bahovuddin Naqshband, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'bek, Boborahim Mashrab, Nodirabegim, Amir Temur, Imom al-Buxoriy, At-Termiziy, Burhoniddin Marg'inony, al-Moturudiy va Sharq va dunyo tafakkuri xazinasiga hissa qo'shgan alloma va davlat arboblarining tavallud topgan sanalarini umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanishi milliy mustaqillik siyosati samarasi bo'ldi. O'z navbatida, bu – xalqimizning yuksak ma'naviyatini rivojlanishiga omil bo'lib xizmat qildi va qilamoqda.

O'zbeklarning jahon xalqlari orasida farq qiladigan bir xususiyati borki, ularidan chiqqan davlat rahbarlari aksariyat hollarda ijodkor ham bo'lганlar. Bu esa yuksak ma'naviyatning shakllanishiga ta'sir etgan. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur, Humoyun, Akbar, Amir

Umarxon, Muhammad Rahimxon, Feruz va boshqalar yaratgan asarlar har bir insonni yuksak ma’naviyatga chorlaydi, xolos. Lekin Sovet tuzumi, bu mutafakkir va davlat arboblarini sinfiylik nuqtai nazaridan yondashib, chetga chiqardilar. Ularning asarlarini yashirdilar, qatag’on qildilar. Endilikda esa mustaqillik tufayli, bu siymolar asarlari va faoliyatlarini xalqqa birinchi manba sifatida etkazilmoqda. Bu xayrli ishlar, albatta davom etaveradi. Chunki, bu masalalarning ijebiy hal etilishi ma’naviy uyg’onishni, poklanishni tarkibiy, ajralmas bir qismidir.

Aytish lozimki, ba’zi kishilar o’tish davrining ba’zi qiyinchiliklariga bardosh bera olmay davlat va xalq mulkini talon-toroj qilishga, jinoyatchilik, korruptsiya, poraxo’rlik, shaxsiyatparastlik illatlariga berildilar. Ularni oldini olish uchun ajdodlarimiz amalga oshirgan ma’naviy, ma’rifiy sohadagi xayrli ishlar endilikda hukumatimiz rahbarlariga, barcha ziyolilariga qo’l kelmoqda, ular ta’lim-tarbiya, davlat boshqaruvida birinchi manba bo’lib xizmat qilayotir.

Sovet davri xalq milliyligini va uni ma’naviy zaminlaridan mahrum qilish, mustamlakachilik siyosatini o’tkazish, boshqa millatlar nomidan ish yuritib, o’z-o’zini dunyo bozoriga solish edi. Boshqa xalqlar yutuqlari, ularning ilg’or tajribalari, milliy merosi, ilmiy kashfiyotlari «soviet» nomidan dunyoga taratilib kelindi. Urfodat, qadriyatlar va milliy sport sohalariga e’tiborsizlik bilan qarash to’g’risida so’z yuritilmasa ham bo’ladi.

Azaldan ma’lumki, O’zbekiston geografik va siyosiy o’rni jihatidan O’rta Osiyoda katta nufuzga ega. Buni qaramlikka duchor bo’lmasdan oldin ham, hozir ham butun dunyo tan olgan. Lekin Sovetlar tuzumi davrida buni e’tirof etish mushkul bo’ldi. Endilikda esa, Prezident Islom Karimovning tashabbusi bilan O’zbekistonda, boshqa mamlakatlarda bo’lgani singari, yirik anjumanlar, konferentsiyalar o’tkazilib, dunyo taraqqiyoti uchun bir qancha muhim takliflar bilan chiqilayapti. Sport turlari bo’yicha esa jahon birinchiliklari o’tkazilmoqda.

Bular jumlasiga, BMTning Markaziy Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik bo’yicha doimiy ishlaydigan seminar, mintaqada ishonchli mintaqaviy xavfsizlik tizimini barpo qilish, yadro bilan qurollanishni tugatish, yadro qurolidan xoli zona, deb e’lon qilish, kimyoviy va bakteriologik qurolni tarqatish ustidan nazoratni o’rnatish, xalqaro terrorizmga qarshi kurash olib boradigan xalqaro Markaz tuzish, narkobiznesga qarshi kurash, Orol fojeasining oqibatlarini tugatish xususidagi da’vatlar kiradi. O’zbekiston bugungi kunda BMT, Jahon pochta ittifoqi, Jahon Sog’liqni Saqlash Tashkiloti, Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiya, Xalqaro mehnat tashkiloti, Elektr aloqa bo’yicha xalqaro ittifoq, Jahon banki, Xalqaro Valyuta Jamg’armasi, Evropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashi, Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti, Shimoliy Atlantika Hamkorligi Kengashi, Evropa Qayta Tiklanish va Hamkorlik Kengashi, Xalqaro Olimpiyada Qo’mitasi, Jahon Meteorologiya Tashkiloti, BMTning ta’lim, fan va madaniyat bo’yicha qo’mitasi, Xalqaro Avtomobilchilar ittifoqi kabi nufuzli tashkilotlarga a’zo bo’ldiki, bu O’zbekiston dunyo hamjamiyatidan munosib o’rin olganidan dalolatdir. Endilikda dunyo miqyosida ish olib boriladigan o’nlab tashkilot va markazlar O’zbekistonda ish olib bormoqda. Dunyoning nufuzli mamlakatlari delegatsiyalari O’zbekistonga tashrif buyurmoqdalarki, bu o’z navbatida mamlakatimizning iqtisodiy, siyosiy,

madaniy-ma'naviy jihatdan yuksalishiga ko'mak bo'lmoqda. Yuksak ma'naviyatimiz, davlatimiz mustaqilligi va mustahkamligi haqida xorijiy davlat arboblari o'zlarining ijobiy fikr va mulohazalarini bildirib ketmoqdalar.

10.2. Oktyabr to'ntarishi va yagona mafkuraviylik davrida ma'naviyat

Oktyabr to'ntarishi Moskva-Petrograd ostonalarida boshlangan bo'lsa ham, bu to'ntarish chet mamlakatlarni ham qamrab oldi. Aniqrog'i, zaruriyat asosida emas, balki bosib olish hisobiga inqilobiylar to'ntarish bo'ldi. Bu to'ntarish yakka mafkuraviylikni keltirib chiqardi. Yagona Kommunistik partiya mafkurasi hukmronlik qila boshladi. O'zbek xalqiga, uning ma'naviyatiga tashqaridan ta'sir etish boshlandi. Markazning ruxsatisiz biror ishga qo'l urish aslo mumkin emas edi. Mahalliy rahbarlar esa o'z xalqining xususiyatidan kelib chiqib, o'zlariga mos qaror va farmonlarni chiqara olmadilar. Hatto biror kichik zavod yoki fabrikaning loyihasi ham «markaziy mafkura» boshliqlarining ruxsatisiz amalga oshmadi.

Ma'lumki, har bir xalqning o'z urf-odatlari, qadriyatlari bo'lib, o'sha xalq undan oziq oladi, yashaydi. Yagona mafkuraviylik bu jihatlardan voz kechishga undadi. Ma'lum ma'noda bunga erishildi ham. O'zbek xalqi o'zining boy ona tiliga ega edi. Bu til Oktyabr to'ntarishidan so'ng, ikkinchi o'ringa tushib qoldi. Rus tili esa, hukmron tilga aylandi. Natijada ko'pgina bilimdon, nazariy va amaliy jihatdan etuk bo'lgan mahalliy xalq vakillari rus tilini bilmaganliklari uchun bilimi yo'qqa chiqarilib, tilni bilmaslikda ayblandilar. Tegishli lavozimlarga qo'yilmadilar. Natijada ma'naviy kamsitish yuzaga keldi. O'zbekiston ziyorilari tomonidan yozilgan dunyoviy adabiyotlar, san'at asarlari, filmlari, rassomlar ijodlari dunyo yuzini ko'rmasdi. Masalan, taniqli o'zbek adibi P.Qodirovning aytishicha, «Yulduzli tunlar» tarixiy romani 5 yil mobaynida bosishga ruxsat berilmagan. Atoqli akademik I.Mo'minov Amir Temur to'g'risidagi risolasi uchun quvg'in qilingan. Insoniyatni lol qoldiradigan asarlar tarjimasiga yo'l berilmadi. Hatto ularning ko'pchiligi kutubxonalardan olinib, yo'q qilinib yuborildi. Ularni himoya qiluvchilarni esa «revolyutsiya dushmani» sifatida qatag'on qildilar va otib o'ldirdilar, qamoqlarga tashlandilar, GULAG lagerlariga yuborildilar. Milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi turli asarlar nashri nazardan chetda qoldi. Inqilobdan so'ng qadriyatlarni mohiyatiga e'tibor berilmadi, ular kamsitildi.

Qadriyatlar ustida to'xtalar ekanmiz, xo'sh, milliy qadriyatlar qaysilar degan savol tug'iladi. Bizningcha ular quydagilardir:

- ❖ axloqiy poklik, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat;
- ❖ mehmondo'stlik, insonparvarlik;
- ❖ adolatparvarlik, tenglik, ahil qo'shnichilik;
- ❖ tinchlik va barqarorlik, vijdon erkinligi uchun kurash;
- ❖ qavm-qarindoshlarni unutmaslik;
- ❖ kattalarga hurmat, kichiklarga mehr-shafqat,
- ❖ urug'-ajdodlarga, qo'ni-qo'shnilarga, mahalladoshlarga, tanish-bilishlarga yordam berish;
- ❖ ota-onani yuksak darajada e'zozlash, izzat-ikromlarini, hurmatlarini o'z joyiga qo'yish, ularni hurmatini bir umr unutmaslik, doimiy birinchi bo'lib salomini ayamaslik, farzandlik burchini bajarish;
- ❖ odob-axloq qoidalariga qat'iy amal qilish, o'zidan kattalar, yoshi ulug'lar bilan hayo, odob-andisha asosida subbatlashish, ularga nojoiz so'zlarni aytmaslik, betga choparlik qilmaslik, andishani qo'lidan bermaslik;
- ❖ o'zidan kattalarni, birinchi galda qariyalarni, otalarni, nuroniy onalarni hurmatini joyiga qo'yish, tanish, tanimaslikdan qat'i nazar salom berish, ular yo'lida uchrab qolsalar oldinroq o'tkazib yuborish, iltifot ko'rsatish;
- ❖ o'zbek xalq ertaklari, rivoyatlari, asotir va dostonlarni, maqol, matallar, aruz va baytlar, kuy va qo'shiqlarni unutmaslik;
- ❖ yoshlarda milliy an'analar, milliy madaniyat, insofu diyonat, muruvvat g'ururini shakllantirish;
- ❖ olimu fuzalolarning, ustozlarning hurmatini o'z o'rniga qo'yish;
- ❖ mardlik, odamiylik, kamtarlik, adolatlilik, halollikni va haqgo'ylikni tushunish;
- ❖ diniy qadriyatlar, ulardagi axloqiy qoidalarga sodiqlik;
- ❖ nikoh, sunnat va beshik to'ylarni o'tkazish;
- ❖ turli sayillar, hosil bayramlari, qovun sayli, gul sayli, ko'pkari, qorxatlar, kelin salomlar, qiz bazmi, Navro'z, iyd-Ramazon va Qurbon Hayit bayramlariga e'tibor;
- ❖ tevarak-atrofga mehr-muhabbat, suv, havoni, tuproq, hayvonot olamini asrab avaylash, tabiiy boyliklarni e'zozlash, isrof qilmaslik;
- ❖ suvga tupurmaslik, tabiatni ifloslantirmaslik, daraxtlarni sindirmaslik, jonlini bejon qilmaslik;
- ❖ muqaddas joylarga, qabristonlarga ziyoratga borish, ularni e'zozlash, o'tganlarni eslash;
- ❖ kishilarni millatiga, urug'iga, rangiga qarab ajratmaslik;
- ❖ tarixdan ajralmaslik, o'tmishga hurmat bilan qarash va boshqalar...

Bu qadriyat va urf-odatlar o'zbek xalqi qadriyatlardan namunalardir, xolos. Bizning qadriyatlarimiz shunchalik boyki, ular uzoq asrlar davomida shakllangan bo'lib, tarix chig'iriqlaridan o'tib, hayotiy voqelikka aylangan. Ko'rib turibmizki, bu qadriyatlar o'ta insoniylik munosabatlarini o'z ichiga oladi. Ammo inqilob bularning barchasini yanada rivojlanishiga yo'l bermadi.

Endi biz, yuqorida zikr etilgan qadriyatlarning ba'zilari haqida qisqaroq bo'lsa ham to'xtalib o'tamiz. Jumladan, tabiatni bulg'amaslik, daraxtlarni kesmaslik, sindirmaslik, jonlini bejon qilmaslik to'g'risidagi qadriyatlarni olsak, sovet tuzumi davrida ham bu sohalarda fikrlar aytilsada lekin xarakteri jihatidan izchil emas edi. Chunki, mustabid tuzumning ba'zi rahnamolari masalaga jiddiy e'tibor bermaganlar. Masalan, tog'lardagi, tog' bag'ridagi o'rmonlar ayovsiz va vaxshiyona kesildi, O'zbekistonning ayrim tog'li tumanlarida zavod-fabrika chiqindilari «ombor»lari qurildi, tokzorlar qirqildi. O'zbekiston faunasi hisobga olinmadi. Paxta hosilini ko'proq olish maqsadida qishloq va tumanlar xususiyatlari o'rganilmasdan ularning er maydonlari o'zgartirildi. Ariq va anhorlarga zavod, fabrikalardan chiqqan chiqindi suvlar, turli chiqindilar to'kila boshlandi. Ishlab chiqarish natijasida havo ifloslandi. Bularga insonlar ko'nika boshladilar, tevarak atrofga e'tiborsizlik kuchaya boshladi. Tabiiyki, bu hodisalar xalqimizning axloq-odob, tarbiyasiga, ma'naviyatiga ta'sir etmay qolmadidi.

Ikkinchi bir soha, bu – xalqimizning kasb-hunarga bo'lgan munosabatidir. O'zbek xalqi azaldan kasb-hunar bilan dunyo xalqlarini lol qoldirib kelgan xalqlardan. Lekin, sovet tuzumi davrida ishlab chiqarish kuchlarini mintaqalarga qarab «joylashtirish» niqobi ostida bu sohaga ham zarba berildi. Xalqimiz manfaatlari hisobga olinmadi. Hatto ko'pgina sohalar: qog'oz ishlab chiqarish, temirchilik va kulolchilikning ko'pgina sohalari, shoyi gazlama to'qishning ba'zi turlariga e'tibor qaratilmadi. Kandakorlik, tunukasozlik, misgarlik, ko'nchilik, kosibchilik, naqqoshlik, charmgarlik, qandolatchilik, kashtado'zlik kasblariga mahalliychilik deb qaraldi. Bu esa qanchadan-qancha yoshlarni ota-bobolari yaratgan noyob ishlab chiqarish mahsulotlarining qadrini bilmaslikka, ulardan uzoqlashishga olib keldi. Aniqrog'i, bu sohalarga kishilarning sovuqqonlik bilan qarashiga olib keldi. Hunar-kasb tarbiyasiga bo'lgan munosabat faqat qog'ozlardagina ko'rsatildi xolos.

Milliy qadriyatlardan uzoqlashish yuksak milliy ma'naviyatni targ'ib qilishga, ayniqsa qattiq zarba berdi. Avlod-ajdodlarimizning turmush tarzimizga mos bo'lgan o'gitlari, pand nasihatlari, ajoyib an'analari targ'ib qilinishiga to'siq qo'yildi. Asarlar o'z nusxasida o'qitilmadi. Ularga sun'iy ravishda, kommunistik mafkuraga mos qilinib sharhlar berilib, tarjimalar qilindiki, bu o'zbek ma'naviyatini kamsitish, undan haqiqiy uzoqlashish edi.

Sovet hokimiyyati yillarida turli yo'llar orqali xalqimiz qalbidan o'ren olmagan ba'zi opera va baletlar o'zbek san'atiga olib kelindi. «Segoh», «Ushshoq», «Chapandoz», «Tanovor», «Bayot» kabi xalqimizning fikri, zikri, qadriyatini aks ettiradigan ko'pgina qo'shiqlar, «podshohlar saroyida aytildigan ashulalar» deb ayblanib, ularni tezroq unutishga harakat qilindi. Ularni mo''jizali ohanglaridan bebahra qilishga undaldi. Marosimlarda aytildigan «Yor-yorlar, allalar, shoshmaqomlar»ning tarbiyaviy jihatlariga e'tibor qaratilmadi. Baxshilar faoliyati nazardan chetda qoldi. Qadimiy folklor unutildi. Ba'zi musiqiy asboblarga ahamiyat ham berilmadi. Musavvirlik san'ati, miniatyura, hattotlik kabi sohalar ham evropacha tus oldi.

Allomalarimiz yozgan ko'pgina asarlarni eskilik sarqitlari, ularda bid'at, xurofot aks etgan, deb tushuntirildi. Ochiqdan-ochiq qoralandi, bebafo dostonlar, xamsalar,

tom-tom ruboiylar xalqdan bekitildi. San'at va adabiyotning turli janrlari yakka mafkuraviylik, sinfiylik qolipiga tushirildi. Endilikda bilmoqdamizki, allomalarmiz: Abduxoliq G'ijduvoniy, Bahovuddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Imom al-Buxoriy, At-Termiziyy, Al-Moturudiyy, Burhoniddin Marg'inoniy, Nizomulmulk, Nosir Xisrav, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Xondamir, Kaykovus, Firdavsiy, Jomiy, Husayn Boyqaro, Feruz, Mashrab, Nodirabegim, Uvaysiylarning ko'pgina asarlaridan keyingi avlodlar bexabar qoldirilgan. To'g'ri, bu allomalarining ba'zilari haqida, ba'zi joylarda, gohida yaxshilab, gohida qoralanib tilga olinib ham turildi. Chunki, ularni ko'proq xorijiy davlatlar xalqlari hurmat bilan tilga olar edilar. Aslida esa, ularning asosiy asarlari haqida so'z yuritilmadi. Bu allomalarining asarlari, xayriyatki, chet-el kutubxonalarida saqlangan bo'lib, ular endilikda asta-sekinlik bilan xalqimizga qaytib kelayotir. Ularning o'chmas fikr va ta'limotlari milliy ma'naviyatimizni qaytadan tiklashga yordam berayotir. Ta'kidlash lozimki, xalqimizga baynalminallik niqobi ostida nuqul Evropa millatlarining urf-odatlariyu, an'analari, turmush tarzları targ'ib qilib kelindi. Evropa va rus mutafakkirlari ta'limoti ustuvor qilib qo'yildi. Ko'pgina, jumladan ta'lim-tarbiya, ma'naviyat sohalarida Evropa, Rossiya modeli ko'klarga ko'tarilib maqtaldi, targ'ib qilindi. Natijada, yoshlarimizda betga choparlik, faqat o'zini o'ylash, boylikka, xususan, mashina, video, yakka uy-joyda yashash, «medoviy mesyats» kabi o'ta xudbinlik xarakterlari shakllana boshladi. Yoshlarning turmush tarzi o'zgardi. Kiyim kiyish, taqinchoqlar (erkaklar ham) taqishning ashaddiy turlari, hayosizlik, narkomaniya illatlari paydo bo'ldi. Shaxsiyatparastlik, xudbinlik kuchaydi.

Ma'lumki, O'zbekiston hududida yuzlab, minglab qadimgi madaniy yodgorliklar, ziyoratgohlar, obidalar mavjud. Bular ham xalqning yuksak ma'naviyati borligidan dalolatdir. Lekin, ularni ziyorat qilish, asrab-avaylash ishlariga sovuqqonlik bilan qaraldi. Ko'plari buzilib ketdi, minglab masjidlar, sinagogalar, cherkovlar yakson qilindi. Bu bilan tarixiy madaniyatimizga bolta urildi. Bobolarimiz idroki, aql-zakovati bilan yaratilgan boyliklar, arxitektura yodgorliklari unutildi. Qisman tarixiy yodgorliklar saqlandi, xolos. Ularni saqlash va avaylashga harakat qilgan shaxslar esa ta'qib qilindilar, «eskilik tarafдорлари» shiori ostida ishlaridan chetlatildilar, «millatchilar» ga aylandilar.

Milliy qadriyatlarni asliga keltirish qanchalik inson uchun, uning ma'naviy yuksalishi uchun kerakligini endilikda, mustaqillikka erishganimizdan so'ng, har bir o'zbek shaxsi tushunib etayotir.

Yagona mafkuraviylik natijasida, o'zbek xalqining turmush tarzi majburan o'zgartirildi. Ayniqsa, xalqimiz madaniyati va noyob ma'naviyatiga, shaxsga sig'inish va turg'unlik yillarda katta zarar etkazildi. Avtoritar, totalitar tuzum davri ko'p kulfatlar olib keldiki, bu kulfatlardan qutulishning o'zi engillik bilan kechayotgani yo'q. Komil ishonch bilan aytish mumkinki, milliy qadriyatlarni tiklash uchun hozirgi va kelajak avlod farzandlari ham o'z harakatlarini ayamaydilar.

Erishilgan mustaqillik, xalqimiz ma'naviy taraqqiyotining rivojlanishiga keng yo'l ohib berdi. Madaniy, ma'naviy merosimizga alohida e'tibor qaratilishiga imkon berdi. Yuzlab arxitektura yodgorliklari, ziyoratgohlar qayta tiklanib, o'z mavqeiga ega bo'layotir.

Falsafiy ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy, badiiy, tarixiy asarlar o'z egasini topayotir. Ular nashr etilib, asl nusxada o'qilmoqda. «Noyob tarixiy yodgorliklarni saqlash va ta'mirlash, o'zbek xalqi yaratgan va milliy boylik bo'lgan san'at asarlarini izlab topish, ularni O'zbekistoniga qaytarish ma'naviy dasturimizning muhim bo'lagini tashkil etadi. Bu milliy boylik bizga ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan. Binobarin, biz ham uni ko'z qorachig'iday asrab-avaylashimiz va farzandlarimizga meros qilib qoldirishimiz kerak... butun dunyoda bunday noyob boyliklar birinchi galda davlat muzeylari tomonidan sotib olinadi va saqlanadi. Biz ham xuddi shu yo'ldan borishimiz, buning uchun kerakli mablag'ni aslo ayamasligimiz darkor. Tengsiz milliy boyliklarimizning shuncha talon-toroj qilingani etar, endi biz bunga aslo yo'l qo'yaymiz»¹. Ha, bular mustaqil davlatning qo'yayotgan birinchi qadamlari bo'lib, barcha sohani qayta qurish, xalqimizning o'ziga xos turmush tarzini belgilab olishdan iboratdir. Demak, bu yuksak ma'naviyatning mustaqilligidir.

Shu munosabat bilan aytish mumkinki, mustaqillik iymon, e'tiqod erkinligi, qadriyatlar rivoji, yuksak ma'naviyat kalitidir. Shu sababli mustaqilligimizni mustahkamlash har birimizning muqaddas burchimizdir, yoki Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Mustaqillik degani shuki, bizlar bir asrdan ko'proq birovlar og'ziga qarab yashadik, endi nihoyat, o'z qadrimizni, hayotimizni, kelajagimizni o'z qo'limizga oldik. Eng muqaddas vazifa – shu buyuk ne'matni qo'ldan bermaslikdir».

Tayanch so'z va iboralar: manqurt, «Qo'qon muxtoriyati», ma'naviy meros, milliy mafkuraviy tayanch, mustamlakachilik siyosati, milliy mustaqillik siyosati, o'zbek qadriyatları, asotir.

¹ I.A.Karimov. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T.: «O'zbekiston». 1995, 52-53-betlar.

Hikmatlardan namunalar

Bir so'ngakka sordek qanoat qilg'on,
Afzaldir nokasga bo'lgandan mehmon,
Nokasning shinnilik nonidan yaxshi,
O'zing topib egan burda arpa don.

Tokay pastlar xizmatin etasan bajo,
Har emishga pashshadek qilma jon fido,
Bir nonni ikki kun e, tortma hech minnat,
O'zga nonidan o'z dil qoning ko'p a'lo.

Bir nonni topib agar esang ikki kun
Siniq ko'zang bo'lsa suv ichmak uchun,
O'zingdan pastlarga yollanmoq nega.
O'zingdek xizmatin qilmoqlik nechun.

Umar Xayyom.

Chor Rossiyasining Turkiston o'lkasidagi general – gebernatori M. Skobelev: «Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, san'atini, tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzuoga uchraydi», deb aytgan gapini eslashning o'zi kifoya qiladi. Bunday yovuz qarashlarga qo'shimcha izoh berishga hojat yo'q, deb o'yayman. Lekin ulardan kerakli xulosa- saboq chiqarish uchun bugun ham kech emas.

x x x

Eski qolipda, mustabid davrda yozilgan darsliklardan foydalanib, eski mafkuradan xolos bo'lmasdan bolalarimizni yangicha fikrlashga o'rgata olmaymiz, axir. Buni barchamiz tushunishimiz anglashimiz darkor.

I. A. Karimov.

Test topshiriqlari

1. Mustaqillik bu -

- a) bu oliy ne'mat bo'lib, xalq erkinligini ifodalaydi;
- v) oliy qadriyat hisoblanib, har bir shaxsning erkin fikrlashini taqazo qiladi;
- g) iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy jihatdan erkin bo'lishidir;
- d) erkinlik, ozodlik, xudolikdir;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

2. Iqtisodiy mustaqillik deganda -

- a) mamlakatni iqtisodiy ne'matlar bilan o'zini - o'zi ta'minlash darajasi tushuniladi;
- v) iqtisodiy sohadagi huquq va erkinliklarning kafolatlanganligi tushuniladi;
- g) davlatning ichki iqtisodiyotda mustaqil siyosati, ammo tashqi mamlakatlarga iqtisodiy qaramligi tushuniladi;
- d) iqtisodni erkinlashtirish;
- e) a va v.

3. «Biz ozodlikka qon to'kmasdan erishdik. Ammo bu - haqiqiy mustaqillik kurashsiz va mehnatsiz qo'lga kiritiladi, degani emas» mazkur jumla Prezidentimizning qaysi asaridan olingan?

- a) «O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura»;
- v) «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir»;
- g) «Iqtisodiy mustaqillik o oliy maqsadimiz»;
- d) «O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat»;
- e) «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari».

4. «Biz 50 yil mobaynida tuzumlarni taraqqiyotdan. Maktabdan va o'russay hayotidan chetda tutdik» mazkur fikr qaysi chorizm general – gebernatoriga tegishli?

- a) M. D. Skobelev;
- v) N. N. Taveshev;
- g) N. A. Kuropatkin;
- d) Fon Kaufman;
- e) M.A.Murovniev.

5. Sobiq Ittifoq davrida xalkimiz ma'naviyatiga munosabat kanday edi?

- a) ma'naviyatni yuksaltirish uchun mablag' talab qilinar, mablag' esa markaz qo'lida edi;
- v) sobiq Ittifoq davrida ma'naviy boyliklar sezilarli ravishda o'sdi;
- g) ma'naviy va madaniy meros yaratuvchilari qasddan qadriyatsizlantirildi va yo'q qilindi;
- d) ma'naviyatimizga loqaydlik bilan qaraldi;
- e) A va V

6. Ma'naviy mustaqillik bu -

- a) ma'naviy va madaniy meroslarni yaratishda erkinliklar yaratib berish, uni boylashga ko'maklashish;
- v) urf – odatlar, milliy, umuminsoniy, diniy qadriyatlarni yuksalishiga zamin yaratish;
- g) o'tmishdan qolgan yodgorliklarni asrab-avaylash, ularga hurmat, e'tibor tuyg'ularini shakllantirish;
- d) milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

7. O'zbekiston Respublikasining «Davlat mustaqilligi» to'g'risidagi bayonnoti qachon qabul qilingan?

- a) 1991 yil 1 sentyabr;
- v) 1991 yil 31 avgust;
- g) 1991 yil 30 avgust;
- d) 1992 yil 8 dekabr;
- e) 1990 yil 31 noyabr

8. Tarixda «Bosmachilar» deb atalgan ijtimoiy-siyosiy kuchlar aslida kimlar edi?

- a) chet el bosqinchilariga qarshi kurashgan vatanparvarlar;
- v) milliy davlatchilik tuzish tarafdozlari;
- g) Chor Rossiyasi bosqinchilariga yon bosuvchi guruh a'zolari;
- d) zo'ravonlik va bosqinchilik bilan shug'ullanuvchilar;
- e) a va v.

9. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi istiqlolchilar harakatining asosiy maqsadi nima?

- a) milliy mustaqillik uchun kurashish;
- v) milliy davlatchilikni barpo etish va moddiy-ma'naviy boyliklarni talanishiga yo'l qo'ymaslik;
- g) sovet tuzumini o'rnatishga ko'maklashish;
- d) ilmu-ma'rifat orqali jamiyatni isloq qilish;
- e) a,v va d.

III-bob. Ma’naviyat taraqqiyotining mezonlari, tarkibiy qismlari

11-mavzu: Ma’naviy barkamol inson, yuksak axloqiylik tushunchalari

11.1 Jamiyat hayotida yuksak axloqiylik munosabatlari

Jamiyat taraqqiy etgani sari axloqiy munosabatlarga e’tiborni kuchaytirish ehtiyoji tug’ilayotir. Sababi, biron mamlakat yoki jamiyat ma’naviy-ma’rifiy imkoniyatlarini rivojlantirmay, hamda mustahkamlamay turib, o’z kelajagini tasavvur eta olmaydi. Ma’lumki, mamlakatimizda asrlar mobaynida ajdodlarimiz yaratgan mahalliy, milliy, diniy, madaniy qadriyatlarimizni yanada rivojlantirish uchun yangi sharoit hamda imkoniyatlar paydo bo’ldi. Bu qadriyatlar shunday qadriyatlarki, undan kelajakda ham ming-minglab avlodlar oziq oladi, bahramand bo’ladi. Chunki, bu qadriyatlar hayot larzalariyu, chig’iriqlaridan o’tib, insonlar hayotidan mustahkam o’rin olgan, singib ketgan. Ular olam uzra tengi yo’q qadriyatlardir. Ular jamiyat hayotini axloqiy jihatdan belgilashga qodir qadriyatlardir. O’zbek xalqi esa bu qadriyatlarning manbai sifatida turli jamiyatlar taraqqiyoti mobaynida shakllandı, o’zligini tanidi, boshqa xalqlarga namuna bo’ladigan darajada yuksaldi. Ma’lumki, jamiyat rivojlanishi insonlarning axloqi, odobi, aql-idroki, halol mehnati mamlakat boyligi asosida olg’a qarab boradi. Demak, axloqiy normalarni rivojlantirmay mamlakat taraqqiyotini yuksaltirish amri mahol bo’ladi. Aslida mamlakatimiz azaldan insoniyat tafakkuri boyligiga katta hissa qo’shib kelgan. Davrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma’naviyat, adolatparvarlik, insonparvarlik, ma’rifatparvarlik kabi noyob fazilatlari sharq falsafasi va islom ta’limoti bilan mustahkam aloqada rivojlandi.

Ma’naviy qadriyatlar tarkibidagi axloq mezonlari tarbiyaning negizini tashkil etgan. Tarbiyaviy jarayonsiz jamiyat, taraqqiy eta olmaydi. Tarbiya esa axloqiy fazilatlarni singdirishdan boshlanadi. Tarbiya singdirilishidan inson komillikka qarab boradi.

Komillik o’z-o’zidan paydo bo’lmay, balki, inson yashagan jamiyatga, muhitga bog’liqidir. Jamiyat, muhit esa, insonlar munosabatidan, o’zaro aloqasidan iboratdir. Binobarin, axloqiy jarayonlar shu munosabatlarda shakllanadi, tarkib topadi. Bu munosabatlar qanday bo’lsa, tarbiya ham shunday bo’ladi.

Shunday ekan, jamiyat oldida o’ta muhim masala bu tarbiyaviy sohalarning samaradorligini oshirishdir. Tarbiya davlat siyosatining ustuvor yo’nalishiga aylanmog’i lozim. Mustaqillik yillarida bu muhim masala yuzasidan birmuncha ishlar amalga oshirildi. Ta’lim sohasida va kadrlar tayyorlashning yo’nalishlari bo’yicha qaror va qonunlar qabul qilindiki, hozirgi kunda shu qaror va qonunlar asosida zamonaviy dastur va darsliklar, qo’llanma va ko’rgazmali qurollar ishlab chiqilib hayotga tatbiq qilinayotir. Albatta, qilingan va qilinayotgan ishlar «ummondan bir tomchi» xolos. Zero, komil insonlarga xos bo’lgan tuyg’u va xislatlarni avloddan-avlodga o’tkazish uchun misli ko’rilmagan ish va vazifalar amalga oshirilishi darkordir. Erkin, o’z haq-huquqlarini ochiq biladigan, o’z salohiyati, aqliga ishonib

yashaydigan, shu bilan birga jamiyat manfaatini o'z shaxsiy manfaatlari bilan uyg'un tarzda ko'radigan etuk insonlarni tarbiyalashdan iborat vazifa ko'ndalang turibdi.

Axloq va odob tarbiyasiga e'tiborsiz qaragan jamiyat iqtisodiy, siyosiy, madaniy, texnikaviy yutuqlarga erisholmaydi, aksincha inqirozga yuz tutadi. Jamiyatdagi barcha yutuq va kamchiliklar insonning ma'naviy kamolotiga borib taqaladi. Ma'naviy kamolotga erishilmagan jamiyatda qanchalik moddiy boyliklar ko'p bo'lmasin baribir u jamiyat yuksaklikka ko'tarila olmaydi, kelajagi porloq bo'la olmaydi. Shu sababli ham jamiyat ravnaqini ta'minlash uchun axloq va odob tarbiyasini mukammallashtirish talab etiladi. Xalqi ma'naviy jihatdan qashshoq bo'lgan davlat tabiiy boyliklari, moddiy noz-ne'matlari behisob bo'lsa ham, hech qachon obro' e'tiborga loyiq buyuk davlat bo'la olmaydi. Shu sababli ham har bir jamiyat avvalo o'zida istiqomat qiluvchi shaxslarning yuksak ma'naviyatli bo'lishi uchun qayg'urishi, ularga shu xislatga ega bo'lishi uchun shart-sharoit yaratishi tabiiy holga aylanishi kerak. Demak, axloq-odob tarbiyasi etakchi o'rinda bo'lishi lozim. Yuksak axloqiylik va odoblilik bo'lmas ekan, yuksak ma'naviyat ham bo'lmaydi.

11.2. Axloq va odob tarixiy, insoniy an'anadir.

Axloq-odobni e'zozlash har bir insonning yuksak burchi sanaladi. Chunki unda insonga va insoniyat taqdiriga salbiy ta'sir etadigan noma'lum holatlarning o'zi yo'q. Demak, bu noyob merosdan kechmaslik bizning burchimizdir. Aksincha, uni boyitish, hayotga tatbiq etish ham farz, ham qarzdir. Ajdodlarimiz yaratgan beba ho axloqiy jarayonlarga amal qilinsa, insonlar o'rtasidagi mehr-muhabbat, insoniylik xislatlari ortadi, el-yurt, mamlakat, jamiyatda barqarorlik ro'y beradi, hasad yo'qolib havas mavqeい oshadi. Shu jarayonlarni hisobga olgan holda, axloqiy xislatlarni mukammallashtirishga harakat qilgan barcha allomalarimizning tavalludlarini nishonlash, ularga hurmat ko'rsatish, nomlarini abadiylashtirish yaxshi an'anaga aylanayotir. Bu esa axloqiy tarbiyani o'z o'rniga qo'yishning bir vositasidir. Zero, Prezidentimiz I.A Karimov ta'kidlaganidek, «Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillilik, millatidan qat'i nazar odamlarga xayrihohlilik bilan munosabatda bo'ladi, o'zgalar kulfatiga hamdard bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori hisoblanadi. O'zbeklar diyoriga, o'z Vataniga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlarga, ma'rifatparvarlarga nisbatan hurmat-ehtirom O'zbekiston aholisiga xos fazilatlardir»¹.

Axloqiy meros xalqimizning ko'p asrlar davomida to'plagan beba ho xazinasidir. U juda ko'p qirrali, serjilo, sermazmundir. Unda milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'z aksini topgan. Shu sababli ham biz mazkur xazinaga, ularga e'tiqod qo'ygan an'analarga suyanishimiz, ulardan o'z o'rnida oqilona foydalanishimiz zarur. Shundagina jamiyatimizning olg'a qarab borishini ta'minlaymiz.

Qadimgi allomalarimiz qoldirgan merosda axloqiy tarbiya borasidagi fikrlari o'zining naqadar sofligi, o'ta ta'sirchanligi bilan insonni lol qoldiradi. Barcha aytilgan axloqiy o'gitlar insonlarni johillik va razillikdan, odobsizlik va manmanlikdan, harom-xarishdan qaytarishga, aksincha tinch-totuv, kamtarona va sof vijdon bilan yashashga da'vat etgan. Chunki millatning qaror topishi, uning rivoji insonning barkamolligi bilan bog'liqligini ular hammadan ko'ra ko'proq bilgan va his qila olgan. Insonning libosi zarli to'nlaru, ko'z-ko'z qiladigan taqinchoqlar emas. Insonning libosi ma'naviy libosdir. Ma'naviy libos esa axloqiy xislatlar bilan bog'langandir. Yangi asr xalqimiz uchun nafaqat moddiy jihatdan balki, ma'naviy, madaniy jihatdan ham yuksalish asridir. XXI asr jamiyatning taraqqiyotini yanada yangi pog'onaga ko'taradi. To'g'ri, bu asrning ham o'z qiyinchiliklari, ziddiyatli rivojlanishi bor. Shunday bo'lsa-da, jamiyat axloqiy tarbiyani o'zining markaziy faoliyatlaridan, deb bilishi tabiiydir. Sababi umumiyy rivojlanishning o'zi shu jarayonga borib taqaladi. Mehnat qilish murakkab xarakterda bo'ladi. Texnik taraqqiyot o'zining xususiyatlari bilan shunday sharoit yaratadi. Mehnatsevarlik esa axloqiy xislatlarga bog'liqdir. Demak, inson tarbiya topadigan jamiyatda yuksak axloqlilik natijasida mehnat qilinsagina, u o'z yashash sharoitini yaxshilaydi. Moddiy-ma'naviy yuksalishi uchun zamin yaratadi.

¹ I. A. Karimov. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T.: "O'zbekiston" 1992, 11-12-betlar.

Jamiyat taraqqiyotining tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning barchasida ham kishilar o'rtasidagi axloqiy munosabatlar iqtisodiy, siyosiy, huquqiy o'lchovlar ta'sirida rivojlantirilgan. Lekin bu degani, yuksak ma'naviy jarayonlardan uzoqlashsa ham rivojlanish mumkin, degani emas. Aynan bizning xalqimiz taraqqiyotida insoniy munosabatlarni mustahkamlashda asosan axloqiy sohalar muhim o'rinni egallaydi. U yoki bu sohada nojo'ya ishlarni amalga oshirganlarni axloqiy jihatlar bilan tarbiyalaganlar. Shu sababli aytish mumkinki, jamiyat hayotidagi munosabatlarda kishilar ma'lum axloqiy urf-odat va qadriyatlarga suyanib ish ko'rsalar foydadan xoli bo'lmaydi. Bu urf-odat va qadriyatlarning bir qismini bo'lsa-da qadriyatlarni o'zida singdirgan har bir inson jamiyatni ham unutmaydi, jamiyat uchun, uning ravnaqini yo'lida xizmat qilishga intiladi, jamiyat uchun qayg'uradi. Axloqli shaxs o'zining munosib harakatlari bilan boshqa shaxslarni o'z izidan borishga ergashtiradi. Nomunosib harakatlari bo'lgan insonlarni jamiyat hayotdan uzoqlashtiradi va insonlarga zarar keltiradigan sohalarni kamaytiradi. Shuni unutmaslik lozimki, ba'zi shaxslar axloqiy jihatlarni ko'r-ko'rona bajaradilar va ba'zan ko'z-ko'z ham qiladilar. Bunday shaxslarning ichki dunyosi sof axloqiy jihatlardan bir muncha xoli bo'ladi. Ularning axloqiy jihatlari tashqi ko'rinishidadir. Bunday kishilar faoliyati jamiyat uchun zarardan boshqa narsa emas. Hadisi shariflarda shunday ibora bor: «Alloh sizning tashqi qiyofangizga qaramaydi. Lekin Alloh sizning ichingizga, qalblaringizga qaraydi», -degan fikrlari bilan har bir insonni ichki go'zalligi ustun qo'yilgan. Ichki go'zallik birlamchidir. Ichki go'zalligi qanchalik mustahkam bo'lgan inson axloqiy fazilatlarni tashqarida namoyon qiladi. Aniqrog'i, jamiyatda yuksak axloqiy ma'naviyat rivojiga o'z hissasini qo'shami.

Axloqiy qonun va qoidalar keng qirralidir. Ular inson turmush tarzining barcha tomonlarini qamrab olgan. Inson atrofidagi muhitni tashkil qilishda, insonning yuksak ma'naviyatini shakllanishida, ijtimoiy muhitni tashkil qilish va o'zgartirishda, ma'naviyatni oshirishda, hayotda o'z-o'rnini topishda, muamolarni echishda, inson hayotini o'rganish va boshqalarda axloq namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, axloq jamiyat hayotining muhim me'yorini tashkil qiladi. Bu me'yor buzilsa, jamiyat inqirozga yuz tutadi. Axloqiy buzuqlik ko'paysa insonlar o'rtasidagi mehr-oqibat yo'qolib jamiyatning boshini berk ko'chaga olib kiradi. Demakki, progressiv taraqqiyotdan regressiv taraqqiyotga olib o'tadi. Komillikka intiluvchi insonlar kamayadi qolaversa, jamiyatning tinchligi buzilib barqarorlik yo'qoladi.

Axloqli shaxslarni ko'payishi jamiyat ravnaqini tezlashtiradi. Millatning barkamolligi uchun asos yaratiladi. Jamiyatda yashovchi shaxslar faqat boylikning ketidan quvsalar, bu jamiyatning fojiasidir. Boylik insonni ulug'lamaydi. Qachonki, boylikni pesh qilib, ma'naviy axloqlik hisobga olinmas ekan, insonning turmush tarzi ham buziladi. Olimlardan Ziyoulloh aytadi: «Saodatmand, dono odamlar xushfe'l-atvorini o'zlariga abadiy najot sarmoyasi, deb biladilar. Fursat, vaqtini qo'ldan qochirmaydilar, uni g'animat sanaydilar, go'zal axloq, odob bilan ziynatlanadilar. Mol-dunyo yig'ishga haris bo'lmaydilar, hech kimning ko'nglini og'ritmaydilar. Ojiz va g'arib kishilarga g'amxo'rlik qiladilar, ularning ehtiyojlarini o'ylaydilar, birovning aybini ko'rsalar, oshkora qilmasdan uni bekitadilar, qilgan yaxshiliklari bilan maqtanib yurmaydilar, birovdan yomonlik ko'rsalar, u kishiga yaxshilik qiladilar,

ulug' odam fazilatlarining siyratlari, go'zal fe'l-atvorlarini o'zlariga peshvo qilib oladilar, o'z manfaatlarini ko'zlab, boshqalarga ziyon keltirmaydilar, hech kimga qo'pollik bilan muomala qilmaydilar, to'g'ri so'zlaydilar, yolg'onchilik kuchaysa, qadam bosmaydilar»¹.

Mutaffakkir aytganidek, jamiyatda saodatparvar insonlar qanchalik ko'paysa, jaholat shunchalik kam bo'lur edi. Insoniylik g'alaba qozongan bo'lur edi. Olimning so'zlarini o'zlarida mujassamlashtirgan insonlar jamiyatning haqiqiy «ustunlari»dir. Demak, jamiyat shu «ustunlar»ni ko'paytirish uchun bor kuchini sarflagandagina o'z maqsadlariga erisha oladi. Respublikamizda bu o'rinda ham jiddiy harakat borligi, bu harakatlar qonunlashtirib hayotga tatbiq etilayotganligining guvohimiz. Jumladan barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga etkazish haqidagi «Ta'lim to'g'risida» chiqarilgan O'zbekiston Respublikasi qonuni fikrimizning yorqin dalilidir.

Bu qonunda:

- «...Ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiyo'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishi;
- akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi»²ga diqqat-e'tibor qaratilgan.

Ha, jamiyatimiz harakati xalqimiz farovonligini ta'minlaydi. Xalqimiz esa jamiyatimizni harakatga keltiruvchi asosiy kuchdir. Xalq harakati barakatdir. Alloma Abu Nasr Forobiy bu o'rinda shunday deydi: «Baxtga erishish maqsadida birlashgan kishilar jamoasi fazilatli jamoadir. Baxtga erishish maqsadida o'zaro yordam bergen xalq fazilatli xalqdir. Shu tartibda barcha xalqlar baxtga erishish uchun bir-birlariga yordam bersalar, butun er yuzi fazilatli bo'ladi»¹. Ravshanki, jamoa deganda alloma jamiyatni ko'zda tutadi. Jamiyatni xalq paydo qiladi. Xalq esa saodatli bo'lishi zarur. Jamiyat taraqqiyotining umumiyo'jihatlari shu saodatlilikka bog'liq. Jahon miyosida yangiliklar, o'zgarishlar, kashfiyotlar bo'lmasdan turib, insonning axloqiy jarayonlari to'la bo'lmaydi.

Inson kitob olami bilan tanish bo'lishi lozim. O'shandagina inson saodatli bo'la oladi. Shu sababli inson yashayotgan jamiyat o'z individulariga axloqiy ongni shakllantirish yo'lida xizmat qilmog'i lozim. Albatta axloqiy ong yakka holda va jamoatchilik asosida shakllanadi. Chunki, inson jamiyat tomonidan qabul qilinadigan ijobjiy yoki salbiy axloqiy tasavvurlariga suyanadi. Ularni o'zida mujassamlashtiradi, natijada o'z xulq-atvorini mustahkamlaydi. Axloqiy tasavvurlarni tahlil, mulohaza qiladi, munosabat bildiradi. Bu insonning axloqiy ongini shakllanishiga olib keladi. Axloqiy ong insonning ma'naviy xislatlarining yig'indisidir. Axloqiy ong ham jamiyatdagi zaruriy, tarixiy jarayonlar ham manfaatlarda namoyon bo'ladi. Axloq qirralari birlashib axloqiy ongni tashkil etsa-da, ular nisbatan mustaqildir. Insondagi alohida olingen axloq xislatlarini axloqiy ong deb bo'lmaydi. Axloqqa nisbatan axloqiy ong keng qamrovlidir. Albatta, ahloqiy ong axloqqa va aksincha o'zaro

¹ Oz-oz o'rganib dono bo'lur. T. , 1988 yil, 76-bet

² Barkamol avlod. O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: 1997, 20-bet.

¹ «Ma'rifat» gazetası 1 aprel, 2000

ta'sirda bo'lsa, jamiyat undan unumli foydalanadi. Ular dialektik munosabatda bo'lgandagina ta'sirchan va foydali bo'ladi. Bu murakkab jarayon bo'lib hisoblanadi. Ushbu jarayonni ichki axloq-odob qirralarida ko'rsak masala oydinlashadi.

Ijobiy kamolatga erishish axloq va odob orqali amalgalashadi. Kamolotga erishish uchun harakat qilgan odamni haqiqiy inson qatoriga qo'shadilar. Shu o'rinda xalqimiz o'rtasida «yaxshi» va «yomon» odam degan mulohazalar bor. Yaxshi va yomon odam deganda, avvalo, kishi ko'z o'ngida insonning axloqiy fazilatlari namoyon bo'ladi. Ma'lumki, yaxshi odam deganda, kamtarin, yaxshi fazilatli, mehr-shafqatli, insonparvarligi bo'lgan, yolg'on gapirmaydigan, halol, vijdonli, muloyim, chehrasidan nur tomadigan, saxiy, mehnatsevar insonlar tushuniladi. «Yomon» odam deganda bu jihatlarning aksi mujassamlashgan kishilar tushuniladi. Bu ikkala xarakterdagi odamlar bir jamiyatda yashasalar ham, olgan tarbiya o'choqlari turlicha bo'lganligi uchun bir-birlaridan farq qiladilar. Yomon va yaxshi odamlar haqida ham o'tmishda allomalarimiz tomonidan turlicha fikrlar bildirilgan:

Har kishidan xalq bo'lsa norizo,
Ul bo'lur yuz ming baloga mubtalo.

x x x

Har kishining bor esa yaxshi so'zi,
Orttirar obro'sin albatta o'zi.

x x x

Kim tama qilsa, o'zin xor aylagay,
Xorlikdan o'zin bemor aylagay

x x x

Qarilarning xizmatiga bog'la bel,
Ko'rsang o'zingdan kichikni rahm qil.

x x x

Chin, samimiyoq do'stki topmoqliq qiyin,
Gar topolsang, surma qil ko'zga izin.

x x x

Kimki bo'lsa xushchiroyu, xushqiliq,
Doimo ko'rgay jahonda yaxshilik.

x x x

Bir o'g'ilga vasiyat etdi ota:
«Ey javonmard, yod ol bu pand,
Kimki o'z ahliga vafo qilmas,
Bo'lmagay baxtiyoru davlatmand».

Himmatingni tut baland el oldida,
Himmatingla martabang bo'lg'ay baland.

x x x

Istasangiz qayg'u-g'amlardan najot,
Nojo'ya ishlardan aylang ehtiyot.

x x x

Gar yomonlik yo'lini har kimsa qilsa ixtiyor,
Xalq ishonchin yo'q etib bo'lgay balolarga duchor.

X X X

Kim xaloyiqqa taraxxum qilmagay,
Unga aslo baxt-davlat kelmagay.

X X X

Amal sendan, o'g'il, mendan nasihat,

Etar badbaxt insonni adovat¹ va boshqalar. Xalq va donishmandlar tomonidan aytib qoldirilgan ushbu fikrlarda tom-tom ma'no yotadi. Barchasi ham insonni axloq va odobiga qaratilganki, ularga amal qilgan insonlar faqat obro'-e'tibor qozonadi. Hikmatlar shunday kuchlikki, inson amal qilganda o'tda kuymaydi, suvda cho'kmaydi. Chunki, bu hikmatlar hayotdan olingen bo'lib, o'tda toblangan metalldek mustahkam, ildizi baquvvat chinor kabitdir. Hikmatlarda aytilgan nasihatlar faqat bir shior emas, balki insonni kamolotga etaklovchi yorug' yulduzdir. To'g'ri, yuksak odob va axloqqa intilish har bir shaxsninng xususiy ishi, faoliyatidir. Unga amal qilish-qilmaslik ham har bir kishining ma'naviy dunyosiga bog'liq. Gap shundaki, inson o'z maqsadiga erishish uchun harakat qilar ekan, bularga amal qilmasa yarim yo'lida qoladi, ovora bo'ladi. G'am va alam bilan hayotdan o'tadi. Binobarin, inson hayotga kelib o'zini tanir ekan, ezgu maqsadlarni amalga oshirishga intiladi. Hayotda iz qoldirishga shoshiladi.

Demak, bu ezgu niyatlar yo'lida axloqiy normalardan ijobiyl foydalanilmasa, bu ulkan ezgu niyatlar, ishlar amalga oshmaydi. Yashash jarayonida qarshiliklarga duch kelaveradi. Olam shunday yaratilganki, unda aqli va aqlsizlar mavjud. Aqli odam maqsad sari olg'a qarab boraveradi, qiyinchiliklardan qo'rqlaydi. Sababi, donishmandlar fikri va hikmatlariga amal qiladi. O'z aqli orqali yuksakliklarga ko'tariladi. Aqli inson yuksak ma'naviy xislatlarga ega bo'lgan, uzoqni ko'ra oladigan axloqli shaxsdir. Shaxs esa, o'z faoliyati bilan jamiyat rivojiga o'zining hissasini qo'shadi, uning tashvishlari bilan yashaydi, natijada o'zi ham kamol topaveradi.

Shaxsning aql-idrokini yuksak darajaga ko'tarish bilan birga dunyoviy voqealardan xabardor qilib, falsafiy xulosalari chiqarishga, oxir-oqibatda donishmand bo'lishi uchun zamin, asos yaratadi. Har bir shaxs avvalo o'zi ijodkor, tashabbuskor bo'lishi zarurdir. U aqli bo'lishga intilib harakat qilmoqni ich-ichidan his etishi kerak. O'z ustida ma'suliyat bilan ishlashi lozim. Beparvolikka chek qo'yishi, loqaydlikdan uzoq bo'lishi zarur.

Aql inson-shaxsda shakllanadi. U tashqi muhit orqali sodir bo'ladi. Axloqiy jihatlar insonning odob xislatlari yig'indisidan tarkib topadi. Shu ma'noda odob inson faoliyatida axloqqa nisbatan birlamchidir. Yuksak odob va axloq insonning eng go'zal va sharafli fazilatlarining yig'indisidir. Chunki, ma'naviyat so'zining o'zida ham odob va axloqning jiddiy o'rni bor. Sababi, ma'naviyatda odob va axloq mujassamdir, ular ham dialektik munosabatdadir. Odob va axloq orqali inson tabiatdagi noz-ne'matlardan foydalanadi, borliqni yaratadi, o'zgartiradi. Borliq esa oxir-oqibatda insonga xizmat qiladi.

¹ Ushbu fikrlar «Oz-oz o'r ganib dono bo'lur» kitobining ikkinchi nashridan olingen..

Insondagi aqliy xislatlar tarbiya orqali amalga oshadi. Shu jihatdan qaraganda jamiyat, oila, jamoa oldidagi, tarbiya jarayonlarini mukamallashtirishdek oljanob ish turadi. Boqimandalikka qarshi kurashadigan, o'z haq-huquqlarini talab qila oladigan, o'z aqli va kuchiga ishonadigan, vatan mehri bilan yashaydigan, o'z oilasi, shaxsiy manfaatlarini jamoa, jamiyat, davlat manfaatlari bilan uyg'unlikda ko'ra oladigan insonlarni tarbiyalash O'zbekiston uchun o'ta muhim va dolzarbdir. Inson tarbiyasiga e'tiborni qaratmagan oila, jamoa, mahalla, jamiyat bu – o'z kelajagiga loqayd, degan so'zdir. Binobarin, keljak natijasi bilan qiziqmaydi. Bu mevasiz daraxtni parvarish qilgandek. Pirovard natija jamiyat inqirozga yuz tutadi.

O'zbekiston xalqi mustaqillik tufayli donishmandlarimiz qoldirgan ma'naviy merosni qayta tiklab unga e'tiqod qilishda xalqlar o'rtasida nufuzli o'rirlarni egallab kelmoqda. Axloq va odob normalari qanchalik ko'p va keng qirrali bo'lishidan qat'i nazar ularni boyitgan holda hayotga tatbiq qilinmoqda. Axloq va odob milliy ma'naviyatimizning tarkibiy qismi sifatida shakllanar ekan, bu soha fazilatlarini xalqimizga, ayniqsa, yosh avlodga yanada chuqurroq singdirish har bir ziyolini muqaddas burchidir.

Insonning axloq-odobini taraqqiy ettirish milliy, diniy, umuminsoniy qadriyatlarga suyanib ish olib borganda yanada samarali bo'ladi. Milliylikka asoslangan tarbiyaning olib borilishi asosiy tayanch bo'lib hisoblansa, u mustahkam poydevorga ega bo'ladi. Ammo, tarbiya diniy va umuminsoniy qadriyatlar bilan mujassamlasha yanada sermazmun bo'ladi. Ma'lumki, milliy ma'naviyatimiz, o'zbek xalqi faoliyatiga chuqur ta'sir qilgan islom dini bilan qorishib ketgan. Shu sababli ham tarbiya berishda islomiy qadriyatlardan foydalanish ayniqsa muhimdir.

Islom dinida axloqsizlik jihatlari qattiq qoralanadi. Axloqsizlik elementlariga, insofsizlik, andishasizlik, sharm-hayosizlik, boqimandalik, beg'amlik, odobsizlik, poraxo'rlik, lagabardorlik, mehr-oqibatsizlik kabilalar kiradi. Bu jihatlarning bo'lishi axloqlilik girdobidan uzoqlashish demakdir. Bularning barchasi, shu jumladan, odoblilik va odobsizlikning bo'lishi inson tarbiyasiga bog'liqidir. Ba'zida farzand tarbiyasi muammosi chetda ham qolishi mumkin. Chunki, atrof-muhit sharoitlari va tarbiyadan ustun bo'lgan hollar ham hayotda bo'ladi. Shu atrof-muhit ta'sirida ota-onalar tarbiyasidan xulosa qilmagan farzandlar hayotda oz emas. Bunday farzand va shaxslarni Ollohdan boshqa hech kim bahosini bera olmaydi. Bunday shaxslar, insonlar avvalo xulq-atvor, axloq-odobni nima ekanligini ma'nosiga etmasalar kerak. Hatto hadislardagi: «Oralaringizda eng yaxshingiz – xulqi yaxshingizdir», -degan payg'ambarimiz fikrlarini eslariga ham olmaydilar.

Yaxshi axloq va odobga ega bo'lgan insonlar xalq, el, yurt hurmatiga sazovor bo'ladilar. Axloqli insonlarni birinchi navbatda o'z oilasi, qo'ni-qo'shnilar, qarindosh-urug'lari, tanish-bilishlari hurmat qiladilar. Bunday kishilar sof vijdonli, yuksak madaniyatli, kamtar, sofdil, o'z so'zini ustidan chiqadigan, boshqa birovga zarar bermaydigan oljanob bo'ladilar. Ular birovni nohaq xafa qilmaydigan, xiyonatdan uzoq yuradigan, o'gitlarga qulq soladigan va rioya qiladigan kishilardir. Bu xislatlarga ega bo'lgan kishilar o'z faoliyati bilan insonlarga faqat foyda keltiradilar, xolos. Shu bilan birga o'zlarining baxtli bo'lishlarini ham ta'minlaydilar. «Kimki qalbini iymon uchun xolis va sog'lom, tilni rostgo'y, o'zini xotirjam, xulqini

to'g'ri, qulog'ini tinglovchi, ko'zini ibrat nazari bilan boquvchi qilib olgan bo'lsa, demak u baxtlidir», - deyiladi Imom al-Buxoriy hadislarida. Demak, axloq har bir insonning o'zini-o'zi anglashiga ko'maklashadi. Axloqli insonlar ma'rifatli bo'ladilar. Shunday kishilar elim deb, yurtim deb, kuyib-yonib yashaydilar. Ular har bir hadisga befarq bo'lmaydilar. Birovlarga himmat, muruvvat ko'rsatadilar. Bunday kishilar hadislarimizga amal qiladilar. Binobarin, hadislarda: «Siz o'z mollareringiz bilan xalqning ko'nglini olmoqqa emas, balki ularga ochiq yuz, go'zal xulqingiz bilan manzur bo'lmoqqa intiling», -degan pand-nasihatlar, «Kimki saxiy va taqvodor ersa, jannatga tuyassar bo'lg'ay», -degan fikrlar faqat yaxshi axloqli bo'lishga etaklaydi. Yuksak axloqli kishilar muruvvatli bo'ladilar. Boshqalar mushkulini oson qiladilar. Chunki, ularda oriyat kuchli bo'ladi. Yordam ko'rsatishni shon-sharaf deb biladilar. Faqat o'z tinchligini emas, boshqalarning tinchligini ham tilaydilar va ta'minlaydilar.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan beri yuksak axloqiy xislatlarni shakllantirishda xalqimizning ijobiy urf-odatlari, an'analari, qadriyatlar asosida tarbiyalashga harakat qilinmoqda. To'g'ri, bu jihatlar, ya'ni axloqiy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimizni yosh avlodga singdirish avvalo oiladan boshlanadi. Biz yashayotgan jamiyat ko'proq yoshlarni ma'rifatli va madaniyatli qilib tarbiyalashni ko'proq oila zimmasiga yuklaydi. Bu jarayon mustaqillik tafakkuri bilan bog'lanishi lozim. I.A.Karimov ta'kidlaganidek, mustaqillik tafakkuri yoshlarda O'zbekistonning istiqboli haqida qayg'urish, o'zining va o'z xalqining, vatanining qadr-qimmati, ornomusini anglab, uni himoya qilish, yuksak g'oyalar, yangi fikriy kashfiyotlar ishqini bilan mehnat qilib, iste'dodi, bor imkoniyatini, kerak bo'lsa jonini yurt istiqboli, eliga baxshida etish kabi buyuk xislatlarni shakllantirishdan iborat.

Insonda axloqiy sifatlarning qirralari bo'lgan: to'g'rilik, mehr-shafqat, vijdon, mehnatsevarlik, sofdillik, to'g'riso'zlik, birovga tik boqmaslik, vatanparvarlik kabilarni har bir ota-onan farzandlariga yoshligidan singdirsa, bu xislatlar keyinroq insonning hayotiy faoliyatida o'z samarasini bera boshlaydi. Farzandlarning porloq kelajagini ota-onadan qoldirilgan boylik merosi emas, balki qoldirgan ma'naviy meros belgilaydi. Har bir ota-onan farzandining kelajagini albatta o'ylaydi va ular uchun qo'ldan kelgan harakatini qiladi. Kerak bo'lsa jonini ham ayamaydi. Bu ham oliy darajadagi qadriyatdir. To'g'ri, ba'zida, ba'zi ota-onalar farzandini o'ta siylab, farzandlarini baxtli qiladigan narsa - bu moddiy boyliklar, deb tushunadi. Ma'naviy boylik esa ikkilamchi bo'lib qoladi. Bunday tarbiyaning kelajagi voy bo'lib, o'sha ota-onani umriga zavol bo'ladi. Sababi, voyaga etkazilgan farzand boylikka, engil hayotga o'rganib qolib, o'zining axloqiy pokligiga e'tibor bermaydi. Xudbin bo'lib qoladi. O'zining mustaqil hayotini eplay olmaydigan bo'ladi. Hayotga va o'z qavm-qarindoshlariga mehrsiz bo'lib qoladi.

Bo'lajak ota-onalar unutmasligi kerakki, muqaddas hadislarda ham bu jihatga katta e'tibor qaratilib: «Farzandlarni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangizlar», «Hech bir ota o'z farzandiga xulqi odobdan buyukroq meros bera olmaydi»¹, -degan hayotiy fikrlar bildirilgan. Ota-onan uchun odobli, axloqli farzand keyingi umr hisoblanadi. Xalqimizda farzandlarni hurmat qilganda yaxshi ibora ishlatib, o'sha farzandga nisbatan «otingga rahmat» deyiladi. Ota uchun ushbu fikr

¹ Imom Buxoriy «Al-adab al-mufrad». T.: «O'zbekiston», 1999, 45-46-betlar.

aynan keyingi umrdir. Axloqli va odobli bo'lib o'sish, shunchaki bir havas emas, bu eng murakkab, qiyinlik bilan amalga oshadigan jarayondir. Inson axloqli va odobli bo'lishda turli qiyinchiliklarga, qarshiliklarga duch keladi. Shu jarayonlarni engib o'tgan inson axloqli, odobli degan muqaddas nomga ega bo'ladi. Tabiiyki, boshqalarning g'ami uchun boshqotirish, tashvishlarini engil qilish, boshqalarga baxtsaodat ato qilish o'z manfaatlaridan keyinga qo'yish bilan barobardir. Bu sifatlarni haqiqiy odob va axloqqa ega bo'lgan insonlarga amalga oshiradilar.

Yuksak axloqni shakllanishida bolalar muassasalari, san'at turlari, teleko'rsatuvarlar, radiodagi suhbatlar, gazeta va jurnallarda chop etilayotgan maqolalar, qissalar, romanlar, videofilmlarning ham ta'siri kattadir. Lekin, bu sohalar hamisha ham insonlarda yuksak axloqiy jihatlarni to'g'ri shakllantiravermaydi. Bular ichida ancha sayoz, umumxalq talabiga javob bermaydigan ko'rsatuv va eshittirishlar, asarlar ham chiqib qoladi. Masalan, Evropacha kiyinishing ba'zi turlari, jangari va shahvoni filmlarning namoyish qilinishi, chet el estaradasining yoqimsiz ashula va musiqalarini efirga tarqatish, reklamalarda ko'rsatilayotgan ba'zi foydalanish predmetlari, tamaki mahsulotlarining maqtalishi va boshqalar fikrimizning yorqin dalilidir. Mazkur ko'rsatuvarlar o'zbek xalqi axloqiy jihatlariga putur etkazadigan, yuksak ma'naviyatiga to'g'ri kelmaydigan ko'rsatuvlardir.

Jamiyatimizda aholini yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalash borasida ulkan ishlar amalga oshirilar ekan, bunday sharoitlarda bu ko'rsatuvarlarni tayyorlayotgan mutasaddi xodimlar o'z axloqi va odobi to'g'risida o'ylab ko'rsalar foydadan xoli bo'lmasdi. Radio, televidenieni moddiy boyitish maqsadida har qanday reklamalarni ishlab chiqib ko'rsatish natijasida ular axloqsizlik elementlarini shakllanishiga olib kelishini unutmasalar yaxshi bo'lar edi. Bular o'zlarining ushbu faoliyatlar bilan jamiyatda yashovchi axloqli insonlarning kamayishiga olib kelayotganligini sezsalar nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

Yuksak axloqli insonlarda rahmdillik, qat'iyatlilik, sabr-toqat, mardlik, matonat, mehr-oqibat, halollik, poklik, to'g'riso'zlik, savodxonlik, saxovatlilik, xushfe'lilik, shirinso'zlik, odillik, hayolilik, odamiylik, oq ko'ngillilik kabi xislatlar mujassam bo'ladi. Bu xislatlarga ega bo'lgan insonlar qancha ko'paysa barkamol avlodni tarbiyalab voyaga etkazish imkoniyatlari ham shuncha ko'payadi. Sababi, barkamol insonlar ta'siri yoshlarga o'tmay qolmaydi. Odoblilik, axloqlilik yoshlikdan boshlanadi. Yoshlar esa jamiyat kelajagi. Yuksak axloqqa ega bo'limgan yoshlar bilan o'z-o'zidan ma'lumki, O'zbekistonning kelajagi buyuk bo'la olmaydi.

Yuksak axloqiy xislatlarni shakllantirishda «Qobusnama», «Qutadg'u bilig», «Mahbub ul-qulub», «Boburnoma», «Temur tuzuklari», «Temurnoma», «Oz-oz o'rjanib dono bo'lur», «Odobnama», «Ma'naviyat yulduzlari», «Xotamnama», «O'zbek pedagogikasi antologiyasi», «Axloq-odob saboqlari», «Ma'naviyat darslari», «Al-adab al-mufrad», «Xamsa» kabi asarlarning beqiyos o'rni borki, ulardan har bir yosh bahramand bo'lsa ularda yuksak axloqiy xislatlar takomillashadi.

Tayanch so'z va iboralar: komillik, ma'naviy kamolot, axloqli shaxs, hadislari, ichki go'zallik, axloqiy buzuqlik, axloqiy ong, ijobiy kamolot, falsafiy xulosalar, dialektik munosabat, borliq, islomiy qadriyatlar, moddiy boylik, ma'naviy boylik, axloqiy ong.

Hikmatlardan namunalar

To'g'rilikdan kelmish hamma yaxshi ot,
Egrilikdan foyda ko'rmadi bir zot.

Abulqosim Firdavsiy.

«Odobning boshi til».

«Devonu lug'otit turk»

Oz-ozdan yig'ilib bo'ladi bisyor,
Dona-dona g'alla to'ldirar ombor.

Sa'diy

Yomon nafsingni odobga g'ulom qil,
Odobsizni odobing birla rom qil.

Xusrav Dehlaviy

Gar urush tushsa ikki hamdam aro,
Bot aning tadbirini etmak kerak.
Biridin ayb o'tsa zohir, ul biri,
Uzr aytib, aybini yopmak kerak.
x x x

Zinhor adab o'rganing, ey ahli tolib,
Kim bordur adab guli saodatqa sabab.
Shaytonki adabsiz erdi, qoldi mahrum,
Odamni ko'ring-ne erga etkurdi adab.

x x x

Gar sog'liq istasang, ema hech ovqat,
Ishtahang g'alaba qilmasdan burun.
Ammo hali nafsing qoniqmay turib,
Taomdan qo'lingni tortishga urin.

Yomonlarga kamroq qilg'il yaxshilik,
Yaxshilarga qilg'il yaxshilik ko'proq.
Agar ikkoviga barobar qilsang,
Yomonlarga ko'proq tegar, yaxshi boq.

Alisher Navoiy.

Test topshiriqlari

1. Qanday qadriyatlar axloqiy qadriyatlar deyiladi?

- a) ma'lum bir mintaqaga xalqlarigagina xos, takrorlanmas etnoslarga boy va asrlar mobaynida shakllangan qadriyatlar;
- v) asrlar davomida shakllangan, umum e'tirof etilgan, jamiyat hayotini ahloqiy jihatdan belgilab turadigan qadriyatlar;
- g) tarbiyani muhim kategoriya qilib olgan qadriyatlar;
- d) v va g;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

2. Quyidagilardan qaysi ta'limotda ahloq odob eng muhim kategoriya sifatida shakllangan?

- a) qadimgi Misr dunyoqarashida;
- v) antik davr Yunon ta'limotida;
- g) Sharq falsafasida;
- d) Sharq falsafasi va Islom ta'limotida;
- e) naqshbandiya tariqatida.

3. Tarbiya nima?

- a) ahloqiy fazilatlarni singdirish;
- v) komillik kaliti;
- g) muhit ta'sirida shakllangan insonga bo'lgan munosabat;
- d) ta'lim berish, ilm o'rgatish;
- e) yuqoridagilarni barchasi.

4. Quyidagi fikrlardan qaysi biri to'g'ri?

- a) axloq - odob, tarbiyaga qaraganda kengroq tushuncha;
- v) axloq - odob tarbiyani taqazo qiladi;
- g) axloq odob jamiyat ustunini tashkil qiladi. Tarbiya esa jamiyatni belgilab beradi;
- d) tarbiya kategoriya sifatida ahloq odobni o'z ichiga oladi;
- e) V,G, va D javoblar

5. Quyidagi fikrlardan qaysi biri yuksak ma'naviyat zaruriyatini olib beradi.

- a) jamiyatdagи barcha yutuq va kamchiliklar insonning ma'naviy kamolotiga borib taqaladi;
- v) axloq - odob tarbiyasiga e'tiborsiz qaragan jamiyatda qanchalik moddiy farovonlik o'tkinchidir;
- g) ma'naviy kamolotga erishilmagan jamiyatda qanchalik moddiy boyliklar ko'p bo'lmasin, baribir, u jamiyat yuksaklikka chiqa olmaydi;
- d) inson omili muhim bo'lib qolar ekan jamiyat har doim ma'naviy yuksak bo'lishi kerak, aks holda inkiroz muqarar;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

6. Quyidagi javoblardan qaysi birida ahloqiy tarbiyaga to'g'ri ta'rif berilgan?

- a) yakka va jamoatchilik asosida shakllangan ijobiy va salbiy tasavvurlarga suyanadigan jamiyat individlari uchun zarur ong shakli;
- v) inson hayoloti bilan bog'liq, tarixiy jarayonlar va missiyalar zaruriyati uchun shakllangan ta'limot;
- g) insonning o'z manfaati yo'lidagi har bir harakatini yuzaga keltiruvchi hodisa;
- d) axloqiy tasavvurlarni tahlil qilish malakasi;
- e) to'g'ri javob yo'q.

7. Kishi axloq - odobini tashqi va ichki qirralarga bo'lib o'rghanish mumkinmi?

- a) mumkin emas;
- v) mumkin, biroq farq qilinmaydi;
- g) zaruriyat yo'q;
- d) albatta mumkin;
- e) savol noto'g'ri qo'yilgan.

8. Axloq - odob tarbiyasida aks ta'sir samarasi nima?

- a) axloqiy fazilatlarni namoyon etishga intilish;
- v) tarbiyada qattiqko'llik va zo'ravonlik ta'sirida shakllangan (qusur) ma'naviy qusur;
- g) ruhiy siqilish va emotsiyonal kayfiyat ta'sirida shakllangan axloqiy ong amalga oshirgan botirlik va mardlik namunalari;
- d) noto'g'ri javob yo'q;
- e) B va S javoblar.

9. Qanday holda umri tog'u toshlar va dara dashtlarda o'tgan cho'ponni, fan cho'qqilarini zabit etgan olimdan axloqli, odobli deyish mumkin?

- a) bunday hol uchrashi mumkin emas;
- v) olimdagи mavjud dialektik axloq nisbati cho'ponnikidan ko'ra xavfli bo'lganda;
- g) hayotda ortirgan axloqiy, falsafasi jamiyat uchun foydali bo'lganda;
- d) xususiy hollarda uchrashi mumkin bo'lgan aql va zo'ravonlikning genetik takrorlanishi;
- e) ular amalga oshirishi mumkin bo'lgan xatolar ko'lamiga qarab.

10. Axloq - odobni dialektik tushuntirish kishida qanday fazilatlarni shakllantirishga hissa qushadi?

- a) hayotga real ko'z bilan boqishga yordam beradi;
- v) to'g'ri yo'lni tanlashda risqni kamaytiradi;
- g) samimiyl muloqot va kuchli diplomat qilib qo'yadi;
- d) o'z-o'zini idora qilish fazilatini namoyon qiladi, o'zlarini hurmat qilishga rag'batlantiradi;
- e) to'g'ri javob yo'q.

12-mavzu: Vatanparvarlik va insonparvarlik, o'z millatiga sadoqat shaxs ma'naviyatining muhim mezoni

12.1. Vatanparvarlik tushunchasi. «Vatanni sevmoq iymondandir»

Yuksak ma'naviyatning etakchi, asosiy tarkibiy qismlaridan biri bu – vatanparvarlikdir. Shu bois vatanparvarlik tushunchasiga turli tomondan yondashadilar va talqin qiladilar. Bizningcha, vatanparvarlik deganda, insonning o'za ona yurtini qadrlab shu ona yurt uchun, uning qanday sohasi bo'lmasin o'z kuch va g'ayratini ayamasdan sarflashidir. Bu ta'rifda vatanparvarlikning barcha qirralari qamrab olinmasa ham, ammo vatanni qadrlash so'zining o'ziga keng ma'noda yondashilsa ta'rif to'g'ri tushuniladi.

To'g'ri, vatanparvarlik haqida tom-tom asarlar yaratilgan. Ammo har davrning o'z talabi va zarurati bordir. Shu ma'noda vatanparvarlik haqida doimiy ravishda fikr yuritsa ham foydadan xoli bo'lmaydi. Ajdodlarimiz tomonidan vatanparvarlikka qanday yondashilganligini tahlil qilsak, mavzumizning ko'p jihatlari yaqqol ochiladi. Chunki, vatanparvarlik xalqimizning tarixiy hayotida muhim o'rinnegallagan (Spitamen, To'maris, Shiroq, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Najmuddin Kubro, Temur Malik, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, va boshqalar faoliyati). Masalan, qadimgi ajdodlarimizdan Metexon (milodning 209 yili) Vatan haqida: «Vatan bizning olish-berish qilsak bo'ladigan mulkimiz emas. Uning bir parchasida mozorlarda yotgan, o'tgan avlod-ajdodlarimizning xoklari, o'zimiz va qiyomatgacha tug'iladigan avlodlarimizning haqlari bordir. U dushmanga berilishi mumkin emas», - degan edi. Bu fikrlar har bir kishini hayratga soladi, albatta.

Vatanparvarlik tushunchasini yanada kengroq tushunish uchun Furqat, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lon, Abdulla Avloniy, Usmon Nosir, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov asarlarini mukammal o'rganish lozimdir.

Yuqorida eslatganimizdek, vatanparvarlik ona yurtiga sodiqlik deganidir. Sodiqlik esa insonning kundalik hayotida, turmush tarzida namoyon bo'ladi. Bu, Vatan tushunchasiga ham aloqadordir. Soxta vatanparvarlik esa har bir xalqqa ziyon va zahmat keltiradi. Vatanparvarlik insonning qon-qoniga singigan bo'lishi lozim. Shu o'rinda I. A. Karimovning: «Yurtga, Vatanga muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari xalqimizning qon-qoniga singib ketgan azaliy xususiyatdir. Ana shu noyob azaliy fazilatlarni asrab-avaylash va yanada takomillashtirish farzandlarimizni ozod va demokratik O'zbekistonning munosib o'g'il-qizlari etib tarbiyalash masalasi ma'naviyat sohasidagi ishlarimizning asosiy yo'nalishini tashkil etmog'i kerak», - degan so'zlari o'rindidir. Har bir insonning o'z vatani bo'lgandagina u haqiqiy vatanparvar bo'la oladi.

Vatanparvarlik umumiylidkan yagonalikka qarab borishni taqozo etadi. Vatanparvarlik masalasiga umumjamiyat faoliyatidan kelib chiqish yaramaydi. Lekin hayotda shunday kishilar ham borki, ular uchun butun er yuzi ham vatandir. Bunday kishilarda milliy g'urur, sadoqatlilik, sof vatanparvarlik tushunchalari kam mujassamlashgan. Ularda bevatanlik g'ururi ustuvor bo'lib, o'z hayotini maishatda o'tkazish, shaxsiy turmushda ustunlikka intilish kabi g'ayriinsoniy fazilatlar

mujassamlashgan bo'ladi. Aniqrog'i ularni Vatan tuyg'usi qiziqtirmasdan kundalik hayot yutuqlari qiziqtiradi, xolos. Lekin bunday kishilar ham yoshlari bir joyga borib qolgandagina o'z xatolarini tushuna boshlaydilar. Bunday xatolarni biz ko'proq ikkinchi jahon urushi yillarida asir tushib, boshqa mamlakatlarda qolib ketganlar misolida ko'proq sezamiz. Ming afsuslar bo'lsinki, o'z millati tugul, o'z qavmu-qarindoshlari faoliyati bilan qiziqmasdan xudbinlik bilan ish ko'rvuchilar ham oramizda topilib turadi. Ular uchun qaerda o'z oilasini boqib, qornini to'yg'azsa o'sha er Vatan. Ba'zi birov uchun esa Vatan bu oila, bola-chaqa uchun qurilgan ujoy. Ba'zilar, yuqorida aytilganidek, er yuzini Vatan deb tushunadilar. Ularni kosmopolitlar, deb yuritadilar. Bunday xislat o'zbek millatida eng kam uchraydi, albatta. Demak, kosmopolitlarni, ya'ni bunday kimsalarni vatanparvarlar qatoriga qo'sha olmaymiz. Bu o'rinda ba'zi kimsalar umuman vatanparvarlik tushunchasini mukammal tushunib etmaydilar yoki maxsus holda, tushunishni xolisona holda istamaydilar. Ular ko'pincha o'z vatanidan chetda yashab, o'z Vatan tuprog'iga tosh otib yuradilar. O'z-o'zini anglamagan inson o'z millatini ham chuqur anglab etmaydi. O'z navbatida millat qanchalik o'z milliyligini anglasa, u o'z mamlakatini shunchalik ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan bo'ladi. Shu maqsadda vatanparvarlik tushunchasini kengroq tahlil qilish talab etiladi. Vatanparvarlik, o'zi tug'ilib o'sgan yurtini, erini, elini e'zozlash, uning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy taraqqiyoti haqida qayg'urish, g'amxo'rlik qilish, taraqqiyotga o'zining munosib hissasini qo'shish, o'z davlati, mamlakatining mustaqilligini saqlash uchun jon kuydirishi va kerak bo'lganda unga o'z hayotini bag'ishlashidir.

Vatanparvarlik Vatan so'zi bilan chambarchas bog'langan bo'lib, Vatan, ana shu vatanparvarlikni paydo qiladi. Vatan so'zi arabcha so'z bo'lib, «ona yurt» ma'nosini bildiradi. Bu tushunchani ikki-keng va tor ma'nolarda tushunish mumkin. Kishi tug'ilib o'sgan uy, mahalla, qishloq nazarda tutilsa, bu tor ma'noda tushunishdir. Agar, bir xalq vakillari doimiy holda yashagan, ularning ajdodlari azal-azaldan istiqomat qilgan hudud nazarda tutilsa, uni keng ma'noda tushuniladi.

Vatanparvar bo'lish bu – vatanni sevish, xalqiga munosib ish qilish, o'z vatani tuprog'ini e'zozlash, qadriga etish demakdir. Sababi, Vatan har bir shaxsning o'tmishi va buguni, kelajagidir.

Insonlar qaysi dinga mansub bo'lmasinlar, o'sha o'z dinlarida ham vatanparvarlik, Vatan to'g'risidagi mulohazalarga duch keladilar. Ayniqsa, islom dini, Qur'oni Karim va hadislarda bu masalaga katta e'tibor qaratilgan. Sababi, axloqiy fazilatlarning yuksaklaridan biri ham Vatan tuyg'usi, vatanparvarlikdir. Bu tuyg'u, shaxsni tug'ilib kamol topgan yurtiga, uning o'tmishi, madaniyati, tabiat borlig'i, urf-odat va qadriyatlariga bo'lgan munosabatda o'z aksini topadi. Vatan tuyg'usi shunday tuyg'udirki, u inson qalbida doimiy, yo'qolmaydigan tuyg'udir. Vatanga mehr-muhabbat har bir insonga ona suti va tarbiyasi bilan singadi. Tug'ilib, unib o'sgan joy barcha narsa va hodisalardan muqaddasdir. Ta'bir joiz bo'lsa, shuni ta'kidlash mumkinki, Olloh tomonidan yaratilgan jonli mavjudotning ba'zilari o'zlar tug'ilgan joyni qo'msab yashaydilar. Masalan, baliqni oladigan bo'lsak, u tepalikdan katta og'irlik bilan tushadigan suv qarshiligiga qaramasdan o'zini shu qarshilikka

borib uradi. Bاليقning bunday harakatining sababi, u qachondir o'sha suvning yuqori qismida tepalikda dunyoga kelgan.

Inson Vatanda tug'iladi. Shu Vatanning suvini ichib, hududidan nafas oladi. Ozuqasini iste'mol qiladi. Avlod ajdodlari orasida harakat qiladi. Shu maqsadlar hisobga olingan holda, «Vatanni sevmoq iymondandir» deb hadislarda aytilganligi beziz emasdир.

Har bir shaxs Vatan oldidagi burchga ham ega. Vatanga, uning talab va vazifalariga munosib farzand bo'lishi, axloq-odobli, mehnatsevar va bilimli bo'lishi shu burchlardandir. Inson hayotda yashar ekan, bu burch va vazifalar uning borlig'i bilan hamohang bo'lishi kerak. Agar inson ushbu burch va vazifaga munosib bo'lsa, u o'z Vataniga, xalqiga ham sodiqligini bildiradi, Vataniga fidoiylik fazilatini ko'rsatadi. Shundagina, har bir shaxs ona yurtiga dog' tushirmaydi. Amal qilayotgan o'z faoliyatini foyda yoki zararini anglab etadi.

O'z Vatani va millati oldidagi burchini anglab etish har bir shaxsning oliy maqsadi bo'lishi zarur. Avvalo, shu shaxs o'z Vatanining bir bo'lagi ekanini his etishi, bu bilan faxrlanishi lozim. Vatanda kamol topganligini unutmasligi, o'z o'rnida aynan Vatan undan mehr va oqibat kutajagini esda saqlashi tabiiy holda bo'lishi kerak. Shunday qilingandagina shaxs baxt-saodatga erishishi mumkin.

Prezident I.A. Karimov «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat» nomli asarida: «O'zbekistonning har bir asl farzandi o'zini ota yurtining ajralmas bo'lagi deb his etayapti va bundan faxrlanyapti. Istiqlol bergen eng katta boyliklardan biri ana shu desak yanglishmagan bo'lamic», - deb yozgan edi. Ha, vatanparvarlik mustaqillik bilan chambarchas bog'langandir. Bular bir-birini to'ldirsagina shaxs ma'naviyati etuk hisoblanadi. Ma'naviyat, xulqni yaxshilash va yuksak darajaga ko'tarish Vatan tuyg'usini mustahkamlash bilan hamohangdir. Zero, Vatan va xalq oldidagi vazifani anglash yuksak ma'naviyat belgisidir. Darhaqiqat, ma'naviyat va ma'rifikatda kuch-qudrat mujassamlashgan. Ma'naviy jihatdan etuk bo'limgan shaxs o'z Vatanining nima ekanini anglab etmaydi. Ushbu jihatni anglamagan shaxs, o'zini ham anglamaydi. U manqurtga aylanadi. Manqurt bo'lib qolish ma'lum ma'noda tekinxo'rlikka olib keladi. Vatan tekinxo'rni sevmaydi.

Xalqimizda «Vatan ostonadan boshlanadi» degan maqol bor. Vatan tekinxo'ri, o'z ostonasini ham quritadi. Ostona esa insonning o'z uyi, oilasidir. Inson safarga yoki ishga, mehmondorchilikka borsa ham o'z uyiga qaytadi, oilasiga shoshadi. Uyda bo'lib, oilasi tinchligi uchun qo'lidan kelgan yaxshi ishlarini amalga oshiradi. Farzandlari haroratidan faxrlanib, o'zi ham hordiq chiqaradi. Bunday insonlarni oilaparvar deyilsa, shu jarayonni to'g'ridan-to'g'ri Vatan tuyg'usi faoliyatiga ko'chirish mumkin. Vatanni ham oiladek ko'rgan kishilarni vatanparvar desak xato bo'lmaydi.

Inson chet davlatga ketishi mumkin. Ammo o'sha chet davlat chiroyli yoki go'zal bo'lishidan qat'i nazar baribir u o'z Vataniga qaytishni orziqib kutadi. Shu paytda, «O'zga yurting shohi bo'lgandan, o'z yurtingning gadosi bo'l»- degan xalq maqolining ma'nosini tushunib etadi. Vatanparvar bo'lish, ushbu nomga muyassar bo'lish o'z-o'zidan bo'lmaydi.

Inson mas'uliyatni o'z bo'yniga olgandagina vatanparvar bo'la oladi. U yuksak ma'naviyatli inson, tinmay mehnat qiladigan jonkuyar bo'lsagina vatanparvar bo'la oladi. Dalada issiq jaziramada mol boqib, paxta undirib, zavodda mehnat qilib Respublika taraqqiyotiga hissa qo'shadigan haqiqiy insonni vatanparvar deyish mumkin. Sababi, bu kishilar moddiy jihatdan noz-ne'mat etishtiradilar. Va o'z navbatida xalk farovonligini o'ylaydilar. Shu bilan birga bu kishilar boshqa yurtni o'ylaydiganlar emas, balki o'z uyi, o'z joyi, unib o'sgan qishlog'i, tumani, shahari, viloyat va mamlakatini o'ylab ish yuritadilar.

Ammo davrlar taqozosi bilan ba'zi kishilar o'z yurtlarini tashlab, o'z boyliklarini o'zлari bilan olib ketdilar. Aslida, bu boyliklar oddiy mehnatkash xalq tomonidan yaratilgan boyliklar edi. Ketib qolgan kishilar, haqiqiy vatanparvar bo'lganlarida O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin o'z boyliklari bilan qaytar edilar. Vataniga qaytmaganlarni vatanparvar, deb aytishga shubha bilan qarash mumkin.

Haqiqiy vatanparvar qatag'on yillarda ham, o'z ona yurtini tashlab ketmadi. Aksincha, shu ona yurtning g'ami bilan o'z jonlarini fido qildilar. Mardlik va jasurlik ko'rsatdilar. Xalq ularning tarixdagi, Vatan oldidagi burchlarini a'lo darajada ado etganlarini hisobga olib, ular to'g'risida yangi-yangi asarlar yaratib, nomlarini abadiylashtirib, ruhlarini shod etmoqdalar.

Vatanni sevish, e'zozlash uning tarixi va madaniyatidan boshlanadi. O'zbekistonda shakllanayotgan vatanparvarlik tarixiy an'analardan voz kechgan holda amalga oshmaydi. Bu vatanparvarlik ma'lum siyosiy shiorlarga aylanib qolgan sovet davridagi vatanparvarlikdan keskin farq qiladi. Ajoddar yaratgan e'tiqodlilik, madaniy va tarixiy merosga munosabat o'zgardi. Ayniqsa, yoshlarimiz bu meros kimlar tomonidan yaratilganligini, kimga taalluqli ekanligini sezayotir. O'tmishimizda va hozirdagi adabiyot va san'at, madaniyat va fan arboblari to'g'risida jiddiy qiziqayotirlar. Ular tomonidan yaratilgan ilmiy asarlar, bunyodkorlik ishlari orqali o'zbek xalqining tarixini bilayotirlar. Bular vatanparvarlikni shakllantirishdagi muhim omillardir. Zero, bu tarixiy va madaniy meros milliy g'ururni takomillashtiradi, ilhomlantiradi. Madaniyatimizni, tariximizni yangi bosqichga ko'tarish uchun harakatni kuchaytiradi.

Vatanparvarlikning mohiyati, uning mazmuni o'ta keng qirralidir. «O'zbekiston fuqarosining vatanparvarligi,-deb yozadi I.A.Karimov-bu qayta o'zgarishlar yo'lini ko'rsatuvchi, ko'zlangan maqsaddan chetga chiqmaydigan yo'lchi yulduz ishonchli kompasdir. O'zbekistonga, uning eri, tabiatiga, bu erda yashayotgan xalqlarga muhabbat, o'lkaning tarixi, madaniyati, an'analarini teran bilib olishga intilish, Respublikaning qudrati va yutuqlaridan faxrlanish, xalqimiz qismatiga tushgan qiyinchiliklar uchun qayg'urish ko'p millatli o'zbek jamiyatining muhim jipslashtiruvchi asosi hisoblanadi»¹.

Vatanparvarlik inson ma'naviyati bilan bog'langan. Sababi ma'naviyat ham o'z tarixiga ega. U tarixiy madaniyatimizga, merosimizga borib taqaladiki, birinchi navbatda mazkur jarayonni ham unutmasligimiz lozim. «Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqr bilish va tushunib etishga

¹ I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: «O'zbekiston», 1999, 64-bet.

suyangandagina qudratli kuchga aylanadi. Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'maganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi»². Demak, vatanparvarlik ma'naviy xislatlar bilan bir butunning ikki qismidir. To'g'ri vatanparvarlik ko'proq vatanni sevish sohasi bilan bog'langandir. «Vatanni sevish deganda,-deb yozadi taniqli olim I.Saifnazarov,- o'z xalqining tarixini yaxshi bilish va u bilan faxrlanish, qadimi obidalar, mislsiz imoratlar, ajdodlar yaratgan boy moddiy va ma'naviy meroslarni ko'z qorachig'iday asrash va avlodlarga taqdim etish, go'zal va ma'noli urf-odat, rasm-rusum va udumlarni qadrlay bilish, ularni davom ettirish, milliy adabiyot, musiqa, me'morchilik va barcha san'atlardan rohatlanish, ularni asrash va rivojlantirish, ajoyib vatandoshlar, ajdodlar nomi bilan, ularning ulug' ishlari bilan faxrlanish, hozirgi avlodning katta olamshumul ishlari, jasoratidan zavqlana bilish, shunday ajoyib xalqqa, yurtga, uning boy tili va madaniyatiga mansubligi bilan faxrlanish, dunyo xaritasida o'z o'rniga, xalqlar olamida o'z mavqeini, nomini, salobatini, salmog'ini borligi bilan faxrlanish, davlatning buyukligi, istiqlolining barqarorligi, kelajagining aniqligini yurak-yurakdan his etish kabi yuzlab fazilatu xususiyatlar tushuniladi»¹.

Haqiqatdan ham, vatanni sevishning xislatlari keng miqyoslidir. Yana shunday xislatlar borki, ularni nazardan chetda qoldirib bo'lmaydi. Bular jumlasiga:

- o'zi yashagan hududning ekologik holatini yaxshilash uchun xizmat qilish;
- hududdagi fauna va florasi boyliklarini asrab avaylash;
- vatan ramzlariga bo'lган hurmat-e'tiborni oshirish;
- ona tili mavzusini mustahkamlash;
- vatan himoyasi uchun doimo tayyor turishlar, vatanparvarlar uchun o'ta muhim xislatlardir.

Bu xislatlardan biri ona tilini oladigan bo'lsak, barcha xislatlar shu ona tili orqali har bir insonga singdiriladi. Ona tili shunday buyuk ne'matki, uni biror jarayon bilan qiyoslash mumkin emas. U ma'naviyatning bir belgisi sifatida, insonlarni yaqindan jipslashtiradi. Ming afsuslar bo'lsinki, oramizda shunday shaxslar ham borki, ular ona tiliga mensimaslik nuqtai nazaridan yondashadilar. Uning sofligi uchun kurashmaydilar. O'ta loqaydlik bilan qaraydilar. O'z ona tilida so'zlashishni xuddi madaniyatsizlikdek tushunadilar. Bunday kishilar o'zbek tilining boyligidan yaxshi xabardor emaslar. Ular ba'zida o'zlaridagi bu holatni o'tmishdagi Sovet tuzumining ta'siri, deb oqlashga harakat qiladilar. Gap, ba'zi shaxslarning ona tilida so'zlashib turib, boshqa tilni unga aralashtirib gapirishlari ustida bormoqda. Vatanparvarlikni istagan shaxslar vatanparvarlikning asosiy belgisi sifatida o'z ona tilini mukammal bilishi, uni boshqa til so'zлari bilan aralashtirmasligi lozim.

Vatanparvarlikni ko'z-ko'z etuvchi davlatning ramzlariga bo'lган hurmat ham vatanparvarlikning oliy nishonlaridandir. Ma'lumki, mamlakatimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotida a'zodir. 200 ga yaqin davlatlarning bayroqlari qatorida O'zbekiston bayrog'ining hilpirab turishi vatanparvarman, degan har bir o'zbekning

² I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk keljak sari. T.: «O'zbekiston», 1999, 60-bet.

¹ Saifnazarov I. Vatanparvarlikning milliy va umuminsoniy jihatlari. T.: «Mehnat», 1992, 7-bet.

qalbiga shirin his-tuyg'u uyg'otadi. Yoki O'zbekiston Respublikasi madhiyasining jarangdor ovozi yangraganda Vatanga bo'lган muhabbat yanada oshadi. Tasdiqlangan Gerb esa xalqimizning mushtarak orzu umidlari bilan bog'lanib ketgan buyuk timsoldir. Bu ramzlarni har bir O'zbekiston fuqarosi butun vujudi bilan his etgandagina unda vatanparvarlik tuyg'ulari jo'sh uradi.

Insoniy xislatlar ichida harbiy vatanparvarlik xislati, ayniqsa, noyobdir. Harbiy vatanparvarlik tuyg'ularini ham o'tmishimizdagи tarixiy shaxslardan o'rgansak foydadan xoli bo'lmaydi. Jumladan, chor Rossiyasi zulmidan ozod bo'lish uchun harakat qilgan kurashchi vatandoshlarimiz: Alimqul Sarkarda, Mulla Oxun Dodho, Muhammad Rahimxon Feruz, Muhammad Ali eshon, Namoz botir Primqulov, Muhammad Madaminbek, Shermuhammadbek, birinchi o'zbek generali Jo'rabek va boshqa yuzlab harbiylarimiz haqiqiy vatanparvarlar edilar.

Vatanni himoya qilish ajdodlarimizdan bizga qolgan merosdir. Vatan himoyasi degani, o'z tuprog'ini asrab-avaylash, o'tib ketgan ruh- poklarini shod aylash va xalqimiz or-nomusi, qadr-qimmatini e'zozlash deganidir.

Vatanparvarlik xislatlari ayniqsa, bozor munosabatlariiga o'tish davrida u yoki bu xilda namoyon bo'ladi. «Chinakam tsivilizatsiyalashgan bozor munosabatlari-deb ta'kidlaydi I.A.Karimov,- faqat yuksak ma'naviyilik negizida, yuksak axloqlilik va vatanparvarlik negizlarida barpo etilishi mumkin. Aks holda boshbodoqlik va tartibsizlik hukm suradi». Demak, bozor munosabatlariiga o'tish jarayonida iqtisodiy jarayon etakchilik sifatida bo'lsa ham insonning vatanparvarligi ikkinchi darajaga tushmasligi, aksincha Vatan barqarorligini ta'minlashda har bir shaxs o'z hissasini qo'shmog'i darkor. Har bir shaxs o'z manfaatini jamaa, jamiyat manfaatidan ustun qo'ymasligi lozim. Chunki, mo'may foyda orqasidan quvib, odamgarchilikni unutadigan, o'g'rilik, qalloblik, poraxo'rlik qiladigan shaxslar vatan oldidagi burch va mas'uliyatini sezmasdan vatanparvarlikdan uzoqlashadilar. Vatanparvarlik – yuksak ma'naviyat burchi sifatida qaralmog'i lozim. Vatanga, uning ravnaqiga faqat vijdonli, iymon-e'tiqodli, halol, insofli, mas'uliyatli shaxslar hissa qo'shsalar, u rivojlanadi, moddiy noz-ne'matlar ko'payadi. Xalq to'q yashaydi. Orzu umidlар amalgalashadi. Vatan mavqeい ko'tariladi. Ta'kidlash lozimki, vatanparvarlik tuyg'usi tug'ma xislat emas, balki kundalik hayotda shakllanadigan ma'naviyatning bir bo'lagidir xolos. Bas, shunday ekan, bozor munosabatlariiga o'tish jarayonida ham vatanparvarlik shakllangan vatanparvarlik esa mamlakatning kelajagini buyuk qilishga olib keladi.

12.2. Insonparvarlikning vatanparvarlik tushunchasi bilan bog'liqligi

Ma'lumki, boshqa ko'pgina sohalarda bo'lgani singari yosh avlodni insonparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga ham sobiq ittifoq davrida bir yoqlama yondashildi. Chunki, insonparvarlik sohasiga ham baynalminallik nuqtai nazaridan yondashish umumiylar xarakterda edi. Bu ham turli qaror va qonunlarda ko'rsatilib, amalda esa boshqa faoliyat edi. Natijada, ba'zi yoshlar G'arb mamlakatlari turmush tarziga berilib ketdi. Aslida ularga insonparvarlik xislatlari tenglik, adolatparvarlik, o'zaro hurmat, insonni ulug'lash, uning yutuqlaridan faxrlanish, kelajagi uchun qayg'urish, xushmuomalalik qilish va boshqalar singdirilishi lozim edi. Bunday xislatlar ko'proq bizning o'zbek xalqi millatiga xos azaliy fazilatlardandir. Buni biz xalqimiz tarixida yaratilgan afsonalar, qo'shiqlar, dostonlar, yodgorliklar, madaniy-ma'rifiy manbalar misolida ko'rayapmiz.

Insonparvarlik g'oyasi, unga e'tiborning qaratilishi Evropada XV-XVI asrlarda kengroq tus olgan bo'lsa-da, O'rta Osiyoda esa IX-XII asrlarda to'la shakllangan edi. IX-XII asrlarda yashab ijod etgan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Qoshg'ariy, Firdavsiy, Yusuf Xos Hojib, Umar Xayyom kabi yuzlab mutafakkirlar qarashlarida insonparvarlik g'oyalari markaziylarini o'rinni egallagan edi. Bu g'oyalalar keyinroq Bahovuddin Naqshband, Ismoil Buxoriy, Amir Temur, Behzod, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'bek, Abduxoliq G'ijduvoniy va boshqa allomalar tomonidan yanada yuqori cho'qqiga ko'tarildi. Ular qoldirgan madaniy merosda insoniylik va insoniylikni paydo qiluvchi adolatli jamiyatni barpo etish fikrlari keng va oshkora targ'ib qilindi.

Insonparvarlik tushunchasi ham keng qamrovli tushunchadir. Insonparvarlik – bu insonga bo'lgan mehr-oqibat, sadoqat, samimiyatdir. Insonparvarlik tushunchasida juda ko'plab tushunchalar o'z ifodasini topadi. Bu tushunchalarga misol qilib insofllilik, iymon-e'tiqod, ishonch, mehmondo'stlik, hurmat-izzat, odillik, adolatparvarlik, saxiylik, sabr-toqatlilik, o'zi va o'zgalarni tushunish, sadoqatlilik, mehnatsevarlik, sidqidillik kabilarni olish mumkin. Binobarin, bu tushunchalar insonparvarlikning shakllanishida muhim omillardandir.

Mustaqillikka erishgunga qadar o'tgan 70 yildan ko'proq vaqt ichida bu tushunchalar haqiqiy turmush tarzidan uzoqlashdi. Natijada, insonlar o'rtasida turli ziddiyatlar ham kelib chiqdi. Kishilar o'rtasida poraxo'rlik, qonunbuzarlik, laganbardorlik, aldamchilik, hasad bilan qarash, maqtanchoqlik kabi xislatlar ko'payib ketdi. Insoniylik sharafiga putur etdi.

Insonlarga faqat yaxshilik qilish xislatlari mujassamlashgan bo'lishi lozim. To'g'ri, insonparvarlik xislatlariga barcha insonlar ham erishavermaydilar. Ba'zi insonlar o'z faoliyati va yurish-turishi, suhbati va tili bilan insonparvarlik xislatlariga zarar etkazadilar. Aslida inson o'zining farosati, aql-zakovati yordamida insonparvarlikni shakllantiradi. Shu bois bo'lsa kerak, Hazrat Alisher Navoiy aytadilarki: «Oldiga qo'yganni emoq hayvonning ishi, og'ziga kelganni gapirmoq tentakning ishi». Ko'rib turganimizdek, bu falsafiy fikrda inson fazilati haqidagi fikr o'z ifodasini topgan.

Insonlar bir-birlarini sevadilar, o'zaro mehr-muhabbat orttiradilar. Shu o'rinda yana Alisher Navoiy murojaat qilsak, quyidagi fikrning guvohi bo'lamiz:

Bo'lmasa ishq, ikki jahon bo'lmasun,
Ikki jahon demaki, jon bo'lmasun.
Ishqsiz ul tanki, aning joni yo'q,
Husnni netsun kishikim oni yo'q.

Bu ruboiyda ham insonlar o'rtasidagi insonparvarlik xislatlari o'z aksini topgan. Demak, sevgi, ishq bo'lmasa, insonparvarlik ham to'liq shakllanmaydi;

Insonning insonparvarlik xislati o'zining o'z xalqi farzandi sifatida his etishi, shu xalq deb, mehnat qilishi, uning fidokori bo'lishi bilan belgilanadi. Bu xislat o'z navbatida insonning ma'naviyat darajasini ham ko'rsatadi. «Ma'naviyat-taqdirning ehsoni emas. Ma'naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalban va vijdonan aql va qo'l bilan mehnat qilishi kerak»¹. Mehnat qilmagan inson insonparvarlikdan, vatanparvarlikdan uzoq bo'ladi. Mehnat qilish insonparvarlik, vatanparvarlik xislatlarini kamol topishida asosiy negiz hisoblanadi. Sababi, mehnat qilish umuminsoniy qadriyatlardandir.

Respublika Prezidenti va O'zbekiston hukumatining eng ulug'vor va insonparvarlik harakatlaridan biri ichki va tashqi tinchlik siyosatidir. Bu harakat orqali O'zbekiston barqaror rivojlanishga qadam qo'ygan. Xalq tinch va osoyishta mustaqillikni mustahkamlash uchun mehnat qilayotir.

Insonparvarlik harakati to'g'ri amalga oshirilgandagina inson hayotga kelganiga pushaymon bo'lmaydi, aksincha, u yashash mehnatining zavqi-shavqi bilan kun kechiradi.

Hukumatimizning Orol ekologiyasini me'yorga keltirish uchun qilayotgan xatti-harakati ham insonparvarlikning bir namunasidir. Chunki, ekologiyaning buzilishi inson salomatligini buzadi. Sog'lik va salomatligi yaxshi bo'lмагan inson esa yashash uchun qiynaladi. Binobarin, inson nosog'lom bo'lsa uning kayfiyati, mehnat qilish qobiliyati pasayadi. Bu o'z navbatida tevarak-atrofdagi ijobjiy ishlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu munosabat bilan mustaqil O'zbekiston o'z xalqining salomatligini o'ylab, unga o'z boyligini sarflaydi. O'z xalqi sog'ligi uchun meditsina, fan, sport, sohalarini takomillashtirilishini yo'lga qo'yishni ta'minlaydi. Respublika byudjetidan ajratilayotgan mablag'lar unumli va samarali foydalanilishi bu sohadagi muvaffaqiyatlar garovidir.

Insonlar o'rtasidaadolat va tinchlikni ta'minlash ham vatanparvarlik va insonparvarlikdir. O'z navbatida bu jarayonlar insonlarning ma'naviy va ma'rifiy axloqiy holatlariga ta'sir etadi. Shu bilan birga bu, yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim bir vositasidir. Insonparvarlik normalari va burchlarining buzilishi o'zaro tenglikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviy tarbiyani izdan chiqaradi. Avvalo, shuni unutmaslik kerakki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi,

¹ I.A.Karimov. O'zbekistonn buyuk kelajak sari. T.: «O'zbekiston», 1999, 61-bet.

shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar» deyiladi. Qonundagi bu fikrlardan ko'rinib turibdiki, insoniylikni ta'minlash uchun insonning barcha asosiy xislatlari e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, insonparvarlik insonning ma'naviy xislatlarida aks etgan olijanoblik ruhiyati yig'indisidir.

Insonparvarlik insoniyat tarixida hayot tajribasiga ega bo'lgan buyuk shaxslar, sarkardalar, allomalar tomonidan o'rtaga qo'yilgan va targ'ib qilingan. Ayniqsa, diniy kitoblarda insonparvarlikka katta e'tibor qaratilgan. Insonparvarlik g'oyalarini mukammal o'rtaga qo'ygan dinlardan biri Islom dinidir. «Qur'oni Karim» va hadislarda aytilgan ko'plab hikmatlar ushbu fikrimizni tasdiqlaydi. Insonparvarlik insonlarning o'zaro hurmatida, bir-birini qadrashida, mehr-oqibatlari bo'lishida, ko'maklashishida, hamdardligida, qayg'uga sherik bo'lishida ko'rindi.

G'amgin insonlarning ko'nglini topish, og'irini engil qilish, shafqatli bo'lish, do'stlik rishtalarini o'rnatish ham insonparvarlik belgisidir.

Boshqalardan o'zini ustun qo'yish, g'arazgo'ylik qilish, xudbinlik bilan yashash, qiyinchiliklarga achinmaslik, g'amginlardan hol-ahvol so'ramaslik, zo'ravonlik ko'rsatish, birovlar dardini tinglamaslik kabi xislatlarni insonparvarlikka yot narsa deb tushunish lozim. Bu xislatlar nafaqat boshqalarning sog'ligiga, balki shu xislatlari bo'lgan shaxsni ham umrini egovlaydi.

O'zbek xalqi asrlar osha insonparvarlik va vatanparvarlik g'oyalariga sodiq qolgan. Xalqlar boshiga kulfatlar tushganda hamisha yordamga borib insonparvarlik xislatlarini namoyon qilgan. Ayniqsa, ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek xalqining insonparvarligi tillarda, dillarda doston bo'lgan. Boshqa xalqlar singari o'zbek xalqining insonparvarligi natijasida qirg'inbarot urushning tugatilishi tezlashtirilgan. Boshpanasiz qolgan qariyalar, nogironlar mamlakatimizdan boshpana topganlar. Etim-esirlar esa ota-onalarga ega bo'lgan, tarbiyalanganlar yoki 1991-1992 yillarda qo'shni Tojikistonda fuqarolar urushi boshlanganda o'zbek xalqi qo'shni davlatga minglab tonna un va un mahsulotlari, dori-darmonlar, issiq kiyim-kechaklar kabi gumanitar yordam bergani ham insonparvarlikka kiradi. Bu xislatlar insonparvarlikning oliy nuqtalari edi.

Insonparvarlikning bosh mezoni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z aksini topgan: «Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega.

Pensiylar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori, rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas!» (39-modda)

Qonundan xulosa qilish mumkinki, jamiyat o'z fuqorosidan xabardor bo'ladi, hol-ahvolini yaxshilashi uchun harakat qiladi. Demak, insonlarning o'zi ham jamiyat boyliklarini asrab-avaylash, ko'paytirish vazifalarini o'ziga burch va mas'uliyat sifatida qabul qilishi lozim. Insonparvarlik bir tomonlama bo'lsa, insonni boqimandalikka olib keladi. Natijada, inson uchun jaholatli fazilatlar shakllana boshlaydi.

Insonparvarlik har bir shaxsning yagona jonida, uning genlariga singdirilgan bo'lishi muvaffaqiyatlarning garovidir. Inson ona qornida insonparvar bo'lib tug'ilmaydi. Insonparvarlik tevarak, atrof-muhit ta'sirida shakllanadi. Ayniqsa, bu jarayonda ijtimoiy muhit, ya'ni jamoa faoliyati etakchi o'rinni egallaydi. Insonparvarlik va vatanparvarlikning shakllanishida insonlar bilan olib boriladigan o'zaro munosabatlarning o'rni eng muhimdir. Sababi, insonpavarlik insonlarning bir-biri bilan bo'lган muomalasida, suhbatida, o'zining dunyoqarashini bildirishida, baxillik va samimiylilikda, do'stlik va dushmanlik sohalariga bo'lган munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Insonparvarlikning mohiyatini har bir shaxs avvalo o'zi tushunmas ekan, boshqalarga nisbatan insonparvar bo'lolmaydi. Shaxs o'z hayotida dono yoki olim, davlat rahbari, yaxshi tadbirkor, biznesmen partiyaviy rahnamo bo'lishi mumkin. Ayniqsa, bunday kishilarda insonparvarlik xislatlari kuchli bo'lishi kerak.

Insonparvarlikning qirralari albatta behisobdir. Biz insonparvar deganda, avvalo aql farosatga ega bo'lган, mehribonlikni tushunadigan, jaholatdan uzoq bo'lган olijanob shaxsni tushunishimiz lozim. Inson aqli raso bo'lsa, qilayotgan ishining mohiyatini anglaydi. Aqli raso kishi rostgo'ylik, jonkuyarlik, saxiylik, kamtarlik olijanoblik kabi xislatlarni o'z o'rniga qo'yadi, zero bu jihatlarda insonparvarlik qirralari mujassamlashgan bo'ladi.

Insonparvarlik xislati ham tabiatdagi qarama-qarshiliklar singaridir. Inson tanasi moddiylik va ma'naviylikdan iborat ekan, shu tanada qarama-qarshiliklar mavjud, ya'ni insonparvarlik va vahshiylik bor. Insonparvarlikning vahshiylikdan ustun turishi insonga xos bo'lган oly darajadagi xislatdir. Vahshiylikni hayvonot olamini ba'zi turlariga xos deb tushunish lozim. Bu jihatlar olov va suv singari bir-biri bilan chiqisha olmaydi. Biri sovuq, ikkinchisi issiq bir-biriga dushmandir. Ammo, o'zaro aloqadordir. Insonparvarlik va vahshiylik ham ikki jarayon bo'lishidan qat'i nazar bir-biriga zid holatlardir. Vahshiylik borki, undan xulosa qilinadi. Aqli raso inson bu sohani boshqalardan ko'ra ko'proq anglab etadi va hayot uchun ijobiy xulosa chiqaradi. Shu ma'noda aqlilik insonparvarlik negizidir. Insonda johillilik xislatlari ham bor. Bu johillilik vahshiylikka olib keladi. Vahshiylik insonga xos bo'lмаган xislatdir. Hayot davomida undan qutulish yo'llarini izlash, unga ruju qo'ymaslik yo'llarini topish zarur. Bu holatni yo'q qilish rostgo'ylikka ham bog'liqdir. Rostgo'ylik insonparvar shaxsning olijanoblik xislatlaridandir. Rostgo'ylik baxt keltiradi. Inson ko'nglini shod qiladi. Tevarak-atrofdagi shaxslarni yaxshilikka chorlaydi. Ma'rifatli qiladi. Binobarin, ma'rifatparvar shaxs ham insonparvarlikka intiladi. Chunki, ma'rifatparvarlik johillik va vahshiylikni engadi. Insonga insonparvarlikni shakllantirishga yordam beradi. Ma'rifat orqali inson donishmand bo'ladi. Donishmandlar esa doimo insonparvar bo'lib kelganlar. Bunga Abu Nasr Forobi, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, A. Jomiy, M.Ulug'bek, Rudakiy, Umar Xayyom, Hazrat Alisher Navoiylar faoliyatini misol qilib olish mumkin. Ular qoldirgan adabiy-ilmiy merosida insonparvarlik o'z aksini topgan. Bu allomalarining aytgan nazariy fikrlari kundalik amaliyotda haligacha o'z mohiyatini yo'qotmagan. Insonparvar shaxslarning so'zlari va amallari singari o'zlari ham ulug' insonparvarlardir.

Insonparvar shaxslar mard va jasur, mehnatsevar, vatanparvarlik xislatlariga ega bo'ladilar. Shu bilan birga ular o'z mehnatlaridan kelgan foydani boshqalarga ravo ko'radilar, bahramand qiladilar. Ayniqsa, hunar orttirishni istaydilar. Bunga misol Bahovuddin Naqshband bo'lib, u kishi bir necha hunar egasi bo'lганлар.

Insonparvar shaxslardagi xislatlar shunchalik ko'PKI, ularni barchasini bir yo'la tahlil qilish amri mahol.

Insonparvar shaxs sabr-matonatli, va'daga vafo qiluvchi, dili va tili pok, qadrdon do'st, nazari baland, yomonlik qilmaydigan, andishali, hasadsiz, tafakkuri keng, suhbatdosh, jonkuyar, kambag'alga hamdard insonlardir. Ta'kidlash lozimki, ayniqsa kambag'allar insonparvarlikni tushunadigan insonparvar shaxs sifatida faqat o'zini o'ylamaydi, balki boshqa kishilar g'ami bilan ham yashaydi. Boshqalarning tashvishi uning tashvishidir. Bu tashvish ularga zavq bag'ishlaydi. Nomardlarning ishlaridan xulosa qiladi. Barchani yaxshilikka chorlaydi. O'z Vatanining ravnaqi uchun ish qiladi. Vatanda vatanparvarlar, insonparvarlar bo'lismeni, ularning ko'payishini istaydi. Demak, insonparvar shaxs vatanparvar hamdir. Insonparvar shaxsda vatanparvarlik bo'lmasa, uning insonparvarligi to'liq bo'lmaydi. Zero, vatanparvarlik masalasi barcha insonparvarlik xislatlaridan ustundir.

Insonparvar bo'lган shaxs Vatan tuyg'usini o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. U Vatandek ulug' ne'mat yo'qligini boshqalardan ko'proq tushunib etgan bo'ladi. Vatan tuprog'i lazzatdir. Shu sababli ham insonparvar bo'lган shaxs o'z manfaatlaridan Vatan manfaatini ustun qo'yadi. Shu manfaat bilan yashaydi, ijod qiladi. U o'z ijodidan boshqalarni bahramand qiladi, o'zi esa qanoatli, ya'ni sabr toqatli bo'ladi. «Sabrning tagi oltin»ligini boshqalardan ko'ra ko'proq qadriga etadi. G'amginnarning ahvolini sezib, ularga yordam qiladi. Og'irini engil qiladi. Kambag'alni boy qilgisi keladi. Nogironni sog'lom qilishga intiladi. Insonparvar shaxs bolalarga hurmat ko'zi bilan qaraydi, ularga ko'mak beradi, yomon yo'ldan qaytaradi, yaxshilikka chorlaydi, yaxshi hislarni singdirish uchun nasihatlar qiladi, Vatanga mehr qo'yib sevishga chorlaydi, xalqqa xizmat qilishni o'rgatadi, ta'magirlididan uzoq tutadi, poraxo'rlik va mansabparastlik illatlarining mohiyatini o'z vaqtida tushuntiradi, madaniyatdan xabardor qiladi, xullas, o'z bilimini boshqalar bilan baham ko'radi va hokazolar. Abdulla Oripovning «Men nechun sevaman O'zbekistonni» she'rida Vatan haqidagi mulohazalar o'zining yuqori mavqeiga etganligini ko'ramiz:

Men nechun sevaman O'zbekistonni,
 Tuprog'in ko'zimga aylab to'tiyo.
 Nечун Ватан дея eru osmonni,
 Muqaddas atayman, atayman tanho.
 Aslida dunyoda tanho nima bor,
 Paxta o'smaydimi o'zga elda yo?
 Yoki quyoshimi sevgimga sabab?
 Axir quyoshli-ku butun Osiyo.
 Men nechun sevaman O'zbekistonni,
 Bog'larin jannat deb ko'z-ko'z etaman,
 Nечун ardoqlarkan tuprog'ini men
 O'paman: «Tuprog'ing bebaaho Vatan...»
 Aslida tuproqni odil tabiat
 Taqsim aylagan-ku er yuziga teng.
 Nечун bu tuproq deb yig'ladi Furqat,
 O. Qashg'ar tuprog'i, qashshoqmiding sen?!
 Xo'sh, nechun sevaman O'zbekistonni,
 Sababin aytgin desalar menga,
 Shoirona go'zal so'zlardan oldin
 Men ta'zim qilaman ona xalqimga:
 Xalqim, tarix hukmi seni agarda
 Mangu muzliklarga eltgan bo'lsaydi,
 Qorliklarni makon etgan bo'lsayding,
 Mehrim bermasmidim o'sha muzlarga?
 Vatanlar,
 Vatanlar,
 Mayli, gullasin,
 Bog' unsin mangulik muzda ham, ammo,
 Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun,
 Sevgan farzand bo'lsa kechirma aslo!

Albatta, O'zbekistonni Vatan sifatida madh etish bundan ustunroq bo'lishi mushkuldir. Chunki unda muqaddas Vatanning ulug'ligi, tuprog'ining bebaaho ekanligi jiddiy namoyon bo'ladi. Ushbu she'rda faqatgina Vatanni boyliklari uchun sevish emas, balki uning borlig'i, bebaholigi uchun har bir farzand javobgar bo'lган holda sevishi ta'kidlanadi.

Yuqorida fikrlardan xulosa shuki, vatanparvarlik va insonparvarlik tushunchalari turli ma'nolarni anglatsa ham, ular dialektik munosabatda va aloqadadir deyishga haqqimiz bor. Ularni bir-biridan ajratish mumkin emas. Vatanparvarlik so'zini mazmun va mohiyati ham keng qamrovli bo'lgani singari, insonparvarlik so'zi ham o'ta keng qamrovlidir. To'g'ri, insonparvar bo'lish uchun, ko'p qiyinchiliklarni bosib o'tishi va inson o'z hayotida ma'lum tajribaga ega bo'lishi kerakdir. Bizning fikrimizcha, ota-bobolarimiz tomonidan bu sohada bosib o'tilgan

yo'l mashaqqatli yo'ldir. To'g'ri, mashaqqatli yo'lni bosib o'tish hamisha ham shart emas, balki undan tegishli xulosa qilib, ularning zamonaviy insonparvarlik xislatlarini mukammallashtirib, har bir shaxs o'zi amaliyatiga tatbiq etishi zarur. Sababi, har bir zamonning o'z talabi va o'z qiyinchiligi mavjud. Bu qiyinchilik va talab qanday bo'lishidan qat'i nazar har bir insonda insonparvarlik va vatanparvarlik xislatlari mujassam bo'lishi yutuqlar garovidir.

Tayanch so'z va iboralar: vatanparvarlik, umumiylidan yagonalikka, iymon, axloq, Vatanga sodiqlik, soxta vatanparvarlik, manqurt, oilaparvar, xotirasiz, fauna, flora, Vatan ramzlari, harbiy vatanparvarlik, insonparvarlik, baynalminallik, insonparvarlik normalari va burchlari, gumanitar yordam, vahshiylik, rostgo'ylik.

Hikmatlardan namunalar

Har bir kishi kasb – korini mukammal bilmog'i, yaxshi tarbiya olmog'i va yaxshi xulq - atvor, fazilatlarga ega bo'lmog'i lozim. Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang'ich asos insoniylikdir, shuning uchun ham odamlar insoniyat turkumiga kirganliklari sababli o'zaro tinchlikda yashamoqlari lozim.

Abu Nasr Forobiy

Oriyatli yigit o'zini qurban qilishga ham borib etadi yoki zulmni daf qilishga: qo'ni - qushnilarni, xalqni muhofaza qilishga o'tadi.

Abu Rayhon Beruniy

O'sib tuprog'im uzra nayzalar men evdan ayrildim,
Vatandan benishon o'ldim-da, o'zga yurtga evrildim.
Nechun menga falak javr ayladi, qanday gunohim bor,
Iloho ayla kam javring, men elga sodiq ul erdim.

x x x

Suvarini ko'rganda bu obi hayot,
Tortinib zulmatga yashirindi bot.
Burak anhorlarning suvları ravon,
Jannat bog'larida salsabilsumon...
Husayni uzumin qilgilib tamoshio,
Durdona yanglig' ko'p qimmatbaho.

x x x

Bayramga base g'ariblik kor etdi,
G'urbatda ani xoru, zoru, bemor etdi.
Yo rabki balolarga giriftor o'lsun,
Har kim ani g'amlarga giriftor etdi.

Test topshiriqlari

- 1. Quyidagi javoblardan qaysi birida vatanparvarlik fazilati o'z irodasini topgan?**
 - a) ona yurt himoyasiga, ravnaqiga qo'shilgan hissa;
 - v) vatanni qadrlash, sevish, ardoqlash, Ona yurti uchun jonini ham ayamaslik;
 - g) ajdodlar ruhini shod qilib, ular qadriyatlarni, shon – shavkatini oshirish;
 - d) yuksak ma'naviyatlilikning zaruriy sharti va talabi;
 - e) barcha javoblar to'g'ari.

- 2. «Vatan bizning olish – berish qiladigan mulkimiz emas. Uning bir parchasida mozorlarda yotgan o'tgan avlod ajdodlarimizning hoklari, o'zimiz va qiyomatgacha tug'iladigan ajdodlarimiz xoklari bordir» degan so'zlar qaysi vatanparvar ajdodimizga tegishli?**
 - a) Najmiddin Kubro;
 - v) Amir Temir;
 - g) Spitamin;
 - d) Matexon (209 y);
 - e) To'maris.

- 3. Kosmopolitlar deb qanday odamlarni aytishadi?**
 - a) bevatan, emmigrant va quvg'indilarni;
 - v) o'z manfaatini Vatan manfaatidan ustun qo'yuvchilarni;
 - g) shaxsiy turmush va kundalik hayot yutuqlari uchun vatanidan chiqib ketgan ziyyolilar, Vatan tuyg'usi o'rnida qandaydir umuminsoniy g'oyalarni ustun qo'yadigan insonlar;
 - d) butun er yuzi uchun jon kuydiradigan;
 - e) barcha javoblar to'g'ari.

- 4. «Vatan» – so'zining lug'aviy ma'nosi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**
 - a) forscha, «to'g'rilik dunyoga kelish»;
 - v) arabcha «Ona yurt»;
 - g) fors – tojik tilidan «yaralish»;
 - d) arabcha «uyg'onish»;
 - e) to'g'ri javob yo'q.

5. Bozor munosabatlarining shakllanish, bosqichida vatanparvarlik nimalarda namoyon bo'ladi?

- a) savdo va biznes bitimlarini tuzishda mamlakat manfaatlarining poymol etilishiga yo'l qo'ymaslik;
- v) mahalliy tovarlarni (iloji boricha) xarid qilishga iloji boricha harakat qilish;
- g) qiyinchiliklarga bardosh berish;
- d) mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirishga ongli harakat qilish;
- e) barcha javoblar to'g'ari.

6. Insonparvarlik bu ...

- a) insonga bo'lgan mehr – oqibat, sadoqat, samimiyatdir;
- v) baynalminallikdir;
- g) tenglik vaadolatparvarlikdir;
- d) A,V,G;
- e) o'zini ulug'lash, shon – shuhratga o'chlik;

7. «Kimki musulmon mamlakatida yashovchi boshqa dinga mansub kishini haqorat qilsa, qiyomat kuni o'tdan yasalgan qamchi bilan urladi», - degan fikr qaysi manbada ifodalangan?

- a) Qur'onda;
- v) Hadislarda;
- g) «Qutadg'u-biligda»;
- d) «Temurnoma»da;
- e) «Zafarnoma»da.

8. Qaysi dinda insonparvarlik g'oyasi kengroq yoritilgan?

- a) buddizm dinida;
- v) xristian dinida;
- g) islom dinida;
- d) barcha dinlarda;
- e) iudaizm dinida.

9. Insonparvarlik nimalarda namoyon bo'ladi?

- a) kishilarning o'zaro hurmatida, bir – birini qadrlashda;
- v) mehr – oqibatli bo'lishda o'zaro ko'maklashishda qayg'uga sherik bo'lishda va hamdardlikda;
- g) kishilarning do'stlik rishtalarida;
- d) bir – biriga bo'lgan muhabbatida;
- e) barcha javoblar to'g'ari.

10.Faraz qilaylik, siz etarlicha katta sarmoyaga ega boy odamsiz. Xo'jalik ishidan ajratilgan mablag'ni siz insonparvarlik ishlariga sarf qilmoqchisiz (Din ahloqlari bo'yicha sadaqa, ehson va boshqa), Ittifoqo, sizdan bitta tanishingiz xuddi shu vaqtida, xuddi shuncha qarz so'rab keldi va o'zining pulga muhtojligini ishontirdi. Shunda siz qanday yo'l tutasiz?

- a) pulni qarzga berib yuboraman;
- v) ajratilgan mablag'larni insonparvarlik yo'lida sarflayman;
- g) uni aldayotganligini tekshiraman;
- d) unga yordam berishga va'da beraman va quruq jo'nataman;
- e) qarz so'rayotgan odam taklif qilishi mumkin bo'lgan foiz bilan qiziqaman.

13-mavzu: Milliy o'zlikni anglash va millatlararo totuvlikni ta'minlash shaxs ma'naviyatining belgilari

13.1. Milliy o'zlikni anglash tushunchasi

Milliy o'zlikni anglash tushunchasining mohiyati haqida so'z ketganda, kommunistik mafkura milliy ravnaqni targ'ib qilmasdan, uni mavhum qilib umumiy tushunchalar bilan xalq ongini toraytirib qo'ydi. To'g'ri, o'sha mafkuraning dasturlarida ham «Vatan», «davlat», «mamlakat», «madaniyat» tushunchalari bo'lgan, ammo ularning mohiyati va mazmuni mahalliy xalq uchun xizmat qilmagan. Aksincha, mahalliy xalqni inqirozga yo'liqtirgan. O'z vaqtida Munavvar qori Abdurashidxonov «millat, vatan, madaniyat...» shunga o'xshash so'zlarning haqiqiy ma'nosini bolsheviklar boshqacha tushunganlarini, bu so'zlar orqali o'zlarining qabih niyatlarini amalga oshirayotganlarini ochib tashlagan edi. Sababi, milliy o'z-o'zini anglashda ko'pgina to'siqlar hali oktyabr inqilobi davridayoq boshlangan edi. Ma'lumki, xalqning o'z-o'zini anglashida til, madaniyat, din, hudud birligi bo'lishi lozim. Jadidchilik harakatining namoyandalaridan biri I.G'aspiralining ta'kidicha, millatning o'zligini yo'qotish uchun shulardan bittasining buzilishi kifoya edi. Kommunistik mafkura haqiqatda xalqimizni o'z tilidan, dinidan o'z o'tmishidan, madaniyatidan mahrum qilishga olib keldi. Shu sababli, endilikda shunday payt keldiki, biz o'zimizning o'tmishimiz va ajdodlarimizning faoliyati bilan yaqindan tanishib, kimiarmiz va qaysi yurt vorislari ekanligimizni nafaqat bilishimiz, balki, ularni dunyo miqyosida targ'ib qilishimiz lozim. Bu sohada jadidchilik harakatining yirik namoyondasi I. G'aspirali aytgan mazmunli fikrlar aynan o'zbek xalqiga ham taalluqlidir. U kishi jon kuydirib ushbu fikrlarni o'rtaga tashlagan edi: «Biz, turklar o'z qonunlari va turmush odatlari ila bir kub sultanatlar maydonga keltirgan qavm o'laroq yashab keldik va shunday yashajakmiz...»

Biz-turkiy xalqlar qadim-qadimdan Marmar dengizidan Xitoy devorigacha yoyilgan yirik bir tarixiy-etnografik birlik o'laroq yashab keldik va xuddi shunda yashamog'imiz kerak...

Biz o'z tarixinining dastlabki davridayoq yozuviga (O'rxun va uyg'ur yozuvlari) ega bo'lgan, keyin ham uni ilm va tafakkurdagi ulkan muvaffaqiyatlari bilan bezagan qabila sifatida yashab keldik va shunday yashayajakmiz...

Agar biz muayyan tarixiy sharoitlar tufayli boshqa xalqlardan orqada qolgan ekanmiz, bu hali milliy-madaniy inqilob huquqidan mahrum etmaydi, aksincha, u tomon yanada kattaroq g'ayrat bilan intilishga majbur etadi... Buni bizdan xalqimizning tarixi, taqdiri talab etadi. Ulug' vazifalar va ulug' intilishlardan qo'rqmang! Ular ulug' voqealarni tayyorlaydi va ulug' shaxslarni etkazadi...

Shuncha shaharlar bunyod etgan, fan va madaniyatning dohiylarini, xarbu zarbning olamjahon vallomatlarini dunyoga bergan bu millat nahotki suvgaga tushgan toshdek zim-zifo ketsa?...».

Bu fikrlar har qanday kishini hayajonga solmay qolmaydi.

Xo'sh, shunday ekan o'z-o'zini anglash, deganda nimani tushunish kerak? degan savol tug'iladi.

O'z-o'zini anglash – bu o'z Vatani va shu Vatanda yashagan xalqning, millatning o'tmishi, uning madaniyati, urf-odati, hamda qadriyatlarini bilishi demakdir.

O'z-o'zini anglash bu – o'z xalqining azaldan jahon hamjamiyati taraqqiyotiga qo'shgan hissasini anglashdir.

O'z-o'zini anglash bu-o'tgan ajdodlar tarixini mukammal bilish, ularning ruhlari hurmatini o'rniga qo'yish demakdir. Shu bilan birga o'z-o'zini anglash Vatan hududidagi boy madaniy va moddiy merosni aniqlab, porloq kelajak uchun xizmat qilishga intilish, avlodlar farovonligi uchun o'z hissasini qo'shish hamdir. O'z-o'zini anglash faqat o'z tarixini bilish bilan cheklanib qolish degan so'z emas. O'zining zamonaviy imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'z millati va Vatanining shuhratini oshirish hamdir.

Ma'lumki, xalqimiz uzoq o't mishga ega. U o'z tarixida ko'pgina qiyinchiliklar, bosqinchiliklarga duchor bo'lgani bilan, shunday boy tarixiy meros qoldirganki, ularni anglash beixtiyor milliy g'ururni shakllantiradi.

O'rta Osiyoning markazi bo'lmish O'zbekiston dunyo tarixida o'chmas iz qoldirib kelayotir. Buni jahon xalqlari e'tirof etadi. Masalan, O'zbekiston qadim zamonlardayoq «Buyuk Ipak yo'li» orqali G'arb va Sharqni bog'lash uchun xizmat qilgan. U dunyo davlatchiligin rivojlantirishga, jahon madaniyatini ko'tarishga o'z hissasini qo'shgan. Shu sababli ham, bu yurtdan mag'rurlansak arziydi. O'zbekiston hududida qadimdan ko'p elat va millatlar yashagan bo'lsa-da, ular o'rtasidagi do'stlik, totuvlik, barqarorlik insonlarni hayratda qoldirib kelgan. Demak, tarixan birlikni, etnoslar mavjudligi, ularni qon-qarindoshligi bilan, ulardagi til, ona zaminning ma'naviy jihatlari yaqinligini, ulardagi muqaddas tuproq, Vatanga bo'lgan mehr-muhabbatni anglash hozirgi avlod uchun ayniqsa dolzarbdir.

Gohida onda-sonda dunyoda bo'lib turgan kelishmovchiliklar, ziddiyatlarning oldini olishga bizning yurtimiz ma'naviy qurol bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi zamonda o'z-o'zini anglash bu – shaxsiy va mahalliychilik, urug'-aymoqchilik illatlarini yo'qotishga yordam beradi. Azaldan bir tan, bir jon bo'lib yashab, shu mamlakat ravnaqini ta'minlagan ajdodlarimizning turmush tarzi hozir ham yorqin misol bo'lib, hamkorlik qilishning manbai bo'lib xizmat qiladi.

Milliy o'z-o'zlikni anglash natijasida o'z mamlakati taraqqiyotini belgilash, uning mustaqilligi uchun kurashning namunasini beradi. O'z-o'zini anglash kelajakda o'z taqdirini o'zi belgilash uchun foydalilanadi, u mas'uliyatni oshiradi. Ajdodlar fidoiyligi, jonkuyarligidan xulosalar qilinadi.

O'z-o'zini anglash shunday bir noyob jarayonki, uning mohiyatiga etish insonda bitmas-tuganmas mehr-muhabbat, shafqat, umumiylar insonparvarlikni shakllantiradi. Insonlarda milliy anglash bo'lmasa, milliy manfaatlarni tushunish qiyin. Qachonki, milliy anglash yuksak bo'lgandagina kerakli vaqtida, ya'ni o'z millatining qadr-qimmatini pasaytirayotgan hodisa va harakatlar bo'lsa, uning ma'naviy va moddiy boyligiga zarar keltirsa, g'ururi poymol etilaversa, o'shanda birlashish, himoya qilish

namoyon bo'ladi. Shunday paytlarda mamlakat ichkarisidagi muxolifatlar ham yagona maqsad yo'lida birlashadilar.

Millatning o'z-o'zini anglashi, uning his-tuyg'ulari, irodalari, ruhlari, kayfiyatlarini o'zgartiradi. Turmush tarziga ta'sir qiladi. Ta'kidlab o'tish kerakki, o'z-o'zini anglash faqat o'z millatining manfaatini himoya qilish bilan chegaralanmaydi. Balki, millat va mamlakat taraqqiyoti uning rivojlanishiga ham ijobiliy ta'sir etadi, mamlakatga, Vatanga oid turli voqealarni, ichki va tashqi jarayonlarni to'g'ri baholaydi, uning muammolarini hal etadi, ichki ma'naviy va moddiy zahiralarni ishga soladi, jamiyatning olg'a qarab siljishiga yordam beradi. Ana shu ma'noda, millatning o'z-o'zini anglashi millat uchun muhim belgi bo'lib, u milliy g'ururda kengroq o'z ifodasini topadi.

13.2. Milliy g'urur va milliy istiqlol g'oyasi

Davlat mustaqilligini mustahkamlash mamlakatda yashaydigan barcha aholi tabaqalari, ijtimoiy guruqlar, elat va millatlar o'rtasidagi munosabatlarning qandayligiga ham ko'p jihatdan bog'liqidir. Hozir Respublikamizda 80 dan ortiq milliy, madaniy markazlar ishlab turibdi. Ular o'rtasida hamkorlik, millatlar o'rtasida totuvlik bo'lmas ekan, davlat mustaqilligiga to'la erishish mushkul bo'ladi. Ayniqsa, ko'p millatli davlatda bu jarayon muhimdir. O'zbekistonimizda 30-yillarda ellikdan ortiq millat va elat vakillari yashagan bo'lsa, endilikda ular 130 dan ortiqdir. Demak, bu hol davlatimiz mustaqilligini mustahkamlash uchun yangi vazifalarni keltirib chiqaradiki, ularni juda ehtiyyotkorlik va vazminlik bilan bajarishga intilish talab etiladi.

Sababi, yuqorida aytib o'tilgan toifalarning barchasi mamlakat mustaqilligi uchun u yoki bu darajada sa'y-harakatlar qiladilar, mamlakatni moddiy va ma'naviy boyitadilar. Zero, mustaqillikni mustahkamlashga harakat qilayotgan fuqarolarni, ayniqsa, yoshlarni ma'naviy etuk qilib tarbiyalash kechiktirib bo'lmaydigan vazifadir. Shu sababli, taraqqiyotdagi boshqa yo'nalishlar bilan birga xalq manfaatini ifodalaydigan, ma'naviyatini boyitadigan milliy istiqlol mafkurasingning yaratilishi zamon talabidir.

Milliy istiqlol mafkurasi endilikda hayotga tatbiq etilayotir. Bu mafkura va uning mazmuni to'g'risida matbuotda iliq so'zlar aytilayotganining guvohimiz. Shu sababli, biz mafkurada tilga olingan va ma'naviyatimizning eng muhim qirralaridan biri bo'lgan milliy g'ururni shakllantirishdagi omillar, uning iqtisodiy va ma'naviy jihatlari to'g'risida fikr yuritmoqchimiz.

Prezident I.A.Karimov «O'zbekiston o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» nomli asarida: «O'zbek xalqining yuksak milliy qadr-qimmati, or-nomusi va shon-sharafi, uning o'ta mehribonligi va sof vijdonliligiga asoslangandir. Biz bundan keyin ham o'zbeklarning milliy g'ururini ma'naviy yuksaltiramiz, shu bilan birga umumiyl Vatanimizda biz bilan birga yashovchi va O'zbekiston respublikasiga sadoqatli bo'lgan barcha xalqlar bilan birodarlikka intilamiz», deb ta'kidlagan edi. Bu so'zlarda juda chuqur ma'no bor. Sobiq ittifoq davrida «dunyoviy millat», «dunyoviy til», «dunyoviy madaniyat» kabi umumjahon maqsadlar asosida fikr yuritilganligi sababli milliy g'urur chetga chiqib qolaverган edi. Natijada «yirik» millatlar soyasida boshqa millatlar g'ururi ravnaq topmadidi. Chunki, mehnatkash xalq ongiga kundalik hayotimizdan uzoq fikrlar singdirilib kelindiki, bu jarayonda boshqa ba'zi xalqlar singari o'zbek xalqining ham milliy g'ururi toptaldi, qiyinchiliklarga duch keldi. Endilikda xalqimiz mustaqillik sharofati bilan, o'n yildirki, bu muhim jabhada qaddini rostlamoqda.

Milliy g'urur to'g'risida so'z ketar ekan, bu masalaning nozikligini hech qachon unutmaslik zarur. U hasad bilan emas, balki, havas bilan yuksalmog'i kerak. G'urur to'g'risida turlicha fikr yuritgan allomalar uning salbiy va ijobjiy tomonlarini taroziga solib ish yuritishni uqtirganlar. Jumladan, ingliz tanqidchisi J. Kollinz milliy g'urur «Garchi yaxshilik hisoblanmasa-da, lekin ko'p yaxshiliklarning boshidir», -degan bo'lsa, nemis yozuvchisi I.Zeyme :-»Agar biz haqiqiy g'ururli bo'lganimizda edi,

dunyonи bu qadar razilliklar bosmas edi»-deb yozadi. Yunon faylasufi Teofrast:- »G'urur-o'zidan boshqalarning bariga nisbatan o'ziga xos bir nafratdir»-deydi. Frantsuz adibi M.Janlis:-»G'urur ko'pincha haqiqiy ulug'vorlikka g'ov bo'ladi», -degan bo'lsa, at-Termiziy:-»Mag'urning turishi xunuk»-deydilar.

Bu kabi fikrlardan ko'rinish turibdiki, g'urur yuqorida ta'kidlanganidek, noyob va nozik jarayondir. Milliy mafkuraning har bir targ'ibotchisi va tinglovchisi mazkur fikrlardan tegishli xulosa chiqarib, masalaga jiddiy yondashishi va uni hayotga tatbiq etishi kerak. Xususan, frantsuz axloqshunos olimi F. Laroshfukoning:-»G'urur barchaga xos xususiyat: ammo farqi shundaki, uni qachon va qaerda ko'rsatishni bilish kerak»¹, -degan da'vatiga amal qilinsa, mantiqqa to'g'ri kelar edi.

Xalqimizning «G'ururi bor elning minorasi baland bo'ladi» degan ajoyib naqlidan kelib chiqsak, boshqa muhim jarayonlar singari milliy g'ururni ham shakllantirmay turib, O'zbekistonimiz mustaqilligi barqaror, uning kelajagi buyuk bo'lishiga to'la erisha olmaymiz. Milliy g'ururning shakllanishi va rivojlanishi ko'proq iqtisodiy sohaga, ya'ni to'qchilikka, moddiy noz-ne'matlarning etarlicha to'kinligiga ham ko'p jihatdan bog'liqdir. Shu sababli, milliy istiqlol mafkurasini xalqqa singdirishning siyosiy tomonlaridan biri bu – iqtisodiy sohadir. Avvalo, el-yurt uchun etarli miqdorda, keyin esa eksportga yuboriladigan sifatli moddiy boyliklarni ishlab chiqarmasak, milliy g'ururimizni yuksak darajada ko'tara olmasligimiz tabiiydir. Etarlicha to'kin va sifatli mahsulot esa xalqimizning jo'shqin mehnati asosida yuzaga keladi. Bugun xalq, har bir fuqaro ongli mehnat qilgandagina, mahsulot sifati oshadi, miqdori ham ko'payadi. Jahon andozalari darajasidagi sifatli mahsulotni ishlab chiqarib, eksport qilish xalqimiz milliy g'ururini rivojlantirishning muhim omillaridan biridir.

Milliy mafkuranı xalqqa singdirish uchun o'tkaziladigan har bir tadbir xo'ja ko'rsinga o'tkazilmasdan, balki, astoydil, vijdonan amalga oshirilishiga erishish kerak. Har bir ma'ruzachi dalillar asosida tinglovchining fikrlash qobiliyatini shu darajada uyg'otishi kerakki, u iqtisodiyot sohasida bilimi etarli bo'lmasa, beixtiyor bilim olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yisin, ta'bir joiz bo'lsa, o'zligini iqtisodiy jihatdan ham anglashga harakat qilsin.

Milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasini targ'ib qilish uchun targ'ibotchilarimizning hozirga qadar egallagan iqtisodiy bilimlari kamlik qiladi. Sababi, ko'pgina targ'ibotchilar keng ko'lamda ma'ruza qilib, barcha sohani umumiy jihatdan qamrab olishga harakat qilganlar. Natijada ma'ruza oldiga qo'yilgan maqsad ham mavhumlashgan. Shu sababi, ma'ruzalarga milliy istiqlol g'oyasi nuqtai nazaridan yondashilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu ma'ruzalar qisqa, mantiqan kuchli, g'oyadagi chizgilar hamda shiorlar asosida tuzilgan bo'lsa, samarali, ta'sirchan bo'ladi deb o'ylaymiz. Ma'lumotlarimiz umumiylidkan alohidalikka qarab yo'nalgan bo'lishi kerak.

Iqtisodiy soha bo'yicha milliy g'ururni shakllantirish uchun yuqoridagi fikrlarni mustahkamlash maqsadida hozir mamlakatimizda etishtirilayotgan paxta, ipak, qorako'l hamda paxtani qayta ishslash, qishloq xo'jaligi va to'qimachilik mashinalari, oltin, foydali qazilmalar, radiotexnika mahsulotlari va turli xalq iste'moli mollari,

¹ Vorontsov V.L. Tafakkur gulshani T.: «Adabiyot va san'at», 1981, 502-bet.

umuman, moddiy boyliklarimiz to'g'risidagi ilmiy asoslangan dalillar va ma'lumotlarga ega bo'lish zarur. Ishlab chiqarishimizning bu etakchi sohalarini tilga olganda, ularni boshqa mamlakatlar bilan taqqoslab gapirish maqsadga muvofiqdir.

Xullas, milliy g'urur avvalo, iqtisodiy jihatdan o'z-o'zini anglashdan boshlanishi, har bir kishi iqtisodiy sohada ustuvor bilimga ega bo'lishi kerak. O'z-o'zini iqtisodiy jihatdan anglash, har bir kishidan o'z ustida qo'shimcha ishlashni, bilim doirasini kengaytirishni talab etadi. Albatta, o'z-o'zini anglash nafaqat iqtisodiy sohani bilish, balki o'z tarixini, ona tili, dini, avlod-ajdodlarini, milliy urf-odatlarini, axloqiy qarashlari, an'ananalari, o'z xalqining dunyo madaniyatini rivojlantirishga qo'shayotgan hissasini va boshqa ko'plab jarayonlarni mukammal bilishni talab etadi. Binobarin, shu jarayonlarni har bir shaxs mukammal bilmas ekan, odatdagi muloqotda yoki chet mamlakat kishilari bilan suhbatlarda o'zining kim ekanligini, avlodlari kimligini tanita olmaydi.

Ma'lumki, milliy g'urur insonning rangi, gavda tuzilishi, irqi, jinsi yoki diniga qarab belgilanmaydi. Milliy g'ururni bu alomatlarga qarab belgilovchilar qattiq adashadilar, undaylar shovinistlardir. Aslida bunday kishilarning dunyoqarashi buzilgan bo'lib, bilim saviyasi sayozdir. O'zbek xalqi bunday qarashlarni o'ziga yet deb biladi, o'z milliy g'ururini millatning insonparvarlik xislatlaridan kelib chiqib yuksaltiradi. Islom va boshqa dinlarning bu soxadagi ijobiyligi tomonlariga e'tibor qiladi.

Iqtisodiy soha bilan bir qatorda milliy g'ururni yanada yuqoriq darajaga ko'tarishning ikkinchi muhim bir jihat – bu ma'naviy etuklikni egallahsga bog'liqdir. Jamiyatimizdagi kishilar o'z mutaxassisligi, ishlaydigan sohasini yaxshi bilishi mumkin. Lekin, ma'naviy etuklik bo'lmasa, milliy g'ururni ko'tarish, uni targ'ib qilish amrimaholdir. Ma'lumki, Prezidentimiz tashabbusi bilan keyingi yillarda ko'plab talabalar, tadbirkorlar, tuman, shahar, viloyat hokimliklari vakillari chet ellarga bormoqdalar. Kelajakda bu ish yanada rivojlanishiga aminmiz. Xorijga borayotgan har bir kishi o'z xalqining milliy g'ururi qirralarini mukammal bilishi zarur. Ayniqsa, hozirgi talabalarimiz milliy g'ururni, uning qirralarini bilish bilan birga, uning targ'ibotchilarini ham bo'lislari kerak. Talabalarni targ'ibotchilar qilib etishtirishni esa maktabda o'quvchilik davridan boshlash zarur. Maktab o'quvchilarining ko'pchiligi kelajak talabalardir. Mustahkam bilimni, ma'naviyat, qadriyat, urf-odatlar, udumlarni hamda allomalarimizning ta'limotlarini o'quvchilarga hozirdan keng dasturlar, puxta darslik va rejalar asosida tushuntirishni boshlash – davr talabi. Zero, o'quvchilar talaba bo'lganlarida bu bilimlar ular uchun puxta zamin vazifasini o'taydi. Aynan shu bilimlar kelajak uchun bebafo ekanligi va milliy g'ururni shakllantirishda ham o'ta muhim omil bo'lishi aniq.

Buning uchun ayniqsa, ijtimoiy fanlar o'qituvchilari, barcha murabbiylar mas'uliyatni his qilishlari, jonkuyar bo'lislari lozim. Kelajakda chet mamlakatlarga borayotgan talabalar ham o'z zimmasiga katta mas'uliyatni olib, borgan mamlakati madaniyatini tezda o'ziga singdirib, o'z xalqi madaniyatini uyg'unlashtirish hamda o'z millatiga xos bo'lgan g'ururni o'rni bilan targ'ib qilishni o'ylab boradilar. Ma'lumki, xorijga qadam qo'ygan kishilarga e'tibor o'n karra oshadi. Salomlashish, muloqot qilish, mehmonxonada yashash, kiyinish, suhbat qilish, kishilarga

munosabat, urf-odatlar barchasi hushyorlikni talab etadi. Afsuski, borgan kishilarning hammasi ham bularning o'ta muhimligiga hamisha e'tibor beravermaydi. Sir emaski, chetga borayotgan ba'zi sayyoohlarimiz xorijga borganda kiyim-kechak, sovg'a buyumlariga diqqatni ko'proq qaratadilar, imkoniyat bo'lsa, o'sha buyumlardan ko'proq olib qaytishni o'yaydilar. Milliy g'urur to'g'risida o'ylash esa, afsuski, yodimizdan ko'tarilar darajada bo'ladi. Axir biz, buyuk jahongirlar, mo''tabar mutafakkirlar, ulug' allomalar avlodimizku! Ular timsolida o'zbek xalqining kim ekanligini, o'zbek xalqining jahon madaniyatiga, umuminsoniy qadriyatlarga qo'shgan ulkan hissasini endi dunyo ahli biladigan payt keldi-ku! Endilikda, barchamiz o'zbek xalqini dunyo ko'zi o'ngida yana bir pog'ona ko'tarishga harakat qilishimiz kerak emasmi? Milliy madaniyatimiz va axloqimizning mustahkam zaminga ega ekanligini endi olamga ko'rsatishimiz kerak emasmi?

Ming afsuski, oramizdan chiqqan ayrim o'zbek «vatanparvar» lari milliy g'ururimizni ham mutlaqo unutib, faqat o'z shaxsiy manfaatlarini o'ylab, chetdan turib, ona-Vatanga tosh otmoqdalar. Aniqrog'i «Ozodlik», «Bibisi», ba'zan Rossiya ommaviy axborot vositalari eshittirishlarini eshitib, xorijda chiqadigan gazetalardagi tirnoq ostidan kir qidiruvchi ba'zi bir maqolalarni o'qib, beixtiyor g'azabing keladi. Amalda yurtboshimiz tufayli dunyoning ko'pgina yirik va ilg'or mamlakatlari o'zbek xalqini, uning madaniyatini, mustaqil davlatini tan olib hurmat- ehtirom ko'rsatsa-yu, o'zimizdan chiqqan uch-to'rt nafar «vatanparvar»- lar esa milliy g'ururimizni unutib, egan non-tuzini oqlash o'rniqa tuzluqqa tupursa, bu qaysi aqlga sig'adi. Shu «vatanparvar»lar birorta kamchiliksiz davlatni topib bera olarmikanlar. Albatta, yo'q . Shunday qiyin bir sharoitda O'zbekistonning nisbatan to'qligi va tinchligini nega sezib, sezmaslikka oladilar, oqni qora deb ko'rsatishga urinadalar. O'zbekistondagi o'tish davri qiyinchiliklarini ayuhannos solib qoralaydilar. Ular kimlarning nog'orasiga o'ynamoqdalar?

Har bir targ'ibotchi bu voqeа, hodisalarni hisobga olishi uchun uni ilmiy talqin qila bilishi lozim. Albatta, bular haqida fikr yuritish uchun ham chuqur bilimga ega bo'lish talab qilinadi. Demak, «Odaman yuqori turarkan olam, bilim olmoqlikka muhtojdir odam»— degan naqlga amal qilib, milliy istiqlol g'oyasini tinglovchiga singdirish uchun har bir targ'ibotchi o'z ustida ishlashi davr talabidir.

Yurtboshimizning milliy g'ururni tiklash maqsadida olib borayotgan sa'y-harakatlari tahsinga loyiqidir. Prezidentimiz qaerga bormasin, u o'sha mintaqaga yoki davlatdagи aholining o'zbek xalqiga bo'lган hurmatini oshirib, o'zbekona milliy madaniyati va qadriyatlarini, o'ziga xos xususiyatlarini yuksak darajada namoyish qilib qaytadi. Yurtboshimizning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi majlisida so'zlagan ilmiy amaliy nutqi to'g'risida ham dunyo matbuotida ko'p iliq so'zlar aytilganligining guvohimiz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, milliy g'ururni aholiga yanada chuqurroq singdirish va uni yuksak darajasiga ko'tarish uchun katta kuch-g'ayrat sarflash lozim bo'ladi. Bu ish eskirgan shiorlar, dabdabali yig'ilishlar, haybarakallachilik bilan o'tkaziladigan ommaviy tadbirlar orqali bo'lmaydi. Bu bilan kerakli natijaga erishish qiyin. Xalqimizda shunday udumlar, urf-odatlar borki, ular milliy g'ururni rivojlantirishga juda qo'l keladi. Mustaqillik kuni, Navro'z va Hayit bayramlari,

Vatan xizmatiga yuborish arafasidagi tadbirlar, hosillar sayili, Xotin-qizlar bayrami, Konstitutsiya nishonlanadigan kun, aholining to'y marosimlari, yubileylari, xotira kunlari, salom va alik, gap-gashtak, hovli to'ylari, hashar, ziyoratlar shular jumlasidandir. Bu tadbirlardan barcha targ'ibotchi va notiqlar ko'ngildagidek foydalana olmayotirlar. Shu sababli respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi qoshidagi targ'ibotchilar guruhlari vakillari bu muhim ishda o'ta bilimdon va tadbirkor bo'lishlari kerak. Binobarin, milliy g'ururni ko'tarish har bir fuqaroning aqliy va mehnat faoliyatiga katta ruh bag'ishlaydi. Bu esa bizga jamiyatimiz oldida turgan qiyin muammolarni echishda yordam beradi.

13.3. Milliy istiqlol g'oyasini takomillashtirish va demokratik jarayon

Davlatimizning ezgu muddaosi va vazifalaridan biri bu – bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishdir. Demak, milliy istiqlol g'oyasi bilan bu vazifa mushtarak bo'lsa jamiyatimiz rivojlanishi, taraqqiy etishi tezlashadi. Ayniqsa, tinglovchilar va talabalar bilan ish olib borish mobaynida milliy istiqlol g'oyasining demokratik jarayonlar bilan chambarchas bog'langan jiddiy tushuntirish ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, shaxs faoliyati ko'p qirralidir. Bu qirralar rivojlanishi uning etuk xodim sifatida shakllanishiga yordam beradi. Shu qirralardan biri shaxsning demokratiya to'g'risidagi bilimidir.

«Demokratiya» so'zi va uning jamiyatda tutgan o'rni qadimiy bo'lsa ham, shaxs uchun «yangi»dir. Inson alohida muhitda shaxs bo'lib shakllanmaydi, balki ota-onas tarbiyasi, bolalar bog'chasi, maktab, o'quv yurti va jamoada tarbiyalanadi. Shu sababli u demokratik jarayonlarga har xil holatda duch keladi va undan o'ziga xulosa qila boshlaydi.

Demokratiya va milliy istiqlol g'oyasining shaxsda shakllanishi juda murakkab kechadi. Chunki, u o'zining qadr-qimmatini yuqorida ko'rsatilgan atrof-muhitdan kelib chiqib anglay boshlaydi. O'z qarashlarini, his-tuyg'ularini shakllantiradi. Burch va mas'uliyatini sezadi. Demak, shaxsiy manfaatni milliy istiqlol g'oyasi bilan aloqada ekanligini jonli qilib tushuntirish esa murabbiy o'qituvchining asosiy vazifasi bo'lishi lozim. Buning uchun u huquqiy jihatlarni chuqur o'rgangan bo'lishi kerak.

«... Aholiga chuqur huquqiy bilim berishni yo'lga qo'yish, bu orqali huquqiy madaniyatning yuksalishiga erishish, boshqacha aytganda, tom ma'nodagi huquqiy ongni shakllantirish talab etiladi. Bu jamiyatning to'g'ri, demokratik yo'ldan rivojlanishi uchun zarurdir. Chunki, huquqiy tafakkur shakllanmasa, turli xil nomutanosibliklar kelib chiqadi»¹ yoki Ta'kidlash lozimki, ko'pgina kishilar hozirgi kunda ham demokratik jarayonlar, huquqiy qonunlar asosida shakllanishini yaxshi tushunib etmayotirlar. Natijada, ba'zida jamoada ishlaydigan rahbariyat bilan shaxslar o'rtasida kelishmovchiliklar ham ro'y berib turibdi. Shu sababli, «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari» dan dars beruvchi barcha o'qituvchilarning o'zları ham huquqiy qonunlarni mukammal bilishlari, «men huquqshunos emasman», deb turmasdan, har bir darsdayoq imkoniyat va zaruriyat bo'lganda tinglovchilarga huquqiy bilimlarni ham qisman bo'lsa-da etkazishlari lozim. Bu vazifani bajarish fidokorlikni, ijodiy yondashishni talab etadi. O'qituvchining o'zi milliy istiqlol g'oyasi uchun jonkuyar bo'lmasa maqsadga erishib bo'lmaydi. Aks holda davr talabi-demokratik jarayon ham amalga oshmaydi. Binobarin, shaxs hayotda, ishlab chiqarishda qatnashishi natijasida ko'p narsa va hodisalarni hal eta oladi.

Zero, milliy istiqlol g'oyasining hayotga tatbiq etilishi va demokratik tamoyillarni amal qilishi, davlat, jamiyat, fuqarolarning o'zaro munosabatlaridagi qonuniylikka asoslanadi. Bu uch sub'ektning manfaatlari o'zaro mos tushgandagina osoyishtalik va barqarorlik, farovonlik amalga oshadi. O'quv jarayonida yoshlarga

¹ I.A.Karimov. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-tom. T.: 1998, , 26-bet.

ana shu xususiyatlar turli yo'llar bilan singdirila borilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda milliy istiqlol g'oyasi tamoyillaridan foydalanib, demokratiyaning turli jarayonlari singdirilishi yaxshi samara beradi. U Konstitutsiya bilan ham bog'lanishi zarur. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy xususiyati ham shundaki, unda yuqoridagi sub'ektlar ham ustuvor yo'nalishlar qilib belgilangan. Shunday ekan, bu sub'ektlarning burch va mas'uliyatlari ham mavjud. Har bir fuqaro o'zining burchini yaqqol anglashi lozim. Masalan, ijtimoiy guruh sifatida talabalarning faoliyatini oladigan bo'lsak, talabalar ham o'z huquqlariga, ya'ni bepul va pulli o'qishi, erkinligi, yotoqxonalardan foydalanishi, saylovlarda qatnashishi, boshqaruvda ishtirok etishi, uyushma, partiya va boshqa tashkilotlarga kirishi, dam olishi, xohlagan diniga e'tiqod qilishi, mehnat qilishi, taklif va shikoyat qilishi, kutubxonalardan, jamoat joylaridan foydalanishi, tazyiqlardan muhofaza qilinishi va boshqalarga ega. Ularning burchlari esa ko'proq vijdon amri bilan bog'liqdir. Binobarin, milliy istiqlol g'oyasini tushunib etish ham talabaning burchidir. Ammo, burch elementlarini, mas'uliyat jarayonlarining shakllanishini talabaning shaxsiy ishidir, deb qo'yish ham o'rinsizdir. Kundalik faoliyatda har bir o'qituvchi tomonidan bu burch va mas'uliyatlar ma'lum imkoniyatlar topib «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» darsining muammolarini o'tayotganda talabaga ko'proq tushuntirilishi, ongiga singdirilishi lozim.

Har bir oliy o'quv yurti talabasining burchi – bilim maskani nufuzi uchun kurashish, bilim maskanidagi nojo'ya bo'ladigan harakatlarga loqayd bo'lmasligi, bilim yurtining asbob-uskunalarini, laboratoriya jihozlarini ko'z qorachig'idek saqlashi, topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishi, jamoat joylarida tartibni saqlashga ko'maklashishi kabilardir. O'z navbatida bular ham milliy istiqlol g'oyasini hayotga tatbiq etishning elementlaridir. Garchand burch va mas'uliyat qonunlarda qat'iy ko'rsatilgan bo'lmasa ham, aslida bularga rioya qilish talabaning keyinroq etuk shaxs bo'lishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Burch deganda, faqat yuqoridagi sohalar bilan cheklanib qolinmaydi. Jumladan, talabaning yotoqxona, fakultet, yoki akademiya institut miqyosida bo'ladigan jamoat ishlarida qatnashishi, shu joylarni bezatishda ishtirok etishi, shahar va Respublika miqyosida o'tkaziladigan tadbirdorda (talab etilganda) hozir bo'lishi kabilar ham talabada ijobiy xislatlarning jumladan, milliy istiqlol g'oyasining shakllanishiga yordam beradi.

Fuqaroning shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradigan omillar turlichadir. Bular quyidagilardan iborat:

- fuqarolarga qonuniy hujjat va me'yorlarni «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» doirasida o'rgatish;
- urf-odatlar, qadriyatlar, allomalar fikrlarini tushunarli qilib singdirib borish;
- milliy burch tafakkurining dunyoviy burch tafakkuri bilan bog'liqligini ukdirish;
- o'tiladigan dars va suhbat, muloqotlarda fuqaroning burch hamda mas'uliyatlarini jonli tarzda ko'rgazmali qilib tushuntirish. Bunda «Ma'naviyat» nashriyotidan chiqarilayotgan ko'rgazmali quollardan foydalanish;
- burch va mas'uliyat haqida referat mavzularini tayyorlash hamda tegishli paytda fuqarolarga tarqatish, ulardan shu sohada referat yozishni talab qilish;

- jamiyat tarixida fuqarolar burchi va mas'uliyatlarini solishtirgan holda, ularni o'zgaruvchanligiga diqqatni tortish;

- burch va mas'uliyatning milliy istiqlol g'oyasini shakllanishi va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini eslata borish;

- shaxsiy manfaat bilan jamoat manfaatlarining mushtarakligi haqida suhbatlar o'tkazish, shu sohada yozilgan asarlar, yaratilgan filmlar tavsiya etish va boshqalar.

Bu omillar umuman shaxs faoliyatida demokratik jarayonni shakllantirishda ummondan bir tomchi xolos. Lekin ushbu omillar bilan qonunlar o'rganilishi, ularning ustuvorligini ta'minlanishi amalga oshirilsa, nur ustiga a'llo nur bo'ladi. Ayni paytda jamiyatimizni demokratlashtirish fuqarolar faoliyatiga ham bog'liqdir. Fuqarolar jamiyatdagi turli sohadagi xodimlardir. Taraqqiyotni esa shu xodimlar harakatga keltiradi. Xodimlarda milliy istiqlol g'oyasining shakllanishi hamda huquqiy madaniyat va burch, mas'uliyat birlashmasi jamiyatning olg'a qarab siljishi murakkab kechadi. Chunki, erkin shaxsni tarbiyalash bozor munosabatlari bilan ham bog'liqdir. O'z navbatida bozor munosabatlari yangi ijtimoiy munosabatlarni paydo qiladi. Shu sababli, fuqaro shaxsini takomillashtirishda olib borilayotgan tarbiyaviy-amaliy, o'quv-metodik ishlarining samaradorligiga har bir rahbar, mutasaddi-o'qituvchi, murabbiy, tarbiyachi, oliygohlar rahbariyati e'tiborini jiddiy tortish lozim. Tarbiya barchaning mas'uliyatidir. Zero, I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, har qaysi fuqaro, har bir talaba «shu davlat, shu jamiyat menga nima berdi»—deb emas, balki, «men o'zim Vatanimga, el-yurtimga nima berdim?»,—deb o'yash bilan yashaydigan fuqaro va talabani tarbiyalashimiz buyuk davlat qurishimizdagi muhim jihatdir.

13.4. Milliy kadrlar tayyorlash - ma'naviy, ma'rifiy yuksalish manbai

Ma'lumki, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risida»gi qonun O'zbekistonda milliy kadrlar tayyorlash tajribasining tahlili va ta'lim-tarbiya tizimidagi dunyoviy yutuqlar negizida tayyorlangan. Unda yuqori darajadagi kasbhunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy jihatdan faollikka, siyosiy hayotda mustaqil holda mo'ljalni aniq ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqlol va istiqbol g'oyalarini olg'a surish va ijro etishga qodir kadrlarning yangi zamonaviy avlodini shakllantirishga qaratilgan masalalar o'z aksini topgan.

Shu ezgu niyatlarni amalga oshirish maqsadida Respublikamizda olib borilayotgan sa'y-harakatlarni, mazkur sohadagi islohotlarni ko'rib, tanlangan yo'l nihoyatda to'g'ri ekanligiga amin bo'lamiz. Zero, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ni endilikda ilg'or mamlakatlarning mutasaddi tashkilotlari va rahbarlari e'tirof etayotganlarini eshitib, o'zingda qandaydir milliy iftixor his-tuyg'usi paydo bo'lganligini sezasan, kishi. Buning asosiy sabablaridan biri ta'lim sohasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida qo'yilganligidir. Bu sohada ham davlatning o'zi bosh islohotchi bo'lganligidir.

Ma'lumki, Qonunda ta'lim turlarining etti tizimi qayd etilgan bo'lib, ular quyidagilardir:

- ❖ Maktabgacha ta'lim,
- ❖ Umumiyo'rta ta'lim,
- ❖ O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi,
- ❖ Oliy ta'lim,
- ❖ Oliy ta'limdan keyingi ta'lim,
- ❖ Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash,
- ❖ Maktabdan tashqari ta'lim.

Bularning barchasi o'zining tuzilishi, maqomi, dasturiga ega. Ular bilan tanishgan har bir ziyoli shunday bir xulosaga keladiki, ularning hammasida ma'naviyat va ma'rifikat o'zaro birlashgan bo'lib, ta'lim turlarining mag'zini, markaziy mohiyatini tashkil etadi. Ular dialektik munosabatdadir.

Ta'lim tizimini tahlil qilar ekanmiz, avvalo ularning barchasida mustaqillik tafakkurini shakllantirish g'oyasi o'z aksini topganini ko'ramiz. Yuqoridaq ta'kidlaganimizdek, Prezident I.A.Karimov ko'rsatib bergan:-O'zbekistonning istiqboli va istiqloli haqida qayg'urish, o'zining va o'z xalqining, Vatanining qadru qimmati, or-nomusini anglab, uni himoya qilish, yuksak g'oyalar, yangi fikriy kashfiyotlar, niyatlar og'ushida mehnat qilib, iste'dodi, bor imkoniyatini, kerak bo'lsa, jonini yurt istiqboli, eliga baxsh etadigan yoshlarni, xodimlarni tarbiyalashdek vazifa turadi. Binobarin, bizning barcha vazifa va harakatlarimizning asosiy maqsadi ham shu ekanligiga shubha bo'lmasligi lozim. Respublikamizdag'i har bir fuqaroning ezgu niyati, ham o'z mamlakatini qaram holda emas, balki, mustaqilligini ta'minlash va mustahkamlashga qaratilmog'i lozim. Buyuk kelajak sari qo'yiladigan qadamlarning barchasi shu mustaqillik tafakkurining shakllanishi bilan bog'liq. Ulkan niyatlar niyatligicha qolib ketmasligi uchun, mustaqillik tafakkurining

muqaddas qirralarini tushunib etish zarur. Tushunish esa, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ni chuqrur tahlil qilish va uni og’ishmay hayotga tatbiq etishga bog’liq.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da yuksak ma’naviyat sohiblarini tayyorlash muammosi mujassamlashgan. Ma’naviy tiklanish, poklanish, namunaviy, axloqiy xislatlarga ega bo’lish g’oyalari ta’lim tizimi bilan chambarchas aloqadadir. Ular mohiyat jihatidan qonunlashtirilganki, ularni amalga oshirish bozor munosabatlariga o’tish davrida o’ta muhim vazifa bo’lib hisoblanadi. Sir emaski, o’tish davrini to’g’ri tushunmaydigan ba’zi g’alamislar islohotlarni tezroq amalga oshishiga, sobiq ittifoq davridagi ba’zi illatlarni yo’q qilishga, mamlakat va jamiyatimizni tezroq olg’a qarab siljishiga to’sqinlik qilayotganligi sir emas. Bular byurokratlar, ta’magirlar, poraxo’rlar, o’g’rilar, mansabparastlar, shuhratparastlar, urug’-aymoqchilik va mahalliychilikka mukkasidan ketganlardir. Bunday kayfiyatdagi shaxslar yoshlarning shijoati, yangilikka intilishi, dunyoviy taraqqiyotini tushunishiga to’siq bo’lib turibdilar. Bu illatlarning oldini olish, ilg’or qarashlar uchun shart-sharoit yaratish milliy dastur mazmunidan kelib chiqadi.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» Respublikaning iqtisodiy rivojlanishini nazarda tutib, bo’lajak kadrlarning shu sohadagi saviyasini oshirishning muhim tomonlarini o’zida aks ettirganki, ularga rioya qilinsa, ulkan yutuqlarni qo’lga kiritish tabiiydir.

Vatan taraqqiyotini iqtisodiy yutuqlarsiz amalga oshirib bo’lmasligi hammaga ayon. Shu sababli, iqtisodiyotni endilikda bilim va ma’rifatsiz, yuksak ma’naviyatsiz holda tasavvur qilish qiyin. Prezident I.A.Karimov ta’kidlaganidek, maqsadlarga erishish, yangi jamiyat qurish, siyosatda, iqtisodiyotda, ma’naviyat sohalarida islohotlarni amalga oshirish kadrlarga, yosh avlodlarga bog’liq. Ularni ma’naviy yuksaltirish, bilimli, ma’rifatli qilishga bog’liq. Bu sohalar bo’yicha, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ni amalga oshirishning birinchi bosqichida ham talaygina ishlar amalga oshirildi. Jumladan, kadrlar tayyorlash tizimi salohiyatini saqlash, uning huquqiy, me’yoriy rivojlanishi sohasida bir qancha tadbirlar amalga oshirildi. Moliyaviy va moddiy jihatlar haqida choralar ko’rildi. O’quv va ish sharoitlari yaxshilandi. Ilmiy-metodik markazlar tashkil qilinib, ishga tushirildi. Pedagogik kadrlar malakasini oshirishga jiddiy e’tibor qaratildi. Yangi darslik va qo’llanmalar, dasturlar ishlab chiqildi. Yuzlab akademik litseylar, kollejlар faoliyat ko’rsatmoqda.

Uzluksiz ta’limga oid bir qator tadbirlar ishlab chiqilib hayotga tatbiq etilayotir. Ko’rinib turibdiki, amalga oshirilgan tadbirlar «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning ikkinchi bosqichi uchun asos qilib yaratilgan muhim manbadir.

Milliy dasturda shaxs manfaati ustuvor bo’lib, uning har tomonlama ravnaqi uchun yo’l ko’rsatilgan. Unda ta’lim va tarbiya olish uchun imkoniyatlar yaratilishi huquqiy tus olgan. Ularni ushbu sohalarda erkin harakat qilishi uchun zamin yaratilgan. Inson huquqlari Deklaratsiyasi va O’zbekiston Konstitutsiyasi talablari asosida har bir shaxsning shaxsiy manfaatlari hisobga olinganki, undan foydalanish umuminsoniy jihatlarni tarkib topishiga imkon beradi. Dasturda ma’naviy, ma’rifiy yuksalishning huquqiy, moddiy negizlari nazarda tutilgan. Bilim olib ijodiy mehnat qilish, uning qadr-qimmatini oshirish kabilar ham dasturda o’z aksini topganki, insonda jamiyatga zid bo’ladigan ishlarni amalga oshirish uchun o’rin qoldirmaydi.

Kadrlarning davlatni boshqarishda, barcha islohotlarga rahbarlik qilishda siyosiy bilim va malakasi bo'lmasa, bunday kadr hayotda qiyonaladi. O'z navbatida shunday kadrning bo'lishi ham fojiadir. Shu jarayonlarning oldini olish me'yordi Milliy dasturni yanada muhim hujjat bo'lishiga yordam beradi. Demak, ta'lim sohasida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishga e'tibor kuchaytirilgan. Ma'lumki, umumta'lim maktablarida o'qitiladigan fanlar soni bir paytlar 20 taga etgan bo'lib, ularning o'quv rejalarida axloq va odob, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy bilimlar asoslarini o'rgatuvchi fanlarning etarli emasligi Prezident tomonidan tanqid qilingan edi. Chunki, bu holatning bo'lishi ham mustaqillik va bozor iqtisodiyoti sharoitida zarur ehtiyojlarni amalga oshirishda to'sqinlik qilar edi. Shu mulohazalardan xulosa qilingan holda, endilikda ijtimoiy-gumanitar fanlarga e'tibor kuchaytirilib Respublika Prezidenti tomonidan «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani o'quv jarayoniga kiritildi. Bir necha yildirki, «Ma'naviyat asoslari» fani ham o'qitilib kelinayotir. Bular «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ni hayotga tatbiq etish namunasi, faoliyat manbaidir.

Milliy dasturda huquqiy ta'lim-tarbiya sohasiga ham jiddiy e'tibor qaratilganligi diqqatga sazovordir. Chunki, «Kuchli davlatdan-kuchli fuqarolik jamiyati sari borish» huquqiy ta'lim-tarbiyasiz amalga oshmaydi. Buning uchun huquqiy organlar uchun kadrlarni tayyorlash, ta'lim tizimini isloh qilish, jahon andozalariga moslashtirish davr talabi ekanligini unutmaslik lozim. Demokratiya va huquq o'zaro bog'langan bo'lib, shaxsning huquq va burchlarini namoyon etadigan qonun va qoidalarni qo'shimcha tarzda ishlab chiqish Milliy dastur mazmunidan kelib chiqadi. Ular yordamida har bir fuqaroning ma'naviy, ma'rifiy yuksalishi uchun zamin yaratiladi.

Insonning ma'naviy-ma'rifiy yuksalishining bir qancha tarkibiy qismlari borki, ular: vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, axloqiy etuklik, baynalminallik kabilardir. Milliy dasturdagi moddalarning deyarlik barchasi ushbu xislatlarni qamrab olib, mutasaddi tashkilot va barcha rahbarlarni, bo'lajak xodimlarni tayyorlashda qo'l keladi.

Bo'lajak kadrlarni erkin fikrlashga o'rgatish yo'lga qo'yilmasa, ta'lim samarasini talabga javob bermaydi. Shu sababli ham, mustaqil tafakkurga ega bo'lish birinchi galadagi vazifalardandir.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviy-ma'rifiy yuksalishning manbai sifatida «Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi» xalqimiz va jamiyatimiz uchun hali uzoq yillar xizmat qiladi. Mustaqillik tafakkurining shakllanishi, yuksak ma'naviyat egalarini tayyorlash yo'l-yo'riqlari, iqtisodiy bilim olishning sir-asrorlari, shaxs manfaatlarining tomonlari, siyosiy bilimlarga erishishning sohalari, huquqiy bilim olish tajribalari vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, axloqiy etuklik, baynalminallik shakllanishi uchun zaruriy bo'lib, har bir shaxsning kelajakda ma'naviy-ma'rifiy yuksalishi uchun muhim manbadir.

Tayanch so'z va iboralar: O'rxun va uyg'ur yozuvlari, I.G'aspirali, o'z-o'zini anglash, Buyuk Ipak yo'li, milliy g'urur, ma'naviy etuklik, xotira kunlari, burch,

milliy burch tafakkuri, dunyoviy burch tafakkuri, huquqiy madaniyat, Milliy g'oya, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.

Hikmatlardan namunalar

Hamisha xalqingga mehribon bo'lgil,
Yaxshilikka tirish va omon bo'lgil.

Nosir Xisrav

Istasang dunyoda baxtu saodat,
Aylagil qardoshlar diydorin odat.
Bu ko'hna olamda aylagil bunyod,
Bir narsaki, xalqing etsin seni yod.

x x x

To qadam qo'ymasang dastyorlikka,
Hech kim kelmas senga do'stu yorlikka.

Xusrav Dehlaviy

O'zbekiston professorlarini chet mamlakatlarga yuborib, malakasini oshirib kelishiga imkoniyat yaratishimiz kerak. Ular chet ellarda malakasini oshirsin, dong'i chiqqan universitetlarda o'zлari lektsiyalar o'qisin, tajriba orttirsin, mana shundan keyin O'zbekistonning obro'yi – nomi olamga ovoza bo'ladi, inshoolloh.

Har qanday millatning ravnaqi, umumbashariyat tarixida tutgan o'rni, mavqeい va shuhrati bevosita o'z farzandlarining aqliy va jismoniy etukligiga bog'liqdir.

I. A. Karimov

Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur.

Mahmudxo'ja Behbudiy

Test topshiriqlari

1. Milliy o’z - o’zini anglash bu –

- a) bu o’z Vatani va shu Vatanda yashagan xalqning, millatning o’tmishi, uning madaniyati urf-odati hamda qadriyatlarini bilish demakdir;
- v) bu o’z xalqining azaldan jahon hamjamiyatiga qo’shgan hissasini anglash demakdir;
- g) bu avlodlarga boy tarix qoldirish, ajdodlar tarixini mukammal bilish ularning ruhlari, hurmatini o’rniga qo’yish demakdir;
- d) a,v,g javoblar;
- e) barcha javoblar to’g’ri.

2. Milliy o’zlikni anglash nimadan boshlanadi?

- a) milliy istiqlol g’oyasidan;
- v) milliy g’ururni anglashdan;
- g) millat manfaatlaridan;
- d) insoni qadr-qimmatni angashdan;
- e) barcha javoblar to’g’ri.

3. Milliy istiqlol mafkurasi bilan milliy g’urur tushunchasining umumiy tomonlari nimada ko’rinadi?

- a) ikkalasi bir narsa;
- v) ma’naviyat shaxs tarbiyasida;
- g) xalq manfaatlarini (himoya qilishda) ifoda qilishda;
- d) jipslashishda va o’zaro tushunarilikda;
- e) barcha javoblar to’g’ri.

4. «G’urur barchaga xos xususiyat: ammo farqi shundaki, uni qachon va qayerda ko’rsatishni bilish kerak», degan fikr qaysi mutafakkirga tegishli?

- a) A. Navoiy;
- v) Teofrast;
- g) F. Lafrushko;
- d) I. Zeyli;
- e) at-Termiziy.

5. Milliy g'ururni ko'tarishda va milliy istiqlol mafkurasini targ'ib qilishda nimalarga tayaniladi?

- a) xalqimizning milliy udumlariga, urf – odatlariga;
- v) Navro'z, Hayit, Mustaqillik bayrami, Konstitutsiya nishonlanadigan kun va boshqalarni nishonlash orqali;
- g) hashar, ziyoratlar, salom-alik, gap-gashtak va boshqa shu kabilar;
- d) milliy an'analarga;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

6. Shovinism bilan milliy g'urur orasida qanday farq bor?

- a) bir-biridan mazmunan-mohiyatan farq qiladi;
- v) o'zgalarga nisbatan bo'ladigan munosabatlarda;
- g) qisman bir-birini takrorlaydi;
- d) hech qanday farq yo'q.
- e) barcha javoblar to'g'ri.

7. Demokratiyaning Sharqona ko'rinishi deganda nimani tushunasiz?

- a) ota – onaga hurmat;
- v) andishali va mulohazalilik;
- g) kattalarga hurmat, kichiklarga izzat;
- d) xayolga kelgan harakatni qilish;
- e) A, V, G.

8. Milliy istiqlol g'oyasi O'zbekistonda demokratik jarayonlarni rivojlantirish uchun nimani birinchi zaruriy shart hisoblaydi?

- a) huquqiy bilim, huquqiy ong, huquqiy madaniyatni shakllantirishni;
- v) siyosiy etuklikni;
- g) xalqaro voqealardan to'g'ri xulosa chiqarishni;
- d) moddiy manfaatdorlikni kuchaytirishni;
- e) to'g'ri javob yo'q.

9. Fuqarolarning shaxs bo'lib shakllanishida asosiy omillar qaysilar?

- a) urf – odatlar, qadriyatlar, buyuk allomalar fikrini to'g'ri tushuntirish;
- v) milliy burch tafakkurining dunyoviy burch tafakkuri bilan bog'liqligini tushunish;
- g) jamiyatlar tarixidek fuqarolar burchi va mas'ulliyatini solishtirgan holda, ularning o'zgaruvchanligiga diqqat qilish;
- d) milliy va umuminsoniy qadriyatlar;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

10. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da qanday muammolar echimi mujassamlashgan?

- a) ta'lim tizimini kuchli qonunlashtirish;
- v) yuksak ma'naviyatni shakllantirish;
- g) milliy tiklanish va ahloqiy xislatlarni shakllantirish;
- d) yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

14-mavzu: Bilimdonlik, do'stlikka sadoqatlilik, rostgo'ylik, adolatparvarlik-ma'naviy fazilat

14.1. Bilimdonlik insonning kuch-qudrati va ma'naviy salohiyati

Mamlakatimizda barpo qilinayotgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlatni barkamol va bilimli fuqarolarsiz amalga oshmaydi. Shu sababli milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish, rivojlantirish hozirgi kun tartibida turgan dolzarb masaladir. Prezident I.A.Karimov «Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan etuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik bilan mustaqil tafakkur birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy-ma'naviy salohiyat – ma'rifatli insonning ikki qanotidir»¹-degan edi. Ha, mustaqillikni mustahkamlash ham aqliy zakovat va ruhiy-ma'naviy salohiyatga bog'liq. Totalitar tuzum davridagi soxta bilimdonlik Respublika aholisini ham chetlab o'tmadi. Bilimli bo'lismi, ko'proq miqdor jihatdan belgilandi. Endilikda esa rivojlangan mamlakatlardagi bilimdonlik darajasiga miqdor jihatdan emas, sifat jihatdan etishish masalasi qo'yilib, bugungi kunda unga birmuncha erishilmoqda.

Yuksak ma'naviyat kaliti bilimdonlikdadir. Insonning kuch va qudrati endilikda zamonaviy ilmlarni zabit etish bilan belgilanayotir. Bu zabit etish esa bilimlarni egallash bilan bog'langan. Bilim olish mehnat va mashaqqat natijasidir. Mutafakkir deb nom olgan barcha insonlar jahon xalqlarini ilm, bilim olishga da'vat etib keldilar. To'g'ri, insonlar mol-dunyo, pul, mablag', uchun kurashadilar, lekin, har qanday ilm va bilimni mol-dunyo bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Mol-dunyo qanchalik shirin va ko'p bo'lmasin baribir o'tkinchidir. Bilim esa aksincha. Bilimli shaxs engilmas, qiyinchiliklarga bardosh beruvchidir. Bilim va bilimdonlik haqida allomalardan biri, buyuk pedagog Yusuf Xos Hojib shunday fikrlarni aytib qoldirganki, ularga diqqatni tortmay ilojimiz yo'q. «Kishining bilimdonligi,-deydi u, uning tili orqali namoyon bo'ladi. Iforni yashirsa, hidi ayon qilganidek, bilimni ham yashirib bo'lmaydi. U so'z orqali ma'lum bo'laveradi. Olamda odam paydo bo'lganidan beri yaxshi odatlarning barchasi bilimdonlar tufayli paydo bo'ldi. Shuning uchun ham bilimdonlar doimo to'rga o'tkaziladi»¹. Ko'rib turibmizki, bu fikrlar o'z-o'zidan paydo bo'lgan emas. Minglab yillar tajribasi o'z mazmunini shu fikrlarda mujassamlashtirgan.

Faxr bilan aytish mumkinki, mustaqil O'zbekistonda ilm-fan va bilim olishni rivoji uchun davlatimiz va uning Prezidenti juda ko'p tadbirlarni amalga oshirayotir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda bilim olishning asosiy tamoyillari belgilab berildi. Bu tamoyillar ijtimoiy taraqqiyotimizni belgilashga muhim hissa qo'shadi. Ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi, ta'limning uzlusizligi va izchilligi, umumiyl o'rta, shuningdek o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limning majburiyligi; ta'lim tizimining dunyoviy ahamiyatga ega ekanligi; bilim olishni va iste'dodning qo'llab-quvvatlanishi shu tamoyillardandir. Bu tamoyillar kadrlar masalasini hal qilishga jiddiy yordam beradi.

¹ I.A.Karimov. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. 3-tom. T: «O'zbekiston», 1996, 34-bet.

¹ B. Tuxliev. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u biling» asari. T.: «O'zbekiston», 1991, 9-bet.

O'zbekistonda qurilayotgan jamiyat milliy kadrlarsiz amalga oshmaydi. Kadrlar muammosi I.A.Karimovning «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli asarida yana bir bor ta'kidlanib, ustuvor yo'naliishlar sifatida ko'rsatildi: «Biz oldimizga qanday vazifa qo'ymaylik, qanday muammoni echish zaruriyati tug'ilmasin, gap oxir-oqibat, baribir kadrlarga va yana kadrlarga borib taqalaveradi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, mamlakatimizning kelajagi o'rnimizga kim kelishiga yoki boshqacharoq aytganda, qanday kadrlar tayyorlashimizga bog'liq»¹. Demak, kadrlar ilm-fanni egallamasa, bilimdon bo'lmasa mamlakat kelajagi porloq bo'lmaydi. Buning aksi bo'lishi esa millatni obro'sizlantiradi, kelajagiga bolta uradi.

Ilm-fanning dunyoviy jihatlarini egallah bilimdonlikka olib keladi. Azaldan mutafakkirlar bilimdonlikni e'zozlaganlar.

Mustaqillikning ham kafolati shundadir. Shu bilan birga, bugungi yoshlar o'z ota va bobolari, onalari va buvalari izidan borib, ular egallamagan bilimlarni egallashi, ularning boshlagan buyuk ishlariga ko'maklashishi, yordamlashishi lozim. Bu yo'lida ular charchash nima ekanligini bilmasdan, bilim cho'qqilarini egallashi, aql va mustaqil tafakkurlash bilan qurollanmoqliklari lozim. Har bir yosh o'z qadamini dadil tashlamog'i uchun haqiqiy bilimdon bo'lishi davr talabidir. Bilimli kishilar yo'lida qoqilmaydilar, ular hunar o'rganadilar, siyosat bilan shug'ullanadilar, madaniyatni yaratadilar.

Vaqtida tsivilizatsiyani ifodalash uchun: «qancha ko'p bilsang shuncha ko'p qodirsan», degan iborani aytig'anligi bejiz emas. Shunday ekan, ulug'vorlikka yo'llaydigan omil-bilimdonlikdan chetda qolmasdan, unga e'tiborsizlik qilishga chek qo'yish lozim. Bilimdon bo'lishning manbai jiddiy bilim olish ekanligi sizga sir emas. Porloq hayot bilimdonlar qo'lidadir. Bilimdonlar zabit etuvchilardir. Axir inglez filosofi F. Bekon «Bilim-kuch, kuch esa bilimdadir» yoki «Bilim va qudrat-ikkovi egizak» deb bejiz aytmaganda!

Biz qanchalik bilimdon bo'lsak, o'zligimizni shunchalik yaxshi anglaymiz, milliy g'ururimizni o'stiramiz, aks holda, barcha narsa bizga begona bo'lib qolaveradi. Olam cheksiz bo'lganidek, bilim ham cheksizdir. Bilgan sari bilimdonning chegarasi kengayaveradi. Bilimdon bilimi keng bo'lsa hayot qiyinchiliklarini ham engilroq o'tkazadi. Ziddiyatlarni oson echadi. Tevarak-atrofdagi turli jarayonlarni bilim orqali ko'proq ko'rib, xulosalar qilish har bir kishini johillik, yalqovlik, befarqlik, boqibeg'amlikdan uzoqlashtiradi. Bu xislatlar, aslida, insonga yot bo'lsagina, u yuksak ma'naviyat egasi bo'la oladi.

Xalqimizdagи «Olim bo'lsang-olam seniki», «Ilmsiz bir yashar, ilmlи ming yashar», «Bilimli o'zar, bilimsiz to'zar» kabi maqollar shu mazmunga egaki, ularning mag'zini chaqqan sayin bilimdonlik nima ekanligi yanada yaqqolroq ko'z o'ngimizda gavdalaniadi. Bu sohalarni har bir inson o'zida mujassamlantirar ekan, ma'naviy kamolotga erisha boradi.

Ma'naviy kamolot va bilimning manbai kitob bilan bog'langan. Kitob bo'lmasa, uni o'qib, uqmasa, bilimdonlik shakllanmasligi sir emas. Donolikni va bilimdonlikni o'rgatish, saqlash va tarqatish ana shu kitoblarga ham bog'liq. Kitob faqat o'tmishni bilish uchun emas, balki kelajakni ham belgilab beruvchidir. Kitob ijod qilish

¹ I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: «O'zbekiston», 1999, 18-bet.

manbaidir. Shu bilan birga kitob o'qish ham mehnatdir, ham bekorchilikning kushandasidir. U insonlarga kulfatlardan qutulish yo'lini ko'rsatguvchidir, o'z vaqtida ulug' do'stdir ham. Mutafakkir Abdurahmon Jomiyning quyidagi fikrlari ham bebahodir:

Kitobdan yaxshiroq do'st yo'q jahonda,
G'amxo'ring bo'lgay, u g'amli zamonda.
U bilan qol, tanho hech bo'lmas ozor,
Joningga yuz rohat, beradi takror.

Yoki Rizouddin ibn Faxriddin kitob to'g'risida shunday fikrni aytadi: «Go'zal kitoblar ajib narsalarini ko'ruchchi ko'zgu, avloqda sirdosh, yolg'izlikda do'st, ojizlik vaqtarda yordamchi, hasratda shodlik keltiruvchi, fikrlarni nurlantiruvchi, o'tgan zamon ahvolidan so'zlovchi, ummatlar voqiotini hikoya etuvchi, aqli kimsalarning aqllarini ko'zlariga ko'rsatuvchi, oz haqli, ko'p foydali narsadir» demak, kitob insonni bilimdon qilishda asosiy manbadir. U odob-axloqqa chorlaydi. Maslahat beradi. Irodani mustahkamlaydi. Bu fikrlar inson faoliyatiga oid bo'lsa ham, zero u, jamiyat uchun ham foydalidir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ma'naviy kamolot taraqqiy etgan joyda jamiyat taraqqiyoti yuksak darajaga ko'tariladi. Shu jamiyatda yashovchilarning moddiy farovonligini ham oshiradi. Insonni yuksak ma'naviyatga etaklaydigan kitoblar, asarlar, rivoyatlar, asotirlar allomalarimiz tomonidan bizga ma'naviy meros qilib qoldirilgan.. Ular insonning yuksak ma'naviyatli va bilimdon bo'lib shakllanishiga yaqindan yordam berib kelayotir.

14.2. Do'stlikning shakllanishi va unga sadoqatlilik omillari

Insoniyat, olami mavjud ekan, do'stlik insonlar o'rtasida barqaror hukm suraveradi. Shu sababli bo'lsa kerak, buyuk allomalarning deyarlik hammasi, har davrda o'z asarlarida do'stlik qirralarini ezgu niyat bilan madh etganlar. Abu Nasr Forobiy, Al Xorazmiy, Abulqosim Firdavsiy, Abu Abdullo Rudakiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Umar Xayyom, Sa'diy Sheroziy, Amir Temur, Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muqimiyy, Furqat, Zavqiy, Avaz O'tar o'g'li, Abdulla Qodiri, Uyg'un, G'afur G'ulom, Sobir Abdulla va boshqalar shunday allomalar qatoriga kiradi. Ularning g'oyalarida do'stlik muammolari ustuvor yo'naliishlardan hisoblanadi.

Do'stlikning shakllanish mezonlari haqida so'z yuritar ekanmiz, islom dini ham o'z diqqat e'tiborini bu noyob muammodan chetda qoldirmaganligining guvohi bo'lamiz. Qur'oni Karim va Hadisi Shariflarning mazmunida do'stlik mezonlari etakchi o'rinni egallagan. Ayniqsa, shaxslar va xalqlar o'rtasida do'stlik munosabatlarini o'rnatish haqida haqiqiy, insoniy fikrlar borki, bu fikrlar har bir insonga taalluqli, misli ko'rilmagan hayotiy nasihat va ko'rgazmalardir. Jumladan, hadislarda: «Hech kim hech kimdan ortiq emas», «O'zingga nazar qil. Sen qizil yoki qora tanli odamlardan afzal emassan, balki tangridan qo'rqish va taqvo bilangina fazilat ziyoda bo'lishi mumkin», «Bo'linib ketishdan saqlaninglar», «Kimki ko'pchilikdan ajralsa, do'zaxga yo'l olgan bo'ladi», degan nasihatlar fikrimizning yorqin dalilidir.

Sof do'stlik insonlarni bir-biri bilan ma'naviy jihatdan mustahkam bog'laydi, insoniy fazilatlarni mukammal shakllantiradi. Ammo, shakllangan do'stlik qanchalik mustahkam bo'lmasin, xatolardan ham xoli bo'lmaydi. Chunki, xato qilish inson xususiyatidan kelib chiqadi. Buni tan olamizmi yoki yo'qmi, u ko'pchilikka xos bo'lgan nuqsondir. Do'stlik jarayonida yo'l qo'yilgan holatlarni do'st tutingan insonlarning o'zları bir-birini tushungan holda hal etishi, kelishuvchilik yo'lini tanlashi natijasida shu do'stlikni mustahkamlashi mumkin. Bu jarayon aytilishga oson bo'lsa-da, ancha murakkabdir. Shunday ekan, do'stlikning shakllanishi ko'pgina jarayonlarni qamrab oladiki, bu jarayonlar o'ta xilma-xil bo'lib, o'zaro aloqada va bog'lanishdadir. Bu aloqa va bog'lanishlar aniqroq aytilganda, o'zaro ta'sir etish natijasida do'stlikning bir butun his-tuyg'uga aylanishiga yordam beradi. Demak, do'stlikning shakllanishida do'stlar o'rtasidagi samimiylilik muhimdir. Do'stlikda samimiylilik etakchi o'rinni egallasa, do'stlikning umri uzoq bo'ladi, ishiga nisbatan ishonch ham seziladi. «Qatorda noring bo'lsa, yueling erda qolmaydi» qabilida ish ko'radi. Aslida do'st tanlash, do'st tutinish muammosi eng nozik muammodir. Bu fikr Erkin Vohidovning qo'yidagi hikmatlarida o'z ifodasini topgan:

Do'st qidir, do'st top jahonda,
Do'st yuz ming bo'lsa oz.
Ko'p erur bisyor dushman
Bo'lsa u bir dona ham . . .

Bu misralar har bir insonga taalluqli. Albatta, do'st bo'lishni maqsad qilib, manfaat orqasidan quvish ham yuksak ma'naviylikka kirmaydi, u oilaviy munosabatlarda, jamoa va mehnat qilish jarayonlarida, kishining boshiga biror musibat tushganda, uzoq safarga chiqqan paytlarda sekin-asta shakllanadi. Zero, do'stlik insoniy fazilatlarning eng nozik tomonlaridan kelib chiqadigan va inson uchun zaruriy, muqaddas his-tuyg'ular yig'indisidir.

Do'stlik tuyg'usi, o'rtoqlik, birodarlik, hamfikrlik, kasbdoshlik, qon-qarindoshlik kabi insonlarga xos xislatlarning ko'pchiligidan farq qiladi. Haqiqiy do'stlik bu xislatlardan bir necha bor ustun turadi, desak xato bo'lmaydi. Albatta, do'stlik ana shu xislatlar zaminida ham shakllanadi, takomillashadi, mustahkamlanadi. Do'st orttirish, topish ma'lum vaqt yoki ma'lum xizmat ko'rsatish bilan chegaralanmaydi. Insonlarga nisbatan muruvvat, g'amxo'rlik qilishdek his-tuyg'ularga boy insonlar ko'proq haqiqiy do'st orttiradilar.

Do'stlik his-tuyg'ulari hammada ham bir xil shakllanmaydi, albatta. Do'stlik qirralari, rishtalari, negizlari son-sanoqsiz bo'lgani uchun ham barcha insonlar unga turlicha yondashadilar. Lekin, qirralari qanchalik ko'p bo'lmasin, do'stlikning shakllanishidagi asosiy sabablardan yana biri bu mehr-muhabbat bilan sug'orilgan o'zaro yaxshilik munosabatidir.

Shu o'rinda Muhammad Jabalrudiyning o'yidagi fikrlarini keltirish o'rinnlidir: «Ey, aziz inson, agar sen o'zgalardan yaxshilik ko'ray desang, faqat yaxshilik qil!

Dunyoda topay desang omonlik,
Birovga zarracha qilma yomonlik!

Demak, yaxshilikni, xoh katta, xoh kichik bo'lsin, uni birovlardan darig' tutma. Arzimagan bir yaxshilikni ham birovga qilamanmi deb o'ylanib o'tirma! Dunyoda kim nimaki eksa, o'shani o'radi», - degan ulug'vor va maftunkor so'zlariga e'tiborni tortsak, bunda falsafiy mazmun yotishini sezamiz. Yaxshilik haqiqatdan ham ma'naviyatni yuksaltiruvchi omildir. Yaxshilik asosida qurilgan do'stlikning umri uzoq va boqiydir.

Do'stlikni shakllanishining omillaridan yana biri shirin so'zlikdir. Hazrat Alisher Navoiy uqtirishicha:

So'zdirki, nishon berur o'likka jondin,
So'zdirki, jong'a berur xabar jonondin.
Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilgilki, guhari sharifroq yo'q ondin.
Po'lat Mo'min esa, shirinso'zlikni quyidagicha ta'riflaydi:
Eng avalo, issiq salom - shirin so'z,
Odam uchun chin ehtirom – shirin so'z,
Dilga berar zavqu orom shirin so'z,
Bemorni ham etar sog'lom shirin so'z,
Odat bo'lsin, xullas kalom shirin so'z.

Ma’naviy kamolotning ko’p jihatlari, aksariyat holda, so’zlashish jarayonida ko’rinadi. So’z bilan dushmani ham lol qoldirsa bo’ladi. «Yaxshi so’z bilan ilonni ham inidan chiqarish mumkin», -deydi xalqimiz. Bu fikrlar hayot chig’iriqlaridan o’tib xalq orasida barhayot o’rein olgan, o’lmas mulohazalardir. Shu sababli, bunday maqol va mantiqan boy fikrlarga e’tibor qilmay ilojimiz yo’q. Demak, avvalo, do’st istar ekanmiz, so’zlashishning noyob tomonlariga e’tiborimizni qaratishimiz lozim. So’z shirin his-tuyg’uni yo’qotishga yoki tiklashga olib keladi. Kezi kelsa so’z ham tiriltiradi, o’ldiradi ham, so’z ba’zida malham, ba’zida zahar. Uning qudrati, qanday, qaysi sharoit, hamda qaysi mavzuda qo’llanilishiga bog’liq. Do’st orttiraman, degan inson dilidagini o’z so’zi orqali ifodalar ekan, bu jarayon eng muhimdir. So’zlashuvchi tomonlar kamtarlik bilan o’z burch va huquqlarini to’la his qilgan, anglagan holda, yuksak hurmat bilan tanlangan sohada fikr yuritsalar, do’stlikka asos qo’ya boshlaydilar. Zero, mavzuga qarab oddiylik, dilkashlik, jonkuyarlik, halol va rostgo’ylik, qat’iyatlik: talabchanlik, xushmuomalalik, samimiylilik asosida suhbatlashish o’zaro yaqinlashuvga yordam beradiki, bular do’stlashishning ma’lum tomonlarini tashkil qiladi. Agar insonning o’zi shirinsuxan, axloq-odobli, samimiylilik bo’lsa, do’stlar orttirganini ham sezmay qoladi. Ta’kidlaganimizdek, do’stni manfaat ko’rish uchun izlashga o’rein qolmaydi.

Do’stlik shakllanishi oila muhiti va sharoitidan kelib chiqadi. Oilaviy munosabatlar, o’zaro iliq muomalalar, hamfikrlik, o’zaro hurmat bo’lishi, oila qiyinchilik zahmatlarini birga barham ko’rish xislatlari borki, bular ham do’st topish va do’stga ega bo’lish jarayonlarini muhayyo qilmay qolmaydi. Avvalo, oiladagi har bir a’zo, oilaning ma’naviy va iqtisodiy sohalarini to’g’ri tushunmas ekan, oilada o’sgan farzand do’st topishda qiyinalishi turgan gap. Shu sababli, bunga ayniqsa, oila boshliqlari, ona va otaning o’rni beqiyosdir. Ota-onha o’z hayotidagi insonlar bilan o’z farzandlarini tanlangan yo’llariga vaqtida qatiqko’llik, ba’zan mehribonlik bilan boshqarmas ekan, keyinchalik ko’p qiyinchiliklarga duch keladilar. Ming afsuslar bo’lsinki, hayotda shunday farzandlar uchraydiki, ular na qatiqko’llikni, na mehribonlikni tushunadilar, biladilar. Bunday farzandlar qabih niyatlarini oldida ota-onanining nasihatiga qulok solish tugul, balki ulardan voz ham kechadilar. Hayotdan ma’lumki, ba’zi ota-onalar farzandlarini do’st orttirishlarini istab barcha sharoitlarni yaratishga harakat qiladilar. Lekin, bu harakat hamisha ham yaxshi natija beravermaydi. O’sha farzandlar yaratilgan shart-sharoitlarni mukammal tushunib etmaydilar. Ular mavjud sharoitlardan oqilona foydalaniib do’st orttirish tugul, balki ota-onani, qavm va qarindosh, do’st, yor-birodarlar oldida boshlarini egdiradilar, ota-onanining qolgan umriga zavol bo’ladilar. Engil-elpi pul topib, shaxsiy manfaatlari uchun yashaydilar. Haqiqiy do’st orttirishga harakat ham qilmaydilar. Ular bilmaydilarki, qandaydir yo’llar bilan topilgan bu arzimagan harom pullar do’stlik qirralarining bir qismini ham qoplamataydi. Ota-onanining mehr to’la harakatlari o’rniga, ularni zor qaqqhatib qilingan bu sa’y-harakatlari bilan ularning qalbiga ko’rinmas ma’naviy xanjar uradilar.

Kelajakda, bunday yoshlardan birorta haqiqiy do’st bo’lishi amri maholdir. Bunday yoshlardan nafratlanish o’rinlidir. Sababi, hamma vaqt bu sohada «oqni qora» deb ketaverish ham to’g’ri emas. Bizningcha, bunday xislatga ega bo’lgan

farzandlar, do'stlikni ma'naviy tomondan ajratib qaraydilar. Do'st va dushmanni ajrata ololmaydilar. O'z nodonliklarini esa umuman tushunmaydilar. Nodonlik bilan do'stlik alomatlarining paydo bo'lishini sezish qiyindir.

Farzandlar do'stligi bog'chadan boshlanadi. Birgalikda tug'ilgan kunlarni o'tkazish yoki hayvonot bog'lariga borish, multfilm ko'rishlar endilikda odat tusiga kirib qoldiki, ana shu jarayonlar ham bola hayotidagi muhim hodisalardir. Shu jarayonlarda do'stlik tuyg'ulari shakllana boshlaydi. Bog'chalardagi bu umumiy sharoitlar mакtabga borgan bolaning do'st orttirishi uchun asosdir. O'z navbatida, maktabdagи do'stlik boshlanishida sinf rahbari va tarbiyachining o'rni, ayniqsa, muhimdir.

Sinf rahbari yoki tarbiyachi o'quvchilarni birlashtiradi. Ularni bir-biriga mehr-oqibatli bo'lishga chorlaydi. O'tkazilayotgan tadbirlar ko'proq do'stlikka bag'ishlangan sohalar bilan olib borilsa o'quvchilar o'rtasida do'stlik ham abadiy buzilmas bo'lib qoladi. Shu jarayondan bahramand bo'lган o'quvchilar oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida o'qish, korxonalarga ishlash uchun tarqab ketgan paytlarida ham, vaqtı-vaqtı bilan uchrashib, o'zaro muloqotda bo'lib yurishlari, bir-birlarining ahvollaridan xabardor bo'lib, og'irlarini engil qilib yurganlarining guvohimiz.

Do'st orttirishning muhim omillaridan yana biri yuksak axloqlilikdir. Axloq to'g'risida qadimgi turk yodgorliklarida, «Avesto»da, diniy kitoblarda, qadimgi turk yozuvlarida ko'p fikrlar bildirilganligi bejiz emas.

Aynan, payg'ambarimiz Muhammad sallohu alayhi vasallam yuksak axloqli bo'lганliklaridan u kishi Alloh tomonidan tanlab olinganligi to'g'risida rivoyatlar bor. U kishining husni, axloq - xulqlari har jihatdan kamolotga etgan, mukammal bo'lган. Alloh taolo «Nur» surasining to'rtinchi oyatida payg'ambar alayhissalomni maqtab: «Sen chindan ham yuksak axloq egasisan» degan. Payg'ambar alayhissalomning o'zları «Men go'zal axloqlilarni kamoliga etkazish uchun yuborildim», - deganlar. Anas (r. a): «Rasululloh eng go'zal axloq egasi edi»¹, - deganlar. Ana shu axloq tufayli, payg'ambarimizning do'stlari u kishining g'oyalariga umrlarining oxirlarigacha sodiq qolganlar, desak xato bo'lmaydi.

O'z navbatida, do'stlikning shakllanishida ishonch ham insonlarning ko'ngil, dili va qalbini bog'lovchi g'oyat muhim kuchdir. O'rtada ishonch xislatlari paydo bo'lганidan so'ng odamlar bir-birlariga ixlos qo'ya boshlaydilar. Ishonch nazdida halollik,adolat va sof vijdonlik, poklik, so'z va harakat birligi kabi insoniy xislatlar o'z ifodasini topgan. Ishonch negizlari bu insonlar mehrini qozonish, qariya va nogironlarga yordam qo'lini cho'zish, ulardan xabar olish, doimo ular bilan muloqotda bo'lish, o'z so'zining ustidan chiqish, vafodorlik qilish, birovning og'irini engil qilish demakdir. Qalloblik qilish ishonchning teskari tomoni sifatida, hurmatni yo'qotishga olib keladi. Ishonch so'zi arab tilidagi «iyomon» so'zidan kelib chiqqanligi ham bu so'zning mohiyat jihatidan juda mazmunga boy, mo''tabar ekanlididan dalolatdir. Iyomonlik kishini mo'min, deydilar. O'z navbatida iyomon keltirgan odam ishonchli odamdir. Iyomon-inson qalbining gavharidir. Uning bor mazmuni insonni do'st bo'lib yashashga, inoqlikka, yaxshilikka, halollikka undaydi. Ta'kidlash lozimki, Alloh taologa keltirilgan iyomon har bir mo'minni dahshat va

¹ Muhammad Kuzariy. «Nur-ul yaqin», T.: «Cho'lpon», «Kamalak» 1992, 263-bet.

kulfatlardan saqlashga yordam beradi, deb rivoyat qiladilar. Demak, iymon yoki ishonch inson qalbidagi ko'rinxmas ma'naviy kuchdir.

Ishonch insonni aqliy jihatdan boyitadi. Ishonch taqozosi bilan o'z hayotini qurgan insonlar ma'rifatli insonlar qatoriga kiradi, chunki ular ilm olish natijasida olimlikka erishadilar. Ishonch ma'naviyatli kishida bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, insonlar senga ishonmas ekan, o'zingga yaxshi do'st topolmaysan. Ishonchni yo'qotmaslik uchun har bir inson insofni ham yo'qotmasligi darkor. Demak, insofililik ham do'stlilikning shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

Insoflilik o'zbek xalqining eng yaxshi axloqiy fazilatlaridandir. Insofli bo'lish hayotning qiyinchilik va engilliklarini sezishga yordam beradi. Insoflilik ko'proq hayotni chuqur tushuna boshlaganda ko'zga tashlana boshlaydi. Insof oqu-qorani tanish davrida shakllanadi. U odamiylikning shakllanishiga ta'sir qiladi, chunki insofli odam faqat o'z manfaatini ko'zlamaydi, balki, boshqa kishilar manfaatini ham o'ylaydi. Boshqalar to'g'risida g'amxo'rlik qilish natijasida inson xushnud bo'ladi, baxtiga-baxt qo'shiladi. Shu boisdan payg'ambarimiz: «Allohga sig'inaman deb, so'ngra insofli bo'l» deb zikr qiladilar. Insofsizlik qilish insonlikka rahna soladi, do'stlikka zulm qiladi va unga putur etkazadi. To'g'ri, insofni hamma ham bir xilda tushunmaydi. Insofsizlar tutingan yo'l soxtalikka, vaqtinchalik ittifoqlikka olib boradi. Insofsizlikka ruju qo'ygan faoliyatda kelajak va samimiyat bo'lmaydi. Shu sababli, insofsizlik ham gunohning bir turidir, desak xato bo'lmaydi. Buyuk alloma Rizouddin Ibn Faxruddin «... Gunoh unutilmaydi, ezgulik erda qolmaydi, har kim nima sepsa, shuni o'radi. Ezgulik qilishga shoshiling. Nafsingizning hamma istagini bajo keltirishdan chekining. Xayrli ishlar uchun sa'y-harakat qiling»-deydilar. Bular insoflilik uchun ajoyib o'gitlardir. Demak, insofli bo'lish odamiylikdir. Odamiy bo'lismning o'zi esa halollikning kelib chiqishi uchun asosiy manbadir. Shunday qilib, insoniy fazilat hayot jarayonida paydo bo'ladi, u tug'ma tuyg'u emasdir. Insoflilik tuyg'usi oiladagi singari maktab, jamoa, jamiyat rivojlanishi jarayonida paydo bo'ladi. Har bir ishda insof bilan ish yuritish saxiylik va kamtarinlikdan dalolatdir. Faqat «Men» deb turib olish, o'z manfaatini o'ylash insofdan emas, balki mug'ombirlik yoki ochko'zlikdir. Insof bilan ish yuritish yutuqlar garovidir. Insof bor joyda baraka, qut bor.

Do'stlikning shakllanishida vafodorlik, sir saqlash, o'z molini do'stidan ayamaslik kabi xislatlar ham o'rın oladi. Ularning birisiz ikkinchisi bo'lmaydi. Mutafakkir Muhammad Jabalrudiy shunday ta'kidlaydi:

Har do'stki, dilida uch xislat bo'lmas,
Kech undan, do'stlikka aslo arzimas.
Biri vafodorlik, biri sir saqlash,
Biri-molin sendan ayamasa bas!¹

Do'stlik masofaga ham bog'liq emas. Uzoq joylarda yashagan kishilar do'stligi ham abadiy va mustahkam bo'lganligi ko'plarga ayon. Uzoqdan turib bo'lsa ham haqiqiy do'stlar bir-birining shodu xurramliklaridan bahra oladilar, g'amlariga esa

¹ Odob bo'stoni va axloq gulistoni. T.: "Fan", 1996, 46-bet.

sherik bo'la oladilar. Tarixdan bizga ma'lumki, Kot (hozirgi Beruniy) shahridagi Abu Rayxon Beruniy bilan buxorolik Abu Ali Ibn Sino o'rtasidagi do'stlik avval xat orqali do'st bo'lganlar. Keyinroq u abadiy do'stlikka aylandi. Lekin, hayotdagi ba'zi voqealardan ko'z yumib bo'lmaydi. Shunday do'stlar borki, bir-birlarini har kuni ko'rib tursalar ham, do'stlaridagi ko'p xislatlarini yaxshi bilsalar ham, do'stlari to'g'risida ko'r-ko'rona madhiyalar aytib, bir-birlarini davralarda maqtaydilar. Lekin davra nihoyasiga etib, uy-uylariga tarqalish arafasida o'zlarini maqtagan do'stlarining g'iybatini ham qila boshlaydilar. Boshiga musibat tushganda esa, turli sabab va vajlarni ko'rsatib, bo'lgan voqeadan o'zlarini uzoq saqlaydilar. Shu sababli, do'st bo'lish uchun, albatta, ikkala tomon ham do'stlikning qadriga etish maqsadida harakat qilishi nihoyatda zarur. Kamchiliklarni sezgan do'st, bu kamchiliklarni do'stning o'ziga aytmasdan, ustidan kulib yurishi, g'iybat qilishi, hatto g'oyibona dushmanlik qilishgacha borib etishi uning qalbaki do'st ekanligidan dalolat beradi. Shu o'rinda Muiniddin Juvayniyning quyidagi baytini eslamoq darkor:

Har kimsaga ta'na toshini otma,
Garchi bo'lsa hamki qaysar yoki shum!
Aybsiz do'stlarni topmoq muammo,
Aytchi, xatolardan kim poku ma'sum?
Har kim do'stlariga xushfe'l bo'lmasa
Do'stlik izzatidan bo'ladi mahrum¹.

Demak, arzimagan kamchilikdan xulosa qilib, yillar davomida to'plangan hurmat, izzat, do'stlikni yo'qqa chiqarishi mumkin. Zero, unday do'stlik sof holda shakllanmagan. Bunday jarayonlar o'quvchilarimizda ham bo'lishiga shak-shubha yo'q. Afsuski, insonlar ko'proq do'stlikning ma'lum yoshga etgandagina qadriga eta boshlaydilar. Ammo, bu paytda «suvdan g'alvir ko'tarilgan» bo'ladi. Do'stlar ham siyraklashib qoladi. Bizningcha, bu ham bir hayot oqimidir. Shu sababli, yoshi katta kishilar, hayot tajribasiga ega bo'lganlar, o'qituvchilar, murabbiylar o'z o'quvchi va talabalarini, rahbarlar esa o'zlarining yosh xodimlarini hayotning bu chigalliklari bilan o'z vaqtida tanishtirib, tushuntirib borsalar, keljak avlodlar xatolarni kamroq qilsalar ajab emas. Bunday yondashish odamlar o'rtasidagi umumiylar birlikni, xususan, do'stlikni mustahkamlashga yordam beradi. To'g'ri, do'stlikni ifodalash, uni yoritib berish kichkina hajmdagi paragrafda mushkul ishdir. Shu o'rinda aytish lozimki, imkoniyat bo'lganda buyuk shaxslar o'rtasidagi do'stliklar, do'stlikning ijtimoiy tomonlari, muhabbat bilan do'stlik o'rtasidagi jarayonlar, qalbaki do'stliklar to'g'risida, do'stlikni e'zozlash va uni rivojlantirish, muqaddaslashtirish sohalarida juda ko'p fikrlarni ham aytish mumkin edi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, shoir Erkin Vohidovning «Do'st qadam qo'ymas esa, vayronadir koshona ham», -degan oqilona fikrlarini esdan chiqarmaslik ayni muddaodir.

¹ Odob bo'stoni va axloq gulistoni. T.: "Fan", 1996, 55-bet

14.3. Aldamchilik, ikkiyuzlamachilik, mug'ombirlik, johillik tubanlik belgilaridir

Insonlar faoliyatida uchrab turadigan shunday xislatlar ham borki, bu xislatlar yaxshi, yuksak ma'naviyatlilik kishilar xislatlariga sira ham to'g'ri kelmaydi. Shu kabi xislatlarga aldamchilik, ikkiyuzlamachilik, mug'ombirlik, poraxo'rlik,adolatsizliklar kiradi. Bu sohalarda ham yuqorida ta'kidlangan asarlardan juda ko'p hikmatlarni olsak bo'ladi. Qadimgi davrlarda aldamchilik, ikkiyuzlamachilik, mug'ombirlik, poraxo'rlik, adolatsizliklarga qarshi nasihatlar qilgan va o'z faoliyatlaridan misollar keltirgan kishilar kam emas. Shu sababli, ularning nomlari asrlardan-asrlarga o'tib kelayotir. Bularga misol qilib, No'shiravon, Jamshid, Xorun ar-Rashid, Hushang Xorun, Luqmon, Hotam, Buzurgmehr, Kaykovus kabi mashhur obrazlarni olish mumkin. Bular hayotidagi yaxshilik va ezgulik, saxiylik, oljanoblik, kamtarinlik, botirlik, halollik xislatlari kishilarni yuksak ma'naviyatga chorlaydi. Jumladan, Hotam ibn Toy, ya'ni Hotami Toy boshidan kechirganlari, uning sarguzashtlari faqat Arabistonda emas, balki dunyoning har burchagida tillardan-tillarga, ellardan-ellarga o'tib yurib, insoniyatni aldamchilik, ikkiyuzlamachilik va boshqa salbiy xislatlardan uzoqlashishga chorlaydi. Ezgu niyatlarning ustunligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu sababli, A. Navoiy o'zining deyarlik barcha asarlarida kishilardagi bu xislatlarni yo'q qilishga chorlab, ularni qanoatli bo'lishga, ta'magirlik va nokaslikdan uzoq bo'lishga chaqirib, johillik va nafs, o'ziga bino qo'yishlarni qoralaydi. Bu o'rinda hazratning fikrlarini keltirsak foydadan xoli bo'lmaydi:

«Qanoat-bir chashmadirki, olgan bilan uning suvi qurimaydi: u bir xazinadirki, undagi boylik sochilgan bilan kamaymaydi. U bir ekinzordirki, urug'i izzat va shafqat hosilini beradi, u bir daraxtdirki, unda qaram bo'imaslik va hurmat mevasi bordir.Qanoat bir qo'rg'onki, unga kirsang nafsning g'alvasidan qutulasan. Qanoat bir cho'qqiki, unga chiqsang, do'st dushmanga muhtojlikdan xalos bo'lasan.

Ta'magirlik va nokaslik shunday yomon fe'lki, ular go'yo ikki yoqimsiz egizakdir. Unisi bundan yomon-bunisi undan yomon, ikkalasi hamma yomondan-yomon. Bularning biri nokas va birining iqboli past ikkalasining mohiyati birdir»¹, yoki «takabburlik-shayton ishi va manmanlik nodon ishi. Takabbur odam barchaga yoqimsiz»² deb aytilishi bejiz emas. Yana bir rivoyat: qadimgi Eron shohlaridan Hushang o'z o'g'liga vasiyat qilib aytadi-«Ey farzand, ikkiyuzlama, g'arazgo'y odamlardan hazar qil, ularni yoningga yo'latma, chunki ular ma'nosiz da'vo bilan do'stlik lofini uradilar, yaxshilik gavharlarini yomonlik ipiga tizadilar. Ma'qul va maqbul ishlarni qabih, jirkanchli libosga o'rab, yomon shaklda senga ko'rsatadilar»³.

Alloma Arastu aytadi: «To'g'rilik uchun qurban bo'lish-yolg'onchi bo'lib uzoq umr ko'rishdan ko'ra xayrlidir». «Yolg'onchi kishidan yaxshilik, vafolik kutib bo'lmaydi».

¹ A.Navoiy. Mahbub ul qulub. T.; 1983, 45-bet.

² A.Navoiy. Mahbub ul qulub. T.: 1983, 90-bet

³ Oz-oz o'rganib dono bo'lur. T.: 1988, 64-bet.

Bu fikrlar insonlarni faqat yaxshilikka chorlaydi, haqiqatni, halollikni targ'ib qiladi. Insoniy xislatlardan yana biri bu – halollikdir. Halollik va poklik haromdan hazar qilish, haqiqatgo'y bo'lism hammaning ham qo'lidan kelaveramaydi. Lekin, aksariyat insonlar bu xislatlardan xoli emaslar: halollik, poklik insonning yuksak ma'naviyatli bo'lismiga yordam beradi. U aldamchilik, poraxo'rlik, mug'ombirlik, ikkiyuzlamachilik,adolatsizlik xislatlariga qarshi kurashishga undaydi. Shu sababli, sharq xalqlari adabiyoti, xalq og'zaki ijodida, Qur'onu Karim va Hadisi shariflarda halollik xislatlariga katta e'tibor berilgan. Unda harom, harish, o'g'irlilik, bosqinchilik qalloblik, firibgarlik, xiyonatkorlik, egri qo'llilik, poraxo'rlik, muttahamlik bilan topilgan va shaxsiy mulk qilib olingan mol-mulk qoralangan. Bunday yo'llar bilan topilgan pullar va mol-mulklarning barakasi bo'lmaydi. Aksincha, qo'rquv, dahshat notinchlikni olib keladi. Dono xalqimiz bu sohada ham o'z fikrlarini aytib kelgan: «Tez kelgan davlatning bahosi bo'lmas», «Harom qo'l aralashsa, halol qo'ldan ketar», «Harom joyda baraka bo'lmas», «O'g'irlilik osh badanga yuqmas», «Haromni harom chaqirar» kabi hikmatlar fikrimizning dalilidir.

Ikkiyuzlamachilik bu – o'z fikriga ishonmaslik natijasida kelib chiqqan beqaror, salbiy fazilatdir. Ha, ikkiyuzlamachilik insondagi eng salbiy xususiyatlardandir. Ikkiyuzlamachilik deganda, do'st va qavmlar oldida buqalamundek tovlanib turuvchilarni tushunish lozim. Chunki, hayvon ham sharoitga qarab o'z rangi va turqini o'zgartirib turadi. Ikkiyuzlamachi, so'zidan ham sezilib turibdiki, unda muqimlik yo'q degan ma'no chiqadi, ya'ni shunday kishida turg'un yuz yo'q. Ikkiyuzlamachilarni yovuz yoki munofiqlarga o'xshatish mumkin. Ular qabih ishlarni ravo ko'rib, hech narsani sezmaganday bo'lib, dushman bilan ham, do'st bilan ham muloqotda bo'lib yuraveradilar.

Ikkiyuzlamachilik mehnat yoki mablag' talab qilmaydi, shu sababli ham ba'zi insonlar engilgina unga og'ib ketadilar. Ba'zilar o'z manfaati oldida ikkiyuzlamachilik qilib odamlarga xushomadgo'y bo'ladilar. Xushomadni esa ba'zi shaxslarning o'zлari yoqtiradilar. Chunki, ularda haqiqiy insoniylik alomatlari kamroq bo'ladi. Ikkiyuzlamachilar suhbatlarda mustaqil fikrni ayta olmaydilar. Ko'pga ma'lum bo'lgan fikrlar bilan kifoyalanib, ularning fikrini tasdiqlab, o'sha fikr bilan cheklanib qo'ya qoladilar. Yuksak ma'naviyatli kishi o'z fikriga ega bo'lib, xushomadgo'y va munofiqlarni vaqt kelganda ta'zirini berishi lozim. sa'diy ta'rificha:

Ishonmagil maddoh, so'zamollarga,
Zarracha naf uchun seni madh etar.
Bir kun murodin hosil etmasang,
Ikkiyuzdan ortiq ayb sanab ketar.

Xulosa shuki, bilimdonlik, vijdonan poklik, do'stlikka sadoqatlilik, rostgo'ylik va adolatparvarlikni qaror toptirish insonni yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalaydi. Ma'naviy barkamollik esa komillikketaklaydi. Bu esa jamiyat yutug'iga aylanadi.

Tayanch so'z va iboralar: bilimdonlik, sadoqatlilik, rostgo'yik, adolatparvarlik, totalitar tuzum, ifor, ma'naviy kamolot, do'stlik, samimiylilik, o'zaro

yaxshilik, yuksak axloqlilik, ishonch, sof vijdonli, iymon, vafodorlik, odamiylik, halollik, insof, hurmat, izzat, aldamchilik, ikkiyuzlamachilik, mug'ombirlik, johillik, tubanlik,adolatsizlik, poraxo'rlik, ta'magirlik, nokaslik, takabburlik, g'arazgo'y, haqiqatgo'y, harom-harish, qalloblik, yovuz, munofiq.

Hikmatlardan namunalar

Yomon ishlardan o'zini ehtiyot qilib yurganlarnigina bilimdon, deyish mumkin.

Abu Nasr Forobiy

Nodonlik bedavo dardir.

Bilimsiz kishilarning ko'ngli xurofotga moyil bo'ladi.

Yolg'onchilik kishini adolatdan yuz o'girtiradi.

Biliming shunday narsaki, u yalang'och bo'lganingda ham o'zingda qoladi, hammomga kirsang suv bilan yuvib bo'lmaydi. Bilim qaytarish va takrorlash mevasidir.

Abu Rayhon Beruniy

Qudratlidir kimki bo'lsa bilimdon,
Bilimdan keksalar dili navqiron.

Nodonlikdan yomonlik keladi faqat,
Nodonga yondoshma, bosmasin g'aflat.

Abulqosim Firdavsiy

Boqmas jahon sovuq so'z,
Shilqim, yuzsiz, baxilga,
Yoqimli bo'l, xushxuq bo'l.
Qolsin noming ko'p yilga.

«Devonu lug'otit turk»

Jaholat ahli birla qurma suhbat,
Etar har dam bu ishdin jona zahmat.

Nosir Xisrav

Banda bo'lsang manmanlikni zinhor tashla,
Saharlarda joning qiyab, tinmay ishla.
Yo'ldan ozg'on gumrohlarni yo'lga boshla,
Bir nazarda dillarini safo qildim.

Ahmad Yassaviy

Hayfi odam o'z qadrini o'zi bilmas,
Manmanlik qilib, yaxshilarni ko'zga ilmas.

x x x

Yomondan uzoq bo'l, yaxshiga yondosh,
Umring zoe ketgach, diling bo'lur g'ash.
Yolg'on beviqor qilur odamni,
Yolg'on sharmisor qilur odamni.

Test topshiriqlari

- 1. «Ta’lim to’g’risida»gi O’zbekiston Respublikasi qonuni qachon qabul qilingan?**
a) 1998 yil 30 aprel;
v) 1997 yil 28-29 avgust;
g) 1996 yil 30 may;
d) 2000 yil 10 aprel;
e) 2001 yil 29 avgust.
- 2. «Kishining bilimdonligi uning tili orqali namoyon bo’ladi. Iforni yashirsa, hidi ayon qilganidek, bilimni ham yashirib bo’lmaydi, u so’z orqali ma’lum bo’laveradi» degan fikr qaysi mutafakkirga tegishli?**
a) Yusuf Xos Hojib;
v) Alisher Navoiy;
g) Komil Xorazmiy;
d) Abdulla Avloniy;
e) Fitrat.
- 3. Quyidagi manbalardan qaysi birida bilimdonlik, do’stlikka sadoqatlilik, rostgo’ylik kabi xislatlar ulug’lanadi?**
a) hadislarda;
v) marsiyada;
g) ertaklarda;
d) dostonlarda;
e) A va G.
- 4. Davlat tomonidan necha yillik umumta’lim berish kafolatlangan?**
a) 11 yillik;
v) 12 yillik;
g) 9 yillik;
d) uzluksiz ta’lim berish;
e) 8 yillik.
- 5. Konstitutsianing qaysi moddasida «Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiyligi ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi» deyilgan.**
a) 40 – modda;
v) 41 – modda;
g) 42 – modda;
d) 38 – modda;
e) 37-modda.

6. «Bilim – barcha kulfatlarga qalqon» degan fikr qaysi muallifga tegishli?

- a) Per Laplas;
- v) F. Bekon;
- g) A. Rudakiy;
- d) A. Navoiy;
- e) Firdavsiy.

7. Quyidagi asarlarning qaysi birida ko'proq, do'stlik, rostgo'ylik, adolatparvarlik sifatlari keng yoritilgan?

- a) «Farxod va Shirin»;
- v) «Boburnoma»;
- g) «Kamila va Dimna»;
- d) «Zafarnoma»;
- e) «Temur tuzuklari».

8. Quyidagi hikmatli so'zlardan qaysi biri donishmand xalqimizning halollikka, poklikka chorlovchi o'gitlaridan sanalanadi?

- a) «Tez kelgan davlatning bahosi bo'lmas»;
- v) «Harom qo'l aralashsa, halol qo'ldan ketar»;
- g) «O'g'irlik oshi badanga yuqmas»;
- d) «Haromni harom chaqiradi»;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

9. Ikkiyuzlamachilik bu –

- a) o'z fikriga ishonmaslik natijasida kelib chiqqan beqarorlikdir;
- v) o'zgalar fikrini tan olmaslik;
- g) o'zgalarni mensimaslik;
- d) o'ziga bino qo'yish;
- e) «hamelon»ga o'xshash.

15-mavzu: Iymon, e'tiqod, diyonat, mehr-shafqat, poklik va halollik, shaxsning oljanob fazilatlari

15.1. Iymon - shaxs qalbi va ma'naviy qiyofasining ifodasi

«Iymon» arabcha so'z bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi «ishonch» demakdir. Din nuqtai-nazarda, barcha fikrlarga ishonch hosil qilinib til bilan iqror etishlik, hamda dil bilan tasdiqlashga iymon deb ataladi. Iymon mo'min muslimmon kishi tomonidan islom dinidagi 5 farzdan birinchisini aql bilan idrok etishi demakdir. Shu bilan bir qatorda muqaddas kitob Qur'oni karim va Hadisi shariflar orqali Olloh to'g'risidagi barcha-barcha vahiylarni, payg'ambarimiz orqali bandalariga etkazilganiga ishonish, ham ishonch-iymondir. Diniy e'tiqod orqali mushohada qilinganda: Ollohni inkor etish yoki unga ishonmaslik eng katta iymonsizlik gunohi azim bo'lsa, unga iymon keltirib, ishonib u yaratgan jamiki er yuzidagi noz-ne'matlarga shukur qilishlilik bu juda katta savobli ishlardandir. E'tiqodli, iymonli bo'lish uchun inson turli ijobjiy jihatlarni o'zida mujassamlashtirib ongli ravishda anglab etsa, u insonni e'tiqodli deb e'tirof etadi. E'tiqod – bu o'z fikr va qarashlarga ega bo'lган, kishilarga nisbatan hurmatsizlik qilmasdan, ularni ham o'zidek bilib, ularga rioya qilishlikdir.

Diniy jihatdan Olloh taoloning haqligiga, Muhammad alayhissalom uning erdag'i vakilligiga dil-dildan iqror bo'lishlilik e'tiqodga bog'liqdir. E'tiqod, harakat qilish, tanlangan yo'lida faoliyat ko'rsatib o'z g'ayratlilagini hayotda ko'rsatishdir. Buyuk bobokalonimiz Al-Zamaxshariy aytganlaridek «Harakat zaif bo'lган joyda, kuchli bilim foydasizdir. Harakatsiz bilim – ipsiz kamon o'qidir». Demak, yutuqlarimizning garovi harakat va e'tiqoddadir.

Ta'kidlaganimizdek, bu fikrlarimiz-iymon, ya'ni buyuk fazilatning qirralaridan biridir. E'tiqod tushunchasi ham diniy va dunyoviy talqinlarga ega. Iymonning dunyoviy talqini inson ma'naviy kamolotining o'zagi hisoblanadi. Dunyoviy e'tiqod, dunyodagi barcha o'zgarishlar, harakatlar bilan mushtarak bo'lгandagina, oljanob insoniy fazilatlar ma'naviy iymonni sermazmun-serjilo qiladi.

Iymonli, e'tiqodli bo'lishlilik natijasida kelajak uchun ulkan maqsadlar tug'iladi, ya'ni kelajakni qalb ko'zi bilan ko'rib, aql bilan idrok etadi. Bu insonning ruhiy, ma'naviy barkamollikka intilishining natijasidir. Dunyoviy mazmundagi iymonning natijasi ham insonni ulug'laydi, uni oljanob shaxs sifatida ko'rsatadi.

Dunyoviy e'tiqod barkamollikni to'ldiradi, boyitadi. Dunyoviy fazilatlar bilan inson o'zini ma'rifatli qiladi. Dunyoviy e'tiqod Respublikamizning mustaqillik sharoitida vujudga keladigan har xil ijtimoiy, ma'naviy, iqtisodiy sohalarni o'rganishni ham zaruriy qilib qo'yadi. Insonning ma'naviy kamolotga etishishining sharti, omili bu-diniy va dunyoviy e'tiqod qirralaridir. Qachonki, biz yuksak diniy va dunyoviy e'tiqodga ega bo'lган shaxslar bilan jamiyat qursak, shundagina o'sha jamiyat har tomonlama etuk va ilg'or jamiyat bo'la oladi.

O'zbekiston mustaqilligini yanada mustahkamlash uchun, e'tiqodli ma'naviy barkamol, komil insonlarni tarbiyalash zarur. Zero, haqiqiy e'tiqodli kishi o'zi yashaydigan uy, ko'cha, mahalla, tuman, mamlakat va davlatga mehr ko'zi bilan boqib uning kelajagi uchun qayg'uradigan oljanob insonlardir. Binobarin, I.Gyote

aytganidek: «Jiddiy, teran, haqiqiy iroda, eng avvalo, maqsadga erishishga ishonch tasavvuri bilan uyg'unlikda ifodalanadi».

Insonlarda haqiqiy iroda, oliv fazilatlar: e'tiqod, iqror va amal bog'langanda, u kelajakka aql ko'zgusi bilan boqadi. Davlatiga, xalqiga mehr-muhabbat bilan qaraydi, kerak bo'lsa, jonini ham fido qiladi.

Yuksak ma'naviyatli insonni shakllantirish, bu e'tiqodli-irodali inson etishtirish bilan bog'liq. Irodali, qat'iyatli inson jamiyat boyligidir. Jamiyat rohatidan bahramand bo'lgan inson o'z farzandlarida ham iymon, e'tiqod va diyonatlilikni qaror toptiradi. Bu degani, ota va bola o'rtasidagi mehr-oqibat munosabatni takomillashtiradi. Ma'naviy kamolotga etishishning asosiy mezoni iymon, e'tiqod ekan, demak ularni shakllantirish ziyolilar irodasi va qat'iyatliliga ham bog'liq. Ammo, ushbu jarayon o'z-o'zidan bo'lmaydi. U ulkan ishontira bilish mehnatini talab qiladi.

Kelajakka ishonch, iymon, e'tiqod, diyonat mehr-shafqatli bo'lishga bog'liq. Aslida «Iymon alohida bir fazilat emas, balki insonga xos bo'lgan etuk ma'naviyat normalarining muayyan tizimidir. Iymonli odam komil inson bo'ladi. Demak, iymon komil insoniylikni ifodalovchi barcha fazilatlarni o'z ichiga oladi»¹.

Prezident I.A.Karimov O'zbekistonning kelajagi buyuk, degan ezgu niyatni o'rta ga tashladi. Bu ezgu niyatga ham iymon, ishonch, e'tiqod orqali, shu bilan birga tinimsiz mehnat, harakat tufayli erishish mumkin. Yillar o'tishi bilan O'zbekiston o'zining iqtisodiy, siyosiy, madaniy salohiyatini oshira borishiga iymonli insonlar yordam beradi. Buyuk davlatga ega bo'lish faqat iqtisodiy jihatgagina bog'liq emas. To'g'ri, iqtisodiyot etakchi o'ringa ega. Lekin, iqtisodiyotni rivojlantirishga bel bog'lagan mutasaddilar birinchi galda iymon, halollik, poklik, ijobjiy vijdonlik amri bilan ish yuritsalar buyuklikka erishish mumkin.

Tadbirkorlar sinfi shakllanar ekan, avvalo shu tadbirkorlar iymonli bo'lishi davr talabidir. Tadbirkorlar, mulkchilikning turli shakllaridan foydalanib ish yuritadilar. Ularda moddiy manfaatdorlik mavjud. Manfaatdorlikka, insof va diyonat nuqtai nazaridan yondashilsa, jamoa va jamiyat foyda oladi. Ular unda yashayotgan barcha insonlar farovonligiga hissa qo'shamdi. Tadbirkorlik va mehnatsevarlik o'zbek xalqining azaldan shakllangan milliy qadriyatlaridandir.

Tadbirkorlik faqat tijorat yoki oddiy oldi-sotdidangina iborat emas. Tadbirkorlikda oljanoblik, saxiylik, rahmdillik xislatlari ham o'zining ifodasini topishi zarur. Bu xislatlarga ega bo'lмаган tadbirkor, ishbilarmon haqiqiy iymonli tadbirkor yoki ishbilarmon bo'la olmaydi. Ular shu bugunning hayoti bilan yashaydilar. Uzoqni ko'ra bilmaydilar. Shu sababli, aytishimiz lozimki, tadbirkorlar, ishbilarmonlar birinchi navbatda mamlakat uchun, xalq manfaati, ehtiyojlari uchun jonkuyar bo'lмog'i lozim. Ular boshqalar bilan teng huquqli bo'lib ish yuritishlari, avvalo, o'z iymon-e'tiqodi oldida sof vijdon bilan fikrlashishi zarur. Sifatsiz mahsulot ishlab chiqarish, mahsulotlarning bahosini muttasil ko'tarish, qalbaki yoki sayoz foyda olish yo'lida emas, balki, haqiqiy jonkuyarlik bilan, jahon andozalari talablariga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarsa, Vatan oldidagi o'z burchini amalga oshirgan bo'ladi. Faxr bilan aytta olamizki, o'zbek xalqi tarixida tijorat va

¹ E. Yusupov. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. T.: «Universitet», 56-bet.

tadbirkorlik, ishbilarmonlik hamma vaqt yuksak ma'naviy fazilatlar bilan bog'liq bo'lib kelgan. Mulkchilikning yangi turlariga, ishlab chiqarilgan mahsulotga nisbatan yangicha munosabatlarning qaror topishi, tobora chuqurroq ildiz otishi ana shunday yuksak insoniy, ma'naviy, madaniy qadriyatlarni ham tiklashni, ularga amal qilib ish yuritishni taqozo qiladi.

Ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga asoslangan sobiq sovet tuzumida mamlakatimizda mulkning ko'p turlari davlat ixtiyoriga o'tganligi tufayli ishbilarmonlik va moddiy manfaatdorlik, xalqning qadimdan shakllangan ishlab chiqarish sohasi malakalari, mehnatsevarlik, halollik, poklik, iymon-e'tiqodlari pasaydi. Sir emas, o'tgan yarim asrdan ko'proq davrda «davlat mulki, bu ham mening mulkim», degan e'tiqod, iymon to'la shakllanmadi. Ishlab chiqarish vositalari va qurollariga, er va suvga, atrof-muhitga, etishtirilayotgan mahsulot sifatiga nisbatan loqaydlik bilan qarash hollari kengroq tarqaldi. Ayniqsa, yoshlar ishbilarmonlik va tadbirkorlik, mehnatsevarlik, halollik, poklik, iymon, e'tiqod, insonparvarlik kabi yuksak ma'naviy fazilatlardan mahrum bo'lish darajasiga borib qoldilar. Mehnat qilishga sun'iy yondashildi, ma'muriy topshiriq asosida mehnat qilindi. Mehnat qilish «ongli» faoliyatdir degan shior, shiorligicha qolib ketdi. Tekinxo'rlik, mehnatning qadrini bilmaslik, ishlamasdan yutuqlarga erishish, chiroqli turmush tarziga ega bo'lish, go'zal kiyinib, sayr qilishlarga borish, mashinalar olish, uy-joylarga tekin erishish kabi xislatlar kuchayib, iymon-e'tiqod ikkinchi darajaga tushib qoldi.

Haqiqiy mehnat orqasidan boy bo'lганlar sobiq ittifoq davrida quvg'in qilindi. Ular o'rniga o'sha tuzumdag'i rahbarlar «yangi boylar» tusini oldilar. Bu boylar mansabdorlar bo'lib, sovet tuzumi tomonidan ular uchun yaratib berilgan imtiyozlar natijasi edi.

Milliy ma'naviyat, din, iymon, e'tiqod bilan aloqador bo'lgan mahalliy qadriyatlarni barbod etish insonlar o'rtasidagi munosabatga, halol bilan haromning farqiga bormaslik kabi noo'rin fazilatlarning kuchayishi totalitar tuzumning natijasi bo'lib, yuksak ma'naviy fazilatlarning shakllanishiga to'siq edi. To'g'ri, hozirgi davrda hali insonlar orasida bular kabi sayoz ma'naviy illatlarning borligi sezilib turibdi, bularning oldini olib ish yuritish payti keldi. Ularga qarshi kurash har bir fuqaro, ziyolining dolzarb vazifasidir. Shu bois bozor munosabatlariiga o'tar ekanmiz, mamlakatimizning buyuk kelajagini ta'minlashda iqtisodiy imkoniyatlardan tashqari ma'naviy poklanish, kamtarlik, halollik, insonparvarlik, saxiylik, ochiq ko'ngillilik, mehr-oqibat, saxovat, vijdon va iymon bilan chambarchas bog'liq bo'lgan milliy qadriyatlarga tayanib ish ko'rmoq zarur. Iymon va e'tiqod, odamgarchilik muvaffaqiyatlar garovidir.

Jamiyatimiz taraqqiyotida siyosiy e'tiqod ham iymon bilan bog'langan. Mustaqillik va uni mustahkamlash siyosiy e'tiqod hamda iymonga bog'liq. Ma'lumki, siyosiy faoliyatda ham shaxsiy manfaatlar o'z aksini topadi. Lekin siyosiy e'tiqodi xolisona bo'lмаган shaxslar o'z manfaatini amalga oshirishda o'zining iymon va e'tiqodiga yuzaki qarashi mumkin. Bunday holatning bo'lishi xalq turmush tarzini salbiy tomonlarga burib yuborishi mumkin. Sababi, iymon-e'tiqodi mustahkam bo'lмаган siyosatchi ko'pchilik manfaatidan o'z manfaatini ustun qo'yadi. Xususiy manfaatni ustuvor deb biladi. Bunday holatda mamlakat miqyosida

tengsizlik, beqarorlik kelib chiqadi. Mustaqillik davrida tarkib topayotgan vatanparvarlik xislatlari ham iymon va e'tiqodga bog'liqdir. Bu sohada ham iymon, e'tiqod yo'naltiruvchi omilga aylanishi lozim. Xalqi mehnatsevar, vatanparvar, millatparvar, baynalminal, vijdonli, haqiqiy iymonli bo'lgan mamlakatning kelajagi porloq va buyuk bo'ladi.

15.2. Diyonatli bo'lishlik yuksak ma'naviy fazilatdir

Darhaqiqat, iymon, e'tiqodi bilan diyonat tushunchalari o'zaro mujassamdir, shu sababli endi diyonat tushunchasi haqida fikr yuritamiz. Diyonat, vijdon, vijdonlilik, insof, mehr-shafqat qoidalariqa qattiq rioya etish dindorlik, taqvodorlik degan ma'nolarni ham anglatadi¹. Diyonat tushunchasiga yaqin fikrlar esa vatanparvarlik, insoflilikdir. Diyonat tushunchasi iymonli inson tushunchasining bir bo'lagidir. Insonning haqiqiy e'tiqodiga, iqroriga, amal qiladigan narsasiga qarshi bormaslik diyonatlilik demakdir. Iymon va diyonat bir biriga uzviy bog'liq bo'lgan ma'naviy kamolotga etkazuvchi fazilatlardan biri sifatida qaraladi. Diyonat negizida vijdonlilik yotadi. Xo'sh, insonda vijdon qanday paydo bo'ladi.

«Vijdon–bu kishining kundalik faoliyati, qilmishi, fe'l-atvori uchun oila, jamoat, jamiyat va Vatan oldida ma'naviy mas'uliyat his etishdir»². Demak, vijdon har bir ishga o'zining, salbiy yoki ijobjiy qilgan harakatini aqlan tushunib etish va unga xolisona baho berishidir. Ijobjiy yoki kerakli fikr yuritish diyonatlilik bilan bog'liqdir. O'z navbatida bular insof bilan ham bog'liqdir.

Insof-bu shunday fazilatki, jamiyatda mavjud bo'lган ishlarga, munosabatlarga to'g'rilik, sofkillik, barobarlik, halollik kabi yuksak ma'naviy jihatlarni qamrab olgan, ma'naviyatga oid tushunchadir. Insof-bu shunday yuksak fazilatki, u mujassam bo'lган insonda jaholat va qaramlik, zo'ravonlik va insofsizlik bo'lmaydi. Insofli bo'lishda o'zining manfaatini boshqalarnikidan ustun qo'yishi noo'rindir. Insofli inson bo'lishlik o'ta oliy fazilatdir.

Inson qachonki diyonat tushunchasining tub-tub ildizlarini tushunib etmas ekan, u yuksak ma'naviyatli, insofli ham bo'la olmaydi. Sababi, yuksak insoniy fazilatlar diyonat bilan bog'langan. Diyonat tushunchasida rahmdillik, kamtarinlik, beg'arazlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, vijdonlilik, insoflilik, mehr-oqibatlik, rahm-shafqatlilik va shu kabi bir qator insonning oliy fazilatlari o'z aksini topadi.

Diyonatli bo'lishlikning bosh mezoni ma'rifatli bo'lishlikda hamdir. Ma'rifat orqali inson yuqoridagi tushunchalarning mohiyatini tushunadi. Zero, bu millatimizga xos bo'lган bag'rikenglikni o'rgatadi.

I.A.Karimov aytganidek «...sof insoniy tuyg'u, . . . o'zbeklarda shu qadar rivojlanganki, milliy-ma'naviy keng fe'llik ularning umumiy madaniyati va ruhiyatining ajralmas qismiga aylanib ketgan.

Og'ir sinov yillarda, urushlar va Stalin qatag'onlari davrida O'zbekiston hududiga kelib qolgan ayrim millatlar, kishilar, oilalar hatto butun-butun xalqlarni ham qurshab iliq-yaxshi munosabat, samimiyat va g'amxo'rlik, o'zbek xalqiga xos bo'lган bag'rikenglik, insoniy mehribonlik va o'zgalar qayg'usiga sherik bo'lish, ochiq ko'ngillik va mehmondo'stlikning yorqin namoyishi bo'ldi»¹. Haqiqatdan ham olijanoblikning tarkibiy qismi bo'l mish diyonat millatimizdagi o'ziga xos va mos ko'rinishlardandir.

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-tom, 223-bet.

² Ibrohimov va boshqalar. Vatan tuyg'usi. T.: 1996, 27-bet.

¹ I. A. Karimov «O'zbekiston buyuk kelajak sari» T.: «O'zbekiston», 1999, 478-bet.

Diyonat tushunchasining qirralaridan yana biri bu rahm-shafqatlilik va mehr-oqibatlilik tushunchalaridir. Bu tushunchalar turmush tarzimiz, faoliyatimiz davomida namoyon bo'ladi. Sababi, yuksak ma'naviyatlilikni ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Rahm-shafqatlilik bo'lishlik kishilarga nisbatan mehr-oqibatli, rahmdil bo'lishlik, kelajakda millatning ma'naviy-madaniy ruhiyatini yuksak darajaga ko'tarilishiga katta imkoniyat tug'dirib beradi. Bu esa yuksak barkamol avlodni etishtirishga sharoit yaratadi.

Diyonat insonning oljanoblik fazilatlari ichida eng yuksak va oliy xislatdir. Diyonatli bo'lishlikni keng ma'noda tahlil qila bilish zarur. Shundagina diyonat tushunchasi insonga naqadar kerakli ma'naviy, ruhiy, irodaviy kuch ekanligi tushunib etiladi. Diyonat insonning oliy fazilatlaridan biri ekan, demak, shu fazilat insonparvarlik tushunchasiga hamohangdir. Diyonat ko'rsatish, unga amal qilish deganda, insonni-inson sifatida ko'rib, uni qadrlash, bo'lar-bo'lmas so'zlar bilan insonning dilini og'ritmaydigan, obro'-e'tibori, sha'niga yomon so'zlar bilan tegmaydigan munosabatlarni ham tushunish kerak.

O'zbekiston hukumati olib borayotgan siyosat diyonatli siyosatdir. Chunki, amalga oshirilayotgan tadbirlar o'zbek xalqi manfaatini ifodalaydi. Ulug'vor maqsadlar O'zbekiston aholisining tinch-totuv, to'q va farovon yashashini ta'minlashga qaratilgan. Hayotni farovon va erkin qilishga chorlaydi. Binobarin, xalqning ishonchini oqlash uchun diyonat bilan ish yuritishni talab etadi. Diyonat adolat ramzidir. Adolat bilan ish yuritgan inson hech kimga zarar va ziyon etkazmaydi, faqat o'zi yashayotgan jamiyatga foyda keltiradi.

Diyonatsizlik vaadolatsizlik qilgan kishining fikri tor bo'lib, bajargan vazifasining mohiyatini, uning kelajagini fahmlab etmaydi. Aslida diyonatsizlikni vaadolatsizlikni amalga oshirish uchun ko'p sohalarni bilish shart emas, faqat uning mazmun va foydasi, zarari va zahmatiga e'tiborni qaratish lozim. Demak, diyonat vaadolat, haqiqatning hayotga tatbiq qilinishi insondan barcha sohalarga loqayd qaramaslikni talab etadi.

Diyonatning umri boqiydir. Diyonat o'z ma'nosi jihatdan yuksak fazilatlar ichida eng oliysidir. Barcha insoniy fazilatlar shu diyonatlikka borib taqaladi. Chunki, u haqgo'ylikka ham bog'liqdir. Diyonatning barkamolligi haqgo'ylik bilan o'lchanadi. Diyonatni haqgo'ylik bilan olib borgan inson samimi, saxiy, oljanob insondir. Diyonatli bo'lish uchun buyuk alloma yoki sohibqiron bo'lish ham shart emas. Sababi, har bir inson faoliyatida diyonatli bo'lish uchun imkon topiladi. Kundalik turmushda insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabat, aloqa va muloqot, bajaradigan vazifalar diyonat bilan to'qnashishning manbaidir. Faqat ulkan, foydali ishlarni amalga oshirish, uni diyonat deb bilish ham xatodir. Diyonat kichik ishlarda, kundalik hayotda, eng arzimas harakatlarda ham namoyon bo'lishi mumkin. U hamisha, hamma erda paydo bo'lsa-da, inson undan yuz o'girmasa, yuksak fazilatga xos xarakterni o'zida tarbiyalaydi. Diyonatsizlik oqko'ngililikni tarbiyalamaydi.

Diyonat kishining tengsiz boyligiga aylanganda undan boshqalar ham ravo topadilar. Diyonatli inson faqat o'z qadr-qiyomatini emas, balki, boshqalar qadr-qiyomatini ham e'zozlaydi. Qachon va qaerda diyonat buzilsa, ezgu harakatlarga zarba berilgan bo'ladi, bu esa insoniy fazilatlardan uzoqlashtiradi. Diyonat bu-e'tiqodning

kuchliligiga bog'liq bo'lib, barcha maqsadlarni, orzu-umidlarni amalga oshishiga yordam beradi. Zero, boshqalarga diyonatlilik ko'rsatgan inson o'zgalardan diyonat ko'radi. Diyonat ko'rsatish irodaga ham bog'liq. Irodasi sust bo'lган inson diyonat xislatlarini namoyon qila olmaydi. Chunki, diyonat ham sabr-toqat, or-nomus, haqgo'ylik, samimiylilik, uyatchanlik kabi jarayonlarni aks ettiradi. Bu insoniy fazilatlar diyonatlilik xarakterini mustahkamlaydi, uni insonlarda ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi.

Dyonatli kishida or-nomus xislatlari ustun bo'ladi. Or-nomusli kishining o'zi ham darhaqiqat diyonatlidir. Or-nomusli inson diyonatli bo'lishni o'ziga bayroq qilib oladiki, bu bayroq izidan boshqalar ham ergashadi. Diyonat va or-nomusga ega bo'lган inson ko'pchilik uchun zarur bo'lган vazifalarni amalga oshiradi, shu ishtiyoq bilan yashaydi. Og'ir vaziyatlarda ham o'zini yo'qotmaydi, nomus va vijdonini sotmaydi, odamiylik fazilatida qoladi. Diyonatli bo'lish turli salbiy holatlardan saqlaydi. Nojo'ya ishlardan uzoqlashtiradi. U yuksak ma'naviyatlilikning belgisidir.

15.3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida poklik va halollik xislatlari

Pok va halol bo'lish insonning etuk ma'naviy fazilatlaridandir. Poklik va halollik tushunchalari haqida ko'proq diniy kitoblarda ko'plab mukammal fikrlar aytilgan. Poklik bu-hayotiy nuqtai nazardan zarur bo'lib, aqliy va jismoniy toza, sof ko'ngillikka rioya qilish kerak bo'lган insoniy fazilatdir. Poklik bu shunday oliv fazilatki, bu kishilarni komil inson bo'lishiga yordam beradigan xislatlardan biridir. Poklik ma'lum ma'noda xiyonat so'zi bilan teskari hamdir. Bu tushuncha oila, atrof-muhitda, ko'cha-ko'yda, mahallada keng tarqalgandir. Pok bo'lishlik, xiyonat qilmaslikdir. Masalan, turmush o'rtog'iga, do'stiga, qavm-qarindoshiga, jamaa va jamiyatiga xiyonat qilmaydigan har bir insonni pok, halol inson deydilar. Pok bo'lishlik kundalik turmushda va islom dinida talqin qilinadigan ulug' insoniy fazilatdir. Jumladan, poklik va halollik haqida so'z yuritganda, o'g'rilik, surbetlik, poraxo'rlik, zino, fahsh, shahvoniylizka berilish kabi xislatlarning salbiyligi qoralanadi.

Pok va halol deb hisoblangan inson, yuqorida keltirib o'tilgan insonning ma'naviy ruhiyati va axloq-odobiga zid bo'lган ishlar bilan shug'ullanmaydi. Bu haqda gapirishdan ham hazar qiladi. Nopok insonlar hamisha qoralab kelingan, tanqid qilingan. Maqsad, inson pokligini ta'minlash bo'lган. Poklik-bu insonning yuksak ma'naviy fazilatidir. Poklik va halollik o'zaro yaqin tushunchalardir.

Halollik ham insonning poklik xislati singari uning yuksak ichki va tashqi go'zalligini boyituvchi ijobjiy fazilatdir. Diniy nuqtai nazardan olib qaraydigan bo'lsak, Alloh taolo tomonidan ruxsat etilishi mumkin bo'lган barcha ijobjiy vazifalar, noz-ne'matlar halol deb aytilgan. Halollik ham poklik xislati kabi yuksak onglilik darajasiga ega bo'lган insonning ma'naviy fazilatidir.

Halollik shunday jarayonlardanki, u kishilarning haqini emaslik, kishilarning omonatiga xiyonat qilmaslik, yomon ko'z bilan qaramaslik kabilardir. Halollik harom narsalardan ehtiyot bo'lish, hasad bilan emas, havas bilan qarash va boshqalardir. Kishilar ushbu ma'naviy tuyg'ularni anglab etsalargina, jamiyatimiz turmush darajasi yuksaklikka ko'tariladi. Halollik tuyg'usi, yuqorida takidlاب o'tilganidek, jamiyatimizda mavjud bo'lsa, barcha sohalarda u hukmron bo'lsa, ish jarayonlari chin ko'ngildan, ko'z bo'yamachiliklarsiz, hasadlarsiz yo'lga qo'yilsa, maqsadga erishiladi.

Respublika mustaqillikka erishgandan so'ng totalitar tuzum davridagi ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga asoslangan «rejali» iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'ta boshladi. Kishilik jamiyatining yuz yillar mobaynida iqtisodiy sohada erishgan eng ulkan yutug'i bu bozor iqtisodiyotidir. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, shu iqtisodiyot orqali farovon hayotga erishish mumkin. Shu iqtisodiyot orqali jahonda salohiyatl o'ringa ega bo'lish mumkin. Shu iqtisodiyot orqali xalq turmush tarzi yuksak darajaga ko'tarilishi mumkin. Lekin, olamdan bo'lak mukammal narsaning o'zi yo'q, faqat, olam bekamu-ko'st mukammal uyg'unlikda yaratilgan. Shu sababli, bozor tizimini ham to'la ijobjiy yoki salbiy bo'lishini taraqqiyot ko'rsatadi.

Unda ham kamchiliklar mavjud bo'ladi. Zero, I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Bozorga, ayniqsa uning shakllanish bosqichida uzoq va chuqur inqirozlar, ishsizlikning o'sishi, pulning qadrsizlanishi, ko'pgina korxonalarining sinishi va ishbilarmonlarning xonavayron bo'lishi, aholining moddiy ta'minot jihatidan keskin tabaqalashuvi, huquqqa zid xatti-harakatlar va jinoyatlarning o'sishi xosdir»¹.

Demak, o'tish davrida fuqarolarimiz halollik tushunchasini yana bir chuqurroq tahlil qilsalar foydadan xoli bo'lmaydi. Sababi, bozor iqtisodiyoti sharoitida ham har sohada yuqorida ko'rsatilganidek qiyinchiliklar yuz berishi tabiiydir. Binobarin, o'tish davrida harom va halolni farqiga borishlik, iymonli, diyonatli, pok vijdonli, halol bo'lish tom ma'noda ma'naviyatli, ma'rifatli insonning xislatidir.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish davrida ahyon-ahyonda tarozidan urishlar, tarozi toshlarining vaznini kamaytirishlar, tijoratning haqiqiy holati va uni yuritishni boshqacha tushunuvchilar uchrab turibdi. Bunday kishilar halollik tushunchasi haqida ijobiy fikr yuritib ko'rsalar jamiyat foyda ko'radi, xolos.

Mutaffakir ibn Sino aytganlaridek «... ko'p eb, ko'p yotishdan, oz o'y lab ko'p gapirishdan, nojo'ya harakatlar qilib kuch-quvvatini behuda sovurishdan, dangasa bo'lib kulala tushib yotishdan» saqlangan holda haqiqiy bozor iqtisodiyotini rivojlantirish davr talabidir. Demak, halollik inson fazilatlarining buyugidir. Bu xislatga ega bo'lish har birimizning burchimizdir.

Hozirgi payt taraqqiyoti ham shuni talab etadi. Halollikni oila, jamoa, jamiyat shakllantiradi. Qabul qilinayotgan turli sohadagi qonunlar ham halollikka etaklovchi omillardandir. Unga rioya qilish halollikdan dalolatdir. Demokratik davlat barcha qonunlari bor mamlakatda emas, aksincha, mazkur qonunlar xalq ongiga chuqur singigan bo'lsa, ommaning huquqiy ongi talab darajasida bo'lsa, halollik ro'y beradi. Qonunlarda ko'rsatilgan inson burchlari, insondagi halollik tuyg'ulari bilan mujassam bo'lgan joyda ishonch, e'tiqod paydo bo'ladi.

Jamiyat a'zolarini halollikka, poklikka, kamtarinlikka, insonparvarlikka, mehr-oqibatga, mehr-muruvvatga chaqiruvchi davlat hujjatlari bilan birga shar'iy hukmlar, ya'ni shariat qonunlari ham mavjuddir. Muqaddas kitoblar «Avesto», «Qur'on», «Tavrot», «Injil», «Zabur», «Hadis»larda ko'rsatilgan haq-huquqlar insonlarni doimo yaxshilikka, poklikka, halollikka undab keldiki, ulardan bahramand bo'lgan insonlar o'z faoliyatlarida kam bo'limganlar, yutuqlarga erishganlar. Chunki, ularda kishilar o'rtasidagi samimiyy munosabatlar adolat bilan ko'rsatib berilganki, ularning barchasi inson, insonning fazilati bilan bog'langan. Ular qanchalik eski bo'lmasin, hozirgi kunda ham insonlarda yuksak ma'naviy xislatlarning shakllanishiga ta'sir etib kelmoqda. Shariat huquqlarida halollik, insonparvarlik qoidalariga rioya qilish nihoyatda zarur ekanligi qayd qilingan. Ayniqsa, tijorat va tadbirkorlikda ko'zbo'yamachilikka yo'l qo'yish, birovlarini aldash, aholining haqiga xiyonat qilish, ommani, beva-bechoralarni og'ir ahvolga solib qo'yishga qaratilgan ishlar xudo oldidagi katta gunoh ekanligi ta'kidlangan. Bular musulmonchilik talablaridan uzoqlashganlikni bildiruvchi noo'rin harakatlar sifatida tasvirlangan. Shu sababli aytishimiz mumkinki, barcha tadbirkorlar, ishbilarmonlar (rahbarlar ham) chiqarilgan qonunlarni bilishlari bilan birga shariat qonunlariga ham jiddiy amal qilsalar

¹ I.A.Karimov «O'zbekiston buyuk keljak sari» T.: «O'zbekiston», 1999, 38-bet

foyدادан xоли bo'lmas edi. Harom-harish, gunohli ishlarni Ollohdan ham, xalqdan ham yashirib bo'lmaydi. Ochig'ini aytganda, harom-harish ishlarni turli sun'iy tavbatazarru, тоат-ибодатлар билан yuvishga ntilish behuda intilishdir. Harom yo'llar bilan topilgan mol-dunyo hech kimga buyurmagan, buyurmaydi ham. Yaxshisi harom ishlarga qo'l urmaslik, undan hazar qilish darkor. Harom ishlarga qo'l urish, hayotda ham, shariatda ham mutlaqo taqiqlangan ishlarga berilib ketish demakdir. Ma'lumki, shariatda harom ishlarni bajarish gunoh hisoblanadi. Ularni zulmiy haromlar deb ham aytildi. Jumladan, birovning molini o'g'irlash, o'zgalar mol-mulkini o'ziniki bilan aralashtirish, olgan qarzlarini to'lamaslik, yaxshi mulk olib, uning o'rniga yomon mulkni berish, birovlarni ustidan kulish, birovning gapini ikkinchi kishiga chaqimchilik bilan etkazish, ikkiyuzlamachilik qilish, qo'shnilarни ranjitish, oziq-ovqatlarni arzon vaqtida olib qo'yib, qimmat paytida sotish, mollarni tegishli bahosidan ikki barobar qimmatiga sotish, birovning yashirin sirini birovga aytish, zolimlar zulmiga ko'mak berish, sadaqa so'ragan gadoni jerkib berish, birovni behuda qo'rqtish, faqir kishilarni humatsizlash, aldash, noto'g'ri maslahat berish yo'llari ham beqiyos ko'p bo'lib, ular har kuni hayotimizda tez-tez uchrab turadi. Va'daga vafo qilish, hadyalarga yarasha hadyalar qaytarish, yaxshilikka yaxshilik bilan javob berish, bozorda sotilayotgan narsaning ayblarini aytib sotish, aybsiz kishi ayblanayotganda uni oqlash, so'zi o'tadigan kishilarni harom ishlardan qaytarish, so'zda va har bir ishda to'g'ri va haqqoniy bo'lismash, guvohlik berganda ko'rgan va eshitganlarini tegishli joyda to'g'ri tasdiqlash, birovning narsasi qo'lga tushganda uni egasiga qaytarish, qarzlarini o'z vaqtida ado etish kabilar halollik belgisini ko'rsatuvchi sohalarning bir qismidir. Bu belgilar kundalik hayotda odatiy faoliyatlar tarziga kirsa-da, yuksak ma'naviyatni bildiruvchi omillardir.

Halollik insonga baxt keltiradi. U buyuklikning nishonasidir. Insonlar halollikdan yuz o'girib, noplak bo'lsalar, ular kelajakda shunga o'rganib qoladilar. Oxir-oqibat hayot lazzatlarini ham unutadilar. Binobarin, insonlarni bir xil turmush tarzları hayotda mavjud. Ularning hayotga kelishi ham o'xshash bo'lsa-da, keyinchalik halollik va noplaklari bilan bir-birlaridan farq qiladilar. Halol odamlarning nomi baland bo'lib, noplaklarning nomi jirkanch bo'ladi. Halollik insonning beba ho ziynatidir. Halollik yutuqlar garovidir, u to'g'rilik deganidir. Halol bo'lismash uchun inson dono aqlga, farosatga ega bo'lmg'i lozim. Odatda halol odamlar ko'plarning manfaatini ko'zlab ish yuritadilar, shaxsiy manfaatni esa ikkinchi darajli qilib qo'yadilar. Bu xislatga ega bo'lganlar olijanob kishilar hisoblanadilar.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, halollikni odamlar o'rtasida oshkora qilish ham haqiqiy halollikka kirmaydi. Halollik kamtarlik bilan xolisona qilingandagina o'rinlidir, hamma bo'limg'ur ishlardan o'z vaqtida xulosa qilish, turli nayrangchilar faoliyatidan nafratlanish ham halollikning bir turidir. Halollik, ma'lumki sotilmaydi, u insondagi ichki ruhiy holatning namoyon bo'lismash. Muruvvat ko'rsatish, birovlar g'amiga sherik bo'lib, dardlashish ham halollik natijasidir.

Biz yashab turgan sharoit va zamonda rahbar xodimlarning halol bo'lishi eng zarur xislatlardandir. Chunki, rahbarlar o'z faoliyatida turli voqealarga duch keladilar. Bu voqealarga yumushlarni halollik va fidoiylik bilan bajarmas ekanlar, bunday rahbarlar xalq nafratiga duchor bo'ladilar. «Bugungi o'tish davridan

foydalanim,-deydi I.Karimov,-ba'zi bir nafs balosi girdobiga tushgan rahbarlar o'z manfaatini ko'zlab, nopoq yo'llarga, hatto jinoyat yo'liga o'tib ketayotgan hollarni uchratish mumkin... ayrim tashkilot rahbarlarining poraxo'rlik, moliyaviy xatolar va talon-torajlik yo'liga kirib qolgani fosh bo'lyapti. Shu kabi jirkanch harakatu intilishda yurgan kimsalar bu besh kunlik dunyonni, oxiratini mutlaqo o'ylamaydilar. Ularga insof, mehru oqibat tushunchalari mutlaqo begona»¹. Demak, ana shu salbiy xislatlarning oldini olish, dolzarb hisoblanadi. Buning uchun yuksak ma'naviyatli, halol yosh avlodni tarbiyalab, voyaga etkazish muhim vazifa bo'lib qolayotir.

Tayanch so'z va iboralar: iymon, e'tiqod, diyonat, mehr-shafqat, poklik va halollik, ma'naviy kamolot, haqiqiy iroda, tadbirkorlik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, siyosiy e'tiqod, diyonat, dindorlik, taqvodorlik, vijdon, insof, rahm-shafqatlilik, bag'rikenglik, ochiqko'ngillilik, mehmondo'stlik, barkamol avlod, mehr-oqibat, diyonatsizlik,adolatsizlik, haqgo'ylik, oqko'ngillilik, or-nomus, poklik va halollik, zino, fahsh, shahvoniylilik, yuksak onglilik, shariat qonunlari, zulmiy haromlar.

¹ I.A.Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-tom T.: «O'zbekiston», 1996, 271-272-betlar.

Hikmatlardan namunalar

Tenglik hukm surgan joyda sotqinlik, aldamchi ehtiroslar, g'am- g'ussa bo'lmaydi.

Abu Rayhon Beruniy

Hamisha aqlingni rahnamo etgil,
Noloyiq ishlardan olisga ketgil.

Abulqosim Firdavsiy

Er ostiga kirdim nodonlardin,
Ilkim oolib duo tilab mardonlardin.
G'arib jonim yuz tasadduq donolardin,
Dono topmay er ostiga kirdim mano.

Ahmad Yassaviy

Quyosh nuri berkitilmaydi, haqiqat shami so'nmaydi.

Az-Zamaxshariy

Ko'zguga berardim kechqurun sayqal,
Boqdim unga tiniq bo'lgan bil mahal:
Shuncha ko'p ko'rindi o'z aybimki, men
O'zgalar aybini unutdim tugal.

Pahlavon Mahmud

Ulug'lik sharafin istagan odam,
Kichiklarga aylar himmatu karam.

Xusrav Dehlaviy

Test topshiriqlari

1. «Iy়মন» arabcha so'z bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi -

- a) ishonch demakdir;
- v) bilim demakdir;
- g) tanish demakdir;
- d) o'qimoq demakdir;
- e) e'tiqod demakdir.

2. Diniy nuqtai- nazardan olib qaraganda iy়মন -

- a) insonning ma'naviy va ruhiy olami majmuasidir;
- v) ma'naviy va moddiy boyliklar yaratish tizimidir;
- g) barcha fikrlarga ishonch hosil qilinib til bilan iqror etishlik hamda dil bilan tasdiqlashdir;
- d) diniy bilimlarni egallashdir;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

3. E'tiqod bu -

- a) o'z fikr va qarashlarga ega bo'lgan, kishilarga nisbatan hurmatsizlik qilmasdan, ularni ham o'zidek bilib, ularga rioya qilishdir;
- v) Olloh to'g'risidagi vahiylarni Payg'ambarimiz orqali bandalariga etkazganligiga ishonishdir;
- g) harakat qilish, tanlangan yo'lida faoliyat ko'rsatib o'z g'ayratlilagini ko'rsatishdir;
- d) din yo'lida fidoyilik;
- e) A va V

4. «Jiddiy, teran, haqiqiy iroda, eng avvalo, maqsadga erishishga ishonch tasavvuri bilan uyg'unlikda ifodalanadi» degan fikr qaysi faylasuf qalamiga mansub?

- a) I. Kont;
- v) I. Gyote;
- g) Az – Zamashshariy;
- d) Forobiy;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

5. «Vatanni sevmoq iymondandir» iborasi qaysi manbadan olingan?

- a) Hadisdan;
- v) I. A. Karimov;
- g) Qobusnomadan;
- d) Qur'oni karimdan;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

6. Ma'lumki, tasavvuf ta'limotida iymon, e'tiqod, poklik, halollik fazilatlari olg'a suriladi. O'ziga xos tasavvufiy ta'limot yaratgan tasavvuf namoyandalarini ko'rsating?

- a) Xoja Bahovuddin Muhammad Naqshband;
- v) So'fi Olloyor;
- g) Ahmad Yassaviy;
- d) Najmiddin Kubro;
- e) a va d.

7. «Agar ul attizam istasa haroma, yana ul nusxada bitildi xoma. Qiyomat kun dardgir etarlar. Ani shayton bila zanjir etarlar», degan purhikmat so'zlar qaysi tasavvuf ilmi namoyondasi qalamiga mansub?

- a) So'fi Olloyor;
- v) Abdulxoliq G'ijduvoniy;
- g) Ahmad Yassaviy;
- d) Najmiddin Kubro;
- e) aniq javob yo'q.

8. Konstitutsianing qaysi moddasida dinga e'tiqod qilish, vijdon erkinligi kafolatlangan?

- a) 31 – moddasida;
- v) 30 – moddasida;
- g) 27 – moddasida;
- d) 28 – moddasida;
- e) 37- moddasida.

9. Quyidagi ta'riflardan qaysi biri diyonat tushunchasini ifodalaydi?

- a) diyonat vijdon, insof, mehr-shavqat qoidalariga qattiq rioya etish, dindorlik, taqvodorlik degan ma'nolarni anglatadi;
- v) diyonat madaniyat tushunchasi bilan bir ma'noni beradi;
- g) insonning o'z e'tiqodiga, iqroriga amal qiladigan narsasiga qarshi bormasligi diyonatdir;
- d) e'tiqod erkinligini anglatadi;
- e) A va V

10.Qaysi payg'ambar adabiyotda go'zallik timsoli sifatida tasvirlangan?

- a) Iso;
- v) Dovud;
- g) Ibrohim;
- d) Yusuf;
- e) Masih.

11. «Qutadg'u bilig» mazmunan qanday asar?

- a) rivoyatlar haqidagi asari;
- v) biografik asar;
- g) sevgi-muhabbat asari;
- d) pandnoma asari;
- e) qahramonlik asari.

**12.O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorida ko'rsatilishicha,
lotin yozuviga o'tish qachon to'liq tugallanishi kerak?**

- a) 2000 yil 2 sentyabrida;
- v) 2005 yil 1 sentyabrida;
- g) 2006 yil 20 sentyabrda;
- d) 2007 yil 1 oktyabrda;
- e) 2008 yil 1 sentyabrida.

13. «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarining muallifi kim?

- a) Abu Rayhon Beruniy;
- v) Abu Nasr Forobiy;
- g) Sakkokiy;
- d) Xondamir;
- e) Ulug'bek.

**14. Buyuk muhaddis Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning qabri qaerda
joylashgan?**

- a) Chelakda;
- v) Qorako'lida;
- g) Samarqandda;
- d) Buxoroda;
- e) Xivada.

16-mavzu: Ota-onaga izzat-hurmat, oilaga sadoqat ma’naviyat, ma’rifatning mezoni

16.1. Oila jamiyatning tarkibiy qismi va uning muayyan ijtimoiy tuzum bilan bog’liqligi. Oila va jamiyatning o’zaro munosabatlari

Qomusiy olim Mirzo Ulug’bek: «Aql-odob bilan, boylik qadru- saxovat bilan, quvvat qadru-bahodirlik bilan oshadi», - deb bashorat qilgan edi. Zero, tarbiyani har bir yosh o’z oilasida, bog’chada, mакtabda, mahallasida, jamoasida, jamiyatda oladi. Jamiyatning bir bo’lagi hisoblangan oiladagi er va xotin o’rtasidagi, ota-onal bilan farzandlar, qo’ni-qo’shnilar, qarindoshlar o’rtasidagi munosabatlarda saqlangan muomala madaniyati tarbiyaning ajralmas qismidir. Kundan-kunga «Oila-jamiyatning negizi» degan falsafiy fikr kundalik hayotimizdan mustahkam o’rin olib borayotir. Demak, sog’lom oila ko’payganda jamiyat ham sog’lom rivojlanadi. Unda poraxo’rlik, mansabparastlik, shaxsiyatparastlik, boqimandalik barham topa boradi.

Bilimdon va barkamol shaxs avvalo, oilada, jamoada so’ng esa jamiyatda shakllanadi. Shu munosabat bilan ta’kidlab o’tish kerakki, jamiyat har bir oilaning barkamolligi uchun qayg’urishi lozim. Ma’lum ma’noda, oila tinchligi, barkamolligi jamiyat, davlat faoliyatiga ham bog’liqidir. Bu sohada O’zbekistonda mustaqillikka erishgandan so’ng bir qancha o’zgarishlar va vazifalar amalga oshirildi. Jumladan, 1998 yil «Oila yili» deb e’lon qilinishi fikrimizning yorqin dalilidir. Respublika Prezidenti I.A.Karimov O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining besh yilligiga bag’ishlangan majlisidagi tabrik so’zida 1998 yilni «Oila yili» deb e’lon qilganda, uni zalda o’tirganlar xayrixohlik va gulduros qarsaklar bilan kutib oldilar. Chunki, oilaga bo’lgan hurmat va izzat O’zbekistonda qurilayotgan yangi jamiyatning ilk mevalaridandir. Ushbu yig’ilishda aytilgan fikrlar oilaning mavqeい, jamiyatda tutgan o’rnini yana bir bor yuksak pog’onaga ko’tarib qo’ydi. Ma’lumki, O’zbekiston Konstitutsiyasining XIV bob 63-moddasida «Oila jamiyatning asosiy bo’g’inidir, hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo’lish huquqiga ega»dir deyilgan. Shu asosda oilaga e’tibor kundan-kunga, yildan-yilga oshib borayotir. Darhaqiqat, «...oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak avlodlar qanday inson bo’lib etishishiga bevosita ta’sir ko’rsatadigan tarbiya o’chog’i ekanini tan olishimiz darkor»¹.

Respublikamizda fuqarolik demokratik jamiyat barpo etish maqsadida turli vazifalar amalga oshirilayotgan ekan, shubhasiz u o’z natijasini beradi. Oila huquqi uchun jamiyatda yuksaklikka ko’tarilish maqsadida barcha imkoniyatlar ham vujudga kelayotir. Demak, huquqiy munosabatlar jamiyatda o’z o’rniga qo’yilsa, oila farovonligi yanada oshadi. Moddiy noz-ne’matlar bilan ta’milanadi. Shunday ekan, boy oilalarning ko’payishi, o’ta kambag’allarni bo’lmasligi jamiyatning oliy maqsadiga aylanishi lozim. Binobarin, oila farovon va tinch bo’lsa, shy oila yashayotgan mahalla ham tinch va osoyishta bo’ladi. Mahallada olib borilayotgan tarbiyaviy va huquqiy ishlar samarasi ham ko’payadi. Shu ma’noda I.A.Karimovning

¹ I.A.Karimov. Oila farovonligi-millat farovonligi. T.: «O’zbekiston», 1998, 9 bet.

«Mahallani o'z-o'zini boshqarish maktabi, ta'bir joiz bo'lsa, demokratiya darsxonasi deb atash mumkin», -degan iboralari bejiz aytilmagan. Turli millat oilalari tashkil etadigan mahallalar, asosan, oilaviy tarbiyaning maskani hamdir. Oila kattalari o'z bolalariga qanchalik muhim tarbiyani bersa, o'sha oila yashayotgan mahallaning tarbiyasi ham undan qolishmaydi, hatto ta'sirchan ham bo'ladi. To'g'ri, oila to'g'risida mulohaza yuritar ekanmiz, avvalo, oila deganda, ona ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Zero, ona oilaning «yadrosidir». Negaki, oila muqaddasligini ta'minlovchi shaxs onadir. Onaning pokligi, aql farosat bilan ish tutishi, mehri sadoqatidir. «...Ona allasi faqat chaqaloqning opom olishi uchun aytilmaydi, balki, uning vositasida bolaning ko'ngil dunyosiga milliy ruh kiradi. Ona tilidagi mehr-muhabbat, nasliy tuyg'ular va orzular go'dakning jismu jonida ildiz qoldiradi». Ana shu jarayonlarning mohiyatini va ahamiyatini sezgan jamiyat oilaning faoliyatini tubdan yaxshilashga intiladi. Shu sababli ham Prezident I.A.Karimov ta'kidlaydiki: «...Oilaga e'tiborimizni tubdan o'zgartirish, oilalarni avvalo ijtimoiy jihatdan himoyalash, e'zozlash, qo'llab quvvatlash-bugungi kunimiz uchun va ertangi istiqbolimiz uchun naqadar muhim va dolzarb ekanligini yaxshi tushunishimiz va anglashimiz darkor»¹.

Prezidentimiz oila va uning muammolarini jamiyat e'tiboridan chetda qoldirmaslik yo'llarini izlab topayotir. O'zbekistondagi har bir oila davlat ravnaqi, jamiyati uchun jon kuydiradigan oila sifatida shakllanayotir. Insonning faoliyati va o'z oilasining kelajagi yo'lida mehnat qilishga doimo tayyor ekanligi uning ichki va tashqi imkoniyatlarini tashkil etadi. O'zbekistondagi har bir oila azaldan o'z mehnati bilan faxrlanadigan mehnatkash oiladir. Ta'bir joiz bo'lsa, o'zbek oilasi mehnati natijasidan ko'plarni bahramand bo'lishiga intiladigan oiladir. Shunday bo'lsa-da, oila jamiyat, davlat tasarrufida faoliyat ko'rsatuvchi asosiy tayanchdir. Shuni hisobga olgan holda jamiyat oila uchun imkoniyatlaridan kelib chiqib g'amxo'rlikni o'z o'rniga qo'yishi tabiiy holda bo'lishi lozim. 1998 yilda oila manfaatlarini yanada to'laroq ta'minlash uchun Davlat dasturini ishlab chiqishga Prezident bosh-qosh bo'ldi. Bu dasturning asosiy maqsadi oilaning jamiyatni o'zgarishidagi tutgan o'mi va ishtirokini mustahkamlash, oilaning huquqiy va ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy manfaatlarini va oila farovonligini kuchaytirish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashdir. Dastur asosan olti bo'limdan iborat bo'lib, bular quyidagilar:

1-bo'lim. Oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish, oila manfaatlari huquqiy himoya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalik huquqlarini muhofaza qilish;

2-bo'lim. Oilaning ijtimoiy manfaatlarini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish; oila a'zolarining sog'ligini muhofaza qilish va ta'lim darajasini oshirish uchun shart-sharoitlarni yaxshilash;

3-bo'lim. Oilaning iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, oila daromadlarini, oila a'zolarining ish bilan ta'minlash darajasini oshirish, ro'zg'or yumushi va turmush sharoitlarini yaxshilash, kam ta'minlangan oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

¹ I.A.Karimov. Oila farovonligi-millat farovonligi. T.: «O'zbekiston», 1998 yil 10-bet

4-bo'lim. Oilaning ma'naviy-axloqiy asoslarini va madaniy manfaatlarini takomillashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

5-bo'lim. Oilaning sog'lom, aql-zakovatli yosh avlodni tarbiyalashdagi polini oshirish, har tomonlama kamol topgan avlodni tarbiyalashda oila va jamiyatning vazifalarini takomillashtirish;

6-bo'lim. Oila muammolarini ilmiy va ijtimoiy tatbiq etish, oila, xotin-qizlar va bolalarning iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini ko'rsatuvchi statistika axborotlarini to'plash tizimini takomilashtirish va boshqalar.

Shunday qilib, oilaga taalluqli barcha masalar davlat dasturida o'z aksini topgan. Ushbu hujjatga ilova sifatida O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi qabul qilinishi munosabati bilan ishlab chiqilishi yoki qaytadan ko'rib chiqilishi zarur bo'lgan qonunlar va me'yoriy hujjatlar ro'yxati ham berilgan. Bu ro'yxat va tadbirlarni tartibga solish uchun davlat komissiyasi ham tuzildiki, u tadbirlarni amalga oshirishda bosh-qosh bo'ldi. To'g'ri, bu dastur asosan 1998 yilda amalga oshirish uchun qabul qilingan bo'lsa ham, undagi ba'zi sohalar davlatimizning doimiy dasturiga aylanishi ham ko'zda tutilgan. Dasturni olib endilikda tahlil qiladigan bo'lsak, unda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarning aksariyat qismining bajarilganligini guvohi bo'lamic. Jumladan, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalar uchun oilaviy dam olish uylarining barpo qilinishi, kam ta'minlangan oilalarning davlat himoyasiga olinishi, tibbiy-ijtimoiy xizmatlarning o'rniga qo'yilishi, jismoniy tarbiya, sport komplekslarining qurilishi, oilaviy turizm dasturining ishlab chiqib hayotga tatbiq etilishi, oila universitetlari va mahalliy joylarda ayollar uchun kichik va o'rta korxonalarining qurilishi, tadbirkorlik faoliyatiga ayollarni jalb qilishning tashkil etilishi, oilaviy bayramlar o'tkazilishi, yosh oila haqida kitoblar nashr qilinishi, namunaviy oilalar tanlov ko'riklari o'tkazilishi fikrimizning dalilidir.

Ushbu dasturning davomi sifatida 2001 yil «Onalar va bolalar yili» munosabati bilan tadbirlari qabul qilindi. By tadbirlar ham davlatimizda qurilayotgan yangi jamiyatning oilaga bo'lgan ijobiy harakatlarining debochasidir. To'g'ri, bunday tadbirlarning ba'zilari mustaqillikka erishganimizga qadar ham nazardan chetda qolmagan. Ming afsuslar bo'lsinkim, qabul qilingan qaror va tadbirlar qog'ozlarda yozilganicha qolib ketgan edi.

Respublika mustaqilligi, ko'rib turibmizki, oila ravnaqi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishga intilib, oilalarning mustahkam bo'lishiga e'tiborni qaratayotir. Shunday ekan, har bir oila ham, o'z navbatida shu jamiyat uchun uning rivojlanishi va barqarorligini ta'minlash maksadida ish olib borishi kutiladi. Barcha oilalar maqsadi bir bo'lgandagina jamiyat ravnaqi amalga oshadi. Jamiyat obro'-e'tibori ham ortadi. To'g'ri, jamiyat uchun jon kuydiruvchi oilalar miqdori yildan yilga oshayotir. Jumladan, ba'zi o'ziga to'q tadbirkorlar, ishbilarmonlar, fermerlar, jamoat uchun muktab, kasalxona, masjid, madaniy, maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarini beminnat qurib berib saxovat ishlari bilan shug'ullanayotirlar. Ba'zilari esa, o'z mas'uliyatlarini sidqidildan bajarib, jamiyat foydasiga o'z vazifalarini amalga oshirayotirlar. Axloqli va odobli farzandlarni tarbiyalab, voyaga etkazmoqdalar. Ba'zi ziyoli oilalar o'z kutubxonalarini maktablarga, jamoat joylariga topshirmoqdalar. Demak, jamiyatimiz amalga oshirayotgan g'amxo'rlik va tadbirlar

zoe ketmayapti, desak xato bo'lmaydi. Bu dialektik jarayon davom etishiga aminmiz. Zero, xalqimizning ruhi oila ruhi bilan bog'langandir. «Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish-O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir.»¹

Biz yuqorida oila jamiyatning poydevori, asosi dedik. Ma'lumki, har qanday imoratning hayotiyligining asosiy sharti uning poydevorining mustahkamligidadir. Xuddi shunday, har bir jamiyatning gullab yashnashi, yuksalishida oilaning birdamligi, ota-onada o'rtaсидаги, farzandlar bilan ota-onada o'rtaсидаги munosabatlarning ijobiy qaror toptirilishi birlamchi zaruriyat hisoblanadi.

¹ I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: «O'zbekistgon» 1999, 60-bet.

16.2. Oilada ota-onalar bilan farzandlar o'rtasidagi munosabatlarning to'g'ri hal qilinishi oila baxt-saodatining muhim shartidir

Bu muammoni tahlil qilishda O'rta Osiyo xalqlarining urf-odatlari, qadriyatlarining o'rni alohidadir. Qadimdan oila tinchligi, farovonligi, farzand tarbiyasining birlamchi ekanligini allomalarimiz Abu Nasr Fopobiy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Kaykovus kabi mutafakkirlarimiz o'z asarlarida uqdirib ketganlar. Binobarin, oila, baxt-saodatining zaruriy sharti ota-ona, farzandlarning o'z oldidagi mas'uliyatlarini to'laqonli his eta bilishlari bilan belgilangan.

Bolaning odobi, yuksak axloqli, bilimli, xushmuomala, to'g'riso'z, vatanparvar bo'lib kamolga etishida ota-onaning hissasi beqiyosdir. Zero, donishmandlarimiz aytganlaridek, hech kim onadan axloqsiz bo'lib tug'ilmaydi. Farzandning yaxshi yoki yomon inson bo'lib etishishida u tarbiyalanayotgan muhit, avvalambor, aksariyat holda ota-ona sababchidir.

Albatta, bizning yoshlarimizdagi tarbiya o'ziga xos kamtarinlik, xushmuomalalik xususiyati bilan barchaga ibratlidir. Ammo shunday yoshlar ham borki, ularning beparvoligi, loqaydligi, muomalasining naqadar qo'polligi, jamoat joylarida o'zini naqadar odobsizlarcha tutishi tarbiyachini o'ylantirib qo'yadi. Tarbiya sohasidagi oddiy, lekin falsafiy rivoyatlardan biri ko'pchilikka ma'lum. Shunday bo'lsa-da uni takrorlashga to'g'ri keladi.

Bir kishi farzand ko'ribdi. Farzandi tug'ilgan kundan ikki oy o'tgach, o'sha kishi bir donishmand huzuriga borib, taqsir, menga Olloh taolo farzand ato etdi. Endi unga qachondan tarbiya bersam bo'ladi deb so'rabdi. Donishmand farzanding necha yoshda deb so'rabdi. Shunda, haligi kishi ikki oy bo'ldi deb javob bergen ekan, donishmand, e, attang sen kamida ikki oy kechikibsan. Sen farzandingga tarbiyani ona qornidayoq bera bosholashing kerak edi, deb javob beribdi.

Ko'rini turibdiki, farzandga tarbiya boshdan berilishi kerak. Buning uchun ona homiladorlik paytidayoq o'zini turli nojo'ya ishlardan saqlay bilishi kerak. Farzand dunyoga kelgach esa, belanchakka solishdan tortib, alla aytish, ovqatlantirishgacha bo'lgan jarayonga diqqat bilan yondashishi zarur.

Bolani hadeb erkalataverish, uni o'zi xohlagan ishini qilishga qo'yib berish ham yaramaydi. Buning oqibatida bola nihoyatda tanti, yalqov, loqayd, bemehr o'sadi va oqibatda ota-ona sha'niga dog' tushiradi.

Bolani o'qitish, mehnat qilishga o'rgatish ota-onaning assosiy vazifasi hisoblanadi. Buning uchun ota-onaning o'zлари bola tarbiyasini puxta bilishlari, unga oid adabiyotlar bilan tanishib chiqqan bo'lishlari lozim. Bolaning ulg'ayishiga qarab avval oson ish, masalan, uyni tartibga keltirib qo'yish, undan keyin esa asta-sekin og'ir mehnatga jalb eta borish maqsadga muvofiqdir. Bu holat bolada mehnatga nisbatan ko'nikmaning paydo bo'lishiga, uning mehnatsevar bo'lishiga, hamda o'z oldidagi mas'uliyatini sezalishiga ko'maklashadi.

Bu xususda Kaykovus «Qobusnom»da shunday deydi: «Bas, kerakdurkim, har turlik fazl va hunarni farzandingga o'rgatg'aysan, to otalik shafqati shartin bajo

kelturmish bo'lg'aysan. Kishi boshiga na ish tusharin bilmag'usidir, fazl va hunar ishga yaratg'usidir»¹.

Ota-onalarning farzandlari oldidagi asosiy burchlaridan biri ularning ta'limgartarbiya olishlariga ko'maklashishdir. Bunda albatta, ota-onsa qatorida tarbiyachilar ham mas'uldirlar. Buning isboti tariqasida Kaykovusning quyidagi so'zlarini keltirish maqsadga muvofiq: «Bolalarga muallimlar adab bersunlar. ...Farzand beadab bo'lsa va sening ul sababdan qahring kelsa, o'z qo'ling bila urmag'il, muallimlarning tayog'i bilan qo'rqiqt'il»¹.

Farzandlarning ota-onsa oldidagi burchlari ham muhimdir. Rivoyatga ko'ra, bir kuni haj safarida bir kishi onasini elkasida ko'tarib, Ka'bani aylantirib yurar edi. Va nihoyat u kishi juda holdan toygan holda payg'ambarimiz Muhammad sallolohu alayhi vassalam oldiga kirib keldi va ey, Rasululloh, onam meni shuncha azoblar bilan ulg'aytirdi, oq sut berdi, kechalari uxlamadi. Endi men onamning oldidagi haqimni ado etishim zarur. Ayting-chi, - Men o'z haqqimni ado etdimmi?-deb so'raydi. Shunda Muhammad s.a.v. «Yo'q, sen bu bilan ham onang seni dunyoga keltirayotganida chekkan bir kechalik to'lg'oq azoblarini ham ado etmagansan»-debdii.

Ko'rinib turibdiki, farzandlarning ota-onasini rozi qilishi, ularga izzat-hurmat va doimiy g'amxo'rlik ko'rsatishi muqaddas burchdir. Zero, xalqimizda «Ota rozi-xudo rozi», «Jannat onalar oyog'i ostidadir», «Ota-onasini rizo qiluvchi farzandlardan Olloham rizo bo'lgusidir» kabi hikmatli so'zlar bekorga mavjud emas.

Afsuski, bugungi kunda ota-onalariga nisbatan mehrsiz o'sgan yoshlar ham uchrab turadi. Ular ota-onasi keksayganda hol-ahvalidan xabar olish u yoqda tursin, hatto qariyalar uyiga olib borib tashlashgacha etishadi. Bu burch emas, balki hurmatsizlikning yuqori nuqtasidir. Axir dono xalqimiz tomonidan: «Otani tanimagan tangrini tanimas», «Otasini dilini og'ritgan el ichida xor bo'lur, onasini dilini og'ritgan parcha nonga zor bo'lur» kabi aytilgan naqlarda olam-olam ma'no yotadi. Ba'zi yoshlar bunday purhikmatli so'zlarning tagiga etishsa, nur ustiga a'lo nur bo'lardi. To'g'ri, aksariyat holda xalqimizda onalar ulug'lanadi. Shunday bo'lishi ham kerak. Demak, bu farzandlarning onalar oldidagi burchlari nihoyatda yuksakligidan dalolat beradi. Hadislarda aytilishicha, Muhammad s.a.v dan, «Yo rasululloh, men avval onamga yaxshilik qilaymi, yo otamga»?-deb savol bergenida rasululloh «onangga» deb javob beribdi. «Keyinchi?» «Yana onangga», «Keyinchi?» «Yana onangga», to'rtinchi marotaba so'raganida «Endi otangga» deb javob beribdi.

¹ Qobusnom. T.: 1986, 84-bet.

¹ Qobusnom. T.: 1986, 84-85-betlar.

16.3. G'arb va Sharqdagi oila-tarbiya usullaridagi, o'xshashliklar va tafovutlar

Har bir yurtning, mamlakatning udumlari, urf-odatlari o'ziga xosdir. Ular ba'zan o'xshash, ba'zan esa umuman farq qiladi. Hatto, oiladagi o'zaro munosabat, tarbiya usullari ham bir-biridan farq qiladi. Biz buni G'arb va Sharq mamlakatlari misolida ko'ramiz. Odatda bu fikrlar ota va ona, ota-onasi bilan farzand o'rtasidagi munosabatlarda, nikoh marosimlari, kundalik hayotda, kishilar orasida o'z aksini topgan. Sharq mamlakatlarida, xususan, o'zbek xalqi tarbiya muammosiga o'ziga xos xususiyatlар bilan yondoshadi.

G'arb mamlakatlarida aholi o'rtasida bunday holatlar boshqacharoq xarakterdadir. Sababi, G'arb mamlakatlaridagi taraqqiyot tarbiyaga ham ta'sir etganki, ularda individuallik ko'proq taraqqiy etgan. Shaxs mustaqilligiga ahamiyat qaratilgan. To'g'ri, G'arb va Sharq mamlakatlarida yashovchi xalqlar faoliyatida anchagina o'xshashliklar ham mavjud. Bir sir emas. Masalan, tinch va farovon, baxtli, saodatli yashash, uzoq umrni ko'rishni orzu qilish, o'z sog'ligiga e'tiborni qaratish, turmush sharoitini yaxshilash, bilimga intilish kabilalar shu o'xshashliklar jumlasidandir.

Bu farqlar va o'xshashliklar tarbiya sohasida ham ko'zga tashlanadi, albatta. Lekin Sharqdagi ota-onalar o'z faoliyatlarini ko'proq farzandlariga bag'ishlaydilar, ularni kelajagi uchun yashaydilar. Yolg'izlatib qo'ymaslikka harakat qiladilar. Ushbu yo'nalishda o'zlarining farovon yashashlarini ham ba'zida unutadilar. Aniqroq aytadigan bo'lsak, barcha ezgu niyatlarini farzandlarga bag'ishlaydilar. Biz ko'rmanган yaxshi damlarni bolalarimiz ko'rsin, deb o'ta darajada munosabat bildiradilar. Bunday holat Sharq mamlakati aholisi bo'lган o'zbek millatiga ham xosdir.

Ota-onalar, qariyalar, o'rta yoshdagi kishilar bir-biri bilan uchrashganlarida, suhbat va muloqatlarida doimo duoga qo'l ochib, bir-birlariga uzoq umr tilaydilar, baraka toping deydilar. Qilgan mehnatlariningizni farzandlaringizni rohatini ko'ring deb uqtiradilar. Bu holatlar o'zbek aholisining urf-odatlariga singib ketgan.

Sharq va G'arb mamlakatlarida keksa kishilarga bo'lган hurmat va izzat bir-biriga yaqin bo'lsada, lekin Sharq mamlakatlarida bu masalaga jiddiy yondoshiladi. Zero xalqimizda «Qari bilganini pari bilmash», «Qarisi bor uyning parisi bor», «Qari bor uyning zari bor» kabi naqllar mavjud. Qolaversa, Hukumatimizning keksalarga yaratayotgan sharoitlari ham buning yaqqol dalilidir. 2001 yil 7-dekabrda O'zbekiston Konstitutsiyasining 9 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan majlisda Prezidentimiz 2002 yilni «Qariyalarni qadrlash» yili deb e'lon qildi. Bu davlatimizning keksalarga bo'lган ezgu-hurmatining ifodalashidir.

Tarbiyaning ba'zi xususiyatlari nikoh marosimlari ham namoyon bo'layotir. Nikoh marosimlari nihoyatda dabdabali, qator-qator mashinalar, videoga tushishlar, albom qilishlar, spirtli ichimliklar qo'yish, «asal oyi safarlari» kabi hollar ko'paygan. Bu holatlarning ba'zilari G'arb mamlakatlarida ko'proq ommalashgan. Bunday odatlar oila byudjetiga ham bog'liq albatta. G'arb yoshlarini to'y marosimlari, dafn marosimlari, ichimliksiz o'tmaydi.

Nikoh kunitagi kiyinishlar ham tortishuvga sababchi hollardan biridir. Chunki, yoshlariimiz oxirgi yillarda to'ylarda evropacha kiyinib o'tirishni istaydilar. To'g'ri, mustaqillikka erishganimizdan keyin milliy liboslar ham qo'llanila boshlandi, bu xayrli ishlardandir.

Sharq yoshlarining g'arb yoshlardan farqli jihatlaridan yana biri shuki, ular ota-onada bilan muomalada sizsizlab gapirishadi.

16.4. Oila shakllanishida sevgi, muhabbat, ma'naviy-ruhiy yaqinlik, o'zaro tenglik masalalari. Oilada poklik oila tinchligining zaruriy sharti

Zotan, Oila jamiyatning poydevori sifatida juda yuqori darajada mustahkam bo'lishi darkor. Buning uchun esa oila guli va gultojisi bo'lgan er-xotin bir-biriga har taraflama mos kelishi talab etiladi. Sir emaski, hozirgi paytda juda ko'p oilalarda ajralish hollari ko'paymoqda. Buning natijasida tirik etim bolalar soni ko'payib borayotir. Albatta, bu holat yoshlarning mehrsiz o'sishiga sabab bo'ladi. Nikoh tushunchasi ikki yoshning bevosita unashadirib qo'yilishi natijasidagina yuzaga keladigan hodisa sifatida namoyon bo'lsa, ichki xususiyatini yo'qotadi. Nikoh haqiqiyligi kelin-kuyovlarning o'zaro sevgi-muhabbati, ma'naviy-ruhiy holati yaqinligi, pokligi, halolligi, chinakam sadoqatliligi kabi xislatlarning mavjudligiga tayanadi. Afsuski, ko'p oilalarda balog'at yoshiga etmagan qizlarni majburan erga berish yoki yigitlarni o'zлari xohlamagan hollarda uylantirib qo'yish hollari uchraydi. Bu holat esa, ko'p hollarda oilaning buzilib ketishiga olib keladi, chunki yoshlar o'rtasida ba'zi bir tafovutlar bo'lishi, bu esa bir-birlarini tushuna olmasliklariga sabab bo'ladi. Ba'zi bir erlarning xotinlariga nisbatan past nazar bilan qarashlari, xotin doimo er izmida bo'lishi kerak degan noto'g'ri tushunchaga mahkam yopishib olib, jufti halolini xo'rash yoki ba'zi oilalarda xotinning toparmon-tutarmon bo'lishi hamda erini kamsitishi oilani tanazzulga olib keladi. To'g'ri, xalqimizda «er yarim xudo», «xotin er vaziri» yoki «erni er qiladigan ham xotin, qora er qiladigan ham xotin» kabi maqollar mavjud. Ammo bu maqollarni to'g'ri ma'noda tushunish lozim. Bu oilada pul topish, oilani boqish, boshqarish ishlariga ko'proq erkaklarning mas'ulligidan kelib chiqadigan ma'no anglashiladi.

Oila farovonligi, mustahkamligida er-xotinning o'zaro ma'naviy-ruhiy yaqinligi, bir-birini tushuna olishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. «Beayb parvardigor» deganlaridek, hech kim bekamu-ko'st yaratilgan emas. Islomda «Xotinlar siz uchun libosdir, siz ular uchun libosdirsiz» deyilgan. Shu bilan birga er-xotin o'rtasidagi o'zaro mehrlilik ham oila farovonligi garovidir. Agar oilada er xotinga mehrsiz bo'lsa, unga e'tibor bermay, yaxshi muomala qilmasa, xotinda mehrga ehtiyoj tug'iladi va boshqadan o'z ehtiyojini qondirishga harakat qilishi mumkin. Natijada xotin vafosizlik yo'liga o'tishga majbur bo'ladi. Erning oldidagi eng oliv vazifalardan biri, bu o'z turmush o'rtog'ini to'g'ri tanlay bilishdir. Bu to'g'rida Kaykovus shunday deydi: «Xotin olsang ulug' salohlig' (yaxshi) xonadondin xotin talab qilg'il, har turluk avboshning qizin olmag'il, nedinkim, xotinni uyning kadbonulig'i uchun olurlar, shahvat uchun olmaslar.

Xotin kamolga etgan, oqila bo'lg'on, onasining kadbonulig'in, otasining kadxudoligin ko'rg'on va bilg'on bo'lsun. Agar bundoq nozanin qo'lingga tushsa, uni aslo qo'ldin chiqarmag'il va jahd qilib uni olg'il...»¹.

Ko'rinish turibdiki, turmush o'rtoqni tanlashda u tarbiya topgan oiladagi ma'naviy hayot, xonadonning yurt orasidagi obro'si ham e'tiborga olinishi zarur. Albatta, bu ham oila farovonligini ko'zlaydigan muhim tadbirdir.

¹ Qobusnom. T.: 1986, 70-bet.

Tayanch so'z va iboralar: «Oila yili», «Oila huquqi», «Oila to'g'risidagi davlat dasturi», Oila kodeksi, sahovatli oilalar, o'zaro mehrlilik.

Hikmatlardan namunalar:

Tutgil qarilarning qaltiroq qo'lin,
Qarigach bilursan keksalik yo'lin.

Yoshlik, telbalikni chiqar boshingdan,
Onang xizmatida bo'lgil yoshingdan.

Nosir Xisrav

Toki bor g'ayratu mardlikdan asar,
Ahlu ayolingni etma darbadar.

Pahlavon Mahmud

Yillar o'tib ketdi tepangdan g'ir - g'ir,
Otang mozoriga boardingmi bir dam.
Otang xotiriga nima ezzulik –
Qildingki, o'g'lingdan kutasan sen ham.

Sa'diy

Yosh har qancha ishda bo'lzin ibratli,
Ko'p ko'rgan keksaning ishi ibratli.

Xusrav Dehlaviy

Siringni ko'ngulda saqlagil berk,
Mushfiq senga yo'q jahonda sentek.
Aytma deb ani bir kishiga aytma,
Turmaskim, ani eshitsa tinch-tek.

Sayfi Saroyi

Ilm olishga belingni chog'la,
Boshqa har ishdan qo'lingni bog'la.
Ustod, muallimsiz qolsa bir zamon,
Nodonlikdan qora bo'lardi jahon.

Abdurahmon Jomiy

Ota-bola aybdorni hokim oldiga eltib, avval otasini yuz darra urdilar, - g'ing demadi. So'ngra o'g'lini yotqizib, bir darra urib edilar, nola – faryod chekdi.

- O'zingga yuz darra suqqanda «voy» demading, nega buni bir darra urgandayoq faryod chekasan, - so'rabdi jallodlar.

- Oldingi kaltaklar mening tanamga botgandi, bu zorbalar esa, jigarimga tegmoqda, debdi ota.

Safiy

Dog'i hijron dardini yordan judolardan so'rang,
Biz kabi hijronzada yurgan gadolardan so'rang...
Oshiq uldurkim nigorin ko'yida jondin kechib,
Sarbasar kuygan vujudi qahrabolardan so'rang.

x x x

Kuyingda qalandarman, kuymakda samandarman,
Rahm ayla bu holimga, hajringda xunob etma,
Ey ko'zlari jallodim, etsin senga bu dodim,
Qo'y, jabru jafolarni, holimni xarob etma.

x x x

Har ovqatga qo'ling urma bo'lsang to'q,
Chunki ul keltirar behad mashaqqat.
Hayvonlar ichida ablqidir yuz,
To'yib eyib olgani chog'ida ovqat.

Alisher Navoiy

Test topshiriqlari

- 1. Prezidentimiz tashabbusi bilan qaysi yil «Oila yili» deb e'lon qilindi?**
a) 1996 yil;
v) 1997 yil;
g) 1998 yil;
d) 1999 yil;
e) 2000 yil.

- 2. «Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir, hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega». Mazkur jumlalar Konstitutsiyaning qaysi moddasida ko'rsatilgan?**
a) 63 – moddasida;
v) 64 – moddasida;
g) 65 – moddasida;
d) 66 – moddasida;

- 3. «Mahallani o'z - o'zini boshqarish maktabi, ta'bir joiz bo'lsa, demokratiya darsxonasi deb atash mumkin» degan ibora muallifi kim?**
a) Behbudiy;
v) I. A. Karimov;
g) Fitrat;
d) A. Avloniy;
e) A. Navoiy.

- 4. «Oila kodeksi» qachon qabul qilingan?**
a) 1999 yil;
v) 1998 yil;
g) 2000 yil;
d) 1997 yil;
e) 2001 yil.

- 5. 1998 yilda oila manfaatlarini yanada to'laroq ta'minlash uchun Davlat dasturi ishlab chiqildi. Mazkur dastur nechta bo'limdan iborat?**
a) 7 - bo'limdan;
v) 6 – bo'limdan;
g) 5 – bo'limdan;
d) 4 – bo'limdan;
e) 3-bo'limdan.

6. «Xotin olsang ulug' salohlig' (yaxshi) xonadondin xotin talab qilg'il, har turluk avboshning qizin olmag'il, nedinkim, xotinni uyning kadbonulig'i uchun olurlar, shahvat uchun olmaslar», degan fikrlar qaysi asardan olingan?

- a) «Boburnoma»dan;
- v) «Xamsa»dan;
- g) «Qobusnoma»dan;
- d) «Temur tuzuklari»dan;
- e) «Zafarnoma»dan.

7. Sharq va G'arb mamlakatlarida ota-onal bilan farzand o'rtaсидаги муносабатларда farqli jihatlar qay darajada namoyon bo'ladi?

- a) ota – ona bilan kundalik muloqotda;
- v) farqi deyarli yo'q;
- g) ota – ona oldidagi burchlarini ado etiladi;
- d) manfaatlarda;
- e) A va V

8. «...Oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak avlodlar qanday inson bo'lib etishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanligini tan olishimiz darkor», degan fikr Prezidentimizning qaysi asaridan olingan?

- a) «O'zbekiston buyuk kelajak sari»;
- v) «Oila farovonligi – millat farovonligi»;
- g) «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q»;
- d) «Vatan mangu qoladi»;
- e) «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li».

17-mavzu: Shaxs ma'naviyatini rivojlantirish omillari va vositalari

17.1. Insonning ichki va tashqi go'zalligi

Insoniyat o'zi yaratgan ma'naviy borliqni yaxlit tarzda ta'riflashga hamma vaqt o'zida ehtiyoj sezgan. Biz mana shu xazinani ko'paytirish haqida fikr yuritsak, hamma vaqt ziddiyatga duch kelamiz. Chunki bu antiqa, noyob va muqaddas xazina qanchalik sarflansa, shunchalik boyib, ko'payib boradi. Xazinamiz durlari, gavharlari va marvaridlari-xalq og'zaki ijodi, dunyoqarashi, asrlar davomida sayqal topgan fikriy kashfiyotlari, hayotiy kechinmalaridir. Shubhasiz bu erda zargar bo'lib din, falsafa, mantiq, adabiyot san'at maydonga chiqadi. Qaysi bir xalqning xoh u Sharqda bo'lsin, xoh u G'arbda, og'zaki yoki yozma yodgorligini o'rganadigan bo'lsak, bashar tafakkuridan meros bo'lib qolgan asotir-afsonalar, asr-asrlar davomida hosil bo'lган hayotiy ko'nikmalar va hikmatlar qaymog'i-ma'naviy tafakkur tajribasining in'ikosini ko'ramiz. Muqaddas xazinalar: «Avesto», «Rigveda», «Tavrot», «Zabur», «Injil», «Qur'oni Karim» «Hadisi Shariflar» ham ana shu ming yillar ichida sayqal topib shakllangan tabiiy ehtiyojlar hosilasi sifatida yuzaga kelgan diniy va adabiy-tarixiy manbalardir.

Dinlar insoniyat taraqqiyotining muayyan bosqichida yangi ma'naviy-ruhiy zarurat sifatida maydonga kelgan. Dinlar madaniy-ma'naviy hayotning barcha sohasini qamrab olib, insonlar faoliyatiga aqliy va badiiy jihatdan ta'sir etib keldi, ularning ma'naviy yuksalishiga yordam berdi. Yangi ta'limotlar, yo'naliш, oqimlar, qarashlar silsilasini vujudga keltirdi. Bularning qariyb barchasi qanday maqsadlarni ko'zlamasin, yaxshilikni, ezgulikni quroл qilib olishgan. Chunki, inson qaysidir ma'noda salbiy fazilatlarga moyillik sezsa-da, ongli ravishda hamma vaqt va hamma zamonalarda ezgulikka intilgan va shunday bo'lib qolajak. Ayniqsa, bu narsa Sharqda jumladan, Turonda yaqqol ko'zga tashlanadigan holatdir. Shuning uchun ham buyuk Sharq allomalari dunyoviy fanlarning qaysi sohasida ijod qilishmasin, axloq tushunchasiga qattiq suyanishgan hamda unga katta e'tibor bilan qarab, o'zlarining qomusiy xulosalari bilan boyitib borishgan.

Insonlarning intilishi, harakatlari, orzu-umidlari, turmush tarzini o'zida aks ettirgan xalq og'zaki ijodi namunalarida aholining asosiy ruhiyati qamrab olingan. Jumladan o'zbek, qoraqalpoq, qozoq xalqlarida «Alpomish», Turkman, Ozarbayjon o'lkasida, O'zbekistonda «Go'ro'g'li» dostonlarining, qirg'izlarda «Manas» xalq eposining vujudga kelishi, ularda qariyb bir xil manzaraning turli talqinini, ya'ni ezgulik bilan yovuzlik, yaxshilik bilan yomonlik, ziyo va zulmat, mardlik va qo'rkoqlik kurashi, oxirida esa ezgu niyatlar tantanasi, donishmandlik, aql-idrok, qalb tozaligi, halollik, vazminlik, samimiylit, rahm-shafqatlik, vatanparvarlik, insoniylik, mehnatsevarlik kabi ezgu fazilatlarning ulug'lanishini ko'ramiz. Bu uyg'unlikning bosh sabablaridan biri bu shubhasiz zaminimiz o'tmishidagi buyuk ta'limotlar, insonparvar, erkparvar g'oya va qarashlar, qolaversa islom dini va tasavvufning katta rol o'ynaganligidir.

Jumladan, tasavvuf ta'limoti inson qalbi va ruhiyatini ko'tarishga harakat qilgan. U jaholat va xudbinlikka qarshi chiqdi, axloqiy poklikni targ'ib etdi Tasavvufda

inson ma'naviy kamoloti va u haqda qayg'urish babs masalasi bo'lib kelgan. Tasavvufchilar tariqat va shariat ahkomlariga suyanib ma'naviy sarchashmani izlagan «haq»qa chanqoq kishilarni birlashtirishga harakat qilganlar, komil inson masalasiga e'tibor qaratganlar. «Komil inson bir ideal, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi mutlaq ruhiga tutash, fayzu karomatdan serob, siyratu suvrati saranjom, qalbi ezgu tuyg'ulariga limmo-lim pokiza zot»¹.

Komil inson ideali inson ichki va tashqi go'zalligining jamiki uyg'unligini o'zida aks ettirgan, nuqsonlardan holi zot. Xo'sh, o'zi kishining ichki va tashqi go'zalligi deganda nimani tushunish lozim, umuman go'zallik bu o'zi nima? -degan tabiiy savol tug'iladi.

Go'zallik bu ufurib turgan nafosat bilan yog'dulangan munavvarlik, etuklik va komillik, har jihatdan tugal va mukammal oliv orzu. Go'zallikni har kim har xil tushunadi, masalan, qalb qo'ri berib yasalgan haykaltaroshlik asari bu rassom uchun eng go'zal va maftunkor narsa bo'lishi mumkin. Boshqa birovlar uchun esa bu bahosidan qat'i nazar oddiy yoki odatdagi san'at asaridir. Shuning uchun ham shoir go'zallikni chiroyli misralardan, dehqon bepoyon dalalardan, rassom ranglar uyg'unligidan, hofiz go'zal xonishdan izlaydi va hokazo. Shuning uchun ham odamlar har tomondan cho'qqiga intilgan alpinistlar kabi ezgulik sari intiladilar. Shu bois bo'lsa kerak, «Dunyoni go'zallik va ezgulik qutqaradi» degan jumla xalqimiz ongiga singib ketgan.

Inson go'zalligi haqida gap ketsa, uning ichki va tashqi go'zalligi e'tirof etiladi. Chunki ular tarkibiy qism sifatida mavjud va bu ikki go'zallik uyg'un holdagini haqiqiy go'zallikdir.

Nafaqat insonning umumiyl go'zalligi, balki insonning tashqi go'zalligini ham bu uning maftunkor chehrasi, bo'y-basti, qosh-kiprigi-yu, qimmatbaho libos kiyishida deb tushunadiganlar oramizda talaygina. Bular ham qisman to'g'ri albatta. Biroq umuman olganda, bu unchalik ham to'g'ri emas.

Insonning tashqi go'zalligi – bu uning zohiran ko'rindigan barcha amaliy harakatlari va fazilatlari: ozoda va pokiza yurish, orasta va saranjom, o'ziga yarashadigan kiyim kiyish, Alloh o'zi in'om etgan go'zallikka gard yuqtirmaslik, oddiylik va soddalik, vazmin va jiddiy munosabatni tushunish kabilardir.

Insonning botiniydag go'zalligi – bu uning ichki go'zalligidir. Bu esa inson ma'naviyati ko'zgusi sanaladi.

Halollik, poklik, insofli, diyonatli, mehr-oqibatli, muruvvatli va saxovatli bo'lish, qalb pokligi, to'g'rilik, samimiyl, or-nomuslilik, rahm-shafqatlilik, vazminlik va bosiqlik va boshqa har bir ijobjiy fazilat va xislatlar inson ichki qalbiy go'zalligi asoslari sanaladi. Bu ko'pincha insonning ma'naviy qiyofasi deb ham yuritiladi.

Hayotda ko'pincha quyidagi manzaraning guvohi bo'lamic: kundalik hayotimizda, o'qishda yoki ishda ilk marotaba munosabatda bo'lган kishi haqida doim xulosa qilishga qiziqish paydo bo'ladi. Chunki, bundan keyin bevosita muloqotda bo'lib turadigan odat haqida tasavvurga ega bo'lishni munosabatimizning o'zi taqozo etadi. Xullas, uning tashqi ko'rinishiga qarab chiqargan xulosalarimiz,

¹ N. Komilov. Tasavvuf (birinchi kitob), T.: 1996, 143-bet.

ko'p o'tmay uni yaqindan o'rgana borganimiz sari chippakka chiqishi (yoki mustahkamlanib borishi) mumkin. Chunki kishining ilk uchrashuvidagi tashqi ko'rinishi, sipoligi, o'zini tutishi va boshqalar qoldirgan tasavvur, bora-bora uning harakatlariga yopishmasligi oqibatida bu hodisa ro'y berishi tabiiy. Agar bu manzara turmush qurayotgan ikkita yosh o'rtasida bo'lsa-chi, unda bu ikki yosh o'rtasidagi munosabat, mehr-oqibat, insof, diyonat va sadoqat beshikda jon bergen boladay gap. Xullas inson har bir harakati, gap-so'zi bilan, salohiyati, eng muhimi ma'naviyati bilan o'zining kelajagiga zamin hozirlaydi yoki shu kelajakka asosni ta'minlab borishi lozim.

Buning uchun esa, avvalo, inson ma'naviyatini yuksaltirish kerak. Ma'naviyat - inson tashqi va ichki go'zalligini baholovchi va belgilovchi mutlaqo muntazam mezondir. Ma'naviyat kelajagimiz tanti tiragi, sirli sarhadidir.

Xo'sh, insonning ichki va tashqi go'zalligi, uyg'unligini, ma'naviyatini yana nimalarda ko'rishimiz mumkin?

Insondagi go'zallik va boy ma'naviyatlilik eng birinchi uning muomalasida, shirinsuxanligida, so'zni qopib emas, topib gapirishidadir. Xalqimiz orasida «o'ynab gapirsang ham o'ylab gapir»- degan dono naql yurishi ham bejiz emas. Shuning uchun inson o'zaro munosabatlarda samimiyl, shirinsuxan, har qanday holat bo'lganda ham yaxshi gap va odob bilan ish yuritishga harakat qiladigan bo'lisi kerak.

Yusuf Xos Hojib «Odobning boshi til» deb bejiz o'git bermaganlar. Inson har qanday achchiq haqiqatni ham go'zal ta'riflay olishi kerak. Shu erda bevosita fikrimiz isboti sifatida quyidagi rivoyatni keltirib o'tishimiz mumkin. Kaykovus «Qobusnomá»sida shunday hikoyat keltiradi: «Bir kecha Xorun ar-Rashid tush ko'radi, tushida uning barcha tishlari to'kilib ketgan mish. Xalifa ertasiga tushining ta'birini bilish uchun ta'birchilarni chaqiribdi. Kelgan ta'birchilardan birisi shunday deydi: «Ey amiralmo''minin, sening ko'z oldingda barcha qarindosh-urug'laring o'ladi. Sendan boshqa hech kim qolmaydi». Bu so'zni eshitgan Xorun ar-Rashid: «Menga bunday noxush ta'bir aytishga qanday jur'at etding deb uni jazoga tortadi. Ta'bir qilishga kelgan ikkinchi kishi esa shunday debdi:-»Ey amiralmo''minin, sening baxting kulibdi. Sen barcha qarindoshlaringdan ko'ra ko'proq umrguzaronlik qilasan». Shunda Xorun ar-Rashid: «Barcha aqlning yo'li birdir va ikkovining ta'biri bir erga borib taqaladi, ammo bu ibora bilan u iboraning orasida farq bag'oyat ko'pdir», -deydi va ikkinchi ta'birchini mukofotlaydi.

Har qanday razillik va pastkashlikka qarshi yo'nalgan jangovar ohang va nafrat, sodir etilgan har bir harakatga favqulodda e'tibor va ziyraklik, hamma vaqt va har joyda jo'shqin kayfiyat, har ishda mo'tadil va barqaror qat'iyat, muloqotda va munosabatda milliy ohang va ona tili sofligiga sobitlik, do'stlar va jamoa tashvishiga o'zini daxldor deb bilishlik, muhimlik darajasida keskin va aniq munosabat, ziyrak ishoralarga amal qilish, betakror nafosat kasb etishi, iste'dodni qadrlash kabilar kishini cheksiz hurmatga sazovor etadi. Shu bilan birga rostgo'lylik, do'stlikka sadoqat, jasurlik va mardlik, samimiyl, rahm-shafqatlilik, halollik, vazminlik, qalb tozaligi, yuksak axloqlilik kabi fazilatlar ham ijobjiy qirralarimizni namoyon qilib turadigan mezonlar sanaladi.

Hadislardan birida shunday deyiladi: «Rostgo'ylikdan xavfu xatar ko'rsanglar ham rost so'zlanglar. Shunda najot topasizlar. Garchi foyda ko'rib turgan bo'lsangiz ham, yolg'ondan saqlaninglar. Chunki bari bir yolg'onning oxiri voy».

Shunday vaziyatlar bo'ladiki, rostini so'zlab haqiqatga tik borgan odam aziyat chekadi. Shunday vaziyatda biz irodasizlik qilib aldoqchilikka o'tsak, birinchi navbatda o'zimizga zahmat etkazamiz.

Qo'l bilan ushlab ko'rish, ko'z bilan ko'rish, hidlab bilish va his qilish mumkin bo'lgan narsani muhim mavhumlik deb bilish, qanday ahmoqlik bo'lsa o'zini o'zi aldash (taskin topish asnosida bo'lsa-da) va shunga ishonish o'zligimizga bo'lgan kechirib bo'lmas xiyonatdir. Ko'nglimiz qavarib qadoqqa aylanishini bevosita kuzatib turish juda ham og'ir qismat bo'lsa kerak.

Do'stlik degan oliy tushuncha bor ekan, inson har doim o'zini qudratli sezadi. Chunki har qanday og'ir kunda ham, eng baxtli onlarda ham birinchi navbatda do'stlarining yo'ldosh bo'ladi, yoki bo'lmasam biz shunday bo'lishini ta'minlashimiz darkordir. Do'stona munosabatlarda tamomila betaraflik va xolislik, pok raqobatni tushunish va shakllantirish har doim ham dolzarbdir. Do'stona munosabatlarda shunday bir o'qdan-da kuchli so'z topishimiz kerakki, u do'stlikka chang solmasin, dildagi g'uborni ustalik bilan yuvib tashlasin. Zero, do'stlik bu shunday tuyg'uki, talashganda tegishli, silkitganda sevikli bo'ladigan narsalar unga chang solmasin. Bu munosabatlarda «mish-mish»lar, «emish-emish»larga ko'r-ko'rona ishonish va xulosa chiqarish yaramaydi.

Jasurlik. Albatta, bu yigitlarga xos so'z. Yigitlarga xosligi shundaki, bu so'zni ism sifatida faqat yigitlardagina uchratish mumkin. O'zini er yigit sanagan har bir yigit uchun o'ziga nisbatan, nomard degan so'zni eshitish juda og'ir bo'lsa kerak. Tasavvuriga kelgan chalkashlikni anglash qanday darajada favqulodda sodir bo'lsa, bu so'zning quloqlarimizda aks sado berishi ham shunchalik bexos yuz beradiki, o'zingizni so'roqqa ko'mib tashlaysiz. Ana shu holatni kuzatishga ehtiyojni o'zimizda shakllantirish lozim.

Samimiylit uchun bildirilayotgan fikr yashin tezligida ongimizning serqatlam filtirida sintezlanishi zarur.

Shundagina xolis xulosamiz vujudga keladi. U esa munosib javobini topadi.

Rahm-shafqatga ulug'vorlikni mezon sifatida qabul qilishimiz mumkin. Chunki rahm-shafqat ulug'larga xos. O'zining dardi bilan yashaydigan odamga rahm-shafqatdan gap ochsang kulgisi qistaydi. Ulug'lar esa boshqalarni o'ylagani uchun ham ulug'dir.

Halollik. Kishilardagi turfa odatlar va harakatlarni kuzatib, qandaydir qonuniyat topish ehtiyoji yoki qiziqlishi, qonuniyat amal qilishidan xolis xulosa chiqarish va shunga intilish, har damda sodir etilgan harakat xususiyatlarini fahmlash, real ko'z bilan baholab, harakat chegarasini belgilashdir.

Hadislardan birida shunday deyiladi: «Kimki halol kasbini qilib uxlasa, gunohlari kechirilgan holda tunaydi».

Vazminlik. Bu xayolot sarhadsizligi va zarur bo'lganda unga sho'ng'ish, yoxud shu zaruriyatni anglashdir. Xayolotning ming bir fikrlaridan, uning tuynuklaridan tushgan nur orqali zarurini majoziy ma'noda ajratishdan olingan hosila sukul

saqlagudek muqarrar hodisa bo'lishi kerak. Chunki vazmin kishi deganda xayolga cho'mgan, qat'iyatlari nigohni tasavvur qilishga o'rganganmiz. Shuning uchun kishi haqida ijobiy fikr bildirilsa, avvalo uning vazmin qiyofasi namoyon bo'ladi.

Qalb tozaligi. Asli bu sayqal topgan mantiqdir. Teran anglangan ko'lamdor kurashda-nafs va axloq kurashida axloq ustunligi va shakllangan hissiyot. Ezgulikka intilishdan yuzaga kelgan irsiy fazilat. Qalb tozaligi bu – halol bo'lish, baxillik va qizg'anchiqlik qilmaslik, qalb tozaligi bu – sabr qanoatli bo'lish, xayru-ehson qilish, qalb tozaligi bu-xushxulqlik va xushfe'llik, mehr-oqibatli va shafqatli bo'lish, insofli va diyonatli bo'lish va amal qilishdir.

Shuning uchun ham hadislarda shunday deyiladi: «Kimki qalbini toza, iymon uchun xolis va sog'lom, tilini rostgo'y, o'zini xotirjam, xulqini to'g'ri, qulog'ini tinglovchi, ko'zini ibrat nazari bilan boquvchi qilib olgan bo'lsa, demak, u baxtlidir».

Qalb tozaligi hamma vaqt namunali bo'lishga chorlaydi. Namuna bo'lishga sezilgan har damdag'i ehtiyoj ijobiy qirralarimizni namoyon etadi. Ayniqsa, namunali harakatda yosh bolalar kuchli taqlidchi bo'lishlari bilan birga, hali unda ko'nikmalar shakllanmagan bo'ladi.

Lekin biz ko'p hollarda bu ezgu fazilatlarning hadisini olgan bo'lsak ham, shu fazilatlarga intilsak ham, amal qilishimiz qiyin kechadi. Chunki, bizda bu ko'nikmalar hali unchalik shakllanmagan bo'ladi. Bularning asosiy sababi esa bolalikdan e'tibor qilinmaganlikdadir. Har bir insonda bu noyob ko'nikmalarni shakllantirishda tarbiyaning ahamiyati kattadir.

Tarbiya bu ma'naviyatning muhtasham darvozasidir. Ana shu darvozadan ezgulik sari, o'ktamlik va qudrat sari, har bir ezgu ishga muntazam mas'ullik sari mislsiz mahorat bilan qadam tashlash lozim.

Ma'naviy komillik, milliy o'zlikni anglashga yordam beradigan tarbiya, muhit, avvalo oila, ota-onasi tarbiyasidir. Bu so'zlarimiz isboti, uchun buyuk ma'rifatparvar jadidchilarimizdan biri Abdurauf Fitratning «Rahbari najot» asarida keltirilgan quyidagi fikrlarida ko'rshimiz mumkin: «Suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi, bolalar ham qanday muhitda bo'lsalar, o'sha muhitning har qanday odat va axloqini qabul qiladilar. Axloqiy tarbiyaning eng buyuk sharti shundan iboratki, bolalar ko'proq yaxshi va yomon ahvolni o'z uylaridan, ko'chadagi o'rtoqlaridan, maktabdagi o'quvchilardan qabul qiladilar».

Dunyoga kelgan go'dak qulog'iga aytildigan muborak azon va muborak ismi, onasining shirin allasi, ezgu rasm-rusumlar bolada asta-sekin ko'nikmalarni shakllantiradi. Bola asta-sekin ulg'ayib tili chiqa boshlagach esa, unga bo'lar bo'lmas g'ayrioddiy so'zlarni emas, balki milliy tuyg'ular, olijanob fazilatlar, ezgu orzularni bildiruvchi ona, ota, Vatan kabi so'zlarni o'rgatish zarur, bora-bora unda bu ko'nikmalar malakaga aylanib boradi. Tarbiyada kechikish insonni yo'qotish demakdir, unda oddiy ikir-chikirlarga ham e'tibor berish zarurdir. Ibn Sino, Beruniy, Forobiy, Navoiy va boshqa buyuk ajdodlarimizning tarbiya haqidagi va xususan komil insonni tarbiyalash haqidagi qimmatli fikrlari ham jamiyat rivojlanishida yangi ma'naviy imkoniyatlar izlash maqsadlari bilan bog'langan. Forobiy fozil shahar aholisi to'g'risida to'xtalar ekan, shaxsning ma'naviy kamolotini adolatli jamiyat qurishning eng avangard sharti hisoblaydi. Bugun biz XXI asr bo'sag'asida qanday

yo'llarni belgilab olishimiz kerak, tarbiyaviy ishlarda nimalarga suyanishimiz kerak degan savol har bir «uyg'oq» o'zbekning qalbida jo'sh urayotir.

Asrlarni talqin qilib, xulosa qilsak, faqat bir narsa daxlsizligini va ahamiyatini saqlab kelayotir. Bu ham bo'lsa mulk, mulkchilik. Kishilik davri ibtidosini larzalarga olib kelgan ham shu mulkiy farq, tinimsiz va betartib rivojlanish manbai, ehtiyojlarimiz cheksizligi-yu, imkoniyatlarimizning cheklanganligidir. Shu sababli, insonlarni mulkka bo'lган munosabati yuksak ma'naviylik bilan aloqada bo'lishini davr taqozo etadi. Mulk va mulkchilikdan ma'naviy uzoqlashmaslik lozimdir.

To'g'ri, hozirgi kunda ham mulkka egalik hissi taraqqiyot garovi deb belgilanayapti, ammo bu degani ma'naviylik ikkilamchi degani emas.

Kishilik tarixidagi ana shunday boqiy munosabatlarni anglab, shular asosida ma'naviy kamolotni ko'zlash mutafakkirlarimizda azaldan shakllangan. Bu narsa muqaddas zaminimizda o'sha XIX asr oxiri XX asr boshlarida jamiyatning, ma'naviyatning, tarbiyaning inqirozi chuqurlashgan davrda ham izsiz yo'qolmadi. Bir qator jadidchilar Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, A.Avloniy, Munavvar qori, So'fizoda, Abdulla Qodiriy va boshqalar milliy madaniyatni ko'tarmay, ma'rifiy-tarbiyaviy ishlarni rivojlantirmay ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotga erishib bo'lmaydi, degan g'oyani ilgari surishgan. Shu o'rinda Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» nomli asarida keltirilgan, Prezident Islom Karimov qayta-qayta takrorlaydigan quyidagi fikrni keltirib o'tish o'rinnlidir: «Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir».

Tayanch so'z va iboralar: ma'naviy borliq, hayotiy kechinmalar, Turon, komil inson, tashqi go'zallik, munavarlik, etuklik, komillik, go'zallik, oddiylik va soddalik, vazminlik va jiddiy munosabat, saxovatli, nomuslilik, rahm-shafqatlilik, vazminlik va bosiqlik, sipolik shaxs, shirinsuxan, favqulodda, e'tibor, ziyraklik, jo'shqin kayfiyat, mo'tadil va barqaror qat'iyat, vazminlik, qalb tozaligi, jasurlik, samimiylilik, baxillik va qizg'anchiqlik.

Hikmatlardan namunalar

Baxtga erishish maqsadida birlashgan kishilar jamoasi fazilatli jamoadir. Baxtga erishish maqsadida o'zaro yordam bergen xalq fazilatli xalqdir. Shu tartibda barcha xalqlar baxtga erishish uchun bir – birlariga yordam bersalar, butun er yuzi fazilatli bo'ladi.

Abu Nasr Forobi

Insonning kiyimiga qarama, bilimiga qara. Ilm – bu ota, balki u sut berishda onadan foydaliroqdir. U yomonlikni tuzatish uchun hamma narsadan yaxshiroqdir. Agar tilingni tiymasang. Jilovingni dushmaningga berib qo'yasan.

Senga eng yaxshi maslahat mutakabbirlik bilan yuzingni teskari burma va shon – shuhrating bilan faxrlanma.

Az- Zamaxshariy

Test topshiriqlari

1. Insonning ichki go'zalligi bu –

- a) halollik, poklik, insoflik, diyonatli bo'lish, muruvvatlilik, saxiylikka intilish kabi hislatlar majmuasidir;
- v) orastalik va saranjomlikka rioya etishdir;
- g) mardlik, insonparvarlik, mehr – oqibat kabi yuksak ahloqiy xislatlarni namoyon etishdir;
- d) hokisorlik, adolatparvarlik;
- e) A va G.

2. Tashqi go'zallik bu -

- a) zohiron ko'rindigan barcha amaliy harakatlarda namoyon bo'ladi;
- v) insonning ichki olamini tavsiflovchi ijobiy xislatlar va fazilatlar yig'inidisidir;
- g) ozoda va pokiza yurish, orasta va saranjom, o'ziga yarashadigan kiyim kiyish, oddiylik va soddalik xislatlarini namoyon etish;
- d) kamtarinlik, kamso'zlik;
- e) A va G.

3. «Tashqi go'zallik o'zini pinhona ichki olami bilan yanada go'zaldir» degan fikr kimga tegishli?

- a) Shekspirga;
- v) I. Kantga;
- g) G. Gegelga;
- d) F. Bekonga;
- e) Platonga.

4. Quyidagi manbalardan qaysi birida asosan inson ichki go'zalligi ulug'langan?

- a) ertaklarda;
- v) hadislarda;
- g) tasavvuf ta'limotida;
- d) «Avesto»da;
- e) V va G.

5. Tasavvuf ta'limotida -

- a) inson qalbi va ruhiyatini ko'tarishga harakat qilinadi;
- v) iqtisodiy mavzularda fikr yurtiladi;
- g) inson ma'naviy kamoloti va u haqida qayg'urish bahs masalasi hisoblanadi;
- d) ma'naviy-ma'rifiy yuksalishga harakat qilinadi;
- e) A va G.

6. «Odobning boshi til», degan o'git kim tomonidan aytilgan?

- a) Yusuf Xos Hojib;
- v) Alisher Navoiy;
- g) M. Qoshg'ariy;
- d) Ahmad Yassaviy;
- e) Ahmad Yugnakiy.

7. «Rostgo'ylikdan xavfu-xatar ko'rsanglar ham rost so'zlanglar. Shunda najot topasizlar. Garchi foyda ko'rib turgan bo'lsangiz ham yolg'ondan saqlaninglar. Chunki baribir yolg'onning oxiri voy», degan so'zlar qaysi manbadan olingan?

- a) «Temur tuzuklari»dan;
- v) «Avesto»dan;
- g) «Hadisi Sharif»dan;
- d) «Qur'oni Karim»dan;
- e) «Qobusnoma»dan.

8. Insonning ichki va tashqi go'zalligi yoritilgan «Fozil odamlar shahri» asarining muallifi kim?

- a) A. Navoiy;
- v) Z. Bobur;
- g) Abu Nasr Forobiy;
- d) A. Jomiy;
- e) Abu Rayhon Beruniy.

9. «Kimki halol kasbni qilib uxlasa, gunohlari kechirilgan holda tunaydi», degan fikrlar qaysi manbadan olingan?

- a) sohibqiron Amir Temur o'gitlaridan;
- v) tasavvuf ta'limotidan;
- g) Hadisi shariflardan;
- d) Qur'oni Karimdan;
- e) «Qobusnoma»dan.

Allomalar hikmatlari va xalq maqollaridan namunalar

Bilki qiyin hayot berur tappa taxt,
Fozilllik, ulug'lik, mardlik hamma vaqt.

A.Rudakiy

X X X

Yomon odam yo'l doshini qaritar.

X X X

Odam – temirdan qattiq, guldan – nozik.

o'zbek maqollari

X X X

Gar ochlikdan bersa ham mard jon,
Etimlar haqin emagay hech qachon.

Sa'diy Sheroziy

X X X

Yolg'on-egrilikka o'r ganma aslo,
Jahon to'g'rilikdan bo'lmishdir barpo.

Abdushukur Balxiy

X X X

To'g'rini de, to'g'rini ko'r, to'g'ri yur,
To'g'ri eshit, to'g'ri gapir, to'g'ri tur.

Abdurahmon Jomiy

X X X

To'g'ri har ofatdan qutilib ketar,
Masal bor: «To'g'rilar maqsadga etar».

K. Binoiy

X X X

To'g'rilik uchramas hecham baloga,
Sarv qurisa hamki yarar asoga

Sayidoi Nasafiy

X X X

Egrilik hosili - qabohat erur,
To'g'rilik hosili – saodat erur.

A.Sanoiy

X X X

Jahonda hammadan to'g'rilik a'lo,
Egrilikdan yomon bormi hech balo.

A.Firdavsiy

X X X

Odam bo'lib odam qadrin bilmagan,
Kishilardan o'tlab yurgan mol yaxshi.

Maxtumquli

Menga ne you ne oshiq havasdir,
Gar men odam o'lsam – ushbu basdir.

Alisher Navoiy

Men odamlar uchun yashayman!
Qudratim – shundadir.
Faxrim – shundadir.
Do'stlarim – iqbolim, baxtim shundadir.

Nozim hikmat

Kishi bo'lmasa ma'nidin xabardor,
Ani odam dema, de naqshi devor...

Xuvaydo

Yaxshidan etar sharofat,
Yomondan etar kasofat.

Tojik maqoli

Bir erda birga yursang boshing qo'shib,
Bir-biringga so'zlagin qalbdan jo'shib.

Abay

Do'st do'stiga jonin qiladi qalqon,
Do'stdan ham yaxshiroq bormi hech inson!?

X X X

Ikki narsa dildagi g'am ofati:
Do'st diydori, dono kishi suhbati.

Abdushukur Balxiy

Do'st uchun joningni fido aylagin,
Ammo dushman kimu, do'st kim, saylagin!

Abduraxmon Jomiy

o'zingni baxtli deb sanamagin san,
Tinch, sokin yashasang bemehnat, beg'am.
Do'sting bo'lmasa-yu hech kimsa bilan
Dardu shodligingni ko'rmasang baham.
Mayli umr ko'rgin sen rosa yuz yil,
Qorsimon oqarsin soching ham mayli.
Do'stlar davrasida aytaman dadil:
Sen yorug' dunyoga kelmabsan hali!

Rasul Gamzatov

X X X

Ziyraklar birla zindon – guliston,
Noahil qilar gulzorni zindon.
Kishiga sog'lom ish – do'stlik qilishdir,
Vafo ko'rgazmak asli katta ishdir.

Nosir Xisrav

X X X

Yo'ling ustida choh qozilsa agar,
Qilur do'st undan seni boxabar.
Agar bandu zindonda do'sti yotar,
Kishi qayda gulzor sayrin etar.
Agar tosh bilan yovni yancholmasang,
Bolam, loaqlal do'st bilan qilma jang.

S.Sheroziy

Savolni javobsiz qoldirma,
Do'stni – e'tiborsiz.

X X X

Do'sting bilan sirdosh o'l,
Qilgan ishiga qo'ldosh bo'l.

X X X

Bevafo do'stdan tayoq yaxshi.
Bebaho guldan yaproq yaxshi.

X X X

Chin do'st yurakdan so'zlar.
Do'stsiz boshim – tuzsiz oshim.

X X X

Soyaga o'xshagan do'stdan yaxshiroq,
Kishining qo'lida yo'nmagan tayoq.

X X X

Yiqilganda bo'lmasa tirak,
Vafosiz do'st nimaga kerak.

X X X

Kimki oro kirmas joningga,
Sherik bo'lmasin u shirin noningga.

o'zbek maqollari

X X X

Mard yigitning ishi suhbat – soz bo’lar,
Ko’ngli qish bo’lmayin, doim yoz bo’lar.

Maxtumquli

X X X

Bir g’arib ko’nglini qilolsang shod –
Yaxshidir er yuzin qilgandan obod –
Lutfing-la bir dilni qul qila olsang
Afzaldir yuz qulni qilmoqdan ozod.

Umar Xayyom

X X X

Kamtar bo’l, barchani etgil bahramand,
Sening ham martabang bo’lg’usi baland.
Urug’ aralashib avval tuproqqa,
So’ngra bo’y cho’zadi osmon-falakka.

X X X

Dimog’ingni ko’tarma, bo’lmayin desang oyoq osti,
Qamish kekkaygani uchun bo’yra bo’ldi-yu, hamma bosdi.

Abdurahmon Jomiy

X X X

Davron elining jismida ham jon bo’lg’il,
ham jonlarig’ a moyai darmon bo’lg’il.

Alisher Navoiy

X X X

Shamdek bo’l, shamni ko’r kuyib qalbu tan,
o’zgalar bazmini qiladi ravshan.
Bulut bo’l, suv berib quyganda yomg’ir,
Gulni ham, xasni ham sug’orar bir-bir.
hammaga omonlik istaguvchi bo’l,
Shunda adovatga qolmag’ay hech yo’l.

X X X

Ey, eng yaxshi odam kim, deb so’ragan!
Aytayin kim bo’lur eng yaxshi odam:
Eng yaxshi odam shu – kimdan xalqiga,
Qandaydir naf tegar, har kunu har dam.

Abdurahmon Jomiy

X X X

o'z nafsi mag'lub etolgan marddir,
G'iybatdan uzoq-uzoq ketolgan marddir.
Nomard tepib o'tar yiqilganlarni,
Ojiz kishilar qo'lin tutolgan marddir.

A.Rudakiy

x x x

Muhtojlik kuyida bir dilni ovla,
Yurakka yaqinroq ma'qulni ovla.
Ming ka'ba safari bir dilcha turmas,
Makkada nima bor, ko'ngulni ovla.

Umar Xayyom

x x x

Kel, jahonni topshirmaylik yomonga,
Buraylik barchani yaxshi tomonga.
Yaxshi ham, yomon ham qolmas poydor,
Yaxshisi: yaxshi ish bo'lsin yodgor.

A.Firdavsiy

x x x

Tekinning minnati ko'p,
Mehnatning ziynati ko'p.

x x x

Mehnat qilib topganing,
Qandu asal totganing.

x x x

Mehnatdan do'st ortar,
G'iybatdan – dushman.

x x x

Daryo suvini bahor toshirar,
Odam qadrini mehnat oshirar.

x x x

Mehnat qilmasa bo'ston qaerda,
Bo'stonlar haqida doston qaerda?

o'zbek maqollari

x x x

Aqlga ilm birla bergil ko'mak,
Aql - bu ilmga xaridor demak.

Nosir Xisrav

X X X

Aqldan g'amginlik, shodlik, o'ktamlik,
Aqldan borligu, yo'qligu, kamlik.
Kishi ish qilarkan beaqlu idrok,
Bo'lur qilmishidan yurak bag'ri chok.

X X X

Aql bir tirik jonki, bilmas zavol,
Aql – turmush asli, buni yodlab ol.

Firdavsiy

X X X

Aqlingga aql qo'sh,
Jahlingga – sabr!

X X X

Dono o'y lab so'zlaydi,
ham uzoqni ko'zlaydi.

X X X

Oy tunda kerak,
Aql – kunda kerak.

o'zbek maqollari

X X X

Bir bevafo yorga kulib boqqandan,
Shirin jonne ishq o'tiga yoqqandan,
Yot ellarda musofirlik tortgandan,
Ursa, so'ksa, xo'r lasa ham el yaxshi.

Maxtumquli

X X X

o'z erin qo'yib, hind sori yuzlandim,
Yorab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

X X X

Ko'nglim bu g'ariblikdin shod bo'lmadi, oh,
G'urbatda sevinmas emish, albatta, kishi.

M.Bobur

X X X

Ounasining g'am-g'ussasiga
o'g'il aslo parvosiz boqmas,
Kuydirmay jon o'z o'lkasiga
Yurgan, sodiq grajdan emas.

N.A.Nekrasov

X X X

Erimiz, suvimiz, farzandimiz deb,
Xotin, bola-chaqa, dilbandimiz deb,
Birma-bir jonimiz etamiz fido,
Vatanni dushmanga bermaymiz aslo!

A.Firdavsiy

X X X

o'zgalar g'amini chekmasa odam,
Anga noloyiqdir inson degan nom.

Sa'diy Sheroziy

X X X

Gar urush tushsa ikki hamdamaro,
Bot aning tadbirini etmak kerak.
Biridan ayb o'lsa, zohir, ul biri.
Uzr aytib aybini yopmoq kerak.

Ubaydiy

X X X

har kimki dilozordir,
hayoti ohu zordir.

X X X

Kim birov dilini sitam-la tildi,
U o'z vujudin yarador qildi.

Farididdin Attor

X X X

Agar qilcha nizo bo'lsa odamda,
Yo'qolur osoyish, tartib olamda.
Yuz xumda tiniq sut bo'lsa, barini –
Achitar nim tomchi sirkabir damda.

A.Bedil

X X X

o'zingga nashtarni ko'rmasang ravo,
Boshqalarga nayza ko'tarma aslo.

Xisrav Dehlaviy

x x x

Ne keraging bor esa, bunyod qil,
Yaxshisi inson dilin obod qil.

x x x

Adl mamlakatga bo'larkan me'mor,
Boshqa hech bir narsa emasdир darkor.

Abdurahmon Jomiy

x x x

Ul odam ko'rар rohat o'z baxtidan,
Qo'l ostidagin ezmasa zulm bilan.

x x x

Aqlilikka ma'qul emas hech qachon,
Esa qo'yni bo'ri, yotib qo'ychibon.

Sa'diy Sheraziy

x x x

Sabot istasang mulk bunyodig'a,
Adolat bila et ulus dodig'a,
Adolatdan o'ldi el osoishi,
El osoishi – mulk oroyishi.

Munis Xorazmiy

x x x

har kimki chuchuk so'z elga izhor aylar,
har nechami, ag'yodurur yor aylar.
So'z qotg'i el ko'ngliga ozor aylar,
Yumshog'i ko'ngillarni giriftor aylar.

Alisher Navoiy

x x x

Rostlik keltur – toparmushsan najot,
Rostlik bir chashmai obi hayot.

Nizomiy Ganjaviy

x x x

Bo'yin tovlama keksa tadbiridan,
Qarilarda bor tajriba, fikru fan.
Temir qal'ani ag'darur sa'y etib,

Qari fikru, yoshlar qilich ishlatib.

S.Sheroziy

X X X

Yoshligingda odat qilsang,
Qariguncha ko'nikasan.
Qariganingda odat qilsang,
Ko'nikkuncha ko'milasan.

o'zbek maqoli

X X X

o'y lamay qilingan turmush,
To'ydan keyin buzilar.

X X X

Bo'z yaktak qichitar,
Yaxshi xotin tinchitar.

X X X

Yomon turmush yashatmas.

o'zbek maqollari

X X X

Borma aytmaganning dasturxoniga,
Qo'l uzatsang, qadring tushar, noniga,
Qo'shma o'zgalarning barra kabobin.
Qotgan nonu sovuq suving soniga.

Pahlavon Mahmud

X X X

Mard o'g'ildir, elga yozar dasturxon,
To'g'ri so'z ustida berar shirin jon,
Umrini o'tkazar, aytmaydi yolg'on,
Jahd aylab, yolg'on so'z aytuvchi bo'lma.

Maxtumquli

X X X

Kimki ig'vo-yolg'oni qilib olsa kasb,
Bo'lajak sharmsor bir umr bo'yi.
Kimsalar oldida ocholmayin lab,
Vijdoni azobda qolar shu kuyi.

o'zbek maqoli

X X X

har kishi kim birovga qozg'ay choh,
Tushkay ul choh uzra o'zi nogoh.

Alisher Navoiy

x x x

Birovga sog'insa har kim yomonlik,
Nihoyat ul o'zi topmas omonlik.

A.Firdavsiy

x x x

Ilm agar oz bo'lsa ham hech etma xor,
Oz ilmning ham buyuk qiymati bor.

Farididdin Attor

x x x

Jon agar bir shisha bo'lsa, ilmdir xuddi chirog',
hikmati inson bo'lur anga misoli lampa yog'.

Abu Ali Ibn Sino

x x x

Bilim boyligiga to'yaydi odam,
Kamaymas boshqaga qancha bersa ham.
Olamda bilimdir ganji bebaho,
Kim bilim egasi – o'sha podsho.

Asadi Tusiy

x x x

Ilmni o'g'ri ham o'g'irlayolmas,
Ilmni ajal ham olib ketolmas.

R.Avhadiy

x x x

hayotin o'tkazsa o'rghanib saboq,
Ustod ham, shogird ham hech bo'lmas no'noq.
To'qish-yigirish ham bilim birladir,
Dunyoni topish ham bilim birladir.

x x x

Biliming osmonga etgan bo'lsa ham,
Boshqalar ilmiga qulq sol har dam.

Abdushukur Balxiy

x x x

Kimki hayot sha'min ilm ila yoqdi,
hayoti asrlar so'nmadi, balqdi.

X X X

Insonning qiymati emas simu zar,
Insonning qiymati ilm ham hunar.

A.Bedil

X X X

har ishda afzaldir bilim orttirish,
Bilim orttirmoqda astoydil tirish.

X X X

Ilmdan dunyoning ishi sozdir, boq.
Ilmsizning ishi cho'zilur uzoq.

Abdurahmon Jomiy

X X X

har kishida ilmu san'at bordur,
Baxtu davlat ul kishiga yordur.

Kamiy

X X X

Kimki o'rganishni uyat-or demas,
Suvdan dur topadi, toshdan la'l-olmos.

Nizomiy Ganjaviy

X X X

Jaholat – o'limdir, bilim – tiriklik.
Yumshoq tabiatlik bo'lsa jamoli,
Ilm birla hikmatdir odam kamoli.

X X X

Bilimdin shod bo'lur komi dilu jon,
Bilimsiz olamda hayron, sargardon.

Nosir Xisrav

X X X

Shu oddiy ko'z bilan boqmagil, balki –
Bilim ko'zi bilan boqqil jahonga.
Jahon daryo erur, yaxshi ishingdan –
Kema yasab o'tgil nari tomonga.

X X X

Aqlli kishilar har qaysi tilda,
har qanday zamonda, har qaysi xilda,
Bilimlarni to'plab hurmat etdilar,
Toshlarga naqsh etib, bitib ketdilar:
«Odamlar qalbining charog'i bilim,
Balodan saqlanish yarog'i bilim».

X X X

Odamdan yuqori turarkan olam,
Bilim oshirmoqqa muhtojdir odam.

A.Rudakiy

X X X

harchand o'qibsen – ilmdonsan,
Agar amal qilmading, nodonsan.
Ustiga kitob ortilgan eshak,
Na olim va na donodir, beshak.

Sa'diy Sheroziy

X X X

Qudratlidir kimki bo'lsa, bilimdon,
Bilimdon keksalar dili navqiron.

A.Firdavsiy

X X X

Jahon bastu kushodi ilm birla,
Nadur dilning murodi ilm birla.

X X X

Ko'ngullarni sururi ilmdandir,

«Ma’naviyat asoslari» qo’llanmasida foydalanilgan va «Ma’naviyat asoslari» darslari uchun zarur bo’ladigan adabiyotlar

1. o’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: «o’zbekiston», 2003.
2. Karimov I.A. o’zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.: «o’zbekiston», 1996 y.
3. Karimov I.A. Istiqlol yo’li: muammolar va rejalar. T.: «o’zbekiston», 1996 y.
4. Karimov I.A. o’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li. T.: «o’zbekiston», 1996 y.
5. Karimov I.A. o’zbekiston – kelajagi buyuk davlat. T.: «o’zbekiston», 1996 y.
6. Karimov I.A. Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmang. T.: «o’zbekiston», 1996 y.
7. Karimov I.A. Islohotlar muvaffaqiyati-istiqlol kafolati. T.: «o’zbekiston», 1996 y.
8. Karimov I.A.. o’zbekiston-bozor munosabatlariga o’tishning o’ziga xos yo’li. T.: «o’zbekiston», 1996 y.
9. Karimov I.A. Ehtirom. T.: «o’zbekiston», 1996 y.
10. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.: «o’zbekiston», 1996 y.
11. Karimov I.A. o’zbekiston iqtisodiy-siyosatining ustuvor yo’nalishlari. T.: «o’zbekiston», 1996 y.
12. Karimov I.A. BMT Bosh assambleyasining 48-sessiyasidagi Ma’ruza. T.: «o’zbekiston», 1996 y.
13. Karimov I.A. Vatan, el manfaati muqaddasdir. T.: «o’zbekiston», 1996 y.
14. Karimov I.A. Fan Vatan ravnaqiga xizmat qiladi. T.: «o’zbekiston», 1996 y.
15. Karimov I.A. Iqtisodiy mustaqillik-oliy maqsadimiz. T.: «o’zbekiston», 1996 y.
16. Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. T.: «o’zbekiston», 1996 y.
17. Karimov I.A. Vatanimizning salohiyati va obro’yini yanada oshiraylik. T.: «o’zbekiston», 1996 y.
18. Karimov I.A. Etakchilik-ulkan mas’uliyat. T.: «o’zbekiston», 1996 y.
19. Karimov I.A. Tariximiz ham, kelajagimiz ham mushtarak. T.: «o’zbekiston», 1996 y.
20. Karimov I.A. El manfaati-faoliyatimiz asosi. T.: «o’zbekiston», 1996 y.
21. Karimov I.A. Ilmu fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilsin. T.: «o’zbekiston», 1996 y.
22. Karimov I.A. halollik va fidoyilik – faoliyatimizning asosiy mezoni bo’lsin. T.: «o’zbekiston», 1996 y.
23. Karimov I.A. Mustaqilligimiz boqiy bo’lsin. T.: «o’zbekiston», 1996 y.
24. Karimov I.A. Mustaqillik-ulkan ma’suliyat. T.: «o’zbekiston», 1996 y.
25. Karimov I.A. Ulug’bek ruhi barhayot. T.: «o’zbekiston», 1996 y.
26. Karimov I.A. Tadbirkorlik-iqtisodiyot kelajagi. T.: «o’zbekiston», 1996 y.
27. Karimov I.A. Xalq ishonchi – yuksak mas’uliyat. T., «o’zbekiston», 1996 y.
28. Karimov I.A. o’zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T., «o’zbekiston», 1996 y.
29. Karimov I.A. o’zbekiston yo’li – jahon hamjamiyatiga qo’shilish yo’lidir. T., «o’zbekiston», 1996 y.

30. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T., «o'zbekiston», 1996 y.
31. Karimov I.A. Faoliyatimiz Vatan manfaatlariga xizmat qilsin. T., «o'zbekiston», 1996 y.
32. I.A. Karimov. «MANAS» - qirg'izning azaliy va abadiy qomusidir. T., «o'zbekiston», 1996 y.
33. I.A. Karimov. o'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T., «o'zbekiston», 1996 y.
34. I.A.Karimov. Bunyodkorlik yo'lidan. T., «o'zbekiston», 1996 y.
35. I.A. Karimov. Biz qurish, yaratish yo'lidan boraveramiz. T., «o'zbekiston», 1996 y.
36. I.A. Karimov. Vatan mangu qoladi. T., «o'zbekiston», 1996 y.
37. I.A. Karimov. Do'stlik, tinchlik va bunyodkorlik yo'lidan. T., «o'zbekiston», 1996 y.
38. I.A. Karimov. Mintaqada xavfsizlik va hamkorlik uchun. T., «o'zbekiston», 1996 y.
39. I.A. Karimov. Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili. T., «o'zbekiston», 1996 y.
40. I.A. Karimov. Maqsadimiz – tinchlik, barqarorlik, hamkorlik. T., «o'zbekiston», 1996 y.
42. I.A. Karimov. Fan ravnaqisiz buyuk davlat qurib bo'lmaydi. T., «o'zbekiston», 1996 y.
43. I.A. Karimov. Xalq tashvishi bilan yashaylik. T., «o'zbekiston», 1996 y.
44. I.A. Karimov. Taraqqiyotning qudratli qanoti. T., «o'zbekiston», 1996 y.
45. I.A. Karimov. Istiqlol imkoniyatlaridan oqilona foydalanaylik. T., «o'zbekiston», 1996 y.
46. I.A. Karimov. Bunyodkorlik – farovon hayot asosi. T., «o'zbekiston», 1996 y.
47. I.A. Karimov. Tanlagan yo'limizning to'g'rilingiga ishonchimiz komil. T., «o'zbekiston», 1996 y.
48. I.A. Karimov. Islohotlarni amalga oshirishda qat'iyatli bo'laylik. T., «o'zbekiston», 1996 y.
49. I.A. Karimov. Xalqimizning yo'li mustaqillik, ozodlik va tub islohotlar yo'lidir. T., «o'zbekiston», 1996 y.
50. I.A. Karimov. o'zbekiston xalqi o'z yo'lidan qaytmaydi. T., «o'zbekiston», 1996 y.
51. I.A. Karimov. Kelajagini o'z qo'li bilan qurayotgan o'zbekistonga xalaqit bermang. T., «o'zbekiston», 1996 y.
52. I.A. Karimov. o'tmisiz kelajak, hamkoriksiz taraqqiyot bo'lmaydi. T., «o'zbekiston», 1996 y.
53. I.A. Karimov. Amir Temur davridagi bunyodkorlik va hamkorlik ruhi bizga namuna bo'laversin. T., «o'zbekiston», 1996 y.
54. I.A. Karimov. Iqtisodiy hamkorlik – mamlakatlarimiz taraqqiyotining garovidir. T., «o'zbekiston», 1996 y. t.
- I.A.Karimov. Yangicha fikrlash va ishslash davr talabi. T., «o'zbekiston», 1997 y.

- I.A. Karimov. Tanlagan yo'limiz to'g'riliqini hayot tasdiqlamoqda. T., «o'zbekiston», 1997 y.
- I.A. Karimov. o'zbekiston iqtisodiy yuksalish yo'lida. T., «o'zbekiston», 1997 y.
- I.A. Karimov. hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. T., «o'zbekiston», 1997 y.
- I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyatsiz kelajak yo'q. T., «o'zbekiston», 1997 y.
- I.A. Karimov. Biz o'z kuch va imkoniyatlarimizga ishonamiz. T., «o'zbekiston», 1997 y.
- I.A. Karimov. Xalqimiz bor ekan, Amir Temur nomi barhayotdir. T., «o'zbekiston», 1997 y.
- I.A. Karimov. Azaliy buyuklik maskani. T., «o'zbekiston», 1997 y.
- I.A. Karimov. Sohibqiron kamolga etgan yurt. T., «o'zbekiston», 1997 y.
- I.A. Karimov. Adolat va qudrat timsoli. T., «o'zbekiston», 1997 y.
- I.A. Karimov. Amir Temur – faxrimiz, g'ururimiz. T., «o'zbekiston», 1997 y.
- I.A. Karimov. Islohot – avvalo odamlar ongidagi o'zgarishdir. T., «o'zbekiston», 1997 y.
- I.A. Karimov. halol yashash va halol mehnat qilish – burchimiz. T., «o'zbekiston», 1997 y.
- I.A. Karimov. Qonunlarimiz xalq manfaatlariga xizmat qilsin. T., «o'zbekiston», 1997 y.
- I.A. Karimov. Demokratik o'zgarishlar – jamiyatimiz yangilanishi asosi. T., «o'zbekiston», 1997 y.
- I.A. Karimov. Mulkdorlar sinfini shakllantirish – islohotlarning bosh mezoni. T., «o'zbekiston», 1997 y.
- I.A. Karimov. Islohotlar izchilligi – inson manfaatlari omili. T., «o'zbekiston», 1997 y.
- I.A. Karimov. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T., «o'zbekiston», 1998 y.
- I.A. Karimov. o'zbekiston xalqiga navro'z tabrigi. T., «o'zbekiston», 1998 y.
- I.A. Karimov. Yangicha tafakkurga keng yo'l. T., «o'zbekiston», 1998 y.
- I.A. Karimov. Yuksak huquqiy tafakkur – demokratik jamiyat taqozosi. T., «o'zbekiston», 1998 y.
- I.A. Karimov. o'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., «o'zbekiston», 1998 y.
- I.A. Karimov. Zamonaviy kadrlar – taraqqiyotimizning muhim omilidir. T., «o'zbekiston», 1998 y.
- I.A. Karimov. Yangicha tafakkur – zamon talabi. T., «o'zbekiston», 1998 y.
- I.A. Karimov. Mustaqillik – muqaddas ne'mat. T., «o'zbekiston», 1998 y.

- I.A. Karimov. Barkamol avlod – o'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «o'zbekiston», 1998 y.
- I.A. Karimov. Islohotlar hayotni, hayot esa tafakkurni o'zgartiradi. T., «o'zbekiston», 1998 y.
- I.A. Karimov. Oila farovonligi – millat farovonligi. T., «o'zbekiston», 1998 y.

- I.A. Karimov. Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti – to'kin hayot manbai. T., «o'zbekiston», 1998 y.
- I.A. Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T., «o'zbekiston», 1999 y.
- I.A. Karimov. Barqaror taraqqiyotga erishish – ustuvor vazifa. T., «o'zbekiston», 1999 y.
- I.A. Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. T., «o'zbekiston», 1999 y.
- I.A. Karimov. Xalq farovonligi – faoliyatimiz mezoni. T., «o'zbekiston», 1999 y.
- I.A. Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., «o'zbekiston», 1999 y.
- I.A. Karimov. Xalqimiz jipsligi – tinchlik va taraqqiyot garovi. T., «o'zbekiston», 1999 y.
- I.A. Karimov. Imom Al-Buxoriy yodgorlik majmuining ochilishiga bag'ishlangan marosimda so'zlangan nutq. T., «o'zbekiston», 1999 y.
- I.A. Karimov. Ahmad Al-Farg'oniy haykalining ochilishiga bag'ishlangan marosimda so'zlangan nutq. T., «o'zbekiston», 1999 y.
- I.A. Karimov. Yunesko ijroiya kengashi 155-sessiyasining yakunlovchi majlisida so'zlangan nutq. T., «o'zbekiston», 1999 y.
- I.A. Karimov. Adolat, Vatan va xalq manfaati har narsadan ulug'. T., «o'zbekiston», 1999 y.
- I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat – jamiyat taraqqiyotining asosi. T., «o'zbekiston», 1999 y.
- I.A. Karimov. Adolat har ishda hamrohimiz va dasturimiz bo'lsin. T., «o'zbekiston», 1999 y.
- I.A. Karimov. Qonun va adolat ustuvorligining hayotbaxsh manbai. T., «o'zbekiston», 1999 y.
- I.A. Karimov. Xalq ishonchi – oliv mas'uliyat. T., «o'zbekiston», 1999 y.
- I.A. Karimov. Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart! T., «o'zbekiston», 1999 y.
- I.A. Karimov. o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. T., «o'zbekiston», 1999 y.
- I.A. Karimov. Tanlagan yo'llimizdan bizni hech kim qaytarolmaydi. T., «o'zbekiston», 1999 y.
- I.A. Karimov. Ozod bo'lsang – ozod bo'l, erkin bo'lsang – erkin bo'l, mustaqil bo'lsang – mustaqil bo'l! T., «o'zbekiston», 1999 y.
- I.A. Karimov. o'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., «o'zbekiston», 1999 y.
- I.A. Karimov. Xotira chirog'i o'chmaydi. T., «o'zbekiston», 1999 y.
- I.A. Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T., «o'zbekiston», 2000 y.
- I.A. Karimov. Iroda va iyomon-e'tiqodimiz sinovi. T., «o'zbekiston», 2000 y.
- I.A. Karimov. hushyorlikka da'vat. T., «o'zbekiston», 2000 y.
- I.A. Karimov. Tadbirkorlik – yuksalish garovi. T., «o'zbekiston», 2000 y.
- I.A. Karimov. Vatan ozodligi – oliv saodat. T., «o'zbekiston», 2000 y.

- I.A. Karimov. Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlangan nutq. T., «o'zbekiston», 2000 y.
- I.A. Karimov. «Alpomish» dostonining 1000 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlangan nutq. T., «o'zbekiston», 2000 y.
- I.A. Karimov. Sog'lom avlod – xalqimiz kelajagi. T., «o'zbekiston», 2000 y.
- I.A. Karimov. Men o'zimni nafaqat o'zbek xalqining, balki Qoraqalpoq xalqining ham farzandi, deb bilaman! T., «o'zbekiston», 2000 y.
- I.A. Karimov. Xalqqa xizmat qilish – oliv baxt! T., «o'zbekiston», 2000 y.
- I.A. Karimov. Maqsadimiz – Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. T., «o'zbekiston», 2000 y.
- I.A. Karimov. Ezgu niyat, olijanob maqsad yo'lida izlanib-intilib yashash – kishini ulug'laydi. T., «o'zbekiston», 2000 y.
- I.A. Karimov. Shu muqaddas yurtga yorug' kunlar keltirish – har birimizning insoniy burchimizdir. T., «o'zbekiston», 2000 y.
- I.A. Karimov. Imkoniyatlarni to'la ishga solish – yuksalish garovidir. T., «o'zbekiston», 2000 y.
- I.A. Karimov. Vatan ozodligi, xalqimning omonligi, yurtimning ravnaqi, har bir oila farovonligi – men uchun oliv saodat. T., «o'zbekiston», 2000 y.
- I.A. Karimov. Buyuk ajdodlarimiz shavkatining timsoli bo'lgan yurt. T., «o'zbekiston», 2000 y.
- I.A. Karimov. Eng katta boyligimiz – mamlakatimizdagи tinchlik, millatlar va fuqarolar totuvligini ko'z qorachig'iday asraylik. T., «o'zbekiston», 2000 y.
- I.A. Karimov. Poytaxtimiz – muqaddas ostonamiz. T., «o'zbekiston», 2000 y.
- I.A. Karimov. Xalq dardi bilan yashaylik. T., «o'zbekiston», 2000 y.
- I.A. Karimov. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish - eng muhim vazifamiz. T., «o'zbekiston», 2000 y.
- I.A. Karimov. Izlanish, tashabbuskorlik va tadbirkorlik - davr talabi. T., «o'zbekiston», 2000 y.
- I.A. Karimov. Sog'lom avlod tarbiyasi – barchamizning muqaddas insoniy burchimiz. T., «o'zbekiston», 2000 y.
- I.A. Karimov. Xalq bilan hamnafas yashash va ishslash – oliv burch. T., «o'zbekiston», 2000 y.
- I.A. Karimov. Milliy mafkura – davlatimiz va jamiyatimiz qurilishida biz uchun ruhiy – ma'naviy kuch-quvvat manbai. T., «o'zbekiston», 2000 y.
- I.A. Karimov. o'zgarish va yangilanish – hayot talabi. T., «o'zbekiston», 2000 y.
- I.A. Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., «o'zbekiston», 2000 y.
- I.A. Karimov. Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot va ma'rifiy yo'l bilan hamkorlik yo'li. T., «o'zbekiston» 2003 y.
- Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Al-Buxoriy. hadis. Al-Jomi' as-sahih (Ishonarli to'plam), Qomuslar bosh tahririysi, 1994 y.
- Abdurahimov M. Amir Temur va To'xtamish. «Sharq yulduzi». 1991 yil, 11-son.

- A.Navoiy. «Xamsa». T., 1966 y.
- A.Navoiy. «Mahbub-ul qulub». Asarlar, 13-jild. Toshkent, 1966 y.
- Aminov B., Shodiev M. Rasulov T. Sharqona bozor fazilatlari. T., «Universitet». 1996 y.
- Amir Temur – buyuk davlat arbobi. Toshkent Moliya instituti (ilmiy-nazariy konferentsiya materiallari). 1995 y, 24 noyabr.
- Amir Temur o'gitlari. T., 1992 y.
- At-Termiziy. hadislar. «Sharq yulduzi». 1990 y, 9-son.
- Attor Farididdin. Illohiynoma. T., «Yozuvchi», 1994 y.
- Axloq-odobga oid hadis namunalari. T., 1990 y.
- Ahmad Yassaviy. «hikmatlar», T., 1991 y.
- Axmedov B. Ulug'bek (Esse). T., «Yosh gvardiya». 1989 y.
- Bobomurodov A. Islom odobi va madaniyati. T., «Cho'lpon», 1995 y.
- Buyuk siymolar, allomalar (o'rta Osiyolik mashhur mutafakkir va donishmandlar).
- Kitob 1. T., «o'zbekiston», 1995 y.
- Vatanni sevmoq iymondandir. Insholar to'plami. T., 1995 y.
- Qosimov B. va boshqalar. Vatan va millat muqaddasdir. T., «o'qituvchi», 1996 y.
- Dinshunoslik asoslari. T., o'zbekiston, 1995y.
- Jalolov A. Mustaqillik mas'uliyati. T., 1994 y.
- Abdurahmon Jomiy. Tanlangan asarlar. T., 1971 y.
- Ziyo Ko'kalp. Turkchilik asoslari. o'zbegim. T., «Vatan», 1993 y.
- Ziyamuhamedov B, Ziyamuhammedova S, Qodirova S, Ma'naviyat asoslari. T., 2000 y.
- Ziyamuhamedov B. Ekologiya va ma'naviyat T., 1997y.
- Ziyamuhamedov B. Abdullaeva Sh. Pedagogika T., 2000 y.
- Zunnun Sh., Zunnunov N. Donishmandlar odob – axloq to'g'risida. T., «o'qituvchi», 1996 y.
- Ibrohimov A., Sultonov X., Jo'raev N. Vatan tuyg'usi. T., «o'zbekiston», 1996 y.
- Imom Ismoil Al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad (adab durdonalari). T., 1990 y.
- Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. T., «Sharq», 1996 y.
- Yo'ldoshev M. o'zi pokning so'zi pok. «Tafakkur». 2-son, 1996 y.
- Kaykovus. Qobusnama. T., «o'qituvchi», 1986 y.
- Karimov A. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino. T., «Yosh gvardiya», 1989 y.
- Karimov N. Cho'lpon uchun kurash. «Fan va turmush». 1991 y.
- Karimov B., Mirazamov K. Millat ravnaqi va til muammolari. T., 1993 y.
- Komil inson (to'plam). T., 1995 y.
- Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. T., 1996 y.
- Madaniyat va jamiyat (to'plam). T., 1993 y.
- Ma'naviyat-mas'ullik. T., 1996 y.
- Ma'naviyatning oydin yo'li. T., 1996 y.

- Ma'naviyat va biznes. «Guliston», 1996 y, 1-son.
- Mo'minov I. Amir Temurning o'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. T., «Fan», 1993 y.
- Munavvar Qori. Biografik ocherk. «Fan va turmush», 1991y, 4-son.
- Muhammad Payg'ambar tarixi (Muhammad Sallalohu alayhi va – sallam shajara va nasl - nasablari). T., «Yozuvchi» 1993 y.
- Malik Murod. o'zbek qadriyatlar. T., «Cho'lpon», 1996 y.
- Musurmonova O. hadislar – ma'naviyat manbai. T., 1992 y.
- Musurmonova O. Mustaqillik sharoitida oila va shaxs kamoloti. T., 1994 y.
- Muhammad F.K. Ahmad Yassaviy. «Guliston», 1996 y, 2-son.
- Mirzakalon Ismoiliy. Inson odobi. T., 1989 y.
- Nuriddinov M. Boburiylar sulolası. T., «Fan» 1994 y.
- Nishonova S. Ma'naviyat saboqlari. T., «o'qituvchi», 1994 y.
- Oila ahloqi va odobi (to'plam). T., 1995 y.
- Oliy Majlis qarorlari. «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi qoshidagi «Oltin meros» xalqaro xayriya jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida o'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. T., 1996 y, 28 sentyabr.
- Olimjonov O. Islohot-inson ongingin o'zgarishidir. «Besh tamoyil hayotga» T., 1995y.
- Oripov A. Sohibqiron. T., «G'afur G'ulom», 1996 y.
- Olimat-ul-Banot. «Muosharat odobi». T., 1991 y.
- Oz-oz o'rganib dono bo'lur. hikmatlar. T., 1998 y.
- Otamurodov S. Siyosat va jamiyatning ma'naviy madaniyati mavzusidagi ma'ruza matniga uslubiy ko'rsatma. T., 1996 y.
- Po'latov X. Mafkuraviy hukmronlik. «Muloqot», 1991y, 1-son.
- Rahmatov O. Ogohlilik muqaddas burch. T., 2000 y.
- Rizoutdin Ibn Faxrtdin. «Oila». T., 1991 y.
- Sa'diy Sherziy. Guliston. T., 1968 y.
- Saifnazarov I. Bozor iqtisodiyoti va shaxs kamoloti. T., 1996 y.
- Saifnazarov I., Saifnazarova F. Ma'naviyatimizning umrboqiy sarchashmalari. T., «Mehnat», 1997 y.
- Saifnazarov I. Vatanparvarlikning milliy va umuminsoniy jihatlari. T., «Mehnat», 1997 y.
- Talabalar sozida Vatan. To'plam. T., 1996 y.
- Tasavvuf ta'limoti haqida. 1990 y, «Sharq yulduzi», 7-son.
- Temur va Ulug'bek davri tarixi. T., Qomuslar bosh tahririysi. 1996 y.
- Tulenov J., G'afurov Z. Mustaqillik va milliy tiklanish. T., 1995 y.
- Turon Usmon. Turkiy xalqlar mafkurasi. T., «Cho'lpon», 1995 y.
- Tursunov I. Istiqbolga intilgan qalblar nidosi. T., 1993 y.
- Uvvatov U. Zamashshariy. «Guliston», 1991 y, 5-son.
- Usmonov M. Donishmandlar odob – ahloq haqida. T., «Fan», 1996 y.
- Umarov E. Estetika (Nafosatshunoslik). T., «o'zbekiston», 1995 y.
- Ulyam E. Bobur hindistonda. Bobur hukmronligi davridagi hindiston tarixi. T., «Cho'lpon», 1995 y.

Umar Xayyom. Navro'znama. T., 1990 y.

Forobiy. Fozil odamlar shahri. T., 1991 y.

Xo'ja Abbos o'g'li. Milliy iftixor. T., 1995 y.

Xolmirzaev R., hamidov X.O. Temuriylar davri madaniyati (XV va XVI asr). T., 1994 y.

Xudoyberdiev I. Islom, shaxs va milliy psixologiya. T., «o'zbekiston», 1994 y.

Shayxova X.O. Inson va uning ma'nnaviy dunyosi. T., 1993 y.

Sharofutdinov O. Bozor ma'nnaviyat ko'zgusi. «Tafakkur», 1996 y, 6-son.

Sharofutdinov O. Istiqlol fidoyilar. T., 1993 y.

Sharifxo'jaev M. Iftixor. T., «o'zbekiston», 1993 y.

M. Istiqlol istiqbollar. T., «o'zbekiston», 1994 y.

Sharq donishmandlari va odob – axloq. Toshkent Moliya instituti (ilmiy-nazariy konferentsiya materiallari), 1995 y, 7-dekabr.

Shukrullo. Kafansiz ko'milganlar. T., «Mehnat», 1991 y.

Yusuf Xos hojib. «Qutadg'u bilig», T., 1990 y.

o'zbekiston Respublikasi T., «o'zbekiston», 1995 y.

o'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., 1992 y.

o'zbekiston Respublikasi: Mustaqil davlatning bunyod bo'lishi. T., 1992 y.

o'zbekiston Respublikasining fuqarolar kodeksi. T., «o'zbekiston», 1996 y.

o'zbekistonning milliy mafkurasi. T., 1993 y.

o'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. T., «Fan», 1996 y.

o'zbekiston qaramlik va mustaqillik yillarida. T., 1996 y.

Qosimov B. Jadidchilik. «Yoshlik». 1990 y, 7-son.

Qur'oni Karim. o'zbekcha izohli tajriba. (Alouddin Mansur), T., «Cho'lpon», 1992 y.

G'aybulloh As-Salom Saydi Umar. Tolibnoma. T., «Sharq», 1996 y.

G'aniev I. Fitrat. E'tiqod. Ijod. T., «Kamalak», 1994 y.

G'azzoliy. haqoyiq ul axborot. «Yoshlik», 1994 y, 4-son.

habibulla Zayniddin. Jaloliddin Manguberdi (Badia). T., «Fan» 1993 y.

hazrati payg'ambarning hayoti. T., «Kamalak», 1996 y.

husanov O. Mustaqillik va mahalliy hokimiyat. T., 1996 y.

Xulosa

Ma'naviyat va ma'rifat inson, xalq, jamiyat, davlat faoliyatini yuksaltirishning tayanchidir. Bu jarayon, ya'ni ma'naviyat va ma'rifat yuksalmas ekan parokandalik, inqiroz va xavfli hodisalar uchun imkoniyat yaratilaveradi. Mazkur salbiy sohalarni oldini olishda insonlarni yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalash beباho harakatdir. Aks holda, insonlar bilan insonlar o'rtasida turli ziddiyatlar kelib chiqaveradi. Shu o'rinda yuksak ma'naviyat taraqqiyoti etakchi o'rinni egalashi lozim.

Ma'naviyat va ma'rifat jamiyatning ma'naviy hayotini ya'ni, bir sohasini, bir bo'lagini tashkil etsada, bu soha barcha sohalarda ustuvorlik bo'lishini taqazo etadi. Shu sababli ham O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida ma'naviyat va ma'rifat ishlarni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida qabul qilinishi o'ta muhimdir.

Sababi, yangi insonni kamol toptirish, barkamol avlodni shakllantirish o'ta muhim diqqatni jalb qiladi. Bu esa o'z navbatida etuk demokratik jamiyatni barpo etishga yordam beradi.

Ma'naviyat va ma'rifat barcha xalqlar faoliyatida namoyon bo'lsada o'zbek xalqi ma'naviyati va ma'rifat o'zining alohida xususiyatlariga ega. Bu xususiyatlar urf – odatlarda, milliy qadriyatlarda, madaniy merosda o'z aksini topgan. O'zbek xalqining ma'naviyati insonparvarlik, vatanparvarlik, millatparvarlik, ijtimoiyadolati tenglik, baynalminallik, hamkorlik, totuvlik, yaxshilik qilish kabi ezgu niyatlar bilan chambarchas bog'langan. Shu bilan birga bu o'ziga xos xususiyatlar umuminsoniy ma'naviyat qirralari bilan ham aloqada va bog'lanishda, dialektik munosabatdadir. O'zbek xalqi ma'naviyati o'z mohiyati mazmuni bilan ota – bobolar ma'naviy merosiga qat'iy suyanadi. Chunki ota – bobolar ma'naviyati kelajak avlodlar qanchalik yangi davrlar talabi bilan yashamasin shu avlodlarga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Ota – bobolar ma'naviyati tarix silsilasidan o'tgan insoniy durdonalardir. O'zbek xalqi ma'naviyati har qanday nigliistik (o'tmishdagi madaniy faoliyaini inkor etuvchi) qarashlar bilan chiqasha olmaydi.

O'zbek xalqi ma'naviyati o'zining mazmun mohiyati bilan zo'ravonlik, kelishmovchilik, soxtakorlik, g'ayriinsoniy holatlar bilan chiqisha olmaydi. Bu xalqning ma'naviyati asosida insoniylik va yana insoniylik yotadi. Shu bilan birga yuqorida ta'kidlaganimizdek, umuminsoniy ma'naviyat va ma'rifatni inkor etmasdan, aksincha, umuminsoniy ma'naviyat va ma'rifatni eozolaydi, uning muhim tomonlarini qabul qiladi, rivojlantiradi.

Milliy ma'naviyatimizni yuksaklikka ko'tarish uchun mustaqillik ulkan imkoniyatlar yaratadi. Ma'naviyatimiz qirralarini rivojlantirgan buyuk allomalarimiz, yozuvchi shoir mutafakkirlarimiz, sarkarda-yu diniy ulamolarimiz faoliyatlaridan namuna olib yangi davr avlodini shakllantirishda jonbozlik ko'rsatish davr talabidir. Ularni beباho merosini qayta tiklab hayotga tatbiq etayapti. Madaniy yodgorliklar, ilmiy manbalardan foydalanishga tuyassar bo'lmoqda. Qadimiy qo'lyozmalarni o'qimoqdalar. Bularning barchasi mustaqillik sharofatidandir.

Demak, endilikdagi vazifa jamiyatimizda istiqomat qilayotgan barcha insonlarni yuksak ma'naviyatli va komil insonlik xislatlariga boy qilib tarbiyalash

davr taqozosidir. Bu ezgu niyatlar asosida ish yuritish har bir ziyolining, ma'rifatli xodimning vazifasidir. Xalqimizning istiqboli uchun jon kuydirish sharaflı vazifadir.

Ma'naviyat va ma'rifatning mazmun-mohiyati:

- milliy an'analari boy madaniy merosimizni o'rganib faqat unga amal qilish emas, balki uni umuminsoniy ma'naviyat bilan mushtarakligini ta'minlab rivojlantirishga ham hissa qo'shishdir.

- yuksak ma'naviyatlilik, xalqimiz farovonligini ta'minlash uchun ham zarurligini unutmasdan mazkur sohada tinmay ish olib borishdir.

- barcha harakatda yuksak ma'naviyatga intilgan holda mustaqillikni mustahkamlash, ijtimoiyadolat me'yorida hamjihatlilikni, barqarorlikni ta'minlashni amalgaloshirish zarurligidir.

- yuksak ma'naviyatli bo'lism uchun diniy ekstremizm, terroristik harakatlardan uzoqlashish, millatchilik va shunga o'xashash insoniyatga zid keladigan unsurlardan xoli bo'lism, yangicha fikrlash e'tiqodli, iymoni butun, irodasi baquvvat, mehr - oqibat tuyg'ulari bilan qurollangan kishilarni tarbiyalash oliy maqcad bo'lmog'idir.

- barkamol avlod qalbiga el – yurtga sadoqat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, insoniylik fazilatlarini singdirish kabilalar aynan ma'naviyat va ma'rifatning mazmun- mohiyatini tashkil qiluvchi sohalar ekanligi unitilmasligi lozimdir.

Shu ko'rsatilgan ezgu niyatlarni amalgaloshirishda ushbu qo'llanma ham jamiyatdagi salbiy nuqsonlarning oldini olishga ko'maklashadi, insonlarni farovon yashashiga zamin bo'lib xizmat qiladi, degan umiddamiz